


SHAVKAT MIRZIYOYEV

HOZIRGI ZAMON
— va —
YANGI O'ZBEKISTON



SHAVKAT MIRZIYOYEV

HOZIRGI ZAMON
—— VA ——
YANGI O‘ZBEKISTON

“O‘ZBEKISTON”
TOSHKENT — 2024





Tarix sinovlaridan o'tgan haqiqat shuki, o'zini o'zgartirishga qodir bo'lgan, vaqtni — imkoniyatga, imkoniyatni — yutuqqa, yutuqni taraqqiyot poydevoriga aylantira olgan xalq — buyuk xalqdir.

Bunday xalq, hech shubhasiz, hayotni ham, ijtimoiy muhitni ham o'zgartira oladi, ko'zlagan murod-maqсадlariga albatta erishadi.

Men ana shunday ulug' e'tiqod bilan yashayotgan xalqqa rahbar bo'lib, odamlarni hayotdan rozi qilish, ularning qalbidagi ezgu orzu-umidlarini ro'yobga chiqarish yo'lida xizmat qilishni o'zim uchun ulkan sharaf va mas'uliyat deb bilaman.

UO'K 323 (575.1)

KBK 66.3(5O')

M 54

- M 54 Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich
Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston [Matn] / Sh.M. Mirziyoyev. —
Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2024. — 512 b.

Ushbu kitobda hozirgi zamonda xalqaro maydonda davom etayotgan murakkab, tahlikali jarayonlar, oqibatini bashorat qilib bo'lmaydigan o'zgarishlar, dunyoning va mamlakatimizning barqaror rivojlanishi yo'lidagi xavf-xatarlar, tahdidlar atroflicha tahlil etilib, O'zbekistonning umumbashariy muammolarni bartaraf etish va barqaror taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan global tashabbuslariga e'tibor qaratiladi.

Shuningdek, asarda mamlakatimiz ichki va tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlari, Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish hamda milliy davlatchiligimiz asoslarini mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar, rivojlanish strategiyalarimizning maqsadi, asosiy tamoyillari, falsafasi, mazmun-mohiyati hamda jonajon Vatanimiz taraqqiyoti istiqbollari haqida atroflicha fikr yuritiladi.

UO'K 323 (575.1)

KBK 66.3(5O')

KIRISH

Kishilik jamiyati o'z taraqqiyotidagi o'ta muhim, hayoti va taqdirida tub burilish yasayotgan yangi davr — XXI asrga qadam qo'yganiga ham chorak asr bo'lmoqda.

Bashariyat o'zining azaliy orzusi — inson qadr-qimmati, huquq va erkinliklari ustuvor bo'lgan, farovonlik va taraqqiyot, imkoniyatlar va ezgu niyatlarning ro'yobga chiqishi uchun zarur sharoitlar yaratilgan, adolat, hamkorlik, tenglik va qonun ustuvorligi kabi demokratik tamoyillar mustahkam qaror topgan, tinchlik-totuvlik va osoyishtalik hukmron bo'lgan, barqaror rivojlanayotgan dunyo sari intilmoqda.

Baxtga qarshi, hozirgi davrda global geosiyosiy va iqtisodiy muammolar tobora avj olib, dunyo tartibotida chuqur transformatsiya jarayonlari yuz bermoqda. Buning ustiga, tovar va xizmatlarni yetkazib berish zanjiridagi uzilishlar, xalqaro savdo hajmining pasayishi, investitsiya oqimlarining kamayishi, iqlim ofatlarining kuchayishi kabi qator muammolar barqaror taraqqiyotga erishish yo'lida jiddiy xavf va tahdidlarni yuzaga keltirmoqda.

XX asrda yuz bergan halokatli ikkita jahon urushining achchiq tajribasidan kelib chiqib, kelgusida o'zaro totuv yashash, xalqaro maydonda tinchlik va xavfsizlikni saqlash hamda taraqqiyot yo'lida kuchlarni birlashtirish bo'yicha erishilgan kelishuvlardan ko'z yumish hollari kuzatilayotganini afsus bilan ta'kidlash joiz.

Bugun yirik davlatlar va turli kuch markazlari o'rtasida **ishonch inqirozi** ortib, hatto iqlim o'zgarishi, ochlik va tengsizlikka qarshi kurashish kabi butun insoniyat taqdiriga daxldor bo'lgan eng dolzarb masalalarda ham o'zaro muloqot izdan chiqayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz.

Keng miqyosli qarama-qarshiliklar, mojaro va ziddiyatlarni kuch ishlatish orqali hal etishga bo'lgan intilishlar oqibatida global xavfsizlik va barqaror taraqqiyotga tahdidlar kun sayin chuqurlashib bormoqda. Ko'z o'ngimizda **dunyoning butunlay yangi, beqaror, xavotirli geosiyosiy va geoiqtisodiy arxitekturasi shakllanmoqda.**

Bunday murakkab sharoitda hech bir mamlakat yakka holda barcha zamonaviy xavf-xatarlarni chetlab o'tib, ularning sabab-oqibatlarini bartaraf etishga qodir emasligi ayni haqiqatdir.

Dunyoda hech bir xalq o'zgalardan uzilib, o'z holicha yashay olmaydi. Bugun paydo bo'layotgan global muammolardan xalos bo'lish uchun nafaqat muayyan mintaqa darajasida, balki umumjahon miqyosida hamjihat harakat qilish taqozo etiladi.

Buning uchun amaliy hamkorlik ruhini qayta tiklash, bashariyat manfaatlarini har qanday ziddiyatlardan yuqori qo'ygan holda, yagona maqsad yo'lida birlashish lozim.

Jahonda hozirgi tarixiy evrilish davrida istalgan mamlakatda yashayotgan sog'lom fikrli insonlarni "Yaqin kelajakda bizni nimalar kutyapti? Kun sayin avj olayotgan turli-tuman mojaro va muammolarning qanday yechimlari mavjud? Umuman, biz ona sayyoramizni kelgusi avlodlarga qay ahvolda meros qoldiramiz?" degan xavotirli savollar bezovta qilayotgani shubhasiz.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2024-yilda bo'lib o'tadigan Kelajak sammitida ham bu kabi og'riqli masalalar kun tartibiga qo'yilib, xalqaro va mintaqaviy taraqqiyotning dolzarb muammolari muhokama qilinishi bejiz emas. Ushbu yo'nalishda BMTning ta'siri va samaradorligini yanada oshirish bilan bog'liq qator savollarga ham javob topish lozim.

Biz hozirgi murakkab va tahlikali zamonda xalqimizning farovon turmushini, yurtimiz va mintaqamizning tinchligi va osoyishtaligini, barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan, fuqarolarimizning

xohish-istaklari asosida ishlab chiqilgan taraqqiyot strategiyalarimizni izchil amalga oshirishga ustuvor ahamiyat qaratishimiz tabiiy holdir.

Avvalo, xalqimiz manfaatlariga javob beradigan ichki va tashqi siyosatimizni qat'iy amalga oshirishimiz zarur. Bu yo'lda duch kelishimiz mumkin bo'lgan barcha to'siq va g'ovlarni hisobga olishimiz, ulardan talafotsiz o'tish choralarini ko'rishimiz, turli og'ir sinovlar va oldindan bashorat qilib bo'lmaydigan xavf-xatarlarni yengib o'tishga qodir bo'lgan milliy davlatchiligimiz asoslarini mustahkamlashimiz talab etiladi.

Binobarin, oldimizda turgan davr — Yangi O'zbekiston uchun siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy-gumanitar va boshqa qator sohalarda tub burilish, ulkan o'zgarishlar va taraqqiyot davriga aylanmog'i lozim. Chunki ayni paytda **xalqimiz g'oyat baland ruh va yuksak ishonch bilan yangicha hayot, yangi taraqqiyot, Uchinchi Renessansga yuzlanib turibdi.**

Shu chog'gacha erishilgan natijalar, kechagi qarash va mezonlar allaqachon tarixga aylangan. Bugungi keskin raqobat pallasida eskicha yondashuvlar asosida rivojlanib bo'lmaydi.

Ertangi kun tarixini bugun yozishimiz shart. Yangi davr uchun yangi g'oya va tashabbuslar, puxta o'ylangan istiqbolli rejalar, yangi marra va g'alabalar kerak bo'ladi.

Buyuk adibimiz Abdulla Qodiriy “Moziyga qarab ish ko'rmoq xayrlidir”, deganida ming karra haq edi. Biz ham o'tmishda yo'l qo'yan xato va kamchiliklarimiz, zahmatkash xalqimiz boshiga tushgan og'ir sinovlar, qolaversa, jahon xalqlari tajribasidan zarur xulosalar chiqarib, jonajon O'zbekistonimizning dunyodagi o'rni va nufuzini yanada yuksaltirish, barcha jabhalarda Vatanimiz shuhrati va sharafini munosib himoya qilish, qo'lga kiritilgan yutuqlarimizni yanada mustahkamlash uchun intilishimiz lozim.

Ishonchim komil, xalqimiz yaqin istiqbolda jahon iqtisodiyoti, madaniyati va siyosatida o'zining munosib o'rnini egallaydi.

Chunki jahon sivilizatsiyasida bizning qadimiy va mustahkam ildizlarimiz bor.

Bu — qadimiy va shonli tariximiz, bebaho qadriyat va an'analarimiz, urf-odatlarimiz, milliy o'zligimizdir. Men ana shu teran ildizlarimizda yurtni, millatni birlashtiradigan buyuk bir g'oyani ko'raman.

Shunday ekan, hech shubha yo'qki, mard va bunyodkor xalqimiz bilan birgalikda Yangi O'zbekistonni — inson qadri ustuvor bo'lgan jamiyat va xalqparvar davlatni albatta barpo etamiz!

INSONIYAT TANLAGAN BARQAROR RIVOJLANISH YO'LI

XX asrning ikkinchi yarmida “sovuq urush”ni boshidan kechirgan insoniyat ayni kezda global iqlim o'zgarishi, ekologik inqirozlar va boshqa ko'plab ijtimoiy-siyosiy muammolarning jabrini tortishga majbur bo'lmoqda. Shu bois XXI asrda umumiy taraqqiyot yo'lini aniqlab olish, barcha xalqlarning manfaatlariga birday xizmat qiladigan maqsadlarni belgilash va unga intilishga kuchli ehtiyoj paydo bo'ldi.

Shundan kelib chiqib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, dunyo mamlakatlari, ularning parlamentlari va fuqarolik jamiyati institutlari, biznes hamjamiyatlari o'rtasidagi uzoq davom etgan “global maslahatlashuvlar” natijasida **barqaror rivojlanish yo'li — bashariyat uchun yagona to'g'ri yo'l**, degan umumiy xulosaga kelinib, uning ustuvor mezonlari belgilab olindi.

Bunday ezgu maqsadlar dastlab, BMTning **Mingyillik rivojlanish deklaratsiyasida**, keyinchalik “**2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish kun tartibi**” deb nomlangan salmoqli hujjatda belgilab qo'yildi. Xususan, global ahamiyatga ega bo'lgan “Kun tartibi — 2030”ning qisqa va o'rta muddatlarga mo'ljallangan **17 ta barqaror rivojlanish maqsadlari** dunyoning 193 mamlakati qatorida O'zbekiston tomonidan ham qabul qilindi.

Ushbu maqsadlar insoniyatning:

- inson qadr-qimmati, huquq va erkinliklari samarali himoyalangan va umumbashariy qadriyat darajasiga ko'tarilgan, erkinlik, tenglik va kamsitilmaslik, adolat va qonun ustuvorligi, birdamlik va bag'rikenglik kabi umume'tirof etilgan qator tamoyillar amal qiladigan;

- yuksak inson kapitali, butun umr davomida uzluksiz, sifatli ta'lim, keng qamrovli sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoyadan foydalanish, jismoniy, ruhiy va aqliy kamolotga erishish hamda o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishi uchun teng imkoniyatlar yaratilgan;

- aholi o'z farzandlarining ravnaqiga sarmoya kiritadigan, bolalar va xotin-qizlar huquqlari himoyalangan, ularga nisbatan zo'ravonlik va har qanday majburiy mehnatga yo'l qo'yilmaydigan, ularning sog'lom va barkamol rivojlanishi uchun zarur ehtiyojlari ta'minlangan;

- inson, jamiyat va davlatlarning tabiat bilan uyg'un ravishda taraqqiyoti, hozirgi va kelajak avlodlarning tabiat, ayniqsa, cheklangan suv resurslaridan bir xilda va adolatli foydalanish huquqlari, har kimning ishonchli, barqaror va zamonaviy hamda "yashil energiya"dan foydalanishi ta'minlanadigan, "yashil taraqqiyot" tamoyili amal qiladigan, iqlim o'zgarishi va uning oqibatlariga qarshi kurashish uchun tezkor choralar ko'riladigan;

- mamlakatlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishi, sanoat sohalari va innovatsion taraqqiyoti ta'minlanadigan, barqaror infratuzilmaga ega, qashshoqlik, muhtojlik, ishsizlik va ochlikdan xoli, xavfsiz va arzon, hamyonbop oziq-ovqat mahsulotlari yetarli bo'lgan;

- tinch, adolatli, ochiq va inkluziv jamiyatlarga ega, qo'rquv va zo'ravonlikdan xoli, tinchlik va xavfsizlik ta'minlangan, insoniyat kelajagi, taqdiri uchun umumiy javobgarlikni his qilgan holda global va mintaqaviy xalqaro samarali sheriklik yo'lga qo'yilgan hamda xalqlarning farovonlik darajasi tobora yuksalib borish xususiyatlariga ega **dunyo haqidagi orzusini ro'yobga chiqarishga qaratilgan.**

Shuningdek, "Kun tartibi — 2030" hujjatida tinchlik va xavfsizlikni ta'minlamasdan turib izchil taraqqiyotga erishib bo'lmasligi, barqaror rivojlanish — tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashning zarur va muhim sharti ekanligi aniq-ravshan aks ettirilgan. Jahon hamjamiyatining o'zaro bog'liqligi haddi a'losiga yetgan hozirgi globallashtayotgan dunyoda har

qanday muammo va xavf-xatarlarni bartaraf etish uchun birgalikda faol ish olib borish zarurligi ham nazarda tutilgan.

Bir so'z bilan aytganda, **Barqaror rivojlanish maqsadlari inson qadri va uning shaxsiy, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ekologik va rivojlanish huquqlarini ta'minlash bilan bog'liq zamonaviy qarashlarni o'zida jamlagani bilan ham ahamiyatlidir.**

Bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ushbu huquqlar barqaror rivojlanishning uch muhim sharti hisoblangan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik sohalarda ham o'zaro muvozanatli, integratsiyalashgan va kompleks yondashuvga asoslangan taraqqiyotni nazarda tutadi. Ushbu sohalardagi muammolarga kompleks yondashish, hozirgi va kelajak avlodlarning musaffo atrof-muhitga ega bo'lish, mavjud tabiiy boyliklar va resurslardan foydalanishga oid huquqlarini ta'minlash muhim hisoblanadi.

Bunda kishilarning qarorlarni qabul qilishda faol ishtirok etishi hamda imkoniyat va tanlovlardan teng foydalanishiga sharoit yaratib, **“hech kimni unutmazlik va ortda qoldirmazlik”** tamoyilini hayotga izchil tatbiq etishning ham ahamiyati beqiyos.

Insonning qadr-qimmatini, uning huquqlari, ayniqsa, rivojlanish huquqini hurmat qilish, imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish g'oyasi — barcha BRMLarni o'zaro bog'lab turuvchi asosiy halqa hisoblanib, ularning uyg'unligini ta'minlashga, bir-birini to'ldirishi, mustahkamlashiga xizmat qiladi.

Shubhasiz, ushbu maqsadlarga tinch, adolatli, har qanday ijtimoiy to'siqlardan xoli, inkluziv va ochiq fuqarolik jamiyatini barpo etish, hokimiyat organlarining barcha bo'g'inlarida samarali boshqaruv, oshkorlik va shaffoflik tamoyillarini joriy qilish orqali erishish mumkin.

Biz “Kun tartibi — 2030”da belgilangan barcha majburiyatlarga to'la va qat'iy amal qilib kelmoqdamiz.

Mamlakatimizda bu borada keng ko'lamli va kompleks tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Muhimi, O'zbekistonning

BRM sohasida erishayotgan yutuq va marralari xalqaro hamjamiyat tomonidan ham e'tirof etilmoqda. Xususan, 2020 va 2023-yillarda O'zbekiston tomonidan BMTga kiritilgan Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bo'yicha **ixtiyoriy milliy ma'ruzalarning** dunyo miqyosida keng muhokama qilingani ham shundan dalolat beradi.

Avvalambor, **barqaror rivojlanish tamoyillari, barqaror rivojlanish huquqi va BRMlarning yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida aks ettirilishi** xalqaro hamjamiyat, xususan, BMT tomonidan yuksak baholandi. Gap shundaki, asosiy qonunimizda erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik tamoyillari muhrlab qo'yildi. Shuningdek, yangilangan Konstitutsiyamizda davlatning quyidagi qator majburiyatlari ham belgilab berildi:

- barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhit holatini yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularni hayotga tatbiq etish;
- uzluksiz ta'lim tizimi rivojini ta'minlash, maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini ravnaq toptirish uchun shart-sharoitlar yaratish, bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlash;
- sog'liqni saqlash tizimini, uning davlat va nodavlat shakllarini, tibbiy sug'urta turlarini rivojlantirish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta'minlash choralarini ko'rish.

Xalqaro ekspertlar yangi tahrirdagi Asosiy qonunimiz O'zbekistonning barqaror rivojlanishini ta'minlashda mustahkam huquqiy asos bo'lib xizmat qilishini yakdillik bilan e'tirof etishmoqda.

Shuningdek, BRMlarda belgilangan vazifalar respublikamizda so'ngi 7 yilda qabul qilingan **uchta kompleks taraqqiyot strategiyamiz** — 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, "O'zbekis-

ton — 2030” strategiyasi hamda **qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda ham o‘z aksini topdi.**

Biz BRMLarga erishish yo‘lida ham tizimli ishlarni amalga oshirdik. Jumladan, qabul qilingan Milliy barqaror rivojlanish maqsadlarini hayotga joriy etish yuzasidan Parlament va Hukumat darajasida maxsus komissiyalar tuzildi.

Ular Milliy barqaror rivojlanish maqsadlarini kompleks, tarmoq va mintaqaviy rivojlanish strategiyasi va dasturlariga integratsiya qilish yo‘lida fuqarolar, parlament, hukumat, fuqarolik jamiyati institutlari va biznes hamjamiyati o‘rtasida samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, bu yo‘nalishda ta’sirchan parlament va jamoatchilik nazorati o‘rnatilib, ochiqlik va oshkoralik ta’minlanayotgani, xolis muhokamalar tashkil etilayotgani har jihatdan foydali bo‘lmoqda.

Natijada **O‘zbekiston 2023-yili xalqaro BRM indeksida (SDG index)** 71,1 ball bilan 166 ta mamlakat orasida 69-o‘rinni egallab, 2022-yilga nisbatan 8 pog‘ona yuqorilashga erishdi. Bunda mamlakatimizda barqaror rivojlanishning 10 ta maqsadi — kambag‘allikni qisqartirish, gender tenglik, toza suv va sanitariya, barqaror shaharlar va aholi punktlari, tinchlik, adolatli va samarali institutlar hamda barqaror taraqqiyot maqsadida hamkorlik bo‘yicha ijobiy o‘sishga erishilgan.

Shuningdek, O‘zbekistonning “yaxshi va samarali boshqaruv”, “davlat tashkilotlari faoliyati ochiqligi va oshkoraligi”, “hech kimni ortda qoldirmaslik tamoyiliga asoslanib qarorlar qabul qilish”, inson huquq va erkinliklarini ta’minlashda fuqarolik jamiyati institutlari rolini oshirish borasidagi faoliyati e’tirof etilgan.

Ayollarning huquq va manfaatlarini to‘liq ta’minlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish masalalari yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz, “Taraqqiyot strategiyasi — 2030” va O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish Strategiyasi kabi konseptual hujjatlarda o‘zining to‘liq ifodasini topgan.

So'nggi yetti yilda O'zbekistonda xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi 27 foizdan 35 foizga ko'tarildi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining 32 foizi, Senat a'zolarining 25 foizi ayollardan iborat. Bugun har bir mahallamizda ham ularning o'z vakillari bor.

Ishbilarmon xotin-qizlar safi ikki barobar kengayib, o'z biznesini yo'lga qo'ygan ayollar soni 205 mingdan oshdi. Yuz minglab ayollar kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitildi. Salkam yarim million nafar singillarimiz ish bilan ta'minlandi. Hozirgi kunda oliygohlarda ta'lim olayotgan talabalarning yarmidan ziyodini qizlar tashkil etmoqda.

Bu borada olib borayotgan tizimli chora-tadbirlarimiz xalqaro hamjamiyat tomonidan ham munosib e'tirof etilmoqda. Xususan, Jahon banki indeksida O'zbekiston gender tenglik sohasida dunyodagi eng tez rivojlanayotgan 5 ta mamlakat qatorida qayd etilgani, ochiq gender ma'lumotlar indeksida eng yaxshi 20 ta davlat qatoridan joy olgani sohadagi siyosatimizning xalqaro e'tirofi deyishimiz mumkin.

Shu o'rinda BRMLarga erishish uchun global va mintaqaviy miqyosda, davlatlar va hududlar darajasida hamda joylarda fuqarolar bilan ishlashga alohida e'tibor qaratilganini ta'kidlash o'rinlidir. Bunda barqaror rivojlanish sohasidagi ta'lim va jamiyatda barqaror rivojlanish madaniyatini shakllantirish masalalari ham alohida ahamiyatga ega. E'tiborli jihat, biz BRMLarga erishish borasida birgina BMT **Bosh Assambleyasining 10 dan ortiq** rezolutsiyasi qabul qilinishiga erishdik.

Xususan, **“Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni jadallashtirishda parlamentlar rolini kuchaytirish to'g'risida”gi rezolutsiyaning** ushbu tuzilmada bir ovozdan ma'qullanishi hamda **Parlamentlararo Ittifoq** tomonidan e'tirof etilishini biz Yangi O'zbekistonning bu yo'nalishdagi qat'iy irodasi, tashabbus va intilishlariga berilgan munosib baho sifatida qabul qilamiz. Ushbu rezolutsiya BMT tarixida dunyo mamlakatlari parlamentlari faoliyatiga

oid qabul qilingan ilk maxsus hujjat sifatida baholangani ham uning qadri va ahamiyati nechog'li yuqori ekanligini ko'rsatib turibdi.

Albatta, mazkur rezolutsiyaning qabul qilinishi shu paytga qadar, asosan, ijro hokimiyatiga taalluqli bo'lgan hujjatlarni qabul qilish bilan shug'ullangan BMT faoliyatida ham o'ziga xos yangilik bo'ldi, deyish mumkin.

Rezolutsiyada dunyo mamlakatlari parlamentlarining BRMLarga erishish borasidagi faoliyatini qo'llab-quvvatlash, xotin-qizlarning qonun chiqaruvchi organlar ishida va parlament jarayonlarida to'liq va teng huquqli ishtirokiga ko'maklashish, gender tenglikni ta'minlash, parlamentlararo hamkorlikni yo'lga qo'yish, o'zaro tajriba almashish va ta'lim olish mexanizmlarini rivojlantirish kabi ustuvor yo'nalishlar belgilangan.

O'zbekiston BMT Bosh Assambleyasining **Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda fuqarolik jamiyati ishtirokini kengaytirish va rolini mustahkamlash** to'g'risidagi rezolutsiyasi loyihasini ham xalqaro hamjamiyat muhokamasiga kiritdi.

Xo'sh, nega ushbu masalalarga urg'u bermoqdamiz?

Chunki O'zbekiston va jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, barqaror rivojlanishga faqatgina barcha manfaatdor tomonlar, shu jumladan, hukumatlar, parlamentlar, fuqarolar, fuqarolik jamiyati institutlari, ishbilarmon doiralar, shuningdek, xalqaro tashkilotlar hamda jamoalarning faol ishtiroki va hamkorligi orqaligina erishish mumkin.

Biz, o'rni kelganda, O'zbekistonning milliy BRMLarga erishish borasidagi sa'y-harakatlarini yanada kengroq tahlil qilamiz.

Afsuski, dunyo miqyosidagi bunday muhim rejalarni ro'yobga chiqarish bobida muammolar ham yo'q emas. BMTning **barqaror rivojlanish bo'yicha yuqori darajadagi forumi siyosiy deklaratsiyasida** ta'kidlanishicha, global barqaror rivojlanish maqsadlarida belgilangan 140 ga yaqin aniq vazifaning atigi 12 foizigina rejaga muvofiq

bajarilayotgan bo'lsa, yarmidan ko'prog'ini amalga oshirishda o'rnatilgan ko'rsatkichlardan ortda qolish holati kuzatilmoqda. Taxminan 30 foiz holatda esa umuman hech narsa o'zgarmagan.

Biz, BMT Bosh kotibi A. Guterrish, qator davlatlar va xalqaro tashkilotlar rahbarlari, yuqori martabali amaldorlar, ekspertlar bilan ikki va ko'p tomonlama formatlarda o'tkazilgan muloqotlarda bunday holatning sabablari va boshqa bir qator masalalar xususida atroflicha fikr almashdik. E'tiborli jihati, ushbu masalalarda ular bilan qarashlarimiz mushtarak yoki o'xshash ekanligi ayon bo'ldi.

Ayniqsa, dunyoda yuzaga kelayotgan yangi xavf-xatarlar bunday ezgu maqsadlarga erishish yo'lida jiddiy to'siq bo'layotgani alohida qayd etildi. Xo'sh, bular nimalardan iborat? Quyida shu haqda batafsil to'xtalib o'tamiz.

Barqaror rivojlanish yo'lidagi xavf-xatar va tahdidlar

Birinchidan. Tobora avj olayotgan dunyoda geosiyosiy va geoiqtisodiy qarama-qarshiliklar keskinlashmoqda, xalqaro munosabatlar tizimida yuzaga kelayotgan mojaro va ziddiyatlarni kuch ishlatish orqali hal etishga bo'lgan intilishlar kuchaymoqda.

Bugun jahonda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplaridan chekinish, xavf-xatar va tahdidlar yechimiga biryoqlama qarash kabi holatlar kuzatilmoqda. Ayniqsa, har bir xalqning haq-huquqlarini hurmat qilish, suveren mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, ularning hududiy yaxlitligi va mustaqilligiga qarshi tahdid yoki kuch ishlatishdan tiyilish, yuzaga kelgan har qanday nizoni muzokaralar yo'li bilan hal etish borasida qator savollar to'planib qolgan.

Shuningdek, aksariyat hollarda adolat, o'zaro hurmat, tenglik, hamkorlik va hamjihatlik tamoyillariga panja orasidan qarash holatlari hamda o'zaro ishonch, bir-birini tushunish, ochiq va konstruktiv muloqot bobida inqiroz kuzatilmoqda. **Ilgari o'zining maqsad va manfaatlarini, asosan, diplomatiya va siyosat yo'li bilan himoya qilib kelgan qudratli markazlar endi ochiqchasiga bosim o'tkazish, qarama-qarshilik va to'qnashuvlar yo'liga o'tganiga, keskinlik va mojarolar tobora kuchayib borayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz.**

Achinarlisi, xalqaro hamjamiyat tomonidan oliy qadriyat sifatida tan olingan inson, uning hayoti, erkinlik va huquqlarini poymol etish oddiy holga aylanmoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda dunyoda qurolli to'qnashuvlar yuz berayotgan hududlar soni 55 taga yetgan, zo'ravonlik holatlari soni esa 28 foizga ko'paygan.

Afsuski, qurolli mojarolar oqibatida halok bo'lganlar soni 14 foizga ko'paygan. Ayniqsa, qurbon bo'lganlarning aksariyatini tinch aholi vakillari, xususan, ayollar, bolalar va keksalar tashkil qilmoqda. Bunday taloto'plar oqibatida dunyo aholisining 2,3 foizi o'z yurtini tashlab ketishga majbur bo'lgan. Bu — Ikkinchi jahon urushidan beri eng yuqori ko'rsatkichdir. Xullas, vaziyat kun sayin izdan chiqib, chigallashib bormoqda.

Xalqaro ekspertlarning tahlillariga ko'ra, o'tgan yil dunyodagi urush va qurolli nizolar uchun 17 trillion AQSH dollari miqdorida mablag' sarflangan. Agar bu pul insoniyat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan ilm-fan, ta'lim, qurilish, sog'liqni saqlash va boshqa sohalar uchun sarflanganida nechog'li katta samaralar berishi mumkin edi.

Vaholanki, ushbu mablag'ning atigi 6 foizi bir yil davomida dunyoda ochlik va savodsizlikka barham berish, saraton kasalligiga qarshi kurashish yoki insoniyatni toza ichimlik suvi bilan ta'minlash uchun yetarli bo'lardi.

Chindan ham, bugun ko'z o'ngimizda dunyoning siyosiy arxitekturasi butunlay o'zgarmoqda. Yuzaga kelgan yangi geosiyosiy voqelik jahon va mintaqalar barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday inqirozli holatlar Markaziy Osiyodagi mintaqaviy integratsiya jarayonlariga ham bevosita ta'sir ko'rsatayotganidan ko'z yumib bo'lmaydi.

Ikkinchidan. Ona sayyoramizda iqlim o'zgarishi va ekologik vaziyatning keskinlashuvi, bioxilma-xillikning qisqarishi, atrof-muhit ifloslanishi va tabiiy resurslarning kamayishi bilan bog'liq. Ochig'i, bugun ekologik xatarlar kun sayin o'zining "halokatli nuqtasi"ga yaqinlashmoqda.

Barqaror rivojlanish yo'lida eng asosiy tahdidlardan biriga aylangan ushbu masala ayni paytda, hatto dunyodagi geosiyosiy vaziyatga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Hozir dunyoda 3,6 milliard kishi iqlim o'zgarishidan sezilarli darajada aziyat chekayotgan hududlarda yashamoqda, 2 milliard odam esa toza ichimlik suvidan bahramand bo'la olmayapti. Buning ustiga, har yili 600 million kishi sifatsiz oziq-ovqat mahsulotlari orqali yuqadigan xavfli kasalliklardan jabr ko'rmoqda. Havoning haddan tashqari isib ketishi bilan bog'liq o'lim darajasi ham tobora ko'payib bormoqda.

O'zbekiston va butun Markaziy Osiyo mintaqasi dunyo bo'yicha iqlim o'zgarishidan eng ko'p zarar ko'rayotgan mintaqalardan biri hisoblanishi hech kimga sir emas. Ko'p yillik meteorologik kuzatishlar so'nggi 30 yilda mintaqamizda favqulodda jaziramali kunlar soni 2 marta ko'paygani, o'rtacha havo haroratining oshib borishi ham dunyodagi umumiy ko'rsatkichlardan 2 barobar yuqori ekanligi hamda tog'lardagi muzliklar maydonining uchdan bir qismi erib bitganini ko'rsatmoqda.

Bunday muammolarni tizimli hal etish choralari ko'rilmasa, yaqin yigirma yilda mintaqamizdagi ikkita yirik daryo — Amudaryo va Sirdaryoning suvi keskin kamayishi bashorat qilinmoqda. Bu davrda

aholi jon boshiga suv bilan ta'minlanish darajasi 25 foizga, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi esa 40 foizga qisqargani holda, ayrim hududlarda suv resurslariga bo'lgan ehtiyoj uch barobar oshishiga olib kelishi mumkin.

Tahlillarga ko'ra, suv taqchilligi tufayli mintaqamiz davlatlari hozirning o'zida har yili qariyb 2 milliard AQSH dollari miqdorida zarar ko'rmoqda. Yillar o'tib ushbu iqtisodiy zarar yalpi mintaqaviy mahsulotning 11 foiziga yetishi mumkin. Ya'ni mintaqamizda suv taqchilligi muammosi allaqachon muqarrar tus olgani va bundan buyon tobora chuqurlashib borishi achchiq haqiqatdir.

Turli tabiiy ofatlar, shiddatli demografik o'sish, urbanizatsiya jarayonlari va sanoatlashuv natijasida yuzaga kelayotgan texnogen omillar ham mintaqada suv ta'minoti va ekologiya bilan bog'liq vaziyatga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bu muammolarni hal qilish masalasi O'zbekiston uchun dolzarb ahamiyatga ega. **Negaki, bizning mamlakatimiz dunyodagi eng katta ekologik ofat — Orol fojiasini bevosita o'z boshidan o'tkazmoqda.** Xalqimiz global isish, ekologik muvozanat buzilishi bilan bog'liq anomal ob-havo sharoitlari, tez-tez yuz berayotgan qurg'oqchilik va chang bo'ronlari, yerlarning shiddat bilan degradatsiyaga uchrashi va cho'llanishi, bioxilma-xillikning tobora qisqarib borishi, qishloq xo'jaligi hosildorligining pasayishi, ichimlik suv taqchilligi, havoning ifloslanishi shaklida jiddiy tahdidlar bilan yuzma-yuz yashamoqda.

Uchinchidan. Insoniyat boshiga kutilmaganda yopirilib, millionlab kishilarning hayotiga zomin bo'lgan **COVID-19 koronavirus pandemiyasi** dunyo sog'liqni saqlash tizimi va infratuzilmalarining bunday ofatlarga, yuqumli kasalliklarning yangi turlariga qarshi kurashishga tayyor emasligini yaqqol namoyish etdi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ekspertlarining tahlillariga ko'ra, malakali shifokorlar, tibbiy-ijtimoiy xodimlar yetishmasligi, eng zarur

dori-darmon vositalari, tibbiy anjomlar va texnika vositalarining misli ko'rilmagan darajada tanqisligi, innovatsion dorilar narxining o'ta yuqori ekanligi, birlamchi tibbiy yordam tizimi va kasalliklar profilaktikasiga e'tibor susayib ketganligi, sohaga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va mavjud muammolarning "raqamli yechimi"ni topishga yetarli e'tibor qaratilmayotgani ushbu sohada eng katta muammolar sirasiga kiradi.

Buning oqibatida, dunyo miqyosida o'rtacha umr 72,8 yoshdan 71 yoshga qisqargan. Ayrim mintaqalarda esa 2016–2020-yillar davomida onalar o'limi 17 foiz ko'paygan.

Shuningdek, 2010-yildan buyon sohaga kiritilayotgan investitsiyalar oqimining sezilarli darajada kamayishi hamda dunyo aholisining tibbiy xizmatlarga to'g'ridan to'g'ri xarajatlari keskin oshishi natijasida turli mintaqalarda 2 foizdan 40 foizgacha uy xo'jaliklari sog'liq bilan bog'liq muammolar tufayli qashshoqlikka yuz tutgan. Ular, hatto shifokor ko'rigidan o'tish va zarur dori-darmonlarni sotib olish uchun ham yetarli mablag'ga ega emas.

Bu esa, o'z navbatida, odamlarning sog'liqni saqlash tizimi va uning vakillariga bo'lgan ishonchi sezilarli darajada susayishiga olib kelmoqda. **Zero, insonlarning ishonchi, sohadagi o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlashi va bu jarayondagi ishtiroki belgilangan maqsad va marralarga erishishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.**

To'rtinchidan. Global iqtisodiyotda tizimli uzilishlar vujudga kelishi, savdo, investitsiya va innovatsiya sohalarida erkin almashish yo'lida yangi to'siqlar paydo bo'lishi, tovarlar va xizmatlar aylanishining izdan chiqishi, **energetik xavfsizlikka bo'lgan tahdidlarning oshishi** tobora yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Yer yuzida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy inqiroz va nizolar davom etayotgan bir paytda yuz bergan pandemiya jahon taraqqiyotini nafaqat sekinlashtirdi, balki ba'zi sohalar faoliyatini deyarli izdan chiqarib yubordi.

Jahon iqtisodiyotining o'sish sur'atlari so'nggi uch yil davomida pasaymoqda (2021-yildagi 6,2 foizdan — 2023-yil 2,6 foizga). To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning ham kamayishi kuzatilmoqda. Jumladan, 2023-yilda rivojlanayotgan davlatlarga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmi 9 foiz kamaygan.

Shuningdek, turli mintaqalar va davlatlar o'rtasida, mamlakatlar ichida tengsizlik tobora oshib bormoqda.

BMT va xalqaro bank-moliya tashkilotlari mutaxassislari ma'lumotlariga ko'ra, bugun dunyo aholisining atigi 10 foizi global daromadning 52 foiziga egalik qiladi, 1 milliard 200 million kishi kambag'allik sharoitida yashamoqda, ayollar mavjud ish o'rinlarining atigi 35 foizini band qilgan. Boy mamlakatlarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot hajmi 130 ming dollardan ohsa, kambag'al davlatlarda ushbu ko'rsatkich o'rtacha 600 dollarni tashkil etadi. Dunyo aholisining 53,1 foizi, bolalarning 65 foizi ijtimoiy himoyalangan, nogironligi bo'lgan shaxslarning 78 foizi tegishli nafaqalar bilan ta'minlanmagan.

Bir so'z bilan aytganda, adolat va tenglik tamoyillarining bunday buzilishi global Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, "hech kimni ortda qoldirmaslik" tamoyili amal qiladigan inkluziv jamiyatlarni shakllantirish hamda ijtimoiy yordamga muhtoj aholi qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu tariqa jamiyatlarda ijtimoiy barqarorlikka putur yetib, turli qatlamlar o'rtasida qarama-qarshilik kuchayib bormoqda.

Beshinchidan. Oziq-ovqat xavfsizligiga tahdidlar halokatli tus olishi oqibatida ko'plab mintaqalarda ijtimoiy larzalar va beqarorlik holatlari sodir bo'lmoqda.

Afsuski, keyingi paytda koronavirus pandemiyasi, jahon siyosati va iqtisodiyotidagi inqirozlar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib berish tizimida zanjirlarning uzilishi va narxlarning oshishiga sabab bo'ldi.

Bundan, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar jabr ko'rmoqda. Global iqlim o'zgarishlari, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tizimiga investitsiya hajmining kamayishi vaziyatni yanada og'irlashtirmoqda.

Butunjahon oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, 2023-yilda 59 mamlakatda istiqomat qiladigan 281,6 milliondan ortiq aholi oziq-ovqat tanqisligi va ochlikdan aziyat chekkan. Bunday jabrdiyda insonlar soni 2022-yilga nisbatan 24 million nafarga oshgan.

Ekspertlar yaqin va o'rta kelajakda ushbu tendensiya davom etishi va 2030-yilga borib dunyo aholisining 7–8 foizi ochlik balosiga duchor bo'lishi hamda o'ta qashshoq holga tushib qolishini taxmin qilishmoqda. Ya'ni jahonda ochlikni butunlay bartaraf etish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalasi insoniyat uchun qo'l yetmas orzuga aylanib qolishi mumkin.

Achinarlisi, dunyo bo'yicha ochlikdan qiynalayotgan aholining yarmidan ko'pi Osiyo qit'asida yashamoqda. Qit'amizning ko'plab davlatlari kundalik iste'mol mahsulotlarining asosiy import qiluvchilari hisoblanadi va ular oziq-ovqat inqirozining oqibatlarini kuchli his etmoqda. Qizig'i shundaki, aynan ushbu mamlakatlar jahon bo'yicha yetakchi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi davlatlar hisoblanadi.

Dunyoda an'anaviy savdo va transport-logistika zanjirlarining uzilishi, investitsiya va texnologiyalardan foydalanish borasidagi cheklovlar ham global oziq-ovqat xavfsizligiga putur yetkazmoqda.

Shu bois bugun global logistika zanjirlari va transport yo'laklarini rivojlantirish va diversifikatsiya qilish, yagona tranzit tarmog'ini shakllantirish nihoyatda dolzarb hisoblanadi.

Xususan, bizning mintaqamiz uchun G'arb, Janub va Sharq yo'nalishlarida transport bog'liqligini mustahkamlash, Shimol-Janub va Sharq-G'arb magistral yo'llarini, Osiyo-Tinch okeani, Janubiy Osiyo,

Yaqin Sharq hamda Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining yirik bozorlari bilan bog'laydigan transport yo'laklarini rivojlantirish, Transafg'on temiryo'lini barpo etishning ahamiyati tobora oshmoqda.

Ushbu xalqaro loyihalarni amalga oshirish orqali yuk tashish hajmini bir necha barobar ko'paytirish, transport xarajatlarini esa uchdan bir qismga kamaytirish mumkin. Natijada qadimda **mintaqamizdan o'tgan G'arbni Sharq va Shimolni Janub bilan bog'lagan Buyuk Ipak yo'li o'zining zamonaviy ko'p tarmoqli transport yo'lagi sifatida namoyon etadi.**

Oltinchidan. To'rtinchi sanoat inqilobiga jadal sur'atlarda o'tilishi, **raqamli texnologiyalar**, jumladan, "buyumlar interneti", **robototexnika**, katta ma'lumotlar tahlili va **kiberfizik tizimlarning** hayotda keng qo'llanilishi, **sun'iy intellektning rivojlanishi va insoniyat hayotining barcha jabhalariga jadal kirib kelishi jarayonida ham qator yangi tahdidlar vujudga kelmoqda.**

Albatta, ushbu texnologiyalar davlatlar va butun insoniyatning barqaror rivojlanishi, hattoki ularning kelajagi va taqdiriga ijobiy ta'sir ko'rsatishini inkor etib bo'lmaydi. Bunday yangiliklar sog'liqni saqlash va ta'lim tizimlari rivojini yangi bosqichga olib chiqish, iqlim o'zgarishiga qarshi samarali kurashish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda inkluziv, yashil, barqaror rivojlanayotgan iqtisodiyotga ega jamiyatlarni qurishda ulkan ahamiyatga ega kuchli vositadir.

Biroq qarorlar qabul qiluvchi doiralar, olimlar va mutaxassislar ushbu texnologiyalar, ayniqsa, sun'iy intellekt insoniyat kelajagiga faqatgina ijobiy ta'sir ko'rsatadi, degan fikrga unchalik ham qo'shilmaydi. Ular bu kabi zamonaviy texnologiyalar kelajakda inson nazoratidan chiqib ketib, bashariyat taqdiriga daxl qilishi va ortga qaytarib bo'lmaydigan oqibatlariga sabab bo'lishidan xavotirlanib, bu borada qizg'in bahs-munozaralar olib borishmoqda.

Xalqaro ekspertlarning ta'kidlashicha, ushbu texnologiyalarning inson qadr-qimmati, uning huquq va erkinliklari, shaxsiy hayoti

daxlsizligiga zarar yetkazmasligi, balki ularni ta'minlashga xizmat qilishi bilan bog'liq yechimini kutayotgan qator masalalar mavjud.

Xususan, hozirgi paytda dunyoning deyarli barcha mamlakatlari kiberterrorizm muammosi bilan to'qnashmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda insoniyat, ijtimoiy, iqtisodiy, moliyaviy va boshqaruv tuzilmalari har 5–17 soniyada bir bor kiberhujumga uchramoqda. O'zbekiston axborot tizimlariga ham haftasiga 32 mingdan ortiq kibertahdidlar qayd etilmoqda.

Shu bilan birga, ushbu texnologiyalar kam sonli mamlakatlar va kompaniyalarda to'planishini ham esdan chiqarmaslik lozim. Demak, rivojlangan iqtisod sun'iy intellektdan ko'proq foyda oladi. Bu esa global miqyosda va mamlakatlar o'rtasida tengsizlikni, dunyodagi texnologik va raqamli bo'linishni yanada kuchaytirishi mumkin.

Shuningdek, jahonda sun'iy intellekt va zamonaviy texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan bo'lsa, ushbu sohaga oid xalqaro huquq haligacha yetarli darajada tartibga solinmagan. Sohani huquqiy jihatdan tartibga solish, kibermakonda xavfsizlikni ta'minlash borasida universal yondashuv ham shakllanmagan. Shu bois xalqaro ekspertlar tomonidan bunday tizimlarni sezilarli darajada cheklash va hattoki butunlay taqiqlash haqidagi takliflar ham ilgari surilmoqda.

Qisqa qilib aytganda, bu borada tarozining bir pallasiga bashariyat taraqqiyoti, inson, jamiyat va davlatlarning barqaror rivojlanishiga ko'maklashish kabi ezgu maqsadlar qo'yilgan bo'lsa, ikkinchi pallasida inson, ayniqsa, bolalarning huquqlari va xavfsizligiga daxl qilayotgan va kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tahdidlarning oldini olish kabi dolzarb masalalar turibdi.

Yettinchidan. Shiddat bilan o'zgarayotgan dunyoda har qanday davlat va jamiyatni ich-ichidan yemiradigan korrupsiya balosi Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga qaratilgan rejalarni ro'yobga chiqarishda jiddiy to'siq bo'lib turibdi.

Bashariyat tarixiga nazar solsak, turli davrlarda korrupsiya illati, hatto eng qudratli davlatlarni ham ichidan yemirib, oxir-oqibat, halokatga giriftor qilganiga guvoh bo'lamiz. Bugungi kunda ham mazkur illat har qanday jamiyatning ma'naviy asoslariga putur yetkazib, iqtisodiy taraqqiyotni izdan chiqaradigan qonun ustuvorligi va xalqning davlat siyosatiga ishonchini pasaytiradigan, demokratik institutlar rivojiga xalaqit qiluvchi xatarli umumbashariy tahdidlardan biri bo'lib qolmoqda.

Ochiq aytish kerak, dunyoda hech bir davlat, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy boshqaruv usulidan qat'i nazar, korrupsiya muammosidan to'liq himoyalangan emas. Tahlillarga ko'ra, hozirda jahon iqtisodiyoti korrupsiya tufayli har yili qariyb 3 trillion AQSH dollari miqdorida zarar ko'rmoqda. Biroq bu taxminiy hisob-kitoblar bo'lib, iqtisodiy yo'qotishlarning aniq hajmini to'liq ifoda eta olmaydi. **Eng asosiysi, uning jamiyatga keltiradigan ma'naviy zarari ko'lamini hech bir mezon bilan o'lchab bo'lmaydi.**

Bugungi kunda korrupsiya turli shakllarda, jumladan, poraxo'rlik, tovlamachilik, davlat resurslarini noqonuniy taqsimlash, qonunga xilof ravishda xususiylashtirish, asossiz ravishda imtiyozli kredit va buyurtmalar berish kabi ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda.

Transmilliy xarakterga ega bo'lgan ushbu muammodan xalos bo'lish uchun nafaqat mustahkam va samarali xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, balki bu borada umummintaqaviy qarashlar tizimini shakllantirish va unga qarshi kurashish tizimlarini muvofiqlashtirish talab etiladi.

Korrupsiya faqatgina jinoyat yoki huquqbuzarlik emas, balki axloqiy buzuqlik hamdir. Shuning uchun **korrupsiyaga qarshi kurashish har bir sof vijdonli insonning, demokratik jamiyat va davlatning muqaddas burchi hisoblanadi. Jamiyatda korrupsiyaga nisbatan toqatsizlik, Konstitutsiya va qonunlarni chinakam ma'noda hurmat qilish madaniyatini shakllantirish dolzarb ahamiyatga ega.**

Sakkizinchidan. Dunyoning turli mintaqalarida o'zaro shafqatsiz raqobat, millatlararo ziddiyatlar, diniy toqatsizlik, ayirmachilik, separatizm, millatchilik, radikalizm, ekstremizm va terrorizm kabi qator tahdidlar tobora kuchayib, insoniyatning tinch-totuv hayot kechirishiga, barqaror rivojlanishga jiddiy xavf tug'dirmoqda.

Terrorizm global indeksiga ko'ra, 2007–2022-yillarda jahonda 66 mingdan ziyod terrorchilik harakatlari sodir etilgan. Birgina 2022-yilda terrorizm qurbonlarining soni 6701 kishini tashkil etgani kishini chuqur o'yg'a toldiradi.

Buzg'unchi kuchlar targ'ibot va mafkuraviy ta'sirning yangi usullaridan, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va internet imkoniyatlaridan keng foydalangan holda soddadil yoshlarni turli ekstremistik tashkilotlarga faol jalb etmoqda. Ushbu tahdidlar yo'lida hech qanday chegara yo'q, ular mobil telefonlar orqali ham kirib kelmoqda.

Birgina Markaziy Osiyo mamlakatlarida so'nggi yillarda dunyoning turli chekkalaridagi harbiy mojarolar o'chog'idan ana shunday zararli mafkuraviy ta'sirlar iskanjasiga tushib qolgan 1500 nafardan ziyod fuqarolar o'z vataniga qaytarildi. Ularni rehabilitatsiya va reintegratsiya qilish bo'yicha o'ziga xos yondashuvlar ishlab chiqildi.

Jahon miqyosida turli xalqlarning **ma'naviyati, azaliy qadriyatleri va o'zligiga qarshi qaratilgan tahdidlar ham kuchayib bormoqda.** Bunday sharoitda biz ulug' ajdodlarimizning o'zlikni anglash va ma'naviy-ruhiy qadriyatlarimizni asrab-avaylash haqidagi da'vatlarini aslo yoddan chiqarmasligimiz lozim.

To'qqizinchidan. Xalqaro xavfsizlik va mintaqamizning barqaror rivojlanishi Afg'onistondagi jarayonlar bilan bevosita bog'liqdir.

So'nggi paytlarda ushbu mamlakatda yangi vaziyat vujudga kelgan bo'lsa-da, biroq jahonda boshqa bir qator jiddiy xalqaro muammolarning yetakchi o'ringa chiqishi natijasida Afg'oniston masalasi ikkinchi darajali

masalaga aylanib qolmoqda. Afg'onistonni o'z muammolari bilan yolg'iz qoldirish katta xato hisoblanadi.

Jafokash afg'on xalqiga insonparvarlik yordami ko'rsatishni aslo susaytirmaslik, u yerdagi muvaqqat hukumat bilan o'zaro hamkorlik bo'yicha umumiy va muvofiqlashtirilgan yondashuvlarni ishlab chiqish zarur. Afg'onistonning muzlatilgan xalqaro aktivlarini uning o'tkir ijtimoiy muammolarini hal etish uchun yo'naltirishning maqbul mexanizmlarini ishlab chiqish lozim. Uzoq yillik urushlar tufayli holdan toygan bu mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy infrastrukturasi rivojlantirishda xalqaro hamjamiyatning ishtirokini kengaytirish masalasi ham dolzarbdir.

Bizga mintaqaviy hamkorlik jarayonlarida faol ishtirok etadigan, o'zga davlatlar, ayniqsa, yaqin qo'shnilari bilan o'zaro manfaatli sheriklik uchun ochiq bo'lgan tinch va barqaror Afg'oniston kerak!

O'ninchidan. Insonlarning erkin harakatlanishi, xavfsiz turizm va iqtisodiyotning zamonaviy sohalari rivojiga xalaqit beruvchi doimiy tusga ega bo'lgan xatar va tahdidlar ham ortib bormoqda. Ming afsuski, biz yuqorida tilga olgan salbiy jarayonlar oqibatida ko'plab butunjahon madaniy merosi obyektlari va qadimiy me'moriy yodgorliklar vayron bo'lmoqda va hatto ularning ayrimlari butkul yo'q bo'lib ketmoqda.

Butunjahon turizm kengashi ma'lumotlariga ko'ra, koronavirus pandemiyasiga qadar jahon yalpi mahsulotining taxminan 10 foizi, eksportining esa 7 foizi sayyohlik sektoriga to'g'ri kelgan. Pandemiya hamda dunyoning turli mintaqalarida kuzatilayotgan nizoli, beqaror vaziyatlar ushbu tarmoq rivojiga ham jiddiy zarba berdi.

Shu bilan birga, 2023-yilda dunyo miqyosida xorijga sayohat qilgan turistlar soni 1 milliard 300 million kishidan oshib, pandemiyaga qadar bo'lgan ko'rsatkichning salkam 88 foizini tashkil etgan. Natijada xalqaro turizm industriyasidan keladigan daromad miqdori 93 foizni tashkil etib, 1 trillion 400 million AQSH dollariga yetgan. Biroq pandemiyagacha

bo'lgan davr bilan solishtirganda, so'nggi 4 yilda turizm eksportidagi umumiy yo'qotish hajmi 2 milliard 600 million AQSH dollaridan oshgan.

Ko'plab davlatlar bunday murakkab vaziyatda o'z iqtisodiyotini qayta tiklash va dolzarb ijtimoiy muammolarni hal etishda turizm sohasiga tayanmoqda. Bu, albatta, bejiz emas. Turizm sohasiga kiritiladigan mablag' kelgusida uch-to'rt barobar daromad keltirishini barcha yaxshi biladi. Ushbu sohada yaratilayotgan har bir yangi ish o'rni esa boshqa tarmoqlarda yana 2 ta ish joyini hosil qilishga imkon beradi.

Shu ma'noda, turizm mamlakatlarning umumiy farovonligi va barqaror taraqqiyotini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Ayni paytda u jahon xalqlari o'rtasida madaniy almashuvlarni kuchaytiradigan, bag'rikenglik tamoyillarini mustahkamlaydigan qudratli vosita hamdir.

Bugungi kunda dunyoda global siyosiy va iqtisodiy beqarorlikning kuchayishi oqibatida paydo bo'lgan boshqa qator muammo va xavf-xatarlar ham mamlakatlarning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga jiddiy to'g'anoq bo'layotgani e'tirof etilmoqda.

Globalashuv jarayonlari yangi bosqichga ko'tarilgan hozirgi davrda, hatto eng rivojlangan va qudratli davlatlar ham chegara bilmas xavf-xatar va tahdidlarga yakka holda bardosh bera olmaydi. Shu chog'gacha hech qachon sayyoramizda odamlar, xalqlar va davlatlarning kelajagi hamda taqdiri hozirgidek bir-biriga uzviy bog'liq bo'lmagan.

Bir so'z bilan aytganda, ayni paytda **global, mintaqaviy va davlatlar miqyosida umumiy xavfsizlik hamda tinchlik va barqaror rivojlanishni ta'minlashning** ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ko'pgina siyosatchilarning ta'kidlashicha, ayni kezlarda paradigmalarda o'zgarimoqda, eski qadriyatlardan voz kechilmoqda.

Insoniyatning bugun tanlagan yo'li uning kelajagi va taqdirini belgilaydi. Bu yo'l inqiroz yoki halokat yoqasiga olib borishi, yoki taraqqiyot va farovonlik sari eltishi mumkin.

Demak, to'g'ri yo'lni tanlash va o'zgalarni ham ana shu yo'ldan sabot bilan oldinga boshlash millat yetakchilari, dunyo mamlakatlarining siyosiy doiralari, obro'li xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar rahbarlarining tarixiy burchi va vazifasidir.

Buning uchun jamiyatni qiynayotgan muammolar yechimiga qaratilgan **yangicha yondashuv va xavfsizlikning samarali modellarini ishlab chiqish talab etiladi.**

Ishonchim komil, **zamonaviy tahdidlarni faqatgina muloqot vositasida, bir-birining manfaatlarini hisobga olish va hurmat qilish, umume'tirof etilgan xalqaro huquq me'yorlariga qat'iy amal qilish orqali yengib o'tish** hamda aynan shu yo'l bilan dunyo hamjamiyatining demokratik taraqqiyot yo'lidan og'ishmay qadam tashlashiga erishish mumkin.

2022-yilda yurtimizda o'tkazilgan Shanxay hamkorlik tashkiloti sammitida qabul qilingan **Samarqand deklaratsiyasida** ta'kidlanganidek, hozirgi kunda umumiy xavfsizlik va farovonlik yo'lida hamjihatlikni mustahkam qaror toptirish uchun geosiyosiy raqobat, mafkuraviy ziddiyat va bahslardan xoli bo'lgan muloqot, jumladan, global sivilizatsiyalararo amaliy muloqotga favqulodda kuchli ehtiyoj mavjud. Zero, bugungi kunda, hatto iqlim o'zgarishlari, ochlik va tengsizlikka qarshi kurashish singari butun insoniyat taqdiriga daxldor masalalarda ham o'zaro muloqot izdan chiqqani sezilmoqda.

Insoniyatning umumiy kelajagiga befarq bo'lmagan, dunyoda tinchlik va totuvlik, umumiy taraqqiyotga erishish uchun intilayotgan barcha sog'lom kuchlarni ana shunday ezgu muloqotga jalb qilish lozim. Bugungi dunyoda hamjihatlik va amaliy hamkorlik ruhini saqlash, umumiy manfaatlarini mavjud ziddiyatlardan yuqori qo'ygan holda mamlakatlarni jipslashtirish g'oyasi har qachongidan ham dolzarb bo'lib bormoqda.

Shu o'rinda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomida inson qadr-qimmati, huquqlari va erkinliklarini himoyalash, xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash uchun kuchlarni birlashtirish, xalqlarning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga yordam berish kabi tamoyillar kishilik jamiyatini barqaror rivojlantirishning "uchta asosiy ustuni" sifatida belgilab qo'yilganini ta'kidlash o'rinlidir.

Hozirgi tahlikali vaziyatdan chiqish uchun birinchi galda insonning qadr-qimmati, uning huquq va erkinliklarini himoyalash, bag'rikenglik, turli xalqlarning an'ana va qadriyatlarini hurmat qilish, umumiy xavfsizlik hamda farovonlik, barqaror va izchil taraqqiyotga erishish, har xil buzg'unchi g'oyalarga qarshi kurashish kabi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplariga og'ishmasdan rioya etish tamoyillarining ustuvorligini ta'minlash zarur.

O'zbekistonda shunday murakkab sharoitda davlat ichki va tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlari, dolzarb vazifalari nimalardan iborat bo'lishi zarur, taraqqiyot strategiyalarimizga qanday o'zgarishlar kiritishimiz lozim, degan bir qator savollarga ham yechim topish talab etiladi.

Shubhasiz, biz uch ming yildan ortiq davlatchilik tariximiz, boy va betakror madaniyatga ega bunyodkor xalqimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi. Aholisi qirq millionga yaqinlashib qolgan Yangi O'zbekiston xalqining taqdiri va istiqboli, farovon hayotini ta'minlash uchun barchamiz birday mas'ul va javobgar ekanligimizni bir lahza ham unutmashimiz shart.

Shu ma'noda, avvalambor, ota-bobolarimizning asriy armoni bo'lgan, bebaho ne'mat — mustaqilligimizni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, uning ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy asoslarini yanada mustahkamlash va kelgusi avlodlarga meros qilib qoldirish uchun bor kuch-g'ayratimiz va salohiyatimizni safarbar qilishimiz zarur.

Qilayotgan har bir ishimizda, qabul qilayotgan qonun va qarorlarimizda faqat va faqat jonajon xalqimiz, ona Vatanimiz manfaatlarini eng ustuvor mezon deb bilsak, ko'zlagan maqsadlarimizga albatta erishamiz.

Eng muhimi, biz bugungi davr tahdidlariga qaramasdan, bundan buyon ham yurtimizda osoyishtalik va barqarorlikni asrab-avaylash, inson, jamiyat va davlatning barqaror rivojini ta'minlash, samarali faoliyat ko'rsatadigan bozor mexanizmlariga asoslangan, yuqori turmush darajasiga ega bo'lgan kuchli huquqiy demokratik davlatni, yangi adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgan sa'y-harakatlarimizni qat'iy davom ettiramiz.

Binobarin, o'zimiz boshlagan shiddatli islohotlar yo'lidan hech qachon ortga qaytmaymiz, "inson – jamiyat – davlat" degan yangi tizim asosida keng ko'lamli vazifalarni amalga oshiramiz. Inson qadri baland bo'lgan yangi O'zbekistonni barpo etish uchun donishmand xalqimiz ta'biri bilan aytganda, **"Tosh bo'lsa kemirib, suv kelsa simirib"**, doimo oldinga qarab boramiz.

Mana shunday sharaflı maqsadlarni ko'zlaydigan islohotlarimizning falsafa va asosiy tamoyillari qanday bo'lishi kerak, degan savol xususida ham atroflicha to'xtalib o'tish lozim deb topdim.

Yangi O'zbekistondagi islohotlar falsafasi

Dunyo yaralibdiki, u doimiy, uzluksiz o'zgarishda. Qadimgi donishmandlar aytganidek, **"abadiy harakat — bu abadiy o'zgarishdir"**.

Ya'ni doimiy o'zgarishlar — abadiyat qonuni. Hayotdagi va insonlar tafakkuridagi o'zgarishlar, ularning ezgu niyatlari va orzu-umidlari — taraqqiyotning, yangilanish va modernizatsiyalashuvning

harakatlantiruvchi kuchi, zaruriy shartidir. Bu borada mashhur ingliz siyosatchisi va davlat arbobi **Uinston Cherrill “Yaxshilash — o'zgartirishni, mukammal bo'lish — tez-tez o'zgarishni anglatadi”**, deb ta'kidlagan.

Tarix sahifalarini varaqlasak, qadim zamonlardan Yer yuzida yashagan barcha insonlar, millatlar, yuzaga kelgan davlatlar va sivilizatsiyalar dunyoni yangilash va yaxshilash, baxt-saodat va farovonlikka erishish g'oyasi atrofida birlashishga intilganiga guvoh bo'lamiz.

Turli din vakillari, mashhur arboblari, faylasuf va olimlar “bashariyat orzusi” hisoblangan inson hayoti va qadr-qimmatini oliy qadriyat sifatida ulug'lanadigan, uning rivojlanishi va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun sharoitlar yaratilgan, yaqinlarga muhabbat va zaiflarga rahm-shafqat, erkinlik, tenglik, adolat va birodarlik kabi tamoyillar asosiga qurilgan va eng muhimi, har qanday urushlar, mojaro va nizolardan xoli bo'lgan adolatli jamiyat va davlat barpo etish haqida qayg'urishgan. Bunday ezgu orzu-istak va niyatlar, insoniyat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi eng muhim kuch vazifasini o'tagan.

Bizning donishmand ajdodlarimiz ham azaldan ana shunday orzularga erishish yo'llari haqida tafakkur yuritishgan. Shu maqsadda ular **ezgulik va adolat tamoyillariga asoslangan qudratli davlat va ma'rifatli jamiyat qurish, komil insonni tarbiyalash g'oyalarini** hayotga tatbiq etishga harakat qilganlar.

Ularning fikricha, inson baxt-saodatga erishish uchun barcha **ezgu ishlarni yaxshi niyatlar bilan bajarishi**, razolat va baxtsizlikka sabab bo'luvchi ishlardan o'zini tiya bilishi zarur. Shuningdek, **inson ezgu fikrga, ezgu so'zga, ezgu amalga intilishi, yaxshilik va insonparvarlik ruhida yashab, mehnat qilishi, ilm olishi, nafsini tiyishi lozim.**

XX asr boshlarida vatanparvar jadid bobolarimiz ma'rifatparvarlik g'oyalariga tayanib, xalqimizni qoloqlikdan taraqqiyot yo'liga olib

chiqish, uni dunyoviy bilimlar va ilg'or kasblar bilan qurollantirish, erkinlik, adolat va tenglik, ma'rifat va milliy o'ziga xoslikni mustahkam qaror toptirish, qadimiy madaniyatimiz va tilimizni rivojlantirishni o'z hayotining ma'no-mazmuni deb bilganlar.

Bugungi kunda xalqimizning qonida va tarixiy xotirasida saqlanib qolgan qadriyatlarni himoya qilish ma'naviyatimizning muhim tarkibiy qismiga, bu yo'nalishdagi faoliyatimizning asosiy yo'nalishiga aylandi.

Shu ma'noda, xalqimizning ongi va qalbidan mustahkam o'rin olib, umummilliy harakat darajasiga ko'tarilgan **Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessansni barpo etish g'oyalari buyuk ajdodlarimizning ham orzu-intilishlarini o'zida mujassam qilgan**, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Zero, Yangi O'zbekiston bu:

- inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar, suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat, ochiq va adolatli jamiyatdir;

- millati, tili va dinidan qat'i nazar, har bir vatandoshimiz o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan, erkin va farovon, qudratli mamlakatdir;

- sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol insonlar yurtidir;

- global ishlab chiqarishning muhim va ajralmas bo'g'iniga aylangan, kuchli iqtisodiyotga ega bo'lgan davlatdir;

- inson va biznes manfaatlari adolatli qonunlar asosida himoya qilinadigan jamiyatdir;

- mamlakat ichkarisida yoki xorijda bo'ladimi, vatandoshlarimizni har qanday sharoitda ham himoya qila oladigan, chegaralari ishonchli qo'riqlanadigan, xavfsiz va barqaror davlatdir.

Bugun O'zbekistonda ijtimoiy adolat, ijtimoiy himoya davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. Bu mamlakatimizning siyosiy qudrati va iqtisodiy imkoniyati tobora kengayib borayotganini ko'rsatadi. Keyingi yillarda biz ushbu orzu-niyatlarning ro'yobga

chiqayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz. Binobarin, bugun odamlarda adolatga, haqiqatga qat'iy ishonch paydo bo'lmoqda. Ular turli darajadagi rahbar va mansabdorlarning ish faoliyatiga xolisona baho bermoqda, kamchiliklarni oshkora tanqid qilmoqda. Milliy taraqqiyotimiz uchun bu juda muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, bugungi O'zbekiston — biz orzu qilayotgan, intilayotgan, tom ma'nodagi Yangi O'zbekiston emas. Bunday yuksak marraga yetish uchun oldimizda olis va mashaqqatli yo'l turibdi.

Shu paytgacha bosib o'tgan yo'limiz oson bo'lgani yo'q, bundan keyin ham oson bo'lmaydi. Lekin biz dadil olg'a borishdan, kerak bo'lsa, xalqimiz manfaatlari yo'lida kutilmagan noan'anaviy qarorlar qabul qilishdan ham cho'chimasligimiz zarur.

Shu bilan birga, Yangi O'zbekistonni bunyod etish uchun xalqimizning orzu-intilishi hamda keng qamrovli islohotlarimizning mohiyati va falsafasini aks ettiruvchi yangi g'oyalar va yangicha dunyoqarash ham talab etiladi.

Bu dunyoqarash, avvalambor, "barqaror rivojlanish falsafasi" asosida shakllanishi lozim, deb o'ylayman. Bu borada quyidagi masalalarga ustuvor ahamiyat qaratish zarur bo'ladi:

- tabiiy resurslarning cheklanganligini nazarda tutgan holda, kelajak avlodlarning ham bu boradagi manfaatlarini inobatga olib (cheklangan resurslar va avlodlar huquqlari tengligi prinsiplari), ulardan adolatli va oqilona foydalanish haqida bosh qotirish lozim;

- iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik taraqqiyotga o'zaro muvozanatli, integratsiyalashgan va kompleks yondashuv asosida erishish (integrativlik va o'zaro uyg'unlik prinsiplari) choralari ishlab chiqish lozim. Bunda rivojlanishni nazarda tutuvchi barcha qarorlar ularning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy, ekologik va boshqa sohalarga ta'siri hamda oqibatlarini hisobga oluvchi kompleks yondashuv asosida qabul qilinadi;

- barqaror rivojlanish sohasidagi ta'limni yo'lga qo'yish va aholining barqaror rivojlanish masalalari to'g'risida xabardorligini oshirish (BRM sohasidagi ta'lim va xabardorlik prinsiplari) masalasiga jiddiy e'tibor qaratish zarur. Shu orqali aholining qarorlar qabul qilishdagi ishtirokini va kelajak avlodlar manfaatlarini yo'lida harakat qilishini ta'minlashga erishiladi;

- fuqarolar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda biznes hamjamiyatining qarorlar qabul qilish va barqaror rivojlanishni ta'minlash jarayonlarida qatnashishi (ishtirok etish va sheriklik prinsiplari) ham muhim ahamiyatga ega. Bunda aniq belgilangan BRMlarga erishishda barcha manfaatdor tomonlarning hamkorligi, ijtimoiy sherikligi nazarda tutiladi;

- jamiyat, davlat va ekologik tizimlarning barqarorligi va uzoq muddatli hayotiylikni ta'minlash, tabiiy resurslarni tejash, atrof-muhitning ifloslanish darajasini kamaytirish va ekologik barqaror texnologiyalarni yaratish (barqarorlik prinsipi) kabi tamoyillar ham biz uchun hayot-mamot masalasi hisoblanadi.

Umuman, barqaror rivojlanish falsafasi zamonaviy jamiyatning taraqqiyot borasidagi ehtiyojlarini hisobga olish, tabiiy resurslarni saqlash va kelajak avlodlar farovonligini ta'minlash masalalarini o'zaro uyg'un ravishda hal etishni nazarda tutadigan barqaror rivojlanish modelini yaratishga qaratilgan.

Islohotlarning davr va barqaror rivojlanish talablariga mos sur'ati va izchilligi

Biz Yangi O'zbekistonni qurish borasidagi islohotlarni amalga oshirar ekanmiz, **ming chaqirimlik yo'l ham birinchi qadamdan boshlanishi, ko'zlagan maqsadga erishishning imkoni topilmaganida ham maqsadni**

emas — harakat rejasini o'zgartirish darkorligi, chalg'imasdan, faqat olg'a borish lozimligi kabi chuqur hayotiy mazmunga ega sharqona e'tiqodlarga tayanamiz.

Bu yo'lda biz imkoniyatlarni qo'ldan boy bermay, qiyinchiliklarni yengib, o'z irodamizni charxlab boramiz va albatta, ko'zlagan maqsadlarimizga erishamiz. Biz muqarrar o'zgarishlardan cho'chimay, erishilgan natija va marralarni inobatga olgan holda, oldimizga yangi-yangi vazifalarni, taraqqiyotimiz darajasidan darak beruvchi aniq ko'rsatkich va indikatorlarni belgilab olib, ularga erishish uchun intilmoqdamiz.

Albatta, eski tizimni batamom o'zgartirib, oldimizga qo'ygan maqsad-marralarga to'liq erishdik, deb aytishimizga hali erta. Takror aytaman, biz har kuni izlanishdamiz. Bu yo'lda dastlabki qadamlarni qo'ymoqdamiz, xolos. Lekin **“Bugungi o'zgarishlar — vaqtinchalik kampaniya, erta-indin unutiladi”**, deb o'ylaydiganlar yanglishadi. Bu o'zgarishlar — Prezident va uning jamoasi tomonidan uzoqni ko'zlab yuritilayotgan pragmatik, xalqchil siyosatning eng ustuvor yo'nalishlaridan biri va uni xalqimiz bilan birgalikda albatta oxiriga yetkazamiz, hech qachon ortga qaytmaymiz.

Shu bilan birga, jamiyat va davlat taraqqiyotining barqarorligiga siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, ekologik va boshqa sohalarni o'zaro uyg'unlashgan, muvozanatli va integratsiyalashgan holda rivojlantirish orqali erishish mumkin. Bunda turli yo'nalishlardagi maqsad va vazifalarni o'zaro uyg'unlashtirish, ularning bir-birini to'ldirishi va qo'llab-quvvatlashiga erishish darkor.

Chunki ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi islohotlar siyosiy-huquqiy, ma'naviy-axloqiy va boshqa sohalardagi o'zgarishlar bilan mutanosib ravishda amalga oshirilgan taqdirdagina samarali bo'lishini hayotning o'zi ko'rsatmoqda.

Shu bois biz demokratik taraqqiyot yo'limizni islohotlarning davr talablariga mos sur'ati, izchilligi va ortga qaytmasligini ta'minlash va uni barqaror rivojlanish tamoyillari asosida qat'iy davom ettirish yo'lini tanladik. O'rni kelganda qayd etish lozimki, yangilangan Konstitutsiyamizda:

- Asosiy qonunimiz xalqimiz tomonidan mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko'paytirish, ularni hozirgi va kelajak avlod uchun asrab-avaylash hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib qabul qilingani;

- mamlakatning xavfsizligi, barqaror rivojlanishi asoslariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan, inson huquq va erkinliklariga, jamiyat va davlat manfaatlariga tahdid soladigan faktlar va voqealarni o'rganish maqsadida parlament tekshiruvini o'tkazilishi mumkinligi;

- Vazirlar Mahkamasi tomonidan barqaror iqtisodiy o'sishni, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish, aholi uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qulay investitsiya muhitini yaratish, hududlarni kompleks va barqaror rivojlantirish bo'yicha choralar ko'rilishi kabi yangi normalar belgilab qo'yilgani ham bu borada muhim qadam bo'ldi.

Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda nafaqat davlat hokimiyatining barcha bo'g'inlari, eng muhimi, jamiyatning barcha qatlamlari, fuqarolik jamiyati institutlari, biznes hamjamiyatining sa'y-harakatlarini birlashtirish prinsipiga alohida e'tibor qaratildi. Konstitutsiyamizdagi ijtimoiy hamkorlikni qo'llab-quvvatlash va jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga qaratilgan konstitutsiyaviy-huquqiy qoidalar ham bu maqsadlarga erishishimizga xizmat qiladi.

Jumladan, Asosiy qonunimizda belgilangan:

- fuqarolar va tadbirkorlarning atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish majburiyatlari, mulkdan foydalanishda atrof-

muhitga zarar yetkazmaslik, boshqa shaxslar, jamiyat va davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzmasliklari kerakligi;

- davlat Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko'rishi;

- davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishi;

- har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga egaligi;

- fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlari Davlat budjetining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi haqidagi normalarning ham bu boradagi ahamiyati katta.

Chunki mazkur normalar fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtirokida jamoatchilik nazoratini kengaytirish orqali **bugungi va kelajak avlodlar uchun qulay va ekologik toza muhitni saqlashning konstitutsiyaviy kafolatlarini kuchaytirishga xizmat qiladi.**

Binobarin, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz O'zbekistonning barqaror taraqqiyotini ta'minlashning mustahkam konstitutsiyaviy-huquqiy asosini shakllantirish va bu boradagi ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilmoqda.

Jumladan, so'nggi yillarda **“yashil taraqqiyot” tamoyiliga binoan, respublikada ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, inson hayotiga ta'sir o'tkazuvchi ekologik muammolarni bartaraf etish** borasida tizimli faoliyat yo'lga qo'yildi.

Uning doirasida biz ekologik “toza hudud” rejimini joriy qilish, shaharlarning bosh rejasini tuzishda ularning kamida 30 foizini yashil maydonlar tashkil etishini nazarda tutish, atrof-muhitni kuzatish, uning

ifloslanish darajasini prognoz qilishni rivojlantirish kabi vazifalarga alohida e'tibor qaratmoqdamiz.

Shuningdek, yurtimizda ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan “Yashil makon” umummilliy loyihasi ham izchil amalga oshirilmoqda. Ushbu loyihaning maqsadi — har yili 200 million tup daraxt ko'chati ekib borish orqali respublikada yashillik darajasini 30 foizga yetkazish, ularni parvarishlash va sug'orish tizimini yaratishdan iborat.

Shu yo'l bilan respublikamiz hududida minglab bog'lar yaratish, sanoat korxonalarini atrofida “yashil belbog”lar barpo etish, shahar va tumanlar markazlarida har 50–100 ming aholi uchun “jamoat parklari”ni tashkil qilishga erishamiz.

Chunonchi, biz **Orolbo'yi mintaqasida yuzaga** kelgan global ekologik inqiroz oqibatlarining mintaqa aholisi turmush tarziga salbiy ta'sirini bartaraf etish yoki sezilarli darajada yumshatish, aholi uchun qulay ekologik sharoitlar yaratish masalalariga ham alohida e'tibor qaratmoqdamiz.

Shuningdek, aholi genofondini saqlash, salomatligini yaxshilash va ushbu hududning barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli loyihalar amalga oshirilmoqda.

Iqlim o'zgarishiga qarshi faqat birdamlik va xalqaro hamkorlik orqali samarali kurashish mumkin. Shuni nazarda tutib, biz BMT rezolutsiyasi asosida **Orolbo'yi hududini ekologik ofat zonasidan innovatsiyalar, texnologiyalar va yangi imkoniyatlar mintaqasiga aylantirmoqdamiz.** Bu yerda xorijiy hamkorlarimiz bilan birgalikda **Iqlim texnologiyalari xalqaro ekspo-habini yaratishni** niyat qilganmiz.

Xalqaro hamkorlar ishtirokida “Orol dengizi havzasining quyi oqimidagi degradatsiyaga uchragan yerlar holatini yaxshilash” loyihasini hamda “Yashil iqlim” va Global ekologik jamg'armalarning bioxilmaxillik, iqlim o'zgarishi va tuproq yemirilishining oldini olishga qaratilgan

dasturlar asosida 300 million AQSH dollari qiymatidagi qo'shimcha loyihalarni ham amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Bundan tashqari, biz keng ko'lamli islohotlarni ro'yobga chiqarish jarayonida yana bir qator ishlarni rejalashtirganmiz. Muhimi, ularning aksariyati **yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida** belgilab qo'yilgan. Xo'sh, ushbu tamoyillar nimalardan iborat?

Inson qadri, huquq va erkinliklari, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik

Ushbu tamoyil nafaqat O'zbekiston, balki butun jahon hamjamiyati tomonidan ham alohida e'tibor qaratilayotgan eng dolzarb masalalardan biridir. So'nggi 50 yil ichida birgina BMT doirasida ushbu yo'nalishda 120 dan ortiq xalqaro hujjat qabul qilingani ham bejiz emas.

Dunyo mamlakatlari konstitutsiyalarida inson huquqlari va erkinliklariga oid normalar ham tobora ortib bormoqda. Dunyoda birinchi bo'lib qabul qilingan AQSH Konstitutsiyasida fuqarolarning 30 dan ziyod huquqlari ko'rsatib o'tilgan bo'lsa, ayni paytda jahon miqyosida inson huquqlariga oid huquqiy normalar soni 100 dan oshdi.

Ya'ni inson, har bir shaxs, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari umuminsoniy oliy qadriyatga aylanib bormoqda.

Shu bilan birga, **ushbu qadriyat G'arbda yuzaga kelgan g'oyalarga asoslangan, degan qarashlar mutlaqo noto'g'ri. Zero, inson hayoti, qadr-qimmati, erkinliklari bilan bog'liq tushunchalar Sharq va G'arb tafakkur olamida yuzaga kelgan qarashlarning o'zaro uyg'unlashib, bir-birini to'ldirishi va boyitishi natijasida shakllangan.**

BMT ekspertlari va ko'plab taniqli olimlarning ta'kidlashicha, erkinlik, tenglik va adolat, inson qadri, uning huquqi va manfaatlarini

himoya qilish, jamiyatni adolatli boshqarish, xalq farovonligini ta'minlash kabi g'oyalar dastlab qadimgi Sharq davlatlarining qonunlari va falsafasida rivojlana boshlagan. O'tmishda **inson huquqlari umume'tirof etilgan ilk deklaratsiya ham aynan Sharqda yaratilgan**, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Jumladan, miloddan avvalgi birinchi ming yillikda yurtimizda paydo bo'lgan zardushtiylik e'tiqodining muqaddas kitobi "**Avesto**"da jamiyatdagi axloqiy, huquqiy va iqtisodiy munosabatlar, sodir etilgan jinoyat uchun munosib jazo berish, oila va nikoh, go'dakning sog'lom tug'ilishi, yashashi va rivojlanishini ta'minlash kabi masalalar o'z ifodasini topgan. Avestoshunoslarning ta'kidlashicha, zardushtiylik qonunlaridagi etnik mansubligi, dini, yoshi va jinsidan qat'i nazar, insonning huquqlari, erkinligi va manfaatlarini himoya qilishga oid normalar qadimgi Yunoniston va Rimda amal qilgan huquqiy normalarga nisbatan kengroq rivojlangan.

Inson huquqlari borasidagi ta'limot va amaliyotlarning rivojlanishida **Islom huquqining** ham o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Bugungi kunda ham dolzarb hisoblangan **huquqiy va ijtimoiy davlat qurish vazifasi nuqtayi nazaridan yondashsak**, islom huquqi dunyoda ayollar va bolalar huquqlarini ta'minlash, aholining zaif qatlamini himoya qilish, fuqarolarning ta'lim olish imkoniyatini rivojlantirish, jamiyatda qonuniylik va qonun ustuvorligi, ijtimoiy adolat va birdamlik, erkinlik va bag'rikenglik tamoyillarini qaror toptirishga benihoya katta ta'sir ko'rsatdi.

Biz o'tmishda xalqimiz orasidan yetishib chiqqan buyuk alloma va donishmandlar, mashhur davlat arboblari ana shunday ezgu g'oyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishga juda katta hissa qo'shganliklarini doimo faxr va iftixor bilan eslaymiz. Bu borada **Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Muhammad Ustrushoniy, Abdulxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband,**

Sohibqiron Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ulug' shaxslarning amalga oshirgan ezgu ishlarini tilga olish kifoya.

Bir so'z bilan aytganda, inson qadrini ulug'lashga qaratilgan sharqona falsafa va g'oyalar bugungi kunda ham o'zining nazariy va amaliy ahamiyatini yo'qotmagan. Biz donishmand ajdodlarimizning asrlar sinovidan o'tgan bebaho ilmiy-ma'rifiy merosiga tayangan holda, xalqimiz tafakkurini zamonaviy umumbashariy ruh bilan boyitishimiz zarur.

Shu o'rinda, nima uchun bugun milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik tamoyiliga bunchalik katta e'tibor qaratilmoqda, degan savol tug'ilishi mumkin.

Men quyida buning ikkita asosiy sababiga to'xtalib o'tmoqchiman.

Birinchidan, ota-bobolarimiz ta'kidlaganidek, o'zligini chuqur anglab yetmagan, tarixiy, diniy va madaniy-ma'rifiy ildizlaridan judo bo'lgan xalq yoki davlat, vaqti kelib, albatta inqirozga uchrashi va tarix zarvaraqlaridan butkul o'chib ketishi hech gap emas.

Biz faoliyatimizda davlatchiligimiz rivojiga oid tarixiy tajribalarga amal qilamiz. Buyuk ajdodlarimizning ilm-ma'rifat va kamolot, ma'naviy yuksalishga qaratilgan da'vatlari, ezgulik, ijtimoiy adolat, insonning sha'ni va qadr-qimmatini avaylash, o'zga din va millat vakillarini hurmat qilish, bag'rikenglik va kamtarlik, qonun ustuvorligi kabi tamoyillarga sadoqat borasidagi chaqiriqlari yangilangan Konstitutsiyamizni ma'naviy jihatdan boyitishga ham xizmat qilganini ta'kidlash joiz.

Ikkinchidan, har qanday millat va davlat jahon hamjamiyatining ajralmas qismi bo'lib, o'zaro bog'liq holdagina taraqqiy etishi mumkin.

Bugungi kunda shaxsning qadr-qimmati, huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, jamiyatda inson huquqlari madaniyatini shakllantirish g'oyalari davlatning ichki va tashqi siyosatining tamal toshi, Yangi O'zbekistonda demokratik islohotlarning eng muhim harakatlantiruvchi kuchi hamda turli sohalardagi tub islohotlarning tayanchiga aylandi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz xalqimizga xos bo'lgan mehr-oqibat, odamiylik, o'zga millat va elatlarga hurmat, aql-zakovatga intilish, or-nomus, iffat, hayo kabi ezgu fazilatlar ruhini ham o'zida aks ettirgan. Jumladan, unda **“inson – jamiyat – davlat”** tamoyili hayotga joriy etildi. Inson huquqlari kafolatlariga oid normalar soni 3,5 barobar oshirildi, 40 dan ziyod yangi konstitutsiyaviy huquqlar muhrlab qo'yildi. Ya'ni ushbu **Konstitutsiyani Yangi O'zbekistonning o'ziga xos “Inson huquqlari to'g'risidagi qonuni”** deb atashimiz uchun barcha asoslarimiz bor.

O'zbekiston ushbu yo'nalishdagi 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarga qo'shildi va ularni ratifikatsiya qildi. So'nggi 7 yilda qabul qilingan **uchta kompleks taraqqiyot strategiyasi** hamda turli sohalarni rivojlantirishga oid 60 dan ziyod strategiya, konsepsiya va dasturlarga insonning huquq va erkinliklarini himoya qilish, uning rivojlanishi va salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun sharoit yaratish, ijtimoiy tenglik kabi tamoyillar, g'oyalar to'liq singdirildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya bizga inson huquqlari, demokratiya, erkinlik, barqarorlik, tenglik va taraqqiyot tamoyillariga asoslangan huquqiy va adolatli davlat qurish yo'llarini keng ochib berdi.

Shuningdek, biz ilk bora inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga yo'naltirilgan davlat siyosatini izchil davom ettirish, bu boradagi qonunchilikni mamlakatimizning o'z zimmasiga olgan xalqaro majburiyatlari asosida takomillashtirishga qaratilgan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini qabul qildik.

Uning doirasida quyidagi, ya'ni:

- milliy qonunchiligimizni mamlakatimiz barqaror rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari, umume'tirof etilgan xalqaro standartlar, O'zbekistonning inson huquqlari sohasidagi majburiyatlari, shuningdek, BMTning ustav organlari va shartnomaviy qo'mitalarining tavsiyalari asosida takomillashtirish;

- shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni himoya qilish hamda O'zbekistonning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishida parlament va fuqarolik jamiyati institutlarining rolini oshirish, qonun ustuvorligini mustahkamlash, milliy qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini inson huquqlari bo'yicha xalqaro majburiyatlarga muvofiqlashtirish;

- O'zbekistonning inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xalqaro reytinglar va indekslar (qonun ustuvorligi, norma ijodkorligining sifati, hukumat faoliyati samaradorligi, so'z va axborot erkinligi, jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashish, biznes yuritish shart-sharoitlari, global raqobatbardoshlik, innovatsion rivojlanish va boshqalar) bo'yicha dunyodagi 50 ta yetakchi mamlakat qatoriga kirishini ta'minlash;

- inson huquqlarining buzilishlariga barham berish maqsadida sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlash, prokuratura organlari faoliyatini takomillashtirish va odil sudlov tizimi vakolatlarini mustahkamlash;

- mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha milliy institutlar faoliyati uchun keng sharoitlar yaratish, bu sohadagi davlat siyosatini monitoring qilish va baholashning milliy tizimini yanada rivojlantirish, jamiyatda inson huquqlari madaniyatini shakllantirish kabi tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Davlat — inson uchun

Yangi O'zbekistonda demokratiya, inson huquq va erkinliklari bo'yicha xalqaro me'yor va tamoyillarga qat'iy amal qilgan holda, xalqimiz uchun erkin, obod va farovon hayot kechirishni ta'minlash uchun barcha choralar ishga solinadi. Biz "Davlat — inson uchun", "Avval inson, keyin jamiyat va davlat" degan yangi g'oyalarni hayotga

izchil tatbiq etish orqali xalqchil va xalqparvar davlat qurishni maqsad qilganmiz.

El-yurt dardiga darmon bo'ladigan, adolatli jamiyat barpo etish xalqimizning asriy orzu-armoni bo'lib kelgan. Bu ezgu maqsad buyuk mutafakkir bobolarimizning qator asarlarining ham bosh g'oyasini tashkil etadi.

Shubhasiz, ota-bobolarimizning ana shunday oliyanob niyatlarini amalga oshirish vazifasi bizning zimmamizga tushgani uchun har qancha faxrlansak, arziydi. Lekin bunday sharafli ishning mas'uliyati qanchalik og'ir ekanligini ham aslo unutmashimiz kerak.

Shu o'rinda alohida ta'kidlashni istardimki, bugungi kunda demokratiya, ya'ni "xalq hokimiyati" tushunchasi jahon hamjamiyatining asosiy qadriyatlaridan biriga aylangan. Garchi BMT Nizomida "demokratiya" atamasi ishlatilmasa-da, u "**Biz, xalqlar...**" so'zlari bilan boshlanadi. Buning o'zi ham demokratiyaning asosiy tamoyili — BMT va uni tashkil etgan davlatlarning qonuniyligi manbai ham xalqlar irodasi ekanini anglatadi.

Shuningdek, dunyo davlatlarida demokratiyaning o'ziga xos turli xil modellari mavjud. BMTning qator rezolutsiyalarida ham "**demokratiyaning yagona modeli yo'q va demokratiya biron-bir mamlakat yoki biron-bir mintaqaning mulki emas**", deb ta'kidlangan.

Ammo ushbu ijtimoiy-siyosiy qadriyatning umume'tirof etilgan qator tamoyillari mavjud. Masalan, AQSHning 16-prezidenti **Avraam Linkoln** demokratik davlatni xalq tomonidan tuzilgan, xalq nomidan va xalq manfaatlarini yo'lida faoliyat yuritadigan xalq hokimiyati sifatida ta'riflagan.

Biz yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda jahonda tan olingan "**xalq hokimiyatchiligi**" tamoyilini "Xalq — davlat hokimiyatining birdan bir manbai", "Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi" degan normalar orqali muhrlab qo'ydik.

Shuningdek, ilk bora fuqarolik jamiyati institutlarining konstitutsiyaviy maqomi belgilanib, ularning jamiyat va davlat boshqaruvidagi ishtiroki va rolini oshirish yo'lida muhim qadamlar tashlandi. Parlamentarizmni rivojlantirish, markazda va joylarda hokimiyatning bo'linish tamoyili, o'zaro tiyib turish hamda manfaatlar muvozanatini ta'minlash tizimining zamonaviy konsepsiyasi hayotga tatbiq etilmoqda. Parlament va jamoatchilik nazorati institutlari kuchaytirildi. Tabiiyki, bunday o'zgarishlar mamlakatimizda xalq hokimiyatchiligining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini mustahkamlash bilan bir qatorda, yurtdoshlarimiz xohish-irodasi va ularning qonuniy manfaatlarini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Aynan xalqimizning azm-u qarori davlat siyosatining ma'nomazmunini belgilab beradi. Demokratiya tushunchasining mazmuni ham aslida shundan iborat.

Xo'sh, davlatni kim shakllantiradi? Albatta, xalq va uning muxtor vakillari. Binobarin, davlat va uning organlari, avvalo, kimga xizmat qilishi kerak? Buning ham javobi oddiy: xalqqa, turli mansab egalariga ovoz bergan va ishonch bildirgan fuqarolarga.

Shu ma'noda, xalqimiz sifatli va ishonchli davlat xizmatidan bahramand bo'lishga har tomonlama haqli va munosibdir. Men O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida ish boshlagan dastlabki kunlardan oq "**Biz xalqimizga xizmat qilish, uni rozi qilish mas'uliyatini zimmamizga olganmiz**", degan gapni bot-bot takrorlab kelaman.

Shu bois faqatgina xalqqa xizmat qiluvchi adolatli va zamonaviy davlat barpo etish g'oyasini Yangi O'zbekiston taraqqiyotining asosiy tamoyillaridan biri sifatida belgilab oldik.

Bu borada olib borayotgan siyosatimizning mazmuni va talabi ham oddiy va sodda: davlat xodimi, avvalo, xalq xizmatchisi bo'lishi, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi shart! Demokratiyaning asosiy talabi va ustunligi ham shunda.

Keyingi yillarda mamlakatimizda biz barcha **davlat idoralarini quyiga, ya'ni mahallagacha tushib ishlashga o'rgatganimizni men davlat boshqaruvida erishgan eng katta natijamiz sifatida baholagan bo'lardim. Zero, biz inson qadrini mahalla bilan uyg'un holda tasavvur etamiz. Mahalla — biz qurayotgan Yangi O'zbekistonning poydevori.**

Mahallalarimiz fayzli va farovon, iqtisodiy jihatdan baquvvat bo'lsa, odamlarning daromadi ko'payib, hovli-joyi badastir, farzandini o'qitish uchun sharoitga ega, ertangi kunidan ko'ngli to'q bo'lsa, shundagina yurtimizda barqarorlik, taraqqiyot bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, mahalla tinch bo'lsa — yurtimiz tinch, mahalla obod bo'lsa — mamlakatimiz farovon bo'ladi.

Odamlarni qiynayotgan muammolarga mahallaning o'zida yechim topadigan chinakam xalqchil tizim yaratish mening eng katta niyatim hisoblanadi. Shu maqsadda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining **“mahalliy ahamiyatga molik masalalarni fuqarolarning manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy o'ziga xos xususiyatlaridan, shuningdek, milliy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda, qonunga muvofiq mustaqil ravishda hal etishga haqli”** ekanini qat'iy belgilab qo'ydik.

Shu bilan birga, mahallaning davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmasligi va **davlat ularning faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishi, ularga qonunda belgilangan vakolatlarini ro'yobga chiqarishda ko'maklashishi kafolatlandi.**

Asosiy qonunimizda bunday kafolatning belgilanishi mahallalarga o'z hududini mustaqil boshqarish, har qanday muammoni faqatgina aholi manfaatlarini inobatga olgan holda, davlat bilan sheriklik asosida hal qilish, hududni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish hamda samarali jamoatchilik nazoratini amalga oshirish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Darhaqiqat, bugungi kunda hayotimizda mahallaning o'rne va nufuzini oshirish, uning vakolat va imkoniyatlarini kengaytirishga har qachongidan ham ko'proq ahamiyat qaratilmoqda. Moliya, soliq, bandlik idoralarining kamida 30 foiz vakolatini mahalla darajasiga tushirish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda.

“Mahallabay” ishlash asosida aholining yashash sharoitlarini, hayot darajasi va sifatini yaxshilash, ularning sog'lig'ini asrash, ijtimoiy muammolarini yechish, xotin-qizlar va yoshlarni zamonaviy kasb-hunarlariga o'qitish, ularni ish o'rinlari va uy-joy bilan ta'minlash, ehtiyojmand oilalarni qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarimiz ham yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

Yana bir yutug'imiz shuki, biz ko'p rahbar va amaldorlarni mahalla ahli, oddiy insonlar bilan bevosita muloqot qilishga o'rgatdik. **“Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi zarur”**, degan ezgu tamoyil asosida **“odamlar tashvishi bilan yashash”**, xalqimizning qonuniy talab-istaklari va xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, aholi muammolarini hal etish va ochiqlikni barcha davlat organlari faoliyatini baholashning eng muhim mezoniga aylantirdik.

Shu bilan birga, hali aholi va tadbirkorlarning og'irini yengil qiladigan, ularga sifatli xizmat ko'rsatadigan **ixcham va samarali boshqaruv tizimini yaratishimiz kerak.**

So'nggi yillarda xalqimiz farovon va qulay hayot kechirishini ta'minlash maqsadida 300 ga yaqin davlat xizmatlari to'liq raqamlashtirildi va aholiga 50 milliondan ortiq xizmatlar ko'rsatildi. Fuqaro va davlat o'rtasidagi munosabatlarda mavjud bo'lgan byurokratik to'siqlarni keskin qisqartirish hamda korrupsiyaviy omillarni bartaraf etishga qaratilgan ishlar ham izchil davom ettirilmoqda.

Yurtimizda davlat idoralari faoliyatini eskicha byurokratik qoliplardan xalos qilib, zamonaviy menejment usuliga o'tkazish maqsadida keng ko'lamli ma'muriy islohotlar amalga oshirilmoqda, shu

maqsadda hukumat va vazirliklar ixchamlashtirilib, ularning ish uslubi o'zgartirildi. Viloyat va tumanlar darajasida ham boshqaruv sifatini oshirish bo'yicha tizimli o'zgarishlarga qo'l urdik.

Jamiyat — islohotlar tashabbuskori

Biz “Jamiyat — islohotlar tashabbuskori”, “Xalq — Konstitutsiya va qonun ijodkori” degan yangi g'oyalarni hayotga izchil tatbiq etish, fuqarolarning hamda fuqarolik jamiyati institutlarining davlat boshqaruvi va qarorlar qabul qilishdagi ishtirokini muntazam oshirib borishni islohotlarimizning natijadorligi va samarasi, bu yo'ldan ortga qaytmaslikning kafolati deb bilamiz.

Shu o'rinda bir qator savollar tug'iladi: xo'sh, aholi va fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokisiz, keng jamoatchilik muhokamalarisiz adolatli qonun va qarorlar qabul qilish mumkinmi? Odamlarning manfaati, amalga oshirilayotgan islohotlar va yurtimiz taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olmasdan qabul qilingan qonun va qarorlar qanchalik samara beradi?

Bu kabi savollar kishini chuqurroq mulohaza qilishga va barqaror rivojlanishni ta'minlashning eng asosiy omili hisoblangan **“inkluziv qarorlar qabul qilish” tamoyiliga** e'tibor qaratishga undaydi. Bu borada tegishli davlat organlarining mas'uliyati va faoliyati samaradorligini oshirish jamiyatda qonun ustuvorligi va qonuniylik tamoyillarini qaror toptirishning muhim sharti hisoblanadi.

Hisobdorlik va samarali boshqaruvni rivojlantirishda shaffoflik hamda jamoatchilik ishtiroki katta ahamiyatga ega. Ya'ni barcha muhim qarorlarni aholi ishtirokida, fuqarolik jamiyati institutlari bilan maslahatlashuv asosida qabul qilish tamoyilini hayotga joriy etishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilishi zarur.

Yashirishning hojati yo'q, biz yangicha islohotlarni boshlagan kezlarda shu paytgacha o'zimiz tasavvur ham qilmagan juda ko'plab muammo va sinovlarga duch keldik. El-yurtimiz bilan birgalikda ana shu muammolarga ham o'z vaqtida yechim topib, har bir masalani joyida hal qilib boryapmiz.

Bu boradagi ishlarimizga baho berishda xalqimizning o'zi — adolatli hakam. Ishonamanki, bugun mamlakatimizdagi har bir yurtdoshimiz “hayotimda ijobiy o'zgarish yuz bermoqda”, deb bemaolol ayta oladi.

Eng muhimi, 2023-yil 30-aprel kuni mamlakatimiz hayotida tom ma'nodagi ulkan tarixiy voqea yuz berdi. Shu kuni mustaqil O'zbekiston tarixida birinchi marta umumxalq referendumini orqali Asosiy qonunimizni qabul qildik. Fuqarolarimizning mutlaq ko'pchiligi konstitutsiyaviy islohotlarimizni yoqlab ovoz berdi. **“Bu — mening Konstitutsiyam”**, degan tushuncha ularga ko'tarinki ruh va ishonch bag'ishladi.

Konstitutsiya loyihasini ishlab chiqishdan boshlab, to uni qabul qilgungacha bo'lgan davrda o'tkazilgan umumxalq muhokamalarida millionlab yurtdoshlarimiz faol va munosib ishtirok etdilar. Demak, yangi tahrirdagi **Konstitutsiyaning chinakam tashabbuskori va muallifi xalqimizdir**, deb aytish uchun barcha asoslar yetarli.

Yurtdoshlarimiz o'zlarining ushbu tarixiy tanlovi orqali bugungi islohotlarimizga katta ishonch bilan qarab, uni to'la qo'llab-quvvatlashini yana bir bor namoyon etdi. El-yurtimizning bunday azm-u qarori davlatchiligimiz va iqtisodiyotimizni bundan keyin ham barqaror rivojlantirish uchun mustahkam asos bo'lganini alohida ta'kidlash o'rinlidir.

Albatta, fuqarolarning xohish-irodasi islohotlarning eng asosiy manbai va harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Shu ma'noda, xalqimizning bildirgan yuksak ishonchi bizning zimmamizga katta mas'uliyat yuklash bilan bir qatorda, odamlarni rozi qilishga qaratilgan

islohotlarni jadal davom ettirishimizda o'zgacha kuch-g'ayrat va ilhom bag'ishlaydi.

Binobarin, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning bosh maqsadi ham xalqimizning farovon hayot kechirishi uchun munosib sharoit yaratib berishdan iboratdir. Endi **“inson – jamiyat – davlat”** degan yangi tizim asosida faqat va faqat oldinga qarab boramiz.

Mamlakatimiz Konstitutsiyasida insonning siyosiy va boshqa huquq-erkinliklarini amalga oshirish hamda davlat organlarining demokratik asosda shakllanishini ta'minlash, jamiyatning erkin siyosiy tizimini shakllantirishga ko'maklashish, shuningdek, demokratik institutlar, fuqarolik jamiyati tuzilmalari rolini kuchaytirish uchun qulay shart-sharoit yaratish masalasi ham kafolatlandi. Zotan, davlat hokimiyatining tom ma'noda xalqchil, demokratik xususiyatga ega bo'lishida ushbu tamoyilning ahamiyati beqiyos. Bunday davlat va jamiyatning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda ma'naviy-ma'rifiy ildizlari mustahkam va barhayot bo'ladi. Shu sababdan biz xalqimizning og'irini yengil qilish, muammolarini vaqtida hal etish, hayot darajasini yaxshilashni barcha islohotlarimizning bosh maqsadi etib belgiladik.

O'rni kelganda, men yana bir misolga e'tibor qaratmoqchiman. Biz Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishga mo'ljallangan Davlat dasturlari loyihalarini har yili xalqimizning talab va istaklari asosida qabul qilish amaliyotini joriy etdik. E'tiborli jihati, 2024-yilga mo'ljallangan **“O'zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili”da** amalga oshirishga oid Davlat dasturi loyihasining umumxalq muhokamalari davomida keng jamoatchilik tomonidan 2023-yilga nisbatan qariyb 4 barobar ko'proq taklif va tashabbuslar ilgari surildi.

Endi o'zimizga savol beraylik: nega aholimiz mamlakatimizdagi o'zgarishlarda, referendumda bunchalik faol ishtirok etmoqda? Nima uchun ular islohotlarimizni faol qo'llab-quvvatlamoqda? Chunki odamlar

yurtimizda bugun yuz berayotgan o'zgarishlarni o'z ko'zi bilan ko'rib, natijasini shaxsiy hayotida his qilmoqda. Ular katta-kichik shaharlardagi mahalla va ko'chalardan tortib, chekka qishloq va ovullarda ham amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik va obodonchiliklar bilan yuzma-yuz yashayapti.

Shu o'rinda **“ochiq budjet”** tizimini joriy etganimiz qishloq va mahallalarda yashayotgan oddiy odamlarning kayfiyatiga qay darajada ijobiy ta'sir ko'rsatganini hammamiz ko'rib-bilib turibmiz.

Yutuqlar o'z yo'liga, lekin hali odamlarimizning kun sayin o'sib borayotgan talab va ehtiyojlarini qondirish uchun yanada ko'p ishlarni bajarishimiz kerak bo'ladi.

Albatta, yuqorida tilga olingan natijalar Barqaror rivojlanish maqsadlarining **“hech kimni ortda qoldirmaslik”** tamoyili asosida fuqarolarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi ishtirokini ta'minlashga qaratilgan sa'y-harakatlarimiz mahsulidir. Shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish, ularning huquqlarini kafolatlash orqali adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasida ham tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu institutlarning konstitutsiyaviy-huquqiy maqomini ham kuchaytirish orqali demokratik davlatlarda keng qo'llaniladigan **“xalq qonunchilik tashabbusi”** institutini joriy etdik. Endilikda O'zbekiston Respublikasining saylov huquqiga ega bo'lgan, **yuz ming nafardan kam bo'lmagan fuqarolari o'zlarining qonunchilikka oid taklif va tashabbuslarini** Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga kiritishga haqlidir.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda fuqarolik jamiyati institutlari, avvalambor, nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalarining yanada faol bo'lishini ta'minlash uchun ularga keng imkoniyatlar va kuchli himoya taqdim etildi. Jumladan, Asosiy qonunimizga ilk marotaba fuqarolik jamiyati institutlariga bag'ishlangan

alohida bob kiritilishi va ular faoliyatining kafolatlari belgilanishi jamiyatda ochiqlik, oshkoralik va qonuniylik muhitini, davlat va jamiyat o'rtasidagi muloqotni yanada kuchaytirish hamda samarali jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish uchun mustahkam zamin hozirlaydi.

Ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki unga aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'lishi belgilandi. Ushbu norma jurnalistlarning turli ma'muriy bosimlardan qo'rqmasdan, erkin faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimizda axborot erkinligining yanada kengayishiga, jamiyatda ochiqlik, oshkoralik va qonuniylik muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Muhimi, bunday chora-tadbirlar davlat va jamiyat o'rtasidagi muloqotni mustahkamlash, kuchli jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish, ijtimoiy hamkorlikni chuqurlashtirish va so'z erkinligini ta'minlashga xizmat qiladi. So'nggi yillarda mamlakatimizda nodavlat notijorat tashkilotlar soni qariyb 40 foizga oshgani va ularni qo'llab-quvvatlashga 700 milliard so'mdan ortiq mablag' yo'naltirilgani ham biz yuritayotgan ochiqlik siyosatining o'ziga xos natijasi hisoblanadi.

Demokratiya, tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g'oyalariga sodiqlik

Biz o'tgan yetti yilda yangi davrga o'tish uchun mustahkam siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-ma'rifiy va madaniy poydevor yaratdik.

Jamiyatda ijtimoiy adolat ustuvorligini ta'minlash, ijtimoiy siyosat yuritish, **ijtimoiy davlat qurish** kabi maqsadlar ham doimo diqqatimiz markazida bo'ladi.

Bizning bu masalalarga katta ahamiyat qaratishimiz bejiz emas. Shu o'rinda ayrim raqamlarni keltirib o'tmoqchiman. Hozirgi paytda mamlakatimizda 2 million 200 mingdan ziyod oila ijtimoiy ko'makka

muhtoj. Aholimizning 55 foizi yoshlardan iborat. Og'ir vaziyatga tushgan, ya'ni nogironligi bor shaxslar, yolg'iz keksalar, boquvchisini yo'qotganlar, oilada zo'ravonlikka uchragan ayollar va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj boshqa qatlamlari soni 9 million nafardan oshadi.

Keyingi yillarda biz aholi turmush darajasini yuksaltirish, bandlikni ta'minlash, kafolatlangan sifatli ta'lim, malakali tibbiy yordamni rivojlantirish, barcha uchun teng imkoniyatlar yaratish, oila, bolalar, ayollar, qariyalar va nogironligi bor shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirmoqdamiz.

Shuningdek, mamlakatimizda kambag'allik muammosi borligini ilk bor tan olib, uni qisqartirish bo'yicha alohida dasturlar asosida katta ishlar qilmoqdamiz. Shu maqsadda aholi, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlar bandligini ta'minlash, ularning daromadini oshirish borasida "uchta daftar", ijtimoiy reyestr tizimini yo'lga qo'yish orqali sezilarli natijalarga erishdik.

Umuman, so'nggi yillarda biz ijtimoiy sohaga ajratilayotgan mablag'lar hajmini 5,6 barobar oshirib, 2 milliondan ortiq oilani qamrab oldik. Har yili ushbu maqsadlar uchun budjetdan yo'naltiriladigan mablag'lar 2016-yilga nisbatan qariyb 8,5 barobar ko'paydi.

Umumiy ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirishga sarflanayotgan mablag'larning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2,5 barobar, kam ta'minlangan nafaqa oluvchi oilalar qamrovi esa 5 barobar ko'paydi hamda nogironligi bo'lgan kattalar va bolalarning parvarishi bilan band bo'lgan fuqarolar uchun yangi nafaqa turlari joriy etildi.

Shuningdek, xalqimizga munosib turmush sharoiti yaratish maqsadida barcha hududlarda yangi uy-joylar barpo etilmoqda. Qariyb 390 mingta yoki avvalgi yillarga nisbatan 12 barobar ko'p uy-joylar barpo etdik.

Odamlarning shaxsiy uy-joy xarid qilish imkoniyatini kengaytirish uchun bundan to'rt yil oldin ipoteka tizimining bozor tamoyillariga

asoslangan yangi tartibi joriy etildi. Shunga asosan, o'tgan davrda ushbu maqsadlar uchun turli manbalardan 117 trillion so'm mablag' yo'naltirildi. Jumladan, kam daromadli 45 ming oilaga uy-joyning boshlang'ich badal puli va foiz to'lovini qoplash uchun 2 trillion 400 million so'mlik subsidiya berildi. Shuning hisobidan hududlarda minglab ko'p qavatli uylar qurilib, qanchadan qancha oilalar o'zining boshpanasiga ega bo'ldi.

2024-yilgi dastur doirasida respublika bo'yicha 100 mingta uy-joy qurish, ipotekani moliyalashtirish uchun barcha manbalardan 22 trillion 500 million so'm yo'naltirish rejalashtirilgan. Xususan, ipoteka kreditlari uchun qariyb 10 trillion so'm, daromadi yuqori bo'lmagan 20 ming oilaga boshlang'ich badal va foiz to'lovini qoplashi uchun 2 trillion 300 million so'm ajratiladi.

Turar joylar qurilishida "yashil standart"ni joriy qilish, ushbu mezonlar asosida bunyod etiladigan uy uchun pudratchilarga kreditlarni bir foiz chegirma bilan, ya'ni yillik 15 foiz stavkada berishni nazarda tutdik.

Kambag'allikdan chiqarish dasturiga kiritilgan va turar joyi nochor holga kelib qolgan odamlarga "mahalla yettiligi" tavsiyasi asosida o'z hovlisida uy-joy qurishi va ta'mirlash ishlarini amalga oshirishi uchun 120 million so'mgacha ipoteka krediti ajratish yo'lga qo'yiladi. Bunda kreditning 15 foizi va dastlabki besh yilda foiz stavkasining 6 foizgacha bandi budjetdan qoplab beriladi.

Bu kabi raqamlar aytishgagina oson. Ularning ortida qanchalik mashaqqatli mehnat va tinimsiz izlanishlar yotganini tasavvur qilish qiyin bo'lmasa kerak, deb o'ylayman.

Shu bilan bir qatorda, adolatli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish borasida quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratmoqdamiz:

- inson kapitalini yanada rivojlantirish, jumladan, ta'lim va tarbiya, sog'liqni saqlash, ilm-fan, madaniyat va san'at, sport sohalarini rivojlantirish;

- yangi uy-joylar qurish, aholini toza ichimlik suvi, energiya bilan ta'minlash, ijtimoiy infratuzilmalar ishini yaxshilash;

- aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami, nogironligi bo'lgan shaxslarni "iste'mol savatchasi" tarifi asosida manzilli qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalar miqdorini muntazam oshirib borish va ijtimoiy xizmatlar ko'lamini yanada kengaytirishga qaratilgan ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish.

Tahlillarga ko'ra, mamlakatimizda ijtimoiy xizmatlar sohasi shu paytgacha faqatgina davlat tomonidan ajratilgan pullarni taqsimlash bilan shug'ullanib kelgan. Bunday eskicha yondashuv ayrim odamlarni o'zini o'nglab olishga emas, balki davlatdan yordam kutib yashashga, ya'ni boqimandalikka o'rgatib qo'yganidan ham ko'z yumib bo'lmaydi. Ba'zan mehnatga layoqatli kishilarga ham nafaqa to'lab kelingan. Nogironligi bor shaxslarni tibbiy va ijtimoiy rehabilitatsiya qilish, kasbga o'rgatish orqali ularni faol hayotga qaytarish masalalariga yetarli e'tibor qaratilmagan.

Bugungi kunda ijtimoiy himoya tizimi 250 ta xizmatni qamrab oladi. Shu bois bu tizimni tubdan isloh qilish, odamlarga ko'rsatilayotgan ijtimoiy yordamning manzilli va samarali bo'lishini ta'minlashning ahamiyati beqiyos.

Ijtimoiy himoya faqatgina muhtojlarga pul tarqatishdan iborat emas, balki ularning o'z boshiga tushgan qiyinchiliklarni yengib o'tib, hayotda va jamiyatda munosib o'rin topishiga ko'maklashishi zarur. Bu sohada ham eskicha usulda ishlab bo'lmaydi. Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda bu borada samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish kerak. Eng muhimi, ushbu sohada har bir oila va inson taqdiriga alohida, professional yondashish talab qilinadi. Ana shularni hisobga olib, amaldagi ijtimoiy xizmat sohasining ish uslubi tubdan takomillashtirilmoqda.

Ayni paytda har bir mahallada yetarli bilim va malakaga ega bo'lgan mutaxassislar yordamida ijtimoiy xizmatlarni aniq va manzilli tashkil qilish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, biz yurtimizda amalga oshirilayotgan **“Kuchli ijtimoiy himoyani ta'minlash”** konsepsiyasini yangi bosqichga ko'tarish orqali chinakam ijtimoiy davlat qurishni rejalashtirganmiz. Chunki aholining muhtoj qatlami manfaatlari munosib himoya qilingan, barcha sohada adolat mustahkam qaror toptirilgan ijtimoiy davlat barpo etish — barqaror rivojlanishning eng muhim sharti ekanligi jahon tajribasidan ham yaxshi ma'lum.

Dunyodagi rivojlangan davlatlar bugun ijtimoiy davlat qurishning o'ziga xos modellarini hayotga tatbiq etmoqda. Ular tanlagan andozalarning o'zaro o'xshash va farqli jihatlari haqida uzoq gapirish mumkin.

Shubhasiz, “ijtimoiy davlat” va “inson qadri” tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Ijtimoiy davlat qurish g'oyasining negizida, avvalo, inson qadrini ulug'lash va aholiga xizmat qilishdek oliyjanob maqsad mujassam. Ushbu g'oya har bir fuqaro uchun ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillari asosida munosib yashash sharoitlarini yaratish, muhtojlarga ko'mak berish hamda aholi qatlamlari orasidagi tafovutlarni kamaytirish borasida samarali siyosat yuritadigan davlat modelini yaratishni taqozo etadi.

Milliy davlatchiligimiz tarixiga nazar solsak, o'tmishda ham ijtimoiy davlat qurish g'oyasi turli shakl va ko'rinishlarda ilgari surilganiga guvoh bo'lamiz. Xususan, turli davrlarda yashagan Abu Nasr Farobiy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat kabi qator buyuk mutafakkirlarimizning hayotda ezgulik va adolat, tenglik va hamjihatlik, ilm va ma'rifat haqidagi qarashlarini ana shunday yagona tamoyil o'zaro birlashtirib turadi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Shu o'rinda “**Bugun biz qurayotgan ijtimoiy davlatning mazmun-mohiyati qanday bo'lishi kerak?**” degan savol tug'ilishi mumkin. Mamlakatimiz taraqqiyotining o'ziga xos qonuniyatlari hamda dunyoda bu borada to'plangan tajribalarni nazarda tutgan holda, aytish mumkinki, biz barpo etayotgan ijtimoiy davlatda quyidagi masalalarga ustuvor e'tibor qaratiladi:

- har bir insonning o'z salohiyatini to'la-to'kis ro'yobga chiqarishi uchun teng imkoniyatlar yaratish, kambag'allikni qisqartirish, mavjud ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish;

- inkluziv rivojlanish hamda fuqarolarning fundamental huquq va erkinliklarini ta'minlash, ularning davlat xizmatlaridan foydalanishi uchun sharoit yaratish;

- malakali tibbiy xizmat ko'rsatish, sifatli ta'lim, ijtimoiy himoya tizimi, ilm-fan, madaniyat va san'at, sport sohalarini rivojlantirish, ekologik muhit musaffoligini ishonchli himoya qilish;

- har bir fuqaroning tinch va xavfsiz, munosib hayot kechirishiga erishish, aholi uchun yangi uy-joylar qurish, uni toza ichimlik suvi, energiya bilan ishonchli ta'minlash, ijtimoiy infratuzilmalar faoliyatini yaxshilash.

Biz yangi tahrirdagi Konstitutsiyada jonajon O'zbekistonimizni millati, tili va dinidan qat'i nazar, uning har bir fuqarosi tinch va erkin, baxtli va farovon yashaydigan **ijtimoiy davlat** deb e'lon qildik. Shuningdek, inson qadrini yanada ulug'lash va aholini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha davlatning konstitutsiyaviy majburiyatlari 3 barobar ko'paytirildi.

Ayni paytda yurtdoshlarimiz konstitutsiyaviy islohotlarimizdan, O'zbekistonda joriy etilayotgan yangi tizimdan ko'p narsalarni umid qilmoqda. Biz shularni inobatga olib, inson qadr-qimmatini va manfaatlarini ta'minlash bo'yicha boshlagan ishlarimizni yangi konstitutsiyaviy makonda yanada qat'iy va izchil davom ettiramiz.

Ushbu maqsadlar uchun davlat budjetidan har yili qo'shimcha 30–40 trillion so'm mablag' sarflanishi nazarda tutilgan. Chunki yangilangan Asosiy qonunimizda O'zbekiston iqtisodiyoti avvalgidek faqatgina bozor munosabatlarini rivojlantirishga emas, balki birinchi galda fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilishi belgilab qo'yilgan.

Inson kapitalini rivojlantirish

O'zbekistonning dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'lishiga erishish, ilm-fan, ta'lim-tarbiya va sog'liqni saqlash tizimlarini jadal rivojlantirish orqali jamiyatda inson kapitalini yuksaltirish mumkin.

Bugun O'zbekiston tom ma'noda yangi Renessans markaziga aylanmoqda. Zotan, har qanday islohot va o'zgarishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, mamlakatning siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa sohalarda raqobatbardosh bo'lishini ta'minlash uchun chuqur bilim va tafakkurga ega insonlarga ehtiyoj juda baland.

Ajdodlarimiz ilmning insoniyat taraqqiyoti va mamlakat ravnaqi borasidagi ahamiyati haqida ko'plab risolalar bitganlar. IX–X asrlardayoq yurtimizning Samarqand, Buxoro, Termiz, Farg'ona kabi shaharlarida qator maktabu madrasalar faoliyat ko'rsatgan. Ayniqsa, Xorazm Ma'mun akademiyasi o'sha kezlarda nafaqat mintaqamiz, balki butun musulmon olamida eng yirik ilm-ma'rifat markazlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Yana bir ahamiyatli tomoni, qator tarixchi olimlar, ilm-fan namoyandalari va xalqaro ekspertlarning qayd etishicha, hozirgi Samarqand davlat universiteti o'rta asrlarda tamal toshi qo'yilgan Mirzo Ulug'bek madrasasining vorisi hisoblanadi.

O'z davrining oliy o'quv dargohlari hisoblangan bunday madrasalarda ta'lim olgan zakiy va donishmand bobolarimizdan qiymatini hech

qanday mezon bilan o'lchab bo'lmaydigan bebaho ma'naviy xazina — qariyb 100 mingta qo'lyozma va toshbosma asarlar bizga meros qolgan.

Keyingi yillarda dunyoning turli chekkalaridan yana yuzlab noyob qo'lyozmalar yurtimizga qaytarildi. Shuningdek, matematika, astronomiya, fizika, kimyo, geodeziya, farmakologiya, tibbiyot, tarix, geografiya, falsafa, madaniyat, san'at, arxitektura va fiqhga doir yana qanchadan qancha qimmatli manbalar aniqlanib, tegishli ilmiy muassasalarga topshirilmoqda.

Bir o'ylab ko'raylik, jahon sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa qo'shgan ajdodlarimiz ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasida yuksak cho'qqilarga qanday erishganlar?

Ular, eng avvalo, jaholatga qarshi ma'rifat bayrog'ini baland ko'tarib, o'z aql-zakovati va salohiyatini bashariyat yaratgan ilm-fan yutuqlarini chuqur o'rganish va yanada boyitishga bag'ishlagani uchun ana shunday baland maqomga sazovor bo'lishgan. Binobarin, shunday ekan, ularning betakror ilmiy-ma'naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi, barchamizga kuch-quvvat va ilhom bag'ishlashi lozim.

Hamisha ilm va komillikka intilib yashagan donishmand xalqimiz tiynatida ma'rifatga chanqoqlik hissi bugun ham bardavom yashamoqda. Shu bois biz keyingi yillarda yurtimizda juda ko'plab zamonaviy ta'lim muassasalari barpo etib, iqtidorli o'g'il-qizlarimizni ularga jalb qilyapmiz. Endilikda ana shu yoshlarning ong-u shuurini nimalar bilan to'ldirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur.

O'lkamiz o'tmishda ikki bor buyuk Uyg'onish davrining zavqi va shukuhiga guvoh bo'lgan. IX–XII asrlarda yuz bergan Birinchi Renessans tom ma'noda Sharqning uyg'onishiga keng yo'l ochgan bo'lsa, XIV–XV asrlarda paydo bo'lib, tarix zarvaraqlariga "Temuriylar Renessansi" degan sharafli nom bilan muhrlangan galdagi taraqqiyot to'liqini butun

dunyoda ilm-fan, madaniyat, san'at, iqtisodiyot va davlatchilik asoslarini rivojlantirishga juda katta hissa qo'shdi.

O'tgan asr boshlarida qizg'in faoliyat olib borgan jadid bobolarimiz ham madrasa ko'rgan zakovatli insonlar sifatida istiqlol, taraqqiyot va farovonlikka faqatgina ilm-ma'rifat orqali erishish mumkinligini yaxshi anglaganlar. Ularning peshqadam vakillaridan biri hisoblangan Abdulla Avloniyning:

**Ey millat, uxlama, ilm olur chog'i,
Har millat ilm oldi, yondi chirog'i, –**

degan da'vatkor satrlari ham shundan dalolat beradi.

Turli davrlarda yashagan alloma va mutafakkir ajdodlarimiz har qanday qiyinchilik va sinovlarga qaramasdan, ilm-fanni taraqqiy ettirish yo'lidagi o'z burchiga, gumanizm va ma'rifatparvarlik g'oyalariga hamisha sodiq qolib, tom ma'noda ma'naviy jasorat namunasini ko'rsatganlar.

Afsuski, taqdir taqozosi bilan xalqimiz uzoq yillar ajdodlarimiz merosidan yetarlicha bahramand bo'lolmadi. Biz vaqtda ota-bobolarimiz qo'l urgan kashfiyotlarni davom ettirib, ularni takomiliga yetkazmadik. Yevropalik olimlar bizning o'lkamizda zuvalasi qorilgan ilmlarni qizg'in o'rganib, olamshumul yutuqlarga erishgani ham ayni haqiqatdir. Bugun ana shu xatolardan kerakli xulosalar chiqarib, ilm-fanga rag'batimizni oshirishimiz lozim.

Biz buyuk ajdodlarimizning yutuqlari bilan faxrlanibgina qolmasdan, ularga munosib avlod bo'lishga ham intilishimiz kerak.

Shu ma'noda, O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini bunyod etish g'oyasining har tomonlama chuqur hayotiy asoslarga ega ekanligini anglash qiyin emas. Zero, dunyoda zamonaviy texnologiyalar jadal rivojlanayotgan, barcha sohalarda raqobat va qarama-qarshiliklar

shiddatli tus olayotgan bir davrda biz uchun ilm va taraqqiyotdan o'zga najot yo'q va bo'lishi ham mumkin emas.

Iqtisodchilarning hisob-kitoblariga ko'ra, bugungi kunda dunyo miqyosida to'plangan jami boylikning 16 foizi ishlab chiqarish vositalari, 20 foizi tabiiy resurslar hissasiga to'g'ri kelsa, naq 64 foizi, ya'ni uchdan ikki qismi bevosita insonning aqli va salohiyati, bilimi va tajribasi mahsulidir.

Shundan ham ko'rinadiki, zamonaviy axborot-kommunikatsiya, raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellekt texnologiyalari jadal rivojlanayotgan hozirgi paytda har bir mamlakatning raqobatbardoshligi ko'p jihatdan uning inson kapitali darajasi bilan belgilanadi.

Biz Yangi O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilgan ekanmiz, bunga faqatgina ilm-ma'rifat va inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan islohotlarni jadallashtirish hamda innovatsion iqtisodiyotga o'tish orqali erishish mumkinligini unutmasligimiz zarur.

Shu ma'noda, bundan buyon **bilim, ta'lim va tarbiya — Yangi O'zbekistonning tayanch ustunlariga aylanishi shart.** Bugun barcha sohalarda taraqqiyot sari yuz tutayotgan jonajon Vatanimiz uchun bilimli, tajribali va har tomonlama yetuk kadrlar suv va havodek zarur.

Biz oldimizga qo'ygan ulug'vor maqsadlarimizga erishish yo'lida eng zamonaviy texnika va texnologiyalarni o'zlashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizga axborot va raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish hamda inson taraqqiyotiga xizmat qiladigan har qanday ilg'or g'oyalarni o'zlashtirishga qaratilgan pragmatik siyosatimizni izchil davom ettiramiz.

So'nggi yillarda qator farmon va qarorlar qabul qilinib, bu borada mustahkam zamin yaratildi. Maktabgacha ta'lim, umumta'lim va oliy ta'lim tizimi ham mazmun va sifat jihatidan yangilanib bormoqda. Jumladan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ilk bor **o'qituvchining maqomi alohida belgilanib,** ta'lim tizimini rivojlantirish davlatning

bosh vazifalari qatoriga kiritildi. Ayniqsa, o'qituvchilarning zahmatli mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash hamda xalqimiz ma'naviy-ma'rifiy salohiyatini yuksaltirishning asosi sifatida e'tirof etilgani har jihatdan o'rinli bo'ldi. Shuningdek, Asosiy qonunimizda davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishi, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi ham mustahkamlab qo'yildi.

Xo'sh, biz nega bu masalaga alohida e'tibor qaratmoqdamiz? Chunki jamiyatda o'qituvchining maqomi ko'tarilsa, o'z-o'zidan maktabning ham obro'si oshadi, ilm-fan, ta'lim-tarbiya sohalarining qadri va ahamiyati yuksaladi. **Muallimning obro'-e'tibori — millatning, butun xalqning obro'-e'tiboridir.**

Shu bilan birga, yangilangan Konstitutsiyaga:

- davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarining rivojlanishini ta'minlashi;
- fuqarolar davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma'lumot olishga haqli ekanligi hamda oliy ta'lim tashkilotlariga akademik erkinlik berilishi, ularning o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish huquqidan foydalanishiga oid normalar ham kiritildi.

Bunday yangiliklar mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 685 ming nafardan ziyod pedagogning ijtimoiy mavqeyini yanada mustahkamlash, ularning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini kuchaytirish va kasbiy o'sishini ta'minlash imkoniyatlarini yaratishi bilan ham ahamiyatlidir.

So'nggi yillarda ta'lim sohasidagi islohotlar doirasida mamlakatimizda ko'plab yangi bog'chalar, maktab va oliy o'quv yurtlari barpo etilmoqda. Ta'lim-tarbiya va ilm-fan muassasalarining moddiy-texnik bazasi, kadrlar salohiyati mustahkamlanmoqda. Darslik va o'quv qo'llanmalarining yangi, zamonaviy avlodi yaratilmoqda.

Soha xodimlarining mashaqqatli mehnatini munosib qadrlash va rag'batlantirish doimiy e'tiborimiz markazida bo'lib kelmoqda.

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim bo'yicha qamrov darajasini 27 foizdan 72 foizga, oliy ta'limda esa 9 foizdan 42 foizga ko'paytirib, oliygohlar sonini 77 tadan 212 taga yetkazishga erishganimiz ham eng muhim yutuqlarimiz sirasiga kiradi.

Shu o'rinda nisbatan qisqa vaqt davomida ta'lim-tarbiya sohasida qabul qilingan dasturlar asosida 261 ta yangi umumiy o'rta ta'lim muassasasini qurish, 2,5 mingta maktabni kengaytirish hisobidan qo'shimcha 700 ming o'quvchi o'rni yaratilganini ham ta'kidlash joiz. Bugungi kunda mamlakatimizda 10 ming 284 ta maktab faoliyat ko'rsatmoqda.

Maktablardagi shart-sharoit va o'qitish sifatini yaxshilash bo'yicha ham salmoqli ishlar amalga oshirildi. Shu bois har yili maktabni tamomlayotgan o'rtacha 400 ming o'quvchining 170 ming nafari ta'limni davom ettirmoqda.

Ma'lumki, rivojlangan davlatlarda maktab bitiruvchilarining 50 foizidan ko'prog'i professional ta'lim muassasalariga o'qishga kiradi. Respublikamizda hozirgacha 208 ta maktabning yuqori sinf o'quvchilarini 3 ta yo'nalish bo'yicha kasbga o'rgatish yo'lga qo'yildi. Bu yo'nalishdagi ishlarni ham izchil davom ettirishimiz zarur.

Tahlillarga ko'ra, oxirgi ikki yilda chet tilini bilish sertifikatiga ega bo'lgan maktab bitiruvchilarining soni 6 ming nafardan 18 ming nafarga ko'paygan. 2023-yilda xorijdan taklif etilgan 500 nafar chet tili mutaxassisi maktablarimizda ish boshladi. Kelgusi yillarda ularning sonini 3 barobar oshirish hamda 10–11-sinflarda bir qator fanlarni o'quvchilarning tanlovi asosida chuqurlashtirilgan holda o'qitishni rejalashtirganmiz.

Ta'lim muassasalarida chet tillarni o'qitishga bu darajada katta e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Maktabni dunyo imoratlarining eng ulug'i,

deb hisoblagan ma'rifatparvar jadid bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy o'z davrida **“Bizga ikki emas, to'rt til kerak!”** degan g'oyani ilgari surib, shu orqali diniy va dunyoviy ilmlarni chuqur o'rganish hamda tashqi dunyo bilan aloqalarni mustahkamlash mumkinligini asoslab bergan edi.

Ana shu hayotiy shior bugungi kunda ayniqsa katta ahamiyat kasb etmoqda. Bir necha tillarni puxta egallagan shijoatli va izlanuvchan yoshlar Yangi O'zbekistonni bunyod etish va Uchinchi Renessans asosini yaratish bo'yicha belgilab olgan ulkan maqsad va rejalarimizni amalga oshirishda hal qiluvchi kuch vazifasini o'tashi hech kimga sir emas.

Ta'lim sifatini oshirish — hech qachon yakuniga yetmaydigan uzluksiz jarayon hisoblanadi. Biz ham bu boradagi islohotlarni izchil davom ettirib, yaqin kelajakda soha xodimlarining o'rtacha ish haqini 2 barobar ko'paytirishni rejalashtirganmiz. Shuningdek, dastlabki bosqichda ming nafar tarbiyachi va o'qituvchi rivojlangan xorijiy mamlakatlarga malaka oshirishga yuboriladi. Keyinchalik ularning soni muntazam oshirib boriladi.

Shuningdek, o'qituvchilarni ishga qabul qilish, ularning malakasini oshirish va toifa berish tizimi ham tubdan takomillashtiriladi. Bir so'z bilan aytganda, biz ta'lim-tarbiya sohasini rivojlantirishga bundan buyon ham ustuvor ahamiyat qaratib, farzandlarimizni milliy g'urur, Vatanga muhabbat, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash uchun nimaiki lozim bo'lsa, hammasini amalga oshiramiz.

Yaqin kelajakka mo'ljallangan taraqqiyot yo'limizda dasturilamal vazifasini o'taydigan **“O'zbekiston — 2030”** strategiyasida ham xalqimizning taklif va istaklari asosida ta'lim tizimini yanada ravnaq toptirish bo'yicha ulkan rejalar belgilab olingan. Ana shu ustuvor vazifalarni ro'yobga chiqarish, ona Vatanimizning kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan yangi avlodni tarbiyalash barchamizdan katta kuch-g'ayrat va azm-u shijoat bilan mehnat qilishni talab etadi.

Biz, avvalambor, tashabbuskor islohotchi sifatida maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, katta bilim va malakaga ega bo'lgan yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur.

O'rni kelganda yana bir haqiqatni ta'kidlash lozim: vaqtida ajdodlarimizning ham eng katta orzusi hisoblangan har tomonlama yetuk va barkamol avlodni tarbiyalash uchun biz ta'lim-tarbiya sohasini yuksaltirish bilan bir qatorda, fuqarolar salomatligini yaxshilash hamda jamiyatda sog'lom turmush madaniyatini mustahkam qaror toptirishga ham ustuvor ahamiyat qaratishimiz zarur.

Aynan shuning uchun ham, yurtdoshlarimizning davlat hisobidan kafolatlangan tibbiy yordam olish huquqi Konstitutsiyada muhrlab qo'yildi. Xususan, davlat bundan buyon:

- sog'liqni saqlash tizimini, uning davlat va nodavlat shakllarini, tibbiy sug'urtaning turlarini rivojlantirish;
- aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta'minlash choralari ko'rish;
- jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish kabi vazifalarni o'z zimmasiga oladi.

Muxtasar aytganda, bugungi shiddatli davrning o'zi bizdan mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati, ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash, ilm-fan, madaniyat va sport sohalarini rivojlantirish bo'yicha yangi-yangi imkoniyatlarni izlab topish va ishga solishni talab etmoqda.

Konstitutsiya va qonun ustuvorligi

Biz uchun Yangi O'zbekiston — huquqiy, adolatli qonunlar amal qiladigan, mustaqil sudlar odil qarorlar chiqaradigan, Konstitutsiya va qonun ustuvorligi ta'minlangan davlat.

Adolatli qonunlar va qarorlar qabul qilish, ularni hayotga tatbiq etish, amalga oshirish ustidan samarali monitoring o'rnatish, barchaning qonun oldida tengligini ta'minlash kabi tamoyillar aholi farovonligini ta'minlashga qaratilgan islohotlarimizdan ko'zlangan maqsadlarga erishishning eng zarur shartidir.

Shuning uchun xalqimizning xohish-irodasiga binoan **yangi Konstitutsiyamizda o'z aksini topgan hayotiy tamoyillarni** to'liq ro'yobga chiqarish va **hayotimizning ajralmas qismiga aylantirish** lozim. Biz bunday sharaflı yo'lda oldimizda uchraydigan har qanday qiyinchilik va muammolarni davlat, jamiyat va biznes uyg'unligining imkoniyatlaridan oqilona foydalangan holda yengib o'tib, albatta maqsadimizga erishamiz.

Biz keyingi vaqtlarda "Qonun — muqaddas, har qanday holatda ham adolatni qaror toptirish shart!" degan ezgu tamoyilni jamiyatning har bir a'zosi, ayniqsa, mansabdorlar uchun hayotiy qoidaga aylantirish borasida tizimli ishlarni amalga oshirmoqdamiz.

Shu o'rında yana bir bor ta'kidlamoqchiman: davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi va bir-biridan mustaqil ravishda faoliyat yuritishi hamda ular orasida o'zaro tiyib turish va muvozanatni saqlash kabi konstitutsiyaviy prinsiplarni to'liq amalga oshirish orqali jamiyatda qonun ustuvorligini to'liq ta'minlash mumkin. Bu prinsiplarga amal qilinmas ekan, hech qachon huquqiy davlat qurib bo'lmaydi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada Yangi O'zbekistonning siyosiy-huquqiy asoslari mustahkamlanib, milliy davlatchilik taraqqiyotining hozirgi muhim tarixiy bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishga oid ustuvor yo'nalishlar belgilab berildi.

2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan referendum ko'p millatli xalqimizning O'zbekiston taraqqiyoti yo'lidagi birdamligi va hamjihatligi, suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat qurish borasidagi yakdilligini yaqqol namoyon etdi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada zamonaviy davlatchiligimizning **beshta muhim ustuni**, ya'ni **O'zbekiston — suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy, dunyoviy davlat** ekanligi qat'iy belgilab qo'yildi. Ushbu tushunchalarning mazmuni tubdan takomillashtirilib, yangi bob va moddalar bilan boyitildi.

Konstitutsiyamizda ilk bor O'zbekiston Respublikasiga huquqiy davlat degan ta'rif berilib, inson huquqlari kafolatlariga oid normalar ham 3 barobar ko'paytirildi. Bu — avvalambor, barcha sohada qonun ustuvorligi ta'minlanadi, degani. Bundan buyon qonunlardagi har qanday noaniqlik inson foydasiga hal etiladi. Shu bilan birga, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish uchun sudlarning odil va mustaqil ish yuritishini amalda ta'minlashimiz zarur.

Shu maqsadda, Asosiy qonunimizda sud qarorisiz hech kim 48 soatdan ortiq ushlab turilishi mumkin emasligi belgilandi. Erkinlikni cheklash faqat sud qarori asosida amalga oshirilishi haqidagi qoida ham joriy qilindi. Ayblanuvchining o'ziga qarshi ko'rsatma bermaslik, ya'ni sukut saqlash huquqi ham birinchi marta konstitutsiyaviy asosga ega bo'ldi. Advokatlarning maqomi oshirilib, ular tergovchi va prokuror bilan teng vakolatlarga ega bo'ldi.

Tom ma'noda xalqchil mazmun va ahamiyat kasb etgan **Asosiy qonunimiz** Yangi O'zbekistonni barpo etishga qaratilgan keng ko'lamli **islohotlarimizning mustahkam huquqiy kafolati** bo'lib xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, jamiyatimizda Konstitutsiya va qonunlar ustuvorligini ta'minlash, **davlat organlari faoliyatini yangicha konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitga mos holda yo'lga qo'yish** borasida ham tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, amaldagi qonunlarimizni yangi konstitutsiyaviy normalar bilan uyg'unlashtirish yuzasidan jadal ish olib borilmoqda. Xususan, qisqa muddatda 30 dan ziyod qonun va qonunosti hujjatlari yangi Konstitutsiya talablariga muvofiqlashtirildi.

Konstitutsiya va qonun ustunligi — barqaror taraqqiyotning asosiy mezonini hisoblanadi. Biz so'nggi yillarda barcha islohotlarimizni aynan mana shu tamoyil asosida amalga oshirmoqdamiz.

Muhimi, mamlakatimizda bu borada yuz berayotgan keng ko'lamli o'zgarishlar va ularning natijalari xalqaro maydonda ham e'tirof etilmoqda. Jumladan, qisqa vaqt ichida O'zbekiston Huquq ustuvorligi indeksida 13 pog'onaga ko'tarildi.

Shu o'rinda xalqimizning xohish-irodasiga binoan **Asosiy qonunimizda o'z aksini topgan tamoyillarni to'liq ro'yobga chiqarish** va ularni **hayotimizning ajralmas qismiga aylantirish** bo'yicha amalga oshiriladigan eng asosiy chora-tadbirlar haqida qisqacha to'xtalib o'tmoqchiman.

Birinchidan, Konstitutsiyamizda davlat hokimiyatining yagona manbai xalq ekanligi belgilab qo'yilgan. Shundan kelib chiqib, fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan islohotlar izchil davom ettiriladi.

Ikkinchidan, Konstitutsiyani jamiyat hayotining barcha jabhalarida to'g'ridan to'g'ri va bevosita qo'llash amaliyotiga o'tishimiz zarur. Shundagina xalqimiz Asosiy qonunimizning hayotbaxsh kuchi va ta'sirini teran his etishi mumkin.

Bu borada barcha davlat idoralari, jumladan, sudlar faoliyatida konstitutsiyaviy normalarni to'g'ridan to'g'ri qo'llashni joriy etish bo'yicha amaliy choralar ko'riladi.

Uchinchidan, sud-huquq islohotlari yangi konstitutsiyaviy makonga uyg'unlashtiriladi. Bu jarayonda sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini inson huquqlari, erkinliklari va ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirish ustuvor vazifa hisoblanadi.

To'rtinchidan, huquqiy ta'sir choralari qo'llashda mutanosiblikni ta'minlash bo'yicha konstitutsiyaviy tamoyilni ro'yobga chiqarish maqsadida qonun hujjatlaridagi 150 dan ortiq qoidalar to'liq qayta ko'rib

chiqiladi. Jumladan, ayrim qilmishlarni jinoyatlar toifasidan chiqarish va ularga nisbatan jazo turlarini o'zgartirish, fuqaroviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ma'muriy javobgarlikni bekor qilish borasida ham huquqiy islohotlar amalga oshiriladi.

Beshinchidan, Konstitutsiyamizda insonning sha'ni va qadr-qimmati daxlsiz ekanligi qat'iy belgilab qo'yilganini inobatga olib, uning huquqlari va qonuniy manfaatlariga zid keladigan har qanday harakatlarga qarshi kurashish eng muhim vazifalarimizdan biri bo'lib qoladi.

Oltinchidan, barcha islohotlarimizda inson va uning manfaatlari birinchi o'rinda turadi. Xalqimizning farovon va qulay hayot kechirishini ta'minlash davlat organlarining vazifasidir.

O'z navbatida, fuqaro va davlat o'rtasidagi munosabatlarda mavjud byurokratik to'siqlarni keskin qisqartirish hamda ushbu jarayonda uchrayotgan korrupsiyaviy omillarni bartaraf etishga qaratilgan ishlarni ham izchil davom ettirishimiz kerak.

Yettinchidan, biz "**Yangi O'zbekiston — ma'rifatli jamiyat**" konsepsiyasi asosida konstitutsiyaviy ta'lim masalasiga ham alohida e'tibor qaratmoqdamiz. Mamlakatimiz Parlamenti tomonidan shu maqsadda **Konstitutsiyani o'qib-o'rganish bo'yicha Milliy faoliyat dasturi** qabul qilindi. Asosiy qonunimizni o'rganishni maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab, barcha darajadagi ta'lim muassasalari, aholining turli qatlamlari va ayniqsa, davlat xizmatchilarini ushbu jarayonga to'liq jalb etish lozim. Bu borada **davlat xizmatiga ishga qabul qilishda Konstitutsiya asoslari bo'yicha imtihonlar o'tkazish tizimini** tatbiq etish yaxshi samara berishi shubhasiz.

Sakkizinchidan, Konstitutsiya va qonunlar ustunligini ta'minlashda davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamoatchilik oldidagi hisobdorligini oshirish ham muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston tajribasi va turli mamlakatlardagi rivojlanish jarayonlarining tahlili islohotlarning samaradorligi va ortga qaytmasligini

ta'minlash uchun, avvalo, ularning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini rivojlantirish hamda adolatli qonunlar va qarorlar qabul qilish zarurligini ko'rsatmoqda. Negaki, agar qonunchilik rivojlanishdan to'xtab, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy munosabatlardan ortda qolsa, bu hol ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa sohalarda ham tizimli tus olib, hatto murosasiz qarama-qarshiliklarga olib kelishi mumkin.

Shu bois biz qonun ijodkorligi faoliyatining islohotlar bilan uyg'unligini ta'minlash va davlat huquqiy siyosatining institutsional asoslarini rivojlantirishni islohotlarimizning asosiy maqsadlaridan biri sifatida belgiladik.

Mustaqillik yillarida inson, jamiyat va davlat hayoti hamda islohotlarning turli sohasini huquqiy jihatdan ta'minlashga qaratilgan kodekslarning 23 foizi, qonunlarning 39 foizi, Prezident farmonlari va qarorlarining 55 foizi so'nggi 7 yilda qabul qilingani ham bu yo'nalishda amalga oshirayotgan ishlarimizning sur'ati baland va ko'lami keng ekanligidan dalolat beradi.

Eng muhimi, yangi tahrirdagi Konstitutsiya va o'zgarayotgan qonunlarimiz, avvalambor, inson qadri, uning huquq va erkinliklarining kafolatlarini sezilarli darajada kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Xususan, O'zbekistonda:

- o'lim jazosini taqiqlashning konstitutsiyaviy darajada belgilanishi insonni hayotdan, hatto davlat ham mahrum etishga haqli emasligini kafolatlaydi;

- shaxs sudning qarorisiz 48 soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emasligi, uning erkinligini cheklash bilan bog'liq har qanday harakat faqat sud qarori asosida amalga oshirilishi Konstitutsiyada muhrlab qo'yildi. Ushbu qoida tergov organlari tomonidan shaxsni noqonuniy hibsga olish va asossiz qamoqda saqlashga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan. Shu orqali xalqaro e'tirof etilgan "Xabeas korpus" institutini amaliyotda qo'llash ko'lami yanada kengaydi;

- ilk bor shaxsni ushlab chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shartligi, ayblanuvchi va sudlanuvchilarga o'ziga qarshi ko'rsatma bermaslik ("Miranda qoidasi") hamda sukut saqlash huquqi berildi;

- birinchi marotaba har kim mamlakatimiz qonunchiligi va xalqaro shartnomalariga muvofiq, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo'lgan bo'lsa, inson huquqi va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etishga haqli ekanligi haqidagi qoida mustahkamlab qo'yildi. Bu esa, o'z navbatida, fuqarolarning huquq va erkinliklari nafaqat milliy qonunchiligimiz, balki xalqaro huquq asosida ham himoyalanihini ta'minlaydi.

Shuningdek, Konstitutsiyamizda aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi zarurligi qayd etildi. To'g'ridan to'g'ri amal qiluvchi mazkur norma tergov va sud jarayonida faqat ishonchli va qonuniy dalillardan foydalanishni ta'minlaydi hamda shaxsni asossiz ravishda javobgarlikka tortilishdan himoya qiladi.

Asosiy qonunimizda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlashga, hech kim o'ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emasligi haqidagi normalar ham o'z aksini topgan.

Ushbu qoidalar jinoiy ta'qib ostidagi har qanday shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlariga nisbatan ruhiy bosim va turli tahdidlar uyushtirish, ularning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitish kabi noqonuniy usullarni qo'llashning oldini olishga xizmat qiladi.

O'z navbatida, shaxsning o'z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil hisoblangan taqdirda, uni aybdor deb topish yoki jazoga tortish mumkin emasligi ham kafolatlandi. Bu hol sodir etilgan jinoyat bo'yicha

asl haqiqatni va uning sababchilarini aniqlash, eng muhimi, aybsiz insonlarni javobgarlikka tortishning oldini olishga yordam beradi.

Kezi kelganda, mamlakatimiz qonunchiligi tarixida birinchi bor ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarga nisbatan insoniy muomalada bo'lish, ularning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga oid huquqiy normalar ham konstitutsiyaviy asosda belgilab qo'yilganini ham qayd etish joiz. Shuningdek, bundan buyon shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlarining huquqlarini cheklash uchun asos bo'lolmaydi.

Umuman, yangi tahrirdagi Konstitutsiya va qonunchiligimizdagi ko'plab yangiliklar mustabid tuzum davridan "meros bo'lib qolgan" aybsiz odamlarni xo'rlash, ularning haq-huquqlarini oyoqosti qilishdek chirkin illatlarga, qanchadan qancha yoshlarimizni o'zining ezgu orzu-umidlaridan voz kechishga majbur qilgan noinsoniy taqiqlarga chek qo'yishga qaratilgani bilan ayniqsa ahamiyatlidir.

Shu bilan birga, O'zbekiston taraqqiyotini ta'minlash uchun faqatgina qonunlarning adolatli va islohotlar bilan uyg'un bo'lishiga erishishning o'zi kifoya qilmaydi. To'plangan tajribalar shundan dalolat beradiki, biron sohada uni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari qancha ko'p bo'lsa, bu hol uning rivojiga emas, aksincha, zarariga ishlatilishi ham mumkin.

Demak, vaqti-vaqti bilan fuqarolik jamiyati institutlari, biznes hamjamiyati, olimlar, ekspertlar va oddiy insonlar ishtirokida amaldagi majburiy qoida hamda talablarni tanqidiy ko'rib chiqish amaliyotini yo'lga qo'yish lozim. Shu yo'l bilan ularning sonini maqbullashtirish va qisqartirish, barchaga birday tushunarli bo'lishiga erishish, tadbirkorlar va boshqa xo'jalik subyektlarini ortiqcha ma'muriy bosimdan xalos qilish mumkin.

Biz ana shularni hisobga olib, 2030-yilgacha mamlakatimizda huquq tizimining raqobatbardoshligini oshirish, aholi va tadbirkorlik

subyektlari uchun qulay hisoblangan sodda va ixcham qonunchilik tizimini yaratishni rejalashtirganmiz. Bu yo'nalishda quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratiladi:

- qonunchilik hujjatlarini maqbullashtirish orqali tartibga solish yukini kamida 30 foizga qisqartirish;
- to'g'ridan to'g'ri amal qiladigan qonunlar qabul qilish amaliyotini kengaytirish va ularning qonunchilikdagi ulushini kamida 60 foizga yetkazish;
- idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishning aniq chegaralarini belgilash orqali ularning sonini keskin qisqartirish;
- normativ-huquqiy hujjatlar ijrosining samarali monitoringi qamrovini 100 foizga yetkazish.

Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash

Biz barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va yaqin kelajakda O'zbekistonimizning daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olishiga erishishni maqsad qilib qo'ydik.

Ma'lumki, inson, jamiyat va davlatning bir maromda ravnaq topishiga erishish hamda yurtdoshlarimizning erkin, farovon va tinch hayot kechirish haqidagi orzu-istaklarini ro'yobga chiqarish va ularni hayotdan rozi qilish uchun, eng avvalo, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashimiz zarur.

Shu haqda gapirganda bir haqiqatni ishonch bilan ayta olamiz: oradan o'tgan nisbatan qisqa davr ichida biz murakkab va sharaflı yo'lni bosib o'tdik. Albatta, bu boradagi yutuq va muvaffaqiyatlarimiz haqida uzoq gapirish mumkin. Lekin "Erishilgan natijaning o'zi eng yaxshi ko'zgudir", deb bejiz aytishmagan. Chindan ham, bizning qo'lga kiritgan marralarimiz ko'p narsalarni anglatadi. Eng muhimi, har bir yurtdoshimiz ularning natijasini o'z hayotida his qilmoqda.

Buning tasdig'i sifatida birgina misolni tilga olmoqchiman: bundan atigi yetti yil oldin, asosan, paxta, oltin, mis va gaz xomashyosini sotishdan keladigan daromad hisobidan kun kechirgan O'zbekiston, qisqa muddatda mintaqamizdagi iqtisodiyoti diversifikatsiya qilingan, tayyor mahsulotlar eksportining hajmi jadal o'sib borayotgan davlatga aylandi.

Raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak, bu davrda mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot hajmi 52 milliard AQSH dollaridan 80 milliard AQSH dollariga ko'paydi. Aholining xarid qobiliyati va o'rtacha oylik ish haqi qariyb 2 barobar oshib, bugungi kunda 360 AQSH dollarini tashkil etmoqda. Bular — mamlakatimiz jadal rivojlanayotganidan dalolat beruvchi muhim ko'rsatkichlardir.

Biz bunday natijalarga, avvalo, yurtimizda qulay investitsiya va ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, jumladan, mulk daxlsizligini ta'minlash, bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun sharoit yaratish, xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash, soliq ma'muriyatini yanada soddalashtirish va davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini kamaytirish orqali erishdik. O'zbekiston iqtisodiyotini xilma-xil mulkchilik shakllari asosida rivojlantirish va fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan bunday tamoyillar yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ham belgilab qo'yildi.

Shuningdek, biz iqtisodiyotimizning qishloq va suv xo'jaligi, sanoat, energetika, transport, qurilish kabi yetakchi sohalariga katta-katta sarmoyalarni jalb qildik. Mamlakatimizda 60 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiyalar o'zlashtirildi. Xalqaro moliya institutlarining 14 milliard dollardan ortiq mablag'lari ijtimoiy va infratuzilma sohalariga jalb qilindi.

Eng asosiysi, yurtdoshlarimiz, ayniqsa, tadbirkorlar shu chog'gacha o'zlarini qiynab kelgan qo'rquv va umidsizlikdan xalos bo'lib, oilasi, farzandlarining bugungi va ertangi kuniga qat'iy ishonch bilan qaray

boshladi. Bir so'z bilan aytganda, O'zbekistonda faol tadbirkorlar sinfi shakllanib, ular jamiyatimizni harakatga keltiruvchi haqiqiy kuchga, islohotlarimizning chinakam drayveriga aylandi. Biz ham ular bilan to'g'ridan to'g'ri muloqotni yo'lga qo'ydik.

Ochiq aytish kerak, bunday islohotlarni boshlaganimizda uning natijasiga shubha bilan qaraganlar ham ko'p bo'ldi. Nima bo'lganda ham, biz ishbilarmon va tadbirkor yurtdoshlarimizga ishonib, ularning tashabbus va shijoatiga tayanib ulkan ishlarni amalga oshirdik.

Ayni kezlarda esa O'zbekistonning sezilarli darajada yuksalgan iqtisodiy salohiyatini hisobga olib, yanada yuqori marralarni belgilayapmiz. Xususan, 2030-yilga borib mamlakatimiz iqtisodiy quvvatini 2 barobarga oshirish orqali yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard AQSH dollariga yetkazish rejalashtirilgan. Bu — aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot hajmi hozirgi 2,2 ming AQSH dollaridan 4 ming AQSH dollariga yetkaziladi, degani. Shu orqali O'zbekiston “daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar” qatoridan joy oladi.

Xo'sh, ushbu vazifani qanday amalga oshiramiz? Bu borada qanday g'oya va tamoyillarga tayanishimiz lozim?

Birinchiidan, bilimlar va innovatsion iqtisodiyot asoslarini mustahkamlash, ilg'or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirishga e'tibor qaratishimiz zarur.

Bir narsani aslo unutmashimiz zarur: **innovatsiya — bu kelajak degani.** Biz ayni kezlarda ertangi yorug' kunlarga tamal toshi qo'yayotgan ekanmiz, bu borada, eng avvalo, innovatsion g'oya va yondashuvlarga tayanishimiz kerak. Dunyodagi yetakchi mamlakatlar “To'rtinchi sanoat inqilobi”, “Bilimlar iqtisodiyoti” va “Innovatsion iqtisodiyot”ga qadam qo'yayotgan bir sharoitda, aynan innovatsiyalar iqtisodiyotimiz ravnaqi uchun barqaror poydevor yaratadi. Boshqacha aytganda, bugun keng ko'lamli ilmiy-texnik kooperatsiya va yangi texnologiyalarni, ilm-fan va

texnika yutuqlarini iqtisodiyotga joriy etmasdan turib, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishga erishishni tasavvur qilib bo'lmaydi.

Biz innovatsion rivojlanishni jadallashtirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yangi ishlanmalar va zamonaviy texnologiyalarni keng tatbiq qilish, inson kapitali hamda ilm-fan sohalarini rivojlantirish maqsadida 2019-yildan O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini bosqichma-bosqich amalga oshirmoqdamiz. Shuningdek, 2030-yilgacha mamlakatimizda ta'lim, ilm-fan va qishloq xo'jaligini rivojlantirishni nazarda tutadigan dasturiy loyihalar hamda **“Raqamli O'zbekiston — 2030”** strategiyasi hayotga tatbiq etilmoqda.

Natijada, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada, shu jumladan, qishloq xo'jaligi, energetika, qurilish, ta'lim, sog'liqni saqlash tizimlarida innovatsion, texnologik rivojlanishni ta'minlash va rag'batlantirish borasida katta yutuqlarga erishildi. 2023-yilda O'zbekiston 80 dan ziyod indikatorlar bo'yicha baholanadigan **Global innovatsion indeksda** 2015-yilga nisbatan 42 pog'onaga yuqorilab, 132 davlat orasida 82-o'rinni egallagani ham sohada amalga oshirgan ishlarimizning xalqaro miqyosdagi e'tirofi hisoblanadi.

Shu bilan birga, sohada iqtisodiyotning real sektorida ilmiy va innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish darajasiga, ilm-fan, ta'lim va sanoat o'rtasidagi hamkorlik aloqalarining kengayishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan bir qator eski muammolar borligidan ham ko'z yumib bo'lmaydi. Ulardan butunlay xalos bo'lish maqsadida quyidagi masalalarga alohida ahamiyat qaratilmoqda:

- innovatsion infratuzilma subyektlari (innovatsion texnologik park, texnologiyalar transferi markazi, innovatsion klaster, venchur tashkiloti, innovatsiya markazi, startup akselerator, inkubator) tarmog'ini shakllantirish orqali startup tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash hamda yirik hajmli ishlab chiqarish (kapital yaratish)ni tashkil etish;

- kichik tadbirkorlikning innovatsion faolligini oshirish orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan jadal o'sishini ta'minlash;

- yangi turdagi mahsulotlar va innovatsion texnologiyalar yaratishning g'oyadan yakuniy iste'molchigacha bo'lgan kompleks tizimini joriy qilish orqali innovatsiyalarga bo'lgan talabni rag'batlantirish;

- ta'limning barcha bosqichlarida yaratuvchanlik, innovatsion tadbirkorlik va ratsionalizatorlik ko'nikmalarini shakllantirish yo'li bilan innovatsion faoliyat boshqaruvida inson kapitalini yanada rivojlantirish.

O'z navbatida, biz iqtisodiyotning tez o'sib borayotgan yo'nalishlarida amaliy tadqiqotlarni kuchaytirish, **“korxonalar — oliy o'quv yurti — ilmiy tashkilot”** klaster tizimini joriy etish, yosh tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarini qo'llab-quvvatlash hamda O'zbekistonning Global innovatsion indeksda 50 ta yetakchi mamlakat safidan joy olishini ta'minlash kabi vazifalarni ham belgiladik.

Agar biz ana shu maqsadlarga erishsak, mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'paytirib, ularni xalqaro bozorga olib chiqish bilan bir qatorda, ilg'or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish va mehnat unumdorligini 2 barobar oshirishga ham muvaffaq bo'lamiz.

Shu o'rinda yana bir masalaga to'xtalmoqchiman. Bugun dunyo miqyosida e'tirof etilgan 100 ta eng yirik fan va texnologiyalar klasteridan 25 tasi Xitoyda, 25 tasi Yevropa mamlakatlarida, 21 tasi AQSHda faoliyat ko'rsatsa, atigi 3 tasi islom mamlakatlarida joylashgan.

Bu raqamlar har qanday odamni chuqur o'ylatib berishi shubhasiz. Binobarin, biz taraqqiy etayotgan dunyo bilan hamqadam yashashni istasak, ta'lim-tarbiya, ilm-fan va zamonaviy texnologiyalar sohasini rivojlantirishni hayot-mamot masalasi deb bilishimiz shart. Aks holda, ko'p narsalarni boy berishimiz tayin.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti u yerdagi ilmiy tafakkur darajasi bilan

bevosita bog'liq hisoblanadi. Zero, **innovatsiyalar, yangi g'oyalar va ijodiy yondashuvlarga tayangan “bilimlar iqtisodiyoti” — eng barqaror va samarali iqtisodiyotdir.**

Shunday ekan, biz ham ilmga asoslangan, yuqori daromadli, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishga ustuvor e'tibor qaratishimiz zarur. Ayniqsa, “bilimlar iqtisodiyoti”ning rivojiga xizmat qiladigan raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, blokcheyn, bulutli, 5G va kvant hisoblash texnologiyalari, robototexnika sohalarini puxta o'zlashtirishning ham ahamiyati beqiyos.

O'zbekiston iqtisodiyotida yuqori daromadli mahsulotlar ulushini ko'paytirish maqsadida 2030-yilga qadar mis ishlab chiqarishni 3,5 barobar, oltin qazib olishni 1,5 barobar, kumush hajmini 3 barobar, uran xomashyosi tayyorlashni 3 karra oshirish rejalashtirilgan.

Qolaversa, avtomobilsozlik sohasida nufuzli xorijiy kompaniyalarning loyihalarini ishga tushirish orqali yurtimizda har yili o'rtacha 1 million dona avtomobil ishlab chiqarishga erishish, sanoatda qo'shilgan qiymat hajmini esa 20 milliard AQSH dollaridan 45 milliard AQSH dollariga yetkazish borasida ham keng ko'lamlı loyihalar amalga oshiriladi.

Tez orada mamlakatimiz tarixida birinchi bor aluminiy, litiy, po'lat, grafit xomashyolarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi. Natijada mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojida butunlay yangi sahifa ochilishi shubhasiz. Chunki mazkur xomashyolardan avtomobil, elektronika, “yashil energiya” qurilmalari, kimyo va polimer sanoatida yuzlab turdagi yangi mahsulotlarni tayyorlash mumkin. Eng asosiysi, bu — 2,5 million yuqori daromadli ish o'rni degani.

Bir so'z bilan aytganda, mamlakatimiz iqtisodiyoti mavjud resurslardan oqilona foydalangan holda innovatsion mahsulotlar yaratish, ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish orqali rivojlantiriladi.

Biz bularning barchasidan yagona bir maqsadni ko'zlaganmiz — Yangi O'zbekiston ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida, zamonaviy kadrlar, yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'lishi shart.

Shu nuqtayi nazardan, davlatning innovatsion yangilanish dasturini shakllantirish, innovatsiya va investitsiyalardan samarali foydalanadigan yangi avlod kadrlari va yangi sarmoyadorlar sinfini shakllantirish o'ta muhim ahamiyatga ega. **Buning uchun texnologik rivojlantirish va ichki bozorni modernizatsiya qilish orqali tezroq O'zbekistonni jahondagi taraqqiy topgan mamlakatlar qatoriga olib chiqish imkonini beradigan kuchli milliy g'oya, milliy dastur kerak.**

Ikkinchidan, sanoat va iqtisodiyotning kelajagi — bu eksportdir.

Biz Yangi O'zbekistonni global ishlab chiqarishning muhim va ajralmas bo'g'ini hisoblangan, bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga ega bo'lgan davlatga aylantirishimiz zarur.

Shu bois mamlakatimizda 2030-yilgacha eksport hajmini 2 barobar oshirib, 45 milliard AQSH dollariga yetkazish, eksportchi korxonalar sonini hozirgi 6,5 mingtadan 15 mingtaga yetkazish vazifasi qo'yilgan.

Bunda, xususan, IT xizmatlar va dasturiy mahsulotlar eksporti hajmini 5 milliard AQSH dollariga, turizm xizmatlari eksportini ham 5 milliard AQSH dollariga, qishloq xo'jaligi sohasida eksport hajmini esa yiliga 10 milliard AQSH dollariga yetkazish nazarda tutilgan.

Xo'sh, bunday muhim vazifalarni qanday yo'l bilan amalga oshiramiz, belgilagan marralarimizga erishish uchun nimalarga ahamiyat qaratishimiz lozim?

Aytish joizki, Yangi O'zbekistonning bu borada o'ziga xos tajribasi mavjud. Biz bugun amaliyotda o'zini to'la-to'kis oqlayotgan tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish, respublikada ishlab chiqariladigan mahsulotlar eksporti hajmini ko'paytirish, turlarini

kengaytirish va tashqi bozorlarga kirib borishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishni izchil davom ettiramiz.

Chunki so'nggi yillarda aynan ana shunday siyosat natijasida jahon bozorlari va logistikadagi murakkabliklarga qaramay, mamlakatimizda charm-poyabzal, to'qimachilik, oziq-ovqat, elektrotexnika, farmatsevtika yo'nalishlarida minglab yangi korxonalar ochildi. Eksport hajmi esa 1,5 barobar ko'payib, 19 milliard AQSH dollaridan oshdi.

Shu bilan birga, tashqi bozorlarga chiqish xarajatlari yuqori ekanini inobatga olib, mamlakatimizda ilmga asoslangan, yuqori daromadli, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytiramiz. Tayyor mahsulot bilan tashqi bozorlarga chiqish maqsadida Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lib kirish maqsadida boshlagan ishlarimizni izchil davom ettiramiz. Lekin buning uchun, avvalo, korxonalarimiz ochiq va kuchli raqobatga tayyor bo'lishi kerak. Shularni nazarda tutib, quyidagi asosiy vazifalarga alohida e'tibor qaratmoqdamiz:

“Yangi O'zbekiston — raqobatbardosh mahsulotlar yurti” g'oyasi asosida milliy brendlarni xorijiy bozorlarga olib chiqadigan eksportchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlaymiz. Jumladan, eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 3,3 barobar ko'paytirish, Yevropa davlatlariga “GSP+” va boshqa tizimlar doirasida tayyor va texnologik mahsulotlar eksportini kengaytirish masalalariga alohida urg'u bermoqdamiz.

Shu maqsadda 200 eksportchi ochiq tanlov asosida saralab olinib, faoliyati qo'llab-quvvatlanmoqda. Ishonchim komil, ular kelgusida yetakchi eksportyorlarga aylanadi. Negaki, birgina 2023-yilda eksportchi korxonalarga 665 milliard so'mlik yordam ko'rsatilishi natijasida 3 milliard 200 million AQSH dollari miqdorida eksport ta'minlangan.

Bu esa, o'z navbatida, jamiyatimizda tadbirkorlarning obro'si va mavqeyi kun sayin oshib, ular ichki va tashqi bozordan mustahkam o'rin egallayotganidan, o'z nufuzi va brendiga ega bo'lgan ishbilarmonlar

safi tobora kengayib, davlat idoralarida ham ularga munosabat tubdan yaxshilanayotganidan dalolat beradi. Tadbirkorlarga nisbatan bunday yondashuv kelgusida ham iqtisodiy siyosatimizning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

Yana bir muhim jihati, qo'shni davlatlar bilan chegara hududlarda erkin savdo zonalari amalda yaxshi natijalar bermoqda.

Kelgusida milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini kuchaytirish va uning tarkibida qo'shilgan qiymat miqdori yuqori bo'lgan mahsulotlar ulushini keskin oshirishga ustuvor e'tibor qaratiladi.

Ayni paytda ushbu yo'nalishda dunyoning 50 ta nufuzli brendlari bilan maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil qilish va respublikamizning har bir tumanida kamida 1000 ta ish o'rniga ega bo'lgan 2 tadan yangi sanoat zonalarni tashkil etish hamda biznes-inkubatorlar tizimini rivojlantirish borasida ishlar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, mahalliy sanoat tarmoqlariga zamonaviy texnologiyalarni joriy etgan holda, yuqori sifatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda eksport salohiyatini oshirishni rag'batlantirish choralari ko'rilmqda.

Sharoiti og'ir bo'lgan tumanlarda esa tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yanada qulay imkoniyatlar yaratilmoqda. Tadbirkorlarni "tayyor biznes" shaklida zarur binolar bilan ta'minlash maqsadida sanoat ipotekasi tizimi to'liq yo'lga qo'yilmoqda.

Muhimi, so'nggi yillarda mazkur yo'nalishda amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida ayni paytda mahallalarda o'rtacha 40–50 ta korxonalar faoliyat yuritmoqda, barcha tumanlarda mahsulot eksport qiluvchi tadbirkorlar paydo bo'ldi.

Mamlakatimizda tashqi bozor talablariga javob beradigan standartlarni joriy etish va mashhur brendlarni jalb qilishning ham ahamiyati katta. Shuni nazarda tutib, ayni paytda xalqaro standartlar joriy qilingan korxonalar miqdorini 10 barobar oshirib, ular sonini

5 mingtaga yetkazishga mo'ljallangan "yo'l xaritalari" amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, ushbu yo'nalishda eksportchi korxonalariga tashkiliy va moliyaviy yordam berish tizimi takomillashtirilib, yuqori qo'shilgan qiymatli, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash maqsadida Sanoatni rivojlantirish jamg'armasi tashkil etildi va unga 1 milliard AQSH dollari miqdorida mablag' ajratildi.

Biz bu borada belgilangan marralarga erishish uchun, qanchalik qiyin bo'lmasin, qancha mablag' kerak bo'lsa topamiz. Chunki zaxiralarimiz, avvalo, iqtisodiyotimiz ravnaqiga, milliy manfaatlarimizga xizmat qilishi zarur.

Uchinchidan, "yashil taraqqiyot" tamoyilini hayotga tatbiq etish orqali bosqichma-bosqich "yashil iqtisodiyot"ga o'tishimiz, uning asosi hisoblangan uglerod neytralligiga erishishimiz va qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanishni kengaytirishimiz zarur.

Keyingi vaqtlarda mamlakatimizda bu masalaga katta ahamiyat qaratilayotgani bejiz emas. Hozir dunyoda iqlim o'zgarishi, ekologik inqirozlar, qayta tiklanmaydigan uglevodorod manbalarining keskin kamayishi bilan bog'liq umumbashariy tahdid va muammolar tobora kuchayib bormoqda.

Bunday sharoitda faqatgina cheklangan yer va suv zaxiralaridan unumli foydalanish, ekologik muammolarni bartaraf etish, "yashil taraqqiyot", "yashil iqtisodiyot" va "yashil energetika"ga o'tish orqali mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish hamda aholi farovonligini ta'minlash mumkin. Kerak bo'lsa, bu yagona va eng to'g'ri yo'ldir.

Shu bois **2030-yilgacha O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot"ga o'tish va "yashil taraqqiyot"ni ta'minlash dasturi** ishlab chiqilib, bosqichma-bosqich hayotga tatbiq etilmoqda. Bu borada tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish, milliy iqtisodiyotimizning tabiiy ofatlar va

iqlim o'zgarishiga nisbatan barqarorligini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Qolaversa, sanoatning "yashil" va kam uglerodli rivojlanishini ta'minlash, innovatsiyalarni joriy etish va samarali "yashil investitsiyalar"ni jalb qilish, "yashil urbanizatsiya"ni rivojlantirish hamda "yashil ish o'rinlari"ni yaratish borasida ham kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur dastur "yashil o'sish" bo'yicha salohiyatni oshirish va inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qilishi, "yashil iqtisodiyot"ga o'tish uchun qulay siyosiy-huquqiy muhit yaratish bo'yicha samarali institutlarni joriy qilish hamda sohaga tashqi va ichki "yashil moliyalashtirish" oqimlarini ko'paytirishga xizmat qilishi bilan ham ahamiyatlidir.

Bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlar natijasida so'nggi yillarda yurtimizda muqobil energiya ulushi **ikki barobar** ko'paydi. "Yashil vodorod" ishlab chiqarish bo'yicha ham dastlabki amaliy qadamlar qo'yildi.

Nasib etsa, 2030-yilga borib O'zbekistonda soatiga 50 milliard kilovatt "yashil energiya" ishlab chiqariladi. Yangi stansiyalarni ishga tushirish orqali 10 ming kilometr magistral va 110 ming kilometr hududiy elektr tarmoqlari barpo etiladi.

Shu bilan birga, sanoatda "yashil sertifikat"lar bozorini rivojlantirish va "ekologik markirovkalash" amaliyotini joriy qilish hamda jamoat transportini ekologik toza yoqilg'iga o'tkazish imkonini beradigan kompleks chora-tadbirlar ham amaliyotga izchil tatbiq qilinmoqda. Yaqin vaqtlarda Xalqaro mehnat tashkiloti bilan hamkorlikda "Yashil bandlik" dasturini ishlab chiqish va Modellashtirish markazini tashkil etish rejalashtirilgan.

Muxtasar aytganda, O'zbekistonda ekologik muammolarni bartaraf qilish va iqtisodiyot tarmoqlarini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish orqali yuksak taraqqiyot va farovon hayotga erishish

uchun juda katta vazifalarni amalga oshirishimiz, xalqimiz bilan birgalikda mashaqqatli va sharaflı yo'lnı bosib o'tishimiz lozim bo'ladi.

To'rtinchidan, biznes va aholı ehtiyojlarını inobatga olib, infratuzılmani rivojlantırish zarur.

Xalqimizning turmush darajasını oshırish va kambag'allıknı qısqartırish yurtımızda olib borılayotgan iqtisodiy islohotlarınıng pırovard maqsadlarıdan hisoblanadı. Shu o'rında bir haqıqatnı yaxshı tushunib olıshımız kerak — odamlarğa kredit, ijtimoiy nafaqa yoki uy bergan bilan kambag'allık muammosı hal bo'lib qolmaydı. Buning uchun avvalo, ta'lim, sog'lıqnı saqlash, kasb-hunarga o'qıtish, ichimlik suvi ta'minoti, energiya va yo'l infratuzılması bilan bog'lıq kompleks muammolarnı hal etish lozim.

So'nggi yillarda respublikamızda avtomobil va temiryol'ları, ichimlik suvi va aloqa tarmoqlarını qurish oldingi davrlarğa nisbatan 2,3 barobar ko'paydı. Kelgusida ham bu ishlar davom ettırilib, yo'l-transport sohasida qatnovlar hajmı 4 marta oshıriladı. Toshkent – Samarqand, Navoiy – Buxoro yo'nalishlarıda qo'shimcha tezyurar yo'lovchi poyezdları qatnovı yo'lga qo'yiladı. Elektrlashtırılğan temiryollar ulushi hozirgi 43 foizdan 65 foizga yetkaziladı.

Eng muhimi, temiryol sohasıga xususiy sektor ham jalb qilinib, xızmatlar sifati raqobatbardosh narxlar asosida belgilanadı. Shuningdek, 6 ta yirik aeroport modernizatsiya qilinib, xususiy aviakompaniyalar sonı 10 taga yetkaziladı.

2030-yilga qadar tumanlar markazi va qishloqlar o'rtasida jami 5,5 ming kilometr sement-beton yo'llar qurilib, ular jamoat transportı bilan to'liq qamrab olinadı.

Toshkent – Samarqand va Toshkent – Farg'ona vodiysi yo'nalishlarıda xususiy sheriklik asosida yangi avtomobil yo'lları quriladı. Shuningdek, xususiy sektor ishtirokida 56 ming kilometr yo'llarnı

rekonstruksiya qilish orqali yo'lovchi va yuk tashish hajmini 3 barobar oshirish rejalashtirilgan.

Eng asosiysi, biz ushbu davrda respublikamizdagi barcha aholi punktlarini toza ichimlik suvi bilan ta'minlashni maqsad qilganmiz. Buning uchun 2,5 milliard AQSH dollari ajratamiz. Qolaversa, ikki yilda barcha qishloq va ovullar internet butunjahon axborot tarmog'i bilan to'liq qamrab olinib, uning tezligi 10 karra oshiriladi.

Beshinchidan, Yangi O'zbekistonda iqtisodiyotning barqaror o'sishiga erishish maqsadida faol investitsiya siyosatini izchil davom ettirish lozim.

Binobarin, investitsiya — iqtisodiyotning drayveri, uning yuragi, desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Negaki, investitsiya bilan birgalikda turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi.

Iqtisodiyot sohalarini rivojlantirish bo'yicha belgilab olgan ulkan rejalarimizni ro'yobga chiqarish uchun 2030-yilga qadar 250 milliard AQSH dollari miqdorida investitsiyalar talab etiladi. Shundan 110 milliard AQSH dollarini xorijiy investitsiyalar hisobidan, 40 milliard AQSH dollarini davlat-xususiy sheriklik doirasida jalb etish ko'zda tutilgan. Bank va moliya tizimida yillik kreditlash hajmini esa hozirgi 18 milliard AQSH dollaridan 40 milliard AQSH dollariga yetkazamiz.

Albatta, investitsiyalarni jalb etish uchun mamlakatimizda qulay biznes va investitsiyaviy muhitni rivojlantirishimiz zarur. Qulay investitsiyaviy muhitni esa nafaqat samarali siyosiy-huquqiy, iqtisodiy mexanizmlarni yaratish, balki bu masalaga kompleks yondashuv orqali shakllantirish mumkin. Zotan, avval ham ta'kidlaganimizdek, **Yangi O'zbekiston — bu inson va biznes manfaatlari adolatli qonunlar asosida himoya qilinadigan jamiyatdir.**

Shunday ekan, **mulk va investitsiyani qaysidir hokim yoki vazir emas, faqat va faqat Konstitutsiya, qonun va sud himoya qilishiga erishishimiz shart.**

Shu maqsadda, O'zbekiston Oliy sudida investitsiyaviy nizolar va raqobatga oid ishlarni ko'rish bo'yicha maxsus sudlov tarkibi tashkil etildi. Endilikda investorlar o'z faoliyatiga oid nizolarni hal qilish uchun to'g'ridan to'g'ri Oliy sudga murojaat qilishi mumkin.

Umuman, sohada amalga oshirgan kompleks chora-tadbirlar natijasida mamlakatimiz 2017–2022-yillarda xalqaro **Iqtisodiy erkinlik indeksi** umumiy reytingida o'z o'rnini 31 pog'onaga yaxshilab, 148-o'rindan 117-o'ringa ko'tarildi. Kezi kelganda "Iqtisodiy erkinlik indeksi — 2023"da O'zbekiston 56,5 ball bilan 176 mamlakat orasida 109-o'rinni egallaganini qayd etish o'rinlidir.

Bularning barchasi yurtimizda yaratilgan qulay investitsiyaviy muhit xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilayotganidan dalolat beradi. Shuningdek, "**GSP+**" tartibi tufayli birgina 2023-yilda Yevropa Ittifoqi bilan tovar ayirboshlash hajmi qariyb 70 foiz o'sdi.

Ayniqsa, so'nggi yillarda O'zbekistonning **Ko'rfaz mamlakatlari** bilan aloqalari yangi bosqichga ko'tarildi. Natijada yurtimizda ushbu mintaqadagi yetakchi kompaniya va banklar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan umumiy loyihalar portfeli 20 milliard AQSH dollaridan ortdi.

Oltinchidan, xususiy sektor ulushini oshirish va monopol sohalarni bozor tamoyillariga o'tkazishni izchil davom ettirish lozim.

Jahon iqtisodiyotining rivojlanish tendensiyalari tahlili xususiy sektor taraqqiyotning "drayver" sohasiga aylanganini ko'rsatmoqda. Chindan ham, iqtisodiyotning xususiy sektori, jumladan, innovatsiyalarni rag'batlantirish orqali yalpi ichki mahsulot hajmi va eksport salohiyatini oshirish va eng asosiysi, kambag'allikni qisqartirish hamda bandlikni ta'minlashda katta natijalarga erishish mumkin. Bugungi kunda

O'zbekistonda yangi ish o'rinlarining qariyb **90 foizi** xususiy sektor tomonidan yaratilayotgani ham ko'p narsadan dalolat beradi.

So'nggi yillarda **“O'zbekistonning barqaror iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda, avvalo, xususiy sektorga tayanamiz”** degan g'oya asosida uning faoliyati uchun keng yo'l berish orqali mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini 80 foizga, eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish choralari ko'rilmoqda. O'z navbatida, davlat ishtiroki saqlanib qolayotgan tovar va xizmatlar bozorini erkinlashtirish hamda ushbu sohalarga xususiy sektorning kirib kelishi uchun sharoit yaratish, monopoliyaga qarshi kurashish organining institutsional salohiyati va vakolatlarini kuchaytirish orqali sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga ham ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.

Jahon banki va **Xalqaro moliya korporatsiyasi** o'tkazgan tadqiqotlar asosida tayyorlangan xulosalarda O'zbekiston hukumati tomonidan mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatini oshirishga qaratilgan bir qator muhim islohotlar amalga oshirilgani alohida qayd etilgan. Ana shu hujjatlarda ma'lum qilinishicha, xususiy sektor tomonidan kiritilayotgan investitsiyalar hajmining ko'payishi O'zbekistonning iqtisodiy o'sishi va aholi bandligini ta'minlashga yordam bermoqda.

Yaqin-yaqingacha odamlarni qiynab kelgan elektron kartadagi pullarni bankomatlar orqali naqdashtirish, xorijiy valutilarni sotib olish, O'zbekiston fuqaroligiga ega bo'lish, yurtimizning istalgan hududidan uy-joy va mol-mulk sotib olish hamda ularni ro'yxatga qo'yish bilan bog'liq son-sanoqsiz muammolar ham endi allaqachon tarixda qoldi.

Ijro hokimiyati tizimi isloh qilinib, byurokratik to'siqlar kamaytirildi. Davlatning biznesni tartibga solishga qaratilgan 500 ta funksiyasi bekor qilindi, yana 70 tasi davlat-xususiy sheriklik va autsorsing asosida xususiy sektorga o'tkazildi.

Hech shubhasiz, mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida o'tayotgan har bir yil milliy tariximizdan ulkan dastur va loyihalarni amalga oshirish, yurtimizni ravnaq toptirish borasida yangi-yangi yutuqlar, bilim va tajribalar davri sifatida joy olmoqda.

Bugungi kunda davlat monopoliyasida bo'lgan elektr generatsiyasi, issiqlik ta'minoti, kimyo, aviatsiya, ta'lim kabi sohalarga ham xususiy sektor jadal kirib kelmoqda. Irrigatsiya, chiqindini qayta ishlash, ijtimoiy obyektlarda energetika va issiqlik ta'minoti tizimini boshqarishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari keng joriy etildi. Bunday islohotlar izchil davom ettirilib, yaqin vaqtlarda temiryo'l xizmatlari, avtomobil yo'llarini qurish va boshqarish, gaz va elektr energiyasini yetkazib berish ham xususiy sektorga o'tkaziladi.

Xususiylashtirish dasturi doirasida davlat ulushi mavjud bo'lgan korxonalar soni 6 barobar yoki hozirgi 2,3 mingtadan 360 taga kamaytiriladi. 17 turdagi davlat monopoliyasi bekor qilinib, ularga ham xususiy sektor faol jalb qilinadi.

Umuman, kelgusi yillarda faqatgina magistral energiya va transport tarmoqlari, davlat boshqaruvi hamda uning xavfsizligi bilan bog'liq sohalar davlat tasarrufida saqlab qolinadi. Shu tariqa 2030-yilga qadar iqtisodiyotda nodavlat sektorning ulushini 85 foizga yetkazish asosiy maqsadimiz bo'ladi.

Xususiy sektor faoliyatini qo'llab-quvvatlashda eng katta masalalardan biri — kredit foizlarini pasaytirish bilan bog'liqdir. Tadbirkorlarimiz buni intiqlik bilan kutayotgani sir emas. Shu bois yaqin vaqtlarda kredit foiz stavkasini hozirgi o'rtacha 20 foizdan 10–12 foizga tushirish maqsadida bank omonatlari hajmi deyarli 4 barobar oshirilib, 70 trillion so'mdan 260 trillion so'mga yetkaziladi. Ushbu jarayonda banklarni xususiylashtirishni ham tezlashtiramiz. Kelajakda faqatgina 3 ta bank davlat ixtiyorida qoldiriladi.

Ayni paytda mamlakatimizdagi bank bozoriga yana kamida 4 ta yirik xorijiy bankning kirib kelishi uchun zamin hozirlandi. Kelgusida bankdan tashqari moliyaviy xizmatlarni kengaytirish uchun ham barcha sharoitlarni yaratamiz. Qimmatli qog'ozlar bozori hajmi esa 10 milliard AQSH dollariga yetkaziladi. Xususiy jamg'arib boriladigan pensiya tizimini tashkil etish uchun barcha qonuniy asoslar yaratiladi.

Yangi O'zbekiston — avvalo, yangicha iqtisodiy munosabatlar va yangicha iqtisodiy dunyoqarash demakdir. Shu bois hozir mamlakatimiz iqtisodiy tizimi to'liq qayta qurilmoqda, qanchalik qiyin va murakkab bo'lsa-da, bozor mexanizmlari hayotga to'laqonli joriy qilinmoqda.

Hayotiy haqiqat shuki, amaliy natijalar bilan mustahkamlangan, o'z mevasini beradigan islohotlar odamlarning qalbiga tez kirib boradi. Bunday shiddatli jarayonni hech kim, hech qanday kuch to'xtata olmaydi.

Eng muhimi, biz amalga oshirayotgan islohotlarning samarasini har bir yurtdoshimiz, har bir oila ertaga yoki yaqin kelajakda emas, aynan shu bugun o'z hayotida his etishi kerak. Buning uchun barcha bo'g'indagi rahbarlar qandaydir raqamlar, foizlar va hisobotlarning ortidan quvmasdan, oddiy insonlarning hayotiy manfaatlarini ta'minlash yo'lida astoydil harakat qilishi zarur.

Yettinchidan, biznesni qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlarning erkin faoliyat yuritishi uchun eng qulay sharoitlar yaratish juda muhim.

Kerak bo'lsa, bundan buyon Yangi O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishga to'sqinlik qilish — mamlakat taraqqiyotiga, Prezident siyosatiga to'sqinlik qilish, deb baholanadi. Chunki jamiyatimizda tinchlik va barqarorlikni saqlash uchun birinchi galda xalqimizning farovon hayotini ta'minlashimiz zarur.

Shuning uchun mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada yuksaltirish va liberallashtirishga mo'ljallangan iqtisodiy islohotlar kichik va o'rt

biznesni rivojlantirishga qaratildi. So'nggi besh yilda shu maqsadda 2 mingdan ortiq qonunlar, farmon va qarorlar qabul qilindi. Ularga asosan 119 ta litsenziya va ruxsatnoma bekor qilindi, 33 ta faoliyat turi xabardor qilish tartibiga o'tkazildi. Birgina mamlakatimiz hududida avtomobilda yuk tashish faoliyatiga oid litsenziyalarning bekor qilinishi natijasida mahsulot tashish hajmi 1,5 barobar ko'paydi.

Ruxsatnomalarni rasmiylashtirish tartibi ham soddalashtirilib, buning uchun talab etiladigan muddatlar o'rtacha 2 barobar qisqartirildi. Ortiqcha tekshirishlar hamda xomashyo bo'yicha ko'plab cheklovlarga butunlay barham berildi. Tadbirkorlik subyektlariga nisbatan yangi turdagi javobgarlik va jazo choralarini joriy etishga **uch yillik moratoriy** joriy qilindi. Soliqlarning umumiy soni 13 tadan 9 taga tushirilib, ayrim soliq stavkalari 2 barobar kamaytirildi.

Biz xalqimiz va tadbirkorlar manfaatlarini inobatga olgan holda, endilikda amaldagi **qonunlarni ham qayta ko'rib chiqishga tayyormiz.**

Shu chog'gacha odamlarning vaqtini o'g'irlab, asabini egovlab kelgan ortiqcha tartib-taomillardan xalos bo'lishimizning ahamiyati haqida istagancha misollar keltirish mumkin. Bu haqda gapirganda, Uinston Cherrchillning yana bir fikri yodimga tushadi: **“Tadbirkor deganda ko'pchilik sog'in sigirni tasavvur qiladi, faqat sanoqli odamlargina yuki og'ir aravani yakka o'zi tortayotgan mehnatkash otni tushunadi”**. Yashirib nima qildik, yaqin-yaqingacha bizda ham ana shunday tushuncha ustuvor edi.

Biz iqtisodiy o'sishlar samarasi haqida gapirganda faqatgina qandaydir raqamlar yoki miqdor ko'rsatkichlariga emas, avvalo, uning natijasi oddiy insonlar hayotida qanday namoyon bo'layotganiga ahamiyat qaratyapmiz. Yurtdoshlarimizning yetarli daromad topishi uchun esa qulay biznes va investitsiya muhitini shakllantirib, yangi-yangi korxonalar ochishimiz, ish o'rinlarini ko'paytirishimiz zarur. Bunday

g'oyat dolzarb masalalarni o'zimiz yechmasak, hech kim chetdan kelib qilib bermaydi.

Bir narsani alohida ta'kidlash kerak, nihoyatda murakkab va og'riqli kechgan pandemiya davrida ham tadbirkorlar mamlakatimiz iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlashga davlat bilan teppa-teng hissa qo'shdi. Shuning uchun hammamiz tadbirkorlarga yelkadosh bo'lib, ularni doimo qo'llab-quvvatlashimiz shart. Bu borada ishbilarmonlarning haq-huquqlarini, ayniqsa, xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash — barcha darajadagi davlat organlarining asosiy vazifasi bo'lishi lozim.

Barchamiz bir haqiqatni chuqur anglab olishimiz kerak: tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash — xalqimiz farovonligini oshirishning eng samarali yo'li, Yangi O'zbekistonni barpo etishning pirovard maqsadidir.

Shuni nazarda tutib, keyingi vaqtlarda o'z biznesini boshlayotgan oilalarga **“Har bir oila — tadbirkor”** dasturi asosida 5,9 trillion so'm kredit ajratildi. Yangi soliq siyosati doirasida ish haqiga soliq yukini 1,5 barobar kamaytirish yo'li bilan rasmiy sektorda ishlayotganlar sonini 500 mingtaga, tadbirkorlar sonini 2 barobar ko'paytirishga muvaffaq bo'ldik. Bir so'z bilan aytganda, **tadbirkorlar sinfi jamiyatimiz rivojini ta'minlovchi asosiy kuchga aylandi.**

Shu bilan birga, haligacha savdo, qishloq xo'jaligi, qurilish va xizmat ko'rsatish sohalarida yashirin iqtisodiyotning ulushi 50 foizdan yuqori bo'lib qolayotgani ham sir emas. Aniqrog'i, hozirgi kunda o'rtacha 5,5 million nafar fuqaro norasmiy sektorda band. Shu bois rasmiy sektorning noqonuniy faoliyatdan afzal va manfaatli bo'lishi uchun barcha zarur sharoitlarni yaratamiz.

Bu yo'lda, eng avvalo, soliq tizimini soddalashtirish va barcha tadbirkorlar uchun teng imkoniyatlar yaratishga alohida e'tibor qaratiladi. Jumladan, kelgusi yillarda biznes uchun qo'shilgan qiymat, foyda, aylanma va mol-mulk solig'i stavkalarini oshirmaslik qat'iy

kafolatlanadi. Shuningdek, 2024-yildan boshlab yangi uy-joy sotib olgan fuqarolarga qo'shilgan qiymat solig'ining yarmi qaytarib beriladi. Bu esa uy-joy xaridining aholiga arzonroq tushishi va qurilishdagi hisob-kitoblar shaffof bo'lishiga xizmat qiladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotgan fermerlar ham qo'shilgan qiymat solig'ining 50 foizini o'zlari tasarruf qilishadi.

Biz ijtimoiy himoyani soliq siyosati orqali kuchaytirishni ham maqsad qilganmiz. Shuning uchun yoshlarni ishga qabul qilgan tadbirkorlarga ijtimoiy soliqni qaytarib berish tizimini joriy qilgan edik. Endilikda ijtimoiy reyestrda kiritilgan aholini ish bilan ta'minlagan korxonalariga ham ana shu xodimlarning daromad solig'i qaytariladi.

Bu yo'nalishdagi ishlar davom ettirilib, sohani to'liq raqamlashtirish orqali vaqtida soliq to'layotgan korxonalariga qo'shilgan qiymat solig'ini bir kun muddatda qaytarish yo'lga qo'yiladi. Qolaversa, mazkur korxonalarda soliq tekshiruvlari o'tkazilmaydi va ularga davlat xaridlariga ustunlik beriladi.

Yangi ish o'rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirishda hal qiluvchi o'ringa ega bo'lgan xususiy sektor va tadbirkorlik uchun har tomonlama qulay sharoitlar yaratish va ularni izchil qo'llab-quvvatlash ham doimo e'tiborimiz markazida. Xususan, ishsiz fuqarolarni o'qitish va ularni band qilish tashabbusini bildirgan faol tadbirkorlarga "ijtimoiy kontrakt" tizimi asosida qo'shimcha imtiyozlar paketini taqdim etishga alohida urg'u berilmoqda.

Biz yangi ish o'rnini yaratadigan tadbirkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga va kerak bo'lsa, ularni yelkamizda ko'tarishga ham tayyormiz.

O'zbekistonda biznes doira vakillari bilan ochiq muloqotlar o'tkazish orqali ularning muammolarini aniqlash va hal qilish, tadbirkorlar faoliyatiga noqonuniy aralashuvlarni bartaraf etish hamda xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash o'ziga xos an'anaga aylandi.

Xo'sh, shundan buyon tadbirkorlar faoliyatida qanday ijobiy o'zgarishlar yuz berdi? Umuman, ular bilan birgalikda amalga oshirayotgan tashabbuslarimiz qanday natijalar bermoqda?

Bu haqda gapirganda, 2021-yilda birinchi bor tadbirkorlar bilan o'tkazilgan uchrashuv chog'ida 57 ta, 2022-yili esa 55 ta muhim takliflar ilgari surilganini ta'kidlash lozim. Shunga asosan, 2022-yilda biznes subyektlari mikro, kichik, o'rta va yirik toifalarga ajratilib, ularning har biri bilan alohida yondashuvlar asosida ishlash tizimi yo'lga qo'yildi. Natijada 2023-yilning dastlabki olti oyi davomida tadbirkorlar qariyb 1 trillion so'mlik imtiyozlardan foydalandilar. Buning hisobidan respublikamizning turli hududlaridagi 20 ta tumanda faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlarning daromadi avvalgi yildagiga nisbatan 1,5–2 barobar ko'paydi. Boshqacha aytganda, 2023-yilning birinchi yarmida tadbirkorlarning umumiy daromadi 7 trillion so'mdan 11,5 trillion so'mga oshdi.

Tadbirkorlarga qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarish muddati ham qisqartirildi. Eng muhimi, ushbu soliq stavkasini 12 foizga tushirganimiz hisobidan qo'shilgan qiymat zanjiri ishtirokchilarining soni 26 mingga ko'payib, ularning faoliyati "soyadan chiqarildi". Shu tariqa O'zbekistonda qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar soni 184 mingga yetdi. Yillar davomida qo'llanib kelgan samarasiz soliq mexanizmlari tufayli vujudga kelgan soliq qarzdorligidan voz kechganimiz hisobidan 2 trillion so'm mablag' biznes vakillarining ixtiyorida qoldirildi.

O'tgan qisqa davrda kredit berishda aylanmadagi tovarlar, eksport shartnomalari, akkreditivlar va kelgusi tushumlardan ham garov ta'minoti sifatida foydalanish tizimi yaratildi. Tadbirkorlarimiz ushbu imkoniyatdan foydalangan holda 1 milliard AQSH dollari miqdorida kreditlar olishdi.

Shuningdek, mikromoliya tashkilotlarini ochish tartibi ham osonlashtirildi. Buning natijasida mamlakatimizda banklarga muqobil ravishda kreditlar bozori paydo bo'ldi. So'nggi bir yilda bunday

tashkilotlar soni 1,5 barobar, ular ajratgan kredit miqdori 3 barobar oshgani hamda bankdan tashqari tashkilotlar 3 trillion so'm kredit bergani ham ana shunday o'zgarishlarning samarasidir.

O'z navbatida, bojxona hududida qayta ishlash tizimining soddalashtirilishi tufayli undan foydalanuvchi tadbirkorlar soni 2 barobar ko'payib, bir yil davomida 455 million AQSH dollariga teng mahsulot eksport qilindi. Shu yo'l bilan 110 million AQSH dollari miqdorida qo'shilgan qiymat yaratildi.

Umuman, o'tgan bir yilda kichik tadbirkorlar soni 40 mingga ko'payib, 490 mingga, o'rta tadbirkorlar soni 2 mingga oshib, 10 mingga yetdi. Tadbirkorlarga yaratib berilgan yengilliklar samarasi o'laroq, bu davrda 155 ta korxonaning yillik aylanmasi 100 million AQSH dollaridan oshdi.

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi joriy etilgani ham soha rivojida muhim yangilik bo'ldi. Unga ko'ra, baholash reytingida belgilangan barcha mezonlarga javob beradigan tadbirkorlarga subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalar berish nazarda tutilgan. Yangi ish o'rinlarini yaratish, soliqlarni o'z vaqtida to'lash va hisobot berish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, mahsulotni chetga eksport qilish kabi talablar shular jumlasidandir.

Mazkur reyting tadbirkorlik subyektlarining rentabellik darajasi, to'lov intizomiga rioya qilishi, aholi bandligini ta'minlashdagi ishtiroki, faoliyat muddati, xodimlarga to'layotgan ish haqi miqdori, kredit tarixi hamda hisob-fakturalar va tegishli hisobotlarni elektron shaklda rasmiylashtirishiga oid ma'lumotlar asosida shakllantiriladi.

Barqarorlik ko'rsatkichi yuqori bo'lgan tadbirkorlarga ma'lum imtiyozlar, subsidiya va preferensiyalar taqdim etiladi. Xususan, ular barcha soliq tekshiruvlaridan ozod qilinib, qo'shilgan qiymat solig'i 24 soat ichida, boshqa turdagi soliqlar bo'yicha ortiqcha to'lovlar esa uch kun ichida qaytarib beriladi.

Yana bir muhim jihati, o'zbekistonlik ishbilarmonlar bilan birgalikda ishlashni istagan xorijiy investorlar o'zlari tanlagan korxonalar faoliyatini ushbu reyting asosida o'rganib chiqish hamda Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR) yordamida ularning "ishonch indeksi"ni tekshirib ko'rish imkoniga ega bo'lishadi. Boshqacha aytganda, mazkur yangilik chet ellik hamkorlar bilan aloqalarni yo'lga qo'yishda ham o'ziga xos ko'prik vazifasini o'tashi mumkin.

Ayni paytda amalga oshirilayotgan "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida ham tadbirkorlarga bir qator qo'shimcha qulayliklar yaratish belgilanib, ushbu maqsadlar uchun 83 trillion so'm va 275 million AQSH dollari miqdorida kredit hamda subsidiyalar yo'naltirish ko'zda tutilgan.

Bugun mamlakatimizda tadbirkorlar sinfi jamiyatning yetakchi kuchiga aylanayotgani va ko'plab yoshlarimiz ularga qarab intilayotgani, albatta, quvonarli holdir.

Bundan buyon mazkur reyting vositasida tadbirkorlarning amaldagi qonunlarga rioya qilish, intizomli va harakatchanlik kabi xususiyatlarini ham rag'batlantirib borishning ahamiyati katta. Bu usulni joriy qilish va uning samaradorligini ta'minlashda Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha jamoat kengashi alohida o'ringa ega bo'lishi kerak.

Buyuk alloma Najmiddin Kubro hazratlarining "**Muvaffaqiyatni — tinimsiz sa'y-harakatda, muvaffaqiyatsizlikni esa loqaydlik va dangasalikda ko'rdim**", degan so'zlari zamirida juda katta hayotiy ma'no mujassam. Bugun biz faqatgina faol tadbirkorlik, tinimsiz mehnat va intilishlar orqali taraqqiyotga, farovon hayotga erishishimiz mumkin.

Sakkizinchidan, qishloq xo'jaligi sohasini yanada isloh qilish va modernizatsiyalashni izchil davom ettirish lozim. Chunki ushbu sohani rivojlantirish orqali mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va eksportbop mahsulotlar yetishtirishga erishamiz. Shubhasiz,

hozir dunyoda kechayotgan ziddiyatlar hamda savdo-sotiq borasidagi cheklovlar mamlakatlar iqtisodiyotiga, ayniqsa, oziq-ovqat eksportiga salbiy ta'sir qilmoqda.

Bunday murakkab vaziyatda qishloq xo'jaligida hosildorlikni keskin oshirish hisobiga mahsulot tannarxini kamaytirish, ularni qayta ishlash orqali qo'shilgan qiymat yaratishga ko'proq investitsiya jalb qilish hamda eksportni ko'paytirish eng to'g'ri yo'ldir. 2023-yil sentabrda Samarqand shahrida yuqori saviyada uyushtirilgan oziq-ovqat xavfsizligi masalasiga bag'ishlangan xalqaro konferensiyada ushbu yo'nalishda bir qator muhim taklif va tashabbuslar o'rtaga tashlangani ham bejiz emas. Chunki oziq-ovqat xavfsizligiga erishishda mamlakatlar va mintaqalar darajasida hamkorlikda ish olib borishning ahamiyati beqiyos.

Mamlakatimizda barcha soha va tarmoqlar qatori iqtisodiyotimizning yetakchi sektori bo'lmish qishloq xo'jaligida ham tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda ushbu sohada mehnatga layoqatli aholining 27 foizi mehnat qilmoqda.

So'nggi o'n yilliklarda jahonda "yashil inqilob" va innovatsion texnologiyalarning keng joriy etilishi tufayli qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi ham sezilarli darajada oshmoqda. Lekin sayyoramiz aholisining jadal ko'payishi va boshqa bir qator omillar ushbu yo'nalishdagi ishlarni yanada kuchaytirishni taqozo etmoqda.

Quvonarlisi, O'zbekistonning oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha tegishli xalqaro reytinglardagi o'rni yildan yilga mustahkamlanib bormoqda. Jumladan, 2022-yilda Global oziq-ovqat xavfsizlik indeksida mamlakatimiz 57,5 ball to'plab 113 ta davlat orasida 73-o'rinni egalladi. Qiyoslash uchun, 2017-yilda O'zbekiston mazkur ko'rsatkich bo'yicha dunyoda 88-o'rinni band qilgan.

Agrar sohada bozor munosabatlari keng joriy qilinayotgani, qulay agrobiznes muhiti yaratilayotgani esa uni sanoatlashtirish, investitsion jozibadorligini oshirish va ilg'or texnologiyalarga asoslangan

infratuzilmalarni yo'lga qo'yishda qo'l kelmoqda. Natijada 2023-yili agrar yo'nalishda ishlab chiqarish hajmi 4,1 foiz o'sib, jami 426 trillion so'mni tashkil qildi. Eksport hajmi qariyb 2 milliard AQSH dollariga yetkazildi.

Xususan, 152 ming gektar bog' va tokzorlar barpo etilib, 185 ming tonna meva-sabzavot, 31 ming tonna go'sht va 485 ming tonna sutni qayta ishlash quvvatlari ishga tushirildi. Lekin hali mamlakatimiz qishloq xo'jaligi sohasining mavjud salohiyatini to'liq ishga sola olganimiz yo'q.

Ekin maydonlarini sug'orishda suvning behuda isrof bo'lishini kamaytirish maqsadida 2024-yilda 75 ta yirik kanalni betonlashtirish uchun davlat budjetidan 680 milliard so'm ajratildi. Shuningdek, suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish maqsadida 3 yil imtiyozli davr bilan 5 yilga 14 foizli kredit berish yo'lga qo'yildi.

So'nggi yillarda respublikamizda issiqxonalar maydoni 3 barobar ko'payib, yetishtirilayotgan mahsulot hajmi 90 ming tonnadan 300 ming tonnaga yetkazildi. Ayni paytda ularda 150 ming aholi yuqori daromadli ish bilan band. Shu kunlarda yoqilg'isiz isitiladigan issiqxonalar barpo qilish tobora ommalashmoqda.

Qishloq xo'jaligi sohasida mahsulotlarni xarid qilish va sotishda bozor tamoyillarini keng joriy etish, sifat nazorati infratuzilmasini rivojlantirish, eksportni rag'batlantirish hamda xalqaro bozorlarda raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishni nazarda tutuvchi qulay agrobiznes muhiti va qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga qaratilgan vazifalar ham jadal amalga oshirilmoqda.

Klaster tizimini joriy etish orqali paxta va g'alla hosildorligini 25–30 foiz, meva-sabzavot eksportini esa 2 barobar oshirishga erishildi, sohaga 5 milliard AQSH dollaridan ortiq xususiy investitsiya kiritildi.

Keyingi ikki yilda 200 ming gektar unumdor yer maydonlarini aholiga ajratib berish yo'li bilan mamlakatimizda 2 million nafardan ziyod fuqaroning bandligi ta'minlandi.

Endilikda O'zbekistonda bir gektar ekin maydonidan olinadigan o'rtacha daromadni hozirgi 3 ming AQSH dollaridan 2030-yilgacha 5 ming AQSH dollariga yetkazish choralari ko'rishimiz kerak. Shu maqsadda qo'shimcha 300 ming gektar maydonni o'zlashtirish va ularda intensiv bog' va uzumzorlar tashkil etish rejalashtirilgan. Qolaversa, mahalliy sabzavot, poliz, kartoshka urug'lik ta'minotini amaldagi 15 foizdan 50 foizga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashni esa 8 foizdan 25 foizga oshirish choralari ko'riladi. Agrotarmoqda 2,5 million tonna quvvatga ega bo'lgan 100 ta yangi logistika markazini ishga tushirish ham ko'zda tutilmoqda. Bunday chora-tadbirlar sohada yillik eksport hajmini ayni paytdagi 1,6 milliard AQSH dollaridan 10 milliard AQSH dollariga yetkazish imkonini beradi.

Ochig'ini aytish lozim, O'zbekiston ekin maydonlarining hosildorligi bo'yicha dunyodagi ilg'or mamlakatlardan hamon orqada qolmoqda. Holbuki, bizda bu borada o'g'it, yoqilg'i va suv 2 barobar ko'proq sarflanadi. Bu hol hech birimizni qoniqtirmaydi. Shuning uchun xorijdan unumdor chigit va g'alla urug'ini olib kelish va dehqonlarni yangi agrotexnologiyalarga o'qitish orqali har bir gektar maydonda paxtadan 50 sentnerdan, g'alladan 100 sentnerdan hosil olishga harakat qilishimiz lozim.

Respublikamizda qishloq xo'jaligini iqlim o'zgarishlariga mos holda rivojlantirish, tuproq va yaylovlar degradatsiyasining oldini olish bo'yicha milliy dastur qabul qilinadi. Mavjud bog' va tokzorlar, dala maydonlari, qadoqlash korxonalarini ilg'or xorijiy fitosanitariya talablariga moslashtiriladi. Chetdan yuqori samarali entomofaglar olib kelinib, zararkunanda hasharotlarga qarshi yangi turdagi biologik kurash usuli yo'lga qo'yiladi.

Kelgusida xalqaro hamkorlikni kuchaytirish orqali dehqonlarimizning peshana teri evaziga yetishtirilgan mahsulotlarni eksport hajmlari nisbatan qimmat bo'lgan bozorlarga yo'naltirish choralari

ko'riladi. Bunda eksportchi korxonalarimizning meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan xalqaro ko'rgazmalarda ishtiroki kengaytirilib, aniq buyurtmalar shakllantiriladi. Farg'ona, Samarqand va Toshkent xalqaro aeroportlari hududida meva-sabzavot mahsulotlarni eksport qilishga mo'ljallangan zamonaviy infratuzilmalar tashkil etiladi.

Umuman, 2030-yilga qadar agrar sohaga jami 15 milliard AQSH dollari miqdorida investitsiyalar jalb etish orqali keng qamrovli islohotlarni amalga oshirish belgilangan.

O'tgan davr mobaynida to'plagan tajribalarimiz bir haqiqatni yaqqol isbotlamoqda: **biz belgilab olgan barcha maqsad va rejalarimizga, yuksak taraqqiyotga faqatgina mashaqqatli va jasoratli mehnatlarimiz orqali erishishimiz mumkin.**

Ishonchim komil, o'zlarining halol va fidokorona mehnatlari bilan yerdan rizq-ro'z undirib, hayotimizga qut-baraka, fayz-u quvonch olib kirayotgan mirishkor dehqon va fermerlarimiz, klasterlar vakillari bilan birgalikda qishloq xo'jaligi sohasida ham tub burilishlarni albatta amalga oshiramiz.

Ochiq, pragmatik, konstruktiv, faol va tinchliksevar tashqi siyosat

Biz davlat va xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan ochiq, pragmatik, konstruktiv ruhdagi tinchliksevar tashqi siyosatimizni faol davom ettirish bilan bir qatorda, O'zbekistonning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta'minlashga doimo ustuvor ahamiyat qaratamiz.

Xo'sh, dunyodagi geosiyosiy vaziyat shiddat bilan o'zgarib, umumbashariy tahdidlar tobora kuchayib borayotgan hozirgi murakkab davrda milliy manfaatlarimizni qanday samarali himoya qilish mumkin?

Bunday sharoitda tashqi va tashqi iqtisodiy siyosatimizning asosiy tamoyillari, yo'nalishlari nimalardan iborat bo'lishi kerak?

Chuqur hayotiy asosga ega bo'lgan bunday savollar bugun nafaqat bizni, balki dunyo hamjamiyatini ham o'ylantirayotgani sir emas. Bugun turli darajadagi xalqaro yig'inlarda taniqli siyosatchilar, olim va mutaxassislardan tortib, ijtimoiy tarmoqlarda oddiy kishilar ham bu masalalarni qizg'in muhokama qilayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz.

Haqiqat shuki, yuqorida tilga olingan umuminsoniy muammolar bilan globallashuv jarayonlari hamda yangi texnologiyalarning shiddatli taraqqiyoti o'zaro qorishib ketgan hozirgi sharoitda **dunyodagi yuksak rivojlangan, qudratli davlatlar ham o'z holicha xavfsizlik va barqaror rivojlanishga erisha olmaydi.**

Jahondagi har qanday qarama-qarshilik va muammolarni bartaraf etish uchun manfaatdor davlatlar va xalqaro tashkilotlarning quyidagi tamoyillar asosida birgalikda ish olib borishi talab etiladi:

- turli manfaatlar, yondashuvlar, qarashlar va madaniy tafovutlarni hurmat qilish, o'zaro ishonch va tushunishga asoslangan ochiq va konstruktiv siyosiy muloqotni, ko'p qirrali hamkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish;

- davlatlarning suveren tengligi, chegaralarining buzilmasligi, hududiy yaxlitligi, ularning ichki ishlariga aralashmaslik, har qanday nizolarni tinch muzokaralar yo'li bilan hal etish, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik kabi umume'tirof etilgan xalqaro huquq talablariga rioya qilish;

- ana shu tamoyillar asosida nizoli vaziyatlarning moslashuvchan, adolatli va o'zaro manfaatli yechimlarini izlab topish hamda xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olinadigan tegishli qonuniy chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Biz qator xalqaro tashkilotlar va davlatlar rahbarlari bilan muloqotlarda bugungi kunda global miqyosda o'zaro ishonch, adolat

va hamjihatlikka ehtiyoj kuchayib borayotganiga urg'u berib, xalqaro munosabatlarda ularga ustuvor ahamiyat qaratish zarurligini ta'kidlab kelmoqdamiz. Negaki, aynan mana shunday ochiq va samimiy muloqotlar, tomonlarning manfaat va huquqlarini hurmat qilishga asoslangan yondashuvlar orqali umumiy maqsadlarga erishish mumkin.

Yuqorida tilga olingan tamoyillar kecha yoki bugun paydo bo'lgani yo'q, balki insoniyatning ko'p asrlik taraqqiyoti davomida yuzaga kelib, sayqal topib, zamonaviy xalqaro huquq sohasida ham o'z aksini topgandir. Ularning ildizi Sharq va G'arbda faoliyat ko'rsatgan taniqli davlat arboblari, siyosatchi va faylasuflarning **“Siyosat — bu birgalikda yashash san’ati bo’lsa, ishonchli muloqot — vazminlik va kelishuvlar san’atidir”, “Dushmanlarni emas, balki do’stlarni ko’paytirish lozim”, “Adolat — tinchlikning asosidir”** singari g'oya va falsafiy qarashlariga borib taqaladi.

Ushbu ezgu tamoyillar xalqimizning xohish-irodasi bilan yurtimizda eng yuksak huquqiy maqomga ega bo'lgan hujjat — yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda muhrlab qo'yildi.

Bu — Yangi O'zbekistonda ichki va tashqi siyosatning tamal toshi hisoblangan bunday qat'iy va o'zgarmas tamoyillarga mamlakat Prezidentidan tortib, davlat tashkilotlari, jamoat birlashmalari, fuqarolar, biznes hamjamiyatlar ham birday amal qilishi shart ekanligini anglatadi.

Biz ana shu hayotiy mezonlarga tayangan holda, yurtimizning tashqi siyosatini ham tubdan qayta ko'rib chiqib, hozirgi paytda butunlay yangicha tashqi va tashqi iqtisodiy siyosat yuritmoqdamiz. **Ushbu siyosat qaysi jihatlari bilan avvalgisidan farq qiladi va nimalarni nazarda tutadi, degan savolga quyidagicha javob berish mumkin:**

- O'zbekiston xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyekti, suveren davlat sifatida jahon hamjamiyati, eng avvalo, qo'shni davlatlar bilan do'stona munosabatlar va hamkorliklarni, o'zaro qo'llab-quvvatlash,

tinchlik va totuvlikni mustahkamlash hamda rivojlantirishga ustuvor e'tibor qaratadi;

- davlat va xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida o'zga davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko'p tomonlama munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan ochiq, pragmatik va konstruktiv siyosat olib boradi.

Bu yo'nalishdagi ishlar jadal davom ettirilmoqda. Masalan, birgina 2023-yilda xorijiy mamlakatlardan O'zbekistonga 176 ta yuqori darajadagi delegatsiya tashrif buyurgan bo'lsa, yurtimiz vakillari muhim ahamiyatga ega missiyalar bilan 220 marotaba chet ellarga yuborildi. Bu o'tgan 3 yildagi tegishli ko'rsatkichlardan 2 barobar ko'p demakdir. Ana shunday tashriflar natijasida 242 ta yangi xalqaro bitim imzolangani hamda 54 ta xalqaro shartnomani kuchga kiritish uchun zarur bo'lgan ichki tartib-taomillar yaratilgani tufayli xalqaro munosabatlarimizning shartnomaviy-huquqiy asosi sezilarli darajada mustahkamlandi.

Umuman, so'nggi yetti yil davomida xorijiy hamkorlar bilan 1023 ta xalqaro hujjat imzolandi, shuningdek, O'zbekiston 26 ta universal xalqaro shartnomaning a'zosiga aylandi. E'tiborli jihati, mazkur hujjatlar investitsiyalarni rag'batlantirish va o'zaro himoya qilish, savdo-iqtisodiy, moliyaviy, madaniy-gumanitar, ilmiy-texnikaviy hamkorlik, soliq, mehnat, transport, energetika, atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o'zgarishi, transchegaraviy tahdidlar va jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqiy yordam ko'rsatish, mintaqaning barqaror taraqqiyotini ta'minlash kabi ko'plab sohalarni qamrab oladi.

Bundan tashqari, so'nggi yillarda mamlakatimizning dunyoviy aloqalari geografiyasi, nufuzli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, global moliya institutlari bilan hamkorligi ham sezilarli darajada kengayib, sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Xullas, O'zbekiston bugun 149 ta davlat bilan diplomatik aloqalarni yo'lga qo'yan bo'lsa, yana 100 dan ortiq xalqaro tashkilotning to'laqonli a'zosi hisoblanadi.

Turkmaniston, Qirg'iziston, Turkiya, Tojikiston, Vengriya, Pokiston, Qatar kabi davlatlar bilan munosabatlarimiz strategik sheriklik darajasiga ko'tarildi. Ilgariroq ana shunday aloqalar o'rnatilgan AQSH, Koreya Respublikasi, Ozarbayjon, Rossiya, Xitoy, Yaponiya, Qozog'iston va Hindiston bilan hamkorliklarimiz yanada mustahkamlanib, yangicha ma'no-mazmun bilan boyidi.

BMT va uning ixtisoslashgan tuzilmalari, Parlamentlararo ittifoq, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti va boshqa xalqaro, mintaqaviy tuzilmalar hamda moliyaviy institutlar bilan ko'p tomonlama munosabatlarni yangi bosqichga ko'tarmoqdamiz.

O'zbekistonning Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo bo'lishi, BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashiga a'zo etib saylanishi va YOII da kuzatuvchi maqomiga ega bo'lishi ham yurtimizning barqaror rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga egadir.

Albatta, ushbu misollar bizning **faol tashqi siyosat va ko'p qirrali tashqi iqtisodiy faoliyatni** amalga oshirayotganimizdan dalolat beradi. Qayd etish o'rinliki, biz ushbu yo'nalishda dunyodagi mavjud vaziyatni, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy holatlar hamda ularning o'zgaruvchanlik xususiyatlarini chuqur tahlil qilgan holda oldinga qadam tashlamoqdamiz.

O'zbekistonning tashqi siyosat tamoyili xalqaro munosabatlarda umumbashariy, mintaqaviy va milliy darajadagi muammolarni hal etish, tahdidlarni bartaraf qilish, barqaror rivojlanishni ta'minlashda tashabbuskor bo'lish hamda ushbu yo'nalishlarda yangi g'oya, dastur va loyihalarni ilgari surishni ham nazarda tutadi.

Xalqaro ekspertlar O'zbekistonni global, mintaqaviy va milliy darajalarda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, mintaqaviy hamkorlikni qo'llab-quvvatlash, ekologik fojialarning oldini olish va

uning salbiy oqibatlarini bartaraf etish hamda inson huquqlarini himoya qilish borasida faol siyosat olib borayotgan davlatlardan biri sifatida e'tirof etishmoqda.

Darhaqiqat, o'tgan davrda nufuzli xalqaro sammitlar hamda oliy darajadagi uchrashuvlarda mamlakatimiz tomonidan dolzarb masalalar bo'yicha **400 dan** ortiq tashabbuslar ilgari surildi. Bugungi kunga qadar ana shu takliflar asosida BMT Bosh Assambleyasining **10 dan** ortiq rezolutsiyasi qabul qilingani ham ularning ahamiyati qay darajada yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Shu o'rinda bir misolga to'xtalib o'tmoqchiman. Ma'lumki, biz BMT va SHHT sammitlarida **umumiy xavfsizlik va taraqqiyotga qaratilgan "Samarqand birdamlik tashabbusi"**ni ilgari surgan edik. Dunyodagi barcha mamlakatlar va xalqlarning bugungi hayoti va kelajagi uchun mas'uliyatni chuqur his etgan holda, tomonlarni ochiq va konstruktiv muloqotga jalb etishni nazarda tutadigan mazkur tashabbus ham xalqaro hamjamiyat tomonidan qiziqish bilan kutib olindi.

Chunki tarixan shakllangan tushunchaga ko'ra, Samarqanddan turib qaralganda, dunyo tarqoq emas, balki yaxlit va bo'linmas bo'lib ko'rinadi. "Samarqand ruhi" degan noyob fenomenning mazmuni ham asli shunda mujassam bo'lib, u xalqaro hamkorlikning prinsipial jihatdan yangi formatini shakllantirish borasida mustahkam poydevor bo'lishi mumkin.

Biz BMT, SHHT va boshqa nufuzli xalqaro sheriklar bilan birgalikda mazkur tashabbusning doimiy platformasini yo'lga qo'yishni rejalashtirmoqdamiz. Zero, hozirgi kunda geosiyosiy raqobat, mafkuraviy ziddiyat va bahslardan xoli bo'lgan, amaliy hamjihatlik va hamkorlik ruhini saqlash, umumiy manfaatlarni mavjud ziddiyatlardan yuqori qo'yish va mamlakatlarni jipslashtirish g'oyasiga asoslangan bunday muloqot favqulodda muhim va zarurdir.

Bizning bunday intilishlarimiz O'zbekistonning dunyoda nufuzi ortishi hamda chet davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan aloqalari izchil rivojlanishiga yordam bermoqda.

Xo'sh, o'tgan qisqa davrda Yangi O'zbekiston tashqi siyosatida qanday muhim natijalarga erishildi? Kelgusida bu borada qaysi masalalarga ustuvor ahamiyat qaratish lozim?

Birinchi natija — biz qadimiy sivilizatsiya markazlaridan biri hisoblangan **Markaziy Osiyo** mintaqasining insoniyat taraqqiyotida naqadar muhim o'ringa ega ekanligini inobatga olib, eng avvalo, **yaqin qo'shnilarimiz bilan do'stona munosabatlar, birodarlik rishtalari va strategik sheriklikni mustahkamlashga, ushbu hududda amaliy hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga muvaffaq bo'ldik.**

O'tgan yillarda O'zbekiston tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yillik maslahat uchrashuvlarini o'tkazish yo'lga qo'yildi. Qisqa vaqt ichida ushbu muloqot usuli mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirish, davlatlarning umumiy muammolarini konstruktiv muhokama qilish va birgalikda hal etish bo'yicha samarali platformaga aylandi.

Qo'shnilarimiz bilan turli yo'nalishlar, ayniqsa, ekologiya va tabiatni muhofaza qilish, suv resurslaridan oqilona foydalanish, transport-kommunikatsiya infratuzilmalarini yanada rivojlantirish borasidagi amaliy hamkorlik sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqildi. Davlatlarimiz chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish, jahon iqtisodiy munosabatlariga yanada faol integratsiyalashuv masalalarida ham qator ijobiy o'zgarishlar yuz berdi.

Eng asosiysi, mintaqamizda mutlaqo yangi siyosiy muhit vujudga keldi, iqtisodiy, madaniy, ilmiy-gumanitar yo'nalishlardagi aloqalarimiz ham sezilarli darajada mustahkamlandi. Qo'shni va qardosh mamlakatlar o'rtasida ko'p yillar hukm surib kelgan tarqoqlik va o'zaro ishonchsizlikka

barham berilib, chinakam ahillik, samimiy do'stlik munosabatlari yo'lga qo'yildi, faol va manfaatli hamkorlik muhiti yaratildi.

Bir so'z bilan aytganda, dunyo siyosiy lug'atida yangi "**Markaziy Osiyo ruhi**" degan yangi atama paydo bo'ldi. Bu tushuncha mintaqamizning boy iqtisodiy va insoniy salohiyatini rivojlantirish, mamlakatlarimizning barqaror taraqqiyotiga to'sqinlik qilayotgan har qanday dolzarb muammo va tahdidlarni yaxshi qo'shnichilik, o'zaro hurmat va qat'iy ishonch tamoyillari asosida hal qilish bo'yicha olib borilayotgan faoliyatni anglatadi.

Bu haqda gapirganda quyidagi masalalar ham nazarimizdan chetda qolmaydi:

- Markaziy Osiyoda xalqaro huquq talablari va mintaqada joylashgan barcha davlatlarning milliy manfaatlarini hisobga olgan holda keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini chuqurlashtirish;

- bosqichma-bosqich ravishda mintaqamiz davlatlari hududida fuqarolarning erkin harakatlanishi, shuningdek, tovarlar, xizmatlar va kapitalning sun'iy cheklovlersiz aylanishiga erishish, shuningdek, umumiy sayyohlik makonini shakllantirishga qaratilgan ishlarni davom ettirish;

- Afg'oniston bilan ko'p qirrali va o'zaro foydali munosabatlarni rivojlantirish, uning iqtisodiy tiklanishiga yaqindan ko'mak berish, transport-tranzit salohiyatini ro'yobga chiqarishga hissa qo'shish.

Chet ellik taniqli ekspertlarning e'tirof etishicha, so'nggi vaqtlarda **Markaziy Osiyo — tom ma'noda xavfsizlik, izchillik va barqaror rivojlanish mintaqasiga aylanib, xalqaro hamkorlar uchun jozibadorligi tobora ortib bormoqda.** Rossiya, Xitoy, AQSH, Hindiston, Yaponiya, Janubiy Koreya davlatlari va Yevropa Ittifoqi bilan "**Markaziy Osiyo + 1**" formatidagi hamkorlik jadal rivojlanmoqda. Bu esa, o'z navbatida, mintaqamiz davlatlarining yetakchi xorijiy mamlakatlar

bilan siyosiy, savdo-iqtisodiy va xavfsizlik sohalarida o'zaro manfaatli aloqalarni tizimli ravishda yo'lga qo'yishiga xizmat qilmoqda.

Ikkinchi natija — O'zbekiston an'anaviy sheriklar bilan keng qamrovli aloqalarni rivojlantirish, xalqaro hamkorlik geografiyasini kengaytirish hamda global ishlab chiqarish va yetkazib berish zanjirlariga qo'shilish yo'lida aniq amaliy natijalarni qo'lga kiritmoqda.

Bu borada biz **iqtisodiy diplomatiya** samaradorligini oshirish va uni faollashtirish masalalariga ustuvor ahamiyat qaratdik. Zotan, aynan iqtisodiy diplomatiya yurtimizda tayyorlangan mahsulotlar eksporti va mamlakatimizga investitsiyalar oqimiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgan muhim omilga aylandi. Shuning uchun iqtisodiy diplomatiyani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib, birgina 2023-yilda ushbu yo'nalishda 4 mingdan ortiq tadbirlar o'tkazildi, xorijiy davlatlardagi elchixonalarimiz tomonidan 70 dan ziyod biznes-forumlar tashkil etildi. Shu yo'l bilan 77 ta investitsiya loyihasi doirasida 13 milliard AQSH dollariga teng sarmoya jalb qilishga erishildi.

Bunda, shuningdek, savdo-iqtisodiy, moliyaviy, investitsiyaviy va texnologik hamkorlikni rivojlantirish, jahon va mintaqa bozorlariga eksport hajmi va nomenklaturasini ko'paytirish, dunyo bozoriga chiqish imkonini beruvchi transport-logistika yo'laklarini shakllantirish kabi vazifalarga ham alohida urg'u bermoqdamiz.

O'zbekiston xalqaro munosabatlarning eng dolzarb masalalari muhokama etilib, tegishli tavsiya va qarorlar qabul qilinadigan markazlardan biriga aylanib bormoqda. Xususan, birgina Shanxay hamkorlik tashkilotining Samarqand sammitida mintaqamiz va jahon miqyosida kun tartibida turgan dolzarb muammolarni hal etishga qaratilgan 44 ta xalqaro hujjat qabul qilindi. Davlatlar o'rtasida uzoq muddatli yaxshi qo'shnichilik, do'stlik va hamkorlikni mustahkamlash, o'zaro bog'liqlikni rivojlantirish, samarali transport yo'laklarini yaratish, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish, ishonchli, barqaror va

diversifikatsiyalashgan yetkazib berish zanjirlarini ta'minlash, oziq-ovqat va energetika xavfsizligini ta'minlash kabi masalalar shular jumlasidandir.

Shuningdek, ushbu tashkilotga a'zo mamlakatlarni infratuzilmaviy jihatdan taraqqiy ettirish, ishbilarmon doiralar o'rtasidagi sanoat kooperatsiyasini rag'batlantirish, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan taraqqiyot yo'lida keng foydalanish, ta'lim, ilm-fan, texnika, sog'liqni saqlash, teletibbiyot, "aqli qishloq xo'jaligi" va agroinnovatsiyalarni joriy etish kabi yo'nalishlarda hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish borasida ham muhim qadamlar tashlandi.

Bir so'z bilan aytganda, ushbu yo'nalishda yuzaga kelgan "Samarqand ruhi" tashkilotning "**Har birimiz kuchli bo'lsakgina SHHT kuchli bo'ladi**" degan hayotiy shiorini hayotga tatbiq etish uchun xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti sammiti, Kam-bag'allikni qisqartirishga bag'ishlangan xalqaro forum, Oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha xalqaro konferensiya, BMTning Yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlarini saqlab qolishga doir konvensiyasining Tomonlar konferensiyasi hamda Butunjahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasining yubiley sessiyasi kabi nufuzli anjumanlarning yuqori saviyada o'tkazilgani ham dunyo hamjamiyatining bizga ishonchi va hurmati ortib borayotganini anglatadi.

Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik aloqalari mustahkamlanmoqda. Shu o'rinda Samarqandda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashi yig'ilishi bo'lib o'tgani hamda Toshkent shahrida uning ofisi qayta ish boshlaganini ta'kidlash joiz. Qolaversa, Xalqaro valuta jamg'armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Osiyo infrastruktura investitsiyalari banki bilan aloqalarimiz ham yangicha asosda yo'lga qo'yildi.

Jahon savdo tashkilotiga to'laqonli a'zo bo'lish borasidagi sa'y-harakatlarimiz ham samarali natijalar bermoqda. Milliy qonunchiligimiz

va huquqni qo'llash amaliyotini ushbu tashkilotning qoida, me'yor va bitimlariga moslashtirish borasidagi ishlarimizni jadallashtirdik. Jahon savdo tashkilotiga a'zo davlatlar bilan bozorlarga kirish bo'yicha muzokaralarni tizimli olib bormoqdamiz.

Muxtasar qilib aytganda, bugun mamlakatimiz eshiklari jahon uchun, dunyo bozorlari esa O'zbekiston uchun tobora kengroq ochilmoqda.

Uchinchi natija — xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlarimiz va mehnat migrantlari bilan doimiy muloqotni yo'lga qo'yib, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash tizimini yaratdik.

O'zbekiston fuqarolari dunyoning qaysi o'lkasi yoki mintaqasida yashashidan qat'i nazar, mamlakatimiz qonunlari himoyasida bo'lishiga hamda chet eldagi vatandoshlarimizning ham huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini kafolatli ta'minlashga erishish — mening eng ezgu niyatlarimdan biri hisoblanadi.

Shuning uchun yangi tahrirdagi Konstitutsiyada mamlakatimizda ham, uning tashqarisida ham fuqarolarimizni himoya qilish va ularga homiylik ko'rsatish hamda xorijlik vatandoshlar bilan aloqalarni rivojlantirishning kafolatlari muhrlab qo'yildi. Ayni paytda ushbu tamoyillar asosida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Biz yangilanishlar chet mamlakatlarda o'qigan, yirik kompaniyalarda ishlab katta tajriba orttirgan yuqori malakali mutaxassislarning ham yurtimizga qaytib kelishi va o'z salohiyatini Yangi O'zbekistonni barpo etishga safarbar etishi uchun barcha sharoitlarni yaratyapmiz.

O'zga yurtlarda istiqomat qilayotgan har bir o'zbekistonlikning Vatanni chin dildan sevishi va doimo unga intilib yashashi biz uchun juda muhimdir. Shu bois xorijdagi vatandoshlarimiz tomonidan tashkil qilingan jamoat birlashmalari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, respublikamizdagi o'zbek tili va adabiyoti, tarix, madaniyat, san'at va hunarmandchilik yo'nalishlaridagi oliy o'quv yurtlarida ularning

farzandlari uchun grantlar ajratish kabi masalalarga ustuvor ahamiyat qaratmoqdamiz.

Shuningdek, tashqi mehnat migratsiyasi tizimini takomillashtirish, xorijda ishlayotgan yurtimiz fuqarolariga har tomonlama ko'mak ko'rsatish, ularni ishga joylashtirish bo'yicha chet davlatlar bilan kelishuvlarga erishish bo'yicha aniq amaliy choralar ko'rilmoqda.

Fuqarolarni davlat-xususiy sheriklik asosida kasb-hunar va xorijiy tillarga o'qitish, mehnat migratsiyasidan qaytib kelganlarni reintegratsiya qilish, kasbiy malakasini oshirish, tadbirkorlik tashabbuslarini rag'batlantirish va bandligini ta'minlash kabi masalalarga ham urg'u berilmoqda.

To'rtinchi natija — tashqi siyosatni amalga oshirishda parlament, xalq va biznes (iqtisodiy) diplomatiya institutlarining roli va ahamiyati sezilarli darajada ortdi.

Ma'lumki, jahon mamlakatlari o'rtasida o'zaro ishonch va hamjihatlikni shakllantirish, muammolarni tinch yo'l bilan hal etish, nizolarning oldini olish, xalqaro hamkorlikning huquqiy asoslarini yaratishda parlament diplomatiyasi alohida o'rin tutadi. O'zbekiston Oliy Majlisi bugungi kunda yaqin va uzoq xorijiy davlatlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlikka yo'naltirilgan tashqi siyosatni shakllantirish va amalga oshirishda faol ishtirok etmoqda. Qolaversa, parlament diplomatiyasining geografiyasi kengayib, samaradorligi ortib bormoqda. Ayni paytda **Oliy Majlis palatalari tomonidan 57 davlat parlamentlari bilan ikki tomonlama do'stlik va hamkorlik guruhlari hamda Yevropa parlamenti** bilan hamkorlik bo'yicha parlamentlararo qo'mita tuzilgani ham tashqi siyosatimizning ustuvor vazifalarini amalga oshirishda muhim rol o'ynamoqda.

Oliy Majlisimizning dunyo mamlakatlari parlamentlarini birlashtirib turuvchi uzoq yillik tarixga ega xalqaro uyushma — **Parlamentlararo Ittifoq** bilan sermahsul hamkorligi jadal rivojlanmoqda. O'zbekistonning

MDH Parlamentlararo Assambleyasidagi ishtiroki ham ancha kuchaydi. Bular esa, o'z navbatida, xorijiy davlatlar bilan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalarida uzoq muddatli aloqalar va xalqlar o'rtasidagi do'stona munosabatlarni mustahkamlashga har tomonlama ko'maklashmoqda.

Bugungi kunda har qanday mamlakatning ichki va tashqi siyosatini amalga oshirish va xalqaro muammolarini hal etishda **xalq diplomatiyasining** ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, 1992-yilda 700 ga yaqin nodavlat notijorat tashkilot BMT iqtisodiy va ijtimoiy Kengashi maslahatchisi maqomiga ega bo'lgan bo'lsa, bugunga kelib ularning soni 6,5 mingdan oshdi. Bu tashkilotlar butun dunyoda inson huquqlarini ta'minlash, ta'lim, sog'liqni saqlash, iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot, Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va boshqa ko'plab sohalarida samarali faoliyat yuritmoqda.

Yangi O'zbekistonda ham xalq diplomatiyasi institutining mamlakat hayotidagi roli va ahamiyati ortib bormoqda. Xususan, yurtimizda tashkil etilgan fuqarolik jamiyati institutlari Markaziy Osiyo mintaqasida, MDH, SHHTga a'zo davlatlar o'rtasida yaxshi qo'shnichilikka asoslangan, do'stona va o'zaro manfaatli hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish, ilm-fan, madaniyat, san'at, ta'lim, turizm va sport sohalarida keng ko'lamli aloqalarni, madaniyatlararo muloqotni yo'lga qo'yishga xizmat qilmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz milliy davlatchilik taraqqiyotining hozirgi muhim tarixiy bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirish, jumladan, tashqi va tashqi iqtisodiy siyosat borasidagi ustuvor yo'nalishlarni belgilab bergan bo'lsa, "O'zbekiston — 2030" strategiyasi uni amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bunda mamlakatimizning **suveren davlat sifatidagi maqomini yanada kuchaytirish, yangi sinov va tahdidlar sharoitida milliy manfaatlar ustuvorligini ta'minlash, xalq va davlat ravnaqiga**

xizmat qiluvchi tashqi siyosatni izchil davom ettirish uchun quyidagi masalalarga alohida ahamiyat qaratish lozim.

Birinchidan, O'zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosatini amalga oshirishni qonun bilan mustahkamlash zarur. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasiga asosan mamlakatimizning jahon hamjamiyati, ayniqsa, qo'shni davlatlar bilan do'stona munosabatlarini **“davlatlarning hududiy yaxlitligi”** va **“tinchliksevar tashqi siyosat”** tamoyillariga mos ravishda rivojlantirishga doir konstitutsiyaviy normalarni hayotga tatbiq etishga qaratilgan qonun loyihasini ishlab chiqish zarur.

Ikkinchidan, **suveren davlat prinsipini** amalga oshirish konsepsiyasini ishlab chiqish lozim. Ushbu konsepsiyada suveren davlat maqomining huquqiy asoslarini kuchaytirish, yangi sinov va tahdidlar sharoitida **milliy manfaatlar ustuvorligini ta'minlash**, o'zaro ishonch va hamkorlikka asoslangan tashqi siyosatni davom ettirish masalalarini qamrab olish va tegishli amaliy choralar ko'rishni nazarda tutish muhim ahamiyatga ega.

Uchinchidan, O'zbekistonning **tashqi siyosiy faoliyatini tartibga solishning** zamonaviy mexanizmlarini joriy etish zarur. Bunda mamlakatimizning xalqaro shartnomalari bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish tizimi va diplomatik xizmat faoliyatini takomillashtirish talab etiladi. Shuningdek, xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan **ikki va ko'p tomonlama aloqalarimizning shartnomaviy-huquqiy asoslarini zamon talablari asosida yanada kuchaytirish** lozim.

To'rtinchidan, xorijda yashayotgan vatandoshlar bilan aloqalarni saqlab qolish va yanada rivojlantirishning ham ahamiyati katta. Bu borada ularning O'zbekiston manfaatlarini ilgari surish, milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va chet davlatlar bilan o'zaro foydali aloqalarni kuchaytirish borasidagi salohiyatini ishga solish choralari e'tibor qaratish zarur.

Umuman, Yangi O'zbekistonning yangi tashqi siyosati global miqyosda shiddatli o'zgarishlar yuz berayotgan, xalqaro maydonda kuchlarning yangi nisbati shakllanayotgan hozirgi zamonda nafaqat yurtimiz, balki mintaqamiz va jahonda ham tinchlik va osoyishtalikni mustahkamlash, barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qilib kelmoqda.

Tinchlik va xavfsizlik — barqaror rivojlanish garovi

Biz jonajon Vatanimiz milliy xavfsizligini ta'minlash va Qurolli Kuchlarimizning jangovar salohiyatini oshirishga qaratilgan ishlarni yangi bosqichga olib chiqishimiz lozim.

Har qanday sharoitda ham O'zbekistonning mustaqilligi, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini asrab-avaylash, bugungi kunda umumiy nufusi 37 million nafardan oshgan xalqimizning osoyishta va farovon hayot kechirishini ta'minlash uchun bizga faqat tinchlik, tinchlik va yana bir bor tinchlik zarur!

Bu biz uchun doimo favqulodda muhim vazifa bo'lib qoladi.

So'nggi yillarda mamlakatimiz mudofaa tizimining jangovar salohiyatini oshirish bo'yicha juda katta ishlar amalga oshirildi. Jumladan, harbiy boshqaruv tartibi deyarli yangidan barpo etildi. Davlat chegaralari xavfsizligini ta'minlashning yangi tizimi amaliyotga joriy qilinmoqda.

Harbiy-ma'muriy sektorlar qayta tuzilib, yangi, zamonaviy o'quv poligonlari barpo etildi, harbiy qism va poligonlardagi infratuzilma, askar va ofitserlarning sharoitlari yaxshilandi. Ular istiqomat qiladigan shaharchalarda ham juda katta o'zgarishlarga qo'l urildi.

Qo'shin turlari o'rtasida o'zaro hamkorlikni ta'minlash bo'yicha ta'sirchan mexanizmlar yo'lga qo'yildi. Eng murakkab vazifalarni

ham tezkorlik bilan bajarishga qodir bo'lgan bo'linmalar tashkil etildi. Qo'shinlarning jangovar va ruhiy tayyorgarlik darajasini kuchaytirish bo'yicha salmoqli natijalarga erishildi.

Yana bir muhim masala — zamonaviy armiyaga ega bo'lish uchun harbiy kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini kuchaytirishga ham alohida ahamiyat qaratish zarur. Rahbarlik va qo'mondonlik lavozimlariga istiqbolli kadrlar zaxirasini yaratish, ularni ushbu lavozimlarga bosqichma-bosqich tayyorlash hamda tanlov asosida tayinlash muhimdir.

Biz Qurolli Kuchlar Qo'mondonligi tarkibining zamonaviy operatsiyalarni rejalashtirish, qo'shinlarni oqilona boshqarish, mavjud kuch va vositalarni samarali qo'llash bo'yicha malakasini oshirish ishlarini tizimli yo'lga qo'ydik.

Mamlakatimizning mudofaa qudratini mustahkamlash, qo'shinlarning harbiy tayyorgarligini oshirish hamda harbiy ilm-fanni rivojlantirishga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Jangovar tayyorgarlik tizimini innovatsion va ilmiy yondashuvlar asosida yanada takomillashtirish, axborot almashinuvi va qarorlar qabul qilish bo'yicha zamonaviy harbiy va ilmiy ishlanmalarni hayotga joriy etish ishlari jadal davom ettirilmoqda.

Shu o'rinda axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlikni ta'minlash milliy xavfsizlik sohasidagi eng muhim vazifalardan biriga aylanganini alohida ta'kidlash joiz. Bu borada Qurolli Kuchlar va huquqni muhofaza qilish organlarini raqamlashtirishni jadallashtirish, tegishli vazirlik va idoralarning barcha axborot resurslarini yagona xavfsiz axborot makoniga birlashtirishning ahamiyati katta. Milliy armiyamizda bu yo'nalishda ham katta hajmdagi ishlar qilinmoqda.

Dunyoda ro'y berayotgan gibrid xarakterdagi qurolli mojarolar tahlili Qurolli Kuchlarimizning jangovar qobiliyatini yanada oshirishni taqozo etmoqda. Shu bois ayni paytda harbiy kuchlarni modernizatsiya qilish

orqali zamonaviy qurol-yarog' hamda texnikalar bilan ta'minlash, harbiy aviatsiya va havo hujumidan mudofaa tizimini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston sanoatining import o'rnini bosuvchi, raqobatbardosh va eksportbop harbiy texnika vositalari hamda ikki tomonlama mahsulotlarni ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirish bo'yicha ham sezilarli natijalarga erishilmoqda.

Umuman, Qurolli Kuchlarimizning qudrati, mudofaa qobiliyatimiz va harbiy salohiyatimizni yanada oshirish maqsadida, 2030-yilga qadar milliy armiyamizni eng zamonaviy qurol-aslaha va harbiy texnikalar bilan ta'minlash choralari ko'riladi.

Barcha kuch tuzilmalarining o'zaro hamkorlikdagi **axborot-kommunikatsiya tizimlari** Qurolli Kuchlarni boshqarish jarayonlariga izchil integratsiya qilinmoqda. Qurolli Kuchlarning boshqaruv organlari va qo'shinlarni birgalikda tayyorlash tizimiga xorijiy mamlakatlar armiyalarining ijobiy tajribalari faol joriy etilmoqda.

Bundan tashqari, harbiy sohani raqamlashtirish masalasi doimiy e'tiborimiz markazida bo'lib kelmoqda. Qo'shinlarni boshqarishning zamonaviy avtomatlashtirilgan tizimlari bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etilib, aloqa tizimlari takomillashtirilmoqda. Chunki jahon axborot makonida keskin kurash ketayotgan hozirgi vaziyat mamlakatimizda axborot xavfsizligini ta'minlash, yoshlarni yot va zararli g'oyalardan himoya qilish, harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarligi va jangovar ruhiyatini mustahkamlashni ham taqozo qilmoqda.

O'z hayotini Vatanimiz tinchligini himoya qilishga bag'ishlagan fidoyi insonlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan muntazam qo'llab-quvvatlash ham birlamchi vazifalar sirasiga kiradi. Mazkur yo'nalishda harbiy xizmatchilar, soha faxriylari hamda ularning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash, moddiy ta'minoti va uy-joy sharoitini yaxshilash choralari ko'rilmoqda. Jumladan, harbiylarimizning farzandlari oliy

ta'lim muassasalariga imtiyozli asosda o'qishga qabul qilinmoqda, ularning rafiqalari va harbiy pensionerlar ish bilan ta'minlanmoqda. Ular uchun ipoteka asosida ko'p qavatli uylar qurish, pensiya ta'minotini tartibga solish, harbiy tibbiyot muassasalaridagi shart-sharoitlarni yaxshilashga qaratilgan ishlarni kelgusida ham izchil davom ettiramiz.

Harbiy qurilishning barcha yo'nalishlarida amalga oshirilgan kompleks choralar natijasida milliy armiyamizning qiyofasi ham, qo'shinlarning tayyorgarlik darajasi ham tubdan o'zgardi.

Yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat g'oyasi atrofida birlashtirishdek ezgu maqsad yo'lidagi izlanishlarni kelgusida ham zarracha susaytirmasligimiz lozim.

Butun dunyoda odamlar, ayniqsa, yosh avlodning qalbi va ongini egallash uchun kurash kun sayin kuchayib borayotgan hozirgi globallashuv davrida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining o'rni va ahamiyati qay darajada yuqori ekanligini anglash qiyin emas. Bugun har birimiz amalda Vatan himoyachisi bo'lishimiz, farzandlarimizni ham ana shu ruhda kamol toptirishimiz zarur.

Shuni hisobga olib, mamlakatimizda **“Xalq va armiya — bir tan-u bir jondir!”** degan oliyjanob g'oya asosida Qurolli Kuchlar tizimi, barcha bo'g'indagi hokimiyat va boshqaruv idoralari, mahallalar, yoshlar tashkilotlari, ta'lim-tarbiya muassasalari hamda keng jamoatchilik hamkorligida katta hajmdagi ishlar amalga oshirilayotgani diqqatga sazovor. Ushbu jarayonda ko'plab jasur va fidoyi harbiylarimiz o'zlarining sharaflari hayoti va faoliyati bilan yoshlarimizga chinakam o'rnak bo'lishmoqda.

Keyingi paytlarda Qurolli Kuchlarning zamonaviy infratuzilmasi negizida va joylardagi monomarkazlarda farzandlarimizni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga e'tibor qaratilayotgani ham yaxshi samara bermoqda. Kelgusida bu yo'nalishdagi ishlarni yanada

kengaytirib, yoshlarni zamonaviy kasblarga o'qitish hamda subsidiyalar ajratish orqali ularning mehnat faoliyatini boshlashini qo'llab-quvvatlash ham lozim.

Shuningdek, bugun kamolga yetayotgan o'g'il-qizlarimizning faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishiga ko'maklashish maqsadida, media makonda harbiy-vatanparvarlik targ'ibotini zamonaviy, ta'sirchan usullarda olib borishga e'tiborni yanada kuchaytirish talab etiladi.

Barchamiz bir haqiqatni doimo yodda tutishimiz lozim: O'zbekistonning davlat suvereniteti, hududiy yaxlitligi va sarhadlarining daxlsizligini ta'minlash — siz-u bizning tarix va kelajak avlodlar oldidagi muqaddas burchimizdir!

Shu munosabat bilan yana bir bor takror aytaman: harbiy-jangovar qudrat va yuksak ma'naviy salohiyat O'zbekiston Qurolli Kuchlarining ikki buyuk tayanchiga aylanishi zarur.

Biz bunday hayotbaxsh g'oya va tamoyillarni barcha taraqqiyot strategiyalarimizga singdirib, islohotlarni shu asosda amalga oshirmoqdamiz. Xususan, "O'zbekiston — 2030" strategiyasining qabul qilinishi mamlakatimizda tub o'zgarishlarning yangi bosqichini boshlab berdi. Ushbu hujjat erkin va farovon, kuchli Yangi O'zbekistonni barpo etish, fuqarolarimiz salohiyatini rivojlantirish, barkamol avlodni tarbiyalash, jamiyatda adolat va qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash kabi ko'pdan ko'p ezgu maqsadlarga qaratilgan islohotlarimizning o'ziga xos "yo'l xaritasi" hisoblanadi.

Shunga asosan, davlat va jamiyat qurilishi, sud-huquq sohalarini takomillashtirish, chuqur ma'muriy islohotlarni amalga oshirish, iqtisodiyotimizni liberallashtirish, samarali tashqi siyosat olib borish, mamlakatimizda millatlararo totuvlik, tinchlik va barqarorlikni ta'minlash va boshqa qator yo'nalishlarda tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bugun O'zbekiston siyosiy-huquqiy, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy-gumanitar va boshqa ko'plab sohalarda tub burilish va ulkan o'zgarishlar davri hisoblangan yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo'ymoqda.

Bunday sharoitda nafaqat ichki, balki tashqi siyosatda ham yangi g'oya va tashabbuslarga ehtiyoj ortadi, avvalgidan-da ko'proq g'ayrat va shijoat bilan ishlashimizga to'g'ri keladi.

Albatta, xalqimizning hozirgi o'zgarishlarga umid va ishonch bilan qarab, islohotlarimizni qo'llab-quvvatlayotgani bu yo'lda bizga kuch va ishtiyoq bag'ishlab, yangi-yangi marralar sari undaydi.

Barchamiz shuni yaxshi bilib, anglab olishimiz lozim: oldimizda uzoq va mashaqqatli yo'l turibdi. Agar ana shu yo'lda barchamiz jipslashib, bir tan-u bir jon bo'lib, zimmamizdagi vazifamizni to'kis va mukammal ado etsak, o'zimizni ayamadan hamisha oldinga intilib yashasak, albatta, hayotimiz va jamiyatimiz o'zgaradi, turmushimiz yanada farovon bo'ladi.

“

Ijtimoiy davlat — eng avvalo, jamiyatda ijtimoiy adolat va hamjihatlik tamoyillari hukm suradigan, inson kapitalini rivojlantirish va uning imkoniyatlarini yuzaga chiqarish uchun zarur sharoitlar yaratilgan, fuqarolar uchun yuqori hayot va turmush darajasi ta'minlanadigan davlatdir.

YANGI O‘ZBEKISTON — IJTIMOIIY DAVLAT

Yangi O‘zbekistonning asosiy ustuni — bilim, ta’lim va tarbiyadir

Shiddat bilan rivojlanayotgan hozirgi dunyoda axborot, bilim va texnologiyalar, inson kapitali — eng muhim milliy resurslarga, barqaror rivojlanishning strategik omillariga aylandi.

Ilm-fan va innovatsiyalar, raqamli va “bulutli” texnologiyalar, sun’iy intellekt davrimizning global tendensiyasi bo‘ldi.

Bir so‘z bilan aytganda, **taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham — bu ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir.** Bugungi kunda har qanday mamlakatning **taraqqiyoti va dunyoda raqobatbardoshligi, avvalo, ta’lim sifatiga, ilm-fan rivojiga bog‘liqdir.**

Qaysi mamlakatda ushbu hayot haqiqatiga yetarli ahamiyat qaratilmasa va strategik dasturlarida aks etmasa, u oxir-oqibat jahon taraqqiyotidan chetda qolishi tayin.

Rivojlangan davlatlar nimaning evaziga yuksak taraqqiyot va turmush farovonligiga erishmoqda? Eng avvalo, ilm-fan va ta’lim sohalariga ulkan e’tibor qaratgani tufayli.

Bunday davlatlarda ta’lim va innovatsion tizimlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasini modernizasiyalash, tegishli institutsional muhitni yaratish kabi masalalarga barqaror taraqqiyotning strategik omillari sifatida qaralib, tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Binobarin, **har qanday shaxs hayotda muayyan maqsad va yuksak marralarga erishishni istasa, eng zamonaviy bilimlarga ega bo‘lishi**

shart. Inson butun umri davomida bilimlarga intilib yashash orqali o'z salohiyatini to'la-to'kis ro'yobga chiqarish, yangi sohalarni o'zlashtirish, yangi marralarni zabt etish va pirovard natijada moddiy farovonligini ta'minlash imkoniga ega bo'ladi.

Biz O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilgan ekanmiz, bunga faqat ilm-ma'rifat va innovatsiya orqali erisha olamiz. Bu — bugungi zamon talabi. Zotan, ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda farzandlarimizga berayotgan ta'lim-tarbiyamizning sifati bilan chambarchas bog'liqdir. Aynan shuning uchun ham keyingi yillarda O'zbekistonda barcha sohalar qatori ta'lim tizimini yuksaltirish bo'yicha ham tub islohotlar olib borilmoqda.

Bu yo'l donishmand ajdodlarimizdan bizga merosdir.

Sharq donishmandlari aql-zakovat va ilmni — eng katta boylik, yaxshi tarbiyani — bebaho meros, bilimsizlikni — ayanchli qashshoqlik deb bilganlar. Turkiy xalqlarning ulug' shoiri **Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig"** asarida ham insonning bilim quvvati va aqliy salohiyati behad ulug'lanadi. Allomaning bundan ming yil avval aytgan **"O'quv qut beradi, bilim — sharaf-shon, shu ikkov tufayli ulug'dir inson"**, degan hikmatli gapi bugun ham ahamiyatini yo'qotmagan.

Men bu fikrlarni bejiz tilga olmadim. Tarixga nazar solsak, Buyuk ipak yo'lining chorrahasida joylashgan o'lkamiz azaldan yirik sivilizatsiya o'choqlaridan biri bo'lganini ko'ramiz. Xalqimizning boy ilmiy-madaniy merosi, toshga muhrlangan qadimiy bitiklar, bebaho me'moriy obidalar, nodir qo'lyozmalar, turli osori-atiqalar shundan dalolat beradi.

Antik davrda Yunoniston va Sharqda yongan ilm mash'ali IX–XII asrlarda Markaziy Osiyo zaminida yo'lchi yulduzdek qayta porladi. Bu davrda yurtimiz hududida yuzaga kelgan Birinchi Renessans hodisasi dunyoga mashhur daholarni yetishtirib berdi. Xususan, **Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino,**

Abu Abdulloh Xorazmiy, Mahmud Zamaxshariy singari o'nlab buyuk allomalarimizning jahonshumul ilmiy-ijodiy kashfiyotlari bashariyat taraqqiyotiga beqiyos ta'sir ko'rsatdi.

“**Islom madaniyatining oltin asri**” deb e'tirof etiladigan bu davrda ona zaminimizdan yetishib chiqqan **Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Abu Muin Nasafiy** kabi ulug' ulamolar muqaddas islom dini rivoji yo'lidagi beqiyos xizmatlari bilan dunyodagi millionlab mo'min-musulmonlarning cheksiz hurmat-ehtiromiga sazovor bo'ldilar.

XIV asrda Sohibqiron **Amir Temur** asos solgan muhtasham saltanat kengliklarida yana bir yangi uyg'onish pallasi — Ikkinchi Renessans davri yuz ochdi. Bu davrda **Qozizoda Rumiy, Mirzo Ulug'bek, G'iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi** singari benazir olimlar, **Lutfiy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo** kabi mumtoz shoir va mutafakkirlar, **Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamir** kabi tarixchilar, **Mahmud Muzahhib, Kamoliddin Behzod** singari musavvirlar, ko'plab me'morlar, xattot, sozanda-yu navozandalar o'zlarining izlanishlari orqali yurtimizda ilm-fan, adabiyot, san'at, me'morchilik va boshqa ko'plab sohalarni yuksak cho'qqiga olib chiqdilar.

Ushbu tarixiy hodisalar ma'rifatga tashna xalqimiz o'tmish davrlarda ham jahondagi eng ilg'or, taraqqiy etgan ellar safida bo'lganidan dalolat beradi va tabiiyki, bu hol barchamizga ulkan g'urur va iftixor bag'ishlaydi.

Tan olish kerak, biz yaqin vaqtlargacha ana shunday bebaho merosimizga go'yoki bir tarixiy yodgorlikka qaraganday munosabatda bo'lib keldik. Bunday tengsiz boylikni amaliy hayotimizga tatbiq etishda beparvolik va e'tiborsizlikka yo'l qo'ydik. Vaholanki, bunday noyob meros dunyodagi sanoqli xalqlargagina nasib etgan.

Birgina misol, Yevropada XVII asrga qadar tibbiyot fani va amaliyoti yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma **Abu Ali ibn Sinoning** asarlari asosida yuritilganligi barchaga ma'lum. Ibn Sino hayoti davomida

450 dan ziyod asar yozgani ma'lum, taqdir taqozosi bilan ularning atigi 160 tasi bizgacha yetib kelgan. Ko'pchilik yurtdoshlarimiz bu ulug' mutafakkir bobomizning asosan tib ilmiga oid faoliyatidan xabardor, xolos. Holbuki, ul zot qalamiga mansub falsafiy asarlar insoniyat tamadduni rivojida beqiyos ahamiyat kasb etganini jahon olimlari yakdillik bilan e'tirof etishadi. Qolaversa, alloma metafizika, astronomiya sohalarida ham ko'plab asarlar bitgan. "Tibbiyot kaminaning falsafa sohasidagi bilimlari hosilasidir," deb yozadi Ibn Sino hazratlari o'zining "**Mantiq**" asarida. Ushbu asar hozirgi kunda ham dunyoning qator universitetlarida o'qitilmoqda.

Ming afsuski, XVI asrning ikkinchi yarmidan boshlab Markaziy Osiyo zaminida hokimiyat uchun ichki urush va nizolar avj oldi. Ayirmachilik va mahalliychilik kuchaydi, ma'rifat o'rnida jaholat ildiz otdi. Natijada bir paytlar gullab-yashnagan o'lkamizda ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy inqiroz yuzaga keldi. Ilm-fan va tafakkur mash'ali so'na boshladi. Yurtimizning XIX asrga kelib qaramlikka tushib qolishiga aynan shunday salbiy holatlar asosiy sabab bo'lgani hammamizga yaxshi ayon.

Ko'pchilik ziyolilar qatorida men ham bir fikrni hamisha katta armon bilan o'ylayman: mamlakatimizda Uchinchi Renessansni XX asrda ma'rifatparvar jadid bobolarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Negaki, bu fidoyi va jonkuyar zotlar o'zlarining butun umrini milliy uyg'onish g'oyasiga bag'ishlab, o'lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g'aflat botqog'idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar. Shu yo'lda o'zlarining aziz jonini ham ayamadilar. "**Imdan boshqa najot yo'q va bo'lishi ham mumkin emas**" degan ezgu g'oyani o'zlari uchun hayotiy e'tiqod sifatida belgilagan insonlar milliy istiqlol, taraqqiyot va farovonlikka, avvalo, ma'rifat orqali, zamonaviy bilim va ilm-hunarlarini chuqur egallash orqali erishish mumkinligini chuqur anglagan edi.

Bu davrda **Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo'jayev, Abdurauf Fitrat, Is'hoqxon Ibrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Ashurali Zohiriy, Hoji Muin** va boshqa yana yuzlab ulug' insonlar milliy uyg'onish va millatparvarlik harakatining oldingi saflarida turdilar. Ular yangi usul maktablari bilan bir qatorda, odamlarning dunyoqarashi va turmush tarzini o'zgartirishga qaratilgan gazeta-jurnallar, nashriyot va kutubxonalar, teatrlar tashkil etdilar.

Ming afsuski, jadid bobolarimizning o'z oldiga qo'yan ezgu maqsadlarini amalga oshirishiga mavjud vaziyat, ijtimoiy tuzum yo'l bermadi. Ma'rifat fidoyilari ilg'or qarashlari uchun johil kimsalarning tuhmat-malomatlariga duchor bo'ldilar. Avval chor hukumati, keyinchalik sho'rolar davlati ularni ayovsiz quvg'in va qatag'on qildi. Shu tariqa milliy uyg'onish va taraqqiyot harakati el-yurtimiz uchun armon bo'lib qoldi.

Bugungi kunda biz jadid ma'rifatparvarlarining **O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratish to'g'risidagi ezgu orzularini ro'yobga chiqarishni o'zimiz uchun asosiy maqsad qilib belgiladik. Bundan buyon bilim, ta'lim va tarbiya — Yangi O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining asosiy ustuniga aylanishi darkor.**

Qolaversa, shu yo'l bilan mamlakatimizda shaxs, jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishini ta'minlashimiz, jamiyatda inson kapitalini oshirib borish bo'yicha oldimizga qo'yan ulkan maqsadlarga erishishimiz mumkin.

Quvonarlisi, xalqimiz ham **“Yangi O'zbekistonni yuksak bilimli, intellektual salohiyatli insonlar yurtiga, ma'rifiy jamiyatga aylantirish”** g'oyasini qo'llab-quvvatlayapti.

Biz ushbu maqsad va vazifalarga millati, tili, dinidan qat'i nazar, har bir insonning o'z qobiliyati va iste'dodini, bilim va tajribasini ro'yobga chiqarishiga ko'maklashadigan ijtimoiy davlat barpo etish,

jamiyatimizning intellektual salohiyati va inson kapitalini oshirish orqali erishishimiz mumkin.

Buning uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish har birimiz uchun uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak. Chunki **ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi.**

Bizga tashabbuskor islohotchi sifatida maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, jahon mehnat bozorida, zamonaviy bilim va ko'nikmalarni chuqur o'zlashtirgan, ilm-fan va texnologiyalar olamida raqobatbardosh bo'lgan yangi avlod zarur.

Shuning uchun biz barcha kuch va imkoniyatlarimizni ta'lim-tarbiya sohalari rivojini yangi bosqichga ko'tarish, yoshlarimizning intellektual va jismoniy kamoloti, sifatli ta'lim olib, hayotdan munosib o'rin egallashlari uchun safarbar etmoqdamiz.

Bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga aslo haqqimiz yo'q. Biz farzandlarimizning ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk bo'lishi va ilm-fanning eng yuqori cho'qqilarini egallashlari uchun doimo qayg'urishimiz, bu yo'lda jon-jahdimiz bilan kurashmog'imiz zarur.

Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma'naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi, har birimizga kuch-quvvat va ilhom bag'ishlashi lozim. Avvalambor, milliy ta'lim tizimini ana shunday ruh bilan sug'orishimiz kerak. Shundagina ajdodlarimizning bu o'lmas merosi yurtimizning bugungi kundagi barqaror rivojlanishi uchun to'laqonli xizmat qiladi. Buning uchun olim va mutaxassislarimiz, hurmatli ulamolarimiz bu ma'naviy xazinani yoshlarga sodda va tushunarli, jozibali shakllarda yetkazib berishlari talab etiladi. Bunda Payg'ambarimizning **kishilarni beshikdan to qabrgacha ilm izlashga da'vat etuvchi hadislarini** hamda ajdodlarimizning **komil inson** haqidagi qarashlari mustahkam tayanch va yo'lchi yulduz vazifasini o'tamog'i lozim.

Jumladan, Birinchi Renessans davrining buyuk namoyandasi, Xorazm Ma'mun akademiyasi asoschilaridan biri hisoblangan qomusiy olim **Abu Rayhon Beruniy** ilgari surgan qiyosiy tarbiya va ta'limning o'zaro uyg'unligi, uzviyligi va uzluksizligiga oid g'oyalar, uning pedagogik qarashlari va beqiyos ilmiy merosi hozirgi kunda ham juda katta ahamiyatga ega.

Biz ajdodlarimizning boy ilmiy-pedagogik merosiga tayangan holda, ta'lim tizimimizni dunyoda umume'tirof etilgan ta'limning uzluksizligi va izchilligi, uning insonparvarlik, demokratik va dunyoviylik xususiyatlarini inobatga olgan holda, sohada kamsitishlarga yo'l qo'yilmaslik, inkluzivlik kabi tamoyillar asosida takomillashtirmoqdamiz.

Shuningdek, ta'lim ustuvorligini e'tirof etish, uning shaklini tanlash erkinligini ta'minlash, ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni chuqur singdirish, jamiyatda pedagog xodimlarning ijtimoiy himoyasini kafolatlash, bilimli, qobiliyatli va iste'dodli shaxslarni rag'batlantirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratmoqdamiz. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi, "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi, "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi qonunlar, shuningdek, qabul qilingan muhim farmon, qaror va dasturlar ushbu soha taraqqiyotida yangi ufqlarni ochib bermoqda.

Ayniqsa, so'nggi vaqtlarda mamlakatimizda butun ta'lim tizimiga — maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional, maktabdan tashqari va oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimlarini yaxlit bir tizim sifatida qarab, ularni uyg'un ravishda rivojlantirishga e'tibor qaratilayotganini alohida ta'kidlash o'rinlidir.

Bunda ushbu ta'lim tizimi hamda yurtimizdagi ilmiy-madaniy muassasalar **Uchinchi Renessansning to'rt uzviy halqasi hisoblansa,**

shubhasiz, bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimiz — globallashuv davrida mamlakatimiz raqobatbardoshligini ta'minlashning to'rt tayanch ustunidir.

Zero, ta'lim muassasalarida mehnat qilayotgan jonkuyar muallim va pedagoglarni farzandlarimiz qalbining chinakam me'mori, muhandisi, deyish mumkin. Alisher Navoiy hazratlarining:

*Haq yo'linda kim senga bir harfo'qitmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado, oning haqin yuz ganj ila, —*

degan hikmatli satrlari ham ustozlarning maqomi qay darajada baland ekanligidan dalolat beradi.

Bir so'z bilan aytganda, chuqur bilim va malakaga ega muallim va murabbiylar, professor-o'qituvchilar, haqiqiy ziyolilarni yetishtirish, qo'llab-quvvatlash — yurtimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish, zamonaviy aql va tafakkur sohibi bo'lgan munosib avlodni tarbiyalash hamda yorqin kelajakni ta'minlashning zarur va majburiy shartidir.

O'zbekistonda bu borada, avvalo, ta'lim tizimining faoliyatini zamon talablari asosida yo'lga qo'yish, o'qituvchi va murabbiylarning jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ta'sirini kuchaytirishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, so'nggi yillarda aynan mana shunday omillarga tayangan holda jamiyatimizda inson kapitali, ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalari zamonaviy talablar asosida rivojlantirilib, salmoqli investitsiyalar jalb qilinmoqda. Xususan, mazkur yo'nalishga davlat budjetidan ajratiladigan to'g'ridan to'g'ri xarajatlar 5 barobar oshirildi. Birgina 2024-yilda ushbu maqsadlar uchun 102,5 trillion so'm yo'naltirilmoqda. Buni mamlakatimiz taraqqiyoti, kelajagi, uzoq

muddatlarda ham xalqimiz farovonligini ta'minlash uchun kiritilgan investitsiya deyish mumkin.

Albatta, ikki buyuk Uyg'onish davri kabi Uchinchi Renessansni barpo etish ham uzoq davom etadigan jarayon sanaladi. Uning poydevorini yaratishga besh-o'n yil emas, balki yanada uzoqroq vaqt, juda ko'p kuch va mashaqqatli mehnat talab qilinadi. Qolaversa, buning uchun minglab iste'dodli kadrlar, iqtidorli zamonaviy yoshlar, fidoyi insonlar nihoyatda kerak bo'lishini ham unutmashimiz lozim.

Ta'lim va tarbiya — beshikdan, oiladan boshlanadi

Inson dunyoga kelibdiki, atrof-olamni doimiy kuzatadi va o'rganadi, dunyoni anglashga intiladi, yaxshi va yomonni farqlashga harakat qiladi. Ya'ni, har bir shaxsning ilm olishi, avvalo, beshikdan, oiladan, qolaversa, maktabgacha ta'lim muassasasidan boshlanadi.

Shu o'rinda, sohadagi islohotlarda nimalarga e'tibor qaratilyapti, ilgari bu boradagi ishlar qay ahvolda edi, bugun nimalar o'zgardi, kelgusida qanday maqsadlarga intilishimiz kerak, degan bir qator savollar tug'ilishi tabiiy. Albatta, bu yo'nalishda shu chog'gacha ancha-muncha ishlarni amalga oshirgan bo'lsak-da, hali bajarishimiz lozim bo'lgan katta-katta vazifalar ham yetarli.

Hech kimga sir emaski, har qanday vazifani samarali hal etish birinchi galda muammolarni to'g'ri aniqlab olishga bog'liq. Biz yangicha islohotlarga kirishgan vaqtimizda **respublika bo'yicha bolalarimizni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi atigi 27 foizni tashkil etar edi**. Mamlakatimizda har yili o'rtacha 600–700 ming nafar go'dak dunyoga kelishiga qaramay, keyingi 20 yil davomida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining soni 45 foizdan ziyodga kamaygan va bu salbiy

tendensiya davom etayotgan edi. Yanayam achinarlisi, bu hol tug'ilish darajasi nisbatan yuqori bo'lgan Andijon, Farg'ona, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida ko'proq kuzatilar edi.

Sohada nafaqat maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonining yetarli emasligi, balki aksariyatining moddiy-texnik holati nochorligi, ta'lim sifatining pastligi, malakali rahbar va pedagog kadrlarning tanqisligi, zamonaviy o'quv-metodik materiallar, qo'llanmalar va ko'rgazmali qurollarning yetishmasligi kabi tizimli muammolar ham saqlanib qolayotgan edi. Alohida ehtiyojli bolalar uchun mo'ljallangan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining texnik jihozlanishi va uslubiy ta'minoti darajasi ham talabga javob bermas edi.

Bu nimadan dalolat beradi? Bu, avvalo, o'sha davrda millionlab bolajonlarimiz ta'lim-tarbiya tizimidan, jamiyat va davlatning zarur e'tiboridan chetda qolganini anglatadi. Buning salbiy oqibatlari ayni paytda iqtisodiyotimiz va ijtimoiy sohalarda ham yaqqol sezilmoqda.

Bunday holatga barham berish maqsadida biz quyidagi asosiy yo'nalishlarni qamrab oluvchi islohotlarni amalga oshira boshladik.

Avvalambor, **maktabgacha ta'lim sohasidagi me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirishga** e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ilk marotaba davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishi va ushbu tizim davlat nazoratida ekanligini belgilab qo'ydik.

Milliy qadriyatlarimiz va ilg'or xorijiy tajribalarni hisobga olib, maktabgacha ta'limning yangi davlat standartlari, tarbiyalanuvchilarda shakllantirilishi lozim bo'lgan bilimlar, ko'nikmalar va mahoratlariga qo'yiladigan talablar, bolalarni parvarishlash, ularning sog'lig'ini saqlash va yaxshilash bo'yicha xizmatlar ko'rsatish tartiblari belgilandi.

Maktabgacha ta'limni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, uning muqobil shakllari faoliyatini tartibga solish, sohada innovatsion pedagogik faoliyatni qo'llab-quvvatlash kabi masalalarga

ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda qisqa muddatlarda sohadagi davlat siyosatini belgilab beruvchi, ko'p yillardan beri yig'ilib kelayotgan tizimli muammolarni bartaraf etishga qaratilgan 100 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Bunda bolaning ta'lim-tarbiyasi qancha erta boshlansa, shuncha yaxshi samara berishi, maktabgacha yoshdagi **bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirish uchun sharoitlar yaratishga** alohida ahamiyat qaratyapmiz.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun yangi zamonaviy o'quv-metodik, didaktik materiallar va badiiy adabiyotlarni yaratish va amaliyotga joriy etish, maktabgacha ta'limda fanlarni rivojlantiruvchi muhitning innovatsion texnologiyalari va modullarini ishlab chiqish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, o'tgan yillar davomida maktabgacha ta'lim tashkilotlari 39 nomdagi zamonaviy o'quv-metodik qo'llanmalar va didaktik materiallar bilan ta'minlandi, ularga "Ilk qadam" dasturi, minglab badiiy adabiyotlar to'plami, pedagoglar uchun o'quv va metodik qo'llanmalar yetkazib berildi.

Bolalarning ongi va qalbiga Vatanga muhabbat hissini, oilaga, milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlarimizga hurmat, atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lish tuyg'usini singdirish borasida tizimli ishlarni yo'lga qo'ydik. Ularning badiiy-estetik, musiqiy didi va ta'lim darajasini oshirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Shuningdek, nogironligi bor bolalar ta'limining kompleks texnologiyalarini ishlab chiqish, ularni umumiy ta'lim tizimiga integratsiyalashtirish, **inkluziv ta'lim, zamonaviy rehabilitatsiya va abilitatsiya usullarini** keng joriy etish ham doimiy diqqat markazimizda.

Respublikamizda inkluziv ta'lim tamoyillari va nogironligi bor bolalarga yordam ko'rsatishning yangi shakllari joriy etilmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotining ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan va qo'shma turdagi yangi shakllari paydo bo'lgani soha rivojida tub burilish

yasadi. Jumladan, Nukus, Qarshi shaharlari va Qibray tumanida **“Imkon”** reabilitatsiya markaziga ega bo'lgan ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan va qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti barpo etildi. Barcha ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari reabilitatsiya asbob-uskunalari bilan ta'minlandi.

Shu bilan birga, maktabgacha **ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish** ustuvor vazifa sifatida belgilanib, bu borada ham tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur yo'nalishda birinchi bosqichda Maktabgacha ta'limni boshqarishning axborot tizimi (EMIS), bolalarni davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga Davlat xizmatlari markazlari yoki Interaktiv davlat xizmatlarining yagona portali orqali qabul qilish yo'lga qo'yildi. Maktabgacha ta'lim tizimining telekommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish, bunday muassasalarni keng polosali internet tarmog'iga ulash ishlari amalga oshirilmoqda.

Ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ilg'or o'qitish shakllari, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish orqali tarbiyalanuvchilarning har tomonlama rivojlanishi ta'minlanmoqda. BMTning YUNISEF xalqaro bolalar fondi bilan hamkorlikda Namangan va Xorazm viloyatlarida maktabgacha ta'limning “Turli xil yoshdagi maktabgacha ta'lim guruhleri” deb ataladigan muqobil shakllari sinovdan o'tkazilib, amaliyotga tatbiq etila boshladi.

Ayniqsa, xususiy tadbirkorlik subyektlarini maktabgacha ta'lim tizimiga jalb etish, sohada nodavlat sektor ulushini oshirib borish, davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi va bu borada katta natijalar qo'lga kiritildi. Xususan, 2017–2023-yillarda 420 dan ziyod davlat bog'chasi qurilgani hamda 21 mingdan ortiq nodavlat muassasalar ochilishi natijasida respublikamizdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarining umumiy soni

5,6 barobar oshib, tizimga bolalarni qamrab olish ko'rsatkichi 72 foizga yetkazildi. Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 2 million nafardan ortiq bola tarbiyalanmoqda. Eng muhimi, bunday islohotlar natijasida 1,2 million qo'shimcha o'rin yaratildi.

O'z navbatida, bog'cha ta'limiga jalb qilingan bolalarning sog'lom ovqatlanishini ta'minlash, ularning salomatligini asrab-avaylash hamda sog'lom turmush tarziga oid ko'nikmalarini shakllantirish uchun zarur sharoit yaratish ham bu borada birlamchi vazifalar sirasiga kiradi.

Jajji farzandlarimizning sog'lom, xavfsiz va sifatli ovqatlanishini ta'minlash maqsadida davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ushbu xizmat qisman autsorsing shartlari asosida tadbirkorlik subyektlariga berildi.

Tarbiyalanuvchilarni sog'lom turmush tarziga o'rgatish, gimnastika va faol o'yinlarga jalb qilish orqali sportga qiziqishini shakllantirishga mo'ljallangan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatish sifati va tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha ham tizimli ishlar olib borilmoqda.

O'zbekistonda maktabgacha ta'limning hammabopligini ta'minlash, olis tumanlarda ham bolalar bog'chalarining standart shakllarini kengaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu maqsadda davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida minglab kam ta'minlangan, xususan, boquvchisini yo'qotgan oilalarning farzandlari ota-onalar to'lovidan ozod qilindi. Iqtisodiy rivojlanish darajasi past bo'lgan tumanlarda 432,4 ming nafar bolaga ota-onalar to'lovini amalga oshirishda turli imtiyozlar berildi. Shuningdek, davlat-xususiy sherikchiligi asosida faoliyat ko'rsatayotgan bog'chalar tarbiyalanuvchilarining 56 foiziga ota-ona to'lovini amalga oshirishda imtiyozlar yaratib berilgan.

Biz zamonaviy talablarga javob beradigan maktabgacha ta'lim muassasalarini yana istagancha qurishimiz mumkin. Lekin shuning

o'zi bilan maqsadga erishib bo'lmaydi. Avvalo, **“Bu bog'chalarda bolalarimizga kim va qanday ta'lim beradi, ularning tarbiyasi bilan kim shug'ullanadi?”** degan hayotiy savollarga javob topishimiz talab etiladi.

Biz ana shu hayotiy masalani chuqur va atroflicha tahlil qilish, bu yo'nalishda ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish asosida **maktabgacha ta'lim tizimi uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirish bo'yicha mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etdik.** Jumladan, oliy o'quv yurtlarida maktabgacha ta'limning bakalavriat yo'nalishi bo'yicha qabul kvotalari oshirilib, o'qish muddati uch yilgacha qisqartirildi.

E'tiborlisi, bugungi kunda respublikamizdagi 22 ta davlat oliy ta'lim muassasasida maktabgacha ta'lim tizimi uchun pedagog kadrlar tayyorlanmoqda. Shu bilan birga, ushbu yo'nalishda Toshkent shahrida Koreya Respublikasining Puchon universiteti, A.I. Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti Federal davlat-budjet oliy ta'lim muassasasi filiallari faoliyati ham yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlari va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti tashkil etilib, bu yerda soha xodimlarining zamonaviy menejment va pedagogik texnologiyalar bo'yicha bilim va ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Natijada keyingi yetti yil ichida maktabgacha ta'lim tizimidagi pedagoglar soni 2,6 barobar ko'payib, bugungi kunda 152 mingdan ziyodni tashkil etmoqda. Mos ravishda oliy ma'lumotli pedagoglar salmog'i ham 21,6 foizdan 34 foizgacha ko'paydi.

Muxtasar aytganda, biz qisqa vaqt ichida respublikamizning barcha hududlarida bog'cha ta'limini birday, samarali rivojlantirish, innovatsiyalarni joriy qilish va farzandlarimizni kichik yoshidan jismoniy, intellektual va axloqiy jihatdan barkamol insonlar etib tarbiyalashni yo'lga qo'yish bobida ulkan tajribaga ega bo'ldik.

Shularga asoslanib, 2030-yilgacha maktabgacha ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda bolalarning to'liq qamrovini ta'minlashni ustuvor vazifa sifatida belgilab oldik.

Ushbu jarayonda bolalarni maktabgacha ta'lim va tayyorlov guruhlarini bilan to'liq qamrab olish, barcha davlat bog'chalarida kompyuter sinflarini tashkil etish orqali tarbiyalanuvchilarda undan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga alohida urg'u beriladi. Shuningdek, barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlarini toza ichimlik suvi va zamonaviy sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan tizimli chora-tadbirlar yakuniga yetkaziladi.

Inson kapitalini rivojlantirishda umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional ta'limning ahamiyati

Mamnuniyat bilan ta'kidlash joizki, bugungi kunda **“Yangi O'zbekiston — maktab ostonasidan boshlanadi”** degan shior asosida o'rta ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar xalqimiz tomonidan to'la qo'llab-quvvatlanib, umumxalq harakatiga aylanib bormoqda.

Ayni paytda maktab tizimiga oid qonunchilikni takomillashtirish va uni institutsional rivojlantirish, o'quvchilarga zamon talablari asosida ta'lim-tarbiya berish, umumiy o'rta ta'limni boshqarish, kadrlarni tayyorlash, o'quv jarayonini tashkil etish, maktablarning moddiy-texnik ta'minotini yaxshilash kabi masalalarni hal etishda ko'pchilik yurtdoshlarimiz, tadbirkorlar va fuqarolik jamiyati institutlari ham faol ishtirok etmoqda.

Mamlakatimizda o'rta ta'lim sohasini rivojlantirish yo'nalishida olib borilayotgan islohotlar jarayonida o'qituvchilik kasbining nufuzini oshirish va pedagoglarning sifat tarkibini yaxshilash, ularni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shuningdek, uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, darslik va o'quv-metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini kengroq tatbiq etish, professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish borasida ham katta hajmdagi ishlar amalga oshirilmoqda.

Xalqimizning ardoqli shoiri Abdulla Oripovning o'qituvchi va murabbiylarga bag'ishlangan she'ridan o'rin olgan **“Sizdan boshlanadi asli tafakkur”** degan so'zlar zamirida chuqur hayotiy mazmun mujassam. Zotan, har birimizning bu hayotda erishayotgan katta-kichik yutuqlarimizda mehridaryo ustozlarimizning ham munosib hissasi borligi ayni haqiqatdir.

Men o'qituvchi deganda — doimo zamon bilan hamnafas yashaydigan jonkuyar, ziyoli shaxsni, maktab deganda — bilim va ma'rifat yog'dusi taralib turadigan, Uchinchi Renessansning poydevori barpo etiladigan tabarruk maskanni ko'z oldimga keltiraman.

Jamiyatimizning eng bebaho boyligi hisoblangan aziz farzandlarimizning kelajagi, ta'lim-tarbiyasi birinchi navbatda zahmatkash, fidoyi ustozlar va pedagoglarning jamiyatdagi mavqeyi, bilimi va iqtidoriga bog'liq ekanligini hech qachon unutmasligimiz lozim.

Shuning uchun jamiyatda o'qituvchi va murabbiylarning nufuzi va obro'sini ko'tarish, mehnat sharoitlarini yaxshilash, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda malakasini oshirish borasida salmoqli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, o'tgan davrda soha xodimlarining oylik ish haqi o'rtacha 2,5 barobar ko'tarildi. Xorijiy tillar, axborot texnologiyalari, matematika, kimyo, biologiya fanlari bo'yicha milliy va xalqaro sertifikatga ega o'qituvchilarga ustamalar, chekka hududlarga borib ishlayotgan muallimlarga alohida to'lov joriy etildi.

Ayniqsa, ancha paytdan buyon davom etib kelayotgan xalq ta'limi xodimlarini majburiy mehnatga jalb qilishdek illatga butunlay barham

berilib, 300 ming nafardan ortiq pedagog-xodimlarning huquqlari himoya qilinganini katta yutuqlarimizdan biri sifatida baholash mumkin.

Ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va uni amalga oshirish, o'quv-tarbiya jarayonlarining o'zaro mustahkam aloqasi va uzluksizligini ta'minlash, pedagoglar salohiyatini ko'tarish borasida ham sezilarli o'zgarishlar qilinmoqda. Shu maqsadda, Abdulla Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy tadqiqot instituti negizida Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti tashkil etildi. Toshkent davlat pedagogika universiteti ushbu yo'nalishda o'quv dasturlarni ishlab chiqish bo'yicha yetakchi oliy ta'lim muassasasi etib belgilandi. Yangi joriy qilingan "Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasi orqali 341 ming nafar o'qituvchining malakasini oshirish natijasida toifaga ega o'qituvchilar soni 43,8 foizdan 64,8 foizga ko'paydi.

O'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish maqsadida 6 ming nafardan ziyod informatika fani o'qituvchilari xususiy sektorni jalb qilgan holda dasturlash tillari (Python, C++, Scratch) bo'yicha o'qitildi. "KLASS" loyihasi doirasida Rossiyadan, "English Speaking Nation" loyihasi asosida AQSHdan tajribali pedagoglar yurtimizdagi malaka oshirish markazlari va maktablarga jalb qilindi. Ko'plab professor-o'qituvchilarimiz esa "El-yurt umidi" jamg'armasi hisobidan Kanada, Buyuk Britaniya va Italiyaga stajirovkaga yuborildi.

Nisbatan qisqa vaqt ichida respublikamizda yuzlab zamonaviy maktablar barpo etilganini ta'lim sohasini isloh qilish borasidagi intilishlarimizning ilk natijalari sifatida baholash mumkin. Qolaversa, keyingi yillarda ta'lim sohasida yangilik hisoblangan Prezident maktablari, ijod maktablari tashkil qilinib, ixtisoslashtirilgan va ayrim fanlar chuqurlashtirib o'qitiladigan maktablar tarmog'i kengaytirildi.

Biz anchadan buyon ko'z yumib kelingan nogironligi bor shaxslarni o'qitish, ishga joylash va sportga jalb qilish bilan bog'liq muammolarni ochiq tan olib, ularni hal qilishga kirishdik. Chunki maktab va kollejlarda tegishli sharoitlar yaratilmaganligi uchun ota-onalar nogironligi bor farzandini yashash joyidan ancha uzoqda joylashgan maxsus internatlarga joylashtirishga majbur edi. Albatta, bu oila uchun ham, bola uchun ham qanchalik og'riqli kechganini anglash qiyin emas.

Shu bois biz mazkur yo'nalishda mutlaqo yangi milliy tizim yaratishga kirishdik. Bunda nogironligi bor va alohida o'qitishga ehtiyoji bo'lgan bolalarning xalq ta'limi tizimiga integratsiyasini kuchaytirish hamda inkluziv ta'lim jarayonlarini jadallashtirish asosiy yo'nalishlar sifatida belgilandi. Chunki aynan inkluziv ta'lim tizimi bunday toifa-dagi bolalarga o'zi uchun qulay bo'lgan muhitda o'qish va rivojlanish imkonini beradi.

Shuningdek, ularning ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasi, maktab va maktab-internatlarda hamda uyda ta'lim olishi uchun zarur sharoitlar yaratishga ahamiyat qaratildi. 2022-yildan boshlab respublikamizdagi 137 ta maktabda inkluziv sinflar tashkil etilishi natijasida nogironligi bo'lgan yuzlab bolalar boshqa tengdoshlari bilan bir safda faol bilim olish imkoniga ega bo'lishdi. 2025-yilgacha yurtimizdagi maktablarning kamida 51 foizida inkluziv ta'limni yo'lga qo'yish ko'zda tutilgan.

Yana bir e'tiborli jihat, biz nogironligi bor shaxslarning kasb-hunar o'rganishi va ishlashi uchun to'siqsiz muhit yaratish maqsadida ularning "mehnatga layoqatini belgilash" amaliyotidan voz kechypmiz. Bunda **nogironlik holati shaxsning kasalligiga qarab emas, balki uning mustaqil harakatlanish, muloqot qilish qobiliyati va ijtimoiy hayotdagi ishtirokiga qarab belgilanadi.**

Bundan ko'zlangan asosiy maqsad — Barqaror rivojlanish maqsadlarining "Hech kimni ortda qoldirmaslik" tamoyili asosida

jamiyatimizda ijtimoiy adolat va inson qadrini mustahkam qaror toptirishdan iborat. Binobarin, bironta ham bolajonimizni ta'lim-tarbiya tizimidan chetda qoldirmaslikni ta'minlovchi ushbu yangi tizimning joylarda samarali ishlashini ta'minlash orqali muhtoj insonlarga madad va umid bag'ishlashimiz shart.

Bugungi kunda davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilayotgan umumta'lim maktablari soni ham oshib bormoqda. Bu sohaga xususiy sektorni jalb qilish hisobidan 2017–2023-yillarda nodavlat umumta'lim tashkilotlarining soni deyarli 6 barobar ko'paydi. Aniqrog'i, so'nggi yillarda 70 ming o'rinli 350 ta xususiy maktab tashkil etildi.

Tadbirkorlik subyektlarining nodavlat ta'lim tashkilotini tashkil etishida ortiqcha qog'ozbozlikni kamaytirish maqsadida tegishli litsenziya olish uchun talab etiladigan hujjatlar soni 9 tadan 5 taga qisqartirildi. Buning samarasi o'laroq, oxirgi besh yilda nodavlat ta'lim muassasalari soni qariyb 11 barobar oshdi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizdagi umumta'lim maktablarida 5,8 milliondan ziyod o'quvchi tahsil olmoqda. Shu bois maktablarning yuklamasini kamaytirish maqsadida qo'shimcha 700 ming o'quvchi o'rni tashkil qilindi. Bu — avvalgi davrlarga nisbatan 15 barobar ko'p demakdir.

Ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan islohotlar doirasida 420 nomdagi yangi avlod darsliklari va o'quv qo'llanmalari yaratildi. Shuningdek, Kembrij, Klett singari nufuzli xorijiy nashriyotlar va Gersen universiteti tomonidan yaratilgan qator darsliklar mahalliyashtirilib, ingliz, nemis, rus tili fanlari bo'yicha xalqaro miqyosda e'tirof etilgan 79 nomdagi o'quv-metodik qo'llanma va darsliklar amaliyotga tatbiq etildi.

Mamlakatimizda shaxsning zamonaviy talablar asosida sifatli bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish, inson kapitalini rivojlantirish, o'quvchilarning kelgusida mehnat bozorida munosib o'rin olishini ta'minlash — xalq ta'limi tizimining strategik maqsadlari sifatida

belgilab olindi. Bu esa o'z navbatida, kasb-hunar ta'limi sohasini tubdan isloh qilish, mehnat bozorining shiddat bilan o'zgarayotgan talablariga moslashuvchan kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi.

Bunda, ayniqsa, kasb-hunar ta'limini innovatsion taraqqiyot, raqamli iqtisodiyot va raqamli jamiyatga o'tishning global jarayonlari bilan bog'liq ravishda amalga oshirishning ahamiyati katta. Chunki xalqaro ekspertlarning hisob-kitoblariga ko'ra, sun'iy intellekt texnologiyalari yaqin kelajakda almashtirish yoki o'rnini to'ldirish orqali dunyodagi mavjud ish o'rinlarining deyarli 40 foiziga, rivojlangan mamlakatlarda esa 60 foiziga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu o'z navbatida, o'rta maxsus va professional ta'lim tizimimizni insoniyat taraqqiyotining mana shunday qonuniyatlariga mos ravishda muntazam takomillashtirib borishni talab etadi.

Shularni inobatga olib, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida 1–4-sinf o'quvchilariga boshlang'ich, 5–9-sinflarda tayanch hamda 10–11-sinflarda har bir bolaning qiziqishi va qobiliyatiga mos bo'lgan bilimlarni o'rgatishga yo'naltirilgan o'quv dasturlari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Jumladan, 10–11-sinflarda tayanch o'quv rejasi asosida o'qitish barobarida, bir qator muhim masalalarga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Birinchidan, o'quv jarayonida aniq, tabiiy yoki xorijiy til darslariga ustuvorlik berishni nazarda tutuvchi **“Fanlarni chuqurlashtirib o'qitish”** ta'lim dasturi joriy etildi. Unga asosan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida:

- yuqori sinfda o'qitiladigan fanlar qisqartirilib, “kimyo – biologiya”, “matematika – fizika”, “matematika – chet tili”, “ona tili va adabiyot – chet tili” fanlari o'quvchilarning tanlovi asosida chuqurlashtirib o'qitiladi;
- 5–9-sinflarda xorijiy tillarga o'qitish intensivligini oshirish orqali o'quvchilarning bazaviy bilimi va nutq ko'nikmalari shakllantirilsa,

10–11-sinflarda ularning akademik yozuv va so'zlashish ko'nikmalarini rivojlantirishga birlamchi e'tibor qaratiladi. Shuningdek, muayyan xorijiy til fanini tanlagan o'quvchilarga ikkinchi chet tilini o'qitish ham yo'lga qo'yiladi.

Ikkinchidan, o'quvchilarni ishchi yoki raqamli texnologiyalarga oid kasblarga o'qitishga mo'ljallangan **“Biznes va kasb-hunarga o'qitish”** yo'nalishlari bo'yicha ham ta'lim dasturlari amalga oshirilmoqda. Uning doirasida:

- o'quvchilarni Milliy malakalar ramkasining 2-darajasiga mos bo'lgan kasblarga o'qitish;

- umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ustaxonalar tashkil etish va **“Kasbiy ta'lim ustasi”** lavozimini joriy qilish;

- o'quvchilarni kasb-hunar va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish jarayoniga tadbirkorlar va hunarmandlarni jalb qilish hamda axborot texnologiyalariga oid zamonaviy kasblarga yo'naltirilgan maxsus kurslar tashkil etish;

- **“20 ming tadbirkor — 500 ming malakali mutaxassis”** dasturi ishtirokchilariga umumta'lim maktablarining bo'sh turgan binolarini keyinchalik amaliy monomarkaz tashkil qilish va o'quvchilarni kasb-hunarga o'qitishni yo'lga qo'yish sharti bilan to'g'ridan to'g'ri shartnoma asosida tekin foydalanish uchun berish kabi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bunda umumiy o'rta ta'lim dasturlari va o'quv-metodik majmualarning fanlararo va sinflararo integratsiyasini ta'minlash, o'quvchilarning o'tilgan mavzularni amaliyotda qo'llash, tanqidiy fikrlash va tahlil qilish kabi ko'nikmalarini baholashning yangi tartibini joriy etish nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining boshlang'ich sinflarida informatika fani, o'rta sinflarda esa moliyaviy savodxonlik darslari joriy qilinishi belgilangan. Shuningdek, barcha fanlar bo'yicha

amaliy mashg'ulotlar ulushini 60 foizga yetkazish, darslarda har bir mavzuni aniq muammoni hal qilish orqali o'rgatish, amaliyot darslarini esa muayyan loyihani bajarish shaklida o'tkazish ko'zda tutilgan.

Shu maqsadlarda respublikamiz umumiy o'rta ta'lim tizimida boshlang'ich kasb-hunar ta'limi ham joriy etildi. Kasb-hunar kollejlari va umumta'lim maktablarida 51 turdagi ishchi kasblar bo'yicha o'quv-ishlab chiqarish majmualari tashkil qilingan.

Maktabdan tashqari ta'limning zamonaviy usullari va yo'nalishlarini rivojlantirish hamda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish hisobiga tizimda raqobat muhitini kengaytirish masalalari ham e'tiborimiz markazida bo'lib qolmoqda. Jumladan, bolalarning darsdan tashqari ijodiy qobiliyati va iqtidorini rivojlantirishga yo'naltirilgan "Barkamol avlod" markazlarida salkam 143 ming nafar bola qamrab olingan. Ularda xususiy sektorni jalb qilgan holda 5,5 mingdan ziyod to'garak tashkil qilingan.

Bundan tashqari, o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ishlar ham yuqori bosqichga ko'tarildi. Xususan, Orolbo'yi hududida o'quvchilarni bepul ovqat bilan ta'minlash tizimi yo'lga qo'yildi. Hozirgi paytda Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida 273 mingdan ziyod boshlang'ich sinf o'quvchisi ana shunday g'amxo'rlikdan bahramand bo'lmoqda.

Shuningdek, xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish borasida ham salmoqli ishlar olib borilmoqda. Xususan, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali turli xildagi davlat xizmatlari ko'rsatilmoqda. Birgina "Yagona darcha" tamoyilini amaliyotga joriy etish orqali xalqimizga juda katta yengilliklar yaratib berildi.

Ta'lim sohasida qabul.maktab.uz onlayn qabul tizimi ishlab chiqilib, Toshkent shahri hamda viloyatlar markazlaridagi maktablarning

1-sinfiga o'quvchilarning hujjatini onlayn tarzda qabul qilish tizimi yo'lga qo'yildi. Bitiruvchilarning yetuklik attestatlaridagi ma'lumotlarni o'zida jamlagan attestat.uzedu.uz — “Elektron shahodatnoma” elektron platformasi ishga tushirildi. Bugungi kunda ushbu tizimda jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami bilan bog'langan 1,7 milliondan ortiq ma'lumot jamlangan.

Shuningdek, “Elektron ta'lim” tarmog'i uchun 454 ta elektron kontentlar yaratildi. Tizimni avtomatlashtirish, ma'lumotlar almashinuvini raqamli shaklga o'tkazish hamda shaffoflikni ta'minlash maqsadida 20 dan ortiq axborot manbalari ishga tushirildi. Qolaversa, kundalik.com elektron kundalik platformasi joriy etilishi esa otionalarga o'z farzandining darslarni o'zlashtirish darajasini doimiy kuzatib borish imkonini yaratdi. Sohada nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatini litsenziyalash ham to'liq elektron tizimga o'tkazildi. Xalq ta'limi tizimini boshqarishning Yagona elektron tizimi — Erp.maktab.uz dasturiy majmualari ham ishlab chiqilib, ayni paytda bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etilmoqda.

Quvonarli jihati shundaki, bu sohada boshlagan keng ko'lamli islohotlarimiz bugunga kelib o'zining natijalarini bera boshladi. Buni bir qator raqamlar va sifat ko'rsatkichlarida yaqqol ko'rish mumkin. Misol uchun, 2020-yili O'zbekiston umumta'lim muassasalari tarixda birinchi marta “Inson kapitali indeksi”da ishtirok etdi. O'shanda salkam 4 ming nafar 5-sinf o'quvchisining matematika fanidan bilimlarini baholash natijalari bo'yicha O'zbekiston 174 ta davlat ichida 57-o'rinni egalladi.

So'nggi vaqtlarda PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS, EGRA va EGMA xalqaro dasturlari doirasida mamlakatimizda 36 mingga yaqin boshlang'ich sinf o'quvchisi va 4,4 mingdan ziyod 8-sinf o'quvchisining savodxonligi, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha bilimlari hamda ijodiy fikrlash ko'nikmasi o'rganildi. 2,2 mingdan ortiq maktab o'qituvchisining

o'z ustida ishlash va zamon bilan hamnafas faoliyat yuritish layoqati xalqaro ekspertlar tomonidan yuqori baholandi.

Albatta, bunday natijalar bilan faxrlansak arziydi. Biroq hali bular yakuniy natija emas, balki ushbu sohada belgilab olgan ulkan marralarimiz tomon qo'yilgan dastlabki qadamlardir.

Yaqin kelajakda o'rta ta'limni yangi bosqichga olib chiqish borasida quyidagi aniq ko'rsatkichlarga erishishimiz zarur:

- Prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablarda qo'llanilayotgan ilg'or ta'lim metodikasini barcha umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'quv jarayonlariga joriy qilish;

- yangi darslik va metodik qo'llanmalar, mobil ilovalar, multimedia dasturlarini yaratish, har yili 500 nafar "til egalari" bo'lgan xorijiy mutaxassislarni mamlakatimizga jalb etish;

- maktab, litsey va kollej bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini 50 foizga yetkazish;

- O'zbekistonning 2030-yilga borib PISA xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoridan joy olishini ta'minlash.

Bunday xayrli maqsadlarga erishish uchun:

- pedagog kadrlarning maqomini oshirish, bilimi va malakasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, ularni xorijiy mamlakatlarga malaka oshirish hamda stajirovkaga yuborish amaliyotini kengaytiramiz;

- umumiy o'rta ta'limga xususiy sektorni yanada kengroq jalb qilish orqali nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari sonini 1 000 taga yetkazish va ularda ta'lim olayotgan o'quvchilar ulushini 3 barobar oshirish, har yili davlat-xususiy sheriklik asosida kamida 100 tadan maktab qurishga jiddiy e'tibor qaratamiz;

- umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish uchun imtiyozli kreditlar ajratish, davlat-xususiy sheriklik asosida va xalqaro

moliya institutlaridan jalb qilinadigan mablag'larni yo'naltirish choralarini ko'ramiz.

Hozirgi paytda "Ta'lim uchun qulay muhit" dasturini amalga oshirish orqali olis va chekka hududlardagi umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun bepul avtobuslar xizmatini yo'lga qo'yish, ushbu maktablarni toza ichimlik suvi va zamonaviy sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan to'liq ta'minlash chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Sharqda "Yuz tuman oltindan — bir hunar yaxshi" degan dono maqol bor. Biz ham kelgusida professional ta'lim tizimini rivojlantirish orqali o'quvchilarga "oltinga teng" zamonaviy kasb-hunarlar o'rgatishni yangi bosqichga olib chiqamiz. Aynan ana shu maqsadda:

- 14 ta hududiy professional tayyorgarlik markazlarini tashkil qilish, barcha umumta'lim maktablarida kasb-hunar o'rgatish kurslarini ochish, professional ta'lim muassasalarida o'qitish sifatini oshirish va ularning moddiy-texnik bazasini takomillashtirish;

- ushbu tizimda malaka toifasiga ega bo'lgan pedagog kadrlar nisbatini 50 foizga, masofaviy yoki aralash shakllardagi malaka oshirish kurslarining ulushini 30 foizga yetkazish, shuningdek, axborot texnologiyalari, qurilish, transport va logistika yo'nalishlari bo'yicha o'rta bo'g'in mutaxassislarini tayyorlashda davlat grantini 100 foizga yetkazish choralari ko'rilmoqda.

Albatta, yurtimizda umumiy o'rta, o'rta maxsus va professional ta'lim sohalarini rivojlantirishga qaratilgan rejalarimiz ancha jiddiy va zalvorli. Lekin hayotda ilojsiz narsaning o'zi yo'q. Agar barchamiz bir yoqadan bosh chiqarib, astoydil harakat qilsak, belgilangan vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirib borsak, albatta maqsadlarimizga erishamiz. Men bunga aminman. Zero, ta'limni rivojlantirish — barcha ezgu orzu-umidlarimiz timsoli bo'lgan Yangi O'zbekistonning asosini mustahkamlash, demakdir.

Sifatli oliy ta'lim, rivojlangan ilm-fan — mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiluvchi kuch

Keyingi vaqtlarda mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida ham dunyoning ilg'or tajribalari va zamonaviy ta'lim standartlari asosida tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Birinchidan, Yangi O'zbekistonda yoshlarning ta'lim olishi uchun keng imkoniyat va sharoitlar yaratish strategik vazifa sifatida belgilandi.

Shu o'rinda bir masalaga alohida to'xtalib o'tmoqchiman. Xalqaro tashkilotlar va moliya institutlari, taniqli ekspertlar har qanday mamlakatda inson kapitalining rivojlanish darajasini aniqlashda, avvalo, aholining oliy ta'lim bilan qamrab olinganligi darajasi, ta'lim dasturlari va ta'lim muassasalarining sifatiga alohida e'tibor qaratadi. Chunki ushbu ko'rsatkichlar o'sha davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, intellektual va innovatsion salohiyati, fuqarolarining bilimi va saviyasini aniq-ravshan ko'rsatib beruvchi o'ziga xos ko'zgu hisoblanadi.

Inkor qilib bo'lmaydigan yana bir haqiqat shuki, aholini oliy ma'lumot bilan qamrab olishning yuqori ko'rsatkichi har doim ham mamlakatning muqarrar taraqqiyotini kafolatlamaydi. Bu borada ta'limning sifati, tadqiqot va innovatsiyalarga investitsiyalar kiritilishi hamda ta'limning mehnat bozori va umuman, iqtisodiyot ehtiyojlari bilan bog'liqligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Biz shularni nazarda tutib, yurtimizda maktab bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini oshirish borasida tizimli tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni amalga oshirdik hamda mavjud ko'plab cheklovlar va to'siqlarni olib tashladik.

Bunda, ayniqsa, kam ta'minlangan va ehtiyojmand oilalarning farzandlari, "Ijtimoiy himoya yagona reyestri"da ro'yxatga olingan

shaxslar va ularning o'g'il-qizlari, "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yigit-qizlar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda xotin-qizlarning oliy ta'lim olish huquqini ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi. Misol uchun, oliy ta'lim muassasalarida nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qo'shimcha ikki foizlik kvota, ko'zi ojiz abituriyentlar uchun esa belgilanmagan miqdorda alohida kvotalar ajratish yo'lga qo'yildi.

Qolaversa, bunday toifadagi va davlat ta'minotida bo'lgan shaxslar oliygohlarda ro'yxatdan o'tish jarayonida belgilangan to'lovlardan butunlay ozod qilindi, to'lov-kontrakt asosida o'qiyotgan nogironligi bo'lgan talabalar uchun esa shartnoma pulining 50 foizigacha bo'lgan qismini davlat tomonidan qoplash imtiyozi yaratildi.

Respublika oliy ta'lim muassasalariga talabalikka qabul qilishda qizlar uchun alohida davlat grantlari ajratildi. Ehtiyojmand oilalar farzandi bo'lgan xotin-qizlarga mo'ljallangan davlat granti 2 barobar oshirildi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida sirtqi, kechki va masofaviy ta'lim shakllari keng qo'llanila boshlandi.

Biz oliy ta'lim sohasiga xususiy sektorni jalb etish, sog'lom raqobat muhitini shakllantirish va uning jozibadorligini oshirish masalalariga ham ustuvor vazifa sifatida qarab kelmoqdamiz. Qisqa vaqtlar ichida mamlakatimiz tarixida ilk bor xususiy sektor yordamida 67 nodavlat oliy ta'lim muassasasi tashkil etildi, xorijiy oliy ta'lim muassasalari soni esa 30 taga yetdi. Shu tariqa nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarida 15 mingga yaqin ish o'rinlari yaratildi va bugungi kunda ushbu maskanlarda 170 ming nafardan ortiq yoshlar tahsil olmoqda.

Hozirgi paytda oliygohlarimizda 1 million 300 ming nafardan ortiq talaba ta'lim olmoqda. Keyingi 7 yilda yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrov darajasi 9 foizdan 42 foizga oshirilgani haqiqatan ham juda katta natija hisoblanadi. Biz 2030-yilga qadar ushbu ko'rsatkichni 50 foizga yetkazishni reja qilganmiz.

Ikkinchidan, oliy ta'limni ham mamlakatni modernizatsiya qilish va barqaror rivojlantirish ehtiyojlari hamda mehnat bozorining talablari asosida takomillashtirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda ushbu tizimga oid davlat ta'lim standartlari YUNESKO tomonidan joriy etilgan "Ta'limning xalqaro standart klassifikatsiyasi" va "TXSK: Ta'lim va kasbiy tayyorlash sohalari" dasturlari asosida tubdan qayta ishlab chiqildi.

Oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoni Yevropaning ilg'or standartlari asosida to'liq **kredit-modul tizimiga o'tkazildi**. Mazkur yangi tizim talablarini inobatga olgan holda, 625 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishi va 634 ta magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'quv rejalari hamda 4,7 mingdan ziyod dasturlar ishlab chiqilib, ularga mos yangi avlod o'quv adabiyotlari yaratildi. Shu asnoda mutaxassislikka aloqasi bo'lmagan fanlar soni 2 barobar qisqartirildi.

Mamlakatimizda yangi mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlash ishlari ham jadal amalga oshirilmoqda. Xususan, yurtimizdagi eng nufuzli oliygohlardan biri hisoblangan Yangi O'zbekiston universitetida muhandislik, boshqaruv, axborot texnologiyalari, agrotexnologiyalar, gumanitar va tabiiy fanlar bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlari uchun innovatsiyalar va raqamlashtirishga asoslangan muhandis-texnik kadrlar yetishtirish tizimini tubdan takomillashtirish doirasida **Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universitetida** "yashil iqtisodiyot", "yashil energetika", "raqamli qishloq xo'jaligi", ekologiya va atrof-muhit muhofazasi va raqamli texnologiyalar yo'nalishlarida ham oliy ma'lumotli muhandis kadrlar tayyorlana boshlandi.

Qayd etish lozimki, ushbu universitet ayni paytda mamlakatimizda gidroenergetika, irrigatsiya, melioratsiya, qishloq xo'jaligida innovatsion

texnika va texnologiyalar, suv tejoyvchi sug'orish texnologiyalari, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, geodeziya va geoinformatika, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi yo'nalishlarida kadrlar tayyorlovchi tayanch oliy ta'lim muassasasiga aylangan.

O'zbekistonda fundamental va gumanitar fanlar sohasida istiqbolli va yuqori texnologik yo'nalishlar bo'yicha malakali kadrlar tayyorlash, ilm-fanni jadal rivojlantirish, mavjud ilmiy salohiyatdan samarali foydalanish bo'yicha katta hajmdagi ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu o'rinda muhim bir masalaga to'xtalmoqchiman. Ma'lumki, bugun nanotexnologiya fani davrimizning ustuvor tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylangan. Dunyoda qator yo'nalishlarda olib borilayotgan tadqiqotlar insoniyatning kelajagi nanotexnologiya sohasi bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatmoqda. Turli manbalarda 2020-yilda jahon nanotexnologiya bozorining umumiy qiymati qariyb 54 milliard AQSH dollariga baholangan bo'lsa, 2027-yilga borib bu ko'rsatkich 127 milliard AQSH dollarini tashkil etishi bashorat qilinmoqda.

Yangi O'zbekistonda ham biotexnologiya, kosmik texnologiyalar, nanoelektronika, biotibbiyot kabi sohalarga bo'lgan ehtiyoj kun sayin ortib bormoqda. Shu bois biz O'zbekiston Milliy universiteti huzurida Nanotexnologiyalarni rivojlantirish markazi, Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy tadqiqot instituti, Biofizika va biokimyo instituti, Nazariy fizika instituti, Intellektual dasturiy tizimlar ilmiy-amaliy markazini tashkil etdik.

Ishonchim komil, ushbu tuzilmalar mamlakatimizda nanotexnologiyalarga oid izlanishlarni yangi bosqichga olib chiqish barobarida, ta'lim tizimi bilan ilm-fan va texnologiyalar rivojini o'zaro uyg'unlashtirishga va pirovardida ilmiy-amaliy maktablarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Chunki ilm-fan olamida maktab yaratish nihoyatda murakkab va sharaflidir. Aynan ana shunday ilmiy maktablar mavjud bo'lgan oliy

ta'lim muassasalarida ta'lim sifati doimo yuqori bo'ladi. Quvonarlisi, o'z vaqtida Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek kabi buyuk ajdodlarimiz asos solgan shonli an'analar bugun olimlarimiz tomonidan munosib davom ettirilmoqda.

Chindan ham, Milliy universitetda ilm-fanni rivojlantirish uchun zarur tajriba va imkoniyatlar mavjud. O'tgan davrda mazkur ta'lim maskanida 100 nafardan ortiq akademik, 2,5 ming nafar fan doktori va nomzodi tayyorlangan bo'lsa, 50 ga yaqin ilmiy maktablarning dovrug'i jahonga yoyilgan. Habib Abdullayev, Toshmuhammad Sarimsoqov, Sa'di Sirojiddinov, Mahmud Salohiddinov, Azimboy Sa'dullayev, Shavkat Alimov singari fidoyi akademiklarning matematika, Jo'ra Musayevning biokimyo, Habib Abdullayev va To'rabek Dolimovning geologiya, Sobir Yunusov va Obid Sodiqovning kimyo, Po'lat Habibullayevning fizika sohasidagi ilmiy maktablari shular jumlasidandir.

Bugungi kunda ham ushbu dargohda 29 nafar akademik, 150 nafardan ortiq fan doktori va professorlar, 400 nafardan ziyod fan nomzodi, falsafa doktori va dotsentlar faoliyat ko'rsatmoqda, 200 nafardan ko'proq yosh olim va 500 nafardan ziyod iqtidorli talaba ilmiy tadqiqot olib bormoqda. Bunday o'ziga xos salohiyat mamlakatimizda dunyoda tan olingan yangi ilmiy maktablarning yuzaga kelishi uchun mustahkam zamin bo'lishiga ishonchim komil.

Hozirgi industrial jamiyatdan intellektual, postindustrial jamiyatga o'tish davrida mehnat bozorining mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoji miqdorga qarab emas, balki sifat ko'rsatkichlarida ifodalana boshlandi. Soddaroq qilib aytganda, har qanday biznes uchun o'z karyerasining boshidayoq amaliy muammolarni hal qila oladigan asl malakaga ega bitiruvchilar kerak.

Yurtimizda yuqori salohiyatli mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilari faol jalb etila boshlandi. Ularning takliflari asosida Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifika-

toriga 329 ta ta'lim yo'nalishi va 582 ta magistratura mutaxassisligi kiritildi.

Professional ta'lim tizimining o'quv dasturlarini ishlab chiqish va ularni takomillashtirish bo'yicha ham bir qator salmoqli ishlar amalga oshirildi. Xususan, kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlar uchun 447 ta kasb va mutaxassislik bo'yicha ta'lim dasturlari qayta ishlab chiqildi va takomillashtirildi. Jumladan, imkoniyati cheklanganlarga mo'ljallangan 21 ta, Worldskills standartlariga asoslangan 15 ta, dual ta'lim yo'nalishidagi 66 ta kasblar bo'yicha ta'lim dasturlari yaratildi. Shuningdek, 2000 ga yaqin o'qitish materiallar to'plamlari ommalashtirilib, 100 dan ziyod o'quv-uslubiy ishlar ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi.

Ular asosida, xususan, professional ta'lim muassasalarida Germaniya tajribasi bo'yicha dual ta'lim shakli joriy etildi. Ta'limning ushbu shaklini samarali tashkil etish maqsadida 2700 dan ziyod korxonalar va tashkilotlar bilan hamkorlik o'rnatilib, ular tomonidan o'quvchilarga malakali ustozlar biriktirildi. Oliy ta'lim muassasalarida hozirgi vaqtda hududlarda ijtimoiy hamkorlik doirasida amaliy ishlar olib borilmoqda.

Bunda, ayniqsa, hududlarda Yevropaning ilg'or davlatlari kasbiy ta'lim standartlari asosida professional ta'lim muassasalarini tashkil etish, ularni ta'mirlash, zamonaviy asosda jihozlash, eng zamonaviy ta'lim dasturlari, adabiyotlar bilan ta'minlash, xorijdan yuqori malakali pedagog xodim va olimlar, vatandoshlarimizni o'quv jarayonlariga keng jalb qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, ta'lim jarayoniga Yevropa, Osiyo, AQSH va MDH davlatlaridan 1 154 nafar xorijlik mutaxassis taklif etildi.

Albatta, bunday chora-tadbirlar xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, ijodiy fikrleydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan bilimli, intellektual qobiliyati baland kadrlarni tayyorlashda katta ahamiyatga ega.

Shu o'rinda yana bir masalaga e'tibor qaratmoqchiman. Yaqinda so'lim va bahavo maskanda bunyod etilayotgan Yangi Toshkent shahrida Yangi O'zbekiston universiteti va Toshkent davlat pedagogika universitetining zamonaviy kampuslari, Milliy kutubxona, Milliy teatr, Alisher Navoiy nomidagi xalqaro ilmiy tadqiqot markazi, Adabiyot muzeyi, ijod maktabi hamda Milliy maqom markaziga tamal toshi qo'ydik.

Xususan, Toshkent davlat pedagogika universitetining yangi kampusida yuqori reytingli xorijiy oliygohlar tajribasi asosida "bog'cha – maktab – universitet" innovatsion pedagogik klasteri tashkil etiladi. Ushbu majmua 20 ming talabaga mo'ljallangan o'quv binolari, 5 ming o'rinli yotoqxona, 300 o'rinli bog'cha, 616 o'rinli maktab, 588 o'rinli akademik litsey, zamonaviy sport kompleksi, madaniyat saroyi, amfiteatr va boshqa obyektlarni o'z ichiga oladi.

Yangi shahar qurilishi ilm-fan, ma'naviyat maskanlaridan boshlanayotgani bejiz emas. Zotan, aynan mana shu sohalar ma'rifatli jamiyat barpo etish g'oyamizning asosi va namunasi bo'ladi.

Uchinchidan, yurtimizda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy tadqiqot ishlarining natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Barchamiz bir haqiqatni aslo unutmashimiz kerak, biz hozir innovatsiyalar, ta'lim tizimini tubdan modernizatsiya qilish davrida yashayapmiz. Bilimlar jamiyati esa, tamaddun rivojining eng muhim sharti sifatida namoyon bo'lmoqda. Zamonaviy jamiyatlarda bilimning ijtimoiy taraqqiyot omili sifatida ustunligini ta'minlaydigan keskin o'zgarishlar ro'y bermoqda. O'z-o'zidan jahonda ta'lim sohasi ham shu qadar tez o'zgarmoqdaki, biz doimo bu boradagi zamonaviy strategiyalarga moslashishimiz zarur bo'ladi. Aslida, innovatsion ta'lim uslublarining asosiy maqsadi ham insonni o'zgaruvchan dunyoda hayotga tayyorlashdan iborat.

Shularni hisobga olib, respublikamizda ta'limda innovatsion jarayonlarning shakllanishi, hayotimizning barcha sohalarida texnologik taraqqiyot natijalari va innovatsiyalarning joriy etilishini ta'minlash, inson kapitalini rivojlantirish maqsadida oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi qamrov kengaytirildi.

2016-yilga nisbatan oliy ta'lim muassasalarida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borayotgan doktorantlar soni 7,1 barobar, mustaqil tadqiqotchilar 3,4 barobar hamda ilmiy kengashlar 5,6 barobar oshirildi. Oliy ta'limdan keyingi ta'limga tayyorgarlik bosqichi sifatida stajor-tadqiqotchilik instituti joriy etilib, ularda 1 200 ta yosh olim qamrab olindi. Ilmiy himoyalari ko'rsatkichi esa 15 karra o'sdi.

Qolaversa, keyingi yillarda ilmiy darajali pedagoglar ulushi 32,7 foizdan 39,3 foizga, intellektual mulk obyektlariga olingan guvohnomalar soni 10 karra hamda professor-o'qituvchilarning "Scopus" xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasida indekslanuvchi chet eldagi nufuzli ilmiy jurnallarda nashr etilgan maqolalari 5,5 barobar oshgan. Ushbu ko'rsatkichlar oliy ta'lim tizimida inson kapitalining barqaror rivojlanib borayotganidan dalolat beradi.

Bunday natijalarga erishilishida soha vakillarini ijtimoiy himoya qilish va har tomonlama qo'llab-quvvatlash, yoshlarni ta'lim va ilmiy izlanishlarga kengroq jalb etish, oliygohlar, ilmiy tadqiqot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda sohaga ko'proq investitsiya kiritish borasida amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar hal qiluvchi omil bo'lmoqda. O'rni kelganda, oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida ilmiy darajaga ega xodimlarning bazaviy lavozim maoshi 3,2 barobar oshirilib, maqsadli ko'rsatkichlar asosida qo'shimcha haq to'lash tartibi ham joriy qilinganini ta'kidlash joiz.

Ilm-fan va ilmiy faoliyatni moliyalashtirish tizimi diversifikatsiya qilindi. Raqobatga asoslangan, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy soha ehtiyojlariga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi

mexanizmi joriy etildi. Sanoat korxonalari va xususiy sektordan fan va innovatsiyalarga ajratilayotgan mablag'lar 3 barobar, davlat tomonidan moliyalashtirish 1,6 barobar hamda loyihalarni moliyalashtirish hajmi 3,5 barobar oshdi. Shuningdek, ilmiy tadqiqot institutlarining moddiy-texnika bazasi tubdan yangilandi, ularga yuzlab turdagi laboratoriya asbob-uskunalari yetkazib berildi.

Biz so'nggi yillarda innovatsion faoliyatni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash uchun zamonaviy infratuzilmalar yaratishga jiddiy kirishdik. Xususan, respublika hududlarida innovatsion infratuzilmalar — texnopark, innovatsion markaz, biznes-akselerator, kovorking markazlari va poligonlar tashkil etilmoqda. Ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etishga xizmat qiluvchi “spin-off” va “spin-out” korxonalarini tashkillashtirish choralari ko'rilmoqda.

Startup ekotizimini shakllantirish borasida oliy ta'lim muassasalari tarkibida budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, startup, akselerator markazlari tashkil etilib, ularning tegishli tarmoq, soha va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq qilish va prognozlashtirish bo'yicha faoliyat olib borishi uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda.

Shuningdek, startup-loyihalarga grant mablag'larini ajratish va startup jamoalarining akseleratsiya va inkubatsiya dasturlaridan o'tish tizimi joriy etilib, 200 dan ortiq startaplar qo'llab-quvvatlandi.

Kezi kelganda yana bir masalaga alohida e'tibor qaratishni istar edim: hozirgi vaqtda raqobatbardosh ilmiy bazani yaratish uchun iqtidorli yosh mutaxassislarni sohaga keng jalb qilish taqozo etilmoqda. Zero, ularning keng qamrovli qiziqishi, har qanday masalaga ijodiy va innovatsion yondashuvi, zamonaviy dunyoqarashi va salohiyati ilmiy tadqiqotlarni yangi cho'qqilarga olib chiqishga xizmat qiladi. Shuning uchun yoshlarning yirik ilmiy loyihalarda ishtirok etish borasidagi motivatsiyasi va istagini qo'llab-quvvatlashning ahamiyati yuqori.

Yosh olim va innovatorlarni qo'llab-quvvatlash hamda ularning yangi avlodini tayyorlash maqsadida tashkil qilingan “Yoshlar akademiyasi” hozirda 3950 nafar ilm-fanimizning iqtidorli, izlanuvchan navqiron avlodini o'z safiga birlashtirgan. Shuningdek, iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida “Bo'lajak olim”, “Ayollar biznesi uchun birinchi qadam” tanlovlari ham muntazam o'tkazilib, ularning istiqbolli loyihalari qo'llab-quvvatlanmoqda.

So'nggi vaqtlarda ilmiy-texnik ishlanmalarni joriy qilish va tijoratlashtirish bo'yicha butunlay yangi tizim ishlab chiqildi. Ayni paytda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy tadqiqot ishlari samaradorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga kengroq tortish, ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirishga ko'maklashuvchi “Universitet 3.0” konsepsiyasi ro'yobga chiqarilmoqda.

Ushbu sohada yaratilgan innovatsion ishlanma va texnologiyalarni har yili “InnoWeek.Uz” xalqaro innovatsion g'oyalar haftaligida namoyish etish tizimi yo'lga qo'yilgani ham amalda yaxshi natija bermoqda.

Albatta, ilm-fan taraqqiyotini qo'llab-quvvatlash — Yangi O'zbekistonning farovonligi va barqaror rivojlanishini ta'minlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Dunyoda innovatsion rivojlanish tendensiyalarini belgilab beradigan tegishli xalqaro reytinglarning natijalari ham bizning bu boradagi intilishlarimiz qay darajada samara keltirayotganini yaqqol ko'rsatmoqda. Xususan, O'zbekiston **“Global innovatsion indeks — 2023”** reytingida 2016-yildagi natijadan 40 pog'onaga ko'tarilib, 132 ta davlat orasida 82-o'rinni egalladi. O'zbekiston so'nggi o'n yillikda innovatsiyalar yuqori sur'atlarda rivojlanayotgan, innovatsion iqtisodiyotni jadallik bilan shakllantirayotgan mamlakatlardan biri sifatida e'tirof etilgani esa barchamizga katta mamnuniyat bag'ishlaydi.

To'rtinchidan, O'zbekistonda ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarning joriy etilishi oliy ta'lim muassasalarida

sifatli ta'lim berish va yuksak salohiyatli, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yishda katta ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Xalqaro ekspertlarning bashorat qilishicha, 2025-yilda raqamli ta'lim texnologiyalari bozorining (EdTech) umumiy hajmi 342 milliard AQSH dollariga yetadi. Biz ham ushbu bozorning faol ishtirokchisiga aylanishimiz lozim.

Shu bois Yangi O'zbekistonda ushbu masalalarga ustuvorlik berilmoqda. Xususan, oliy ta'lim boshqaruv tizimini raqamlashtirish maqsadida Raqamli universitet loyihasi doirasida "Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi" (HEMIS — Higher Education Management Information Systems) ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi.

Mazkur tizim oliy ta'lim muassasalarining administrativ, akademik, ilmiy va moliyaviy faoliyatlarini avtomatlashtirish, o'quv jarayonlarini tashkil etish, ularning monitoringini olib borish va boshqarish, masofadan o'qish ta'lim xizmatlarini tashkil etishga xizmat qiladi. Bu borada oliy ta'lim muassasalari tomonidan bakalavr va magistratura bosqichlarining bitiruvchilari uchun QR-kodli diplomlarni shakllantirish, tasdiqlash va talabalarga taqdim qilish moduli ishlab chiqilib, ulardan foydalanish yo'lga qo'yildi.

Malaka oshirishning an'anaviy shakli bilan birgalikda mustaqil va muqobil hamda masofaviy malaka oshirish shakllari amaliyotga joriy etildi. Ta'lim sohalariga oid 220 dan ortiq yo'nalish bo'yicha o'quv reja va dasturlari hamda tegishli o'quv-uslubiy majmualar, o'quv resurslari ishlab chiqilib, tegishli elektron platformalarga joylashtirildi. Ular asosida oliy ta'lim muassasalarining qariyb 34 ming nafar rahbar va pedagog kadrlari uchun qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari tashkil etildi. Ushbu kurslarga jami 774 nafar xorijiy mutaxassis jalb etildi.

Beshinchidan, ta'lim xizmatlari eksportini rivojlantirish, oliy ta'lim tizimining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, ularning xalqaro

miqyosda tanilishi va raqobatbardoshligini ta'minlash borasida ham muayyan natijalarga erishilmoqda.

Shuningdek, respublikamizdagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini nufuzli xalqaro tashkilotlar reytingining oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritishni bu boradagi faoliyatimiz natijadorligini aks ettiruvchi indikatorlardan biri sifatida belgiladik.

Shu maqsadda xorijiy davlatlar bilan ta'lim sohasida, xususan, qo'shma ta'lim va ilmiy tadqiqot dasturlari asosida kadrlar tayyorlash bo'yicha hamkorlikni kengaytirish, xalqaro ilmiy jurnallar tashkil etish va forumlar uyushtirish orqali mamlakatimizning ta'lim jozibadorligini targ'ib qilishga mo'ljallangan "O'zbekistonda tahsil ol" ("Study in Uzbekistan") loyihasi amalga oshirilmoqda.

2023–2024 o'quv yili uchun respublikamizdagi 48 ta davlat oliy ta'lim muassasasida 20 ta xorijiy mamlakat bilan hamkorlikda 289 ta qo'shma ta'lim dasturlari ekspertizadan o'tkazildi. 2016-yilga nisbatan O'zbekistonda ta'lim olayotgan chet ellik talabalar soni hozirda 11,3 barobarga oshgan. Ushbu ko'rsatkichlar ta'lim tizimimizga xorijda ham ishonch tobora ortayotganidan dalolat beradi.

Oliy ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi xalqaro ekspertlar tomonidan munosib baholanmoqda. Buni "Times Higher Education" agentligi tomonidan e'lon qilingan quyidagi natijalarda ham ko'rish mumkin:

- "THE Impact Rankings" reytingida O'zbekistondagi birato'la 47 ta oliy ta'lim muassasasi qayd etildi. Jumladan, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent davlat agrar universiteti, Toshkent davlat yuridik universiteti mazkur reytingda dunyo universitetlarining "TOP–1000" ro'yxatidan joy oldi;

- "World University Rankings — 2023" reytingida esa 18 ta oliy ta'lim muassasamiz "Reportyor" maqomida qayd qilingan bo'lsa, "TOP–1000" ro'yxatiga kirishga da'vogar bo'lgan oliy ta'lim muassasalarimiz soni

28 taga yetdi. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti esa mazkur reytingda ekologik va tabiiy fanlar, muhandislik va texnologiya yo'nalishlari bo'yicha jahondagi eng yaxshi 500 ta oliy o'quv yurti safidan joy oldi.

Bunday natijalar kishiga mamnuniyat bag'ishlash bilan birga, oliy ta'lim muassasalarimizning dunyodagi ko'zga ko'ringan universitetlar orasidan munosib o'rin egallashini ta'minlashga qaratilgan ishlarni yanada jadallashtirishimiz zarurligini ham anglatadi.

Oltinchidan, O'zbekistonning ilm-fan va innovatsiyalar sohasida yetakchi mamlakatlar qatoridan o'rin olishi, to'rtinchi sanoat inqilobi davrida xalqaro raqobatbardoshlikka erishish hamda yillar davomida to'planib qolgan institutsional muammolarga samarali yechim topish masalasi ham doimiy e'tiborimiz markazida bo'lmoqda.

Butun dunyoda shafqatsiz raqobat kechayotgan hozirgi sharoitda mamlakat iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishlari rivojini ta'minlashga xizmat qiladigan ilmiy tadqiqotlar hamda innovatsion ishlanmalarni amalga oshiruvchi ekotizim shakllantirish eng asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Shu bois, jahondagi rivojlanayotgan davlatlar raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan yuqori texnologiyali ishlab chiqarish va global marketingni faol o'zlashtirish, ustuvor yo'nalishlarda ilmiy maktablar tashkil etish, innovatsion salohiyatga ega istiqbolli startaplarni qo'llab-quvvatlash hamda uzoq muddatli, barqaror rivojlanishning moliyaviy va institutsional asoslarini yaratishga zo'r bermoqda.

Tabiiyki, ushbu masalalar Yangi O'zbekistonda ham dolzarb hisoblanadi. Shuning uchun biz ilm-fan sohasini uzluksizlik, ochiqlik, shaffoflik va raqobat tamoyillari asosida rivojlantirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga ustuvor e'tibor qaratmoqdamiz. Avvalo, ushbu sohadagi boshqaruv ilmiy faoliyatni moliyalashtirish tizimi tubdan takomillashtirildi. Shuningdek, mamlakatimizning xalqaro maydonda

raqobatbardoshligi va innovatsion taraqqiyoti darajasini belgilovchi asosiy omil hisoblangan inson kapitalini rivojlantirishga katta urg'u berildi.

Qishloq xo'jaligi, energetika, qurilish, ta'lim hamda sog'liqni saqlash sohalarida texnologik rivojlanish va innovatsiyalarni keng joriy etish, inson kapitalini rivojlantirish maqsadida oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi qamrov kengaytirildi.

Yaqin vaqtlargacha Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufida faoliyat ko'rsatib kelgan 10 ta ilmiy tashkilot O'zbekiston Fanlar akademiyasi tizimiga qaytarilib, ularning maqomi va nufuzini oshirish choralari ko'rildi. O'z navbatida, Fanlar akademiyasi ixtiyoridagi barcha ilmiy tashkilotlarni davlat budjeti hisobidan saqlash va ularning ilmiy loyihalarini grant asosida moliyalashtirish tizimi yo'lga qo'yilgani allaqachon o'zining ijobiy natijalarini bera boshladi. Ayni paytda mamlakatimizning ilm-fan sektorida 100 dan ortiq akademik va tarmoq ilmiy muassasalari faoliyat ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallarida ham ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonni 2030-yilga qadar Global innovatsion indeks reytingida dunyoning 50 ta yetakchi davlatlari qatoriga kiritishdek ulkan maqsadimizga erishish uchun inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan strategik reja qabul qilingan. Shunga asosan ilm-fan sohasini zamonaviy iqtisodiyot talablariga moslashtirish, uning tarkibiy, tashkiliy, moliyaviy va kadrlarga oid faoliyati hamda infratuzilmasini takomillashtirish bo'yicha ulkan islohot va o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Bulardan tashqari, yuqori malakali ilmiy va muhandis kadrlar tayyorlash hamda ularni ilmiy faoliyatga yo'naltirish, ilm-fan taraqqiyotiga ko'maklashadigan zamonaviy sharoitlar yaratish va axborot muhitini shakllantirish borasida ham tizimli ish olib borilmoqda.

Shu bilan birga, ilm-fan sohasida yaqin kelajakda hal etilishi zarur bo'lgan qator muammolar va hali ishga solinmagan imkoniyatlar ham mavjud. Ana shuni nazarda tutib, quyidagi aniq maqsadlarni nazarda tutuvchi qo'shimcha amaliy chora-tadbirlar ham amalga oshirilmoqda:

- fundamental ilmiy tadqiqotlarni zamon talablari asosida yangi yo'nalishlar bilan boyitish;
- iqtisodiyotning eng tez o'sib borayotgan drayver yo'nalishlarida amaliy tadqiqotlarni va innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni kuchaytirish;
- “korxonalar – oliygoh – ilmiy tashkilot” klaster tizimini joriy etish, xususan, transport va logistika, qishloq xo'jaligida hosildorlik, energetika, biotexnologiya, geologiya va metallni qayta ishlash, mashinasozlik va elektronika kabi yo'nalishlarda ishlab chiqarish klasterlarini tashkil etish;
- barcha yo'nalishlarda innovatsion faoliyatni keng joriy qilish, ilmiy tadqiqotlar va innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash;
- yosh tadqiqotchilarning ulushini oshirish, ularning ilmiy izlanishlariga ko'maklashish.

Umuman, Yangi O'zbekistonni qudratli va salohiyatli davlatga aylantirish, uning iqtisodiyoti barqaror o'sayotgan, inson kapitali yuqori bo'lgan raqobatbardosh demokratik mamlakatlar qatoridan joy olishini ta'minlash g'oyalari oliy ta'lim va ilm-fan sohalarini yuksaltirishga qaratilgan islohotlarimizning ham tub mazmun-mohiyatini tashkil etadi.

Men ushbu sohaning barcha vakillari — iqtidorli yosh olimlarimizdan tortib, fidoyi professor va o'qituvchilar, hurmatli akademiklarimiz, oliygohlar va ilmiy muassasalarning rahbarlarigacha bu borada o'zlarining zimmasidagi ulkan mas'uliyatni chuqur anglab, Yangi O'zbekistonni chinakam ma'noda ilm-ma'rifat va yuksak taraqqiyot diyoriga aylantirishdek sharaflil yo'lda o'zlarining bor bilim va salohiyatini safarbar qilishlariga ishonaman. Buning uchun ma'rifatparvar jadid

bobolarimizning **“Tilda, fikrda, ishda birlik”** degan ezgu g‘oyasini hayotiy shiorimizga aylantirib, bilim va ma‘rifat, dunyoviy taraqqiyotga erishish uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar qilishimiz zarur. Jonajon Vatanimizning barqaror taraqqiyotini ta‘minlash yo‘lida hech qanday og‘ishlarsiz, sobitqadamlik bilan oldinga intilsak, ko‘zlagan maqsadlarimizga albatta erishamiz. Men bunga aminman.

Faqat sog‘lom xalq, sog‘lom millatgina buyuk ishlarga qodir

Turli davralarda mendan **“Yangi O‘zbekistonning eng katta boyligi nima?”**, deb savol berishganida har gal ularga shunday javob beraman: **“Bizning eng katta boyligimiz — bu, avvalo, buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan, hech qachon mehnatdan qochmaydigan, hamisha, har qanday vaziyatda ham o‘zining aql-zakovati, kuch-qudrati va salohiyatiga tayanadigan, qiyinchilikdan qo‘rqmaydigan, adolatni qadrlaydigan bunyodkor, mard va oliyjanob, bag‘rikeng va mehr-oqibatli, azm-u shijoatli xalqimizdir”**.

Men yana bir haqiqatni takror-takror aytishdan charchamayman: **ana shunday yuksak fazilatlar sohibi bo‘lgan xalqimizga farzandlik mehri bilan xizmat qilish — nafaqat bizning zimmamizdagi burchimiz, balki taqdirimizga bitilgan eng katta baxtimiz va saodatimiz hamdir.**

Binobarin, yurtdoshlarimizni hayotdan rozi qilish uchun birinchi o‘rinda ularning sihat-salomatligini ishonchli himoya qilishga e‘tibor qaratish talab qilinishi ham ayni haqiqatdir. Shuning uchun ham biz O‘zbekistonda aholi salomatligini mustahkamlash, sog‘liqni saqlash sohasini tezkor va samarali, xalqchil tizimga aylantirish ustida tun-u kun bosh qotirmoqdamiz. Bu masalaga **o‘zimiz qurayotgan xalqparvar davlatning eng asosiy vazifasi sifatida qaramoqdamiz.**

Isbot talab qilmaydigan haqiqat shuki, odamzod hamisha Yaratgandan, eng avvalo, o'zi va oila a'zolarining, yaqinlarining sog'lig'ini tilaydi, har bir inson sog'lom bo'lish va uzoq umr ko'rishni orzu qiladi. Chindan ham, salomatlik — bebaho ne'mat hisoblanadi.

Ota-bobolarimiz ham azaldan bu masalaga jiddiy ahamiyat qaratganlar. Ajdodlarimizning **asrlar davomida Sharq tamaddunining ajralmas va muhim qismi sifatida uzluksiz rivojlanib kelgan beqiyos tibbiy tafakkuri va merosi hozirgi kunda ham insoniyat ravnaqiga xizmat qilmoqda.**

Tibbiyotimiz tarixiga nazar solsak, uning ildizi nihoyatda chuqur ekanligiga guvoh bo'lamiz. Xususan, ko'pchilik olimlar yurtimizda tibbiyot ilmining paydo bo'lishini qadimgi zardushtiylik ta'limoti va hatto, undan ham oldingi davrlarga borib taqalishini e'tirof etishadi. Xususan, zardushtiylar ta'limotining jamlanmasi hisoblangan "Avesto" kitobining bizgacha yetib kelgan qismida odam anatomiyasi va fiziologiyasi bo'yicha bugungi zamonaviy tibbiyot va ilm-fandagi qarashlarga ancha yaqin bo'lgan qiziqarli tibbiy ma'lumotlarni uchratish mumkin. Umuman, "Avesto tibbiyoti"ga oid ilmiy xulosalar qadimgi ajdodlarimizning tibbiy tafakkuri antik Yunonistonda faoliyat ko'rsatgan Alkmeon, Gippokrat kabi mashhur faylasuf va tabobat ilmi daholari bilan bir paytda va o'zaro ta'sirda rivojlangan, deyish uchun asos bo'la oladi.

Buyuk muhaddis bobomiz Imom Buxoriy hazratlarining "**Al-Jome' as-sahih**" asarida shunday mazmundagi hadisi sharif keltiriladi: "**Ikki ne'mat borki, ko'pchilik odamlar vaqtida uning qadriga yetmay aldanib qolganlar. Bular — sihat-salomatlik va farog'at**". Ya'ni tana sihatini asrab-avaylash masalasiga insonning muqaddas burchi va haqqi sifatida qarash g'oyasi o'tmishda ham, hozir ham taraqqiyot falsafasining o'ta muhim qismlaridan hisoblanadi.

Birinchi Renessans davrida yashab faoliyat ko'rsatgan **Ibn Sino, Abu Sahl al-Masihiy, Sharafiddin ibn Abdulloh Iloqiy** singari ulug'

mutafakkirlarimizning amaliy tibbiyot, kasallikning oldini olish va inson ruhiyatiga bag'ishlangan o'nlab asarlari, **Abu Nasr Forobiy**, **Husayn Voiz Koshifiy**ning nazariy tibbiyotga oid, **Abu Mansur Qamariy**ning tashxislash sohasidagi ilmiy merosi, **Abu Rayhon Beruniy**, **Najibuddin Samarqandiy**ning farmatsevtika va dorishunoslik yo'nalishidagi benazir asarlari o'tmishda ham, hozirgi paytda ham dunyo tibbiyotida olamshumul kashfiyotlarga zamin bo'lib xizmat qilmoqda.

Shu o'rinda birgina Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asari Yevropa universitetlarida necha asr davomida ushbu yo'nalish bo'yicha eng asosiy darslik sifatida o'qitib kelingani va bugungi kunda ham katta qiziqish bilan o'rganilayotgani ham ko'p narsadan dalolat beradi.

Temuriylar saltanatida yuzaga kelgan Ikkinchi Renessans davrida Samarqandda "**Dor ush-shifo**" deb nomlangan yirik va dunyoga mashhur shifoxona barpo etilib, unga o'z zamonasining atoqli allomasi **Mir Sayid Sharif Sheroziy** rahbarlik qilgan. Bu davrda **Mansur ibn Muhammad**, **Mavlono Fayzulloh Tabriziy**, **Hisobiddin Ibrohim Kirmoniy** va boshqa ko'plab tabiblar ham qizg'in faoliyat olib borgan. Hukmdorlarning maxsus farmonlariga binoan shifoxonalarda ishlovchi tabiblarga o'sha davrda yuksak maqom va mavqega ega bo'lgan olimlar, tarixchilar va muhandislar bilan bir xil miqdorda maosh va imtiyozlar tayin qilingan.

Bunday an'analar keyingi davrlarda ham davom ettirilgan. XVI asrda yurtimiz sarhadlaridagi deyarli barcha shaharlarda kasalxonalar, nogironlar uyi, dorixona va tibbiy maktablar mavjud bo'lgani haqida tarixiy ma'lumotlar saqlanib qolgan.

Muhammad Husayn Miroqiy Samarqandiy, **Shoh Ali ibn Sulaymon Kahhol**, **Sulton Ali Xurosoniy**, toshkentlik **Mullo Muhammad Yusuf**, **Ubaydulla Yusuf Ali Kahhol**, **Mir Muhammad Husayn Oqiliy** kabi chuqur bilim, yuksak salohiyat va tajribaga ega tabiblar ana shunday maskanlarda odamlarni davolash bilan birga, talabalarga tibbiyot ilmidan saboq berganlar. Ularning dorishunoslik, o'simliklarning shifobaxsh

xususiyatlari, tibbiy asbob-uskunalardan foydalanish, turli kasalliklarni davolashga bag'ishlangan asarlaridan tibbiyotda keng foydalanilgan.

Umuman, tarixchilarimiz va tibbiyotchilarimiz oldida mamlakatimiz tibbiyoti, dorishunosligini rivojlantirish va dunyoga tanitishga beqiyos hissa qo'shgan bunday fidoyi ajdodlarimizning merosini har tomonlama chuqur o'rganish va amaliyotda foydalanish borasida katta vazifalar turibdi.

Bugun biz ana shunday shonli an'analarga ega bo'lgan milliy tibbiyotimizni zamonaviy talablar asosida rivojlantirishga harakat qilishimiz lozim.

Hayotda o'z isbotini topgan bir haqiqat ham doim yodimizda turishi zarur: faqat sog'lom va barkamol millatgina buyuk ishlarga qodir bo'ladi. Binobarin, shunday ekan, xalqning salomatligi darajasi mamlakatimizning salohiyati, hayot sifati va kelajak avlodlarning taqdirini belgilovchi, milliy xavfsizligimizni ta'minlovchi eng muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Demak, **xalqimiz salomatligini mustahkamlash, tibbiyot sohasini isloh etish, jamiyatda sog'lom turmush madaniyatini shakllantirish kabi vazifalar bizning doimiy diqqat e'tiborimizda bo'lishi tabiiydir.**

Shu o'rinda "O'zbekistonda sog'liqni saqlash sohasini rivojlantirish, fuqarolarning bu boradagi konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash borasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda? Aholining o'rtacha umr ko'rish darajasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar qanday natija berdi? Sohani ko'tarish uchun yana nimalarga e'tibor berish kerak?" degan bir qator hayotiy savollar yuzaga keladi. Quyida ana shu masalalar haqida fikr yuritamiz.

“Bir qadam” tamoyiliga asoslangan xalq xizmatidagi tibbiyot

Inson sog'lig'i — dunyodagi eng bebaho boyluk, tengsiz ne'matdir. Keyingi yillarda ushbu ezgu g'oya asosida mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimi tubdan isloh qilinmoqda. Sohaning moddiy-texnika bazasi, kadrlar salohiyati mustahkamlanmoqda. Tizimga ilg'or davolash va diagnostika usullari, innovatsion texnologiyalar keng tatbiq etilmoqda.

Muhimi, o'tgan davrda har bir fuqaro uchun yuqori sifatli va malakali tibbiy xizmat tizimini yaratish bo'yicha amalga oshirilgan keng ko'lamli ishlar orqali bir qator muhim natijalarga erishildi. Avvalambor, buni aholining o'rtacha umr ko'rish davomiyligi so'nggi 20 yilda 3,5 yoshga oshib, 74,7 yoshga yetganida ko'rish mumkin. 2030-yilgacha ushbu ko'rsatkichni 78 yoshga yetkazishni asosiy maqsad etib belgilaganmiz.

Shuningdek, onalar va bolalar o'limining keskin kamayishi, bolalarni eng ko'p uchraydigan kasalliklarga qarshi emlash va profilaktika tadbirlari bilan qamrab olish darajasining 96–98 foiz atrofida qat'iy saqlanishiga erishdik. Aholimiz o'ta xavfli yuqumli kasalliklar (o'lat, vabo), poliomyelit, difteriya, chaqaloqlar qoqsholi, mahalliy bezgak, qizamiq va qizilcha yuzaga kelishidan to'liq himoya qilindi. Yurtimizda poliomyelitning yovvoyi shtammi, qizamiq va qizilcha, bezgakning butkul yo'q qilingani to'g'risida Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining sertifikatlarini olindi. **Bularning barchasi soha rivojiga oid tanlagan siyosatimizning to'g'ri ekanligi va salmoqli amaliy natijalar berayotganiga dalildir.**

Xo'sh, bularga qanday yo'llar bilan erishdik? Ilk qadamlarimiz nimalardan iborat bo'ldi?

Bu haqda so'z yuritganda, keyingi 7 yilda sohaga oid 200 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilinganini alohida ta'kidlash lozim. Jumladan,

yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda sohaga oid normalar kuchaytirildi, Sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Bu hujjatlar sohani kompleks huquqiy tartibga solish, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sifati va samaradorligini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, xususiy sektorni rivojlantirish, tizimda faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish kabi dolzarb vazifalarni hal etishga xizmat qilmoqda.

Jumladan, sohadagi yillar davomida yig'ilib qolgan muammolarni bartaraf etish maqsadida ilg'or xorijiy tajribalar asosida sog'liqni saqlashni boshqarishning innovatsion modelini joriy etdik. Unda quyidagi masalalar nazarda tutilgan:

- aholi salomatligini umume'tirof etilgan xalqaro metodikalarga muvofiq aniqlashni yo'lga qo'yish;
- sog'liqni saqlash tizimining aholiga xizmat ko'rsatish samaradorligi bo'yicha jahon reytinglaridan munosib o'rin egallashiga erishish;
- aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy yordam hajmida xususiy sektor ulushini sezilarli darajada ko'paytirish, ushbu xizmatning sifatini va undan foydalanish imkoniyatlarini oshirish;
- tibbiy turizmni rivojlantirish, uning mamlakat yalpi ichki mahsulotdagi hissasini izchil oshirib borish;
- tibbiyot va farmatsevtika xodimlari, shu jumladan, boshqaruv kadrlariga xalqaro standartlarga muvofiq uzluksiz ta'lim berish va ular malakasini oshirishning zamonaviy tizimini yaratish.

Bunda aholiga birlamchi va asosiy maxsus tibbiy xizmatlarni yanada yaqinlashtirish, birlamchi tibbiyot bo'g'inini kasallikni erta aniqlaydigan va davolaydigan tizimga aylantirish, ixtisoslashgan markazlar tomonidan joylarda tor doiradagi tibbiy xizmatlar hajmini oshirish va sifatini tubdan yaxshilash masalalariga ustuvor vazifa sifatida qaramoqdamiz.

Ayni paytda mamlakatimizda tibbiyotning uch bosqichli milliy modeli — birlamchi tibbiy-sanitariya, shoshilinch tez tibbiy yordam

va ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmat tarmog'i ham samarali faoliyat yuritmoqda.

Ayniqsa, biz olis hududlarda tibbiy yordam sifatini yaxshilash, sharoiti og'ir mahallalarda sog'liqni saqlash yo'nalishidagi mavjud muammolarni hal etish choralarini ko'rishga mahkam bel bog'ladik. Xususan, qishloq vrachlik punktlari, shahar va qishloq oilaviy poliklinikalarini tashkil etish orqali birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini ko'rsatish tizimi takomillashtirildi hamda aholining ushbu xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari kengaytirildi.

Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatishning yagona markazlashgan tizimi yaratilib, joylarda fuqarolarga yuqori texnologiyalarga asoslangan tibbiy yordam ko'rsatuvchi respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari tarmog'ining faoliyati takomillashtirildi.

Hududlarda birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatish bo'yicha mutlaqo yangi tizim joriy qilinib, bunday muassasalar uchun qo'shimcha ravishda minglab o'rta tibbiyot xodimlari shtati ajratildi. Yana bir e'tiborli jihati, har bir mahallada xonadonbay ishlaydigan tibbiy brigadalar tashkil etildi. Oilaviy tibbiyot markazlari, oilaviy poliklinikalar, ko'p tarmoqli Markaziy poliklinikalar, tuman (shahar) markaziy shifoxonalari va tug'ruqxonalarda kafolatlangan tibbiy yordam hajmi keskin oshirildi.

Mamlakatimizda aholiga malakali tibbiy yordam ko'rsatishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunga keyingi yillarda sog'liqni saqlash sohasiga budjetdan ajratilgan mablag'lar 7,3 trillion so'mdan 24,7 trillion so'mga, dori vositalari va tibbiy buyumlar uchun budjetdan ajratilgan mablag'lar 0,4 trillion so'mdan 1,8 trillion so'mga, tibbiyot sohasidagi OTMlar soni 7 tadan 9 taga, xususiy tibbiyot tashkilotlari soni 4 000 tadan 7 010 taga yetgani ham bir misoldir.

Ma'lumki, kasallikni davolashdan ko'ra, uning oldini olish oila uchun ham, davlat uchun ham samarali va foydalidir. Shu bois mamlakatimizda profilaktik tibbiyot rivojiga ustuvor ahamiyat qaratildi. Eng avvalo,

birlamchi tibbiyot bo'g'ini, tez va shoshilinch tibbiy yordam tizimi isloh qilinmoqda.

Har bir mahallada "xonadonbay" ishlaydigan patronaj xizmatini tashkil etish orqali sog'liqni saqlash tizimi aholiga yaqinlashtirildi. Birgina 2022-yili joylarda 136 ta oilaviy shifokorlik punkti va oilaviy poliklinika hamda chekka hududlarda 1000 dan ortiq mahalla tibbiyot punktlari tashkil etildi. Oilaviy shifokorlar tomonidan aholiga bepul tarqatiladigan 70 xildagi dori-darmon uchun mablag'lar hajmi o'tgan yillarga nisbatan 3 barobar oshirildi. Oilaviy poliklinikalarda kunduzgi davolash o'rinlari tashkil etilishi natijasida 740 ming kishi shifoxonaga bormasdan, bevosita o'zi istiqomat qilayotgan mahallada muolaja olish imkoniyatiga ega bo'ldi.

2024-yildan birlamchi bo'g'in orqali eng ko'p uchraydigan 10 ta kasallikni davolash va 6 ta tibbiy xizmatdan iborat kafolatlangan tibbiy paketni aholiga bepul taqdim etish bo'yicha zarur choralar ko'rish, tug'ish yoshidagi va homilador ayollar, bolalarga 7 turdagi vitaminlar, yod va foliy kislotasini bepul tarqatish ishlarini davom ettirish ko'zda tutilmoqda.

Davlat budjeti hisobidan bemorlarga bepul ko'rsatiladigan tibbiy yordamning kafolatlangan hajmlari ro'yxatiga jami 520 ta tashxis, 28 ta diagnostik test, 46 ta laboratoriya tekshiruvi, 235 turdagi dori, 27 ta jarrohlik davolash usuli va 76 ta tibbiy asboblari kiritildi. Hozirgi vaqtda odamlar shamollash, qon bosimi, yurak xuruji, qandli diabet, oshqozon va nafas yo'llari kasalliklarini davolash uchun eng zarur dorilarni ortiqcha sarson bo'lmasdan, oilaviy shifokor punktlari va poliklinikalardan olishmoqda.

Muhimi, tibbiyot muassasalari xalqqa yaqinlashib, birlamchi va malakali tibbiy xizmatlar aholining keng qatlamlariga kirib bormoqda. Birgina 2022–2023-yillar davomida joylarda 210 dan ziyod oilaviy poliklinika, shifokorlik punkti va 1400 dan ortiq mahalla tibbiyot punkti

tashkil etilib, birlamchi tibbiy xizmatlar 3,6 milliondan ziyod aholiga yaqinlashtirilgani misolida buni yaqqol ko'rish mumkin. Qolaversa, 8,6 million aholi malakali profilaktik tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. Shu orqali aniqlangan kasalliklarning aksariyatini joylarning o'zida ambulator, stasionar sharoitda davolashga erishilganini ham o'ziga xos yutuq sifatida qayd etish mumkin.

Shuningdek, Ftiziatriya va Pediatriya markazlari barcha hududlarda o'z filiallarini tashkil etganligi bois, hududlardan Toshkentga keluvchi bemorlar 2 yilda qariyb 20 foiz kamaydi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti bilan hamkorlikda oilaviy shifokorlar malakasini oshirish, "Qishloq shifokori" dasturi doirasida olis va chekka hududlarga mutaxassislarni jalb qilish, oilaviy shifokorlik punkti va poliklinikalarda shtatlar normativi, shifokorlar va o'rta tibbiyot xodimlarining malaka talablari, jihozlash standartlarini takomillashtirish ishlari ham yangi bosqichga ko'tarildi.

Bugun sog'liqni saqlash sohasidagi o'zgarishlarni aholining keng qatlami o'z hayotida his qilib, bu boradagi intilishlarimizni qo'llab-quvvatlamoqda. Respublikamiz bo'yicha qo'shimcha 700 ta poliklinika barpo etish, 28 ming shifo o'rinlari yaratish, 16 mingta shifokor shtatini tashkil etish hamda tibbiy yordamga muhtoj aholi murojaatlarining 70 foizini birlamchi bo'g'inning o'zida hal etishga erishish choralari ko'rilmoqda.

Ma'lumki, kasallikni davolashdan ko'ra uning oldini olgan ma'qul. Kasallik qancha kech aniqlansa, uni davolash ham qiyin va murakkab kechishi sir emas. Shuning uchun kasalliklarni erta aniqlash va davolash mamlakatimiz tibbiyotining eng ustuvor tamoyiliga aylanmoqda.

Aholining o'rtacha umr ko'rish davomiyligini oshirishda kishilar o'limiga sabab bo'layotgan asosiy kasalliklarni erta aniqlash va davolash masalalari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada, ayniqsa, **yuqumli bo'lmagan kasalliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish**

o'ta muhimdir. Shu maqsadda, onkologiya, yurak-qon tomir, diabet va nafas yo'llari kasalliklari bo'yicha erta o'limni 2,5 barobar kamaytirish hamda O'zbekistonni sil xastaligidan xoli mamlakatga aylantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Afsuski, ayni paytda butun dunyoda bo'lgani kabi mamlakatimizda ham onkologik kasalliklarga chalinish holatlari yil sayin ortib bormoqda. Buning asosiy sabablari — o'sma kasalliklarining dastlabki bosqichlarda yashirin holda kechishi va kech aniqlanishi, aksariyat kishilarning bila turib erta bosqichlarda shifokorga murojaat qilmasligi bilan bog'liq. **Shu bois onkologik kasalliklarning kelib chiqish sabablari, ularni erta aniqlash va oldini olish borasida qator ishlar amalga oshirildi.** Biroq hali bu masalada qilinishi kerak bo'lgan ishlar talaygina.

Shu sababdan barcha fuqarolarimizni yilda ikki marta chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazish, kasallikni erta aniqlash va uning oldini olish vazifasi tibbiyot sohasidagi siyosatimizning ustuvor yo'nalishlaridan bo'lib qoladi. Xususan, 2030-yilga qadar onkologik kasalliklarni aholi orasida profilaktik ko'riklarda, erta bosqichlarida aniqlash va **120** ming nafar bemorni davolash bilan to'liq qamrab olish orqali bu boradagi o'lim ko'rsatkichini keskin kamaytirish strategik vazifalarimiz sirasiga kiradi.

“Onkologik, gematologik va immunologik kasalliklarga chalingan bolalarga tibbiy yordam ko'rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorga ko'ra, quyidagilarni bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi sohasini rivojlantirishning ustuvor vazifalari etib belgilandi:

- 2030-yilgacha onkologik kasalliklarga chalingan bolalarning omon qolish darajasini 60 foizga oshirish;
- gemopoetik o'zak hujayralari va suyak ko'migi hujayralarini transplantatsiya qilishni rivojlantirish;

- bemor bolalarni zarur dorilar va tibbiy buyumlar bilan uzluksiz ta'minlash.

Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazi Bolalar onkologiyasi, gematologiyasi va immunologiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi etib qayta nomlandi.

Markaz huzurida Onkologik va gematologik kasalliklarga chalingan bolalarni sog'lomlashtirishga ko'maklashish jamg'armasi tashkil etildi.

2024-yil 1-iyuldan onkologik, gematologik va immunologik kasalliklarga chalingan 18 yoshdan 21 yoshgacha bo'lgan (21 yosh ham kiradi) bemorlar belgilangan tibbiyot markazlarining bolalar gematologiyasi va onkologiyasi bo'limlarida, shuningdek, ular voyaga yetgunlariga qadar ushbu kasallik bo'yicha tibbiy yordam ko'rsatgan boshqa tibbiyot tashkilotlarida bepul davolanishni davom ettiradi.

Shuningdek, yuqumli bo'lmagan kasalliklarni erta aniqlash darajasini 70 foizga yetkazish, o'rta va katta yoshdagi aholi orasida qandli diabet va arterial gipertoniya kasalliklarini ilk bosqichida aniqlash ko'rsatkichini 2 barobar oshirish, 30–69 yoshdagi yurt-doshlarimiz orasida yurak-qon tomir, qandli diabet, surunkali respirator kasalliklar tufayli yuz beradigan o'lim holatlarini 30 foizga kamaytirish choralari ko'rilmogda.

Joylarda tibbiy xizmat sifati va samaradorligini oshirish maqsadida yirik ko'p tarmoqli davolash muassasalari, jumladan, tor ixtisoslikdagi maxsus tibbiyot tashkilotlari tizimini yanada mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmogda.

Ma'lumki, bugungi kunda, mamlakatimiz aholisining 20 millionini bolalar va tug'ish yoshidagi ayollar tashkil etadi. Xalqimizda **“farzand — xonadon chirog'i, oila quvonchi”** degan naql bor. Har birimiz bu yorug' olamda hayotimizning davomini ularning iqbolida ko'ramiz. O'zbekistonda hech bir oilani go'daklarsiz, farzandsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Biz bundan buyon yurtimizda har bir ona va bolaning o'limini "favqulodda holat" deb baholaymiz va barcha kuch va imkoniyatlarimizni ushbu holatni bartaraf etishga yo'naltiramiz. Biz ayni paytda onalar va bolalarning bevaqt nobud bo'lishini kamaytirish, sog'lom bolalikni ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlarimizni yanada kuchaytiramiz. Bu — tibbiyotimiz oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Shu maqsadda onalar, ayniqsa, tug'ruq yoshidagi xotin-qizlarimizni doimiy tibbiy ko'rikdan o'tkazish amaliyotini keng joriy etdik. Buning natijasida birgina 2023-yilda tug'ish yoshidagi ayollarning 84 foizi statsionar va ambulator sharoitda sog'lomlashtirildi.

Bolalar salomatligini himoya qilish, ularning sog'lom va barkamol unib-o'sib, hayotda o'zining munosib o'rnini egallashi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish masalasi ham davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

Ushbu maqsadlarda mamlakatimizda aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash hamda onalik va bolalikni muhofaza qilish bo'yicha qator maqsadli milliy dasturlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, **Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi** tashkil etilgani bu borada oldinga tashlangan muhim amaliy qadamlardan biri bo'ldi.

Onalar o'limi holatlarini bartaraf etish hamda yangi tug'ilgan chaqaloqlarda kasalliklarni erta tashxislash, tug'ruq jarayonida go'daklarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan asoratlarning oldini olish maqsadida perinatal markazlar boshqaruviga malakali xorijiy mutaxassislarni jalb qilish, tug'ruqxonalarni zamonaviy tibbiy uskunalari bilan jihozlash ishlari olib borilmoqda.

Hududlarda faoliyat ko'rsatayotgan perinatal va skrining markazlari yagona klaster sifatida birlashtirilib, hududlarda maqsadli skrininglar o'tkazish yo'lga qo'yildi. Bolalarning irsiy va tug'ma kasalliklar bilan

dunyoga kelishi oldini olish maqsadida barcha skrining markazlari va pediatriya muassasalarining moddiy-texnik bazasi kuchaytirilmoqda.

Shuningdek, 2030-yilgacha chaqaloqlarni irsiy kasalliklar bo'yicha skrining tekshiruvidan o'tkazish qamrovini kamida 50 foizga oshirish, homiladorlikning dastlabki kunlaridan boshlab tug'ruqdan keyingi 42 kun davomida ayollar, go'daklar orasida o'lim holatini hamda 5 yoshgacha bolalar o'limini 2 barobar kamaytirish kabi muhim ko'rsatkichlarga erishish uchun barcha choralarni ko'ramiz.

Tibbiyot tizimini yangi bosqichga olib chiqish va aholining umr ko'rish davomiyligini uzaytirish borasida ushbu sohada raqobatni rivojlantirish, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish va davlat-xususiy sheriklik institutini kuchaytirishning ham ahamiyati beqiyos.

Ayni paytda mamlakatimiz tibbiyot tizimida davlat shifoxonalari bilan bir qatorda xususiy meditsina ham jadal rivojlanmoqda. O'tgan yetti yilda bu borada ulkan ishlar amalga oshirildi, ilg'or xorijiy yutuqlar o'rganildi. Natijada, mamlakatimiz sog'liqni saqlash tizimida xususiy sektorning umumiy ulushi 30 foizga yetkazildi.

Hozir yurtimizda 8,3 mingdan ziyod nodavlat tibbiyot tashkilotlari, xususiy klinikalar ishlab turibdi. Ularda 17 ming nafardan ortiq shifokor, 26 ming nafardan ziyod o'rta tibbiyot xodimi tomonidan 200 tadan ortiq ixtisosliklar bo'yicha aholiga 2250 turdan ziyod tibbiy xizmatlar ko'rsatilmoqda. Vaholanki, yaqin vaqtlargacha xususiy tibbiyot muassasalari bor-yo'g'i 50 turdagi xizmat ko'rsatish huquqiga ega edi.

Shuningdek, qisqa vaqt ichida zamonaviy meditsinaga ega xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda ochilgan 160 ta xususiy klinika ham ayni paytda samarali faoliyat yuritmoqda.

Mamlakatimizda tibbiyot sohasida xususiy sektorni va davlat-xususiy sheriklik institutini rivojlantirish uchun qulay ijtimoiy-huquqiy muhit yaratilgani bois ana shunday natijalarga erishilmoqda. Jumladan,

xususiy tibbiyot muassasalariga soliq va bojxona imtiyozlari, subsidiyalar berishni nazarda tutuvchi qo'llab-quvvatlash tizimi joriy etildi. Birgina soliq imtiyozlari hisobidan 1,3 trillion so'mdan ziyod mablag' xususiy sektorning ixtiyorida qoldi. Qolaversa, xususiy klinikalarni rivojlantirish uchun 14 million AQSH dollari ajratilib, ushbu mablag'ning 95 foizi zamonaviy tibbiy jihozlar sotib olishga, 5 foizi chet ellik malakali mutaxassislarni yurtimizga jalb qilish va shifokorlarning chet elda malakasini oshirishga yo'naltirildi.

Albatta, tibbiyot sohasida amalga oshirayotgan islohotlarimiz natijadorligi ko'p jihatdan ushbu **maqsadlar uchun yo'naltirilayotgan mablag' va resurslarga, ularning samarali va maqsadli ishlatilishiga bog'liq**. Mamlakatimizda bu borada ham tegishli choralar ko'rilmoqda. Xususan, keyingi yillarda sog'liqni saqlash sohasiga mo'ljallangan mablag'lar hajmi sezilarli darajada ko'paydi. Misol uchun, birgina 2024-yilda davlat budjetidan faqatgina Sog'liqni saqlash vazirligi tizimida amalga oshiriladigan faoliyat uchun 4 trillion 613 milliard so'm ajratildi. Tibbiy xizmatlar to'lovi mexanizmi tubdan isloh etilib, "davolangan holat" uchun va "jon boshi normativi" asosida moliyalashtirish tizimi amaliyotga tatbiq etilmoqda.

So'nggi 7 yilda sog'liqni saqlash tizimiga ajratilayotgan mablag'lar hajmi 5,9 trillion so'mdan 33,5 trillion so'mga, ya'ni 6 barobar oshirildi.

Bugungi kunda gipertoniya, yurak ishemik va surunkali o'pka xastaliklari, bronxial astma, qandli diabet, gepatit kabi eng ko'p uchraydigan kasalliklar guruhi bo'yicha davolash standartlari xalqaro talablar asosida yangilandi.

O'tgan besh yilda shifoxonalar va tez tibbiy yordam punktlarini dori-darmon va zarur tibbiy buyumlar bilan ta'minlashga ajratilayotgan mablag' hajmi 12 barobar ko'paytirilgani esa davlat hisobidan ko'rsatilayotgan bepul tibbiy xizmatlar ko'lami va sifatining oshishiga xizmat qilmoqda. Bu esa oilaviy shifokorlik punktlari, poliklinikalar,

tuman va shahar markaziy shifoxonalarida dori vositalari va tibbiy buyumlarning uzluksiz va belgilangan miqdorda mavjud bo'lishiga zamin yaratdi.

Har bir inson uchun — sifatli va kafolatlangan tibbiy xizmat

Ma'lumki, tibbiy xizmatlarga kafolat qancha kuchli ta'minlansa, fuqarolarning ushbu sohadagi islohotlarga ishonchi shunchalik ortadi. Shu bois O'zbekistonda kafolatlangan tibbiy xizmatlar sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi.

Nega bu masalaga alohida e'tibor qaratilmoqda? Ma'lumki, aholining ayrim qatlamlari pullik asosda yoki xususiy shifoxonalar xizmatidan foydalanish imkoniyatiga ega emas. Bunday vaziyatda davlat fuqarolarni kafolatlangan tibbiy xizmat bilan ta'minlash majburiyatini o'z zimmasiga olishi, ya'ni barchaga kafolatlangan paket doirasida sug'urta jamg'armasi mablag'lari hisobidan bepul tibbiy xizmat ko'rsatishni ta'minlash, ayniqsa, moddiy sharoiti yaxshi bo'lmagan fuqarolarning sog'lig'ini saqlashga g'amxo'rlik qilishdan to'xtamasligi zarur.

Shularni inobatga olgan holda, mamlakatimizda **davlat tibbiy sug'urtasi** tizimini to'liq joriy etish choralari ko'rilmogda. Fuqarolarning malakali tibbiy xizmatdan foydalanish hamda tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini davlat hisobidan olishga bo'lgan Konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash choralari ko'rilmogda.

Poytaxtimizda davlat tibbiy sug'urta mexanizmlari joriy etilmogda. E'tiborlisi, bu aholi tomonidan to'lanayotgan umumiy soliqlar hisobidan bo'ladi va odamlardan qo'shimcha badallar undirilmaydi.

Tibbiy sug'urta doirasida:

- davlat tomonidan aholiga bepul ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar va dori vositalarining kafolatlangan paketi joriy etiladi;

- bemorlarni o'zlari birlashtirilgan oilaviy shifokorlar orqali tegishli soha mutaxassislariga yoki shifoxonalarga yo'llash tizimi tashkil qilinadi. Bunda ushbu tartibga rioya qilingan holdagina bepul tibbiy xizmatlar ko'rsatiladi;

- aholiga kafolatlangan paket doirasida eng ko'p uchraydigan kasalliklar bo'yicha dori vositalari elektron retsept asosida dorixonalar orqali bepul beriladi.

Davlat tomonidan aholini dori-darmon bilan ta'minlashda elektron retseptlardan foydalanish dasturi yaratilmoqda.

Ochig'i, hozirgi vaqtda sog'liqni saqlash tizimini tartibga soluvchi qonunchilikning tarqoqligi, qonunosti hujjatlarining ko'pligi, ular o'rtasida qarama-qarshiliklar va bo'shliqlarning mavjudligi huquqni qo'llash amaliyotida qiyinchiliklar tug'dirmoqda.

Bunday holatlarga barham berish uchun sog'liqni saqlash **sohasidagi qonunchilikni tizimlashtirish va kodifikatsiyalash, to'g'ridan to'g'ri amal qiladigan qonun hujjatlarini qabul qilish** lozim. Shu tariqa ortiqcha qog'ozbozlikka chek qo'yish, sohaga xalqaro standartlar va xorijiy mamlakatlarning eng yaxshi amaliyotini implementatsiya qilish mumkin.

Zamonaviy tibbiy ta'lim, innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar sifatli tibbiy xizmat kafolatidir.

Aholini sifatli tibbiy xizmat bilan ta'minlashda kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning samarali tizimini shakllantirish, tibbiyot fanini rivojlantirish, unga zamonaviy ta'lim dasturlari, usul va texnologiyalarini joriy etish masalalari hal etuvchi ahamiyat kasb etadi.

Bu borada tibbiy ta'lim va ilm-fanni "**ta'lim – amaliyot – fan**" **prinsipi** asosida transformatsiya qilish va yuqori bosqichga ko'tarish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, tibbiyot sohasidagi o'rta va oliy tibbiy ta'lim tizimini isloh qilish doirasida bir qator muhim masalalarga birlamchi e'tibor qaratilmoqda.

Birinchidan, o'rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash tizimi mutlaqo yangi tartib va yo'nalishlar asosida yo'lga qo'yildi. Barcha tibbiyot kollejlari negizida Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumlari tashkil etildi. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida o'qish muddati 4 yillik "oliy malakali hamshira" bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha mutaxassislar tayyorlana boshlandi.

Yurtimizda ilk bor o'rta tibbiyot xodimlariga oliy ma'lumot beruvchi Hamshiralar akademiyasi tashkil etildi.

Ushbu akademiya negizida Turkiya sog'liq bilimlari universitetining hamshiralik ishi fakulteti ochildi. E'tiborlisi, ushbu fakultetda tahsil oladigan talabalar "Hamshiralik ishi" yo'nalishida bakalavriatdan keyin magistratura, aspirantura va doktorantura bosqichlarida o'qishlari mumkin.

Ikkinchidan, oliy ta'lim muassasalari soni 7 tadan 11 taga oshirildi. Toshkent tibbiyot akademiyasining Termiz filiali, Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti va Qoraqalpoq tibbiyot institutlari tashkil etildi. Toshkent, Sirdaryo, Jizzax, Navoiy, Qashqadaryo va Namangan viloyatlaridagi tegishli oliy ta'lim muassasalarida 6 ta tibbiyot fakulteti ochildi. Toshkent shahrida N.I. Pirogov nomidagi Rossiya tibbiyot universitetining filiali va Jizzax shahrida Qozon federal universiteti filiali, Buxoro davlat tibbiyot institutida Turkiya sog'liq bilimlari universitetining tibbiyot fakulteti va Malakali tibbiy xizmatlar oliy maktabi tashkil etildi.

Shuningdek, xorijiy davlatlarning 20 dan ortiq universitetlari bilan xalqaro qo'shma ta'lim dasturlari asosida 12 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishi, 10 ta magistratura va 8 ta klinik ordinatura mutaxassisliklari bo'yicha kadrlar tayyorlash tizimi yo'lga qo'yildi.

Uchinchidan, o'quv rejalari, dasturlari, o'quv-uslubiy materiallar va nazariy mashg'ulotlar aholiga turli xildagi zamonaviy, malakali, innovatsion tibbiy xizmatlar ko'rsatish, amaliy mashg'ulotlarni

ko'paytirish nuqtayi nazaridan optimallashtirilib, tibbiyot fani va amaliyotining umumjahon yutuqlariga muvofiqlashtirildi. Tor mutaxassisliklar bo'yicha tibbiy kadrlarni tayyorlash takomillashtirildi.

Bakalavriatda 4 ta yangi ta'lim yo'nalishi ochilishi hisobiga qabul kvotalari 2,4 barobar, magistraturada 14 ta yangi mutaxassislik tashkil qilinishi natijasida 3 barobar, klinik ordinaturada esa 6 ta yangi mutaxassislik yo'lga qo'yilishi evaziga 2 barobar ko'paytirildi. Xususan, bakalavriat, magistratura va klinik ordinatura o'quv rejalariga "nanotexnologiya", "tibbiyot genetikasi", "IT texnologiya" kabi fanlar kiritildi.

Xorijdagi nufuzli tibbiyot markazlari va ta'lim muassasalari bilan onkologiya, bolalar onkogematologiyasi, pediatriya, xirurgiya, neyroxirurgiya, kardiologiya, tibbiyot sohasining raqamli transformatsiyasi, "yadro tibbiyoti", sog'liqni saqlash tizimida boshqaruv kabi yo'nalishlarda mutaxassislar tayyorlash va ularning malakasini oshirish hamda zamonaviy tibbiyot ilm-fani va texnologiyalari yutuqlarini amaliyotga qo'llash borasida samarali hamkorlik yo'lga qo'yilmoqda.

Keyingi yillarda hindistonlik hamkorlar bilan birgalikda mamlakatimizda bir qancha zamonaviy ko'p tarmoqli tibbiyot markazlari tashkil etildi. Bunday klinikalar tarmog'ini Hindistondagi yetakchi tibbiyot universitetlarining O'zbekistondagi filiallari negizida yanada kengaytirish, hamkorlikda virusolog shifokorlar tayyorlash, hindlarning ayurveda ta'limotlari va yoga amaliyoti, Ibn Sinoning tibbiyotga oid risolalari asosida zamonaviy sog'liqni saqlash yutuqlarini to'ldirishga xizmat qiladigan an'anaviy tibbiyot usullarini joriy qilish borasida ham tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, internatura instituti joriy etilib, 19 ta yo'nalishda yiliga 500 nafar tor mutaxassislar tayyorlanishi yo'lga qo'yildi. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, sog'liqni saqlash mutaxassislarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimi tubdan isloh

etildi, muammolarga yo'naltirilgan modulli o'quv dasturlari joriy etildi, masofadan o'qitish mexanizmlari keng qo'llana boshladi.

O'quv jarayonlariga xorijiy davlatlarda faoliyat olib borayotgan 500 dan ortiq vatandoshlarimiz va 350 dan ziyod xorijiy professor-o'qituvchilar jalb qilindi.

To'rtinchidan, ilg'or ilmiy ishlanmalar va texnologiyalarni sog'liqni saqlash sohasiga integratsiya qilishda tibbiy oliy ta'lim muassasalari klinikalarining rolini kuchaytirish, moddiy-texnik bazasini, kadrlar salohiyatini mustahkamlash, tashxis qo'yish va davolashning yuqori texnologik usullarini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, oliy tibbiy ta'lim muassasalarida budjetdan tashqari hamda xalqaro moliya tashkilotlarining mablag'lari hisobidan o'quv-simulatsion markazlar zamonaviy o'quv-amaliy jihozlar bilan ta'minlandi, eksperimental laboratoriyalar faoliyati takomillashtirildi va moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi. Klinik kafedralar respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari bazasida joylashtirildi.

Bu kabi omillar malakali mutaxassislarni ko'paytirish, tibbiyot xodimlarining salohiyatini yanada oshirish orqali mamlakatimizda tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilash va ko'lamini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Jahon va milliy tibbiyot tizimimizning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish sohada innovatsion, zamonaviy tibbiy texnologiyalar, ayniqsa, raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish masalalari muhim ahamiyat kasb etayotganidan darak beradi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasini inobatga olib, Yangi O'zbekistonda tibbiyot sohasini to'la raqamlashtirish, "aqlli tibbiyot", sun'iy intellekt, teletibbiyot, tibbiy robototexnika, inson salomatligini doimiy monitoring qilishni ta'minlaydigan mobil qurilma va ilovalar,

implantatsiya qilinadigan tibbiy moslamalar va protezlar kabi yangi texnologiyalarni keng joriy etishga alohida e'tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda tobora rivojlanib borayotgan **“elektron sog'liqni saqlash”** tizimi sohani raqamli transformatsiya qilish, yagona milliy standartlar asosida integratsiyalashgan axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalari majmuyini tashkil etish va rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish va axborot berishning butun jarayonini avtomatlashtirishning markazlashgan tizimi hisoblangan **“aqlli tibbiyot”** texnologiyasini joriy etish ishlari davom etmoqda. Jumladan, Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari faoliyatini avtomatlashtirish, Sog'liqni saqlash vazirligining mobil ilovasini takomillashtirish, raqamli sog'liqni saqlashning FNIR (Fast Nealthcare Interoperability Resources) xalqaro standarti asosida mazkur soha axborot tizimining yagona platformasini yaratish ishlari ham jadal olib borilmoqda. “Elektron tibbiy ta'lim” platformasi, “Elektron shifoxona”, “Elektron poliklinika”, “Diagnostik tasvirlar almashinuvi, arxivi va teleradiologiya”, “Laboratoriya”, “Donorlarga oid ma'lumotlar bazasi” va “Farmatsevtika mahsulotlari hisobi va nazorati” axborot tizimlari, “Elektron retsept” kabi tizimlarni joriy etish yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, tibbiyot sohasida samarali boshqaruvni amalga oshirish, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami faoliyatini avtomatlashtirish, aholiga tibbiy xizmatlar ko'rsatish qamrovini kengaytirish, tibbiyot xodimlarining ish samaradorligini oshirish, tibbiyot tashkilotlari o'rtasida axborot almashish hamda masofaviy tibbiy va ta'lim xizmatlarini o'tkazish uchun teletibbiyotni rivojlantirishga imkon yaratildi.

Shubhasiz, ushbu tizimlarning yo'lga qo'yilishi sog'liqni saqlash sohasining faoliyatini yangi bosqichga olib chiqishda juda katta ahamiyatga ega. Chunki bugungi kunda shifokorlar ish vaqtining uchdan ikki qismini turli hisobotlarni to'ldirishga sarflayapti. Ushbu tizimlarni

pastgacha tushirsak va birlamchi bo'g'inlarni ham raqamlashtirishga erishsak, bu aholimiz va shifokorlarga qanchalik yordam berishini tasavvur qilish qiyin emas.

Muhimi, ushbu tizimlar aholimiz uchun tibbiyot tashkilotlari, ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar, shifokorlarning malakasi, ularning qabul vaqti haqida axborot olish, ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini baholash, mobil ilovalar orqali tizimdan foydalanish kabi qator qulayliklarni beradi.

Shuningdek, tegishli dasturiy ta'minotlar bemorning tahlil natijalarini tekshirish orqali uning ahvoli va unga buyurilgan preparatlar o'rtasidagi nomuvofiqlikni topib, sog'liqni saqlash xodimlarini potensial xatolardan xabardor qiladi. Ma'lumotni tahlil qilish orqali surunkali kasalligi mavjud bo'lgan bemorni aniqlash va ularning takrorlanishiga qarshi profilaktik rejalarini ishlab chiqish va kasalliklarning oldini olishga ko'maklashadi, bemorga malakali tibbiy xizmat ko'rsatish uchun sarflanadigan vaqtni keskin qisqartiradi.

Mamlakatimizda telemeditsina tizimini rivojlantirish maqsadida qator xorijiy davlatlar bilan samarali hamkorlik yo'lga qo'yildi. Xususan, germaniyalik hamkorlar tomonidan mamlakatimizga tekshirish, tashxis qo'yish va davolashga yordam beruvchi telemeditsina uskunalari (robotlar) keltirildi. Shuningdek, Toshkent tibbiyot akademiyasida markazlashgan tele-radiologiya axborot almashish tizimi ishga tushirildi. Ushbu tizim malakali vrachlar va mutaxassislarning masofadan turib joylardagi tibbiyot xodimlarini o'qitish va malakasini oshirish hamda ko'chirish mumkin bo'lmagan og'ir bemorlarga yordam ko'rsatish, muvofiqlashtirilgan tashxis qo'yish va kerakli davolanishni belgilash, tibbiy amaliyotlarda, jumladan, operatsiyalarda ishtirok etish imkoniyatini bermoqda.

Quvonarlisi, joylardagi tibbiyot muassasalarini malakali tibbiy kadrlar bilan ta'minlash, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, sohaga raqamli va innovatsion texnologiyalarni keng

joriy etish borasidagi ishlarimiz allaqachon o'zining ijobiy natijalarini ko'rsata boshladi.

Bugun respublikamizning chekka va uzoq hududlarida ham malakali tibbiy xizmat ko'rsatish tobora kengayib bormoqda. Tumanlar miqyosida ham ko'plab yuqori texnologik amaliyotlar, xususan, jarrohlik operatsiyalarini o'tkazish odatiy holga aylanmoqda.

Ma'lumki, butun dunyoda yurak-qon tomir xastaliklari bemorlar o'limining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Bu turdagi kasalliklarga chalinish holatlari yurtimizda ham ko'p uchrayotgani kardiologiya xizmatini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Shu bois biz Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining hududlarda filiallarini tashkil qildik va ularning faoliyatini samarali yo'lga qo'ydik. Xususan, Markazning Qarshi filiali uchun yangi bino qurilib, bemorlarga sifatli va zamonaviy tibbiy yordam ko'rsatish maqsadida eng so'nggi rusumdagi tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlandi. Bu yerda shifokorlarning bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadida tibbiyotning kardiologiya sohasi eng rivojlangan xorijiy davlatlardan taklif etilgan tajribali mutaxassislar tomonidan mahorat darslari o'tkazildi. Filial xodimlari nufuzli xorijiy klinikalarda malaka oshirib keldi.

Ana shunday chora-tadbirlar natijasida bu yerda qo'shimcha ravishda 20 ga yaqin yangi yuqori texnologik diagnostika va davolash usullari joriy etildi. Birgina 2023-yilda qariyb 2,2 ming yuqori texnologik jarrohlik amaliyotlari bajarildi. Statsionar va ambulator sharoitda jami 34 mingdan ziyod aholiga tibbiy xizmat ko'rsatildi. Vaholanki, 2018-yilda ushbu ko'rsatkich bor-yo'g'i 4,3 mingni tashkil etgan.

Bunday ijobiy manzaralarni respublikamizning deyarli barcha hududlarida ko'rish mumkin. Ushbu o'zgarishlar nafaqat mamlakatimiz aholisi, balki xalqaro hamjamiyat, xususan, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan ham yuqori baholanmoqda.

Shuningdek, mamlakatimizda “tibbiy turizm”ning jadal rivojlanishi natijasida yurtimizga davolanish uchun kelayotgan chet el fuqarolari va ularga hamroh bo'lgan shaxslarning soni ko'payib borayotgani ham tibbiyot tizimimizning xalqaro miqyosdagi jozibadorligi ortayotganidan darak beradi.

Jamiyatda sog'lom turmush tarzi va madaniyatini shakllantirish masalasi ham ustuvor vazifalarimiz sirasiga kiradi.

Qadimgi yunon faylasufi, tibbiyot ilmining asoschisi Gippokrat ta'kidlaganidek, “Hayotini o'zgartirishni istamagan kishiga yordam berishning imkoni yo'q”. Ya'ni har qanday davolash, avvalambor, insonning hayot tarzini o'zgartirishga intilishi va doimiy harakatda bo'lishiga bog'liq.

“Sog'lom va faol keksalikni ta'minlash”, jamiyatda “sog'lom turmush tarzi” madaniyatini shakllantirish g'oyalari Yangi O'zbekistonda tibbiyot sohasida amalga oshirilayotgan siyosatning o'ta muhim asoslaridan hisoblanadi.

Xalqimizda **“Qarisi bor uying parisi bor”** degan naql bor. Shunday ekan, nuroniy keksalarga g'amxo'rlik qilish har bir fuqaroning burchidir. O'zlarining ulkan hayotiy tajribasi, hayotiy o'git va nasihatlar bilan yoshlarimiz tarbiyasiga munosib hissa qo'shib kelayotgan hurmatli otaxon va onaxonlarimizning salomatligini asrab-avaylash biz uchun ham qarz, ham farzdir.

Davlat tomonidan bu borada ham bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, keksalarning sihat-salomatligini muhofaza qilish, mehnat qilishlari va dam olishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu haqda gapirganda, ularning faol harakati, hayotga bo'lgan intilishi, umuman, har tomonlama ibratli to'g'ri hayot tarzini yoshlar orasida targ'ib-tashviq qilish juda muhim.

Kishilarning salomatligini ta'minlash orqali ularning umrini uzaytirish tibbiyotning bosh masalasi sanaladi. Bu borada doimiy

mehnat va harakat — uzoq umr kechirishning eng muhim shartlari hisoblanishini ham unutmaslik lozim. Tib ilmining sultoni **Abu Ali ibn Sino** “**Harakatdagi inson davolanishga muhtoj emas**”, deb ta’kidlagani ham bejiz emas.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda aholining sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash va jismoniy faolligini oshirishga qaratilgan ishlarni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida Salomatlik va strategik rivojlanish instituti tashkil qilindi. Mazkur tuzilma orqali quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan:

- sog‘lom va faol keksalikni ta‘minlash maqsadida har yili 55 yosh va undan katta yoshdagi aholini 100 foiz tibbiy-profilaktik ko‘rikdan o‘tkazish va sog‘lomlashtirish, 40 yoshdan oshgan aholi orasida jismoniy faollik ko‘rsatkichini 2 barobar ko‘paytirish;

- xalqimiz orasida to‘g‘ri ovqatlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish maqsadida me‘yoridan ortiq tuz iste‘mol qiladigan odamlar sonini 32 foizga, yetarlicha jismoniy faollikka ega bo‘lmagan kishilarni 22 foizga, ortiqcha vazn to‘plagan katta yoshdagi aholi sonini 32 foizga va mos ravishda semizlikka ega aholini 23 foizgacha kamaytirish.

Shu maqsadda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, to‘g‘ri ovqatlanishni tizimli targ‘ib qilish va ommalashtirish dasturlari ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etiladi, jurnalistlar va blogerlar, ommaviy axborot vositalarining jamiyatda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan faoliyati rag‘batlantirib boriladi va qo‘llab-quvvatlanadi.

Belgilangan vazifalarni izchil va to‘liq amalga oshirish orqali fuqarolarimizning o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligini uzaytirish va aholi salomatligini yanada yaxshilashga erishish mumkin.

Aholi salomatligini saqlash borasida ularni arzon, sifatli dori-darmon va tibbiyot vositalari bilan ta‘minlash, umuman, farmatsevtika tarmog‘ini jadal rivojlantirishning ahamiyati beqiyos.

Ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish uchun yetarli xomashyo bazasi mavjud. Yurtimiz nabotot olamidagi 4 ming 500 ga yaqin o'simliklarning 750 dan ortiq turida dorivorlik xususiyati aniqlangan. Biroq ularning atigi 112 turidan dori ishlab chiqarishda foydalanilayotgani albatta hech birimizni qoniqtirmaydi. Vaholanki, o'tmishga nazar solsak, jahonda besh ming yildan ortiq tarixga ega xalq tabobati amaliyotida faqatgina tabiatga murojaat qilingan. Buyuk bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino qoldirgan bebaho meros, tavsiya qilgan davolash usullari ham buning yorqin dalilidir.

Biz farmatsevtika tarmog'ini isloh qilish jarayonida mamlakatimizda dori-darmon xavfsizligini ta'minlash, farmatsevtika sektorini modernizatsiyalash, chuqur ilm talab qiladigan va yuqori texnologiyali yangi ishlab chiqarishlarni yaratish, farmatsevtika mahsulotlari va xizmatlarining eksportini oshirish, ilg'or ilmiy va texnologik ishlanmalarni rag'batlantirish kabi masalalarga ustuvor ahamiyat qaratdik.

So'nggi yillarda dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika muomalasini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, dorivor o'simliklarni ishlab chiqarish va qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi oilaviy tadbirkorlar va kichik biznes subyektlari uchun soliq va kredit imtiyozlari berilishi natijasida minglab gektar yerlarda dorivor o'simliklarning yangi plantatsiyalari yaratildi.

Qisqa vaqt ichida O'zbekistonda farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalar soni 190 tadan oshdi. Respublika hududlarida dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlashga doir ilmiy tadqiqotlarning yagona bazasini yaratish maqsadida Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash ilmiy ishlab chiqarish markazi tashkil etildi.

Olimlarimiz tomonidan 10 mingdan ortiq yangi kimyoviy moddalar ajratib olindi va sintez qilindi, 2 mingdan ortiq o'simlik moddalarining

farmakologiya va toksikologiyasi o'rganildi, 70 ga yaqin dori preparatlari va biologik faol qo'shimchalarning klinik tadqiqotlari o'tkazildi, 45 ta dori preparatlari tibbiyot amaliyotida qo'llash uchun tavsiya etildi. Shuningdek, mahalliy ishlab chiqarish korxonalarining farmatsevtika mahsulotlarini xorijiy davlatlarda ro'yxatdan o'tkazish xarajatlarining 75 foizini qoplab berish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Bunday chora-tadbirlar natijasida ushbu sohada ham muhim o'zgarishlar yuz berdi. Misol uchun, 2014-yilda respublikamiz bo'yicha jami 520 milliard so'mlik farmatsevtik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 4,6 trillion so'mga yetkaziladi. Har yili 18 million AQSH dollaridan ortiq miqdorda 5 ming tonnadan ziyod o'simlik xomashyosi va uning asosida ishlab chiqarilgan dori preparatlari eksport qilinmoqda.

Sohadagi yangi loyihalar uchun 100 million AQSH dollari miqdorida arzon resurs ajratildi. Bundan tashqari, Asaka bank tomonidan 200 million AQSH dollari jalb qilindi.

Mavjud imkoniyatlardan foydalanib, mahalliy mahsulotlar bilan ichki bozor talabini qondirish darajasini oshirish zarur.

Ishlab chiqarishni xalqaro standartlarga o'tkazish, narx va sifat mutanosibligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Shu maqsadda sohada raqamlashtirishni bu yil 65 foizga yetkazish, keyingi yil esa to'liq yakunlash vazifasi qo'yildi. Bu orqali narxni kamida 20 foizga arzonlashtirish mumkinligi qayd etildi. Soha uchun malakali mutaxassislar tayyorlash bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

"Tashkent Pharma Park" innovatsion farmatsevtika klasteri faoliyatini jadallashtirib, 470 million AQSH dollarilik 12 ta loyihani ishga tushirish choralari ko'rib chiqildi.

Mavjud imkoniyatlar va sohadagi muammolarni inobatga olib, farmatsevtika sohasida 2030-yilga qadar mamlakatimizda dori vositalariga bo'lgan ehtiyojning 70 foizini ichki ishlab chiqaruvchilar

hisobidan qoplash vazifasi qo'yildi. Ushbu sa'y-harakatlarimiz aholini arzon va malakali tibbiy xizmat, dorilar bilan ta'minlashga qaratilgan.

E'tiborli jihati, o'tkazilgan tahlillar Yangi O'zbekistonda tibbiyot sohasini tubdan isloh qilish, aholining malakali va arzon, shu bilan birga, yangi texnologiyalarga asoslangan tibbiy xizmat bilan qamrab olinishini oshirish, pandemiyaga qarshi kurashish, farmatsevtika sohasini jadal rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar fuqarolarimiz tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlanayotganini ko'rsatmoqda.

Bizning tibbiyot sohasidagi izlanishlarimiz, ayniqsa, **COVID-19** pandemiyasi avj olgan davrda unga qarshi tibbiy, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy chora-tadbirlarni qamrab oluvchi kompleks yondashuv asosida milliy, mintaqaviy va global miqyosda samarali kurash olib borish strategiyamiz jahon hamjamiyati tomonidan ham yuqori baholandi.

Xususan, O'zbekistonda COVID-19 qayd etilgan dastlabki kunlardan boshlab barcha sa'y-harakat va resurslarimizni ushbu xavfli kasallikni jilovlash va eng asosiysi, odamlarning hayotini saqlab qolishga safarbar qildik. Uning salbiy oqibatlarini yumshatish uchun ijtimoiy himoya va sog'liqni saqlash tizimlari keskin kuchaytirildi, aholiga, iqtisodiyot tarmoqlari va biznesga manzilli ko'mak ko'rsatildi.

Shuningdek, xalqaro hamjamiyatning pandemiyaga qarshi samarali kurashish bo'yicha barcha harakatlari, xususan, BMTning "Hech kimni e'tiborsiz qoldirmaslik, barcha uchun va hamma joyda" degan tamoyil asosida vaksinalardan teng va adolatli foydalanish imkoniyatini yaratishga doir yondashuvi va boshqa qator tashabbuslari O'zbekiston tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlandi. Ushbu jarayonda biz pandemiyalarga qarshi samarali kurashda, emlash natijalarini xalqaro miqyosda tan olish jarayonlarida Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining muvofiqlashtiruvchi rolini yanada kuchaytirish tashabbusini ilgari surdik. Ayniqsa, **O'zbekistonning sa'y-harakatlari bilan ishlab chiqilib**, BMT Bosh Assambleyasining rasmiy hujjati sifatida

tarqatilgan **Pandemiyalar davrida davlatlarning ixtiyoriy majburiyatlari to'g'risidagi** Kodeks bizning jahonda bu kabi ofatlarga qarshi kurashishga qo'shgan amaliy hissamizdir.

Bu boradagi barcha **tashabbuslarimiz zamirida har bir insonning asosiy huquq va erkinliklarini, salomatligi va farovonligini ta'minlaydigan adolatli global tizimni birgalikda yaratishdek ezgu maqsad mujassamdir.**

Shu bilan birga, o'z hayotini inson salomatligini muhofaza qilishdek zahmatli va savobli ishga bag'ishlagan shifokorlarimiz va soha xodimlarining mehnatini rag'batlantirish, ularning ish haqini oshirish, ijtimoiy himoyasini ta'minlash va eng asosiysi, tibbiyot sohasini chinakam xalqchil tizimga aylantirish borasida oldimizda yanada ulkan maqsad va vazifalar turibdi.

Shuni nazarda tutib, ayni paytda xalqaro tashkilotlar va xorijiy konsalting kompaniyalarini jalb qilgan holda, ilg'or mahalliy va xorijiy tajribalar asosida "Aholi salomatligi — 2030" milliy strategiyasi ishlab chiqilmoqda. Ushbu strategiyada birlamchi tibbiy-sanitariya xizmatini aholiga yanada yaqinlashtirish, onalik va bolalikni muhofaza qilish, ixtisoslashgan tibbiy yordam ko'lamini kengaytirish, sog'liqni saqlash tizimini to'liq raqamlashtirish, kadrlar salohiyatini oshirish hamda tibbiy ta'lim va ilm-fanni yanada rivojlantirish borasidagi ustuvor masalalar qamrab olinmoqda. Shuningdek, unda sohada xususiy sektorni rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilish, yirik davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish, fuqarolarning sog'lom turmush tarzini, sog'lom ovqatlanishini va jismoniy faolligini qo'llab-quvvatlash, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda farmatsevtika tarmog'ini samarali tartibga solishga alohida e'tibor qaratilgan.

Ushbu maqsadlarga erishish yo'lida tibbiyot sohasini moliyalashtirish uchun zarur resurslar ajratib boriladi. Davlat tibbiy sug'urtasi

jamg'armasi va sog'liqni saqlash sohasidagi boshqa bir qator fondlar hamda Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash choralari ko'riladi.

Kambag'allik va ishsizlikni barham toptirish yo'lida

Mening eng katta niyatim — mamlakatimizda kambag'allik va ishsizlikka butunlay barham berishdir. **Shunday kunlar kelishiga ishonchim komil va buning uchun bor kuch va imkoniyatlarimni, borlig'imni bag'ishlashga ham tayyorman.**

Xalqimizda “**Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi**” degan dono maqol bor. Biz ancha yillar ana shu hikmatni unutib, “O'zbekistonda hamma birday to'kis va farovon yashayapti” degan gapga ishonib yashadik. Boshqalarni ham shunga ishontirishga urindik. Ammo oyni etak bilan yopib bo'lmaydi. Butun dunyo yurtimizdagi ahvolni ko'rib-bilib turardi. Afsuski, vaqtida tegishli choralar ko'rilmagani oqibatida bu muammo ancha chuqurlashib ketdi.

Ortiq bunday yashab bo'lmas edi. Biz aholining muayyan qatlami o'rtasida kambag'allik mavjudligini birinchi marta ochiq tan oldik va yordamga muhtoj kishilarni ijtimoiy adolat tamoyili asosida qo'llab-quvvatlash va kambag'allikni bartaraf etishni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi etib belgiladik.

Bu borada amalga oshiriladigan vazifalar, faoliyatimiz yo'nalishlari va keng qamrovli kompleks chora-tadbirlarni taraqqiyot strategiyalarimizga singdirdik. Jumladan, ushbu masala Barqaror rivojlanish borasidagi milliy maqsadlarimizda eng birinchi vazifa sifatida qayd etildi. Shunga asosan, 2026-yilgacha mamlakatda kambag'allikni 2 barobar, 2030-yilgacha keskin qisqartirish vazifasi qo'yildi. Shuningdek, kambag'allikka tushib qolish ehtimoli mavjud 4,5 million

aholining daromadini oshirish, ijtimoiy sheriklik asosida ular orasidan 500 ming nafar malakali mutaxassis tayyorlash choralari belgilandi.

Shu haqda tun-u kun bosh qotirib, tinimsiz izlanib, mutlaqo yangi yondashuvlarga asoslangan tizim yaratdik, ayni paytda qonunchiligimizni ham takomillashtirmoqdamiz. Muhimi, bu borada dunyoga ochildik, jahondagi eng ilg'or tajribalarni chuqur tahlil qilib, ularni amaliyotga tatbiq etmoqdamiz.

Aslida, **bu sohadagi izlanishlarimizni ajdodlarimizning adolat va insonparvarlik g'oyalariga asoslangan xalqparvar siyosatining uzviy davomi, desak mubolag'a bo'lmaydi.**

Xalqimiz azal-azaldan bir-biriga suyanib, o'zaro mehr-muruvvat ko'rsatib yashashni, doimo ojizlarga tayanch bo'lishini odamiylik mezoni deb bilgan. Hamma davrlarda yurtimizda badavlat kishilar muhtojlarga ko'mak berishni, yoshlar qariyalarga g'amxo'r bo'lishini o'zlarining burchi deb bilgan. Keksalarga hurmat, yoshlarga izzat ko'rsatish xalqimizning qon-qoniga singib ketgan.

Bu haqda hazrat **Alisher Navoiyning "Kimki bir ko'ngli buzug'ning xotirin shod aylagay, oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa, obod aylagay"**, degan hikmatli satrlari hamda **"Yaxshilikning mukofoti — faqat yaxshilikdir"**, degan oyati karimani yodga olish kifoya.

Aynan ana shunday oliyjanob fazilatlar bizni doimo yagona xalq, yagona millat sifatida birlashtirib, hayotning sinov va qiyinchiliklarini yengib o'tishda beqiyos kuch-quvvat beradi. Pandemiya davrida "Saxovat va ko'mak" umumxalq harakati keng tarqalib, elimiz ehtiyojmandlarga beg'araz yordam bergani, yuzaga kelgan barcha muammolarni bahamjihat yengib o'tgani buning yorqin misoli bo'ldi.

Biz ham ajdodlarimizdan meros bo'lgan ana shunday ezgu g'oyalarni inobatga olib, **"Inson qadri uchun"** degan tamoyilni barcha islohotlarimizning ustuvor tamoyiliga aylantirdik.

Natijada qisqa muddatda kambag'allikni qisqartirish sohasida o'ziga xos milliy dastur ishlab chiqildi va ayni paytda uni izchillik bilan hayotga joriy etmoqdamiz.

Ushbu dastur bir paytning o'zida ham siyosiy, ham ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, ekologik va boshqa sohalarni qamrab oluvchi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali kambag'allikni qisqartirish mumkinligi to'g'risidagi hayotiy tushuncha asosida shakllantirilgan.

Bunda jahon mamlakatlarining ilg'or tajribalari, ayniqsa, strategik hamkorimiz hisoblangan Xitoyning erishgan yutuqlarini chuqur o'rgandik. Shuningdek, 2019-yilda qashshoqlikka qarshi kurashning eng yaxshi va ishonchli usullarini aniqlagani, kambag'allikni qisqartirishga doir yangicha yondashuvlarni joriy etgani uchun iqtisodiyot bo'yicha xalqaro Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan Abhijit Banerji, Ester Dyuflo va Maykl Kremer kabi taniqli olimlarning tadqiqotlari natijalarini ham inobatga oldik.

Mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish borasida qisqa va uzoq muddatlarga mo'ljallangan kompleks chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida so'nggi uch yilda sohaga oid davlat siyosatini yuritish uchun zarur bo'lgan barcha huquqiy-tashkiliy asoslar yaratildi. Xususan, ilk bor yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda **“O'zbekiston — ijtimoiy davlat”** ekanligi hamda davlatning fuqarolar bandligini ta'minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek, kambag'allikni qisqartirish, aholi uchun munosib turmush sharoitini yaratish kabi sohalardagi majburiyatlari belgilab qo'yildi.

Ma'muriy islohotlar doirasida kambag'allikni qisqartirishga mas'ul bo'lgan 5 ta idora Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimida birlashtirilib, uning zarur tashkiliy va moliyaviy resurslari belgilandi. O'zaro kesishuvchi masalalarni bir vazirlik doirasida jamlash orqali ularni

yanada samarali va kompleks hal etishga erishilmoqda. Qisqa vaqt ichida bu yo'nalishda quyidagi natijalarga erishilgani ham shundan dalolat beradi:

- yurtimizda ilk bor minimal iste'mol xarajatlarining qiymati joriy etildi;

- mamlakatimizda kambag'allik darajasi 2021-yildagi 17 foizdan 2023-yil 11 foizga pasayib, 1,6 million fuqaro kambag'allikdan chiqarildi, aholining kambag'allik holatidan qashshoqlik holatiga o'tishi xavfi keskin kamaytirildi;

- 2 million 300 mingdan ortiq ehtiyojmand oilalar, xotin-qizlar, yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslar ijtimoiy himoya tizimi bilan to'liq qamrab olindi. Ya'ni, kam ta'minlangan nafaqa oluvchi oilalar qamrovi 5 barobar ko'paydi hamda nogironligi bo'lgan shaxslar va bolalarning parvarishi bilan band bo'lgan shaxslar uchun yangi nafaqa turlari joriy etildi;

- ushbu maqsadlarga ajratilayotgan mablag'lar hajmi 7 barobar oshdi. Umuman, ijtimoiy sohaga yo'naltirilayotgan Davlat budjeti xarajatlari 2024-yilda 2018-yilga nisbatan 4,3 barobar o'sdi.

2023-yil yakuniga ko'ra, O'zbekistonda jami ish bilan band bo'lgan aholi soni 312 ming kishiga yoki o'tgan yilga nisbatan 2,3 foizga oshdi.

2023-yilning ikkinchi yarim yilligidan boshlab mehnat bozori ko'rsatkichlari yaxshilanishda davom etib, iqtisodiyotdagi ishsizlik darajasi sezilarli darajada kamayib, 6,8 foizni tashkil qilgan. Bandlikka asosiy hissa qo'shgan sohalar qurilish va savdo tarmoqlari bo'lib, qishloq xo'jaligida band bo'lganlar miqdori esa kamaygan. Shuningdek, mehnat bozoridagi bo'sh ish o'rinlari soni bilan o'lchanadigan ishchi kuchiga bo'lgan talab 14 foizga oshdi.

E'tiborli jihati, yuqorida ismi tilga olingan olim — Abhijit Banerji yurtimizda ushbu yo'nalishda olib borilayotgan ishlar bilan yaqindan

tanishgach, “O‘zbekiston boshqa davlatlarga kambag‘allikka qarshi qanday kurashish kerakligini o‘z namunasida ko‘rsatayotgani”ni alohida ta’kidladi.

Shu bilan birga, kambag‘allikni qisqartirish borasida oldimizga qo‘ygan maqsadlarimizga erishish uchun hali ko‘p izlanishimiz talab etiladi. Bunda “inson–jamiyat–davlat” tamoyili asosida boshlagan keng ko‘lamli ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish bilan bir qatorda, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda ham boshlagan ishlarimizni qat’iy davom ettiramiz.

Birinchidan, yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi daromadlarini oshirishning “drayveri” bo‘lgan xususiy sektor va tadbirkorlik uchun eng qulay sharoitlarni yaratib berish, ularni izchil qo‘llab-quvvatlash masalasi doimiy e‘tiborimiz markazida bo‘ladi.

Biz yangi ish o‘rinlarini yaratadigan tadbirkorlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashimiz, ularga zarur sharoitlarni yaratib berishga harakat qilishimiz kerak. Bu borada birgina raqamga e‘tibor qaratmoqchiman: so‘nggi uch yilda aholi daromadlari tarkibida kichik biznesning ulushi 4 barobar o‘tdi. Bu, albatta, sohada tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning ahamiyatini yaqqol ko‘rsatuvchi katta yutu-g‘imizdir.

Aynan shu maqsadda salohiyatli va halol tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlab, ularni yangi ish o‘rni yaratishga rag‘batlantirish choralari ni ko‘rmoqdamiz. Ishsiz fuqarolarni o‘qitish va ishga joylashtirish tashabbusini bildirgan faol tadbirkorlarga “ijtimoiy kontrakt” tizimi asosida qo‘shimcha imtiyozlar paketi taqdim etilmoqda.

Buning uchun ular bilan malakali ishchi tayyorlash bo‘yicha shartnoma tuziladi. Ya‘ni, korxonalarda ko‘plab yangi “amaliy monomarkazlar” tashkil qilinadi. Davlat bu borada zarur bo‘ladigan mablag‘larni ajratish bilan birga, infratuzilma, kredit, soliq va boshqa

masalalar bo'yicha ham yengilliklar beradi. Tadbirkor esa, kambag'al aholini daromadli ish bilan ta'minlaydi.

Shuningdek, biz yangi ish o'rinlarini yaratish, aholining daromadli mehnat bilan bandligini ta'minlash, oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, **“temir daftar”, “ayollar daftari” va “yoshlar daftari” orqali mahallabay va xonadonbay ishlash tizimini** yanada takomillashtirish borasidagi sa'y-harakatlarimizni jadallashtirdik.

2023-yilda aholi bandligini ta'minlash uchun oilaviy tadbirkorlikka 15 trillion so'm imtiyozli kredit va 37 turdagi subsidiyalar, dehqonchilik uchun 200 ming gektar yer ajratildi.

Bu davrda 300 mingga yaqin tadbirkorlik subyekti tashkil qilinib, 20 mingta korxonalar faoliyati kengaytirildi va 11 mingta korxonaning quvvati tiklandi. Minglab fuqarolarning kichik ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish hunarmandchilik, kasanachilik, dehqonchilik, chorvachilik, parrandachilik kabi faoliyat turlari yo'lga qo'yildi.

Mahallalar darajasida aholini kasb-hunarga o'qitish, ushbu maskanlarda tadbirkorlikka ko'maklashish tizimini yaratganimiz — eng katta yutuqlarimizdan biri bo'ldi. Bu borada respublika, viloyat, tuman va shaharlarda ko'rsatiladigan davlat xizmatlari va manzilli moliyaviy qo'llab-quvvatlash instrumentlarini ham bevosita mahalla darajasiga tushirdik. Bu aholi bandligini ta'minlash va imtiyozli resurslarning joylarga yetib borishini kafolatlash va osonlashtirish, aholiga maqsadli yordam ko'rsatishga xizmat qilmoqda.

Ushbu mutlaqo yangi tizim o'zini o'zi band qilgan fuqarolarning kichik va o'rta biznesga o'tishi hamda kredit va subsidiyalarni har bir kambag'al oilaga alohida maqsadli yondashuv asosida taqdim etish amaliyotini yo'lga qo'yishga xizmat qilmoqda.

Ikkinchidan, “ijtimoiy reyestr” tizimi doirasida kambag'al oilalarni individual yondashuv asosida manzilli qo'llab-quvvatlash dasturlari amalga oshirilmoqda.

Kam ta'minlangan oilalarni aniqlash va aholining ehtiyojmand qatlamiga manzilli yordam ko'rsatish maqsadida "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi joriy qilindi.

2021-yildan boshlab kam ta'minlanganlarni "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimiga kiritish orqali hisobga olish mexanizmi joriy etilgan. 2022-yilda 9,5 mingta mahallada hokim yordamchilari, yoshlar yetakchilari va xotin-qizlar faollari ish boshladi. Hokim yordamchilari tomonidan yuz minglab insonlar bandligi ta'minlandi. 2017-yilda 500 ming nafar kam ta'minlangan oilaga ijtimoiy yordam ko'rsatilgan bo'lsa, bugungi kunda ushbu ko'rsatkich 2,5 milliondan ziyodni tashkil qilmoqda. Ajratilayotgan mablag'lar hajmi yetti baravar oshirilib, yiliga 13 trillion so'mga yetdi.

Ushbu tizim bugungi kunda aholiga "bir qadam" tamoyili asosida ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish va ularning sifatini oshirishga ham xizmat qilmoqda.

Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish, ijtimoiy himoya sohasiga qo'shimcha resurslarni jalb qilish va oilalarni og'ir turmush sharoitidan xalos qilishga qaratilgan yangi innovatsion usullar, mexanizmlarni joriy etish borasida ham izchil amaliyot yo'lga qo'yildi. Xususan, so'nggi uch yilda:

- kam ta'minlangan oilalardagi bolalarni parvarishlash uchun to'lanadigan nafaqa qamrovi kengayib, nafaqa yoshi 14 yoshdan 18 yoshgacha oshirildi, mazkur to'lov muddati 6 oydan 12 oygacha, nafaqa miqdori esa o'rtacha 1,5 barobar ko'paytirildi;

- kam ta'minlangan nafaqa oluvchi oilalar soni to'rt barobarga oshib, 1,9 millionga yetdi;

- ishsizlik nafaqalarining eng kam miqdori 3,2 barobar oshirildi, aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan 20 dan ortiq yangi instrumentlar joriy etildi.

Uchinchidan, ayni paytda davlatning konstitutsiyaviy ijtimoiy majburiyatlarini to'liq amalga oshirish maqsadida nogironligi bo'lgan shaxslar, xotin-qizlar, nuroniylar, alohida e'tiborga muhtoj aholi qatlamlariga mahallaning o'zida yuzdan ortiq ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish yo'lga qo'yilmoqda.

Shu munosabat bilan men bir masalaga e'tibor qaratmoqchiman: avval ehtiyojmand aholining muammolarining hal etilishi viloyat va respublika idoralariga bog'lanib qolgan edi. Ijtimoiy himoya tizimi bilan 250 dan ziyod xizmat qamrab olingan bo'lsa-da, mahalla ahli ularning yarmini ham bilmas edi.

Bugun bu borada ham vaziyat tubdan o'zgardi. Endi mamlakatimizda barcha ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar aholi manfaati, ehtiyojlari va talabidan kelib chiqib, bevosita joylarda amalga oshirilmoqda. Shu maqsadda mahallalarga ko'plab vakolatlar, tashkiliy va moliyaviy imkoniyatlar berildi. Mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, profilaktika inspektori, soliqchi va ijtimoiy xizmat xodimidan iborat **“mahalla yettiligi”** tashkil etildi.

Ushbu tizim sohada faoliyat yurituvchi turli tashkilotlarning o'zaro muvofiq ishlashi hamda ijtimoiy maqsadda yo'naltirilayotgan mablag'larning sohaga ishlatilishini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Bundan buyon mahalla va “mahalla yettiligi”ning samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida:

- ehtiyojmand aholini ro'yxatga kiritish, moddiy yordam, subsidiya va kredit ajratish kabi 70 dan ortiq masalalar tuman va viloyat idoralariga chiqmasdan, mahallaning o'zida jamoaviy tartibda hal qilinadi;

- “mahalla yettiligi” ishini muvofiqlashtirishda mahalla raislarining vakolatlari kengaytiriladi. Jumladan, ular hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, soliqchi va ijtimoiy xodimni rag'batlantirish yoki intizomiy jazo qo'llash bo'yicha taqdimnoma kiritish vakolatiga ega bo'ladi;

- ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishga ilmiy va nodavlat tashkilotlarni jalb qilish amaliyoti kengaytiriladi;

- mahallada qulay va elektron ish yuritish yo'lga qo'yiladi. Amaldagi uchta platforma — “Onlayn mahalla”, “Xotin-qizlar”, “Yoshlar portali” o'zaro integratsiya qilinib, yagona tizimda mujassamlashtiriladi;

- Bandlik, Tadbirkorlik va Kasanachilik jamg'armalari mablag'lari har bir mahallaga taqsimlab beriladi.

To'rtinchidan, mahallalar infratuzilmasini yaxshilash maqsadida aholining o'zi tanlagan loyihalarga “ochiq budjet” tizimi orqali ajratilayotgan mablag'lar hajmi ko'paytirilmoqda.

Har bir mahallaning infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha hayotga joriy etilayotgan keng ko'lamli dasturlar aholining yashash sharoitlarini yanada yaxshilashga xizmat qilayotgani sababli odamlar tomonidan ijobiy baholanmoqda. Misol uchun, butun respublikamiz bo'yicha **“Obod qishloq”, “Obod mahalla” va “Tashabbusli budjet”** dasturlari doirasida aholining ichimlik suvi, elektr energiyasi ta'minoti, ichki yo'llar holati yaxshilanib, ko'plab yangi ta'lim, tibbiyot muassasalari va boshqa ijtimoiy obyektlar barpo etilmoqda.

Bugun xalqimiz mahalla faoliyatida, uni ijtimoiy-iqtisodiy va infratuzilmaviy rivojlantirishga yo'naltirilgan loyihalarning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishida faol qatnashmoqda. Xususan, 2021-yildan boshlab “Ochiq budjet” portali orqali fuqarolar tomonidan ilgari surilgan tashabbuslarni amalga oshirish uchun budjetdan 9 trillion so'mdan ortiq, **“Mening yo'lim”** loyihasi doirasida esa 684 milliard so'mdan ziyod mablag' yo'naltirildi.

Beshinchidan, biz inson kapitalini rivojlantirish uchun har bir shaxsning sifatli ta'lim va tibbiyot xizmatlaridan foydalanish huquqlarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan ishlarni tobora kengaytirmoqdamiz.

Yuqorida aytganimizdek, kambag'allikni bartaraf qilishda faqatgina kredit, ijtimoiy nafaqa yoki uy berish kabi chora-tadbirlarning o'zi kifoya qilmaydi. Buning uchun ta'lim, sog'liqni saqlash, kasb-hunarga o'qitish, ichimlik suvi, ekologik barqarorlik, energiya va yo'l infratuzilmasi bilan bog'liq kompleks muammolarni ham hal etish lozim.

Mamlakatimizda oxirgi yillarda bu borada katta tajriba to'plandi. Birgina professional ta'lim sifatini oshirish hamda aholini kasb-hunarga o'qitish jarayonida oila-ta'lim muassasasi-jamiyat, mahalla-biznes hamjamiyatining samarali hamkorligini yo'lga qo'yish orqali sohada katta natijalarga erishilmoqda.

Bugungi kunda mahallalar aholisiga professional ta'lim muassasalarida 700 dan ziyod kasb va mutaxassislik, "Ishga marhamat" monomarkazlarida esa 54 ta kasb va 6 ta xorijiy til o'rgatilmoqda. Muhimi, ushbu ta'lim jarayonlari tobora ko'proq zamonaviy bozor ehtiyojlariga moslashtirilmoqda.

Shuningdek, ehtiyojmand oilada tarbiya topayotgan bolalarning qobiliyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur choralar ko'rilmoqda. Barcha tuman va shaharlarda bosqichma-bosqich "**Iste'dod – intilish – istiqbol**" deb nomlangan maktab-internatlar tashkil etilmoqda. Ularda Prezident maktablaridagidan kam bo'lmagan sharoit yaratiladi va ehtiyojmand oilalar farzandlari uchun 70 foiz kvota ajratiladi.

Bunday misollarni yana ko'plab keltirish mumkin. Lekin biz oldimizga yanada ulkan maqsad hamda vazifalar qo'yanmiz va albatta, ularning samarali hal etilishiga erishamiz.

Yangi O'zbekistonning yangi ijtimoiy himoya tizimi

Mamlakatimizda og'ir hayotiy vaziyatga tushgan aholi bilan manzilli ishlash va ularga ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish, jamiyatga

moslashuvini ta'minlash orqali ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi sonini kamaytirish borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

Biz nafaqat kambag'allikni qisqartirish bo'yicha, balki **ijtimoiy sohaning boshqa barcha yo'nalishlarida ham faoliyatimizni yangi bosqichga olib chiqmoqdamiz.**

Bunda eng ustuvor vazifalarimizdan biri bu — **ijtimoiy himoyaning yangi tizimini shakllantirish va uning faoliyatini samarali yo'lga qo'yishdan iborat.**

Ma'lumki, ijtimoiy sohada umumiy tarzda ishlab bo'lmaydi. Har bir oila va inson taqdiriga alohida yondashish lozim. Ijtimoiy xizmat to'g'ri yo'lga qo'yilsa, ehtiyojmand fuqarolar jamiyatda o'z o'rnini topadi. Zero, ushbu tizim ham aholini og'ir ahvoldan chiqarish va jamiyatda o'z o'rnini egallashi uchun ko'mak berish, hayot sifatini oshirishni nazarda tutadi.

Ushbu masalalarni samarali hal qilish maqsadida **Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon banki va BMTning bolalar jamg'armasi** bilan hamkorlikda **O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasi ishlab chiqilib**, amalga oshirila boshlandi.

Mazkur strategiyada aholining ijtimoiy yordam dasturlari bilan qamrab olinishi darajasini oshirish, ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, sohani raqamlashtirish, nogironligi bo'lgan insonlarning bandligini va rehabilitatsiya vositalari bilan ta'minlash kabi vazifalarni ijtimoiy himoyaning ustuvor yo'nalishlari etib belgiladik.

Sohada faoliyat ko'rsatayotgan o'nlab davlat tashkilotlarini birlashtirib, **Ijtimoiy himoya milliy agentligini** tashkil etdik.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini aniqlash mezonlari va ular bilan ishlash tartibi tubdan o'zgarib boshladi. Muhtoj insonlarga aynan qanday yordam ko'rsatish lozimligini aniq belgilash hamda ularning har biri bo'yicha individual ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish dasturi ishlab chiqilmoqda. Buning uchun har bir ijtimoiy himoyaga muhtoj

oiladagi muammo va imkoniyatlar aniqlanib, uning **“ijtimoiy portreti”** chiziladi, ijtimoiy yordamlar **“ijtimoiy karta”si tuziladi**. Kelgusida aholiga ko'rsatiladigan barcha yordamlar ushbu **“ijtimoiy karta”** orqali moliyalashtiriladi. 2025-yildan respublikamizdagi 40 ta tumanda reabilitatsiya, sog'lomlashtirish va nogironligi borlarga qarovchilarni o'qitish bo'yicha ko'p tarmoqli ijtimoiy xizmatlar markazlari ishga tushiriladi.

“Saxovat va ko'mak” jamg'armasidan yordamlarni oilaning ijtimoiy ahvolini individual baholash asosida ko'rsatish yo'lga qo'yiladi. Yordamdan so'ng xonadonda nima o'zgargani monitoring qilib boriladi.

Bu yerda gap mablag'ni qisqartirish haqida emas, uni o'z egasiga — haqiqiy muhtojlarga yetkazish va jamiyatga integratsiya qilish haqida bormoqda.

Yana bir muhim jihati, mahalladagi barcha ijtimoiy xizmatlarni bosqichma-bosqich ijtimoiy xizmat ko'rsatish shartnomasi orqali taqdim etish yo'lga qo'yiladi. Bunda xizmat ko'rsatuvchi ham, yordam oluvchi ham o'ziga majburiyat oladi.

Endi nafaqa oluvchilar ro'yxatiga birinchi navbatda nogironligi bor, ota-onasi yo'q, boquvchisini yo'qotgan, kasalligi va boshqa sabablarga ko'ra uzoq muddat ishlay olmaydigan kishilarning oilalari kiritiladi. Boshqa fuqarolarni **“ijtimoiy reyestr”**ga kiritishda ularning faqat daromadi emas, balki xarajatlari ham baholanadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasida bo'lishi hamda davlatning nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga joylashtirish va ta'lim olishiga ko'maklashish bo'yicha konstitutsiyaviy majburiyatlari belgilandi.

Bunda **ijtimoiy sohadagi faoliyatimiz “Hech kimni ortda qoldirmaslik” tamoyiliga asoslangan.**

O'zbekiston **Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga** qo'shildi hamda uning normalarini milliy qonunchilik va amaliyotga implementatsiya qila boshladi. Xususan, nogironligi bo'lgan shaxslarning hayot sifati va ijtimoiy faolligini oshirish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, jamiyatga integratsiyalashuvi, jamiyat va davlat boshqaruvidagi ishtirokini ta'minlash, ta'lim olishi va bandligiga ko'maklashish kabi yo'nalishlarda tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Tariximizda ilk bor O'zbekiston Nogironlar jamiyati o'z mustaqil binosiga, ta'bir joiz bo'lsa, "o'z uyi"ga ega bo'ldi, mamlakatimizda nogironligi bo'lgan shaxslarga kasb-hunar o'rgatuvchi **"Imkoniyatlar markazi"** tashkil etildi.

Shu bilan birga, bu yo'nalishda ham oldimizda ko'plab vazifalar turibdi. Jumladan, kelgusida quyidagi masalalarga birlamchi ahamiyat qaratish lozim:

- nogironligi bo'lgan shaxslarga ko'maklashish, ularni jamiyatga integratsiya qilish, sifatli protez-ortopediya moslamalari va reabilitatsiya vositalari bilan ta'minlash;

- bunday toifadagi fuqarolarning ishlashi va kasb-hunarga o'qishi uchun to'siqsiz muhit yaratish, ularni o'qitish, ishga joylashtirish va sportga jalb qilish bo'yicha milliy tizim yaratish, mahalladan boshlab ommaviy sportga jalb qilish;

- nogironlikni kasallikka qarab emas, balki mustaqil harakati, muloqot qobiliyati va ijtimoiy hayotdagi ishtirokiga qarab belgilash tartibini joriy etish, ularning "mehnatga layoqatini belgilash" amaliyotidan voz kechish.

So'nggi yillarda O'zbekistonda **keksa va nogironligi bo'lgan shaxslarga davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimini soddalashtirish va ularga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali qo'shimcha qulayliklar yaratish, sog'lom va faol keksalikni ta'minlash** borasida ham ko'p ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, nuroniy otaxon va onaxonlarimizni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, keksa avlod vakillarining hayot sifati va uzoq umr ko'rish darajasini oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimini yaxshilash borasida kompleks chora-tadbirlar hayotga joriy qilindi.

Sohaga oid 10 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilinib, nuroniylarning ijtimoiy faolliklarini qo'llab-quvvatlash maqsadida "Faxriy murabbiy" ordeni va "Mehnat faxriysi" ko'krak nishoni ta'sis etildi. 152 ta tuman va shaharda "Nuroniylar maskani" majmualari tashkil etildi, barcha ishlovchi pensionerlarga pensiyalarni to'liq miqdorda to'lash yo'lga qo'yildi. Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda nuroniylar jamoatchilik kengashlari, mahallalarda "Keksalar maslahati" guruhlari tashkil etildi, "Keksalar haftaligi" va "Keksalar uchun turizm oyligi"ni o'tkazish an'anaga aylandi.

Pensionerlar manfaati kuchli himoyaga olinib, 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekiston aholisining qariyb 12,4 foizi (4,5 million kishi) pensiya va nafaqa olmoqda. So'nggi vaqtda ular soni yiliga 200–250 ming nafarga o'sib bormoqda. 2017-yilgacha pensionerlarni qiynab kelgan muammolardan biri — ularga pullar naqd shaklda berilmayotganida edi. 2017-yil 1-fevraldan boshlab mazkur masala yechim topdi: pensiya va nafaqalar istalgan shaklda — naqd yoki plastik karta orqali berila boshlandi.

Pensiya tizimidagi yana bir ijobiy o'zgarish — 2019-yilda yuz berdi. Ya'ni pensiya hisoblashda ish haqiga belgilangan yuqori chegara pensiya hisoblash bazaviy miqdorining 8 barobaridan 10 barobarga oshirildi. Buning natijasida 531 ming nafar fuqaroning pensiya miqdori oshdi. Qolaversa, o'sha yilning 1-yanvaridan boshlab ishlaydigan pensionerlarga ham pensiyalarini to'liq olish imkoniyati yaratildi. 2023-yilning 1-yanvaridan esa pensiya tayinlash uchun olinadigan o'rtacha ish

haqining yuqori chegarasi pensiya hisoblash bazaviy miqdorining 12 baravariga yetkazildi.

Shu bilan birga, o'zgarar parvarishiga muhtoj keksalar har yili sanatoriylarda davolanishi hamda kam ta'minlangan nuroniylarning dori-darmon va ortopediya moslamalari, jarrohlik amaliyotlari uchun talab etiladigan xarajatlar davlat tomonidan qoplab beriladi. Keksalarning sport bilan shug'ullanishi, teatr va muzeylarga borishi, yurtimiz bo'ylab sayohat qilishi uchun ham yengilliklar belgilandi.

Nogironligi bo'lgan qariyalarga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Masalan, "Saxovat" uylarida yashovchi mingga yaqin avval ishlamagan kishilar tegishli to'lovlardan ozod etildi. Endi ularga ham shaxsiy xarajatlari uchun qarilik nafaqasining 20 foizi to'lab beriladi.

Hozirgi kunda nogironlik pensiyasi fuqarolarning avvalgi ishlagan staji va oyligidan kelib chiqib hisoblanadi. Bu — minglab ishlayotgan nogironligi bor fuqarolarning daromadiga bevosita ta'sir qilmoqda. Bundan buyon ularning pensiyasi har ikki yilda qayta hisoblanib, ish staji va oyligiga qarab oshirib boriladi. Buning uchun qo'shimcha mablag'lar yo'naltiriladi.

Shu bilan birga, ularning turmush darajasi va ijtimoiy faolligini yanada oshirish maqsadida **mahallalarda nuroniy va keksalar bilan ishlarni takomillashtirish bo'yicha** quyidagi chora-tadbirlarni davom ettirish ko'zda tutilgan:

- mahallalarda "Bir nuroniy — o'n yoshga mas'ul" tamoyilini qaror toptirish, "Uch avlod uchrashuvlari", "Otalar jasorati — ibrat namunasi" kabi ma'naviy-tarbiyaviy ishlarda tashabbuskorlik ko'rsatayotgan ijtimoiy faol nuroniylarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash;

- vazirlik va idoralar, xo'jalik birlashmalari, tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, barcha korxonalar va tashkilotlardagi "Faxriylar kengashlari", fuqarolar yig'inlaridagi "Keksalar maslahati" guruhlarining ishlarini yanada faollashtirish;

- mehnat faxriylarining mahallalarda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishdagi ishtirokini kengaytirish.

Keyingi vaqtlarda mamlakatimizda voyaga yetmagan bolalarni himoya qilish, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish, huquq va qonuniy manfaatlarini hamda gender tenglikni ta'minlash borasida ham muhim natijalar qo'lga kiritildi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarga g'amxo'rlik ko'rsatish bo'yicha yangi tizim yaratildi. Unga muvofiq, Mehribonlik uylaridagi minglab bolalar o'z oilasiga ega bo'ldi, yuzdan ortiq Oilaviy mehribonlik uyi tashkil qilinib, mingga yaqin o'g'il-qizlarning ota-ona bag'rida ulg'ayishi uchun sharoit yaratildi.

Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarni to'liq ta'limga jalb etish maqsadida "Nurli maskan" maktablarida qo'shimcha 850 ta o'quv xonasi va 1 ming 200 ta yotoqxona o'rni tashkil etiladi. Ushbu maktab kutubxonalari davlat buyurtmasi asosida Brayl yozuvidagi darslik va o'quv qo'llanmalari, badiiy adabiyotlar bilan ta'minlanadi. Bog'cha yoshidagi ko'zi ojiz bolalar uchun bosqichma-bosqich bir yillik tayyorlov guruhlari tashkil etilishi muhim vazifa sifatida belgilandi.

2023-yil "Muruvvat" uylari uchun davlat budjetidan 624 milliard so'm ajratildi. Shuningdek, ularni dori-darmon va tibbiy buyumlar bilan ta'minlash uchun avvalgiga nisbatan ikki barobardan ko'proq mablag' berilmoqda. Ochig'i, ilgari "Muruvvat" uylari o'rtasida hech qanday hamkorlik bo'lmagan. Hozir ular o'zaro tajriba almashib, samarali usullarni o'rtoqlashmoqda.

Bolalarni imkon qadar rehabilitatsiya qilish va hayotga moslashtirish, ota-onalarga psixologik yordam berish nihoyatda muhim. Endilikda "Muruvvat" uylari zamonaviy rehabilitatsiya jihozlari bilan ta'minlanib, o'z ishini yangi konsepsiya asosida yo'lga qo'yadi. Unga ko'ra, bolalar

individual rivojlanish dasturlari asosida jamiyatga integratsiya qilinadi. Barcha “Muruvvat” uylarida uchrashuv xonalari tashkil etiladi.

Shuningdek, “Qo'llab-quvvatlash klublari” tuzilib, malakali mutaxassislar tomonidan vasiylarga nogironligi bo'lgan bolani parvarishlash, oila sharoitida tarbiyalash va jamiyatga moslashtirish bo'yicha bilimlar berib boriladi. Alohida ta'limga tavsiya berilmagan, og'ir darajadagi kasalliklari mavjud bolalar uchun “G'amxo'rlik guruhi” tashkil etiladi. Barcha hududiy rehabilitatsiya markazlarida nogironligi bo'lgan bolalar uchun shunday xizmatlar yo'lga qo'yiladi.

Bundan buyon ota-ona mehriга muhtoj bolalarni tarbiyalash bilan joylarda vasiylar va homiylar, yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar bilan mahalladagi ijtimoiy xodimlar shug'ullanadi. Ularga uy-joy ajratish tizimi ham qayta ko'rib chiqiladi. Bunda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari tomonidan uy-joyga real ehtiyoji bo'lgan yoshlar ro'yxati shakllantiriladi. Ularga beriladigan uy-joyning narxi bozor bahosidan kelib chiqib, hududlar kesimida belgilanadi.

Shuningdek, yetim va nazoratsiz qolgan bolalarni qaramog'iga olish bo'yicha “ixtisoslashgan tutingan oila” tizimi joriy etiladi.

Shubhasiz, keyingi vaqtlarda yurtimizda bolalar uylari va ulardagi yetimlarning soni sezilarli darajada kamaygani xalqimizning yuksak ma'naviyati, iymon-insofi va mehr-muruvvatidan dalolat beradi. Lekin mamlakatimizda o'zini yetim deb his qiladigan bironta bola bo'lmasa, ularning to'liq oilalarda o'sishi va jamiyatga integratsiyalashuviga erishsak, ayni muddao bo'lardi. Shuning uchun bunday toifadagi bolalarni imkon qadar munosib oilalarga farzandlikka berish choralarini ko'rishimiz lozim.

Ota-onasidan ayrilgan yigit-qizlarga ko'maklashish tizimi ham o'zgaradi. Endi “Yoshlarga hamrohlik” dasturi asosida ularni qo'llab-quvvatlash 23 yoshgacha etib belgilanadi.

Ichki ishlar tizimidagi Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlari "Hayot maktabi" sifatida qayta tashkil qilinmoqda. Ular tarbiyasi og'ir bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish bo'yicha kompleks xizmat ko'rsatadigan maskanga aylantiriladi.

Afsuski, zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlar va bolalar hali reabilitatsiya bilan yetarlicha qamrab olinmaganligidan ko'z yumib bo'lmaydi. Shu bois bu borada mahalla darajasida alohida tizim yaratiladi. Kelgusida qiyin vaziyatdagi yosh onalarni qo'llab-quvvatlash, go'daklar yetim qolishining oldini olish uchun "Onalar maskani" xizmati tashkil etiladi. Shuningdek, tuman shifoxonalarida zo'ravonlikka uchraganlarga tibbiy va ruhiy yordam ko'rsatish uchun tun-u kun ishlaydigan tibbiy xizmat ko'rsatish xonalari ochiladi.

Tan olish kerak, biz uzoq vaqt **hurmatli opa-singillarimizning dard-u tashvishlariga beparvo qarab keldik**. Shu tufayli yillar davomida bu borada to'planib qolgan ijtimoiy muammolarni hal qilishimiz oson bo'lmayapti. Lekin qanchalik qiyin va murakkab bo'lmasin, biz muhtaram opa-singillarimiz uchun munosib ish va turmush sharoitlarini yaratib berishga bor kuch va imkoniyatlarimizni to'la safarbar etamiz. Chunki takror aytaman, **agar ayol, ona baxtli bo'lsa, oila baxtli bo'ladi, oila baxtli bo'lsa, butun jamiyat, davlat mustahkam va barqaror bo'ladi**.

Shuningdek, xotin-qizlarning mamlakatimiz iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha **Milliy dasturni** hayotga tatbiq etmoqdamiz. Masalan, oxirgi uch yilda tijorat banklari va Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi mablag'lari hisobidan 496 mingdan ziyod xotin-qizga oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishi uchun 9,7 trillion so'm kredit, 108 mingdan ziyod xotin-qizga asbob-uskunalar xarid qilishi uchun subsidiya ajratildi, 14 ta hududiy Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari tashkil etildi.

O'z mehnat va tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun kasb-hunar va tadbirkorlikni o'rganish ishtiyoqida bo'lgan 523 mingdan ziyod xotin-

qiz “Ishga marhamat” monomarkazlarida, kasb-hunar maktablarida, hududiy xotin-qizlar tadbirkorlik markazlarida mehnat bozori talab etayotgan kasb-hunarlar va tadbirkorlikka o'qitildi. Xotin-qizlarga o'zi yashayotgan mahallasida kasb-hunar o'rganish, ularni hunarmandchilik va kasanachilikka jalb etish maqsadida 605 mahallada xotin-qizlar bandligini oshirish va salomatlik markazlari tashkil etildi.

Shuningdek, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida ularning faolligini oshirish borasida katta natijalarga ega bo'ldik.

Aynan ana shunday sa'y-harakatlarimiz tufayli xalqaro hamjamiyat tomonidan O'zbekistonda:

- yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligi hamda davlat ularga jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek, jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlashi mustahkamlab qo'yilgani;

- ayollarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan 50 dan ortiq qonunlar qabul qilingani;

- saylovlarga oid qonunchilikda siyosiy partiyalar tomonidan deputatlikka nomzodlar ko'rsatilayotganda ayollar sonining eng kam miqdori nomzodlar umumiy sonining kamida 40 foizini tashkil etishi kerakligi hamda bunda partiya ro'yxatidagi ketma-ketlikda kamida har 5 nafar nomzodning 2 nafari ayol kishi bo'lishi lozimligi belgilab qo'yilgani yuqori baholandi.

Bundan buyon ham **Yangi O'zbekistonni — ayollari hayotdan rozi bo'lib, baxtli-saodatli yashaydigan mamlakatga aylantirishga ustuvor ahamiyat beriladi.**

Umuman, biz mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, sog'lig'ini saqlash, kasbga o'qitish va bandligini

ta'minlash, tadbirkorlikka keng jalb etish, ehtiyojmand xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, gender tenglikni ta'minlash borasidagi islohotlarni tizimli davom ettiramiz.

Jamiyatda ijtimoiy adolat va inson qadrini ta'minlashni maqsad qilgan ekanmiz, buning uchun yangi ijtimoiy himoya tizimini joylarda samarali ishlatib, muhtoj insonlarga madad va umid bag'ishlashimiz darkor.

Mashhur alloma Husayn Voiz Koshifiy o'zining "Axloqi Muhsiniy" asarida **"Kishilar turmushi bir-biri bilan o'zaro bog'liq va xalqning ahvoli adolat bo'lmasa, yaxshilanmaydi"**, deb ta'kidlagan edi. Umuman, o'tmishda yashagan ko'plab ulug' olim va mutafakkirlarimiz tomonidan haqiqat va rostgo'ylik, tenglik va qonun ustuvorligi, axloq va halollik, saxovat va insonparvarlik kabi fazilatlarining amaldagi tajassumi sifatida talqin qilingan ijtimoiy adolat g'oyasi bugun O'zbekistonni chinakam ma'noda ijtimoiy davlatga aylantirish yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlarning ham asosini tashkil qiladi.

Biz ajdodlarimizning bunday ezgu orzularini ro'yobga chiqarish va eng muhimi, xalqimizning roziligiga erishish uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar qilamiz.

Yoshlar — yurtimiz istiqboli, yorug' kelajagimiz bunyodkori

O'zbekiston tom ma'noda yoshlar mamlakati hisoblanadi. Chunki respublikamiz aholisining asosiy qismini yoshlar tashkil qiladi. Bu — juda katta imkoniyat va salohiyat degani. Shu bois keyingi yillarda Yangi O'zbekistonda yoshlar siyosatiga ustuvor yo'nalish deb qaralmoqda. Mening davlat rahbari sifatida faoliyat boshlashim bilan birinchi galda ancha yillar burun Hukumat tomonidan tayyorlanib, turli sabablarga ko'ra ortga surilib kelinayotgan O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga

oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni loyihasini qabul qilishga e'tibor qaratganim va uni imzolaganim ham bejiz emas.

Chindan ham, yoshlar — davlatning eng katta boyligi, bebaho kapitali, uni ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, intellektual va madaniy rivojlantirishning asosiy manbaidir. Shuning uchun biz qanday islohotlarga qo'l urmaylik, avvalo, yoshlarga, ularning kuch-g'ayrati va azm-u shijoatiga suyanamiz. Ularning timsolida Vatanimiz qanchalik beqiyos xazinaga ega ekanini chuqur his etamiz.

BMTning "Yoshlar — 2030" strategiyasi, "Yoshlar manfaatlarini ko'zlab, ular bilan ishlash" bosh tamoyiliga asoslangan Yoshlar manfaatleri bo'yicha butunjahon harakatlar dasturida ta'kidlanishicha, bugungi kunda umumbashariy tahdidlarga qarshi samarali kurashishda yoshlarning bilim va salohiyati hal qiluvchi rol o'ynashi mumkin. Ushbu hujjatda "Yoshlar siyomosida eng qimmatli va o'ta muhim resurslar jamlangan, unga har qancha investitsiya kiritisa arziydi, chunki bu sarmoya bir necha barobar ortig'i bilan qaytadi", deb e'tirof etilgani ham asossiz emas.

Men bu fikrga to'liq qo'shilaman. Zero, bugun har qanday davlatning ravnaqi, taraqqiyot bobida erishadigan natijalari va xalqining farovonligi, avvalo, yoshlarning ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga qaratiladigan e'tiborga bog'liqdir.

Shu o'rinda jahondagi demografik ahvolga oid ayrim ma'lumotlarga to'xtalib o'tmoqchiman. Xususan, BMT ekspertlarining tahlillariga ko'ra, 2023-yilda dunyo ahlining o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 72,98 yilni, o'rtacha yoshi 31,8 yoshni tashkil etgan. O'zbekistonda esa ushbu ko'rsatkich mos ravishda 74,7 yil va 28,7 yoshni tashkil etmoqda. Shuningdek, ona sayyoramiz aholisining taxminan 50 foizini yoshlar tashkil etsa-da, lekin ularning aksariyati rivojlanayotgan mamlakatlarda yashamoqda. Shu nuqtayi nazardan, aholisining o'rtacha yoshi 27,6 yoshni tashkil etadigan Markaziy Osiyo — dunyodagi eng "navqiron"

mintaqalardan biri hisoblanadi. Ushbu tendensiya 2035-yilda ham saqlanib qolishi bashorat qilinmoqda.

Xo'sh, bu raqamlar nimani anglatadi? Xalqaro ekspertlarning ta'kidlashicha, bu — bir tomondan, yoshlar uchun yangi davr boshlanganidan, ikkinchi tomondan esa mintaqamiz taraqqiyotining muhim omili bo'lgan inson resurslari va kapitalining o'sib borayotganidan dalolat beradi. Jahon statistikasiga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda keksalar soni ko'payib, demografik inqiroz xavfi ortmoqda. Ya'ni, aholining qarishi iqtisodiyotning ko'plab tarmoqlarida kadrlar yetishmasligiga olib kelmoqda.

Bunday sharoitlarda yoshlarning ilmiy, kasbiy rivojlanishi va salomatligini ta'minlash, iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish hamda mamlakatda texnologiya va innovatsiyalarni rivojlantirish uchun ajratiladigan sarmoyalarni ko'paytirish orqali kelgusida o'ziga xos "demografik dividend"ga ega bo'lish, ya'ni jahon mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta'minlash va qisqa muddatlarda yuqori iqtisodiy taraqqiyotga erishish mumkin.

Jahonda kechayotgan globallashuv jarayonlari, fan-texnika taraqqiyoti va innovatsion jamiyatga kuchli ehtiyoj yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratish bilan bir qatorda, ularning oldiga tezkor qarorlar qabul qilish, innovatsion tafakkurni shakllantirish, intellektual salohiyatni oshirish kabi talablarni ham qo'yimoqda.

Shu munosabat bilan BMT "Yoshlar — 2030" strategiyasi doirasida beshta yo'nalishda — yoshlarni zamonaviy muammolarni hal qilishga kengroq jalb qilish; salomatlik darajasi va ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish; ularning iqtisodiy ahvolini yaxshilash; fuqarolik va siyosiy huquqlarini amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlash; yoshlarni turli mojarolar va inqirozli vaziyatlarda qo'llab-quvvatlash kabi ustuvor yo'nalishlarda keng qamrovli va ko'p tomonlama faoliyatni yo'lga qo'ygan.

O'zbekiston ham ushbu strategiyaning hayotga tatbiq etilishida faol ishtirok etmoqda. Xususan, BMTning ushbu strategiya bajarilishiga oid hisobotlarida 2023-yilda mamlakatimiz bu yo'nalishda eng yuqori natijalarga erishgan 10 ta davlat sirasiga kiritilgan.

Darhaqiqat, mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati sohasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O'tgan qisqa davrda ushbu yo'nalishda navqiron avlod vakillarining 100 dan ortiq huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash maqsadida yoshlar siyosatiga doir qonun hujjatlari qabul qilinib, ayni paytda izchil amalga oshirilayotgani buni yaqqol tasdiqlaydi.

Avvalo, yurtimizda **30-iyun** — **“Yoshlar kuni”** deb e'lon qilindi. Yangilangan Konstitutsiyamizda yosh avlodning huquq va manfaatlarini aniq moddalar bilan muhrlab qo'yilgani esa, shubhasiz, bu boradagi huquqiy bazani yanada kengaytirish va amaliy ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarish imkonini beradi.

Qabul qilingan hujjatlar asosida unib-o'sib kelayotgan o'g'il-qizlarimizni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash borasida alohida tizim yaratdik. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi, Oliy Majlisning bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani), Yoshlar parlamentlari, Yoshlar akademiyasi tashkil qilindi.

Shu o'rinda yana bir fikrga e'tibor qaratmoqchiman, hayotda avlodlar almashinuvi tabiiy jarayon hisoblanadi. **“Otaning do'ppisi o'g'ilga tor keladi”** degan xalqona naql zamirida ham katta ma'no bor. Negaki, yosh avlod bamisoli jo'shqin daryoga o'xshaydi. Ular shijoati, yangicha fikrlashi, zamonaviy ilm-fan sirlarini yaxshi bilishi bilan mamlakatni taraqqiyotning yuqori bosqichiga olib chiqishga harakat qiladi. Eng muhimi, bunday yigit-qizlar o'zlaridan oldingi avlodlarning yutuqlarini

yanada boyitishni va ularning ushalmagan orzu-umidlarini ro'yobga chiqarishni istaydi.

Agar biz katta avlod vakillarining bilimi va tajribasini, uzoqni ko'ra olish fazilatlarini yoshlarimizdagi g'ayrat-shijoat, mardlik va fidoyilik bilan birlashtira olsak, ko'zlagan marralarga albatta erishamiz.

Men bugungi yoshlarimizdagi shijoat, bilimga tashnalik va yangilikka intilishni ko'rib, ruhlanaman va ularning yonib turgan ko'zlariga boqib, o'zimga kuch olaman. Zero, bilimli va ma'nan boy inson ko'zidan, istarasidan ma'lum.

Islahotlarimizning samaradorligini yanada oshirish borasida zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan g'ayratli, tashabbuskor yoshlarni chinakam tayanchimiz deb bilaman. **Ishonchim komil, biz Yangi O'zbekistonni ana shunday bilimli va bunyodkor yoshlar bilan birgalikda barpo etamiz.**

Shu ma'noda, yoshlarga oid siyosatimiz falsafasining tub mohiyatini qisqacha qilib shunday ifodalagan bo'lardim: yoshlarimiz zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini chuqur egallagan, keng dunyoqarashga va intellektual salohiyatga ega, aqlli, ilmi yetuk, zukko, biz erishgan marralardan ham yuksakroq cho'qqilarni zabt etishga qodir, sog'lom va barkamol insonlar bo'lishi va bu hayotda baxtiyor yashashi shart!

Men har gal yoshlar bilan uchrashganimda ularga: **"Ilmni qadrlang, ilmga intiling!"** degan so'zlarni uqtirib kelaman. Chunki bilim har narsadan qudratli bebaho ne'matdir. Yoshlarimiz qalbi ilm-ma'rifat ziyosidan bahra olsa, idroki kuchli va tafakkuri keng bo'ladi. Yoshlar qanchalik ko'proq bilimlarni egallasa, kelajagimiz ham shunchalik ishonchli bo'ladi. Zero, dunyoda o'qigan, zamonaviy ilm va hunarlarini puxta egallagan, yosh avlodni ayni shu ruhda tarbiyalagan xalqlar, davlatlar jadal rivojlanmoqda. Yoshlarimiz zukko va ilg'or bo'lsin desak, ularga zamonaviy bilim va raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini yaratib berishimiz lozim.

Shu maqsadda ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning sifatli bilim olishini ta'minlash, hududlarda inkluziv ta'lim rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratmoqdamiz.

Yurtimizda tashkil etilayotgan yangi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumta'lim maktablari, oliy o'quv yurtlari, nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari, zamonaviy IT parklar, madaniyat muassasalari va sport inshootlari, yangi namunadagi ta'lim maskanlari — Prezident maktablari, Ijod maktablari bugungi globallashuv sharoitida yetuk kadrlarning yangi avlodini tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

So'nggi paytlarda yoshlarimizning **“katta beshlik” fan olimpiadalarida** qo'lga kiritgan medallari soni avvalgiga nisbatan **ikki barobar ko'paygani** ham bu sohadagi islohotlarimiz samarasini ko'rsatib turibdi. Xususan, birgina 2023-yilgi xalqaro fan olimpiadalarida yurtimiz maktab o'quvchilari 69 ta, jumladan, 5 ta nufuzli olimpiadada 13 medalni qo'lga kiritib, O'zbekiston tarixidagi eng yaxshi natijaga erishdi. Mamlakatimizda Al-Farg'oniy, Beruniy, Mendeleev nomidagi xalqaro olimpiadalar ham muvaffaqiyatli o'tkazildi.

Ilm yo'lini tanlagan iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida **doktorantura bosqichi uchun kvota ikki barobar** oshirildi. Bu kvotani har yili **50 foizga** oshirib borish tartibi joriy etildi. Yoshlarning eng yaxshi ilmiy ishlanmalari, innovatsion va startap loyihalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida “Yosh olimlar”, “Bo'lajak olim” kabi tanlovlar tashkil etilmoqda.

Hududlarda “Loyihalar fabrikasi” ish boshladi. Unga muvofiq loyiha takliflari muayyan mintaqaning rivojlanish salohiyatini hisobga olgan holda ishlab chiqilmoqda. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan yosh tashabbuskorning murojaatiga asosan bu borada konsultativ yordamlar ko'rsatilmoqda.

Shuningdek, qobiliyatli yigit-qizlarimizning IT kasblar va xorijiy tillarni o'rganishiga ko'maklashishga alohida e'tibor qaratmoqdamiz.

Shu maqsadda Yuqori Chirchiq tumanida “Astrum” IT akademiyasi ochilganini alohida qayd etish lozim. Zamonaviy jihozlangan, zarur kompyuter texnikalari bilan ta'minlangan ushbu majmua ta'lim va ishlab chiqarishni qamrab olgan klaster vazifasini bajarmoqda. Yoshlar bu yerda avval dasturlashni o'rganib, keyin shu sohada ishlaydi. Ularning o'zlashtirish darajasini sun'iy intellekt baholaydi.

Joylarda “Yoshlar texnoparklari”, IT parklar, “Raqamli texnologiyalar” o'quv markazlari tashkil etilib, “Bir million dasturchi” kabi o'nlab yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Xususan, birgina “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida 1 million nafar yoshga kompyuterda dasturlash asoslari bepul o'qitildi.

Hozirgi paytda 1600 dan ortiq kompaniya IT park rezidentlari sifatida minglab yangi ish o'rni yaratyapti. 2023-yilda rezident kompaniyalarning umumiy daromadi ilk bor 1 milliard AQSH dollariga yetdi. Eksportga yo'naltirilgan kompaniyalar soni 550 dan oshdi, eksport hajmi esa 344 million AQSH dollarini tashkil etdi.

Ko'rinadiki, bizning yoshlarimiz intellektual salohiyat bobida hech kimdan qolishmaydi.

Bugun umumxalq harakatiga aylangan “besh muhim tashabbus”ni amalga oshirishda yoshlarimiz faol ishtirok etayotgani bizni cheksiz quvontiradi. Bunda yoshlarni madaniyat va san'atga keng jalb etish, axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, ular o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi zamonda intellektual va ma'naviy yetuk, tashabbuskor yoshlar barqaror taraqqiyotning drayveriga aylanmoqda. O'zbekiston yoshlari — mamlakatni modernizatsiya qilishga qaratilgan jadal va keng ko'lamli islohotlarning harakatlantiruvchi kuchi va faol ishtirokchisi sifatida maydonga chiqmoqda. Ushbu yo'nalishda “Beruniy izdoshlari”, “Mirzo Ulug'bek vorislari”, “Alisher Navoiy davomchilari” kabi loyihalarni

qo'llab-quvvatlash, ko'rik-tanlovlar o'tkazish, g'oliblarni rag'batlantirish tizimi yo'lga qo'yildi.

Yoshlarning ilmiy-innovatsion faoliyati, xorijiy tillarni o'rganishini rag'batlantirish maqsadida "Ibrat farzandlari", "Ibrat tillar oromgohi", "Bo'lajak olim", "Mutolaa" dasturi, "O'zbekiston uchun 100 g'oya" kabi loyihalar ham amalga oshirilmoqda.

Ayni paytda yurtimizda, 1,5 million yigit-qiz bo'sh vaqtini chet tilini o'rganishga bag'ishlamoqda. Ularning bu intilishlari rag'batlantirilib, xususiy markazlarda til o'rganish xarajatlariga subsidiyalar ajratish yo'lga qo'yildi. "Mutolaa" dasturi orqali yosh kitobxonlarni ham 1,5 million nafarga yetkazish choralari ko'rilmogda.

2020–2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturi qabul qilindi. "Ma'rifat karvoni" loyihasi doirasida 4 milliondan ortiq kitob yoshlarga bepul yetkazib berildi. Muntazam o'tkazilayotgan "Yosh kitobxon", "Kitobxon oila" kabi respublika tanlovlarining ishtirokchilari soni 4 million nafardan oshdi.

Bu borada belgilangan tadbirlar xalqimiz, avvalambor, yoshlarimizning xotirasida yorqin iz qoldiradigan darajada, chinakam adabiyot va san'at bayramlari sifatida o'tkazilmogda. "Abdulla Oripov izdoshlari", "O'tkir Hoshimov asarlari bilimdoni", "Botir Zokirov san'ati davomchilari" ko'rik-tanlovlarining tuman, shahar, viloyat va respublika bosqichlarini tashkil etib, g'oliblarni munosib taqdirlash tizimi yo'lga qo'yilmogda.

Mahallalarda yashayotgan iqtidorli yoshlarni saralash, ularning iste'dodini namoyish etishiga sharoit yaratish maqsadida tanlov va musobaqalardan iborat 5 bosqichli "Besh tashabbus olimpiadasi" 2 mavsumda o'tkazilib, ko'chalar kesimida jami 13 million nafardan ortiq farzandlarimiz qamrab olindi. Joylarda yuzlab madaniyat markazlari, barcha umumta'lim maktablarida esa yoshlarni madaniyat va san'atga jalb etishga qaratilgan to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yildi.

“Zakovat” intellektual o‘yinining ommaviy-ma’rifiy harakatga aylantirilishi orqali 2,6 million nafardan ortiq yoshlar qamrab olindi. Har bir maktab va oliygohda “Zakovat” klubi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Toshkent shahrida ushbu klub a‘zolari uchun alohida bino ajratilib, Intellektual o‘yinlar shaharchasi barpo etildi. Viloyatlarda esa “Intellektual parklar”, Bo‘stonliq tumanidagi yoshlar oromgohida “Intellektual maktab” tashkil qilinmoqda. Mazkur harakatni rag‘batlantirish maqsadida har yili davlat budjetidan mablag‘ ajratilishi belgilandi.

Yoshlarga munosib mehnat sharoitlarini yaratish va ularning bu boradagi qonuniy huquqlarini himoya qilish orqali imkoniyatlarini kengaytirish masalalari doimo diqqat markazimizda turibdi.

Yana bir muhim vazifa — avvalo, yoshlar bandligini ta‘minlash, munosib daromad olishi uchun ularga sharoit yaratib berishdan iborat. Albatta, farzandlarimizning har bir yutug‘i hammamizni g‘ururlantiradi. Lekin bu bilan cheklanib qolish kerak emas. Yoshlarimizning istagini, ehtiyojini, ertangi yorug‘ kunini ta‘minlash uchun yana nimalar qilish mumkin? Ularning bilim va kasblarni chuqur egallashi, salohiyatini yuzaga chiqarishi uchun qanday yordam berish kerak? Ana shu savollar meni ko‘proq o‘ylantiradi.

Har bir yosh haqida uning ota-onasi qanchalik qayg‘ursa, men ham shunday qayg‘uraman. Shu bois doim yoshlarning fikrlari, takliflarini eshitib borishga harakat qilaman.

Qayd etish zarurki, o‘tgan vaqt davomida mamlakatimizda yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta‘minlash, davlat fuqarolik xizmatiga tayyorlash borasida mutlaqo yangi tizim yaratildi. “Yoshlar dasturlari” va “Yoshlar daftari” hayotga tatbiq etilmoqda.

Mahallabay o‘rganishlar orqali har bir mahalla, tuman, shahar va viloyat kesimida qancha yoshlarni kasb-hunarga o‘qitish, qanchasini ish bilan ta‘minlash, nechta startap va tadbirkorlik loyihasini amalga

oshirish, tadbirkorlikka jalb etish, shuningdek, ular o'rtasida madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari va kitobxonlikni rivojlantirish belgilanmoqda. Bu esa bizga yoshlar bilan ishlash bo'yicha "bandlik", "innovatsiya" va "investitsiya" dasturi bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu tizimni raqamlashtirish, yoshlarga berilayotgan imtiyozlar shaffofligini ta'minlash va joylarda amalga oshirilayotgan ishlarni 3 bosqichda monitoring qilib borish imkonini beruvchi "yoshlardaftari.uz" elektron platformasi ishga tushirildi.

Yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida har bir tuman, shahar va viloyatda moliyaviy manbalari aniq belgilangan alohida "Yoshlar daftari" jamg'armalari tashkil etildi hamda ular uchun zarur mablag'lar shakllantirildi. Yuz minglab yoshlar kasb-hunarga, tadbirkorlikka o'qitildi. Bundan tashqari, yoshlarni talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasb-hunarlariga masofaviy o'qitish maqsadida www.e-kasb.uz platformasi ishga tushirildi.

"Ishga marhamat" monomarkazlarida minglab yigit-qizlarga mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan elektrik, santexnik, payvandchi, oshpaz, qandolatchi, sartarosh va tikuvchi kasblari o'rgatilmoqda. Ularga jahon standartlari darajasida ko'nikma berish maqsadida Germaniya, Turkiya va Yaponiya davlatlaridan mutaxassislar jalb qilingan. Markaz qoshida xorijiy tillarni o'qitish ham yo'lga qo'yilgan.

O'rni kelganda yana bir muhim masalaga to'xtalmoqchiman. Ayni paytda mamlakatimiz mehnat bozoriga har yili 600 ming yosh kirib kelayotgan bo'lsa, kelgusi 10 yilda bu raqam 1 millionga yetadi. Birgina 2024-yilda "yoshlar balansi" bo'yicha 925 ming yigit-qizning bandligini ta'minlash zarur. Shuningdek, kollej, texnikum va oliy o'quv yurtlarini 300 ming yigit-qiz bitiradi.

Bunday sharoitda tadbirkorlik, ayniqsa, kichik va o'rta biznes sohasi yoshlarni ish bilan ta'minlashda eng katta imkoniyat va zaxira vazifasini o'tashi mumkin.

Shu bois navqiron avlod vakillarida tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish, ularni kasb-hunarga o'qitish va bandligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bu ishlarni, masalan, mahallada tashkil etish bo'yicha vertikal boshqaruv tizimi ishga tushirildi. Barcha mahallalarda fidoyi va tashabbuskor yoshlar yetakchilari tayinlandi. Bu tizim orqali yoshlarga 100 dan ortiq imkoniyatlar yaratildi, yetakchilarning tavsiyasi asosida ularni manzilli qo'llab-quvvatlash yo'lga qo'yildi. Natijada yoshlar murojaatlarini ko'rib chiqish muddati 30 kundan 5 kunga qisqardi.

Yoshlarning zamonaviy kasblar bilan mashg'ul bo'lishini ta'minlash uchun har bir viloyatda bittadan "Kreativ park" tashkil etish va ularga yiliga kamida 40 ming nafar o'g'il-qizlarimizni jalb qilish ishlari tizimli yo'lga qo'yildi.

"Hunarli kishi xor bo'lmas", deydi xalqimiz. Farzandlarimizning mohir hunarmandlar qo'lida kasb-hunar o'rganishiga e'tibor qaratdik. Ustoz ko'rgan bunday o'g'il-qizlarimiz ularning ko'magi bilan hayotda o'z o'rnini topishiga ishonchim komil. Demak, hududlarda "ustoz-shogird" an'anasini kuchaytirsak, nur ustiga nur bo'ladi. Bu ishga jalb etiladigan hunarmand ustalarni Bandlikka ko'maklashish jamg'armasidan moddiy rag'batlantirish tizimi joriy etiladi.

Yaqinda o'tkazilgan ijtimoiy so'rovlar aksariyat yoshlarimizda ijobiy motivatsiya, biznes va tadbirkorlik sohasida zarur bilim va malaka yetishmasligini ko'rsatdi. Demak, ularda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan ishlarni yanada kuchaytirish lozim.

Bundan tashqari, "Yoshlar — kelajagimiz" Davlat dasturi doirasida yoshlarning biznes loyihalarini qo'llab-quvvatlash, ularga imtiyozli kreditlar berish, hududlarda "Yosh tadbirkorlar" kovorking markazlari hamda "Yoshlar mehnat guzari" komplekslarini ishga tushirish orqali yangi ish o'rinlari yaratilmoqda.

Ayni paytda yurtimizda erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini tezkor rivojlantirish bo'yicha yetarli tajriba to'plandi. Ushbu tajriba asosida respublikamizning barcha shahar va tumanlarida "Yoshlar kichik sanoat zonolari" tashkil etilmoqda. Bu maskanlarda yoshlar loyihalarini amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan barcha infratuzilma obyektlari joylashtirilmoqda. Yoshlar loyihalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida soliq va boshqa imtiyozlarni berish choralari ko'rildi.

Oxirgi uch yilda 250 ming nafar yoshga 6 trillion so'mdan ziyod imtiyozli kreditlar ajratildi. Mamlakatimiz bo'yicha 210 ta "Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonolari" tashkil etilib, shu paytgacha ularda 4 trillion so'mlik 2,5 mingta loyiha amalga oshirildi. Natijada keyingi 6 yilda yurtimizda 30 yoshgacha bo'lgan tadbirkorlar soni 8 barobar oshib, 750 mingdan ortiqni tashkil etdi.

Shuningdek, Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi orqali har bir viloyatga yoshlarning tadbirkorlik loyihalari uchun imtiyozli kredit mablag'larini yo'naltirish yo'lga qo'yildi.

Shubhasiz, bunday keng ko'lamlı chora-tadbir yoshlarning turli sohalarda o'zini namoyon etishiga, jamiyat rivojiga munosib hissa qo'shishiga xizmat qilmoqda.

Sirtidan qaraganda, bular oddiy raqamlardek tuyulishi mumkin. Ammo ularning ortida muammolari hal etilgan, og'iri yengil qilingan, uy-joyli bo'lgan, oyoqqa turib, o'z biznesini boshlab yuborgan, kasb-hunar egallab ishga joylashgan, oilaviy hayotini yo'lga qo'yib olgan, fermerlik bilan samarali shug'ullanayotgan yuz minglab yoshlar turganini unutmazlik lozim.

Aholi, xususan, yoshlar bandligini ta'minlashda qishloq xo'jaligi sohasi keng imkoniyatlarga ega. Oldingi yillarda shu maqsadda 200 ming gektar paxta va g'alla maydonlari qisqartirilib, dehqonchilik uchun odamlarga bo'lib berilgan edi. 2024-yil yana 60 ming gektardan ziyod yer maydonini yoshlar uchun ajratish belgilangan.

Bunday imkoniyatdan samarali foydalanilishiga ko'maklashish maqsadida yangi tartib o'rnatildi. Unga ko'ra, tuman hokimlari yerni suv ta'minoti yaxshi joydan ajratishga mas'ul bo'ldi. Har bir yoshga qancha maydon ajratish bo'yicha "mahalla yettiligi" taklif beradi. Yerga ega bo'lgan yoshlar "Fermerlar maktabi"da hosildor, eksportbop ekinlar yetishtirishga o'qitiladi. Mini-texnika, urug' va ko'chatlar sotib olish uchun "Yoshlar daftari" jamg'armasi hamda Fermerlar jamg'armasidan subsidiya ajratiladi. Dehqon yoshlarga eksportchi va qayta ishlovchi tadbirkorlar kooperatsiya asosida birlashtiriladi. Bundan tashqari, meva-sabzavot kooperatsiyalariga banklar orqali 2 milliard so'mgacha kredit ham beriladi.

Hozirgi kunda yoshlarbop istiqbolli sohalardan yana biri bu — raqamli texnologiyalar. Shu bois "Har bir mahalladan — ikki nafar dasturchi" loyihasi ishlab chiqilgan. Bu yil axborot texnologiyalari sohasida 70 ming yoshni band qilish rejalashtirilgan.

Shuningdek, yoshlarni ish bilan ta'minlash va ularga kasb-hunar o'rgatishga qaratilgan "Hayot maktabi" dasturini amalga oshirish, yoshlar o'rtasida "Kasb-hunar olimpiadalari" tashkil qilish choralari ko'rilmogda.

Muhimi, bu vazifalarni faqat davlat o'z zimmasiga olayotgani yo'q, ko'pchilik tadbirkorlarimiz ham ushbu jarayonda faol ishtirok etib, muhim tashabbuslarni ilgari surmogda. Xususan, Savdo-sanoat palatasi o'zining hududiy o'quv markazlarida "Yoshlar: 1+1" dasturi doirasida uyushmagan va ishsiz yoshlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'rgatishni tashkil etdi, ayni paytda "Har bir tadbirkor — yoshlarga madadkor" tamoyili asosida 1 nafar tadbirkorga 1 nafardan ishsiz yoshlarni birlashtirishdek xayrli ishlarni amalga oshirmogda.

Mamlakatimizda ijtimoiy himoyaga muhtoj, nogironligi bor yoshlar, mehribonlik uylarida tarbiyalangan, yetim bolalar, boquvchisini yo'qotgan va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ham tizimli ishlar amalga oshirilmogda.

Xususan, bunday toifadagi yoshlar vazirlar va uning o'rinbosarlari, viloyat, tuman va shahar hokimlari, sektor rahbarlari, oliy o'quv yurtlari rektorlari, Milliy gvardiya va harbiy qism komandirlariga nomma-nom biriktirildi. Mas'ul shaxslar o'zining vasiyligidagi o'g'il-qizlarning kasb-hunar o'rganishiga, kredit, subsidiya va kafillik olish orqali bandligini ta'minlashiga ko'maklashmoqda.

Albatta, natijalar o'zimizniki, lekin hali bu borada yechimini kutayotgan muammolar ko'p. Ayniqsa, bugungi kunda yurtimizda rasman ishsiz yoshlar soni ko'pligi barchamizni tashvishga solishi shubhasiz.

Bu sohadagi ishlarni yanada aniq va manzilli tashkil etish maqsadida 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan 9 million nafar yigit-qiz alohida e'tiborga olindi. Bunda birinchi marta 25 ta vazirlik va idoraning ma'lumotlari yagona elektron bazaga jamlandi. Barcha yoshlarning ijtimoiy ahvoli, qobiliyati va qiziqishlari o'rganilib, "mahalladan vazirlikkacha" tizimida ishlash choralari belgilab olingan.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar farzandlarini qo'llab-quvvatlash, yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlash ishlari ham izchil davom ettiriladi. O'tgan davrda respublikamizda minglab yosh oilalar uchun arzon baholarda "Yoshlar uylari" qurilib, ularga boshlang'ich badal pullarini 20 yil davomida foizsiz qaytarish sharti bilan to'lab berish amaliyoti joriy etilgani xalqimiz tomonidan katta xursandchilik bilan kutib olinmoqda.

Ayni paytda yoshlar uylarini qurish dasturi amalga oshirilmoqda. Jumladan, 18 yoshga to'lgan, uy-joyga muhtoj yetim bolalarga yangi qurilgan uy-joylar bepul ajratiladi.

Xalqimiz azaldan oilani muqaddas bilib, uni doimo asrab-avaylab keladi. Zotan, oila qanchalik mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shunchalik barqaror bo'ladi. Shuning uchun navqiron avlod vakillarini ijtimoiy himoya qilish va yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida to'lov-kontrakt asosida tahsil olayotgan talabalar uchun ta'lim krediti

ajratishning yangi tizimi yo'lga qo'yilib, bugungi kunga qadar ularning 151 ming nafariga 1,7 trillion so'm imtiyozli ta'lim kreditlari berildi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar ta'lim-tarbiyasi bo'yicha ham yangi tizim joriy etiladi. Xususan, mamlakatimizda ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni tarbiyalash va qo'llab-quvvatlashning bir necha tuzilmalari yo'lga qo'yilgan. Bolalar uyi, Mehribonlik uyi va Bolalar shaharchasida maxsus maktab-internatlar tashkil qilinib, bolalarni homiylik, vasiylik va oila patronati qaramog'ida tarbiyalash tizimi joriy etildi.

Mehribonlik uylaridagi bolalarning oilaga yaqin muhitda yashashini ta'minlash, ularni bilimli va ma'naviyatli, vatanparvar insonlar etib voyaga yetkazish bo'yicha ham yangi tizim joriy qilinishi belgilandi. Unga ko'ra, 16 ta Mehribonlik uyi va 4 ta Bolalar shaharchasidagi yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi mas'ul bo'ldi.

Mehribonlik uylaridagi bolalarga saboq berish, ularni axborot texnologiyalari, xorijiy tillar, kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish, sport bilan shug'ullanishlarini tashkil etish bo'yicha yangi metodikalar ishlab chiqilmoqda. 14 yoshdan yuqori o'g'il-qizlarga talab yuqori bo'lgan kasblar o'rgatilmoqda.

Vasiylik, homiylik va patronatga olingan bolalar 18 yoshga to'lguniga qadar ular uchun mahalliy budjetdan, nogironligi bo'lganlarga esa respublika budjetidan mablag'lar ajratildi. Nogironligi bo'lgan bolalarni o'z qaramog'iga olgan oilalarga ularning parvarish davrini mehnat stajiga qo'shib hisoblash tartibi joriy etildi. Chin yetim, nogiron, Mehribonlik uyida tarbiyalangan va boquvchisini yo'qotgan talabalarning to'lov shartnoma mablag'larini qoplab berish ham yo'lga qo'yildi.

Yana bir yangilik: yetim yoki ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan iqtidorli talabalarning stipendiyasi miqdori 50 foizga oshirildi. Shuningdek, bunday talabalarga pensiya to'lash muddati amaldagi 18 yoshdan 23 yoshgacha uzaytirildi. Ularga zarur adabiyotlar sotib olishi

uchun har yili bir marta subsidiya beriladi. Zotan, mamlakatimizning kuch-qudrati va kelajagi mehr-oqibatdadir.

Shu o'rinda yana bir dolzarb masala: yurtimizda bir necha farzandi oliygohlarda tahsil olayotgan ota-onalarning aksariyati o'qish xarajatlarini qoplashda qiynalayotgani ham bor gap. Shuning uchun ikki va undan ortiq farzandi oliy o'quv yurtida shartnoma asosida o'qiyotgan oilalarga imtiyozli ta'lim krediti berish tartibi ishlab chiqildi. Eng muhimi, ushbu kreditni yoshlar o'qishni tamomlab, ishga joylashganidan so'ng qaytarishi belgilandi.

Yoshlarni vatanparvarlik, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, har qanday zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga nisbatan qat'iy ishonch va shaxsiy qarashlariga ega insonlar qilib tarbiyalash muhim vazifalarimizdan biri sanaladi.

Bu borada, ayniqsa, katta hayotiy tajribaga ega donishmand qariyalarimizning ko'magi qo'l kelishi shubhasiz. Shuning uchun **“Bir nuroniya — o'n nafar yosh”** tamoyili ostida 128 mingdan ziyod tarbiyasi og'ir, jinoyatchilikka moyil va ishsiz yoshlar faxriy nuroniylarga birlashtirilib, mahallalarda 61 mingga yaqin **“Nuroniylar va yoshlar”**, **“Ikki avlod uchrashuvi”** kabi tadbirlar o'tkazildi.

Hozirgi paytda jahonning ko'plab mintaqalarida keskin vaziyat saqlanib qolayotgani, turli nizo va ziddiyatlar avj olayotgani bizni ham tashvishga solishi tabiiy. Buning ustiga, dunyoda terrorizm, ekstremizm va boshqa tahdidlarga qarshi kurashish oson kechmayapti.

Afsuski, ba'zi yoshlarimizda internetdan to'g'ri foydalanish ko'nikmasi va madaniyati yetarli emas. Ayrim yigit-qizlar internetni axborot, bilim va ma'rifat manbai deb emas, balki shunchaki ko'ngilochar vosita deb bilishadi. Ekstremistik faoliyat va zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlarning aksariyati 30 yoshga yetmagan yoshlar tomonidan sodir etilayotgani ham bejiz emas.

Demak, yoshlar orasida zo'ravonlik g'oyasi "virusi" tarqalishining oldini olish ham o'ta dolzarb masalalar sirasiga kiradi. Yoshlarimiz ham mana shunday mafkuraviy kurash sharoitida sezgir va ogoh bo'lishi, har bir masalada, avvalo, Vatan manfaatini o'ylab ish tutishi zarur.

Ilm-ma'rifat va kasb-hunarga intilish, oilani muqaddas bilish, ma'naviy poklik, kattalarga hurmat, kichiklarga shafqat, ezgu qadriyatlarga sadoqat kabi fazilatlar azaldan xalqimiz va millatimizning qonida yashab kelgan. Biz mana shunday bebaho merosimizni nafaqat asrashimiz kerak, balki uni yanada boyitib, kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish uchun ham mas'ulmiz.

Xalqimizning ma'naviy qudrati va boqiy qadriyatlarini asrab-avaylash va butun dunyoga tarannum etish uchun yoshlarimizning kuchi ham, salohiyati ham yetarli. Hamma gap ularning mana shu ezgu yo'lda belini mahkam bog'lab, astoydil harakat qilishiga bog'liq.

Yoshlarimiz kelajakda bizning munosib vorislarimiz bo'lsin desak, ularning faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashimiz va eng muhimi, ularni qiynayotgan muammolarni aniqlab, zudlik bilan hal etishimiz darkor.

Ma'lumotlarga ko'ra, ona sayyoramiz aholisining yarmidan ko'pini 30 yoshgacha bo'lgan insonlar tashkil etsa-da, dunyo bo'yicha yosh deputatlarning ulushi 2,6 foizga ham yetmas ekan. Yaqinda yurtimizga kelgan bir oliy martabali mehmon O'zbekistonda mazkur ko'rsatkich 6 foizdan oshganini yuqori baholadi. Albatta, bunday e'tirof barchamizga ko'tarinki ruh bag'ishlaydi.

Biz ushbu g'oyat muhim yo'nalishdagi ishlarimizni izchil davom ettirib, Parlamentlararo ittifoq ko'magida **"Biz parlamentda yoshlarni qo'llab-quvvatlaymiz!"** degan ezgu tashabbusni amalga oshiramiz. Ushbu tizim asosida siyosiy yetuk va faol yigit-qizlarni milliy parlamentimiz va mahalliy kengashlar faoliyatiga yanada kengroq jalb etamiz.

Xalq deputatlari kengashlari tavsiyasi asosida navqiron, serg'ayrat va fidoyi o'g'il-qizlarimiz Oliy Majlis deputati va senatorlariga birlashtiriladi. Umuman, yosh kadrlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va tarbiyalashga qaratilgan siyosatimizni qat'iy davom ettiramiz. Bundan buyon viloyat, tuman va shahar kengashlari har yili hokim, vazir, idora va bank rahbarligiga kamida 2 nafardan yosh nomzodlar zaxirasini tasdiqlaydi.

Yoshlarimizning liderlik qobiliyatini kuchaytirish, faolligini oshirish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ilg'or ish tajribalarini ommalashtirish uchun "Kamalak yulduzlari", "Yilning eng faol yoshlar yetakchisi", "Yil sardori" kabi ko'rik-tanlovlar muntazam o'tkazib boriladi. Quvonarlisi, keyingi yillarda Vatanimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shib kelayotgan ana shunday qalbi qaynoq yoshlarning 758 nafari davlat mukofotlariga sazovor bo'lishdi. Jumladan, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida o'zining faolligi va tashabbuskorligi bilan tengdoshlariga o'rnak bo'layotgan 143 nafar yoshlar "Mard o'g'lon" davlat mukofoti bilan, 105 nafari esa "Kelajak bunyodkori" medali bilan taqdirlandi.

Yoshlar borasidagi islohotlarimiz nafaqat yurtimizda, balki xorijiy davlatlarda ham e'tirof etilmoqda. Xususan, O'zbekistonning BMT Bosh Assambleyasida "Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasi"ni ishlab chiqish haqidagi taklifi xalqaro hamjamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Ushbu konvensiyaning qabul qilinishi jahondagi 2 milliarddan ortiq yigit-qizlarning haq-huquqlarini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lishi e'tirof etildi. Chunki mazkur hujjat yosh avlodni ma'rifiy ruhda tarbiyalash, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularning manfaatlarini himoya qilish, o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun sharoit yaratishdek ezgu maqsadlarni nazarda tutadi.

Yoshlar siyosati bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalardan samarali foydalanish, bu borada tizimli hamkorlikni rivojlantirish maqsadida 13 ta xorijiy yoshlar tashkilotlari bilan aloqalar yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, O'zbekiston SHHT Yoshlar kengashiga, MDHga a'zo mamlakatlarning Yoshlar ishlari bo'yicha kengashiga, Osiyoda o'zaro ishonch choralari bo'yicha kengashning Yoshlar bo'yicha kengashiga a'zolikka qabul qilingan.

O'zbekiston tashabbuslari bilan Markaziy Osiyo yoshlar forumi, SHHTga a'zo mamlakatlar Yoshlar kengashining 15-yig'ilishi, ushbu tashkilotga a'zo mamlakatlar yoshlari o'rtasida eng yaxshi startap loyihasi tanlovi, Turkiy davlatlar tashkilotining IV Yosh liderlar forumi o'tkazildi. **Buxoro shahri birinchi turkiy dunyo yoshlari tashabbuslari poytaxti** deb e'lon qilindi, 2022-yil turkiy dunyoda **“Yoshlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash yili”** deb e'lon qilindi.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo hududida yoshlar va ularning salohiyatini ro'yobga chiqarish masalasi, ayniqsa, dolzarb ahamiyatga ega. Shu bois ushbu sohada hamkorlikni kuchaytirish maqsadida mintaqamiz davlatlari tomonidan **Yoshlar siyosatining umumiy yo'nalishlari haqidagi bitim imzolandi.**

Bu sohada BMT va uning ixtisoslashgan tuzilmalari bilan samarali hamkorlik o'rnatish maqsadida Markaziy Osiyo yoshlarini rivojlantirishga ko'maklashish bo'yicha ishchi guruh tashkil etilib, ayni paytda **“Markaziy Osiyo yoshlarining kun tartibi — 2030”** dasturi ishlab chiqilmoqda.

Azm-u shijoatli, vatanparvar sportchi yoshlar — katta boyligimiz

Ma'lumki, xalqaro Olimpiya o'yinlarida Yer yuzining eng zo'r, manaman degan sport ustalari ishtirok etadi. Bunday olamshumul musobaqalarda g'olib bo'lgan farzandlarimiz sha'niga madhiyamiz yangrab, Vatanimiz bayrog'i baland ko'tarilgan damlarda barchamizni cheksiz hayajon qamrab olib, ko'ngillarimiz cheksiz g'ururga to'ladi.

Zotan, atoqli shoirimiz Erkin Vohidov aytganidek, yoshlikdagi kuch-g'ayratni el-yurtiga baxsh etgan yigit-qizlardan Vatan ham, xalq ham rozi bo'ladi.

Yoshlik insonning kamolot osmonida yulduzdek porlaydigan bebaho davridir. Yangi O'zbekiston farzandlarining sport sohasida erishgan muvaffaqiyatlari ham bu fikrni amalda isbotlamoqda.

Sport — yoshlarni ijtimoiy hayotga integratsiya qilish, ularni jismonan va ruhan kuchli qilib tarbiyalash, irodasini metindek mustahkam qilishning eng samarali omilidir. Yoshlar faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan sportga an'anaviy ravishda sog'lom turmush tarzining muhim ko'rsatkichi sifatida qaraladi. Negaki sport insonni nojoiz odatlardan himoya qilib, uning nafaqat jismoniy, balki ma'naviy jihatdan ham yuksalishiga yordam beradi.

Keng ko'lamli islohotlar jarayonida O'zbekistonda alohida Sportni rivojlantirish vazirligi tashkil qilinib, uning zimmasiga ushbu sohada yagona davlat siyosatini amalga oshirish, tegishli kompleks dasturlar ishlab chiqish va amalga oshirish, aholi o'rtasida sportni ommalashtirish va sog'lom turmush tarziga keng jalb etish, Olimpiya va Paralimpiya harakatini rivojlantirish, vakillarimizning nufuzli xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirokini ta'minlash kabi bir qator muhim vazifalar yuklatildi.

Bu ishlar allaqachon o'z samarasini bermoqda. Ayni paytda yosh sportchilarimiz dunyo miqyosidagi nufuzli musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etib, birgina 2023-yil 247 ta oltin, 119 ta kumush, 110 ta bronza medal sohibiga aylangani ham shundan dalolat beradi.

Bugun respublika bo'yicha 51651 ta sport inshooti, umumta'lim maktablari hamda bolalar va o'smirlar sport maktablaridagi 149 mingdan ortiq sport to'garaklariga 2,7 millionga yaqin yoshlar jalb etilgan. Sport yo'nalishida tashkil etilgan loyiha va tanlovlarga jami 6,4 million nafar yoshlar qamrab olindi. Musobaqalarda g'olib bo'lgan yoshlar yashaydigan

mahallalarda mini-futbol, vorkaut, stritbol kabi sport majmualari barpo etildi va u yerda tayyorgarlikdan o'tayotgan yoshlarga sport razryadlari berilishi yo'lga qo'yildi.

2023-yilda 100 mingdan ortiq yigit-qizlar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomada ular o'z mahallasida sport bilan shug'ullanish istagini bildirgan. Shu bois birinchi bosqichda viloyatlar markazlarida, keyinchalik tumanlarda kecha-yu kunduz ishlaydigan yoshlar sayilgohlarini tashkil etish vazifasi qo'yildi. Ularda sport, kibersport va intellektual o'yinlar, kitobxonlik, karaoke uchun sharoitlar ko'zda tutilgan. Shuningdek, har bir tumanda "Yoshlar sayli" va ijod ko'challari, oliy o'quv yurtlarida sport ligalari, kovorking va teatr studiyalari tashkil qilinadi.

Yurtimizda yosh avlodning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish, ularni ommaviy sportga keng jalb etish maqsadida "Sog'lom turmush tarzi" elektron platformasi ishlab chiqilmoqda. Piyoda va velosipedda yurishga mo'ljallangan "Salomatlik yo'laklari" barpo etilmoqda. Mahallalarda tashkil etilgan sport maydonchalari ham yoshlarning sevimli maskaniga aylandi.

Shu tariqa aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, yoshlarning vaqtini mazmunli o'tkazishda sport katta o'rin egallab bormoqda. "Besh tashabbus" olimpiadasi, respublika chempionatlari tobora ommalashmoqda. Bu jarayonda olimpiya sport turlarini rivojlantirib, mahoratli sportchilarni tayyorlashga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ayniqsa, futbolni rivojlantirish borasida katta hajmdagi ishlar amalga oshirilishi natijasida mamlakatimizda mazkur sport turi yoshlarning eng sevimli mashg'ulotlaridan biriga aylandi. Hozir deyarli hamma futbol muxlisi hisoblanadi. Demak, uni yanada ommalashtirsak, natijasi yaxshi bo'ladi. Misol uchun, yurtimizdagi 10 mingdan ziyod maktab, 208 dan ortiq tuman va shaharlarning o'z futbol jamoalarini tuzish mumkin.

Qolaversa, futbolga mehr qo'ygan bolalarning hayotda o'z yo'lini topishi haqida o'ylashimiz kerak. Chunki professional futbolchilar ma'lum bir davrdan so'ng sportchilar ta'biri bilan aytganda, "butsasini mixga ilishadi". Shundan so'ng bekorchiga aylanib qolmasligi uchun ularga qo'shimcha kasb-hunar berish haqida ham o'ylash zarur.

Shu bois iqtidorli futbolchilarni tanlash va tayyorlashning uzviyligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi huzurida 14 ta futbol maktabi, "Do'stlik" stadioni negizida barcha yosh toifalari uchun Terma jamoalar markazi tashkil etiladi. Futbol bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash markazining faoliyati takomillashtirilib, Xorvatiya, Yaponiya va futboli rivojlangan boshqa davlatlardan mutaxassislar jalb qilinmoqda.

Soha infratuzilmasini rivojlantirish uchun O'zbekiston futbolini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tuziladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari hududiy futbol assotsiatsiyalariga rahbarlik qiladi.

2024-yildan boshlab Angliya maktablari futbol assotsiatsiyasi tajribasi asosida 8–11-sinf o'quvchilari orasidan maktab futbol yetakchisi tanlab olinadi. Hozirda esa, 12–15 yoshlilar o'rtasida ikki bosqichli "Mahalla ligasi" hamda 16–30 yosh toifalari orasida uch bosqichli Davlat xavfsizlik xizmati kubogi musobaqalarini o'tkazish yo'lga qo'yildi.

Bunday chora-tadbirlar mahallalardan boshlab futbol infratuzilmasini rivojlantirish, iqtidorli yoshlarni tanlash va qo'llab-quvvatlash, milliy terma jamoalar uchun sifatli zaxira shakllantirishga xizmat qiladi.

Futbolchilarda Vatan tuyg'usini shakllantirish ham muhim. Chunki ularning ko'pchiligi dunyo kezib, xorijiy jamoalarda o'ynashi mumkin. Ta'bir joiz bo'lsa, ular ham yurtimizning chet davlatlardagi elchisi hisoblanadi. Shunday ekan, ular mamlakatimiz tarixini, xalqimizning qadriyat va an'analarini yaxshi bilishi kerak.

Yaqinda Qatar davlatida yoshlar o'rtasida o'tkazilgan Osiyo kubogida bizning futbolchilarimiz muvaffaqiyatli ishtirok etib, musobaqa finaliga qadar yetib borishgani va mamlakatimiz tarixida birinchi marta Parijda o'tkaziladigan Olimpiya o'yinlari yo'llanmasini qo'lga kiritgani ham sohada amalga oshirilayotgan islohotlarimiz samarasidir. Futbolchilarimizning bunday yorqin g'alabasi nafaqat futbol muxlislari, balki butun xalqimizga cheksiz quvonch va g'urur bag'ishladi. Chunki terma jamoamizning jahon Olimpiya o'yinlarida ishtirokini ko'rish el-yurtimizning ko'p yillik orzusi edi.

Yana bir muhim jihati, ayollar o'rtasida sportni rivojlantirish maqsadida amalga oshirilayotgan ishlar ijobiy natijalar bermoqda. O'zbekiston tarixida birinchi bor 28 nafar sportchi xotin-qizlarimiz 2020-yilgi Tokio Olimpiadasiga yo'llanmalarni qo'lga kiritgani ham shundan dalolat beradi. Bokschi qizlarimiz ham ilk bor Olimpiadaga 3 ta yo'llanmani qo'lga kiritishdi. Natijada boks bo'yicha jami litsenziyalar soni 11 tani tashkil etdi. Ushbu Olimpiya o'yinlarida dunyoda bor-yo'g'i uchta davlat shuncha bokschi bilan ishtirok etganini hisobga olsak, bu ham faxrlansa arzigulik ko'rsatkich ekanligi ma'lum bo'ladi. Qolaversa, sportchilarimiz 2023-yilda o'tkazilgan Osiyo o'yinlarida 22 ta oltin, 18 ta kumush, 31 ta bronza medalni qo'lga kiritib, O'zbekistonning ushbu musobaqalardagi rekordini yangiladilar.

Bir so'z bilan aytganda, ayni paytda O'zbekiston dunyoda boks mamlakati sifatida ham nom qozonmoqda.

Bu haqda gapirganda Surxon zaminidan yetishib chiqqan mashhur bokschimiz, Olimpiada va Osiyo o'yinlari g'olibi, ikki karra jahon va uch karra Osiyo chempioni **Bahodir Jalolov**ning xizmatlarini alohida tilga olish joiz. Ushbu yengilmas bokschimiz O'zbekiston sportining bayroqdori hisoblanadi. U keyingi yillarda professional boksdagi ham muvaffaqiyatli qatnashib kelmoqda. Yurtimizda bunday chempionlar faoliyatini targ'ib qilish orqali yosh sportchilarni tarbiyalashga alohida

ahamiyat qaratilmoqda. Shu maqsadda 2022-yili boks bo'yicha "Bahodir Jalolov sport mahorat maktabi" tashkil etildi.

Bu yerda xalqaro darajadagi bokschilarni tayyorlash, buning uchun yuqori malakali murabbiy va mutaxassislarni jalb etish, o'quv-mashg'ulotlarni xalqaro standartlar darajasida tashkil qilish hamda ilg'or tajribalar asosida uning sifatini oshirib borish yo'lga qo'yildi.

Sport gimnastikasi bo'yicha uch karra jahon chempioni, jahon kubogi sohibi **Oksana Chusovitina** — mamlakatimiz faxri. U sakkizta Olimpiadada qatnashgan yagona gimnastikachi sifatida Ginnesning rekordlar kitobiga kiritilgan.

Yurtimizda shunday sportchining borligi bo'lajak gimnastikachilarimizning haqiqiy baxti hisoblanadi. 2022-yili Oksana Chusovitinaning ixtisoslashtirilgan gimnastika sport maktabini tashkil etganimiz ham ularga katta imkoniyat yaratdi. Muassasa milliy terma jamoalar uchun xalqaro darajadagi sportchilarni tayyorlash, yuqori malakali murabbiy va mutaxassislarni jalb etib, o'quv-mashg'ulot jarayonini xalqaro standartlar darajasida tashkil qilish, murabbiylar va gimnastikachilar mahoratini muntazam oshirib borishga yo'naltirilgan.

Chusovitina izdoshlari o'tgan yili sport gimnastikasi va badiiy gimnastika bo'yicha xalqaro musobaqalarda 4 ta, respublika turnirlarida 6 ta va sport maktablari o'rtasida 24 ta medalni qo'lga kiritdi.

Nufuzli sport musobaqalarida yuksak marralarni zabt etishda boshqa qizlarimiz ham yigitlardan qolishmayapti. Xususan, iste'dodli sportchi qizimiz **Zaynab Dayibekova** Peruda qilichbozlik bo'yicha o'tkazilgan jahon kubogi o'yinlarida O'zbekiston sporti tarixida birinchi marta bronza medalini qo'lga kiritdi. Yana bir mahoratli qizimiz **Shahina Yigitaliyeva** esa, Paraosiyo o'yinlarida nayza otish bo'yicha oltin medalga sazovor bo'lib, mazkur musobaqalar rekordini yangiladi.

Bunday misollarni yana davom ettirish mumkin. Bularning barchasi O'zbekistonda Olimpiada harakati tobora rivojlanib, yangi, yuksak bosqichga ko'tarilayotganidan dalolat beradi.

2024-yilda sportchilarimizni g'oyat muhim va ulkan sinov — **Parij Olimpiadasi va Paralimpiya o'yinlari** kutmoqda. Ular jahonning eng zo'r sportchilari bellashadigan ana shu musobaqalarda O'zbekiston bayrog'ini baland ko'tarib, yurtimizga qo'sha-qo'sha medallar, yutuq va sovrinlar olib kelishiga ishonaman.

Biz Olimpiya va Paralimpiya zaxiralarini tayyorlash uchun munosib sharoitlar yaratish va 2024-yilgacha sport infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha davlat dasturini amalga oshirayapmiz. Mazkur jarayonda sport muassasalaridagi eskirgan jihozlarning qariyb 50 foizi yangilandi.

O'z navbatida, navbatdagi Olimpiya o'yinlari va yirik xalqaro sport musobaqalariga tizimli tayyorgarlik ko'rishimiz zarur.

Osiyo Olimpiya Kengashining qaroriga asosan 2025-yilda Yoshlar o'rtasidagi Osiyo o'yinlariga Toshkent shahri mezbonlik qilishi belgilandi. Mazkur musobaqada qit'amizdagi 45 ta davlat vakillari 20 ga yaqin sport turi bo'yicha o'zaro bellashadi. Bunday nufuzli xalqaro sport o'yinlarining O'zbekiston tarixida birinchi marotaba o'tkazilishi barchamizga faxr-iftixor bag'ishlash bilan birga, zimmamizga g'oyat katta mas'uliyat ham yuklaydi. Hozirgi vaqtda ushbu nufuzli musobaqalarni yuqori saviyada tashkil etish maqsadida poytaxtimizga yondosh hududda "**Olimpiya va Paralimpiya shaharchasi**"ni barpo etish ishlari jadal davom ettirilyapti.

Bugungi kunda respublikamizdagi Olimpiya zaxiralari kollejlariga 14 yoshdan katta o'smirlar qabul qilinmoqda. Ochig'i, bu amaliyot o'zini oqlamayapti. Aniqrog'i, yoshlarni Olimpiya o'yinlariga tayyorlashda kechikyapmiz. Shu bois rivojlangan davlatlarning bu boradagi ilg'or tajribalar atroflicha o'rganildi. Shu asosda sportchilarni professional tayyorlash tizimi isloh qilinadi. Ya'ni, ushbu yo'nalishdagi kollejlar Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari sifatida

qayta tashkil etiladi. Bu markazlar 5–9-sinflar uchun Olimpiya maktabi, 10–11-sinflar hamda 1–2-kurslar uchun Olimpiya va paralimpiya kolleji bo'lib xizmat qiladi.

Sportni rivojlantirish vazirligi huzurida ilg'or trenerlar va xorijiy ekspertlardan iborat “Murabbiylar kengashi” tuzilib, musobaqalarda eng yuqori natijaga erishgan yoshlar ana shu kollejlarga saralab olinadi. Kollej bitiruvchilari esa kelgusida Oliy sport mahorati institutiga qabul qilinadi. Shu tariqa mamlakatimizda professional sportchilar tayyorlashning uzluksiz tizimi yaratiladi.

Hozirgi vaqtda 20 ta istiqbolli olimpiya turini belgilab, ular bo'yicha hududiy “tayanch baza”larni tashkil etish choralari ko'rilmoqda.

Shuningdek, olimpiya sport turlari bo'yicha sportchilarni jismoniy va ruhiy jihatdan munosib tayyorlash hamda ularni sog'lom ovqatlantirish dasturlarini ham ishlab chiqish zarur. Buning uchun tezroq Jismoniy tarbiya va sport universitetida sport diyetologiyasi, muhandisligi va kardio-mashg'ulotlar, Tibbiyot akademiyasida sport meditsinasi va farmakologiyasi bo'yicha mutaxassislar tayyorlashni yo'lga qo'yishimiz kerak.

Olimpiya shaharchasida O'zbekiston davlat sport akademiyasi tashkil qilinishi ko'zda tutilgan. Ushbu muassasa huzuriga Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqot instituti hamda Mutaxassislar malakasini oshirish instituti ham o'tkaziladi. Akademiya tizimida Sport tibbiyoti ilmiy-amaliy markazi, Axborot kutubxona markazi, O'zbekiston tarixi va xorijiy tillarni o'qitish markazi ochiladi.

2025/2026 o'quv yilidan boshlab, akademiyaga 3 ta bakalavr yo'nalishi va 6 ta magistratura mutaxassisligi bo'yicha qabul boshlanadi. Bitiruvchi talabalarga to'g'ridan to'g'ri 6 yillik trenerlik malaka sertifikati beriladi. Olimpiya va paralimpiya kollejaridan seleksiya qilingan bitiruvchilar to'g'ridan to'g'ri ikkinchi kursga qabul qilinadi.

Kurash — ming yillik qadriyatimiz va milliy sportimiz. Dunyoda bu bilan 30 million, O'zbekistonda 30 ming kishi professional

shug'ullanmoqda. Havaskor yoshlar bundan ham ko'p. Shuning uchun har bir viloyat markazida Kurash mahorat maktablari tashkil etilishi rejalashtirilgan. Mahorat maktabida 140 nafar o'quvchi bo'ladi, ular 5–11-sinf bolalari orasidan tanlab olinadi.

Mamlakatimizda sport yo'nalishiga ixtisoslashgan ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatini oshirish, tegishli metodik dasturlar ishlab chiqish, sport diyetologiyasi, farmakologiyasi, psixologiyasi, sport muhandisligi, kardio-mashg'ulotlar bo'yicha mutaxassislar tayyorlash ishlari yo'lga qo'yilmoqda. Yosh avlodni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport obyektlari hamda inshootlarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish borasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Xususan, so'nggi besh yilda sport sohasiga qariyb 4 trillion so'm yo'naltirilib, 118 ta yirik inshoot foydalanishga topshirildi va 110 tasi rekonstruksiya qilindi.

2022-yilda ilk bor mahallalardan boshlab yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga jalb qilish maqsadida sportning 9 ta turi bo'yicha besh bosqichli ommaviy sport musobaqalarini o'tkazish tizimi joriy qilindi. Uning qamrovini yanada kengaytirish uchun sport turlari 9 tadan 12 taga ko'paytirildi. Ushbu yangi tizim orqali uyushtirilgan sport musobaqalarida 7 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan 6 million 200 ming nafar o'g'il-qiz qamrab olindi. Ulardan eng iqtidorlilari saralab olinib, sport maktablariga jalb qilinmoqda.

Bunday yoshlarni musobaqalarda erishgan natijasiga qarab rag'batlantirish maqsadida ular istiqomat qiladigan mahallalar va olis qishloqlarda 344 ta ko'p funksiyali sport maydonchalari qurib berilmoqda. Shu yo'l bilan ushbu hududlarda sport infratuzilmasi yanada kengaymoqda.

Ma'lumki, yoshlarimizning iqtidorini rivojlantirishda intellektual o'yinlar ham muhim o'rin tutadi. 2022-yil Hindistonda bo'lib o'tgan 44-Butunjahon shaxmat olimpiadasida O'zbekiston jamoasi

championlikni qo'lga kiritgani butun dunyoga o'zbek xalqining intellektual salohiyati qay darajada yuqori ekanligini yana bir bor namoyish etdi. Iste'dodli yosh shaxmatchimiz Nodirbek Abdusattorov yaqinda Chexiyaning Praga shahrida o'tkazilgan nufuzli xalqaro turnirida yorqin g'alabalarga erishib, jahondagi eng kuchli to'rt shaxmatchining biriga aylandi.

2026-yili Butunjahon shaxmat olimpiadasi o'tkazish uchun aynan O'zbekiston tanlanganini ham ana shu salohiyatning e'tirofi sifatida baholash mumkin.

Bunday natijalar, tabiiyki, o'z-o'zidan paydo bo'lgani yo'q. Yurtimiz oldindan kuchli shaxmat maktabiga ega. Bugun ham bolalar o'rtasida "aql gimnastikasi"ga e'tibor doimo yuqori bo'lib kelgan. Ularning ana shu qiziqishlarini rag'batlantirish maqsadida Navoiy viloyatida To'dako'l xalqaro shaxmat maktabi barpo etildi. Zamonaviy infratuzilma bilan ta'minlangan ushbu maktab yil davomida 1 ming 700 nafar o'g'il-qizni o'qitish va 7,5 ming nafar yoshni turli tadbirlar bilan qamrab olish imkoniyatiga ega. U yerda shaxmat bo'yicha jahon va Osiyo chempionatlari, universiada kabi xalqaro musobaqalarni o'tkazish uchun barcha sharoit yaratilgan.

Kelajakda ushbu maktabga taniqli xalqaro grossmeysterlarni taklif etib, olis hududlardagi iqtidorli bolalar uchun shaxmat bo'yicha qisqa muddatli mahorat darslari tashkil etiladi. Bu maskan mamlakatimizdagi barcha umumta'lim maktablari uchun tajriba va metodika markaziga aylantirilib, shaxmat darslari onlayn shaklda yo'lga qo'yiladi.

Shu bilan birga, mamlakatimizda imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan yoshlarni sportga jalb etish va ularning jismoniy faolligini oshirish maqsadida para shaxmat va shashka, para yengil atletika, para stol tennisi va kibersport bo'yicha ommaviy sport musobaqalari o'tkazish yo'lga qo'yildi.

Biz kelgusi yili mamlakatimizda o'tkaziladigan Osiyo o'yinlariga iqtidorli yoshlarimizni tayyorlashga hozirdanoq kirishishimiz lozim. Shu maqsadda, Osiyo o'yinlari dasturiga kiritilgan sport turlari bo'yicha tuman, shahar, viloyat va respublika chempionatlari, "Hokim kubogi" musobaqalarini tashkil etish kerak.

Xususan, 2030-yilga qadar:

- ommaviy sport tadbirlarini tashkil etish orqali yoshlar qamrovini 8 milliondan oshirish;
- sport bilan shug'ullanishga jalb qilingan aholi ulushini 36 foizga yetkazish;
- jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan shug'ullanishi uchun kamida 5 mingta mahallada sport maydonchalarini barpo etish;
- respublikada sport bilan professional va doimiy shug'ullanuvchi yoshlar ulushini oshirish, sport-ta'lim muassasalarida muntazam mashg'ulotlar o'tkazadigan yoshlar sonini 1 million nafarga yetkazish, 130 ming nafarga yaqin yoshlarni sport bilan muntazam shug'ullanishiga imkoniyat yaratish;
- milliy terma jamoalarga yuqori malakali va natijador sportchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, 2030-yil Qatarining Doha shahrida bo'lib o'tadigan navbatdagi Osiyo o'yinlarida O'zbekiston sportchilarining umumjamo'a hisobida kuchli 5 talikka kirishiga erishish, razryadli va unvonli sportchilar sonini 25 ming nafarga, sport sohasida oliy ma'lumotli xodimlar ulushini 85 foizga, sohani rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqot va izlanishlar sonini 140 taga yetkazish;
- Olimpiya va paralimpiya harakatini rivojlantirish, olimpiya va paralimpiya o'yinlarida kuchli 15 ta mamlakat qatoridan o'rin egallashga erishish kabi choralar belgilangan.

Og'ir atletikani ommalashtirish maqsadida 3 bosqichli musobaqalar, Markaziy Osiyo va "**Uzbekistan Open**" ochiq chempionatlarini o'tkazish rejalashtirilgan.

Biz nafaqat yoshlarimiz, balki butun jamiyatimiz hayotini tubdan o'zgartirishga xizmat qilayotgan bunday ezgu ishlarimizni kelajakda ham izchil davom ettiramiz. Sport orqali yoshlarimizni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning salohiyat va iqtidorini rivojlantirish va ro'yobga chiqarish uchun imkoniyat va sharoitlarni yanada kengaytiramiz.

Ma'naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak

Insoniyat tarixiga nazar solinsa, dunyodagi ko'plab xalqlar avvalo, o'zining ma'naviy birligi va milliy g'oyasi orqali yuksalishga erishganiga guvoh bo'lish mumkin. Ma'naviy rivojlanish bu — vijdon, or-nomus va adolatni muqaddas bilib, el-yurt manfaati uchun astoydil harakat qilish demakdir. Ma'naviyat — jamiyat taraqqiyotini belgilovchi asosiy mezondir. Chunki odamlarning ma'naviyati yuksalgandagina jamiyatda tinchlik, xotirjamlik va taraqqiyot bo'ladi.

Yangi O'zbekiston mafkurasi — ezgulik, odamiylik, inson-parvarlik g'oyasidir. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, jamiyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlar barqarorligini tasavvur qilamiz. Ma'naviy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va rivojlantirish, shu asosda yosh avlodni ezgulik, umuminsoniy g'oyalarda ruhida voyaga yetkazish, ularda xalqimizning ma'naviy va ma'rifiy ideallariga yot bo'lgan zararli ta'sirlarga qarshi immunitetni kuchaytirish masalasi bugun har qachongidan ham dolzarbdir.

Darhaqiqat, agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz Yangi O'zbekistonni barpo etishda ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Ulardan biri — bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot bo'lsa, ikkinchisi — ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyatdir.

O'zbekiston — jahonshumul kashfiyotlar yurti. Yurtimiz zaminidan yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlarimiz o'zlarining olamshumul kashfiyot va ixtirolari bilan bashariyat sivilizatsiyasi taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan. Ularning bebaho ilmiy-ma'rifiy merosi butun insoniyatning ma'naviy mulkiga aylangan.

“O'zbekiston — 2030” strategiyasida yurtimizda barcha farovon va baxtli yashaydigan ma'rifatli jamiyat qurish, xalqaro maydonda o'zining munosib o'rniga ega bo'lgan Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha aniq maqsadlarni belgilab oldik.

Albatta, murakkab va sinovli davrda bunday ezgu ishlarni amalga oshirishimiz oson kechmaydi. Bu haqda so'z yuritganda ma'rifatparvar bobomiz Abdurauf Fitratning **“Bu dunyo kurash maydonidir. Bu maydonning quroli — sog'lom jism-u tan, o'tkir aql va yaxshi axloqdir”**, degan chuqur hayotiy mazmunga ega so'zlari yodimizga tushadi. Chindan ham, bugun jahonda iqtisodiy-siyosiy, g'oyaviy-mafkuraviy va boshqa ko'plab barcha jabhalarda tom ma'noda keskin kurash kechmoqda.

Tarixdan ma'lum, Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari — uyg'oq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san'at namoyandalari, ma'naviyat va ma'rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar. XX asr boshlarida xalqimizni ozodlik va ilm-ma'rifat uchun kurashga chorlagan jadid bobolarimizning sharaflari faoliyati buning yaqqol dalilidir.

Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga ilm-fan yutuqlarini chuqur o'zlashtirish bilan birga, milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiya topgan har tomonlama yetuk kadrlar suv va havodek zarur. Lekin ularni kim tarbiyalaydi? Albatta, ularni tarix saboqlari, zamon talablari asosida o'zimiz tarbiyalashimiz zarur.

Bu borada ma'rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun

poydevor bo'lib xizmat qilishi tabiiy. Bu kimgadir yoqadimi yoki yo'qmi, xalqimiz jadid bobolarimiz ko'rsatib bergan yo'ldan og'ishmay borishi kerak. Chunki ularning g'oya va dasturlari Yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un va hamohangdir.

“Tilda, fikrda, ishda birlik” degan ezgu g'oya bilan maydonga chiqqan jadidlar o'lkamizni jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, odamlarni g'afolat uyqusidan uyg'otishning asosiy yo'li — bilim va ma'rifatda, dunyoviy taraqqiyotni egallashda deb bilganlar. Ularning ilm-ma'rifat va mamlakatni yuksaltirish borasidagi qarashlari bugun ham o'zining qadri va ahamiyatini yo'qotmagan.

Shuning uchun biz ularning sharaflil ilmiy-ijodiy faoliyatini yanada chuqurroq o'rganish va ommalashtirish bo'yicha ko'plab ishlarni amalga oshiryapmiz. Masalan, poytaxtimizda tashkil etilgan **“Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlool va davlatchilik g'oyalari”** mavzusidagi xalqaro konferensiya jahon hamjamiyatida katta qiziqish va e'tibor uyg'otganidan ko'pchilik yaxshi xabardor.

Ma'rifatparvar jadidlarning Vatanimiz va jahon tarixidagi muhim o'rni va ahamiyatini, milliy istiqlolimizning ma'naviy asoslarini yaratishdagi fidoyiliklarini, ibratli hayoti va faoliyatini, boy ilmiy-ijodiy merosini chuqur o'rganish va faol targ'ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni yanada kengaytirish borasida Buxoro shahridagi tarixiy maskan — Xo'ja Gulrez ko'chasi 13-uy manzilida joylashgan Hovli Poyon majmuasida Jadidlar merosi davlat muzeyi tashkil etildi.

Muzey faoliyatining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

- jadidchilik harakatiga oid mamlakatimiz va xorijdagi turli manbalar va tarixiy hujjatlarni aniqlash, to'plash, saqlash, o'rganish, tiklash, nusxalash, e'lon qilish, ular asosida Muzey fondini boyitib borish va ekspozitsiyalarni yaratish, shuningdek, madaniy-ma'rifiy va ilmiy tadqiqot faoliyatini amalga oshirish;

- ma'rifatparvar jadidlarning Vatanimiz va jahon tarixidagi muhim o'rni va ahamiyatini, milliy istiqlolimizning ma'naviy asoslarini yaratishdagi hissasi va fidoyiliklarini haqqoniy yoritish, aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilish;

- muzey ekspozitsiyalarini yaratishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish, xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish va mustahkamlash.

Bu boradagi ishlarni kelgusida ham muntazam davom ettirish va yangi bosqichga ko'tarish davr talabidir.

Buyuk ma'rifatparvar bobolarimiz tomonidan olg'a surilgan g'oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-ma'rifiy va huquqiy-axloqiy qarashlar, turli millat va elatlar o'rtasida hamjihatlikni qaror toptirish va milliy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan intilishlar bugun xalqimiz, ayniqsa, yoshlar uchun chinakam ibrat namunasidir. Ularning og'ir mashaqqatlar bilan kechgan hayoti va jasorati bugungi tinch va osoyishta kunlarga osonlik bilan erishilmaganini eslatib, barchamizni milliy istiqlolimiz va jonajon Vatanimizni ko'z qorachig'iday asrab-avaylashga da'vat etib turadi.

Shu o'rinda yana bir bor ta'kidlab aytmoqchiman: bugun ma'naviyat boshqa sohalardan o'n qadam oldinda yurishi kerak, ma'naviyat chinakam ma'noda yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi shart!

Jamiyatning kelajagi porloq va buyuk bo'lishi uchun ma'naviyat sohasida taraqqiyot tamoyillariga asos bo'ladigan tayanch shart-sharoitlarni yaratishga kuchli ehtiyoj mavjud. Hozirgi jadal rivojlanish davrida iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar bilan bir qatorda ma'naviy-ma'rifiy sohada olib borilayotgan islohotlarimiz ham katta ahamiyat ega.

Xo'sh, biz hozirgi keskin sharoitda g'oyaviy-mafkuraviy sohada raqobatga tayyormizmi? Yosh avlodimiz tarbiyasi murakkab zamon talablariga javob beradimi?

Bu masalalar har birimizni jiddiy o'ylantirishi, tashvishga solishi kerak. Agar biz bu yorug' dunyoda “o'zbek”, “O'zbekiston” degan nomlar bilan yashab qolishni istasak, bu savollarga bugun javob topishimiz va ularni hal etish bo'yicha amaliy harakatlarni aynan bugun boshlashimiz shart. Negaki, ertaga kech bo'ladi.

Albatta, biz dunyo miqyosidagi iqtisodiy inqiroz va pandemiya ta'siriga qaramasdan, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni kuchaytirish bo'yicha katta ishlarni amalga oshirmoqdamiz. 2017-yil 3-avgustda ijodkor ziyolilar bilan uchrashuv hamda 2021-yil 19-yanvarda respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi yig'ilishda mamlakatimiz ziyolilari vakillari bilan bu borada atroflicha fikrlashib, bir qator vazifalarni belgilab olgan edik.

Ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi ishlarni yanada kuchaytirish maqsadida Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash maqsadli jamg'armasi hamda Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti tashkil etilganini aytish o'rinlidir. Shuningdek, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tizimidagi xodimlar soni ikki karra oshirilib, ularni moddiy rag'batlantirish choralari belgilandi. Ma'naviyat va ijod sohasini qo'llab-quvvatlash uchun har yili 45 milliard so'm mablag' ajratayapmiz.

Markaz tegishli vazirlik va idoralar, mahalliy hokimliklar bilan birgalikda joylarda ko'plab tadbirlar o'tkazmoqda. Xususan, “Ma'rifat ulashib” va “Kitob karvoni” aksiyalari doirasida 200 mingga yaqin kitoblar aholiga bepul tarqatildi. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, uning hududiy bo'linmalari tomonidan 11 mingdan ortiq media mahsulotlari tayyorlandi. Bu boradagi ishlarimizni yanada jadallashtirish uchun 2024-yildan boshlab har yili 100 milliard so'mdan mablag' yo'naltiriladi.

“Yoshlar uchun — ming kitob” loyihasida farzandlarimizga rag'bat beradigan eng mashhur ilmiy-ommabop kitoblarni o'zbek tiliga tarjima qilib, maktab va kutubxonalarga bepul tarqatish yo'lga qo'yilmoqda.

Albatta, bilimdon, zukko olimlarimiz, dunyo madaniyatiga juda katta hissa qo'shayotgan vatandoshlarimiz juda ko'p. Afsuski, ularning hayoti va faoliyatidan farzandlarimiz yaxshi xabardor emas. Vaholanki, dunyoga mashhur olimlarning ko'pchiligi bolalarga bag'ishlangan asarlar ham yozishgan. Masalan, mashhur fizik olim Albert Eynshteyn yosh kitobxonlar uchun o'zining nisbiylik nazariyasini sodda va tushunarli tilda sharhlab, alohida kitob chiqargani ma'lum.

Biz Muhammad Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino kabi buyuk ajdodlarimiz haqida ko'p gapiramiz. Ammo bolalarimiz ularning qaysi asarini o'qiy oladi? Yoki Ahmad Farg'oniy, Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi singari allomalarimizning bolalik davrini kim biladi?

Demak, ana shunday allomalarimizning yoshligi haqida kitoblar yozish, yozganda ham bolalarbop qilib yozish kerak. O'z sohasida ilmiy maktab yaratgan hurmatli olimlarimiz adiblar va noshirlar bilan hamkorlikda bolalar uchun qiziqarli va sermazmun kitoblar yaratishsa yaxshi bo'lardi.

Bu boradagi ishlarni rag'batlantirish va yangi bosqichga ko'tarish maqsadida mamlakatimizda **Xalqaro bolalar adabiyoti ko'rgazmasi** tashkil etilmoqda. Shuningdek, yurtimizda kitobxonlik va mutolaa madaniyatini yuksaltirish, turli yo'nalish va mavzulardagi adabiyotlarni chop etishni ko'paytirish uchun nashriyot va matbaa korxonalarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash zarur. Buning uchun ushbu korxonalar 5 yilga soliqlardan ozod qilinadi va ularga imtiyozli kreditlar ajratiladi.

Tarjima san'ati naqadar mashaqqatli ish ekanini adiblarimiz yaxshi biladilar. O'zbek adabiyotining eng yaxshi asarlarini xorijiy tillarga, jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'zbek tiliga tarjima qilishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, samarali ijod qilayotgan mohir tarjimonlarni munosib rag'batlantirish, badiiy tarjimaning saviyasini

yanada oshirish maqsadida badiiy tarjima sohasida **Muhammad Rizo Ogahiy nomidagi xalqaro mukofot** ta'sis etildi.

Ushbu xalqaro mukofot uchun tanlovlar 2025-yildan boshlab, har ikki yilda bir marta quyidagi yo'nalishlarda o'tkaziladi:

- o'zbek adabiyotining nasriy asarlaridan xorijiy tillarga qilingan eng yaxshi tarjima;

- o'zbek adabiyotining she'riy asarlaridan xorijiy tillarga qilingan eng yaxshi tarjima;

- o'zbek bolalar adabiyoti namunalaridan xorijiy tillarga qilingan eng yaxshi tarjima;

- xorijiy tillarda yaratilgan nasriy asarlardan o'zbek tiliga qilingan eng yaxshi tarjima;

- xorijiy tillarda yaratilgan she'riy asarlardan o'zbek tiliga qilingan eng yaxshi tarjima;

- xorijiy tillarda yaratilgan bolalar adabiyoti namunalaridan o'zbek tiliga qilingan eng yaxshi tarjima.

Bundan buyon milliy adabiyotimizning xorijiy tillarga tarjima qilingan eng sara asarlari hamda chet el adabiyotidan o'zbek tiliga o'girilgan eng sara asarlar aniqlanib, ularning tarjimonlari munosib rag'batlantirib boriladi.

So'nggi yillarda kutubxonalar faoliyatini rivojlantirishga ham katta e'tibor beryapmiz. Ayniqsa, Respublika bolalar kutubxonasi rekonstruksiya qilinganidan so'ng bu yerda butunlay yangicha adabiy-ma'rifiy muhit yuzaga keldi. Ayni paytda mening nabiralarim ham shu maskanga katta qiziqish bilan boryapti.

Xalqimizga ziyo ulashishga qaratilgan bunday ishlarni davom ettirib, endilikda Samarqand shahridagi bolalar kutubxonasini rekonstruksiya qilamiz. Keyinchalik hududlardagi bolalar kutubxonalarini ham bosqichma-bosqich kitobxon farzandlarimizning sevimli maskaniga aylantiramiz.

Keyingi paytlarda o'z hisobidan kutubxona barpo etayotgan tashabbuskor insonlar ko'payib borayotgani barchamizni mamnun etadi. Shu choqqacha 100 nafardan ziyod yurtdoshimiz bunday xayrli ishga qo'lgan. Jumladan, Marhamat tumanida faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkor Qobiljon Obidov 50 mingdan ziyod kitob va 300 mingta elektron adabiyotga ega bo'lgan uch qavatli zamonaviy kutubxona tashkil etgani e'tiborga loyiq.

Mana shunday fidoyi insonlar jadidlarning munosib davomchilari, bugungi kun qahramonlari emasmi? Biz bunday savobtalab yurtdoshlarimizni har tomonlama qo'llab-quvvatlab, ularga tegishli imtiyozlar berishga ham tayyormiz.

Bugungi kunda mamlakatimizda **internet adabiyotini rivojlantirish** ham muhim. Shu maqsadda internetda "**O'zbek madaniyati**" portalini yaratib, uning tarkibida adabiyot, kino, tarix, san'at, folklor platformalarini tashkil etish va doimiy faoliyat yuritishini ta'minlash zarur. Ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi ikki yilda ko'plab xorijiy mamlakatlarda o'zbekistonlik olim va adiblarning 150 ga yaqin kitobi hamda folklor merosimiz namunalari nashr etilgan. Lekin adabiyotimiz xazinasida dunyoga namoyish etsa arziydigan asarlar juda ko'p. Bu yo'nalishdagi ishlarni ham tizimli yo'lga qo'yib, chet ellik noshir va tarjimonlar bilan mustahkam hamkorlik o'rnatish lozim.

Ma'lumki, ko'plab xorijiy davlatlarda **homiyluk harakati** keng yoyilgan. Bunday ezgu tajriba bizning hayotimizga ham kirib kelayotganini olqishlash kerak. Ma'lumki, 2017-yilda ziyolilarimiz bilan o'tkazilgan uchrashuvimizdan so'ng ijodiy tashkilotlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 70 ga yaqin "Do'stlar klubi" tashkil etilgan edi. Qisqa muddatda bu yo'nalishda 85 milliard so'm homiyluk yordami ko'rsatildi. Shuning hisobidan ijodiy tashkilotlar faoliyatini yanada rivojlantirish, adib hamda san'atkorlarimizni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Milliy ma'naviyatimizning ajralmas qismi bo'lgan madaniyat, adabiyot va san'at, ommaviy axborot vositalarini rivojlantirishga ham alohida ahamiyat qaratilmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasining "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi qonunini qabul qilganimiz va mamlakatimizda har yili 15-aprel sanasini — Madaniyat va san'at xodimlari kuni etib belgilaganimiz soha rivojida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Iste'dodli yosh qalamkashlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida Zomin ijodiy seminari qayta tiklandi. Navqiron shoir va yozuvchilarning birinchi kitoblari davlat hisobidan katta tirajlarda nashr etilmoqda.

O'zbekistonning Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi tashabbusiga binoan o'zbek tilida "Turkiy adabiyot durdonalari" 100 jildlik to'plami-ning, shuningdek, "Mustaqillik davri navoiyshunosligi", "Qoraqalpoq adabiyoti durdonalari", "Mard askarga sovg'a" singari adabiy majmualarning chop etilishi ham ma'naviy hayotimizda muhim voqea bo'ldi.

Milliy an'analarimizni asrab-avaylash va boyitish maqsadida Maqom, Baxshichilik va Askiya san'ati markazlari tashkil etildi. Yoshlarimizni milliy va umumbashariy g'oyalar asosida kamol toptirishda madaniyat sohasi, xususan, teatr san'atining katta o'rni bor. Hozirgi kunda mamlakatimizda 40 ta teatr faoliyat ko'rsatmoqda. Har yili 40 ta yangi spektaklga davlat buyurtmasi berilmoqda. Buning uchun 2023-yilda 15 milliard so'm ajratildi. Teatr va kino dramaturgiyasini rivojlantirish maqsadida respublika "Nigoh" ijodiy seminari o'tkazildi.

O'tgan davrda yurtimizda 11 ta yangi muzey, 2 ta teatr, 28 ta bolalar musiqa va san'at maktabi, 5 ta oliygoh, shu jumladan, yangi avlod jurnalistlarini tayyorlash maqsadida O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti tashkil etildi.

Barcha korxonalar va muassasalarda oyning bir kunini "**Teatr kuni**" deb e'lon qilindi. Teatr san'atini rivojlantirish bo'yicha dastur qabul

qilinadi. Shunga asosan tarixiy va zamonaviy mavzular bo'yicha 20 ta eng yaxshi pyesa uchun ijodiy buyurtma berish va dramaturglarga 50 million so'mdan qalam haqi to'lash tizimi joriy etiladi, 50 nafar ijodiy va yordamchi xodimlarning rivojlangan davlatlar teatrlarida mahorat oshirishi yo'lga qo'yiladi. Shuningdek, yosh rejissorlarni qo'llab-quvvatlash uchun **Mannon Uyg'ur nomidagi mukofot** ta'sis etiladi.

Shuningdek, teatrlarimizga ijodiy repertuarini g'oyaviy-badiiy jihatdan yuqori saviyali asarlar bilan boyitishda ko'maklashishga e'tibor qaratiladi. Chunki ayni paytda sahnalashtirilayotgan asarlarda bugungi kunning nafasi, odamlarni oylantirayotgan jiddiy ijtimoiy muammolar yetarli darajada aksini topmayotganidan ko'z yumib bo'lmaydi. Muhtaram adib va dramaturglarimiz tarixiy shaxslar va zamonamiz qahramonlari obrazlarini yaratish bo'yicha jiddiyroq ijodiy izlanishlar olib borishsa, yaxshi bo'lardi.

Shu o'rinda, "Bugungi kunning qahramoni kim o'zi?" degan savol tug'ilishi mumkin. Men bunday qahramon formulasini sodda tarzda tushunaman. Ya'ni, halol-pok yashayotgan, o'z ishini vijdonan bajarib, Vatanimizga, xalqqa sadoqat tuyg'usi bilan boshqalarga o'rnak bo'layotgan odam chinakam qahramondir.

Misol uchun, koronavirus pandemiyasi sharoitida fidoyilik bilan mehnat qilgan shifokor va hamshiralar, harbiy xizmatchilar va boshqa soha vakillarining matonat va jasorati haqida badiiy asarlar, sahna va musiqa asarlari yaratilsa, xalqimiz mamnuniyat bilan kutib olishiga ishonaman.

Biz boy va betakror madaniy merosimizni dunyoga targ'ib etish bo'yicha alohida tizim yaratdik. Milliy madaniyat va san'atimizni jahonga tanitish maqsadida xalqaro maqom, baxshichilik, hunarmandchilik va "Lazgi" festivallariga asos solindi.

Bu boradagi katta ishlarimizdan yana biri — 24 ta xorijiy mamlakatda, jumladan, qo'shni davlatlarda ham "O'zbekiston

madaniyati kunlari” yuqori saviyada o'tkazildi. Ayniqsa, Fransiya, Germaniya, Xitoy, Saudiya Arabistoni kabi davlatlarda namoyish etilgan milliy madaniyatimizning noyob namunalari dunyo jamoatchiligini hayratga solgani va ular O'zbekistonni o'zlari uchun qaytadan kashf etgani barchamizni quvontiradi. Kelgusida Italiya, Buyuk Britaniya, Qatar, Birlashgan Arab Amirliklari va boshqa mamlakatlarda ham ana shunday ko'rgazmalar tashkil qilinadi.

Keyingi yillarda YUNESKONing Insoniyat nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga yana 9 ta milliy merosimiz namunasi, Buxoro shahri esa “Ijodkor shaharlar tarmog'i”ga kiritilganini alohida ta'kidlash lozim. 2023-yil sentabr oyida YUNESKO Bosh qarorgohida yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma Abu Rayhon Beruniyning 1050 yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlangani ham muhim voqea bo'ldi.

Ayni paytda xalqaro maydonda **madaniy diplomatiyamizning** o'rni tobora ortib bormoqda. Ma'lumki, **YUNESKO Bosh konferensiyasi sessiyalari** qariyb 40 yildan buyon faqat Parijda o'tkaziladi. 2025-yilda esa ushbu tashkilotning navbatdagi anjumanini birinchi marta boshqa shaharda, ya'ni, **Samarqandda o'tkazish belgilandi**. Ushbu nufuzli anjumanga Tashkilotga a'zo barcha davlatlardan vakillar tashrif buyuradi.

Hech shubhasiz, bu — O'zbekiston uchun katta ishonch, ayni paytda mas'uliyat hamdir. Shu bois mazkur nufuzli xalqaro tadbirga har jihatdan puxta tayyorgarlik ko'rishimiz kerak.

San'at insonlarni yanada yaqinlashtirish, ularni hamfikir qilish hamda go'zallikning yangi qirralarini kashf etishiga yordam beradi. Xorazm zaminida ming yillar davomida shakllanib, sayqal topib kelayotgan betakror lazgi raqsini xalqimizning cheksiz ijodkorlik salohiyatidan hikoya qiluvchi o'ziga xos dostonga qiyoslash mumkin. Lazgi raqsi kishiga cheksiz zavq va ilhom bag'ishlaydigan, vaqt va makon chegaralarini tan olmaydigan bemisl san'atdir.

Shuning uchun ushbu raqs turini asrab-avaylash va uning asriy an'analarini rivojlantirishga katta ahamiyat qaratilyapti. So'nggi vaqtlarda Xorazm viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan "Lazgi" ansamblining ko'plab xorijiy mamlakatlarga uyushtirilayotgan gastrol safarlari bebaho milliy madaniyatimiz yutuqlarini dunyoga targ'ib qilishda yaqindan yordam bermoqda. Shuningdek, Alisher Navoiy nomidagi davlat akademik katta teatrida italiyalik taniqli baletmeyster Raymondo Rebek tomonidan sahnalashtirilgan "Lazgi — muhabbat va qalb raqsi" balet spektakli Parij, Pekin, Boku, Dubay, Istanbul, Bursa, Dortmund, Moskva va Sankt-Peterburg shaharlarida muvaffaqiyatli namoyish qilinib, chet ellik minglab san'at muxlislarining qizg'in olqishiga sazovor bo'lgani ham kishiga mamnuniyat bag'ishlaydi.

O'tgan davrda o'zbek me'morchilik san'ati namunalari Italiyadagi Venetsiya me'morchilik biyennalesida namoyish qilindi. Ushbu biyennaleda taqdim etilgan "Chambarchas rishta" nomli tadqiqot ko'rgazma loyihasi O'zbekiston me'moriy merosining turli yo'nalishlarini qamrab olgani bilan ishtirokchilarda katta qiziqish uyg'otdi.

Shuningdek, Ozarbayjonning Boku shahrida "Choklardagi meros: O'zbekistonning kashtachilik va tikuvchilik an'analari bo'ylab sayohat" ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. Poytaxtimizda TURKSOYning 30 yillik yubileyi yuqori saviyada o'tkazildi.

Yaqin vaqtlarda Toshkentda kreativ iqtisodiyotga bag'ishlangan xalqaro konferensiya, Nukus shahrida "Orol madaniyati" xalqaro ilmiy anjumani, 2025-yilda Buxoroning tarixiy hududida ilk bor xalqaro tasviriy san'at anjumani o'tkaziladi. O'z navbatida, YUNESKO mezonlari asosida ushbu qadimiy shaharning master va menejment rejalarini ishlab chiqishga hozirlik ko'rilmogda.

Maqom va baxshichilik san'atini rivojlantirish, bu boradagi mavjud ijro va ijodiy maktablarni, uzoq yillik an'analarni ilmiy asosda o'rganish va ularni qayta tiklash ishlari yanada kuchaytirildi. Hozirga qadar

120 ta maqom, kuy-qo'shiqlar va baxshilar ijro etgan dostonlarning "oltin fond"ga yozib olingani mazkur yo'nalishdagi dastlabki qadamlarimiz sirasiga kiradi.

Xalq og'zaki ijodi durdonalarini keng targ'ib etib kelayotgan baxshilarimizning faoliyatini qo'llab-quvvatlash ham e'tiborimiz markazida bo'ladi. Hozirgi vaqtda san'atimizning "oltin fond"iga kiritilgan mumtoz va estrada musiqa asarlarini, folklor namunalarini raqamlashtirib, internetda keng targ'ib etish choralari ko'rilmogda. Nomoddiy madaniy meros namunalarini muhofaza qilish, ularni ilmiy o'rganish va targ'ib etish maqsadida yurtimizda Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros instituti tashkil etildi, "Alpomish" va "Go'ro'g'li" dostonlari hamda Farg'ona — Toshkent, Xorazm, Buxoro maqom yo'llaridagi musiqa asarlarini ilmiy tadqiq etish uchun maqsadli grantlar ajratish bo'yicha vazifalar aniq belgilab qo'yildi. Mamlakatimiz fondlarida saqlanayotgan 3 mingdan ziyod doston, maqom va folklor asarlarini zamonaviy formatga o'tkazish ham ko'zda tutilgan.

Kelgusida maqom, katta ashula, baxshichilik, kulolchilik, zargarlik, atlas va adras kabi 12 ta noyob madaniy meros namunalariga oid an'analarni davom ettiradigan maktablar ham tashkil etiladi.

Milliy musiqa va raqs san'atini tadqiq qilish, sohada ilmiy kadrlarni ko'paytirish maqsadida bu yo'nalishdagi tadqiqotlar uchun grantlar joriy qilinadi.

Tasviriy va amaliy san'at sohasini yanada rivojlantirish bo'yicha alohida dastur qabul qilinib, shu asosda, jumladan, Markaziy ko'rgazmalar zali jahon standartlari asosida rekonstruksiya qilinadi va jihozlanadi. Poytaxtimizning Chilonzor tumanida joylashgan Badiiy fond majmuasi hududida zamonaviy galereya binosi qurilib, u yerda 40 ta ijodiy ustaxonani birlashtirgan yosh rassomlar markazi tashkil etiladi. Qolaversa, tanlov asosida 20 nafar iste'dodli yosh rassom va haykaltarosh, san'atshunos va muzeyshunoslar xorijiy mamlakatlarga

stajirovkaga yuboriladi. Xattotlik va miniatura san'ati ta'limini amaliyot bilan bog'lash maqsadida milliy usulda qog'oz tayyorlash bo'yicha o'quv ishlab chiqarish ustaxonasini ochish rejalashtirilgan.

Poytaxtimizda o'zbek estrada san'atining asoschisi, O'zbekiston xalq artisti Botir Zokirov xotirasiga bag'ishlab muazzam haykal ochilgani madaniy hayotimizda katta voqea bo'ldi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Botir Zokirov ijodiy fenomeni milliy san'atimiz tarixida butun boshli bir davrni qamrab olgan.

2020-yilda tashkil etilgan O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada institutida bugun estrada vokal san'ati, cholg'u ijrochiligi, texnogen san'at, bastakorlik san'ati, san'atshunoslik, dirijorlik kabi yo'nalishlarda mutaxassislar tayyorlanmoqda. Bu maskanda 479 nafar talabaga tajribali professor-o'qituvchilar va taniqli san'atkorlarimiz ushbu san'at sirlaridan saboq berishmoqda.

Ulug' san'atkorimizning xotirasini abadiylashtirish, boy merosini chuqur o'rganish va jahon miqyosida targ'ib qilish bo'yicha boshlagan ishlarimizni ham izchil davom ettiramiz. Shu maqsadda Toshkent shahrida atoqli san'atkorning memorial muzeyini barpo etish, estrada san'ati bo'yicha uning nomidagi xalqaro ko'rik-tanlov tashkil qilish, madaniyat va san'at oliy o'quv yurtlarining talabalari uchun Botir Zokirov nomidagi davlat stipendiyasini joriy etish, hayoti va ijodiga bag'ishlangan badiiy filmni yaratish, Botir Zokirov nomidagi jamg'arma tashkil qilish hamda Milliy estrada simfonik orkestri faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash ishlari amalga oshiriladi.

Umuman, bugungi kunda O'zbekistonda madaniyat va san'at sohasini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash hajmi 2017-yilga nisbatan 5 karra oshirildi. 2023-yilda bu maqsadlar uchun 712 milliard so'mdan ortiq mablag' yo'naltirildi.

Biz 2021–2023-yillarda respublikamizdagi 195 ta tuman va shaharda Ma'naviyat va ma'rifat maskanlarini barpo etish bo'yicha manzilli ro'yxatni tasdiqlagan edik. Shu asosda Sirdaryo viloyatida 11 ta, Surxondaryo viloyatida 15 ta ana shunday majmualar foydalanishga topshirildi.

Shuningdek, zamonaviy adabiyotimizni yanada rivojlantirish maqsadida poytaxtimizda Adiblar xiyoboni, Yozuvchilar uyushmasining muhtasham binosi barpo etildi. Shuningdek, 110 nafar yozuvchi va shoirlar imtiyozli asosda yangi uy-joylar bilan ta'minlandi. O'lkamizning bahavo hududlarida ular uchun yangi zamonaviy oromgohlar qurib berdik. Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini moddiy qo'llab-quvvatlash uchun har yili qariyb 25 milliard so'm ajratilmoqda.

Aholining bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishda mavjud 837 ta madaniyat markazining faoliyatini kuchaytirish choralari ko'rilmogda. Jumladan, so'nggi yillarda yurtimizda 43 ta madaniyat markazi yangidan qurildi, 344 ta madaniyat markazida ta'mirlash va jihozlash ishlari amalga oshirildi. Bugungi kunda bunday markazlarda faoliyat ko'rsatayotgan 4 mingga yaqin to'garakda 120 mingdan ortiq yoshlar san'at sirlarini o'rganishmoqda. Birgina Farg'ona shahridagi madaniyat markazida 81 ta to'garak ochilib, mingga yaqin farzandlarimiz qamrab olingani e'tiborga loyiq.

Tahlillarga ko'ra, ayni paytda respublika bo'yicha 167 ta madaniyat markazi o'z binosiga ega emas, 283 tasining binosi avariya holatida. Ushbu markazlarda jami 8 mingta musiqa anjomiga ehtiyoj mavjud. Buning oqibatida 4 mingta mahallada yashayotgan aholi madaniy xizmatlardan foydalana olmayapti.

Tez orada ana shu muammolarga ham barham beramiz. Ya'ni, bundan buyon joylardagi madaniyat markazlarining holati uchun bevosita hokimlar javobgar bo'ladi. Kelgusi yildan boshlab har bir

tumanda sahnali zal, kutubxona, kinozal va to'garak xonalari mavjud bo'lgan 1 tadan madaniyat markazi faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Joylardagi 600 dan ziyod badiiy havaskorlik jamoalarining moddiy-texnika bazasini yaxshilash bo'yicha ham dastur qabul qilib, bunga 100 milliard so'm yo'naltiramiz. Muzeylar faoliyatini takomillashtirish bo'yicha yetti yillik dastur qabul qilinib, yurtimizdagi barcha muzeylar eksponatlarni saqlash va muhofaza qilishda asqotadigan zamonaviy uskunalar bilan jihozlanadi hamda ularda saqlanayotgan eng noyob eksponatlar markirovka qilinadi.

Innovatsion texnologiyalar asosida O'zbekiston tarixi davlat muzeyi hamda O'zbekiston davlat san'at muzeyi uchun yangi, zamonaviy yangi binolar barpo etiladi. Temuriylar tarixi davlat muzeyi hamda Tabiat muzeyining ekspozitsiyasi butunlay yangilanadi. Bundan tashqari, bir qator muzeylar va Islom sivilizatsiyasi markazida Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlari, davlatchiligimiz tarixi hamda buyuk allomalarimiz faoliyatiga bag'ishlangan yangi ekspozitsiyalar yaratiladi.

Bugungi kunga qadar yurtimizda xorijiy restavratorlar bilan birgalikda 238 ta noyob madaniy boyliklarimiz restavratsiya qilindi. Endilikda bu ishlarni yanada kuchaytirish maqsadida Fransiya bilan hamkorlikda Milliy restavratsiya markazi faoliyatini yo'lga qo'rganmiz. Yurtimizda saqlanayotgan muqaddas kitob — Usmon Qur'onining sahifalari ham konservatsiya va restavratsiya qilinyapti.

Hozirgi kunda O'zbekistonning qadimiy tarixiga bag'ishlangan 18 ta arxeologiya yodgorligini ochiq osmon ostidagi muzeyga aylantirishga hozirlik ko'rilmogda. Shuningdek, Samarqandda Sohibqiron Amir Temur bog'larini qayta tiklash barobarida, "Buyuk ipak yo'li" muzeyini barpo etish va Bibixonim majmuasini restavratsiya qilish ishlari ham olib boriladi.

So'nggi yillarda milliy kino san'atining rivojiga alohida e'tibor qaratayotganimiz natijasida ushbu soha qaytadan "uyg'ondi", desak

adashmagan bo'lamiz. Xalqimizning talabiga javob beradigan saviyali filmlar ham paydo bo'la boshladi. Qariyb chorak asrdan keyin Toshkent xalqaro kinofestivalini qayta tikladik. 2021-yildan buyon har yili jahonning 50 dan ortiq mamlakatidan yuzlab mashhur kino namoyandalari O'zbekistonga tashrif buyurmoqda. Alisher Navoiy nomidagi kinochilar uyi rekonstruksiya qilinib, zamonaviy qiyofaga ega bo'ldi, yangi "Renessans" kino uyi barpo etildi. Shuningdek, milliy filmlar yaratish uchun har yili davlat tomonidan ajratilayotgan mablag'lar hajmi ham tobora ortib bormoqda.

Shu bilan birga, kinematografiyani rivojlantirish uchun yana nimalar qilishimiz kerak, degan savol meni o'ylantiradi. Yaqinda Toshkent shahridagi Alisher Navoiy nomidagi kinochilar uyiga tashrifimiz chog'ida sohaning taniqli vakillari bilan mana shu masalalar haqida yana bir bor fikrlashib olganimiz har jihatdan foydali bo'ldi.

Hech shubhasiz, agar biz shonli tariximizni dunyoga tarannum etmoqchi bo'lsak, xalqimizning milliy g'ururini ko'tarmoqchi bo'lsak, birinchi navbatda, kino san'atining ta'sirchan kuchiga tayanishimiz kerak. Shu maqsadda 2024–2030-yillarda "Tirik tarix" loyihasi asosida muhim tarixiy mavzularga bag'ishlangan 50 dan ortiq filmlar yaratish dastur loyihasi ustida ish olib borilmoqda. Ushbu dastur Vatanimizning eng qadimgi tarixidan tortib, yaqin o'tmishimizda yuz bergan muhim voqea-hodisalarni qamrab olishi nazarda tutilgan. Yaratilajak filmlarning mavzusi ham keng va rang-barang bo'ladi. Bu jarayonga Ispaniya, Germaniya, Turkiya, Yaponiya, Vengriya, Rossiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Hindiston, Belarus, Ozarbayjon, Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston kabi davlatlarning kino san'ati vakillarini ham jalb qilish rejalashtirilgan.

Albatta, ko'lamdor vazifani to'la-to'kis amalga oshirish uchun juda katta mablag', texnik va ijodiy salohiyat talab qilinishini anglash mushkul emas. Qanchalik qiyin bo'lmasin, biz bugun xalqimizning ma'naviy

ehtiyojlarini qondirishga, yoshlarimizni shonli o'tmishimizni chuqur anglaydigan chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalashga xizmat qiladigan bunday kino san'at asarlarini yaratish uchun barcha shart-sharoitlarni muhayyo qilamiz.

Hozirgi vaqtda dunyo media olamida tele va kino seriallar jadal rivojlanmoqda. Dastlab ko'ngilochar va maishiy mavzularda paydo bo'lgan seriallar bugungi kunga kelib turli davlat va millatlarning muayyan maqsadlarini targ'ib etish vositasiga aylanib bormoqda.

Savol tug'iladi: shunday sharoitda xalqimiz televizorni eng ko'p ko'radigan paytlarda, ya'ni "praym-taym" vaqtida xorijiy seriallarga katta o'rin berayotganimiz qanchalik to'g'ri?

Albatta, bularning barchasi oldimizga kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifalarni qo'ymoqda. Jumladan, milliy seriallar ishlab chiqarish bo'yicha mavjud tizimni tubdan isloh etish, bu yo'nalishda ijodkorlarimizni qo'llab-quvvatlash lozim. Aynan shu yo'l bilan milliy seriallarimizni g'oyaviy-badiiy va texnik jihatdan jozibali, hamma qiziqib ko'radigan darajaga yetkazish mumkin.

Shu maqsadda milliy seriallar ishlab chiqarish konsepsiyasini yaratish zarur. Unda, avvalambor, mahalliy ijodkorlarimizga, xususan, ijrochi san'atkorlar, dramaturg va rejissorlar uchun zamonaviy sharoitlar yaratishga alohida e'tibor qaratish o'rinli bo'ladi, deb o'ylayman. Buning uchun milliy seriallar ishlab chiqarish bo'yicha erkin iqtisodiy zona — Cinema-park tashkil etish lozim.

Yana bir asosiy masala — endilikda madaniyat va san'at, kutubxona va muzeylar sohasida faoliyat olib borayotgan xodimlarning oylik maoshini bosqichma-bosqich oshirish choralari ko'riladi.

Shu bilan birga, madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash uchun budjetdan qo'shimcha 100 milliard so'm ajratiladi.

Shu munosabat bilan mahalla faollari, hurmatli ayollarimiz va muhtaram nuroniylarimizga, ayniqsa, katta orzu-umidlar bilan hayotga kirib kelayotgan yoshlarimizga murojaat qilib aytmoqchiman.

Azizlarim, yot g'oyalarga ergashgan, nopok kimsalardan ogoh bo'laylik!

Farzandlarimizni ularning buzg'unchi ta'siridan asraylik!

Kelajagimizni yovuz kuchlar qo'liga berib qo'yishga aslo haqqimiz yo'q.

Agar barchamiz birgalikda qat'iy harakat qilsak, jamiyatimizda sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni mustahkamlashga albatta qodirmiz.

Yangi O'zbekistonda qonun ustuvor, jinoyatga jazo muqarrar bo'lishi shart! Va, albatta, shunday bo'ladi.

Hammamiz bir haqiqatni unutmasligimizni istardim. Hayot bor ekan — jaholat ham, ma'naviy tahdidlar ham bo'lishi tabiiydir. Ammo eng xatarlisi — yurt kelajagiga loqaydlik, ezgu qadriyatlarga nisbatan beparvolikdir.

Tinch va farovon hayot qurish uchun esa, avvalo, odamlar qalbida bir-biriga hurmat, xalqqa, Vatanga mehr va ishonch mustahkam bo'lishi zarur.

Bir so'z bilan aytganda, mamlakatimiz yangi taraqqiyot davriga qadam qo'ygan bugungi kunda xalqimiz, ayniqsa, farzandlarimiz ongida Vatanga muhabbat, yurtimiz kelajagiga daxldorlik, tinch, erkin va farovon hayotning qadriga yetish tuyg'ularini kuchaytirishda ma'naviy-ma'rifiy sohalar vakillari, madaniyat va san'at namoyandalari hamda ijod ahlining o'rni va ta'siri beqiyosdir. Biz bunday sharafli yo'lda ularni o'zimizga eng yaqin ko'makchi va maslakdosh deb bilib, ularning yordami va qo'llab-quvvatlashiga tayanamiz.

“

Biz inson manfaatlarini iqtisodiy islohotlarning bosh mazmuniga aylantiramiz, iqtisodiyotimizning ochiqligini ta'minlab, uning jahon iqtisodiyotiga integratsiyasi uchun barcha zarur sharoitlarni yaratamiz.

YANGI O‘ZBEKISTON: BARQAROR IQTISODIY TARAQQIYOT

Makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash

Hozirgi tahlikali dunyoda izchil iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash, makroiqtisodiy barqarorlikka erishish orqali aholi farovonligini oshirish, kambag‘allikni qisqartirish masalasi oldimizda turgan eng asosiy vazifa hisoblanadi.

Yangi O‘zbekiston siyosatida iqtisodiyot — inson manfaati va uning farovonligini ta‘minlashga xizmat qilmog‘i darkor. Chunki oila farovonligi, turmush darajasining yuqoriligi, dasturxonlarimizning to‘kinligi hayotimizning asl mazmunini tashkil qiladi. Har bir inson uchun farzandlarini munosib tarbiyalab, o‘qitib, uyli-joyli qilish, nabiralarini bag‘riga bosib tinch va osuda hayot kechirish eng oliy baxtdir.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy islohotlarning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, mamlakatimizning iqtisodiy taraqqiyot yo‘li uzoq muddatlarga mo‘ljallangan, xalq muhokamasidan o‘tkazilgan, xorijiy va mahalliy ekspertlar tomonidan chuqur tahlil qilingan rivojlanish strategiyalari va konsepsiyalariga asoslanmoqda. Negaki, har qanday davlat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi, ishlab chiqarishda yuqori samaradorlikka erishishi, belgilangan chora-tadbirlar va islohotlarning mantiqiy ketma-ketlikda va izchil amalga oshirilishi uchun, albatta, mamlakatning salohiyati, imkoniyatlari va nisbiy afzalliklarini hisobga oluvchi uzoq muddatli strategiyalarga ehtiyoj seziladi.

Bugun iqtisodiy islohotlar haqida gap ketganda, mamlakatimizda soliq tizimidagi yangilanishlar, valuta bozorining erkinlashtirilishi, naqd pul bilan bog'liq muammolarning bartaraf etilishi, bank-moliya sohasidagi o'zgarishlar, xalqaro moliya operatsiyalarining jahon andozalari asosida amalga oshirilayotganini alohida ta'kidlash o'rinlidir. Hozir korxonalar import operatsiyalarini amalga oshirish uchun bimalol valuta xarid qilish imkoniga ega. Vaholanki, bizda uzoq vaqt valutaning erkin konvertatsiyasi cheklab qo'yildi. Iqtisodiyotning avvalgi modeli konvertatsiyaning butunlay yo'qligiga bog'langan va bu tizim eng korrupsiyalashgan sohaga aylangan edi. Ta'bir joiz bo'lsa, bu hol eski modelning borlig'i, o'zagi edi.

Iqtisodiy islohotlar jarayonida birinchi bo'lib valuta bozori liberallashtirildi, so'ngra pul muomalasi bo'yicha o'zgarishlar amalga oshirildi. Qolaversa, iqtisodiyotimizni qo'llab-quvvatlovchi, ishbilarmon va tadbirkorlarimiz faoliyati uchun keng yo'l ochadigan, ularni himoya qiladigan huquqiy asoslar yaratildi. Ushbu sa'y-harakatlar samarasi o'laroq, ko'plab chet ellik investorlar O'zbekistonga qaytdi.

Jahonda tan olingan iqtisodiy qonuniyatga ko'ra, erkin konvertatsiya, avvalambor, xalqaro savdo munosabatlarining to'laqonli a'zosi bo'lish uchun nihoyatda zarurdir. Faqatgina xalqaro savdo munosabatlarining a'zosi bo'lgan mamlakatlar xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etib, bu borada qator afzallik va imtiyozlardan bahramand bo'ladi.

Bugungi kunda mamlakatimiz aholisi yiliga 2 foiz o'smoqda, prognozlarga ko'ra, 2030-yilga borib xalqimiz nufusi 40 millionga yetadi. Bunday katta davlatda tinchlik va barqarorlikni saqlash, fuqarolarga munosib sharoit yaratish uchun iqtisodiyot ham, boshqaruv ham, ta'lim va tibbiyot ham yangicha bo'lishi, barcha sohalarda o'sish, rivojlanishga erishish kerak.

Izchil islohotlar samarasi o'laroq, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi ilgari yillarga nisbatan 5 karra

ko'payib, 2017–2023-yillarda 16 milliard AQSH dollaridan oshdi. Shu bois, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasida muhim tarixiy ahamiyatga ega hujjat hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, avvalo, mamlakatning barqaror o‘shishini ta‘minlash orqali aholi turmush darajasini oshirish, odamlarning xavfsiz va to‘laqonli hayot kechirishi uchun zarur sharoitlar yaratadigan iqtisodiyotni shakllantirishni nazarda tutadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar O‘zbekistonning 2030-yilda asosiy makroiqtisodiy va ijtimoiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha dunyodagi barqaror rivojlanayotgan mamlakatlar safidan joy olishiga xizmat qiladi.

Mazkur strategiyaning ikkinchi bo‘limi barqaror iqtisodiy o‘shish orqali aholi farovonligini ta‘minlash masalalarini qamrab olgan bo‘lib, unda iqtisodiy o‘shish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash bo‘yicha birlamchi maqsad va vazifalar belgilangan. Asosiy e‘tibor esa, iqtisodiy o‘shish, samarali budjet-soliq, pul-kredit, investitsiya va tashqi savdo siyosati, institutsional masalalarga qaratilgan.

2030-yilga borib yalpi ichki mahsulotni 160 milliard AQSH dollariga yetkazish, ya‘ni iqtisodiyot hajmini bugunga nisbatan 2 barobar oshirish rejalashtirildi. Ana shunda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni kamida 4 ming AQSH dollariga yetkazishga erishiladi. Bu O‘zbekistonni “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kiritish imkonini beradi.

Albatta, bu juda katta marra va unga erishish oson kechmaydi. Lekin bizning zarur imkoniyatlarimiz, xususan, yerosti va yerusti boyliklarimiz, iqtisodiy-moliyaviy, ishlab chiqarish salohiyatimiz bor. Eng asosiysi, mehnatkash xalqimiz, ishning ko‘zini biladigan tadbirkorlarimiz bor.

Biz bu ishlarni izchillik bilan bosqichma-bosqich amalga oshiramiz. 2024-yil yakunida mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot hajmi 5,6–5,8 foizga o‘shishi kutilmoqda. Biz mo‘ljalni yanada balandroq olib,

“Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili”da yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atini 6 foizdan kam bo'lmagan darajada ta'minlash vazifasini qo'ydik. Ushbu ko'rsatkichni 2025-yilda 6,2 foizga, 2026-yilda esa 6,4 foizga yetkazish ko'zda tutilmoqda.

Yalpi ichki mahsulotning yuqori o'sish sur'atlari asosan qishloq xo'jaligi, shaharsozlik, energetika, transport va tadbirkorlik sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar orqali ta'minlanadi.

Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun, avvalo, budjet-soliq, pul-kredit, investitsiya va tashqi savdo siyosatlarini o'zaro muvofiqlashtirish hamda iqtisodiy rivojlanishni zarur darajadagi energetika, suv va infratuzilma resurslari bilan ta'minlash, shuningdek, tovar va xizmatlar bozorida raqobat muhitini yaxshilashga qaratilgan tarkibiy islohotlarni davom ettirish talab etiladi.

Mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim shartlaridan biri bu — oqilona **budjet-soliq siyosatini** olib borish hisoblanadi. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda budjet taqchilligini optimallashtirish muhim rol o'ynaydi. Strategiyada respublikamizda budjet-soliq munosabatlarining samaradorligini oshirish uchun konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligining 2024-yilda yalpi ichki mahsulotga nisbatan 4 foizdan va kelgusi yillarda 3 foizdan past miqdorda bo'lishini ta'minlash masalasi belgilangan. Unda “natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish” amaliyotiga o'tish, “yashirin iqtisodiyot”ni qisqartirish orqali soliq bazasini kengaytirish vazifalari belgilangan.

Davlatning tashqi qarzi — asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan biri sanaladi. Jahon tajribasida ichki imkoniyatlarni ishga solish bilan bir qatorda, tashqaridan ham moliyaviy resurslarni jalb qilish amaliyoti keng qo'llaniladi. Dunyo mamlakatlarida, xususan, Yevropada “Maastrixt” kelishuvi mezonlariga ko'ra, davlat qarzining yalpi ichki mahsulotga nisbatini 60 foizdan oshirmaslik tavsiya etiladi.

Raqamlarga e'tibor qaratilsa, davlat qarzining eng yuqori darajasi AQSH, Yaponiya va Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga to'g'ri keladi. Ularning aksariyatida mamlakat tashqi qarzi YAIMga nisbatan 60 foizlik "qizil chiziq"dan allaqachon o'tib bo'lgan, ayrimlarida esa 100 foizdan ham oshganini kuzatish mumkin. Biz bu masalaga yanada ehtiyotkorroq yondashib, O'zbekistonda davlat qarzining yalpi ichki mahsulotga nisbatini 50 foizdan oshirmaslikka harakat qilayapmiz.

"Ochiq budjet" tizimi odamlarda tegishli muammolarni bartaraf etish va hayot sifatini yaxshilashga daxldorlik hissini oshirmoqda. Shuning uchun 2024-yilda fuqarolar tomonidan taklif etilgan loyihalarni moliyalashtirish uchun mahalliy budjetdan 3 trillion so'mdan ortiq mablag' ajratildi. Tashabbusli budjetlashtirishni yanada takomillashtirish va ovoz berishda sog'lom raqobat muhitini yaratish maqsadida "Bir fuqaro — bir ovoz" tizimi joriy etildi.

Budjet shaffofligini yanada oshirish jarayonida keng jamoatchilik uchun qator masalalar bo'yicha ochiq ma'lumot olish imkoniyati yaratilmoqda. Jumladan, endilikda jamoatchilik, jurnalist va blogerlar budjet daromadi va xarajatlarining taqsimlanishi, soliqlardan hududlar budjetiga ajratmalar, subvensiyalar va boshqa budjetlararo transfertlar miqdori, davlat budjetida nazarda tutilgan nafaqalar, pensiyalar haqidagi axborotlar bilan tanishib borish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

O'zbekistonda soliq tizimining samaradorligini yanada oshirishda markirovkalash va raqamlashtirish tizimini kengaytirish, davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshiriladigan loyihalarning daromadliligi va davlat budjetiga yukini inobatga olib, ularni tasniflash hamda loyiha yo'nalishlari bo'yicha boshqarish tizimini joriy etish alohida ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda samarali pul-kredit siyosati olib borilishi iqtisodiyotda inflatsiyani pasaytirishga erishish, tijorat banklari va kapital bozorida taklif qilinayotgan foiz stavkalarining ijobiy o'zgarishi

orqali ishlab chiqarishni rag'batlantirish, muomaladagi pul massasining eng maqbul hajmda bo'lishini ta'minlashga imkoniyat yaratadi.

Alohida ta'kidlash joizki, narx-navo va inflatsiya "jilovlab" turilmasa, kishilarning daromadi oshgan taqdirda ham qimmatchilik tufayli bu zarur samarani bermaydi. Ushbu muammoning yechimi tarkibiy islohotlarning izchil davom ettirilishiga bog'liq. "O'zbekiston — 2030" strategiyasida belgilangan muhim vazifa – milliy iqtisodiyotimizda 2030-yilga borib yillik inflatsiyaning 5–6 foiz darajasida bo'lishi uchun, birinchi galda, Markaziy bankning to'liq mustaqilligini ta'minlash, uning iqtisodiyotga ta'sirini sog'lom bozor qonuniyatlari asosida samarali yo'lga qo'yish, "inflyatsion targetlash" borasidagi chora-tadbirlarni oqilona boshqarish zarur. Muvozanatlashgan pul-kredit siyosatining amalga oshirilishi, shuningdek, iqtisodiyotda transformatsiya va institutsional islohotlarni izchil davom ettirish mamlakatda qulay investitsiya va ishbilarmonlik muhitini ta'minlashga ham zamin yaratadi.

Makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash va izchil iqtisodiy o'sishga erishish uchun sharoit yaratishning asosiy omili hisoblangan milliy valutaning barqarorligini ta'minlash borasida xalqaro tajribada o'zini oqlagan vositalarni qo'llash yo'li bilan pul-kredit siyosatini, shuningdek, valutani tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga asosiy e'tibor qaratilmoqda.

Eng muhimi, so'nggi yillarda respublikamizda tarif va pul-kredit sohasida ko'rilgan chora-tadbirlar inflatsiya darajasini asta-sekin pasaytirish hamda makroiqtisodiy barqarorlik va izchil iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirish imkoniyatini beradi.

Shu bilan birga, global moliya-iqtisodiyot tizimidagi murakkab va tez o'zgaruvchan, shuningdek, valuta munosabatlarini tartibga solishni liberallashtirish sharoitida makroiqtisodiy barqarorlik va aholining turmush darajasini oshirishga qaratilgan monetar siyosatni tubdan qayta ko'rib chiqish bo'yicha muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'tgan yillar mobaynida O'zbekistonda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, ilg'or xalqaro tajribaga muvofiq monetar siyosatning yangi instrumentlarini joriy etish, milliy valutani mustahkamlash va respublikada makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi.

Tub islohotlarimizning ilk davridayoq valuta siyosatini liberallashtirishga katta e'tibor qaratdik. Bu jarayonda milliy valutaning barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgan qat'iy monetar siyosat olib borildi. Bunda monetar siyosat usullaridan faol va samarali foydalanish, davlat qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish, shuningdek, ochiq bozorda operatsiyalarni amalga oshirish amaliyotini hamda davlat qimmatli qog'ozlarini garovga qo'yish bilan banklarning likvidligini oshirishga mo'ljallangan operatsiyalarni joriy etish bo'yicha aniq maqsadlar belgilandi. Markaziy bankning ichki narxlar barqarorligini ta'minlashda o'rta muddatli istiqbolda pul-kredit siyosati maqsadlariga erishish prinsipi va mexanizmlarining xorijiy markaziy banklar tomonidan qo'llaniladigan inflatsiyaviy targetlash rejimiga o'tishi bo'yicha aniq chora-tadbirlar amalga oshirilmogda.

Mamlakatda pul-kredit munosabatlarini samarali va oqilona tashkil etish uchun bank tizimidagi islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish lozim. Shu bois, "O'zbekiston — 2030" strategiyasida milliy iqtisodiyotimizda bank va moliya tizimi orqali yillik kreditlash hajmini 40 milliard AQSH dollariga yetkazish, bank omonatlari hajmini 4 barobar oshirish vazifasi o'z aksini topgan.

Banklarni xususiyashtirish va bank bozoriga nufuzli chet el banklarini jalb qilish bilan sohada kuchli va sog'lom raqobatni shakllantirish mumkin. Banklarga xalqaro tan olingan minimal andoza va talablarni joriy qilish orqali me'yorlar va nazorat bazalarini

takomillashtirish, kamida 3 ta tijorat bankida islomiy moliyalashtirish mezoni va tartiblarini joriy etish nazarda tutilgan.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida tovarlar va xizmatlar bozorida talab va taklif muvozanatini ta‘minlash orqali 2024-yilda yillik inflatsiya darajasining 9 foizdan oshmasligini ta‘minlash vazifasi ham qo‘yilgan. Bunga erishish maqsadida pul-kredit sharoitlarini mazkur yilda ham nisbatan qat‘iy fazada saqlab qolish, pul bozorida ijobiy 3–4 foizlik real stavkalar shakllanishini ta‘minlash zarur. Bunda zarur hollarda likvidlikni jalb qilish instrumentlari hajmini oshirish hamda iqtisodiyotda ajratiladigan kreditlar o‘sish sur‘ati YAIMning nominal o‘sishi doirasida bo‘lishini ta‘minlash pul-kredit munosabatlarining barqarorligiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, mamlakatda inflatsiya kutilmalarini pasaytirish va jilovlashda kommunikatsion siyosatni takomillashtirish, asosiy turdagi tovar va xizmatlar narxini hududlar bo‘yicha kuzatib borish hamda ularga ta‘sir ko‘rsatgan omillarni bartaraf etish borasida takliflar ishlab chiqishning ahamiyati katta.

Iqtisodiyotga muammoli kreditlar ajratishni kamaytirish orqali bank tizimida moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash ham pul-kredit munosabatlarini tartibga solishda alohida o‘ringa ega. Shu bois, banklarda tijorat kreditlari foiz stavkasini 2–3 foizga kamaytirish maqsadga muvofiq.

Mamlakatimizda **faol investitsiya siyosatini** olib borish — makroiqtisodiy munosabatlarni barqarorlashtirishning yana bir muhim yo‘nalishi hisoblanadi.

Shuning uchun ham “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida milliy iqtisodiyotda investitsiyaviy jozibadorlikni yanada oshirish, qimmatli qog‘ozlar bozorini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotga nisbatan investitsiyalarning maqbul darajasiga erishish, xorijiy investorlarni faol

jalb qilish bo'yicha alohida vazifalar belgilangan. Jumladan, ushbu davrda mamlakatimizda 250 milliard AQSH dollari miqdoridagi investitsiyalarni o'zlashtirish bo'yicha maqsadlar belgilangan, ularning 110 milliard AQSH dollari xorijiy investitsiyalar va 30 milliard AQSH dollari davlat-xususiy sheriklik doirasidagi investitsiyalar sifatida jalb etilishi kutilmoqda.

Yurtimizda investitsiya resurslarini faol jalb qilish uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan 500 dan ziyod texnologik va infratuzilmaviy loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan. Ularning umumiy qiymati 150 milliard AQSH dollaridan oshadi.

Salohiyatli investorlarni yurtimizga olib kelish uchun barcha hududlarda qulay ishbilarmonlik muhiti yaratib, ularning jozibadorligini yanada oshirishimiz kerak.

Shu paytgacha investitsiyalarni boshqarishda faol ishga solinmagan yana bir omil – pay va venchur jamg'armalar faoliyatini yo'lga qo'yish orqali investitsiyalar portfeli hajmini 2 barobarga oshirish maqsad qilindi. Kapital bozorining rivojlanishi yurtdoshlarimiz orasida yuz minglab mulkdorlar, aksiyadorlarning paydo bo'lishiga, ularning o'z jamg'armalarini investitsiya qilib, yuqori daromad olishiga imkoniyat yaratadi.

Shu bois, 2023-yildan boshlab eng yirik 10 ta kompaniya va tijorat banklarining aksiyalarini mamlakatimiz aholisi uchun ochiq va shaffof savdoga chiqarishga, ya'ni buni chinakam ma'noda xalq IPOsig'a aylantirish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda.

IPO bu — **birlamchi ommaviy taklif** (Initial Public Offering) — kompaniyalarning o'z aksiyalarini birinchi marta keng jamoatchilik uchun sotuvga chiqarishini anglatadi. Xalq IPOsi deganda bunday aksiyalar chet ellik investorlarga emas, birinchi navbatda, mahalliy aholi uchun savdoga qo'yilishi nazarda tutiladi. Xalqona birlamchi ommaviy taklif fuqarolar ixtiyoridagi pul mablag'larini mamlakat iqtisodiyoti rivojiga jalb qilishning samarali usulidir. Yildan yilga aholimizning soni

ham, uning moliyaviy savodxonligi ham oshib bormoqda. Binobarin, ko'pchilik odamlar ortiqcha shaxsiy mablag'ini uyda saqlash yoki jamg'arma bankiga qo'yishdan ko'ra yirik kompaniyalar aksiyalarini sotib olish bir necha barobar ko'proq manfaat keltirishini allaqachon yaxshi anglab yetdi.

Shuni nazarda tutib, 2030-yilgacha davlat ishtirokidagi 40 ta korxonada aksiyalarini xalq IPOsiga chiqarish va aholining ushbu jarayonda faol ishtirokini rag'batlantirish mexanizmlarini joriy qilish rejalashtirilgan. Barcha iqtisodiy zonalarda yuqori darajada rivojlangan infratuzilma yaratish, ya'ni yo'l, elektr energiyasi, suv va oqova kabi muhim tizimlarning risoladagidek faoliyat ko'rsatishini ta'minlash orqali chet ellik nominal saqlovchilar hamda kastodian banklarning mahalliy kapital bozoriga kengroq kirib kelishiga erishish mumkin.

Shuningdek, tadbirkorlar uchun erkin investitsiya resurslariga yo'l ochish maqsadida O'zbekistonda kapital bozorini rivojlantirish, jumladan, erkin muomaladagi qimmatli qog'ozlar savdosi hajmini 8 milliard AQSH dollariga yetkazish bo'yicha ham vazifalar belgilab olingan.

Tegishli vazirlikda tashkil etilgan "yagona darcha" orqali yurtimizdagi 14 ta hudud, 208 ta tuman va shaharda hamda xorijdagi barcha diplomatik vakolatxonalar orqali chet davlatlarda investorlarga zarur ko'mak va xizmatlar ko'rsatish tizimi yaratilmoqda. Shuningdek, xalqaro ekspertlar bilan hamkorlikda mamlakatimiz tarixida ilk bor Xalqaro tijorat sudi faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha aniq vazifalar amalga oshirilmoqda.

Yurtimizda investorlar yo'lga g'ov bo'ladigan ortiqcha byurokratiyani qisqartirish va korrupsiyani tag-tomiri bilan yo'q qilish masalalari bundan buyon ham davlatimiz va jamiyatimizning diqqat markazida bo'ladi. Bu borada boshlangan ma'muriy islohotlarni izchil davom ettirib,

inson va biznesga ko'maklashadigan, ularga sifatli xizmat ko'rsatadigan ixcham va samarali davlat boshqaruvi tizimi joriy etiladi.

Yangi O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda faol **tashqi savdo siyosatini** yuritishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu yo'nalishda, avvalo, eksport va importning mutanosib o'sishini ta'minlash, milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini kuchaytirish va uning tarkibida qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan mahsulotlar ulushini keskin oshirish vazifalari ustuvor hisoblanadi.

Ma'lumki, yangi islohotlarning dastlabki yilida valuta bozorini tubdan isloh qilish va valuta siyosatini liberallashtirish borasida yuz bergan ulkan o'zgarishlar mamlakatimizda bozor munosabatlarini shakllantirish, iqtisodiyotni liberallashtirish, barcha tadbirkorlik subyektlariga tashqi savdo faoliyatini amalga oshirishida teng sharoitlar yaratishda muhim rol o'ynadi. Ayniqsa, shu yo'l bilan mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirish, ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaxshilashga hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etishga to'squinlik qilayotgan qator muammolarni hal etishga muvaffaq bo'ldik.

“O'zbekiston — 2030” strategiyasida mamlakatimizning eksport hajmini 2 barobar oshirish va 45 milliard AQSH dollariga yetkazish, eksportchi korxonalar sonini 6,5 mingtadan 15 mingtaga ko'paytirish, eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 3,3 barobar oshirish, Yevropa davlatlariga “GSP+” va boshqa tizimlar doirasida tayyor va texnologik mahsulotlar eksportini kengaytirish kabi muhim vazifalar belgilangan.

“Yangi O'zbekiston — raqobatbardosh mahsulotlar yurti” g'oyasi asosida milliy brendlarimizni xorijiy bozorlarga olib chiqadigan eksportchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash siyosati amalga oshirilmoqda. Bu borada xalqaro standartlar joriy qilingan korxonalarni 10 barobar ko'paytirib, ularning umumiy sonini 5 mingtaga yetkazish,

yurtimizda dunyoning 50 ta nufuzli brendlari ishtirokida maxsus iqtisodiy zonalar tashkil qilish kabi maqsadlar belgilangan.

Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish va uning tarkibida qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan mahsulotlar ulushini ko'paytirish — ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini belgilaydigan eng asosiy omildir. Shu o'rinda eksport va importni oshirib borish, ularning mahalliy ishlab chiqarish bilan o'zaro muvozanatini ta'minlash har qanday davlat iqtisodiyoti uchun o'ta muhim va nihoyatda murakkab vazifa hisoblanadi, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida import hajmining eksport hajmidan ortib borishi tufayli tashqi savdo balansida defitsit ham kuzatilmoqda va bu tashvishli holdir. O'rta va ayniqsa, uzoq muddatli makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy o'sish va aholi farovonligini ta'minlashda tashqi savdoda ijobiy saldog'a erishish biz uchun hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Yangi O'zbekistonda eksport hajmini oshirish va yirik korxonalarining import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishini qo'llab-quvvatlash, ularning hududiy korxonalar bilan hamkorligini kengaytirish hamda sanoat kooperatsiyasini yo'lga qo'ygan korxonalarni faol rag'batlantirish tizimini joriy qilish ko'zda tutilmoqda.

Shu bilan birga, O'zbekiston "GSP+" tizimiga qo'shilish orqali Yevropaga 6 ming 200 turdagi tovarlarni bojsiz olib kirish imkoniyatiga ega bo'lsa-da, o'tgan yili ushbu tizim doirasida bor-yo'g'i 384 turdagi tovarlar eksport qilingan. Meva-sabzavot eksporti uchun xorijiy davlatlarning fitosanitar ruxsatlari olinganiga qaramasdan, bundan to'liq foydalanilmagan. Ko'plab korxonalarimiz xalqaro sertifikatga ega emasligi uchun global logistika zanjirlariga qo'shila olmayapti. Iqtisodiyotning drayver sohalarida xalqaro standartlarni joriy qilish darajasi esa 35 foizga ham yetmaydi.

Eksportni kreditlash uchun 200 million AQSH dollari miqdorida resurs ajratilgan. Bundan tashqari, 2024-yilda eksportyorlarni qo'llab-quvvatlashga yana 800 milliard so'm yo'naltirilmoqda. Lekin bunday qo'llab-quvvatlashlar har doim ham qo'shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarish va ularni eksport qilish imkonini bermayapti.

Shu bois eksportni qo'llab-quvvatlash tizimi ham o'zgartirildi. Eksportni rag'batlantirish agentligi Jahon savdo tashkilotining talablarini inobatga olgan holda Savdoni rivojlantirish kompaniyasi sifatida qayta tashkil etildi. Ushbu kompaniya yangi reytingga asoslangan holda, har qanday subsidiya, kredit va yordamlarni, eng avvalo, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsuloti bilan yangi bozorlarga chiqayotgan eksportchilar faoliyatini rag'batlantirishga yo'naltiradi.

Mahalliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga yetkazishda ishonchli logistika zanjirlarini tashkil qilish, bu yo'nalishdagi mintaqaviy va yirik xalqaro loyihalarni jadallashtirish, tovarlarni bojxona rejimida qayta ishlashni kengaytirish bo'yicha ham muayyan ishlar olib borilmoqda.

Keyingi yillarda mamlakatimizning iqtisodiy va ijtimoiy sohalar bo'yicha xalqaro tashkilotlardagi o'rni va mavqeyini yanada yaxshilash hamda bunday tuzilmalarga qo'shilishini ta'minlash borasida ham tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, mamlakatimizning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonini tezlashtirish dolzarb masalalardan biridir.

Hozir Jahon savdo tashkilotiga a'zo mamlakatlar bilan bozorga kirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining pozitsiyasini aniq belgilab olish va boshqa bir qator masalalarga bag'ishlangan ikki va ko'p tomonlama muzokaralar jarayonida tashqi savdo rejimini tarif va notarif choralar orqali o'zgartirish haqida qarorlar qabul qilindi. Bunda milliy qonunchilikni Jahon savdo tashkilotining bitim, qoida va me'yorlariga

muvofiqlashtirish yuzasidan tayyorlangan takliflarni ko'rib chiqish va milliy qonunchilikka implementatsiya qilish ishlarini faol davom ettirish zarur.

Tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish

Dunyoda kechayotgan murakkab geosiyosiy sharoitda mamlakatimizda yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi daromadlarini oshirishning drayveri bo'lgan xususiy sektor hamda tadbirkorlik uchun eng qulay sharoitlarni yaratib berish va ularni izchil qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu chog'gacha tadbirkorlar bilan bir necha marta ochiq muloqotlar o'tkazish orqali ularni qiynab kelayotgan ko'plab tizimli muammolar hal etildi. Jumladan, biznes yuritishni soddalashtirish, soliq yukini kamaytirish, yangi loyihalar uchun qulay moliyalashtirish tizimi va infratuzilma yaratish hamda xususiy mulk huquqini ta'minlash bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirildi.

O'zbekistonda tadbirkorlar uchun investitsiya va biznes muhitini tubdan yaxshilash, bu yo'ldagi to'siqlarni bosqichma-bosqich bartaraf etish borasida qat'iy qadamlar tashlanmoqda. 2023-yilda qabul qilingan "Davlat mulkini xususiylashtirish to'g'risida"gi qonun asosida 250 ta yirik korxonadagi davlat ulushini va salkam 1000 ta ko'chmas mulk obyektini sotish, 12 ta korxonada aksiyalarini fond bozorlarida birlamchi ommaviy joylashtirish bo'yicha faol ish olib borilmoqda.

Tadbirkorlik subyektlarini mikro, kichik, o'rta va yirik toifalarga, tuman va shaharlarni esa bu borada 5 ta toifaga ajratish orqali xususiy sektorni manzilli qo'llab-quvvatlashning yangicha tartibiga o'tildi. Tadbirkorlikni rivojlantirishda kichik biznesga yangi imkoniyatlar yaratish, o'rta biznesni barqaror iqtisodiy o'sish garoviga aylantirish, yangi bozorlarga sifatli va raqobatbardosh mahsulot bilan kirish, yuqori

daromadli korxonalarni ko'paytirish, sodda soliq ma'muriyatchiligi va byurokratiyadan xoli qulay muhit yaratish bo'yicha boshlangan ishlar kelgusida ham izchil davom ettiriladi.

"Tadbirkorlik subyektlariga subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalarni taqdim etish tartiblarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorga asosan yuridik shaxs tashkil etgan holda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarga subsidiyalar, soliq va bojxona imtiyozlari hamda preferensiyalarni ularning reyting darajasidan kelib chiqqan holda berish bo'yicha yangi tartib joriy etiladi.

2025-yil 1-yanvardan "subsidiya.mf.uz" platformasida tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash choralari turlari, muddatlari va tartibini o'z ichiga olgan alohida reyestr yuritiladi.

Darhaqiqat, so'nggi yillarda bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida yurtimizda tadbirkorlar sinfi shakllanib, jamiyatimizda haqiqiy yetakchi kuchga, islohotlar drayveriga aylandi. Buning natijasida O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot hajmi 2018-yildagi 52,9 milliard AQSH dollaridan 2023-yilda 90,9 milliard AQSH dollariga yetdi. Aholining xarid qobiliyati va o'rtacha oylik ish haqi esa 2018-yilga nisbatan qariyb 1,6 marotaba oshib, bugungi kunda 375,1 AQSH dollarini tashkil etmoqda.

Ma'lumki, kichik biznes — mahallaga, tumanga yangi muhit olib kiradigan, odamlarimizga shijoat beradigan katta kuchdir.

Iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan ko'plab davlatlarda ish o'rinlarining 70–80 foizi shu soha vakillari tomonidan yaratilmoqda. Barcha nufuzli kompaniyalar tarixi ham aynan kichik va o'rta biznesdan boshlangan.

So'nggi yillarda mikrobiznes va oilaviy tadbirkorlik jadal rivojlanmoqda. Xususan, hozirda tegishli dasturlar orqali mikrobiznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga har yili 1 milliard AQSH dollaridan ziyod mablag' yo'naltiryapmiz. Natijada bugun har bir mahallada kamida

40–50 nafar yangi tadbirkor paydo bo'lib, minglab doimiy ish o'rinlari yaratilmoqda. Biroq, kichik biznesni manzilli qo'llab-quvvatlash, zarur sharoitlarga ega qulay muhit yaratish borasida hali qiladigan ishlarimiz ko'p.

Yurtimizda kichik biznes infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar izchil davom ettirilmoqda. Jumladan, “Biznesni rivojlantirish banki” aksiyadorlik tijorat banki yangitdan tashkil etildi. Bundan asosiy maqsad ustuvor ravishda kichik biznes subyektlari loyihalarini moliyalashtirish va ularga kompleks xizmatlar ko'rsatishdan iborat. Kichik tadbirkorlik subyektlariga biznes loyihalarini ishlab chiqish, moliyalashtirish va ishga tushirish uchun ko'maklashish, ularga konsalting xizmatlarini ko'rsatishda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida tashkil etilayotgan 14 ta kichik biznesga ko'maklashish markazlarining o'rni ham kattadir.

Shuningdek, ijobiy kredit va soliq ko'rsatkichiga ega bo'lgan hamda o'z loyihalarini Kichik biznesga ko'maklashish markazlari yordamida amalga oshirayotgan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini kengaytirish maqsadida kreditlar ajratishda garov talabi 50 foizga kamaytirilmoqda. Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda Savdo-sanoat palatasining sanoat sohalarida “140 ta ilg'or sanoat korxonasi” dasturini amalga oshirish bo'yicha islohotlar ham davom ettiriladi.

Alohida qayd etish joizki, tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 2024-yildan boshlab iqtisodiy sudlar tomonidan soliq organlari ishtirokida ko'rilayotgan ishlar ma'muriy sudlar yurisdiksiyasiga o'tkazilmoqda. Shuningdek, soliq majburiyati bo'yicha da'vo qilish muddati besh yildan uch yilga tushiriladi. Kameral soliq tekshiruvini o'tkazishda soliq to'lovchining hududiga kirish, uning hududi va binolarini ko'zdan kechirish, soliq to'lovchini chaqirtirish va hujjatlarni talab qilib olish, uning hujjatlari hamda buyumlarini olib qo'yish taqiqlanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha jamoatchilik kengashining tarkibi yangilanib, uning yig'ilishlarini oyiga kamida bir marotaba o'tkazib borish, tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini Adliya vazirligida huquqiy ekspertizadan o'tkazishdan oldin mazkur Kengash muhokamasidan o'tkazish tartibi ham belgilanmoqda.

Kichik biznes loyihalarini moliyalashtirishda ishtirok etadigan tijorat banklarining resurs bazasini oshirish ham ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi. Xalqaro moliya institutlari ko'magida amalga oshirilayotgan va bu yo'nalishdagi yangi loyihalar asosida 2024–2026-yillarda o'zlashtirilishi kutilayotgan mablag'larini "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturida ishtirok etadigan moliya tashkilotlariga resurs sifatida yo'naltirish zarur.

Mamlakatimizda kichik tadbirkorlik subyektlari va yirik davlat korxonalari o'rtasida kooperatsiya aloqalarini o'rnatish ham asosiy vazifalardan biridir. Yirik davlat korxonalari bilan kooperatsiya asosida tashkil qilinadigan kichik tadbirkorlik subyektlari, shu jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslar, ayollar tadbirkorligi va yoshlar tadbirkorligiga kichik biznesga ko'maklashish markazlari orqali zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, xodimlarning malakasini oshirish va mahsulotni realizatsiya qilishda amaliy yordam ko'rsatiladi. Ayni paytda mazkur yo'nalishda olib kiriladigan asbob-uskunalarni Biznesga ko'maklashish markazlari ko'magida sug'urtalash, xomashyo va materiallarni sertifikatlash xarajatlarini qoplab berish tizimi yo'lga qo'yilmoqda.

Tadbirkorlik uchun turizm, savdo va servis sohalarida xizmatlar ipotekasi tizimini ham joriy qilish zarur. Bu yo'nalishlarda tadbirkorlik subyektlarining tayyor loyihalari va biznes-rejalarini amalga oshirishi, xususan, tegishli yer uchastkalarini sotib olishi, bino-inshootlar qurishi hamda ularni aylanma mablag'lar bilan ta'minlashi uchun bank

va bankdan tashqari kredit tashkilotlari orqali moliyaviy resurslar, uskunalar, bino va inshootlar taklif etiladi.

Milliy iqtisodiyotimizda tadbirkorlikni rivojlantirishda sanoat ipotekasi tizimini yo'lga qo'yish ham alohida o'ringa ega. Chunki mazkur tizim tadbirkorlik subyektlari uchun yer uchastkalari va ishlab chiqarish maydonlarining "tayyor biznes" shaklida auksion savdolariga chiqarilishini ta'minlaydi. Ularning bino-inshootlarni xarid qilishi va ijaraga olishi uchun imtiyozli kreditlar ajratiladi. Har bir hududda kamida 3 tadan yangi sanoat zonalarini tashkil etiladi. Kichik sanoat zonalarida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini kengaytirishga e'tibor qaratiladi.

Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasida "Yangi O'zbekiston — raqobatbardosh mahsulotlar yurti" dasturini yanada kengaytirish zarur. Eksportchi korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni izchil davom ettirish va ularning bu boradagi imkoniyatlarini oshirishga ham alohida ahamiyat qaratish lozim. Shu bois ayni paytda logistika xarajatlarini kompensatsiya qilishga qo'shimcha 100 million AQSH dollari, mahsulotlarni xorijda sertifikatlash, xalqaro standartlarni joriy qilish va mutaxassislar tayyorlash uchun 25 million AQSH dollari miqdorida mablag' yo'naltirilmoqda.

Kelgusida tadbirkorlarimizning xalqaro bozorlarga chiqishiga imkoniyat yaratib berish ishlari ham faol davom ettiriladi. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga nufuzli xorijiy brendlarni jalb qilish, ishlab chiqarishga xalqaro standartlar, ekologiya va sertifikatlash talablarini joriy etish, qulay bojxona rejimini yaratish, mutaxassislarni chet el standartlari asosida o'qitish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Hozirgi paytda tadbirkorlarning qonun talablari asosida faoliyat yuritishini rag'batlantirish maqsadida ularning ishonchlilik reytingi joriy qilinmoqda. Bunda mazkur reytingni shakllantirishning ochiq-oshkora

mezonlarini belgilash hamda yuqori ko'rsatkichlarga ega tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash choralari ko'riladi.

Kichik biznes vakillari va tadbirkorlar uchun teng raqobat muhitini ta'minlash uchun yashirin iqtisodiyotni qisqartirish, soliq va bojxona ma'muriyatchiligini soddalashtirish, bu sohada ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda kameral soliq tekshiruvini tartibini ham osonlashtirish zarur.

Tadbirkorlarning hisobot topshirishini yengillashtirish uchun esa bir-birini takrorlaydigan, boshqa idoralardan olish mumkin bo'lgan statistik hisobot shakllarini bekor qilish kerak. Davlat organlariga statistik va boshqa hisobotlarni taqdim etish jarayonini ham bosqichma-bosqich standart biznes hisoboti tizimiga muvofiqlashtirish zarur. Ayniqsa, qurilish sohasida ruxsat berish jarayonlarini raqamlashtirish va unda inson omilini kamaytirish lozim. Shu maqsadda 2024-yil 1-yanvardan boshlab Toshkent shahrida tajriba sifatida obyektlarni qurish va rekonstruksiya qilishga oid loyiha takliflarini ko'rib chiqish va kelishish jarayonini to'liq raqamlashtirish tizimini yaratishga kirishildi.

Tadbirkorlikni rivojlantirishda islom moliyasini joriy qilish ham asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Buning uchun mamlakatimizda islomiy mahsulotlar, xizmatlar va banklar faoliyatining huquqiy asosini yaratish, ushbu yo'nalishga ixtisoslashgan tashkilotlarni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlarini belgilash hamda islom moliyasi asosida jalb etilgan omonatlarni himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni faollashtirish lozim.

Yurtimizda tadbirkorlik subyektlarini transport logistikasi, sertifikatlash, standartlashtirish va sifat nazorati, soliq va bojxona ma'muriyatchiligi hamda eksport faoliyati bilan bog'liq masalalar bo'yicha axborot va maslahat bilan qo'llab-quvvatlashga ham ustuvor ahamiyat qaratish darkor. Milliy brendlar va mahsulotlarni xorijda targ'ib qilishga mo'ljallangan "O'zbekistonda ishlab chiqarilgan" ("Made in

Uzbekistan”) dasturini izchil amalga oshirish zarur. Buning uchun milliy, tarmoq va mintaqaviy ahamiyatga ega ko'rgazmalar hamda tovarlar yarmarkalarini uyushtirishga katta e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Raqamli texnologiyalar sohasiga ixtisoslashgan tadbirkorlik subyektlarining xalqaro xizmatlar bozorida ishtirok etishi va hamkorlar bilan aloqalar o'rnatishi uchun qulay sharoit yaratish, ularning eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bois, Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari parki rezidentlari tomonidan raqamlashtirish sohasidagi xizmatlarni eksport qilish bo'yicha xalqaro platformalarda rasmiylashtirilgan 100 ming AQSH dollarigacha bo'lgan qiymatga ega shartnomalarini elektron hujjat sifatida e'tirof etib, ularning qog'oz shaklidagi nusxasini talab etmaslik tartibi tajriba tariqasida joriy etilmoqda.

Qayd etish lozimki, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida har yili ulkan dastur va loyihalarni amalga oshirish an'anasi shakllandi. Kelgusi yillar uchun belgilab olgan reja va dasturlarimizni ro'yobga chiqarish oson kechmasligi ayon. Lekin hayot sinovlarida toblangan, qat'iyatli va tashabbuskor tadbirkorlarimiz bor ekan, biz albatta ko'zlagan marralarimizga erishamiz.

Mamlakatimizda tadbirkorlar qanchalik ko'p bo'lsa, ular imkon qadar ko'proq daromad topsa, davlatimiz ham shunchalik boy va qudratli bo'ladi. Shuning uchun biz tadbirkorlar safini yanada kengaytirish va ularga zarur sharoit yaratib berish uchun barcha choralarni ishga solamiz.

Sanoatni jadal rivojlantirish istiqbollari

O'zbekiston iqtisodiyotida mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg'or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Natijada birgina 2023-yilda

mamlakatimizda sanoat ishlab chiqarish hajmi 6 foizga o'sib, jami 656 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. O'tgan nisbatan qisqa vaqt davomida sanoat sohasiga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 7 barobar oshdi. So'nggi uch yil ichida xorijdan 14 milliard AQSH dollarilik asbob-uskunalar olib kelindi. Afsuski, qator hududlar va tarmoqlarda yangi korxonalarining ishga tushirilishi yoki zamonaviy uskunalar bilan jihozlanishi eksport ko'rsatkichlariga deyarli ta'sir ko'rsatmagan. Aniqroq aytganda, tegishli loyihalarning samaradorligi yetarlicha nazorat qilinmayotgani uchun shunday bo'lmoqda. Ortiq bunga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Biz 2030-yilga borib respublikada sanoat hajmini ikki karra oshirish, metallurgiya, neft-kimyo va mashinasozlik kabi yetakchi sohalarni sifat jihatidan mutlaqo yangi darajaga ko'tarishni reja qilganmiz. Shu maqsadda umumiy qiymati 150 milliard AQSH dollarilik 500 dan ziyod yirik sanoat va infratuzilma loyihalarini amalga oshirish ko'zda tutilgan. O'z navbatida, sanoatning drayver sohalarni rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to'liq ishga solish orqali bu sohada qo'shilgan qiymat hajmini 45 milliard AQSH dollariga yetkazish va 2,5 milliondan ortiq yuqori daromadli ish o'rinlarini yaratish choralari belgilangan.

Hozirgi vaqtda yurtimizda va dunyoda iqlim o'zgarishi hamda ekologik xatarlar kuchaymoqda, tabiiy resurslar esa kamayib bormoqda. Bunday murakkab vaziyatda bugungi va kelgusi avlodlarning munosib hayot kechirishini ta'minlash uchun iqtisodiyotning barcha tarmoqlari, avvalambor, sanoatni ilg'or texnologiyalar asosida rivojlantirish hayot-mamot masalasiga aylanmoqda. Biz ham yaqin yillarda sanoatda ishlab chiqariladigan texnologik mahsulotlar ulushini 25 foizdan 32 foizga yetkazib, qayta ishlash sohasida mehnat unumdorligini 2 barobar oshirishni maqsad qilganmiz. Shuning uchun respublikamizda yuqori texnologik ishlab chiqarishlarni rivojlantirishning yaxlit tizimi

shakllantiriladi. Mamlakatimizdagi har bir tumanda zamonaviy texnologik sanoat zonalari tashkil etiladi.

Shuningdek, xorijiy va mahalliy innovatsion texnologiyalar transferini moliyalashtirishning samarali tizimi va platformasini yaratish ham uzoq muddatli vazifalarimiz sirasiga kiradi. Bunda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb etishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash lozim. Sanoatni rivojlantirishda qo'shimcha qiymat zanjirlarini kengaytirish, ishlab chiqarish tannarxi va xarajatlarini kamaytirish, tayyor mahsulot va materiallarni mahalliyashtirish orqali ularning raqobatbardoshligini oshirish mumkin.

Umuman, 2030-yilga qadar sanoatda qo'shilgan qiymat hajmi 20 milliard AQSH dollaridan 45 milliard AQSH dollariga yetkaziladi. Sanoatni rivojlantirish jamg'armasi tashkil etilib, unga 1 milliard AQSH dollari ajratish orqali mamlakatimizda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish yangi bosqichga olib chiqiladi.

Mamlakatimizda ichki tarmoq va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, hamkorlarga ishlab chiqarilgan mahsulotlarning texnik parametrlari va sifatini tegishli talab va standartlarga moslashtirishda ko'maklashish hamda uzluksiz mahsulot yetishtirishni yo'lga qo'yish borasidagi islohotlar izchil davom ettiriladi.

Bunda kichik sanoat zonalari va maxsus iqtisodiy zonalarining imkoniyatlaridan samarali foydalanish va ularning faoliyatini muvofiqlashtirish zarur. Ishlab chiqarish korxonalarini infratuzilmasini modernizatsiya qilish jarayonida mavjud yangi texnologiya va standartlarning integratsiyasini ta'minlash orqali sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi va boshqa tarmoqlarga oid sanoat korxonalarining infratuzilmaviy barqarorligini ta'minlash lozim bo'ladi.

O'zbekistonning boy tabiiy resurslarini o'zlashtirish iqtisodiyotimizni rivojlantirishda katta imkoniyatlar yaratishi shubhasiz. Zotan, mamlakatimiz oltin zaxiralari bo'yicha dunyoda 2-o'rinni, mis

xomashyosi bo'yicha 7-o'rinni, volfram zaxirasi bo'yicha 8-o'rinni, kumush zaxirasi bo'yicha 9-o'rinni, uran zaxirasi bo'yicha 12-o'rinni egallaydi. Bulardan tashqari, hali o'zlashtirilmagan yana qanchadan qancha foydali qazilma konlari mavjud.

Tabiiy boyliklarni o'zlashtirish sohasiga yirik investitsiyalarni jalb etish maqsadida mamlakatimizga oid geologik ma'lumotlar ochiq e'lon qilindi. O'ndan ortiq turdagi strategik foydali qazilmalarni o'zlashtirish uchun soliq stavkalari pasaytirilib, yer solig'i bekor qilindi, ushbu jarayonda foydalaniladigan maxsus texnikalar bojxona to'lovlaridan ozod etildi. O'z navbatida, yuqori daromadli mahsulotlar uchun zarur bo'lgan mis ishlab chiqarishni 3,5 barobar, oltin qazib olishni 1,5 barobar, kumush va uran tayyorlashni 3 barobar oshirish bo'yicha aniq vazifalar belgilandi.

Shu maqsadda xorijiy hamkorlarimiz bilan birga umumiy qiymati 115 milliard AQSH dollariga teng bo'lgan yirik loyihalarni amalga oshirishga kirishildi. Jumladan, kelgusi yillarda strategik ahamiyatga ega bo'lgan bir qator yirik loyihalar ishga tushiriladi. Olmaliqda 3 ta mis boyitish fabrikasi va yangi mis eritish zavodi, Ohangaronda misni qayta ishlash klasteri, Navoiy, Qo'ng'iro't va Qorako'lda yirik kimyo-polimer klasterlari, Toshkent va Navoiy viloyatlarida fosforit xomashyosidan yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarish korxonalari, Tebinbuloq va G'allaorolda temir ishlab chiqarish majmualarini tashkil qilish bo'yicha olib borilayotgan ishlar shular jumlasidandir.

Ayni paytda respublikamizda kaolin xomashyosini qazib olish bo'yicha umumiy qiymati 620 million AQSH dollariga teng 33 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Kaolin yordamida ishlab chiqarilgan yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar eksportini 2024-yilda 81 million AQSH dollariga, 2030-yilda esa 180 million AQSH dollariga yetkazish mo'ljallangan.

Kelgusida uran zaxirasini o'stirish maqsadida xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda geologiya-qidiruv ishlari davom ettiriladi.

Yurtimizda qurilish materiallarini ishlab chiqarish hajmini 2 barobar ko'paytirish va yangi turdagi energiya tejamkor materiallar ishlab chiqishni kengaytirish zarur. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy, Toshkent va Farg'ona viloyatlarida yirik kimyo-polimer klasterlarini tashkil etish va yuqori qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarish korxonalarini ishga tushirish ham muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonda tog'-kon sanoati va geologiya sohasidagi islohotlarni chuqurlashtirish hamda ushbu tizim faoliyatini transformatsiya qilish ishlarini ham davom ettiramiz. Mazkur jarayonda tog'-kon sanoati va geologiya sohasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilash, respublikamizdagi 60 ming kvadrat kilometr maydonda geologiya-qidiruv ishlarini amalga oshirish lozim.

Respublikamizning mineral xomashyo bazasini taraqqiy ettirish vazifasi tog'-kon sanoatidagi yirik metallurgiya va ko'mir korxonalarini 2030-yilga qadar istiqbolli rivojlantirish strategiyasiga asoslanishi zarur.

Mamlakatimizda qimmatbaho, rangli, noyob va qora metallar hamda ko'mir ishlab chiqarish hamda ulardan foydalanish borasida muvozanat o'rnatish va samarali nazorat qilish uchun 50 dan ortiq turdagi foydali qazilma zaxiralari, 7 turdagi asosiy metall va xomashyolarning moddiy balansini yuritishni yo'lga qo'yish darkor.

Tog'-kon sanoatini rivojlantirish uchun nufuzli xalqaro konsalting kompaniyalari va xorijiy konsultantlarni jalb qilgan holda mis, rangli, nodir va noyob metallar bo'yicha geologiya qidiruv ishlarini kengaytirish zarur. Bu borada geologik xizmatlar bozorini rivojlantirish va misni qayta ishlash sohasida ko'p pog'onali qo'shilgan qiymat zanjirlarini yaratishga qaratilgan strategik vazifalarni amalga oshirishning ham ahamiyati beqiyos.

Kelgusida ushbu yo'nalishda aholi va tadbirkorlarga davlat xizmati ko'rsatishni takomillashtirish hamda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash maqsadida foydali qazilma konlari va istiqbolli maydonlar to'g'risidagi

ma'lumotlar joylashtirilgan "Interaktiv xarita" yaratilmoqda. Sohaga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, jumladan, tog'-kon sanoati, geologiya va metallurgiya tarmoqlariga qarashli tashkilotlarning ish jarayonini raqamlashtirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Shuningdek, salohiyatli investorlar foydalanishi uchun qazilma boyliklarining istiqbolli maydonlari va konlari to'g'risidagi ma'lumotlar joylashtiriladigan elektron platforma imkoniyatlaridan keng foydalanish choralari ko'riladi. Ayni paytda yer qa'ridan foydalanish sohasida litsenziya va ruxsatnomalar berishni "yagona darcha" tamoyili asosida to'liq elektron tizimga o'tkazish hamda tadbirkorlik subyektlariga tezkor va sifatli davlat xizmatlari ko'rsatishni yo'lga qo'yish ishlari olib borilmoqda.

Sanoatda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish imkoniyatlari ham kengayadi. Jumladan, Navoiy kon-metallurgiya kombinati bo'yicha Zarafshon shahri va Uchquduq tumanida 200 MVt quyosh fotoelektr stansiyasini qurish, Olmaliq kon-metallurgiya kombinati bo'yicha 60 MVtgacha quvvatli quyosh fotoelektr stansiyasini investorlarning mablag'lari hisobidan barpo etishga tayyorgarlik ko'rilmoqda.

Umuman, ayni paytda Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tarkibiga kiruvchi tashkilotlar hamda yirik sanoat obyektlarida umumiy quvvati 6 ming kVt bo'lgan quyosh panellarini hamda umumiy hajmi 500 ming litrdan ortiq geliokollektorlarni o'rnatish ishlari olib borilmoqda.

O'zbekistonda **avtomobilsozlik** sohasida 4 ta nufuzli xorijiy kompaniyaning loyihalarini ishga tushirish orqali bu sohada haqiqiy raqobat muhiti yaratiladi. Shu yo'l bilan mamlakatimizda yillik avtomobil ishlab chiqarish hajmi hozirgi 350 mingtadan 1 million donaga yetkaziladi. Shulardan 300 mingtasini elektromobillar tashkil qiladi.

Xususan, yaqinda Jizzaxda zamonaviy elektromobillar va yangi avlod akkumulator batareyalarini ishlab chiqarish sohasida global yetakchi hisoblangan Xitoyning BYD kompaniyasi ishtirokida yurtimizda qisqa fursatlarda gibrid va elektr avtomobillari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Hozir u yerda 2 modeldagi avtomobil ishlab chiqarilmoqda. Bunda mahsulot tannarxini kamaytirish uchun butlovchi va ehtiyot qismlarni bosqichma-bosqich mahalliyashtirish hamda avtomobillarni uchinchi mamlakatlar bozoriga eksport qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda elektrotexnika, to'qimachilik, charm-poyabzal, oziq-ovqat, farmatsevtika, zargarlik buyumlari, qog'oz sanoati, qurilish materiallari, mebel, uy-ro'zg'or buyumlari ishlab chiqarish va boshqa mahalliy sanoat tarmoqlarini jadal rivojlantirishga ko'maklashuvchi yaxlit tizim yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, **elektrotexnika** sanoatida misni qayta ishlash hajmini 300 ming tonnaga yetkazish va barcha maishiy texnika vositalarini yurtimizda tayyorlash uchun 1,5 milliard AQSH dollari hajmida investitsiya jalb qilish ham ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Mamlakatimizda xomashyoni chuqur qayta ishlashga mo'ljallangan loyihalarni amalga oshirish ishlari boshlab yuborilgan. Bu haqda gapirganda birgina misolga to'xtalmoqchiman: O'zbekistonda har yili qazib olinadigan 150 ming tonna mis xomashyosining atigi 70 ming tonnasi qayta ishlanmoqda. Ushbu bebaho tabiat ne'matining katta qismini shunchaki xomashyo sifatida sotish orqali qancha mablag'ni boy berayotganimizni tasavvur qilish qiyin emas. Yaqin yillarda esa mis ishlab chiqarish hajmini 500 ming tonnaga yetkazmoqchimiz. Bu — juda katta imkoniyat degani.

Shu bois, xomashyodan tayyor mahsulotgacha bo'lgan ko'p pog'onali qo'shilgan qiymat zanjirlarini yaratishga qaratilgan iqtisodiyotning drayveri sifatida respublikamizda Mis sanoati klasteri tashkil etiladi.

Uning hududida mis folgasi, elektrodvigatellar, quyosh panellari, kabel-o'tkazgich mahsulotlari va boshqa yuqori qo'shilgan qiymatli tovarlarni ishlab chiqarish bo'yicha loyihalarni amalga oshirishga kirishilgan.

Hozir Olmaliq kon-metallurgiya kombinatining "Yoshlik-1" konini o'zlashtirish bo'yicha yirik investitsiya loyihasi doirasida yiliga 60 million tonna rudani qayta ishlash quvvatiga ega bo'lgan 3-mis boyitish fabrikasi bunyod etilyapti. Bir vaqtning o'zida 4-mis boyitish fabrikasini loyihalash ishlari ham boshlab yuborilgan.

Ma'lumki, yurtdoshlarimiz xorijiy dori-darmonlarni sotib olish uchun kattagina mablag' sarflashga majbur bo'lmoqda. Vaholanki, o'zimizda **farmatsevtika sanoatini** rivojlantirish uchun juda katta imkoniyatlarimiz mavjud. Shu bois, ushbu tarmoqqa ilg'or ilmiy-texnika yutuqlari va innovatsiyalarni joriy etish orqali mahsulot ishlab chiqarish hajmini 3 barobar oshirish, ichki bozorni ta'minlash darajasini natural hajmda 70 foizga yetkazish vazifalari qo'yilgan. Shu maqsadda Toshkent viloyatining Zangiota tumanida "Tashkent Pharma Park" innovatsion ilmiy-ishlab chiqarish farmatsevtika klasteri tashkil etildi. Klaster sohada dastlabki o'ziga xos "ilmiy shaharcha" bo'lib, butun boshli tarmoq uchun mustahkam baza vazifasini o'taydi. Unda xalqaro tajribalarni keng qo'llash, xorijdan investitsiyalar va zamonaviy ilm-fan yutuqlari, innovatsiya va yuksak texnologiyalarni o'zlashtirish yo'li bilan milliy farmatsevtika sohasi mutlaqo yangi bosqichga olib chiqiladi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda **to'qimachilik va tikuv-trikotaj** sanoatini rivojlantirish, ushbu sohaga ixtisoslashgan korxonalarining investitsiya va eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada respublikamizda ishlab chiqarilayotgan paxta tolasini to'liq, ip-kalavaning esa 45 foizini mahalliy korxonalarda qayta ishlash yo'lga qo'yildi.

O'zbekistonda oxirgi 5-6 yilda to'qimachilik mahsulotlarining eksporti 3 barobar oshdi. 2023-yilda 65 ta xorijiy mamlakatga

639 turdagi 3 milliard AQSH dollarilik tekstil mahsulotlari eksport qilindi. Uning 41,1 foizi ip-kalava, 41 foizi tekstil buyumlaridan iborat. Tarmoqni raqamlashtirish va marketpleysdan keng foydalanish esa 2024-yilda yana qo'shimcha 1 milliard AQSH dollarilik miqdoridagi mahsulotni eksport qilish imkonini beradi.

Keyingi besh yilda paxta tolasini chuqur qayta ishlash orqali tikuvchilik va to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni 2,1 barobar, eksport ko'rsatkichini 2,6 barobar ko'paytirish, gilam va uy to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni ham rivojlantirish rejalashtirilgan.

Respublikamizda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yangi sifat bosqichiga olib chiqishning asosiy yo'nalishlari belgilangan. Jumladan, ip-kalavani qayta ishlash darajasini 2027-yil oxiriga qadar bosqichma-bosqich 100 foizga yetkazish, gazlama, trikotaj matolari ishlab chiqarish va bo'yash hajmini ham oshirish ko'zda tutilgan.

Bu davrda O'zbekistonni o'ziga xos "to'qimachilik habi"ga aylantirish va xalqaro darajada tan olingan kamida 10 ta mahalliy brendni yaratish ustida ish olib boriladi. Korxonalariga o'z mahsulotini ichki va tashqi bozorda sotishida ko'maklashish bo'yicha manzilli choralar ko'riladi. Andijon va Namangan viloyatlaridagi to'qimachilikka ixtisoslashgan kichik sanoat zonalari hamda Toshkent viloyatidagi industrial texnopark infratuzilma bilan to'liq ta'minlanadi. Shuningdek, tadbirkorlarning talabi va loyihalari asosida tegishli bino va inshootlar qurilib, ularga imtiyozli shartlarda foydalanishga beriladi.

Tekstil sanoat zonalari direksiyasi va ularda tashkil qilingan korxonalar 2026-yilning 1-yanvarigacha mulk, yer va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlar to'lashdan ozod qilindi.

Jahon bozorlarida raqobatning kuchayishi, xorijiy ishlab chiqaruvchilar tomonidan aralash turdagi mahsulotlar tayyorlash hisobiga xarajatlarning kamaytirilishi ushbu sohani rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlarni taqozo etmoqda. Shuni nazarda tutib, 2025-yil 1-yan-

vargacha Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda bo'yalgan mato hamda aralash va bo'yalgan gazlama mahsulotlarini ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirgan korxonalariga mazkur loyihalar doirasida xarid qilingan uskunalar qiymatining 10 foizi (500 ming AQSH dollaridan ko'p bo'lmagan) miqdorda subsidiya ajratish belgilangan.

Shuningdek, gazlama, trikotaj mato va tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari eksport qiluvchi korxonalarni uzluksiz kreditlash orqali aylanma mablag' bilan ta'minlash maqsadida Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi tomonidan O'zbekistonga 2024-yil avgustdan 2026-yil 1-yanvarga qadar 150 million AQSH dollari miqdoridagi mablag' yillik 4 foiz stavkada ajratilishi belgilandi. Tijorat banklarida esa gazlama, gilamchilik, lok-bo'yoq, tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish loyihalari uchun 10 yil muddatga mo'ljallangan imtiyozli kredit liniyalari ham ochilmoqda. Shu bilan birga, eksportoldi va eksport bilan bog'liq savdo operatsiyalarini moliyalashtirish uchun oxirgi 12 oy mobaynida amalga oshirilgan eksport hajmidan kelib chiqqan holda 3 yilga mo'ljallangan moliyaviy resurslar ajratish tartibi belgilandi. Qolaversa, ip-kalava ishlab chiqaruvchilar paxta va sun'iy tolani o'z ehtiyoji uchun import qilsa (qo'shni davlatlardan tashqari), transport xarajatlari uchun sarflagan mablag'ining 50 foizi davlat tomonidan qoplab beriladi.

Yurtimizda bundan buyon **charm-poyabzal va mo'ynachilik** sohalarini yanada rivojlantirish, import o'rnini bosuvchi va eksportga mo'ljallangan sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratiladi. Xususan, charm-poyabzal sanoatiga 30 dan ortiq nufuzli xorijiy brendlarni jalb qilish hisobidan qo'shilgan qiymatni 5 barobar oshirish choralari belgilanmoqda.

Hududlarda xomashyoni to'liq yig'ib olish va qayta ishlashga yo'naltirish maqsadida terini qayta ishlovchi korxonalar bilan chorvachilik klasterlari va kushxonalar, aholidan terini yig'uvchi

tadbirkorlar hamda o'zini o'zi band qilgan jismoniy shaxslar o'rtasida kooperatsiya tizimi joriy qilinadi.

Teri xomashyosini chuqur qayta ishlash va eksportga yo'naltirilgan yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga mo'ljallangan investitsiya loyihalarini amalga oshirishga jiddiy ahamiyat qaratiladi. Shu yo'l bilan xalqaro moliya institutlari va xorijiy tijorat banklaridan jami 340 million AQSH dollari uzoq muddatli imtiyozli kredit sifatida jalb etiladi.

Yurtimizda tashkil etilgan 16 ta ixtisoslashgan charm-poyabzal kichik sanoat zonalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari doirasida elektron onlayn auksionlarga chiqariladigan yer uchastkalarining boshlang'ich narxi 25 yil muddatga hisoblanadi hamda mazkur hududlar boshlang'ich narxining 10 foizi miqdorida savdoga chiqariladi. Bunda elektron onlayn auksionlar g'oliblariga sotib olingan yer uchastkalarining pulini 3 yil davomida teng ulushlarda to'lash imtiyozi ham beriladi.

Ma'lumki, hozir dunyoda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash global muammolardan biriga aylangan. Bu masala bizni ham chetlab o'tayotgani yo'q, albatta. Shu bois, **oziq-ovqat sanoatini** aholining hozirgi va kelajakdagi iste'mol talablarini hisobga olgan holda jadal rivojlantirish masalasi yangicha islohotlarning eng ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilangan.

Sir emas, qishloq xo'jaligi sohasida oziq-ovqat mahsulotlarining salmoqli qismi uy xo'jaliklarida yetishtiriladi. Demak, yirik sanoat tarmoqlari, hududiy korxonalar va aholi o'rtasida sanoat kooperatsiyasini rivojlantirishning ahamiyati katta.

Sanoatda ichki va tarmoqlararo kooperatsiya aloqalarini kengaytirish va chuqurlashtirish, mahalliy korxonalarni global ishlab chiqarish zanjirlariga jalb qilish va tayyor mahsulotni uchinchi davlatlarga hamkorlikda eksport qilishni yo'lga qo'yish zarur. Shu maqsadda sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydigan xususiy

va xorijiy investitsiyalar hamda zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish uchun shart-sharoitlar yaratiladi.

Tumanlarda sanoat kooperatsiyasini kengaytirish hisobiga import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlari mavjud. Masalan, Olmaliq kon-metallurgiya kombinati mahalliy sanoat korxonalarini bilan kooperatsiyani yo'lga qo'yish orqali polimer, quyma ehtiyot qismlar, kimyoviy reagent kabi 1 trillion so'mlik mahsulot olmoqda. Ushbu tajribani boshqa hududlarda ham yo'lga qo'yish mumkin.

Yurtimizda yirik korxonalarining import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishi va hududiy korxonalar bilan kooperatsiya aloqalarini kengaytirishini rag'batlantirish hamda sanoat kooperatsiyasini yo'lga qo'ygan korxonalarini faol qo'llab-quvvatlash bo'yicha alohida tizim yaratilgan.

So'nggi yillarda hududlarning sanoat salohiyatini mustahkamlash, shahar va tumanlarda yangi ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Istiqbolda yurtimizda mavjud tabiiy va iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish, hududlarning bu boradagi salohiyatini ishga solish asosida mahalliy sanoatni rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim.

Afsuski, mahalliy korxonalarimizning eksport salohiyati hamon past darajada qolmoqda. Shu bois, bundan buyon ularning o'z mahsulotlarini eksport qilishiga davlat tomonidan ko'maklashish tizimini takomillashtirish choralari ko'riladi. Shu yo'l bilan eksportchi korxonalar sonini hozirgi 6,5 mingtadan 15 mingtaga, tovarlarning eksport geografiyasini 115 mamlakatdan 150 taga yetkazish ko'zda tutilgan. Ushbu vazifalarning bajarilishida turizm, transport, axborot-kommunikatsiya, jumladan, dasturiy ta'minot va boshqa xizmatlar eksporti muhim rol o'ynaydi.

Hududlarda import o'rnini bosuvchi, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan yirik sanoat loyihalarining amalga oshirilishini

yanada rag'batlantirish maqsadida "140 ta ilg'or sanoat korxonasi" dasturi amalga oshirilmoqda. Ushbu dasturga kiritilgan tadbirkorlik subyektlarining loyihalarini moliyalashtirish uchun xorijiy valutada yillik 4 foiz, milliy valutada yillik 10 foiz stavkada 10 yil muddatgacha kredit mablag'lari ajratiladi.

Mahalliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga yetkazish maqsadida ishonchli logistika zanjirlarini tashkil qilish, bu boradagi mintaqaviy va yirik xalqaro loyihalarni jadallashtirish, tovarlarni bojxona rejimida qayta ishlashni kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Moliyalashtirish imkoniyati va salohiyatini kengaytirish orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirish va ularning raqobatbardoshligini oshirish juda muhimdir. Shu bois hududlardagi yuqori salohiyatga ega istiqbolli kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari, shu jumladan, ayollar faoliyat yuritayotgan korxonalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Sanoat sohasini rivojlantirishda tadbirkorlarni "tayyor biznes" shaklida tegishli bino bilan ta'minlashni nazarda tutuvchi sanoat ipotekasi tizimi joriy etildi. Bu borada samaradorlikka erishishda, avvalo, ilmiy tadqiqot tashkilotlari va aql markazlarini rivojlantirishning ham ahamiyati katta. Aynan shuning uchun metallni qayta ishlash, mashinasozlik va elektronika, transport va logistika, qishloq xo'jaligi yo'nalishlarida 8 ta ilmiy-ishlab chiqarish klasterini tashkil etish ko'zda tutilgan. Elektrotexnika, mashinasozlik, to'qimachilik, qurilish materiallari, geologiya, energetika, biotexnologiya, kimyo, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash, transport va logistika kabi yo'nalishlarda "Izlanish va rivojlantirish" markazlarini tashkil etishga ham alohida ahamiyat qaratiladi.

Yangi O'zbekiston — raqamli iqtisodiyot sari

Iqtisodiyotda samaradorlikni oshirish, qog'ozbozlik va byurokratiyadan voz kechish, ishlab chiqarish munosabatlarida subyektiv omillarning ta'sirini kamaytirish va shaffoflikni ta'minlashda raqamli iqtisodiyotga o'tish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois, yurtimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoq va sohalarda, ayniqsa, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT parklar tashkil etish hamda sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni ko'zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalar ro'yobga chiqarilmoqda.

Shuningdek, milliy iqtisodiyotda 40 dan ortiq axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan geoportalni ishga tushirishga hozirlik ko'rilmqda. Jamoat transporti va kommunal infratuzilmani boshqarishning axborot tizimini yaratishga e'tibor qaratilib, ijtimoiy sohani raqamlashtirishga mo'ljallangan "Raqamli Toshkent" kompleks dasturi amalga oshirilmoqda. Keyinchalik ushbu tajribani boshqa hududlarda joriy etish nazarda tutilgan. "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi mamlakatimizda raqamli sanoatni jadal rivojlantirish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan bo'lib, hududlar va tarmoqlarni raqamli transformatsiya qilish dasturlarini ham o'z ichiga oladi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda 20 ming kilometr optik-tolali aloqa liniyalarini qurish va mobil aloqa tarmoqlarini kengaytirish orqali hududlar va tarmoqlarni, aholi punktlarini internet tarmog'i bilan

qamrab olish darajasi 95 foizga yetkazildi. Ayniqsa, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish doirasida 400 dan ortiq axborot tizimlari, elektron xizmatlar va boshqa dasturiy mahsulotlar joriy etilmoqda.

Iqtisodiyotning real sektoriga qarashli korxonalarda boshqaruv, ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini avtomatlashtirish maqsadida 280 dan ortiq axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlar amaliyotga joriy etildi. Tegishli oliy ta'lim muassasalarida mahalliy hokimliklar va davlat idoralarining xodimlari raqamli savodxonlik, axborot texnologiyalari va axborot xavfsizligi bo'yicha o'qitildi.

Hukumat tomonidan mahalliy IT kompaniyalar va dasturiy mahsulotlar ishlab chiqaruvchilar haqida yagona ma'lumotlar bazasi shakllantirilib, ularga o'z mahsulotini ichki va tashqi bozorlarga olib chiqishida ko'mak berilmoqda. Davlat idoralarida axborot tizimlarini to'liq joriy etish, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning amaliy masalalarini hal qilish hamda axborot texnologiyalariga oid qonun hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha ham aniq vazifalar belgilangan.

Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish maqsadida 2020-yil 1-noyabrdan mobil aloqa operatorlari uchun radioelektron qurilmalar, asbob-uskunalarini O'zbekiston Respublikasiga olib kirish, sotib olish, o'rnatish, loyihalash va qurishni ruxsatnoma olmasdan, belgilangan tartibda rasmiylashtirish yo'lga qo'yildi.

Raqamli texnologiyalar vazirligi, Adliya vazirligi va ularning tizimidagi tashkilotlar negizida "Raqamli idora" loyihasi ishga tushirildi. Shu orqali qog'ozsiz, elektron hujjat almashinuvi va ish yuritishni yo'lga qo'yish, barcha ma'muriy tartib-taomillar va operatsion jarayonlarni raqamlashtirish borasida katta hajmdagi ishlar amalga oshirildi. Ayni paytda "Raqamli idora" loyihasi boshqa davlat muassasalarida ham ularning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda joriy etilmoqda.

Davlat idoralarida raqamli texnologiyalar joriy etilishini qo'llab-quvvatlash maqsadida 2020-yildan e'tiboran yurtimizda barcha vazirlik va idoralar, mahalliy hokimiyat organlarida rahbar o'rinbosarlaridan biriga raqamlashtirish bo'yicha vakolatlar berildi. Ular idoraviy raqamli transformatsiya dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, elektron davlat xizmatlarini ko'rsatishni yanada kengaytirish uchun zarur sharoitlar yaratish choralarini ko'radi. Bunda davlat idoralarining ochiq va shaffof faoliyat ko'rsatishi, raqamli infratuzilmalarda axborot xavfsizligini ta'minlashga ham alohida e'tibor qaratiladi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish maqsadida hududlarda ham zamonaviy IT parklar tashkil etilmoqda. Natijada so'nggi bir yilda O'zbekistondan xorijiy mamlakatlarga axborot texnologiyalari xizmatlari eksporti 2,4 barobar oshdi. E'tiborli jihati shundaki, ushbu eksportning qariyb yarmi dunyoning eng ilg'or mamlakatlaridan biri bo'lgan AQSH hissasiga, chorak qismi Buyuk Britaniya va Yevropa Ittifoqi davlatlariga, qolgan 32 foizi MDH, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika davlatlariga to'g'ri keladi.

2023-yilda texnopark rezidentlari tomonidan 8 mingta yangi ish o'rinlari yaratilib, mutaxassislarning umumiy soni 26 ming nafardan ortdi. Ularning to'rtidan uch qismi dasturchilardan iborat.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish, avvalo, ishlab chiqarish tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimining jadal rivojlanishini ta'minlash, shu jumladan, elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish mexanizmlarini yanada takomillashtirish kabi maqsadlarni nazarda tutadi. Umuman, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirish bo'yicha belgilangan strategik maqsadlar BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari va Elektron hukumatni rivojlantirish reytingida belgilangan ustuvor vazifalar bilan hamohangdir. Bu boradagi islohotlar mamlakatimizda

raqamli texnologiyalarni yanada kengroq joriy etishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, O'zbekistonda raqamli infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha oldimizda yana bir qator muhim vazifalar turibdi.

Birinchidan, optik tolali aloqa liniyalari va xalqaro kommutatsiya markazlarini modernizatsiya qilish va rivojlantirish orqali mintaqaviy, xalqaro telekommunikatsiya tarmoqlari hamda qo'shni davlatlar bilan tranzit aloqalarining o'tkazuvchanlik qobiliyatini kengaytirishimiz lozim.

Ikkinchidan, taqdim etilayotgan xizmatlar hajmini oshirish, rezervlash, tizimlarning ishonchliligini ta'minlash hamda aholi punktlari va ijtimoiy obyektlarning keng polosali xizmatlardan foydalanish imkoniyatini oshirish uchun ma'lumotlar uzatish tarmog'ini yanada rivojlantirish talab etiladi.

Uchinchidan, mobil va yo'ldosh aloqa operatorlarining investitsion faolligini rag'batlantirishning qo'shimcha mexanizmlarini yaratish zarur. Ayniqsa, mobil aloqa tarmog'ini 4G va 5G texnologiyasi asosida rivojlantirish, Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlar markazlarini beshinchi avlod aloqa tarmog'i bilan bosqichma-bosqich qamrab olish kerak. Qolaversa, barcha aholi punktlari va ijtimoiy obyektlarni optik va keng polosali mobil tarmoqlar bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratish joizdir.

To'rtinchidan, avtomagistral va temiryo'llar, turistik obyektlarni sifatli mobil aloqa tarmoqlari bilan ta'minlash, internet tarmog'iga ulanish tariflarini takomillashtirish va optimallashtirishning ham ahamiyati katta. Yurtimizning barcha hududlarida fuqarolarning axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun keng polosali simsiz va mobil texnologiyalarni yanada rivojlantirish haqida o'ylashimiz zarur.

Beshinchidan, televizion signallar uzatish, yerusti televizion eshittirishlari, kabel televideniyesi, IP-televideniye, ma'lumotlar

uzatish tarmoqlari, mobil aloqa, internet texnologiyalariga asoslangan teleradioeshittirish hamda raqamli eshittirishlarni takomillashtirish lozim. Bunda “bulutli” hisoblashlar asosida ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash markazlarini rivojlantirish, foydalanuvchilarning mamlakatimizdagi axborot resurslariga doimiy ulanishini ta'minlashga ham alohida e'tibor qaratish kerak.

Oltinchidan, respublikamizda telekommunikatsiyalar rivoji uchun sharoitlarni yaxshilash, bu sohada biznes yuritish va infratuzilmani rivojlantirish uchun ma'muriy to'siqlarni kamaytirish talab etiladi. Elektron shakldagi davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirish uchun barcha davlat organlari, ularning tarkibiy va hududiy bo'linmalarini idoralararo ma'lumotlar uzatish tarmog'i bilan to'liq qamrab olish va uni rivojlantirish darkor.

Yettinchidan, mamlakatimiz hududida davlat organlari, jismoniy va yuridik shaxslarning axborotni saqlash, qayta ishlash, himoya qilish va elektron davlat xizmatlaridan samarali foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish lozim. Bu jarayonda davlat organlari faoliyatini raqamlashtirish va elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish doirasida “xizmat sifatida dasturiy ta'minot”, “xizmat sifatida platforma”, “xizmat sifatida infratuzilma” texnologiyalarini keng joriy etishni ham nazarda tutish kerak bo'ladi.

Sakkizinchidan, shaharlar infratuzilmasini boshqarishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati juda katta. Xususan, transport logistikasi, mavjud infratuzilma sifatini yaxshilash, jamoat maskanlari, biznes va yashash joylaridagi qator muammolarni hal qilishda beminnat yordamchi vazifasini o'taydi. Shuning uchun “Aqlli shahar” va “Xavfsiz shahar” loyihalarini amalga oshirishda avvalo raqamli texnologiyalarning imkoniyatlariga suyanish taqozo etiladi.

To'qqizinchidan, kelgusida simli va simsiz aloqa turlari hamda yangi geografik axborot va navigatsiya tizimlarining samaradorligini

oshirishga xizmat qiladigan texnologiyalarni rivojlantirish, aloqa operatorlari o‘rtasida raqobatni rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish zarur.

Hech shubhasiz, elektron hukumatni rivojlantirish — raqamli iqtisodiyotni shakllantirishning eng muhim omili hisoblanadi. Shuning uchun mamlakatimizda talab yuqori bo‘lgan elektron davlat xizmatlarini yanada kengaytirish va ularning sifatini oshirish, bu yo‘nalishdagi barcha xizmatlarni bosqichma-bosqich to‘liq raqamli shaklga o‘tkazish talab qilinadi.

Mamlakatimiz tibbiyotida elektron xizmatlarni rivojlantirish uchun milliy integratsiyalashgan axborot tizimini joriy etishga ehtiyoj sezilmoqda. Ta‘lim sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanish orqali ta‘lim boshqaruvini avtomatlashtirish va bu jarayonni atroflicha tahlil qilib borish mumkin. Mehnat faoliyati va aholining ijtimoiy ta‘minotini tartibga solish jarayonlariga ushbu yangilikni chuqurroq olib kirish natijasida uy-joy kommunal xizmatlarini ko‘rsatish borasida ham muhim o‘zgarishlarga yo‘l ochiladi.

Shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida qurilish sohasida shaffoflikka erishish va sifatni oshirish, qishloq xo‘jaligida yerdan foydalanish unumdorligini ta‘minlash, mahsulotlar tannarxini kamaytirish va eksport salohiyatini ko‘tarish imkoniyati yaratiladi. Qolaversa, bunday texnologiyalar elektr energiyasini ishlab chiqarish va iste‘molchilarga yetkazish, uglevodorod xomashyosini qazib olish va qayta ishlash jarayonlarida beminnat ko‘makchi vazifasini o‘taydi.

Yangi O‘zbekiston iqtisodiyotining real sektorida raqamli texnologiyalarni rivojlantirishning ahamiyati beqiyos. Shu bois sanoat korxonalariga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish orqali barcha ishlab chiqarish bosqichlarini avtomatlashtirish, shu orqali

logistika va xarid xarajatlarini qisqartirish zarur. Zamonaviy axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarni qo'llash hisobiga mahsulotlar va xizmatlar sifatini yaxshilash, ularning tannarxi hamda ishlab chiqarishdagi to'xtalishlarni kamaytirish, korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy jihatdan shaffofligini oshirish mumkin.

Kelgusida ish o'rinlarini bosqichma-bosqich avtomatlashtirish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini robotlashtirish, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish iqtisodiy islohotlarimizning ustuvor vazifalaridan biri bo'ladi. Bunday natijalarga erishish uchun, avvalo, bu boradagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish talab etiladi.

Yurtimizda savdo hajmini oshirish va mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash maqsadida buyurtmachi (mijoz)lar bilan o'zaro munosabat mexanizmlarini takomillashtirish, boshqaruv ma'lumotlarini qabul qilishni qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish, 2025-yilda korxonalar resurslarini boshqarish tizimi (ERP) joriy qilingan yirik xo'jalik yurituvchi subyektlarning ulushini 90 foizga yetkazish vazifalari belgilangan.

Shu bilan birga, O'zbekistonda kommunal xizmatlar bo'yicha hisob-kitoblarni boshqarish uchun smart-texnologiyalar joriy qilinadi va ushbu turdagi xizmatlarni tartibga solishga mo'ljallangan "aqli uy" tajribasi keng qo'llaniladi. Respublikamizning barcha yirik shaharlarida jamoat transportida yo'lkira haqi to'lashning avtomatlashtirilgan tizimiga o'tish va naqd pulsiz to'lovlar ulushini 90 foizga yetkazish choralari ko'riladi. Korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar va xizmatlarni internet orqali sotishni kengaytirish va transport tizimini kompleks rivojlantirish uchun dasturiy modellashtirish tizimlaridan foydalanish mexanizmlari yaratiladi. Sug'urta tizimini raqamlashtirish, bosqichma-bosqich raqamli logistika tizimiga o'tish ham raqamli iqtisodiyotning muhim omillaridan hisoblanadi.

Iqtisodiyotning real sektorlarida robotlashtirilgan sanoatni rivojlantirish, yirik sanoat korxonalarida robototexnika va muhandislik

ixtisosliklarini tashkil etishning ham ahamiyatini tasavvur qilish qiyin emas. Elektron tijorat va elektron to'lovlar tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishda ham sezilarli natijalarga erishish mumkin. O'z navbatida, xalqaro elektron tijorat standartlari va zamonaviy axborot xavfsizligi talablariga qat'iy rioya qilinishiga erishish uchun uning huquqiy asoslarini takomillashtirish lozim.

Agrar sohani rivojlantirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash

O'zbekiston tuprog'i oltinga teng. Agar biz yer-suv boyliklarimiz va quyosh nuridan samarali foydalansak, turmushimiz yanada farovon, dasturxonimiz doimo to'kin bo'ladi.

Ochig'ini aytish kerak, uzoq yillar davomida yurtimiz boyliklarining pala-partish o'zlashtirilgani, yaqin vaqtlargacha qishloq xo'jaligi sohasida "paxta yakkahokimligi" hukm surgani uchun tabiat bilan iqtisodiyot o'rtasidagi muvozanatga putur yetgan edi. Ayniqsa, yer-suv resurslaridan oqibatini chuqur o'ylamasdan, noto'g'ri foydalanish oqibatida ekin maydonlarining unumdorligi tushib ketdi. Orol dengizining qurishi, ekologik vaziyatning yomonlashuvi nafaqat qishloq xo'jaligiga, balki milliy iqtisodiyotimizga, xalqimizning turmushiga salbiy ta'sir ko'rsata boshladi.

Boz ustiga, XXI asrning boshlaridan iqlim o'zgarishi, cho'llanish, suv raqchilligi muammolarining kuchayishi, qolaversa, dunyodagi beqaror geosiyosiy vaziyat yuzaga kelishi, jahon bozorida oziq-ovqat mahsulotlari narxining tinimsiz o'sib borishi ham qishloq xo'jaligining barqaror rivojiga salbiy ta'sir ko'rsata boshladi.

Ma'lumki, qishloq xo'jaligi mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sish

va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, eksport salohiyatini oshirish, xalqimizning turmush darajasini yaxshilash bevosita ushbu sohaning rivojlanish darajasiga, tarmoqda amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlarga bog'liqdir.

Shu bois, mamlakatimizda islohotlarning yangi bosqichida qishloq xo'jaligini tubdan isloh qilish, tabiiy resurs va iqtisodiy salohiyatdan oqilona foydalanish hamda ishlab chiqarishga zamonaviy agrotexnologiyalarni tatbiq qilish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimiz aholisining yarmidan ko'prog'i qishloqlarda yashayotganini inobatga oladigan bo'lsak, agrar sohaning ahamiyati yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Shu tufayli aholi daromadlari va turmush darajasini oshirish maqsadida qishloqlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan siyosat olib borilmoqda. Natijada chekka va olis hududlarda ham zamonaviy sanoat korxonalari, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma obyektlari barpo etilmoqda, qishloqlarning qiyofasi tubdan o'zgarib, shahar tusini olmoqda.

Hozirgi paytda qishloq xo'jaligini rivojlantirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda shu chog'gacha kuzatilmagan mislsiz yangi tahdidlar paydo bo'lmoqdaki, kelgusi rejalarimizni belgilashda ularni ham e'tiborga olishimiz zarur. Ayrim davlatlar o'rtasida ro'y berayotgan siyosiy va harbiy nizolar, iqlim o'zgaruvchanligi, beqaror ob-havo sharoiti, dunyoda iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishi kabi omillar shular jumlasidandir.

So'nggi o'n yillikda sayyoramizda suv toshqini, qurg'oqchilik, ekstremal haroratlarning tez-tez ro'y berishi kabi tabiiy ofatlar soni ko'paydi. Masalan, o'tgan asrning yetmishinchi yillarida har yili o'rtacha 100 ta ana shunday hodisa kuzatilgan bo'lsa, so'nggi yigirma yilda bu ko'rsatkich 400 taga yetdi. Bu esa, o'z navbatida, agrar tarmoqda mahsulot yetishtirish hajmining kamayishi, daromadlarning pasayishiga

olib kelmoqda, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sifati, miqdori va ozuqaviy qiymatiga putur yetkazmoqda.

Oziq-ovqat ta'minotini barqaror yetkazib berishdagi qiyinchiliklar hamda global savdodagi to'siqlar ham millionlab insonlar hayotida salbiy iz qoldirayapti. BMT ma'lumotlariga ko'ra, ayni paytda dunyodagi 22 ta davlatda oziq-ovqat tanqisligi kuzatilmoqda. Xalqaro oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti esa hozirgi paytda Yer yuzida 122 million kishi ochlikdan aziyat chekayotgani haqida bong urmoqda.

Ana shularni e'tiborga olib, biz yurtimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga eng asosiy strategik vazifalardan biri sifatida ahamiyat qaratmoqdamiz. Ushbu yo'nalishda muhim chora-tadbirlar amalga oshirilayotgani tufayli O'zbekistonning tegishli ko'rsatkichlar bo'yicha dunyodagi o'rni va mavqeyi yil sayin yaxshilanib bormoqda.

Misol uchun, 2018-yilda Global ochlik indeksi bo'yicha respublikamiz 119 mamlakat orasida 52-o'rinda qayd qilingan bo'lsa, 2022-yilda 121 davlat o'rtasida 21-o'rinni, MDH davlatlari orasida esa 1-o'rinni egalladi. Albatta, bu natijalar aslo xotirjamlikka berilishimizga asos bo'lmasligini barchamiz yaxshi anglaymiz.

Iqlim o'zgarishi tufayli oldindan bashorat qilish tugul, oqibatlarini tasavvur ham etib bo'lmaydigan ulkan falokatlarning yuzaga kelishi ehtimolining ortishi — bu boradagi eng katta muammo hisoblanadi. Yer va suv resurslarining sifatiga ta'sir qiluvchi ob-havo sharoiti o'z kuchini ko'rsatayotgan sharoitda esa ekin-tikinlardan kutilgan hosilni olish juda-juda qiyin.

Qolaversa, iqlim beqarorligi oqibatida qurg'oqchiliklar kuchayib, yer degradatsiyaga uchraydi, tuproqdagi tuz miqdori ortib, suv resurslari keskin kamayadi. Bunday sharoitda mamlakat iqtisodiyotini mavjud vaziyatga moslashtirish va ehtimoliy xatarlarning oldini olishga harakat qilish hayot-mamot masalasiga aylanishi shubhasiz.

Binobarin, oziq-ovqat xavfsizligiga jiddiy e'tibor qaratish va kelgusida bu borada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarning yechimi haqida hozirdan bosh qotirish zarur. Mamlakatimizda yildan yilga aholi soni ortib borayapti. Albatta, odam soni ko'paygani bilan yer maydoni kengayib qolmaydi, suv resurslari esa tobora kamaymoqda, iqlim o'zgarmoqda. Bu omillarning barchasi oziq-ovqat xavfsizligiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiladi.

Ayni paytda sifatli va arzon oziq-ovqat mahsulotlarini to'g'ridan to'g'ri yetkazib berish uchun mamlakatlar o'rtasida "yashil" va ekspress yo'laklar ochilishi rejalashtirilmoqda. "Yashil" yo'laklar bizga zarur mahsulotlarni qisqa fursatlarda xarid qilish va sotish uchun kerak bo'ladi. Bunday yo'laklarni ishga tushirish uchun qo'shni davlatlar bilan yangi loyihalar ustida ish olib borilmoqda. Hamkor davlatlar bilan esa umumiy standartlashtirishni ishlab chiqyapmiz. Bunday choralar tovarlarni qo'l rejimisiz tashishga erishish, ya'ni yo'lda ochib, qayta tekshirish holatlarining oldini olish imkonini beradi.

Standartlashtirish oziq-ovqat tovarlarining belgilangan manzilga sifatli holda yetkazilishini ta'minlaydigan ekologik yo'nalishlarni ishlab chiqishni ham o'z ichiga oladi. Bir vaqtning o'zida bojxona tartib-taomillari, karantin xizmatlari, fitosanitariya masalalari ham hal etilmoqda. Umuman, bunday sa'y-harakatlar tovar tashishda byurokratik jarayonlarni kamaytirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

So'nggi yillarda O'zbekistonda oziq-ovqat tovarlari savdosi bilan bog'liq qator to'siqlar bartaraf qilindi. Ushbu mahsulotlar boj to'lovlaridan ozod qilinishi inflatsiya darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatish barobarida, mamlakatimizda oziq-ovqat narxlarining pasayishi va sohada raqobat kuchayishiga turtki bo'ldi.

O'zbekistonda dehqon xo'jaliklariga yer ajratish tizimi ham joriy etildi. Paxta va g'alla maydonlarini qisqartirish hisobidan keyingi ikki

yilda 600 mingdan ortiq dehqon xo'jaligiga iste'molbop qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish uchun 200 ming gektar yer ajratildi. 500 ming gektar qo'shimcha yer foydalanishga kiritildi. Natijada 700 ming aholi doimiy, 1,3 million kishi mavsumiy ish bilan ta'minlandi, 605 ming nafar dehqonning daromadi ko'paydi.

Shuningdek, xalqimizning dasturxonini to'kin qilish maqsadida 2024-yil 1-yanvargacha yurtimizga olib kiriladigan 35 turdagi oziq-ovqat mahsulotlariga boj to'lovlarida imtiyoz berildi. Bundan tashqari, ijtimoiy reyestrda kirgan aholiga o'zlari xarid qilgan mol, qo'y va parranda go'shti, tuxum va o'simlik yog'i uchun qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarib berish tartibi joriy qilindi. Respublikamiz bo'yicha 2 milliondan ortiq oila ana shu yengillikdan foydalanadi.

Qishloq xo'jaligini hududiy jihatdan tashkil etishda zamonaviy usullarning keng joriy etilishi yuqori qo'shimcha qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashish sari yo'l ochadi. Demak, bu sohada ishlab chiqarishning klaster shaklini joriy etishning istiqboli porloq.

Zamonaviy klaster ta'limotining asoschisi Maykl Porter fikricha, klaster — bu ma'lum bir hududda geografik jihatdan o'zaro yaqin joylashgan, faoliyati o'xshash va bir-birini to'ldiruvchi kompaniyalar (tovar yetkazib beruvchilar, ishlab chiqaruvchilar, vositachilar) hamda tegishli tashkilotlar (ta'lim muassasalari, davlat idoralari, infratuzilma kompaniyalari) guruhidir. Shuningdek, u bir tarmoqqa mansub eng raqobatbardosh firmalar odatda turli shaharlarda tarqoq holda emas, balki muayyan bir hududda to'planishga moyil ekanligiga e'tibor qaratadi. Natijada raqobatbardosh ishlab chiqaruvchiga aylanishda bir-biriga ko'maklashadigan, o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan sanoat korxonalarini majmuasi — klaster shakllanadi.

O'zbekistonda klasterlar tashkil etish orqali sohaga yangi texnologiya va innovatsiyalarni jalb qilish, ishlab chiqarish samaradorligini

oshirish hamda boshqaruvda davlatning rolini kamaytirish rejalashtirilgan.

Tahlillarga ko'ra, 2023-yilda yurtimizdagi 41 ta paxta-to'qimachilik klasterida paxta hosildorligi 40 sentnerdan oshgan bo'lsa, 9 tasida bu ko'rsatkich 30 sentnerdan kamroqni tashkil etgan. Hosildorlikning pastligi va tannarx yuqoriligi oqibatida Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand va Toshkent viloyatlarida rentabellik darajasi 10–11 foizdan oshmagan. Sohadagi yana bir dolzarb masala — ayrim klasterlar bilan fermerlar o'rtasida hisob-kitob intizomi buzilgan. Xususan, 122 ta klaster Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi va fermerlar oldida qarzdor bo'lib qolgan. Qolaversa, 6 ta klaster ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lmasa-da, ularga imtiyozli kredit ajratilgan. Shularni nazarda tutib, klasterlarni tashkil etish va ular bilan fermerlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish bo'yicha yangi tizim joriy qilindi.

Yurtimizda mazkur tarmoq rivojini qo'llab-quvvatlash maqsadida gazlama-mato, bo'yash va tikuvchilik sohalarini qo'llab-quvvatlashning yangi tizimi yo'lga qo'yildi. Unga asosan, bo'yalgan matoning 50 foizdan kam bo'lmagan qismini ichki bozorda sotgan korxonalar ijtimoiy soliqni 1 foiz stavkada to'laydi. Shuningdek, ularga mol-mulk solig'ini 3 yil davomida bo'lib-bo'lib to'lashga ruxsat etiladi hamda 2025-yil 1-yanvarga qadar paxta va sun'iy tolani import qilishda transport xarajatlarining 50 foizi qoplab beriladi. Yana bir muhim jihati, to'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalari zarur texnologik uskunalari va ularning ehtiyot qismlarini import qilishda bojxona bojidan ozod etildi.

Mamlakatimizdagi 25 ta tumanda chorva klasterlarini tashkil etish, sut yetishtirish va uni qayta ishlashga ixtisoslashgan korxonalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash masalasiga ham jiddiy e'tibor qaratish lozim. Shu bilan birga, baliq mahsulotlari yetishtirish hajmini ko'paytirish borasida ilg'or xorijiy tajribalarni atroflicha o'rganish,

ayniqsa, hovuzlar tashkil qilishda Sloveniya tajribasidan foydalanish yaxshi samara berishi mumkin.

O'rni kelganda bir achchiq haqiqatni tan olish lozim, O'zbekiston qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotishdan daromad olish borasida ko'plab xorijiy mamlakatlardan sezilarli darajada ortda qolmoqda. Misol uchun, Turkiyada 1 gektar yerda o'rtacha 2 ming AQSH dollari, Misrda 8 ming AQSH dollari, Isroilda esa 12 ming AQSH dollari miqdorida mahsulot yetishtiriladi. Taassufki, mamlakatimizda bu ko'rsatkich 300 AQSH dollaridan oshmaydi. Oqibatda, mahsulotlarimiz tashqi bozorda raqobatga dosh bera olmayapti. Shuning uchun zamonaviy agrotexnologiya tadbirlaridan unumli foydalanish orqali har gektar ekin maydonidan olinadigan daromadni o'rtacha 5 ming AQSH dollariga yetkazishimiz zarur.

Albatta, 2022-yilda mamlakatimiz bo'yicha atigi 1 milliard 150 million AQSH dollari miqdorida meva-sabzavot mahsulotlari eksport qilingani hech birimizni qoniqtirmaydi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va eksport qilish bo'yicha ulkan salohiyatga ega bo'lgan O'zbekiston uchun bu ko'rsatkich juda kam. Shu bois yaqin vaqtlarda ushbu raqamni 3 milliard AQSH dollariga oshirish va 2030-yilda 10 milliard AQSH dollariga yetkazish ko'zda tutilgan.

So'nggi yillarda O'zbekistonda klasterlar tomonidan zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikalari olib kelinayapti, yerga investitsiya kiritilyapti. Suvni tejoychi texnologiyalar o'rnatish va lazerli tekislash amaliyoti ham keng qo'llanilmoqda. Biroq fermerlar orasida bunday chora-tadbirlarga e'tibor unchalik yuqori emas.

Nazarimda, buning bir qator asosli sabablari bor. Avvalo, fermerlarning yer va mulkka egalik huquqi borasidagi ayrim muammolar bu borada asosiy to'siq bo'lmoqda. Fermerlar yerning to'laqonli egasi bo'lmagani tufayli o'z kelajagiga ishonchsizlik bilan qarab, uzoq muddatli rejalar tuzishga jur'at etolmayapti. Boshqacha aytganda, hozirgi paytda

qishloq xo'jaligi sohasiga ixtisoslashgan tadbirkorlar yerga uzoq muddatli investitsiya qilayotganlari yo'q. Chunki erta-bir kun mahalliy hokimiyat yoki boshqa davlat organi ularning ixtiyoridagi yerning ijara muddatini to'xtatib qo'ymasligiga hech qanday kafolat yo'q. Shuning uchun yerga egalik huquqini kuchaytirish masalasini zudlik bilan hal qilishimiz lozim.

Bizning hisob-kitoblarimizga ko'ra, bu sohada amalga oshiriladigan chora-tadbirlar tufayli agrar tarmoqqa 2030-yilga qadar 15 milliard AQSH dollari miqdorida investitsiyalarni jalb qilish mumkin.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bugungi kunda dunyoda yuzaga kelgan ekologik omillar qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hosildorligi va sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatish bilan birga, yer va suv resurslaridan samarali foydalanishda ham qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Bu hol bizning yurtimizda ayniqsa, yaqqol ko'zga tashlanadi. Ayni paytda respublikamizda sug'oriladigan yerlarning 53 foizga yaqini turli darajada sho'rlangan, qariyb 69 foiz ekin maydonining yuqori qatlamidagi chirindi miqdori bor-yo'g'i 0,5–1 foizni tashkil etadi. Buning ustiga, 600 ming gektar yaylov degradatsiyaga uchragan. Ta'kidlash joizki, 2021-yilda sho'rlangan maydonlar O'zbekistonda sug'oriladigan yerlarning 44,7 foizini tashkil etdi.

Mana shunday sharoitda zamonaviy agrotexnologik tadbirlarni qo'llash orqali tuproq unumdorligini oshirish soha vakillarining oldida turgan eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu vazifalarni samarali hal etish orqali har bir gektar maydondan o'rtacha 45–50 sentnerdan paxta, 80–85 sentnerdan g'alla hosili olishga erishishimiz zarur.

Yaqinda mamlakatimiz parlamenti tomonidan **“Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to'g'risida”**gi qonun qabul qilinib, barcha toifalardagi tuproqning unumdorligi va uni hosil qiluvchi qatlamlar muhofaza obyekti etib belgilandi. Shuningdek, unda yer egalari, undan foydalanuvchilar va yer uchastkalari ijarachilarining bu

boradagi huquq va majburiyatlari mustahkamlanganini ham ta'kidlash lozim.

Ma'lumki, mamlakatimizdagi obihayot manbalarining qariyb 80 foizi transchegaraviy suv havzalari hisobidan shakllanadi. Bu esa, Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekistonda suv resurslarini barqaror boshqarishda mintaqaviy hamkorlik nihoyatda muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Afsuski, mana shunday sharoitda mamlakatimizda irrigatsiya tarmoqlarining 70 foizi filtratsiyaga qarshi qoplamaga ega emas, oqibatda suvning bir qismi dalagacha yetib bormasdan yo'qotilmoqda.

Hozir dunyo miqyosida qurg'oqchilik holatlari tobora ortib, uning global asoratlari kuchayib bormoqda. Jahon resurslari institutining prognoziga ko'ra, 2040-yilga borib O'zbekiston sayyoramiz bo'yicha suv tanqisligi eng yuqori bo'lgan 33 ta mamlakatdan biriga aylanadi. Hosildorlikning kamayishi oziq-ovqat xavfsizligi va to'lov balansini ta'minlash borasida jiddiy salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun respublikamizda suv resurslarini barqaror boshqarish va qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda tejamkor texnologiyalarni qo'llash hal qiluvchi ahamiyatga ega masala hisoblanadi.

Shuningdek, tahliliy hisob-kitoblar 2040-yilda Markaziy Osiyoning ayrim mamlakatlarida suv resurslariga bo'lgan ehtiyoj uch barobar oshishini ko'rsatmoqda. Vaqt o'tishi bilan suv tanqisligi oqibatida ko'riladigan iqtisodiy ziyon yalpi ichki mahsulotning 11 foiziga yetishi mumkin. BMT ma'lumotida keltirilishicha, hozirning o'zidayoq mintaqa davlatlari suv resurslari taqchilligi va undan samarasiz foydalanish oqibatida yiliga 2 milliard AQSH dollarigacha mablag'ni yo'qotmoqda.

Boz ustiga, qo'shni Afg'onistonda Qo'shtepa kanalining qurilishi O'zbekistonning Amudaryo suvidan foydalanish imkoniyatlariga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Umuman, mazkur inshootning ishga tushirilishi Markaziy Osiyodagi suvdan foydalanish tartibi va

muvozanatini tubdan o'zgartirib yuborishi bashorat qilinmoqda. Shuning uchun ushbu kanalning barpo etilishi va uning Amudaryo suvidan foydalanish tartibiga ta'siri bilan bog'liq barcha jihatlarni mamlakatimizdagi tadqiqot institutlarini jalb etgan holda chuqur o'rganish lozim.

Shubhasiz, biz Markaziy Osiyoda suv resurslaridan birgalikda foydalanish bo'yicha Afg'oniston va boshqa qo'shni davlatlar bilan do'stona munosabatlarni davom ettiramiz.

Ta'kidlash joizki, O'zbekistonda suvni behuda sarflash darajasi juda yuqori va 2030-yilga borib bu ko'rsatkich har yili o'rtacha 15 milliard kub metrga yetishi mumkin. Shu bois bunday isrofgarchilikning oldini olishga hozirdan kirishishimiz kerak. Ayni paytda 40 foiz suv resurslari sug'orish tarmoqlarida, yana 20 foizi dalaning o'zida yo'qotilmoqda. Ba'zi joylarda 1 gektar maydonda sholi yetishtirish uchun 30 ming kub suv ishlatilyapti. Aslida, shuncha maydonda 12 ming kub suv evaziga mo'l-ko'l hosil ko'tarayotganlar ham ko'pchilikni tashkil qiladi. **Ba'zilar 10 ming kub suv evaziga gektaridan atigi 30 sentnerdan paxta olsa, boshqa mirishkor dehqonlar 2,5 ming kub suv yordamida 70 sentnerdan hosil yetishtiryapti. Mana, suvni tejashni qayerdan boshlash kerak.**

Issiqxonalarda, bog'dorchilikda tomchilatib sug'orish, yerlarni lazerli rejalashtirish, meva-sabzavotlarni sovitish va saqlashda innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda qishloq xo'jaligi ekinlarini parvarishlashda zamonaviy usullarni qo'llash suv va energiya manbalaridan oqilona foydalanish, tuproq unumdorligini va yetishtirilgan ekinlarni munosib saqlash imkonini beradi. Hisob-kitoblarga ko'ra, fermerlar yangi texnologiyalar yordamida suvning 15–20 foizini tejashga va hosildorlikni 1,5 barobar va undan ko'proq oshirishga muvaffaq bo'lishlari mumkin.

Shularni inobatga olib, so'nggi yillarda mamlakatimizda suv resurslaridan foydalanish mexanizmlarini tubdan isloh qilish orqali

ulardan oqilona, samarali foydalanishni ta'minlash hamda ekin maydonlarining meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Oxirgi 7 yilda 1,4 million gektar yerda suv tejevchi texnologiyalar joriy etilgani buning yaqqol dalilidir. Natijada 3 milliard metr kub suvni tejash va qo'shimcha 400 ming gektar maydonda suv ta'minotini yaxshilashga erishildi.

Suv tejevchi texnologiyalarni mahalliyashtirish darajasi 80 foizga yetkazilib, ushbu yo'nalishda faoliyat yurituvchi korxonalar soni 50 tadan oshdi. Bularning barchasi O'zbekistonning bunday texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha mintaqamizda birinchi, MDH davlatlari orasida ikkinchi, Osiyoda to'rtinchi va dunyoda 13-o'rinni egallashi uchun zamin yaratdi.

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligida tomchilatib sug'oriladigan ekin maydonining har bir gektariga subsidiya berish tizimi joriy etildi. Xususan, har bir gektar paxta maydoni uchun 8 million so'mdan, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida 12 million so'mdan, sabzavot va poliz ekinlari uchun 1,5–2,5 million so'mdan, mevali ekinlar uchun 6 million so'mdan, uzumzorlar uchun esa 8 million so'mdan ajratiladi. Shu maqsadda 2024-yilda respublika budjetidan 55 milliard so'm mablag' yo'naltiriladi.

O'zbekistonda ushbu yo'nalishdagi ishlarni izchil davom ettirib, 2030-yilgacha zamonaviy suv tejaydigan texnologiyalarni qo'llash orqali qo'shimcha 300 ming gektar yer maydonini o'zlashtirish rejalashtirilgan. Bu maydonlarda ozuqabop, dorivor, moyli, dukkakli, sholi, g'alla, sabzavot va poliz ekinlari ekish, intensiv bog' va uzumzorlar tashkil etish mo'ljallanmoqda.

Bu sohada ilg'or xorijiy texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari o'rganilmoqda. Masalan, Ispaniyaning suv tanqisligi kuzatilayotgan Mursiya provinsiyasida oddiy sug'orish rejimida 1 gektar maydon uchun suv sarfi o'rtacha 5,5 ming kubometrni tashkil etadi. Tomchilatib sug'orilganda bu ko'rsatkich 4 ming kubometr gacha kamayadi.

Keyingi paytlarda dunyoda mevali daraxtlarning ertapishar va mazali ta'mga ega hosildor, pakana va yarim pakana navlari yaratilmoqda. Ammo bu navlar mamlakatimizda davlat reyestriga kiritilmaganligi sababli fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari ularni chetdan olib kelib ekish imkoniga ega emas. Natijada eksportbop meva mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha mavjud salohiyatdan to'liq foydalanilmayapti.

Shu bois, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni o'z vaqtida hosildor daraxt ko'chatlari va yuqori sifatli urug'lar bilan yetarli miqdorda ta'minlash, urug'chilikda xususiy investitsiyalar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va bu sohada xususiy sektorni rivojlantirish borasida ish olib boriladi. Mahalliy sabzavot, poliz, kartoshka urug'ligi ta'minotini 50 foizga yetkazish choralari ko'riladi.

Mamlakatimizning tabiiy agroiklim sharoitlari qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish uchun juda qulay hisoblanadi. Oxirgi yillarda fermer va dehqonlarning bozor mexanizmlari asosida faoliyat yuritayotgani, ularning moddiy manfaatdorligi ortib borayotgani tufayli ekinlarning hosildorligi hamda chorva mahsuldorligi ham yaxshilanib, yetishtirilayotgan mahsulotning sifati va hajmi oshmoqda.

Yaqin tariximizda paxtadan 3,7 million tonna, ilk bor g'alladan 8 million tonna hosil olindi. Ularning hisobini yuritish va mahsulotni sotish tizimi to'liq raqamlashtirildi. Shu davr ichida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash darajasi ham o'sdi. Xususan, paxta tolasini qayta ishlash 2,5 barobar oshib, 100 foizga yetkazildi, ipkalava ishlab chiqarish 2,2 barobar, tayyor mahsulot 5 barobar ko'paydi.

Bunday ijobiy o'zgarishlarga qaramasdan, qishloq xo'jaligi sohasida mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanilayotgani yo'q. Shuning uchun yetishtirilgan mahsulotlarni yurtimizda qayta ishlash ko'rsatkichini 25 foizdan oshirish rejalashtirilgan.

Chorvachilikni rivojlantirish va aholini sifatli go'sht, sut, tuxum mahsulotlari bilan ta'minlashni yaxshilash borasida ham bir qator muammolar to'planib qolgan. Ayniqsa, keyingi yillarda ozuqali ekin maydonlari qisqarib ketmoqda. Misol uchun, keyingi 15 yilda bunday yerlar hajmi 430 ming gektardan 340 ming gektarga, bir bosh qoramolga to'g'ri keladigan ozuqa maydoni esa 50 sotixdan 27 sotixga kamaygan. Oqibatda mamlakatimizdagi mavjud chorva mollarning 94-95 foizini parvarishlayotgan aholi yaylov va ozuqa yetishmasligidan qiynalmoqda. Mavjud yaylov va dasht hududlarida, ayniqsa, ozuqaviy qiymati yuqori bo'lgan o'simliklar miqdori kamaygan.

Bugungi kunda O'zbekistondagi Qizilqum, Qarnoqcho'l, Qoraqum va boshqa yaylov hamda cho'l hududlarida 23 million bosh qo'y-echki boqilmoqda. Yaylov maydonlari esa 21 million gektarni tashkil qiladi. Keyingi yillarda bunday maydonlarning buzilishi yoki yaroqsiz holga kelishi oqibatida hosildorlik ko'rsatkichlari ham sezilarli darajada pasaygan. Bu, avvalo, mintaqamizda cho'llanish jarayonining kuchayishi bilan bog'liq. Misol uchun, ilgari Qarnoqcho'lda 85 ta o'simlik turi mavjud bo'lgan bo'lsa, hozirda ularning atigi 4-5 tasini uchratish mumkin. Shularning ham aksariyati ozuqabop emas, chorva mollari ulardan zaharlanishi mumkin. Shu bois yaylovlarda yem-xashak uchun yaroqli o'simliklarni ko'paytirish lozim. Buning uchun, eng avvalo, ozuqaviy qiymati yuqori bo'lgan hosildor o'simliklar urug'ini tayyorlash va ularni yaylovlarga ekish darkor. Shu tariqa yaylovlarning mahsuldorligini oshirish mumkin.

Respublikamizda chorva ozuqasiga bo'lgan ehtiyoj ozuqa birligida o'lchaganda, 120 million tonnani tashkil etadi. Ayni paytda uning 60-65 foizi valuta hisobiga chet eldan sotib olinmoqda. Kelajakda xalqimizni arzon go'sht, sut va kolbasa mahsulotlari bilan ta'minlash uchun yaylovlarni rivojlantirishimiz zarur.

Shuningdek, sug'oriladigan yerlarda ham chorva mollari uchun yem-xashak yetishtirishga e'tibor qaratish lozim. Har gektaridan 10–20 ming ozuqa birligi miqdorida mahsulot yetishtirish imkonini beradigan nihoyatda serhosil ekinlarni yurtimizda yetishtirish, yangi ozuqabop navlarni yaratish, ishlab chiqarishga joriy etish va ularni fermerlarga tanishtirish talab etiladi.

Xalqimizda “o'simlik nobud bo'lsa, bir yilda tiklanadi, chorva nobud bo'lsa, qirq yilda tiklanadi” degan naql bor. Shuning uchun chorvachilikni rivojlantirish, mahsuldor chorva mollarining sonini ko'paytirish va uning ozuqa bazasini kengaytirish doimo e'tiborimiz markazida bo'lishi kerak.

Hozirgi paytda qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tarmoqlarida investitsiyalar va eksportni ko'paytirish eng katta muammolardan biri hisoblanadi. Ta'kidlash lozimki, 2023-yili yurtimizda 23 million tonna meva-sabzavot yetishtirildi, oziq-ovqat sanoatida 86 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Hisob-kitoblarga ko'ra, buncha mahsulotning o'zidan 5 milliard AQSH dollari miqdorida eksportni amalga oshirish imkoni mavjud. Lekin iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi komplekslari mutasaddilari va hokimlar ishni to'g'ri tashkil qila olmagan, eksportchilar muammosini hal qilmagan uchun eksport hajmi 2 milliard AQSH dollaridan oshmadi. Ana shu kamchilikdan saboq chiqarib, 2024-yilda qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari eksportini 3,5 milliard AQSH dollariga yetkazish zarur.

So'nggi yillarda oziq-ovqat mahsulotlari bozori ancha kengaydi. Jumladan, o'tgan bir yilda Avstraliya, Yangi Zelandiya, Singapur, Kolumbiya, Indoneziya kabi 10 dan ortiq yangi bozorlarga chiqildi, mahsulotlar eksport qilinadigan mamlakatlar soni 85 taga yetdi. Lekin bu yo'nalishdagi eksportning 80 foizi 5 ta davlat hissasiga to'g'ri kelyapti. Ya'ni, qishloq xo'jaligi eksportining asosiy qismini “kilosiga 1

AQSH dollaridan past pul to'lanadigan bozorlar" tashkil qilmoqda. Bu gap mubolag'a emas, ayni haqiqat. Misol uchun, o'tgan yili dunyodagi 52 ta mamlakatga 126 ming tonna uzum eksport qilingan bo'lsa, shundan 98 ming tonnasi 12 ta davlatga har bir kilogrammi 1 AQSH dollaridan kamroq baholarda sotilgan. Eng xaridorgir mahsulotlar hisoblangan gilos, shaftoli, xurmo, o'rik, olcha, olxo'ri, anjir, anor, bodom, loviya, mosh kabi mahsulotlar eksportida ham shunday achinarli manzaraga guvoh bo'lish mumkin. Mamlakatimizdan eng ko'p eksport qilinadigan 10 turdagi mahsulotning ulushi jami meva-sabzavot eksportida 60 foizni tashkil qiladi.

Mahsulotlar tannarxining balandligi, ayrim "uddaburonlar"ning daromad ortidan quvib, mevalarni qadoqlash chog'ida sifatsiz mahsulotlarni ham aralashtirib yuborayotgani oqibatida tashqi bozorda O'zbekistonda yetishtirilgan noz-ne'matlar nufuziga putur yetmoqda.

Shuning uchun ham ayni paytda yurtimizdagi 1 mingta eksportchi korxonaning ko'p million AQSH dollarilik muddati o'tgan debitor qarzdorligi mavjud. Jumladan, 33 ta tumanda eksportdan debitor qarzi miqdori ancha yuqori.

Hozirgi paytda respublikamiz bo'yicha 1 million gektar g'alladan bo'shaydigan maydon, 508 ming gektar aholi tomorqasi, odamlarga bo'lib berilgan 260 ming gektar yerning imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayapti. Masalan, 16 ta tumanda meva-sabzavot umuman eksport qilinmagan. Paxta ekish bilan shug'ullanmaydigan 28 ta tumanda ham eksport ko'rsatkichlari mutlaqo qoniqarsiz. Shu bois, ushbu hududlarda meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish, saqlash, saralash va sotish bo'yicha eksportchilar hamda dehqonlar o'rtasida kooperatsiya aloqalarini tizimli yo'lga qo'yish zarur.

2024-yilda hududiy dasturlar doirasida respublikamizda oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish bo'yicha umumiy qiymati 833 million AQSH dollarilik 528 ta loyihani ishga tushirish mo'ljallangan. Lekin

14 ta tumanda bu yo'nalishda birorta ham loyiha ishlab chiqilmagani achinarlidir.

Umuman, 2024-yilda oziq-ovqat sanoatida kamida 100 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarish va 1 milliard AQSH dollarilik eksportni amalga oshirish reja qilingan. Biroq oziq-ovqat yo'nalishidagi ayrim korxonalar aylanmasi uchun mablag' ololmagani, ba'zilari sifat bobida raqobatga dosh berolmagani, tejamkor texnologiyalarni o'rnatmagani uchun ularda tayyorlangan mahsulotning tannarxi ancha baland bo'lgan. Qolaversa, mazkur yo'nalishga ixtisoslashgan 20 ta yirik korxonada xomashyo yetishmasligi, mahsulotiga bozor topish va aylanma mablag' bilan bog'liq muammolar tufayli mavjud quvvatlarining yarmini ham ishlatayotgani yo'q.

Ko'pchilik bir haqiqatni chuqur anglab olishi zarur: mamlakatimizda inflatsiyani jilovlash va valuta barqarorligini ta'minlash eksport bilan chambarchas bog'liq. Biz qancha ko'p mahsulot ishlab chiqarmaylik, ularni chetga sotish uchun kerakli shart-sharoitni yaratmasak, aytarli hech narsaga erisholmaymiz.

Eksportni an'anaviy bozorlardagidan ko'ra yuqori narxda mahsulot sotib oluvchi davlatlarga yo'naltirish zarur. Bunday mamlakatlar bilan ishlashni kuchaytirish juda muhim. Shu jihatdan, eksport uchun yangi istiqbolli bozorlar sirasiga kiruvchi Mersin (Turkiya), Rotterdam (Niderlandiya), Sindao (Xitoy), Klaypeda (Litva), Doha (Qatar) kabi yirik port-shaharlarda ham O'zbekistonning savdo uylarini ochish zarur.

Qishloq xo'jaligini raqamlashtirish — agrar **islohotlarni chuqurlashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.** Binobarin, aynan shu yo'l bilan sohada shaffoflikni ta'minlash, xarajatlarni kamaytirish va turli manbalardan — ta'limdan tortib, ilmiy manbalargacha foydalanish imkoniyatini yaratish mumkin. Raqamli texnologiyalar yordamida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, ekinlar holatini monitoring qilish bo'yicha idoralararo axborot

tizimlarini joriy etish talab etilmoqda. Qishloq xo'jaligi vazirligining "Raqamli qishloq xo'jaligi" yagona integratsion platformasi tarkibida paxta, boshqoli don, meva-sabzavotlar yetishtirish uchun imtiyozli kredit ajratish jarayonlarini raqamlashtirish hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarga shaffoflik tamoyili asosida xizmat ko'rsatish uchun "Agroplatforma" axborot tizimi joriy etiladi.

Bundan tashqari, kelgusi yildan boshlab qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish xarajatlarini tijorat banklarining "Agroplatforma" AT orqali elektron tarzda shakllantirilgan buyurtmanomalari asosida Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan moliyalashtirish yo'lga qo'yiladi.

Qishloq xo'jaligi sohasini raqamlashtirish banklar uchun ham qulay hisoblanadi. Xo'sh, nima uchun banklar qishloq xo'jaligini moliyalashtirishga rag'bat bildirmaydi? Chunki bu borada tavakkalchilik yuqori bo'lgani uchun ular mablag'iga kuyib qolishdan qo'rqadi. Sohada sug'urta tizimi to'liq rivojlanmagani shunga sabab bo'lmoqda. Sug'urta kompaniyalari esa iqlimni oldindan bashorat qilib bo'lmasligi tufayli qishloq xo'jaligini sug'urta qilishdan cho'chidi. Ana shunday sharoitda raqamlashtirish soha istiqbolini yaxshiroq prognoz qilishga yordam beradi. O'z navbatida, bu sug'urtalash hamda banklardan moliyaviy resurslarni jalb qilish jarayoniga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Yaqin vaqtlarda qishloq xo'jaligini subsidiyalashning yagona platformasini joriy etish bo'yicha katta ishlar amalga oshiriladi. Xususan, fermer va tadbirkorlarga mahalliy hokimliklar, viloyat yoki respublika muassasalarini chetlab o'tgan holda subsidiya olish, ana shu subsidiya mablag'larining qayerda ekanligidan onlayn xabardor bo'lib turish va subsidiya berish nima uchun rad etilgani haqida ma'lumot olish imkoniyati yaratiladi. Bu yangilik korrupsiyaning oldini olishga yordam beradi.

Mamlakatimizda geoaxborot texnologiyalari va kosmik tasvirlarni tahlil qilish xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan elektron plat-

formani joriy etish zarur. Shu orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar va klasterlarning yer maydonlari hamda ekinlarini multispektral kosmik suratlar tahlili asosida mustaqil monitoring qilish, muammolarni erta aniqlash va ularga hosildorlikni oshirish bo'yicha tavsiyalar berish tizimini yaratish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, **“O'zbekiston — 2030” strategiyasida** boshqa sohalar qatori qishloq xo'jaligi bo'yicha ham muhim vazifalar belgilab berilgan. Binobarin, bunday mas'uliyatli vazifalarni amalga oshirishda biz, avvalo, katta bilim va tajribaga ega mirishkor fermer va dehqonlarga tayanamiz. Ushbu muhim sohani yanada ravnaq toptirish, qishloq xo'jaligi xodimlarining sharaflı mehnatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, aholi turmushini yanada farovon qilish borasida bundan buyon ham bor kuch va imkoniyatlarni safarbar etamiz.

Yangi O'zbekiston: barqaror va yashovchan turizm

Turizm — jahon iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri. Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida turizm milliy daromadning asosiy manbaiga aylanishi mumkin. Xalqaro iqtisodiy reytingda turizmdan keladigan daromad avtomobilsozlik va neft-gaz sanoatidan keyin uchinchi o'rinni egallaydi.

Ushbu sohaning rivojlanishi infratuzilma, xizmatlar sifati oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, valuta tushumining muhim manbai bo'lib xizmat qiladi, xalqaro aloqalarning kengayishi va investorlarning mamlakatga qiziqishini kuchaytirishga yordam beradi. Eng muhimi, turizm — aholining bandligini ta'minlash va daromadlarini oshirishda katta o'ringa ega.

Ma'lumki, butun dunyoda ro'y bergan pandemiya ushbu sohaning rivojlanishiga juda katta zarba berdi. Taxminiy hisob-kitoblarga ko'ra,

2023-yilda turizmning jahon iqtisodiyotidagi ulushi 3,3 trillion AQSH dollarini yoki jami jahon yalpi ichki mahsulotining 3 foizini tashkil etdi. Vaholanki, bu ko'rsatkichlar 2017-yilda mos ravishda 8,3 trillion AQSH dollari va 10,4 foizga teng bo'lgan. Har qalay, pandemiyadan keyingi davrda tarmoq yana yuqori sur'atlarda rivojlanib bormoqda.

Jahon Turizm va sayohatlar bo'yicha Kengashi (WTTC) ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi har o'nta ish o'rinlarining biri turizm sohasi hissasiga to'g'ri keladi. Prognoz hisob-kitoblariga ko'ra, 2028-yilga borib tarmoqda band bo'lgan xodimlar soni 414 million kishiga yetishi va dunyodagi jami band aholining esa 9 foizini tashkil etishi mumkin.

Haqiqatan ham, turizm sohasi bir qator afzalliklarga ega. Ushbu salohiyatdan unumli foydalanish mamlakatni hamda uning hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda o'ziga xos katalizator vazifasini o'taydi. Turizmning rivojlanishi infratuzilma va xizmat ko'rsatish sohasiga multiplikativ ta'sir ko'rsatishi, valuta tushumlarining muhim manbaiga aylanishi, xalqaro aloqalarni kengaytirishi, investorlarning mamlakatga qiziqishini oshirishi mumkin.

Shu bois, keyingi paytlarda O'zbekistonda turizmga katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu sohani jadal rivojlantirish, uning iqtisodiyotga qo'shadigan hissasini oshirish, turistik xizmatlar sifatini yaxshilash va infratuzilmasini kengaytirish mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalashning ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Xususan, turizmni rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, unga ko'ra mamlakat yalpi ichki mahsulotida turizm ulushini 5 foizgacha yetkazish, shuningdek, 2025-yil yakuniga qadar 9 million nafardan ortiq turistlarni, shu jumladan, uzoq xorijdan 2 million sayyohni jalb qilish belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston juda katta turizm va rekreatsiya salohiyatiga ega. Zotan, bizda jami 8,2 ming madaniy meros obyektlari mavjud bo'lib, ulardan 209 tasi YUNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan.

Yurtimiz zaminidan ko'plab dunyoga mashhur olim va mutafakkirlar yetishib chiqqan. Ularning bebaho madaniy-ma'naviy va ilmiy merosiga butun jahonda qiziqish juda yuqori. Buxoro, Samarqand, Xorazm, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida jahon ahamiyatiga molik noyob madaniy-tarixiy obidalar mavjud. Qolaversa, O'zbekiston o'zining betakror tabiati, milliy urf-odatlarini, marosimlari, mehmondo'stligi va mazali taomlari bilan ham sayyohlarni o'ziga jalb qiladi.

Biroq, ekspertlarning hisob-kitoblariga ko'ra, hozirda ushbu salohiyatning atigi yarmidan foydalanilyapti. Hududlarning boy rekreatsion resurslari to'liq ishlatilmayati, sanatoriy-kurort va sog'lomlashtirish xizmatlari yetarlicha tashkil etilmagan. Respublikamizning deyarli barcha hududlarida bunday imkoniyat va zaxiralar mavjud bo'lgani holda, taqdim etilayotgan turistik xizmatlar, turistik tashkilotlar va mehmonxonalarning asosiy qismi Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlariga to'g'ri kelmoqda.

Biz turizm sohasini tubdan isloh qilish, turizmni rivojlantirish yo'lidagi barcha to'siqlar va cheklovlarni olib tashlash choralari ko'rayapmiz. Uni yanada rivojlantirish uchun turizmga iqtisodiyotning strategik tarmog'i maqomi berildi va hududlarning sayyohlik salohiyatidan samarali foydalanish bo'yicha loyihalar ishlab chiqildi.

Shu chog'gacha mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha muayyan ishlarni amalga oshirdik. Xususan, "Chimyon-Chorvoq" kurort va rekreatsion zonasi doirasida "Chorvoq" erkin sayyohlik zonasi tashkil etilib, uning hududida yo'l-transport, muhandislik, kommunikatsiya va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar bajarildi.

Jizzax viloyatining Baxmal va Zomin tumanlarida ekologik turizm, agroturizm va etnik turizmni birlashtiruvchi turizm klasteri barpo etildi. Ushbu sayyohlik majmuasi zamonaviy mehmonxonalar, bolalar

dam olish maskanlari, lagerlarni ham o'z ichiga oladi. Xorazm, Buxoro, Samarqand, Surxondaryo, Toshkent, Qashqadaryo, Jizzax va Farg'ona viloyatlarida esa turizm infratuzilmasini rivojlantirish, mehmonxonalar, restoranlar, parklar, bouling klublari va boshqa sayyohlik maskanlarini qurish loyihalari amalga oshirildi. "Qadimiy Buxoro" va "Samarqand Siti" sayyohlik hududlari tashkil etildi.

Samarqand viloyatida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi bunyod qilinishi esa yurtimizga sayyohlar oqimining ko'payishi bilan bir qatorda, xalqimizga muqaddas Qur'ondan keyin ikkinchi o'rinda turadigan eng ishonchli hadislar to'plamining muallifi hisoblangan Imom Buxoriy hazratlarining boy merosini o'rganishda katta imkoniyat yaratdi. E'tiborli jihati, mazkur loyiha butun Islom olamida katta qiziqish uyg'otmoqda.

Sayyohlik sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ham faol jalb etilmoqda. Xususan, mamlakatimizdagi 600 dan ortiq sayyohlik saytlarini birlashtirgan "E-Mehmonxona" avtomatlashtirilgan tizimi foydalanishga topshirildi.

Qisqa vaqt ichida turizmni jadal ravnaq toptirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar o'z samarasini bermoqda. Birgina 2023-yilda mamlakatimizda sayyohlik xizmatlari eksporti 2017-yilga nisbatan 4,5 barobar ortib, 2,1 milliard AQSH dollarini tashkil etdi. 2023-yilda O'zbekistonga qariyb 6,6 million nafar chet ellik mehmon tashrif buyurdi.

Keyingi yillarda salkam yuzta mamlakat fuqarolari uchun O'zbekistonga vizasiz kirish tizimi, yana 55 ta davlat fuqarolari uchun soddalashtirilgan elektron viza tartibi joriy etildi.

Sayyohlik biznesini yuritish uchun soliq va bojxona imtiyozlari taqdim etilib, kredit va moliyaviy yordam kuchaytirildi. Pandemiya cheklovlariga qaramasdan, ikki yil davomida 800 ta infratuzilma loyihasi amalga oshirildi. Mamlakatimizda mehmonxona o'rinlarining soni

140 mingga yetkazildi, 70 ta yangi sayyohlik marshruti ochildi, qisqa vaqt ichida 6 ta xususiy aviakompaniya ish boshladi.

Natijada O'zbekistonga kelayotgan xorijlik sayyohlar soni ikki barobar ko'paydi, turizm eksportidan tushayotgan daromad esa 4 barobar o'sdi. Hisob-kitoblarga ko'ra, 2024-yilda mamlakatimizga jami 7 million nafar sayyoh tashrif buyuradi. Ushbu ko'rsatkichni 2030-yilda 15 million nafarga, ichki sayyohlik oqimini esa 25 million nafarga yetkazish rejalashtirilgan.

Mamlakatimizda turizm sohasini modernizatsiya qilish va kompleks rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar xalqaro miqyosda ham e'tirof etilmoqda. Jumladan, 2024-yil 26-fevralda Nyu York shahridagi BMT bosh qarorgohida Tashkilotning Bosh Assambleyasi tomonidan **“2027-yil — Xalqaro barqaror va yashovchan turizm yili”** rezolutsiyasi bir ovozdan ma'qullandi.

O'zbekiston Respublikasi tomonidan ilgari surilgan ushbu rezolutsiyaga 80 dan ortiq a'zo mamlakat hammualliflik qildi.

Shuningdek, mamlakatimiz eng tez rivojlanayotgan turizm maskani va eng xavfsiz davlat sifatida xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallab kelmoqda. Jumladan, O'zbekiston o'z tarixida birinchi marta “Osiyodagi sayohat qilish uchun eng yaxshi joy” Lonely Planet reytingiga kiritilib, bu borada eng yaxshi 10 mamlakat orasida Janubiy Koreyadan keyin ikkinchi o'rinni egalladi. Xitoyning “Qyer.com” portali tomonidan Samarqand — dunyoning eng yaxshi shaharlari o'nligiga kiritilib, “Xitoylik va xorijlik sayyohlarga ziyorat qilish uchun tavsiya etiladigan eng yaxshi ekzotik maskan” nominatsiyasida g'olib bo'ldi. 2020-yilda esa bir qator nufuzli xorijiy ommaviy axborot vositalari dunyo jamoatchiligiga O'zbekistonni albatta sayohatga borish zarur bo'lgan mamlakatlardan biri sifatida tavsiya qildi.

Ayni paytda zarur infratuzilmani rivojlantirish va respublikamizning turistik salohiyatini jahon bozorlarida muvaffaqiyatli targ'ib qilish orqali

turizm sohasining mamlakat yalpi ichki mahsuloti tarkibidagi ulushini 5 foizga yetkazish choralari ko'rilmoqda. 2025-yilgacha mamlakatimizga tashrif buyuruvchi xorijiy sayyohlar sonini 1,9 barobar, turistik xizmatlar eksportini 2,3 barobar, mehmonxonalar va shunga o'xshash turar joy binolarini 3,3 barobar, turoperatorlarni 1,7 barobar, ichki turistlar sonini 1,8 barobar ko'paytirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar belgilangan.

Ichki turizmni rivojlantirish uchun yangi yo'nalishlarni yaratishga alohida e'tibor berilyapti. Shu maqsadda budjet tashkilotlari, yirik xo'jalik birlashmalari va nodavlat notijorat tashkilotlar xodimlarining Samarqand viloyatiga ekskursiyalari tizimli ravishda tashkil etiladi. Muqaddas haj va umra ziyoratiga boradigan vatandoshlarimizning dastlab Imom Buxoriy majmuasini ziyorat qilishini yo'lga qo'yish rejalashtirilgan.

Kelgusida turizm sohasini jadal rivojlantirish, jumladan, tarixiy va madaniy merosimizni keng targ'ib qilish, xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan infratuzilmani yaratish, xalqaro aloqalarni mustahkamlash orqali O'zbekistonni dunyoning eng ko'p sayyohlar tashrif buyuradigan mamlakatlaridan biriga aylantirish mumkin. Shuningdek, turizmni 2030-yilgacha kompleks rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilayotgan strategiyada zamonaviy turizm va transport infratuzilmasini yaratishga ustuvor ahamiyat qaratiladi. Yuqori tezlikda harakatlanishga mo'ljallangan yangi avtomobil va temiryo'llari quriladi, aviatransport parki 2 barobar kengaytirilib, aviaqatnovlar soni 4 barobar oshiriladi. Yirik shaharlar va sayyohlar ko'p tashrif buyuradigan manzillarda 30 ta yirik turizm klasteri tashkil etiladi.

“Ko'hna tarix durdonalari” milliy dasturi doirasida turistlarni o'ziga jalb qiladigan madaniy meros obyektlari soni 800 tadan 2500 taga yetkaziladi, 745 ta madaniy meros obyekti restavratsiya qilinadi hamda 20 ta me'moriy yodgorlik “ochiq osmon ostidagi muzey”larga aylantiriladi.

Ziyorat turizmi dasturi doirasida yurtimizga sayohatga keluvchilar sonini hozirgidan uch barobar ko'paytirish choralari ko'riladi. Markaziy Osiyo davlatlari bilan qo'shma sayyohlik yo'nalishlarini yaratish masalalari ham diqqatimiz markazida bo'ladi.

Umuman, O'zbekistonda turizm yo'nalishlarini rivojlantirish hisobidan kelgusida kamida 1 million yangi ish o'rni yaratish rejalashtirilgan.

Ayni paytda turistlarning kafolatlangan xavfsizlik tizimini ta'minlash masalasi jahon turizmining ustuvor vazifasiga aylangan. Shu bois, xalqaro turizm sohasida mustahkam huquqiy asoslarni kuchaytirish maqsadida BMT doirasida Global xavfsiz turizm kodeksini ishlab chiqish lozim.

Dunyoda iqlim o'zgarishlari tobora kuchayib borayotgan hozirgi davrda "yashil turizm"ni rivojlantirish bo'yicha xalqaro Harakatlar dasturini qabul qilish ham har qachongidan dolzarbdir. Bu boradagi amaliy qadamlar sifatida Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) doirasida "Yashil turizm"ni joriy etish bo'yicha eng yaxshi shahar" nominatsiyasini ta'sis etish, shuningdek, Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti hamda Samarqanddagi "Ipak yo'li" xalqaro turizm universiteti hamkorligida "Global yashil turizm" startaplari laboratoriyasini yaratish maqsadga muvofiqdir.

Imkoniyati cheklangan sayyohlar uchun qulay sharoitlar yaratish va inkluziv turizm infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston tomonidan 2025-yilni "**Butunjahon inkluziv turizm yili**" deb e'lon qilish hamda bu borada maxsus deklaratsiya qabul qilish tashabbusi ilgari surildi.

UNWTO doirasida dunyo miqyosida tarixiy yodgorliklarni asrash bo'yicha to'plangan eng ilg'or tajribalarni almashishga mo'ljallangan platforma — Sayyohlik bo'yicha tarixiy shaharlar kengashini tuzish ham amalda yaxshi natijalar berishi mumkin. Mazkur kengashning birinchi

yig'ilishi qadimiy Buxoro shahrida o'tkazilsa, har jihatdan o'rinli bo'ladi, deb hisoblayman.

Samarqand shahrida turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirishga ixtisoslashgan UNWTO Xalqaro turizm akademiyasining ochilishi ham soha rivojida o'ziga xos voqea bo'ldi. Ayni paytda bu yerda mutaxassislarni o'qitish uchun maxsus grantlar ajratish yo'lga qo'yilmoqda.

Qolaversa, O'zbekiston tomonidan yoshlar sayyohligini rivojlantirish bo'yicha yangi g'oyalarni ilgari surishda muhim o'ringa ega bo'lgan Jahon yoshlar turizmi sammitining navbatdagi anjumanini Toshkent shahrida o'tkazish taklifi o'rtaga tashlandi. Ushbu tashabbusimiz ma'qullangan taqdirda, sammitni har tomonlama yuqori saviyada tashkil qilish uchun barcha choralar amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish masalasi bundan keyin ham birlamchi ahamiyatga ega vazifalardan biri bo'lib qoladi. Yaqinda Buxorodagi yana 7 ta qadimiy obida YUNESKOning tegishli ro'yxatiga kiritilgani yurtimiz madaniy hayotida muhim voqea bo'ldi. Ushbu tarixiy maskanlar bilan bir qatorda Buxoro viloyatidagi 800 dan ziyod madaniy obyekt bosqichma-bosqich restavratsiya qilinadi. Jumladan, Ark qo'rg'onining bundan bir asr burun vayron qilingan qismlari qayta tiklanadi.

Shu bilan birga, Buxoro shahrida zamonaviy jihozlangan tarix muzeyi tashkil etiladi. Jahonda tib ilmining sulтони degan sharafli nom bilan mashhur bo'lgan buyuk mutafakkir ajdodimiz Abu Ali ibn Sino tug'ilib o'sgan Afshona qishlog'i turizm shaharchasiga aylantiriladi.

Yaqin yillarda Toshkent viloyatining Amirsoy va Chimyon turistik majmualarida, Chorvoq suv ombori va Toshkent dengizi atrofida, Ohangaron va Angrendagi tog'li hududlarda qo'shimcha sayyohlik hududlari va dam olish maskanlarini barpo etish uchun katta miqdordagi investitsiyalar jalb etilib, minglab yangi ish o'rni

yaratiladi. Poytaxtimizdagi "Yangi O'zbekiston" bog'idan Parkent tumani markazigacha 30 kilometr uzunlikdagi zamonaviy magistral yo'l bunyod qilinadi.

Ma'lumki, 2020-yilda bir qator nufuzli xorijiy ommaviy axborot vositalari dunyo jamoatchiligiga O'zbekistonni albatta sayohatga borish zarur bo'lgan mamlakatlardan biri sifatida tavsiya qilgan edi. Bunday imkoniyatdan unumli foydalanish kerak.

Yurtimizdagi mavjud 8 ming 200 dan ziyod madaniy meros obyektining bor-yo'g'i 500 tasi turizm marshrutlariga kiritilgani albatta yetarli emas. Shuning uchun, birinchi navbatda, ziyorat turizmi va an'anaviy turizmni rivojlantirish mumkin bo'lgan yo'nalishlardagi obyektlar sonini 800 taga yetkazish choralarini ko'rish kerak. Jumladan, Navoiy viloyatidagi ulug' avliyo mavlono Orif Dehgaroniy nomi bilan ataladigan noyob me'moriy majmuani restavratsiya qilish hamda uni sayyohlik marshrutiga kiritish zarur.

Sarmishsoydagi bir necha ming yillik tarixga ega bo'lgan nodir qoyatosh suratlari YUNESKO tomonidan Insoniyat nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan. Shuningdek, To'dako'l suv havzasi dunyoning 170 dan ortiq davlati a'zo bo'lgan Ramsar konvensiyasi ro'yxatidan joy olgan. Umumiy maydoni qariyb 32 ming gektarni tashkil etadigan ushbu ko'l va uning sohili dunyoning turli chekkalaridan uchib keladigan qushlar uchun muhim qo'nalg'a vazifasini o'taydi. Shu bois To'dako'l hududida ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha alohida dastur ishlab chiqib, amalga oshirish kerak.

Mazkur sohada taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash, jahon bozorlarida milliy turizm mahsulotlarini faol targ'ib qilish, bu yo'nalishdagi islohotlarning samaradorligini oshirish va respublikamizga kelayotgan sayyohlar sonini ko'paytirish maqsadida kelajakda qator yo'nalishlarda yangi loyihalarni amalga oshirish belgilangan. Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasida, Amudaryo bo'ylarida yangi turizm

obyektlari va dam olish joylari tashkil etiladi. Nukus shahrida savdo, turizm, madaniyat, ta'lim, tibbiyot, injiniring va IT sohalariga oid xizmatlar rivojlantiriladi.

Xorazm viloyatida turizm va hunarmandchilik yangi ish o'rinlarini yaratishda asosiy drayver sohalar vazifasini o'taydi. Urganch shahridagi Pahlavon Mahmud majmuasi va Xiva shahridagi Xiyobon maydoni hududida "turizm ko'chalari" barpo etiladi. Ayniqsa, "Ochiq osmon ostidagi muzey" sifatida jahonda dovrug' qozongan Xiva shahriga temiryo'l liniyasi tortilib, zamonaviy vokzal foydalanishga topshirilgani bu yerda turizmning yanada gullab-yashnashiga xizmat qiladi.

"Jaloliddin Manguberdi vataniga sayohat" deb nomlangan ichki turizm dasturi orqali har yili 500 mingdan ziyod o'quvchi, talaba va pensionerlarning Xorazmga safarini tashkil etish mo'ljallanmoqda. Misol uchun, Ichanqal'a me'moriy majmuasidagi vaqtida ulug' valiy shayx Najmiddin Kubro ilm toliblariga saboq bergan Shayx Kabir madrasasi va masjidi, xonaqoh va chillaxona rekonstruksiya qilinib, gavjum ziyoratgohga aylantiriladi. O'z navbatida, Xiva shahrida YUNESKO ko'magida restavratsiya maktabi tashkil etilib, xorijdan taklif etiladigan ekspertlar ishtirokida ushbu soha bo'yicha malakali mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yiladi.

Samarqand viloyatini Yangi O'zbekistonning o'ziga xos "Turizm darvozasi"ga aylantirish orqali kelgusi besh yilda turizm xizmatlari hajmini kamida 10 barobar oshirish borasida ham faol ish olib borilmoqda. Shu maqsadda 600 dan ortiq yangi mehmonxona va oilaviy mehmon uylari ochilib, yotoq o'rinlari soni 22 mingga yetkaziladi. Samarqand viloyatida Xalqaro oshpazlik va xizmat ko'rsatish maktabi ham tashkil etilib, talabalarni o'qitishga Fransiya, Italiya, Yaponiya, Turkiyadan yetakchi restoratorlar jalb etiladi. Bu yerda xalqaro gastronomik festival ham uyushtiriladi.

Yaqin vaqtlar ichida Samarqand xalqaro aeroportida parvozlar soni 7 barobar ortib, yillik yo'lovchilar oqimi hozirgi 220 ming nafardan 1,5 million nafarga yetkaziladi.

2023-yilda Samarqand shahrida bo'lib o'tgan Global turizm investitsiya forumida 2,3 milliard AQSH dollarilik kelishuvlarga erishildi.

Xorijiy investorlar ko'magida Shahrisabz tumani G'elon va Sarchashma qishloqlari orasida 3 ming gektarlik tog'-chang'i kompleksini tashkil qilish, Miraki qishlog'ida turizm zonasini barpo etish ishlari boshlandi.

Shahrisabz shahri — Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining 2024-yildagi turizm poytaxti, deb e'lon qilingan.

Shahrisabzda turizm klasterini tashkil etish doirasida 2025-yilda G'elondan o'tuvchi Oqsu daryosida quvvati 24 megavattli 3 ta GESni ishga tushirish rejalashtirilgan.

Shuningdek, Shahrisabz turizm texnikumida Shveysariya dasturi asosida yiliga 100 nafar mutaxassis tayyorlanadi.

“Boysun bahori” xalqaro etno-festivali o'tkazilayotgani natijasida Surxondaryoda sayyohlar oqimi 4 karra ko'paydi.

Umuman olganda, yoshlarning ekstremal turizmga qiziqishi yildan yilga oshib bormoqda. Buning uchun Bo'stonliq, Parkent va Aydarko'lda imkoniyatlar yetarli. Mo'ynoqda ham parashut bilan sakrash va havo dayvingi **ekstremal turizmini** rivojlantirish borasida ishlar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, poytaxtda **“Toshkent siti”, “Toshkent moll”, “Mejik siti”** kabi turizm maskanlari barpo etildi. Bu majmualarga yiliga 4 milliondan ziyod odam tashrif buyuryapti. Ularning 35 foizidan ko'pini xorijiy turistlar tashkil etadi.

Mamlakatimizdagi 86 ta sanatoriy va tibbiy muassasalarda 2023-yilda 60 mingdan ziyod xorijiy turist davolandi. Bu ko'rsatkichni yanada oshirish choralari ko'rilmogda.

Tibbiyot va sog'lomlashtirish turizmini uyg'unlikda rivojlantirish maqsadida xorijiy tajriba asosida **“Tibbiy xizmatlar mehmondo'stligi”** dasturi joriy etilmoqda.

Turizm salohiyati imkoniyatlarini kengaytirishda barcha qatnovlar haqida ma'lumot va chipta olish imkonini beradigan yagona onlayn platformani ishga tushirish, chiptalarni tabaqalashgan narxda kamida olti oy oldin savdoga chiqarish tizimi joriy qilinadi.

“Milliy turizm brendi” to'g'risida kontent yaratish uchun tanlov o'tkazilib, xalqaro platformalarda targ'ibot yo'lga qo'yiladi. Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda 2024-yilda 5 million AQSH dollari miqdorida mablag' ajratiladi.

Auditoriyasi 10 milliondan ortiq bo'lgan kamida 50 nafar chet ellik blogerlar uchun info-turlar tashkil qilinishi rejalashtirildi.

2024-yilda 11 million xorijiy sayyohni olib kelish va turizm eksportini 2,5 milliard AQSH dollariga yetkazishni maqsad qilganmiz.

Kelgusi yilda 212 gektar maydonda Samarqand biznes va turizm markazi ham barpo etiladi. Xalqaro kongress markazi, “Abadiy shahar” karvonsaroy majmuasi, 8 ta mehmonxona, dam olish va ko'ngilochar obyektlar, hunarmandchilik markazi, sun'iy suv havzasini o'z ichiga oladigan ushbu majmua ham sayyohlarning sevimli maskaniga aylanishiga ishonchim komil.

Eng asosiysi, biz yurtimizda turistik klasterlar va hududlar, sayyohlik industriyasiga oid xizmatlarni samarali yo'lga qo'yish borasida hamisha tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashga birlamchi e'tibor qaratib, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash uchun barcha kuch va imkoniyatlarni ishga solamiz.

“Yashil energetika” — barqaror taraqqiyot garovi

O'zbekistonda energetika tizimini isloh qilish va uning barqaror ishlashini ta'minlash, iqtisodiyot va aholining elektr energiyasiga bo'lgan talabini to'la qondirishga qaratilgan keng ko'lamli dasturlar amalga oshirilmoqda. Energetika xavfsizligini mustahkamlash maqsadida respublikamiz energiya balansini diversifikatsiya qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

To'g'risini aytish kerak, bundan 6–7 yil avval ushbu tarmoq og'ir inqiroz holatida edi. Ana shunday o'ta murakkab sharoitda moliyaviy jihatdan qanchalik qiyin bo'lmasin, tarmoqda tub o'zgarishlarni amalga oshirishga kirishdik. Bunda qayta tiklanuvchi energiya sohasini rivojlantirishga ustuvorlik berildi.

Yurtimizda aynan “yashil energetika” rivojiga katta e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Chunki 2030-yilga borib mamlakatimiz iqtisodiyotini ikki barobar oshirish, yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard AQSH dollariga yetkazish maqsad qilingan. Tabiiyki, aholi soni o'sib, turmush darajasi farovonlashib borgani sari elektr energiyasiga talab ham tinimsiz ortib boradi. Hisob-kitoblarga ko'ra, kelgusi 6 yilda mamlakatimizda mazkur quvvatlarga bo'lgan ehtiyoj hozirgi 83 milliard kilovatt soatdan 120 milliard kilovatt soatga o'sadi.

Aksiga olib, O'zbekistonda faqatgina issiqlik va gidroelektr stansiyalari yordamida kerakli miqdorda elektr energiyasi ishlab chiqarishning imkoniyati yo'q. Quyosh va shamol resurslari esa bu borada bizga cheksiz imkoniyatlar taqdim etishi mumkin. Qolaversa, hozirgi kunda global miqyosda “yashil energiya” yordamida ishlab chiqarilgan mahsulotlarga alohida ustuvorlik berilayotgani ham bizning to'g'ri yo'lni tanlaganimizdan dalolat beradi.

Sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqishda, avvalambor, yurtimizdagi quyosh va shamol energiyasining salohiyati atroflicha o'rganib chiqildi. Natijada bu boradagi imkoniyatlar elektrga bo'lgan hozirgi ehtiyojni 10–12 barobar qoplash uchun yetarli ekanligi aniqlandi. Jumladan, 84 metr balandlikka oid ma'lumotlar asosida respublikamiz hududining xaritasi tuzib chiqildi. Unga ko'ra, shamol tezligi 5,0 m/s dan 6,5 m/s gacha va undan katta bo'lgan hududlar mamlakatimiz umumiy maydonining 70–75 foizini, shamol 3,0 m/s dan 5,0 m/s gacha tezlikda esadigan hududlar 20–25 foizni va shamolning kuchi 2,5 m/s dan kam bo'lgan hududlar qariyb 5 foizni tashkil qiladi. Ushbu raqamlar respublikaning 95 foiz hududida shamol energiyasidan foydalanish mumkinligini anglatadi.

Yaratganning o'zi ato etgan bunday imkoniyatlarni xalqimiz manfaatlariga yo'naltirishning ahamiyati katta. Shu bois bundan besh yil muqaddam qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ko'paytirish bo'yicha juda katta maqsad va vazifalar belgilanib, amaliy ishlar boshlab yuborildi. Bu borada Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki hamda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki yetakchi ekspertlarining fikrlariga alohida e'tibor qaratildi. Xalqaro maslahatchi va konsalting kompaniyalari ishtirokida 2 yil davomida mamlakatimizda quyosh, shamol va gidroenergetikani rivojlantirish imkoniyatlari puxta o'rganilib, eng samarali hududlar aniqlandi.

Bir qator yangi qonunlarni qabul qilish, mavjud normativ-huquqiy hujjatlarga tegishli o'zgartirishlar kiritish orqali energetika tarmog'ida bozor tamoyillariga asoslangan mustahkam huquqiy baza yaratildi. Sohada ma'muriy-buyruqbozlik mexanizmlari va monopoliyadan voz kechilib, zamonaviy boshqariladigan ochiq va shaffof tizimga o'tildi. Xususiy sektor va xorijiy kompaniyalar sohaga kirib kelishi uchun jozibador tadbirkorlik muhiti shakllantirildi. Natijada chet ellik ko'plab sarmoyadorlarning yurtimizga bo'lgan qiziqishi va ishonchi yanada ortdi.

Hech bir mubolag'asiz aytish mumkinki, oxirgi 4–5 yil ichida ushbu sohada asrga tatigulik ishlar amalga oshirildi. Aniqrog'i, "yashil energetika" iqtisodiyotimizning drayverlaridan biriga va chinakam umummilliy harakatga aylandi.

Buning natijasida oxirgi yillarda tarmoqda yetakchi xorijiy kompaniyalar ishtirokida qayta tiklanuvchi energetika salohiyatini kengaytirishga qaratilgan ko'plab loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

O'tgan qisqa vaqt ichida "yashil energetika"ni rivojlantirishga 2,1 milliard AQSH dollari miqdorida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilindi. Ilk bor ana shunday sarmoyalar hisobidan davlat-xususiy sheriklik asosida Navoiy viloyatining Karmana va Samarqand viloyatining Nurobod tumanlarida umumiy quvvati 200 MVt quyosh stansiyalari barpo etilib, o'tgan davrda ularda 1 milliard kilovatt soat elektr energiyasi ishlab chiqarildi.

2023-yil 27-dekabr kuni mamlakatimiz tarixida yana bir muhim voqea yuz berdi — umumiy quvvati 2,4 MVt bo'lgan 6 ta yirik quyosh hamda shamol stansiyalari ishga tushirildi.

Dunyoning qirqdan ortiq davlatida "yashil energetika" sohasiga doir loyihalarni ro'yobga chiqarishda faol ishtirok etib kelayotgan Birlashgan Arab Amirliklarining "Masdar" kompaniyasi mamlakatimizda ham to'rtta yirik loyihani yakunladi. Jizzax viloyatidagi quvvati 220 MVt bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasi shulardan biridir. 150 million AQSH dollarilik ushbu loyiha uchun G'allaorol tumanida 560 gektardan ortiq yer maydoni ajratilib, 460 ming dona quyosh panellari o'rnatildi.

Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tumanida ham shunday quvvatga ega quyosh fotoelektr stansiyasi ishga tushirildi. Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanida barpo etilgan ushbu yo'nalishdagi elektr stansiyasining quvvati nisbatan balandroq — qariyb 460 MVt dan iborat. Bu yerda 630 gektardan ortiq maydonga 900 ming donaga yaqin quyosh

paneli va zarur uskunalar joylashtirildi. Qurilish loyihasi yakuniga yetkazilgan ushbu uchta zamonaviy fotoelektr stansiyasining umumiy quvvati 900 MVtni tashkil qilmoqda.

Shuningdek, BAAning “Masdar” kompaniyasi tomonidan Navoiy viloyati Tomdi tumanida 500 MVtlik shamol elektr stansiyasining birinchi bosqichi qurib bitkazildi.

Xitoyning nufuzli “China Gezhouba Group” kompaniyasi ham dunyodagi 80 dan ortiq davlatlardagi katta-kichik loyihalarda faol ishtirok etadi. Mazkur kompaniya Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida har biri 350 million AQSH dollaridan bo'lgan, umumiy quvvati 1000 MVt quyosh stansiyalarining birinchi bosqichi qurilishini yakunladi.

Yuqorida tilga olingan 6 ta stansiyaning har biri yirik loyiha sanaladi. Aslida ularni ishga tushirish ko'p vaqt talab qiladi. Lekin mamlakatimizda bu sohaga qaratilgan alohida e'tibor bugun o'z natijasini berdi. Bizning strategik sherigimiz va yirik savdo hamkorimiz bo'lgan Xitoy ishtirokidagi loyihalar ilgari tajribada kuzatilmagan juda qisqa muddatda — 9 oy ichida ishga tushirilganini alohida ta'kidlash lozim.

Umumiy qiymati 2 milliard AQSH dollariga teng bu loyihalar hisobidan yiliga 6 milliard kilovatt-soat elektr ishlab chiqarilib, 2 milliard kub metr tabiiy gaz tejaladi. 2 million xonadon uzluksiz va kafolatli elektr energiyasi bilan ta'minlanadi. Sanoat va xizmatlar sohasida 4 milliard AQSH dollarlik qo'shilgan qiymat yaratiladi.

2024-yilda umumiy quvvati 2,6 gigavatt bo'lgan yana 14 ta stansiya ishga tushiriladi. Ularni tarmoqqa ulash uchun 5 ta podstansiyaning quvvati kengaytiriladi hamda 500 kilometr uzunlikdagi yuqori voltli elektr tarmoqlari tortiladi. Natijada qayta tiklanuvchi resurslar hisobiga elektr energiya ishlab chiqarish hajmi 13 milliard kilovatt soatga yetadi va uning mamlakat umumiy energetika balansidagi ulushi 15 foizni tashkil etadi. Bunday qisqa davr uchun bu, albatta, juda yuqori ko'rsatkichdir.

Hozir yana 13 milliard AQSH dollari hajmdagi loyihalar amalga oshirilmoqda. Respublikamizning deyarli barcha hududlarida zamonaviy quyosh va shamol elektrostansiyalari qurilmoqda.

E'tiborli jihati, mazkur loyihalarning barchasi davlat-xususiy sheriklik asosida, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan amalga oshirilmoqda.

O'tgan vaqt davomida to'plangan tajribalarga asoslanib, 2024-yildan "yashil energetika"ni rivojlantirishning uch yillik dasturini amalga oshirishga kirishildi. Yaqin uch yilda O'zbekistonda 28 ta kuchli quyosh va shamol elektr stansiyalari ishga tushiriladi. Ushbu stansiyalarning umumiy quvvati 8 gigavattga yetadi. Birgina 2024-yilning o'zida umumiy quvvati 2,6 gigavatt bo'lgan 14 ta stansiya foydalanishga topshiriladi.

2023-noyabr oyida Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay shahrida 200 dan ortiq davlatlar ishtirokida o'tkazilgan BMTning iqlim o'zgarishi bo'yicha 28-konferensiyasida Yer yuzida "yashil generatsiya"ni uch barobar oshirishga kelishib olingan edi. O'zbekiston ushbu tashabbusni to'liq qo'llab-quvvatlab, 2030-yilgacha "yashil energetika" quvvatlarini 27 gigavattga yetkazish uchun faol investitsiya siyosatini izchil davom ettiradi. Bu har yili 25 milliard kub metr tabiiy gazni tejab qolish, atmosferaga zararli tashlanmalarni 34 million tonnaga qisqartirishga xizmat qiladi.

Hozir yurtimizda 9 gigavattli 22 ta quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish loyihalari ustida jadal ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, yangi generatsiya quvvatlarini yetkazib berish uchun infratuzilmani shakllantirishga alohida urg'u berilmoqda. Ijtimoiy soha obyektlari, korxonalar va tashkilotlar, tadbirkorlarga tegishli binolar va aholi xonadonlarida umumiy quvvati 457 MVt bo'lgan quyosh panellari o'rnatildi. Natijada qo'shimcha 5 milliard kilovatt soat ekologik toza elektr ishlab chiqarish va 1,5 milliard kub metr tabiiy gazni iqtisod qilish imkoniyati yaratildi.

Kelgusi besh yilda jami 70 ming kilometr past kuchlanishli elektr tarmoqlari, 22 ming dona transformator, 100 dan ortiq podstansiyalar to'liq yangilanadi. Shuningdek, 10 ming kilometr yuqori kuchlanishli yangi magistral tarmoqlar barpo etiladi.

Bu sohaning rivojlanishi turdosh tarmoqlarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, yirik quyosh va shamol stansiyalarini yaratish, ularni tarmoqqa ulash, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash mamlakatimizdagi tegishli korxonalar uchun kamida 1 milliard AQSH dollarilik bozorni ochib beradi. Mahalliy korxonalarda transformator, har xil turdagi kabellar, isitish kollektorlari, quyosh panellari, izolator, metall ustun kabi mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishga ham katta turtki bermoqda. Bu jarayonda butlovchi va ehtiyot qismlar ishlab chiqarish uchun xorijiy hamkorlar bilan mahalliy korxonalarining yaqin kooperatsiya aloqalarini o'rnatish muhim amaliy ahamiyatga ega.

Qolaversa, ushbu soha sanoatning boshqa tarmoqlari va servisni rivojlantirishga ham yordam beradi. Mavjud loyihalar doirasida mahalliy korxonalar tomonidan 100 million AQSH dollarilik elektr jihozlari va qurilish materiallari yetkazib berilgani fikrimizning tasdig'idir.

Hozirgi vaqtda yurtimizda to'rtta korxonalar quyosh panellari, yana ikkita korxonalar metall konstruksiyalar ishlab chiqarishni boshladi. "Yashil energiya" sohasidagi ellikka yaqin loyihalar esa qo'shimcha 500 million AQSH dollarilik kabel bozorini yaratmoqda.

Jumladan, Qarshi shahridagi "Quyosh klasteri"da quyosh batareyalari, akkumulatorlar, invertorlar, suv isitkichlar, Ohangaron sanoat zonasida esa kabel va transformatorlar ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirish rejalashtirilgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi va Andijon viloyatida quyosh panellari ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi.

Aholining ushbu energiyaga qiziqishini oshirish maqsadida mamlakatimizda "Quyoshli uy" dasturi ishlab chiqilgan. Unga ko'ra,

quyosh batareyalarini o'rnatgan aholiga har kilovatt elektr energiyasi uchun ming so'mdan to'lanadi. Hozir 11 mingga yaqin xonadon sohiblari ushbu imkoniyatdan samarali foydalanmoqda.

Bu ishlarni kengaytirish uchun jozibadorlikni yanada oshirish va quyosh batareyalaridan foydalanuvchilarni qo'llab-quvvatlash davom ettirilib, ushbu maqsadlar uchun qo'shimcha 50 million AQSH dollari miqdorida mablag' ajratish va 100 million AQSH dollari xorijiy investitsiya jalb etish ko'zda tutilgan.

Quyosh energiyasidan foydalanish sohasida tadbirkorlar uchun ham qo'shimcha imtiyozlar yaratiladi. Xususan, quyosh batareyalari, invertorlar va akkumulatorlarni import qilish bo'yicha bojxona imtiyozlari yana besh yilga uzaytiriladi.

Kuchli hududlar — kuchli O'zbekiston demakdir

Jonajon yurtimizning har bir go'shasi, har bir shahar, qishloq yoki mahallasi biz uchun nihoyatda aziz va qadrlidir. Ularning hech birini boshqasidan ortiq yoki kam ko'rmaymiz. Shu bois hududlar o'rtasidagi tengsizlik muammosini bartaraf etish va ularni bir tekisda ravnaq toptirish davlatning zimmasidagi eng mas'uliyatli vazifalardan biri hisoblanadi.

Shu ma'noda, bu sohada qilinadigan ishlar juda ko'p. Hozirgi paytda mamlakatimiz hududlari orasida aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha 5,3 karra tafovut mavjud. Bunday yuqori tengsizlik jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu, eng avvalo, ijtimoiy nizolar va jinoyatlarni yuzaga keltirish xavfi tufayli investitsiya va tadbirkorlik faolligining pasayishiga, qolaversa, aholining ayrim guruhlariga ijtimoiy transfertlarni ko'paytirishga olib kelishi mumkin. Qo'shimcha ijtimoiy dasturlarni

moliyalashtirish esa, o'z navbatida, soliq yuki yoki davlat qarzlarining ortishiga sabab bo'ladi.

Hozirgi paytda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish sohasida bir talay muammolar va nomutanosibliklar ko'zga tashlanmoqda. Avvalo, mahalliy, tabiiy, iqtisodiy, moliyaviy va eksport salohiyatidan yetarli darajada samarali foydalanilmayapti. Shuning oqibatida ayrim hududlarning iqtisodiy rivojlanish sur'atlari ularning mavjud salohiyatidan past bo'lib, bu narsa qishloq tumanlari va kichik shaharlar orasida rivojlanish borasidagi tafovutni kengaytirmoqda.

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini tartibga solish amaliyotida hali yetarlicha samarali mexanizm shakllanmagan, mamlakatni hududiy rivojlantirish bo'yicha konsepsiya ishlab chiqilmagan. Natijada tarmoq va hududiy dasturlarni ishlab chiqishda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha nomutanosibliklar yetarlicha hisobga olinmayapti.

Ko'p yillar mobaynida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish davlat dasturlarini ishlab chiqishda tarmoq dasturlariga ustuvorlik berib kelindi. Mahalliy davlat organlari ishlab chiqarish quvvatlarini harakatga keltirish yoki kengaytirish evaziga yirik ishlab chiqarish va infratuzilma obyektlarini mustaqil ravishda tashkil eta olmayapti. Chunki ularning hududidagi aksariyat yirik kon, sanoat va transport korxonalari respublika idoralari tasarrufida qolmoqda.

Mahalliy budjetlar imkoniyatining cheklanganligi yillar davomida yirik moliyaviy resurslarni talab qiluvchi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishga monelik qilib keldi. Shularni inobatga olib, so'nggi yillarda bu sohada ham bir qator islohotlar amalga oshirildi. Xususan, "Tashabbusli budjet" tizimi joriy etildi. Endilikda fuqarolar o'zlari istiqomat qilayotgan maskanda mavjud infratuzilmani yaxshilash, xiyobonlar, bolalar va sport maydonchalari, ichki yo'llarni qurish,

maktablarni ta'mirlash va jihozlash bo'yicha loyihalarni taklif etib, mahalliy budjetning taqsimlanishida faol ishtirok etmoqda.

2024-yilda "Tashabbusli budjet"ning birinchi bosqichi uchun avvalgi yillarga nisbatan ikki barobar ko'proq mablag'lar yo'naltiriladi. Jumladan, 2021-yilning birinchi yarmida ushbu maqsadlar uchun 1,5 trillion so'm ajratilgan bo'lsa, joriy yilning birinchi mavsumida 3 trillion so'mdan ko'proq mablag'lar yo'naltirilgan.

Bu borada hech bir loyihaga ustuvorlik berilmaydi, balki qaysi loyihalarga ko'proq mablag' ajratishni fuqarolarning o'zi hal qiladi. Eng muhimi, ovoz berish jarayonlarida har bir fuqaro faqatgina bir marta ovoz berishi mumkin. Bundan tashqari, soliq tushumlari bo'yicha rejadan orttirilgan mablag'lar mahalliy hokimliklar ixtiyorida qoldirilib, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun sarflanmoqda.

Jahon iqtisodiyotida raqobatning kuchayishi va yangi strategik xatarlarning paydo bo'lishi milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini yanada oshirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda. Bu ko'p jihatdan hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish jarayonlarini davlat tomonidan samarali boshqarish qobiliyatiga, ma'muriy va bozor dastaklarining o'zaro mushtarak ta'siriga asoslangan boshqaruv mexanizmlaridan oqilona foydalanishga bog'liq.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyoti o'tish davrini boshdan kechirayotgan davlatlarda faqatgina bozorning o'zini o'zi tartibga solish funksiyasi orqali hududlarning mutanosib ravnaqini ta'minlab bo'lmaydi. Uzoq muddatli istiqbol rejalarini belgilashda hududiy omilga ustuvorlik qaratilmoqda. Binobarin, aynan ushbu omil aholi farovonligini oshirish, mamlakatning iqtisodiy va eksport salohiyatini kengaytirish bilan bog'liq eng dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishning asosiy dastagiga aylanadi.

Sanoatning hududiy tashkil etilishini takomillashtirishda mavjud mahalliy zaxiralar va demografik salohiyatdan oqilona foydalanish asosida joylarda kichik korxonalar tashkil etish orqali kam rivojlangan hududlarni, ayniqsa, qishloqlarni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash ustuvor vazifa hisoblanadi.

Hududlarni kompleks rivojlantirish va ularning resurs salohiyatidan samarali foydalanishni ta'minlashda mahalliy resurslar asosida ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish va yetkazib berishga ixtisoslashgan o'zaro bog'langan korxonalar va tashkilotlardan tashkil topgan zamonaviy hududiy klasterlar tarmog'ini yaratish katta amaliy ahamiyatga ega.

Rivojlangan mamlakatlarda klasterlarda sanoat, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarining integratsiyasi hamda yuqori texnologiyalarni jalb qilish evaziga iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning barqaror rivojlanishi ta'minlanmoqda. Hozirda klasterlar rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining 50 foizidan ortig'ini qamrab olgan bo'lib, AQSHda yalpi ichki mahsulotning 60 foizi, Yevropa Ittifoqida esa band aholining 40 foizi ular hissasiga to'g'ri keladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda ham mintaqalar tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish va ularni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish klaster usulidan keng foydalanishni taqozo qilmoqda.

Mamlakatda yer-suv resurslaridan samarali foydalanish, qishloq xo'jaligi va sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, hududlarning mutanosib taraqqiyotini ta'minlash kabi maqsadlarga erishishda hududiy agrosanoat klasterlari muhim omil hisoblanadi. 2022–2026-yillarda paxta-to'qimachilik klasterlarini rivojlantirish orqali O'zbekistonda tarmoq mahsuloti hajmini 2 barobar oshirish rejalashtirilgan.

Klasterlarning hududlar innovatsion salohiyatini va raqobatbardoshligini oshirish, yuqori texnologiyali sanoatning yangi avlodini rivojlantirish imkoniyatlaridan foydalanish kerak. Biz mamlakati-

mizning ayrim hududlarida mineral va qishloq xo'jaligi resurslari mavjud ekanligini hisobga olib, tayyor mahsulotgacha bo'lgan mahsulotlarni qayta ishlash maqsadida to'qimachilik sanoati, meva-sabzavot, go'sht va sut mahsulotlarini qayta ishlash, shuningdek, qurilish materiallari ishlab chiqarish tarmoqlarida klasterlarni shakllantirdik.

Keyingi yillarda hududlarimizning boshqa mamlakatlar mintaqalari bilan gorizontal aloqalarini kuchaytirish borasida ham faol ish olib borilmoqda. Xususan, Xitoy, Rossiya, Qozog'iston davlatlari bilan mintaqalararo hamkorlik aloqalarini muvofiqlashtirish bo'yicha maxsus Kengashlar tuzilgan. Ular bir necha yildan buyon faoliyat yuritmoqdalar, mintaqalararo hamkorlik forumlari o'tkazilmoqda.

Ikki davlat hududlari o'rtasidagi amaliy hamkorlikni kengaytirish maqsadida bunday forumlar ishbilarmonlar doirasi vakillari ishtirokida o'tkazilmoqda. Ularda transport-logistika, sanoat, turizm va yoshlar sohalarida ikki tomonlama hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilinmoqda. Bundan tashqari, ikki tomonlama uchrashuvlarda turli hududlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar ko'rgazmasi tashkil etilib, savdo va sarmoyaviy bitimlar imzolanadi.

Urbanizatsiyani rivojlantirish masalasi ham davlat iqtisodiy-ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Zero, shaharlar — iqtisodiy o'sish manbai hisoblanadi. Nisbatan kichik hududda aholi va ishlab chiqarishning zich jamlanganligi iqtisodiy o'sishga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Misol uchun, Yevropa Ittifoqidagi 38 ta eng yirik shahar mazkur tuzilmaga a'zo davlatlar umumiy maydonining atigi 0,6 foizini tashkil etgani holda, aholining 25 foizi va ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulotning taxminan 30 foizi ular hissasiga to'g'ri keladi. Yaponiyada beshta prefekturani o'z ichiga olgan Markaziy mintaqa mamlakat hududining 5,2 foizini egallaydi. Lekin bu yerda mamlakat aholisining 33 foizi istiqomat qiladi va yalpi ichki mahsulotning 42 foizi ishlab

chiqariladi. AQSHda 53 foiz aholi 40 ta eng yirik shaharlarda yashaydi.

Hisob-kitoblarga ko'ra, turli mamlakatlarda shahar ko'lamining 2 marta oshishi korxonalar ishlab chiqarish samaradorligining 3–8 foizgacha o'sishiga olib keladi. Shahar aholisining ikki barobar ko'payishi esa unumdorlikning 6 foizga oshishini ta'minlaydi. Shu bois mamlakatimizda urbanizatsiya darajasini 51 foizdan 60 foizga yetkazish ustuvor maqsad sifatida belgilangan.

Bu sohada, ayniqsa, Xitoy tajribasi diqqatga sazovor. Xitoy kommunistik partiyasining XVI syezdida mamlakat bo'yicha shaharlar aholisining sonini yiliga o'rtacha 1 foizdan oshirish orqali 2002-yildagi 326 milliondan 2020-yilda 838 million kishiga ko'paytirish yoki urbanizatsiya darajasini 57 foizga yetkazish va shu orqali o'rtacha rivojlangan mamlakatlar ko'rsatkichiga yaqinlashish vazifasi belgilangan edi. 2020-yil yakuni bo'yicha Xitoy o'z oldiga qo'ygan ushbu vazifani ortig'i bilan ado etib, bu ko'rsatkichni 60,3 foizga yetkazishga muvaffaq bo'ldi.

Xitoyda islohotlarning dastlabki yillarida “yerni tark etish, ammo qishloqni tark etmaslik” shiori ostida qishloq sanoatining jadal rivojlanishi, yangi infratuzilma obyektlarining barpo etilishi, bandlik tarkibida qishloq xo'jaligi ulushining pasayishi, aholi daromadlarining ortishi bunday hududlarda shahar turmush tarziga xos unsurlarning ko'payishiga olib keldi va natijada ularning ko'pchiligi shaharcha maqomiga erishdi. Chin yurtining ana shu tajribasini izchil o'rganish va uni mamlakatimizning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda amaliyotga qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Urbanizatsiyani rivojlantirishning me'yoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, uy-joy qurilishining moliyaviy bazasini mustahkamlash oldimizda turgan muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu bois joriy yilda “Urbanizatsiya to'g'risida” va “Renovatsiya to'g'risida”gi

qonunlar loyihalarini ishlab chiqish, "Urbanizatsiyani 2040-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"ni tasdiqlash, Master reja ishlab chiqish mezonlarini belgilash rejalashtirilgan.

Aholi manzilgohlari orasida bir milliondan ortiq aholi istiqomat qiladigan yirik shaharlar nafaqat muayyan hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, balki mamlakatning siyosiy obro'si mustahkamlanishiga ham xizmat qiladi. Shu bois yaqin yillar ichida katta demografik salohiyatga ega Samarqand va Namangan shaharlari "millionlik shaharlar"ga aylantiriladi. Bu narsa Zarafshon vohasi va Farg'ona vodiysi hududlarining jadal rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakatimizda ro'y berayotgan barqaror iqtisodiy o'sish, aholi turmush farovonligining izchil oshib borayotganligi natijasida ulkan bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda. Katta hajmda infratuzilma inshootlari, ishlab chiqarish obyektlari va uy-joylar barpo etilmoqda.

Lekin afsuski, bu ishlarning hammasini ham aniq rejalar asosida amalga oshirilyapti, deb bo'lmaydi. O'zbekistondagi mavjud 120 ta shahar va 1062 ta shaharchaning aksariyatida bosh rejalar mavjud emas. Shu bois 2030-yilga qadar mamlakatimizdagi barcha aholi punktlarining bosh rejalarini ishlab chiqish ko'zda tutilgan.

Tez rivojlanib borayotgan va qo'shimcha zaxiralari mavjud bo'lgan hududlarni tanlab olib rivojlantirish maqsadida dastlabki bosqichda 14 ta va keyingi bosqichlarda 36 ta tuman va shaharni tanlab olish rejalashtirilgan. Shu bilan birga, 5 ta hududda fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasi asosida hududlar va shaharlarni barqaror rivojlantirish loyhasini joriy etish mo'ljallangan.

Yurtimizda ikki yildan buyon aholining uy-joy sharoitini yaxshilash, hududlarda zamonaviy shaharsozlik talablari asosida ko'p qavatli uy-joylar, ijtimoiy soha va infratuzilma obyektlari hamda muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini qurish, yer resurslaridan oqilona foydalanish va urbanizatsiya jarayonlarini rivojlantirish maqsadida

Farg'ona viloyatining Bag'dod tumanida barpo etilgan "Muruvvat" massivi namunasi asosida tuman va shaharlar markazlariga yaqin va uy-joyga talab yuqori bo'lgan hududlarda "Yangi O'zbekiston" massivlari barpo etilmoqda. Bunday maskanlarda ko'p qavatli uy-joylar, muhandislik-transport kommunikatsiyasi, ijtimoiy soha, ishlab chiqarish, savdo va xizmat ko'rsatish obyektlari kompleks tarzda qurilmoqda.

Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga olis va chekka hududlarda joylashgan yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqi va ijara huquqini elektron onlayn-auksionga qo'yishda yer uchastkasining boshlang'ich narxini 50 foizgacha kamaytirish vakolati berilgan.

Massivlarni qurish loyihalarini ishlab chiqish, hududlarni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarini bajarish, tashqi muhandislik-transport kommunikatsiyalari hamda ijtimoiy soha obyektlarini barpo etish bo'yicha tegishli vazirlik va idoralarga topshiriqlar berilgan.

Keyingi paytlarda xalqimizga munosib turmush sharoiti yaratish maqsadida 100 trillion so'm mablag' yo'naltirildi. Shuning hisobidan hududlarda 6 mingta ko'p qavatli uylar barpo etilib, 250 ming oila yangi yashash joyi bilan ta'minlandi. Daromadi yuqori bo'lmagan 45 mingta oilaga uy-joy olishi uchun boshlang'ich badal va foiz to'lovi uchun 2 trillion 400 milliard so'mlik subsidiyalar berildi. Jumladan, 2023-yili mamlakatimiz bo'yicha 85 mingta xonadon qurildi. Aholiga 17 trillion so'mlik ipoteka kreditlari ajratildi. Aholi sonining o'sishini inobatga olib, bunday ishlar izchil davom ettirilmoqda. Xususan, 2024-yilda dastur doirasida 100 mingta uy-joy qurish rejalashtirilgan.

Biroq uy-joy narxi baland ekanligidan ko'z yumib bo'lmaydi. Toshkent shahrida yangi kvartiralar bahosi bir kvadrat metrga 25 million so'mga yetyapti. Viloyatlar markazlarida ham bu narx 8–10 million so'mga chiqib ketgan. Chunki quruvchilar uchun moliyaviy resurs

yetishmaydi, qurilish materiallari esa nihoyatda qimmat. Aholiga kreditlarning eng arzoni 20–22 foizdan berilgan. 28 foizlik kreditlar ham yo'q emas. Kadastr hujjatlari mavjud bo'lmagan uylarga ipoteka berilmaydi.

Oqibatda barcha og'irliklar xalqimizning gardaniga tushyapti. Resurs yetishmasligi sababli quruvchilar aholi mablag'larini jalb qilib, ularni hissador sifatida rasmiylashtiryapti. Bunday sharoitda nopok quruvchilar dastidan ayrim insonlar chuv tushib ham qolyapti. Bu muammoga yechim topish uchun Ipotekani qo'llab-quvvatlash jamg'armasini tashkil etib, aholining uy-joy qurilishida hissador sifatidagi ishtirokini ta'minlash lozim.

Avval ham ta'kidlaganimizdek, aholimiz soni tez o'sib boryapti. Shu omilni hisobga olib, qo'shimcha uy-joy, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmalarini barpo etish zarur. Zotan, odamlarni rozi qilishda ularni uy-joy bilan ta'minlash eng katta masala hisoblanadi. 2024-yilda ipoteka dasturi doirasida respublikamiz bo'yicha 80 mingta uy-joy qurish rejalashtirilgan. Lekin bu juda kam. Oldimizga qo'yilgan ulkan marralarga erishish uchun uy-joy qurilishi hajmini har yili kamida 20 foizga oshirib borishimiz kerak. Buning uchun viloyatlar hokimlari budjet va bankning puliga qarab o'tirmasdan, o'zlari ham investitsiya jalb qilib, renovatsiya loyihalarini amalga oshirishlari kerak.

Tuman va shaharlarning bosh va master rejalarini 3 ta toifali (renovatsiya, rekonstruksiya va konservatsiya) hududlarga ajratilib, soddalashtirilgan tartibda hamda aholi va tadbirkorlarning takliflarini inobatga olgan holda ishlab chiqish amaliyoti joriy etilmoqda. Bu nima uchun kerak? Ma'lumki, har bir bino-inshoot vaqt o'tgani sayin eskirishi yoki yemirilishi mumkin. Demak, yillar davomida ko'p kvartirali uylarning ham seysmik jihatdan zaifligi oshib boradi. Bu esa, o'z navbatida, ushbu turar joy binolarida istiqomat qiluvchi fuqarolarning hayotiga xavf tug'diradi. Sir emas, yurtimiz seysmik hududda

joylashgan. Shu bois bu sohada amalga oshirayotgan ishlarimizda eng asosiy maqsad — fuqarolar xavfsizligini ta'minlashdan iborat bo'lishi shart.

Ta'kidlash joizki, har qanday turar yoki noturar joy obyektini uning mulkdoriga belgilangan tartibda kompensatsiya to'langandan so'ng buzishga ruxsat etiladi. Fuqaro rozilik bermasa yoki buzishgacha bo'lgan jarayonlar oxirigacha yetkazilmasa, bino va inshootlarni buzish taqiqlangan.

Albatta, ko'rkam imoratlar, muhtasham binolar qurilishi o'sha joydagi aholining farovon turmushidan darak beradi. Bundan har qancha quvonsak arziydi. Lekin har ishda ham tosh-tarozi borligini unutmash kerak. Keyingi paytda fuqarolarimiz tomonidan uy-joy va inshootlar qurishda sohaga oid talab va me'yorlarni buzish holatlari tez-tez ko'zga tashlanmoqda. "Joy o'ziniki bo'lsa, istaganini quradi-da" degan tushuncha to'g'ri emas. Zero, har bir bino-inshootning zilzilabardoshligi, loyiha o'lchamlariga mosligi, xavfsizligi, ekologiya va atrof-muhitga zarar bermaslik kabi ko'plab muhim jihatlar inobatga olinsa, har qanday imorat uzoq yillar davomida yaxshilikka xizmat qilishi mumkin. Shuning uchun yurtimizda qurilish xavfsizligi me'yorlari bundan keyin ham takomillashtirib boriladi hamda rivojlangan davlatlarning bino-inshootlar bo'yicha qurilish xavfsizligi me'yorlari asosida yangi standartlar ishlab chiqiladi.

Hududlarni kompleks rivojlantirish va kambag'allik darajasini qisqartirishda xalqimizning asriy an'analarga tayangan holda mahalla institutining salohiyatidan foydalanishni nazarda tutuvchi mahallabay ishlash tizimi joriy etildi. Natijada iqtisodiy islohotlar doirasidagi ko'pgina chora-tadbirlar mahallalar darajasida amalga oshirilmoqda. Ushbu tizim bosqichma-bosqich rivojlantirilyapti, unga ko'plab vakolatlar, tashkiliy va moliyaviy resurslar, qo'shimcha kuch, imkoniyatlar berilyapti.

Bu — ham vakolat, ham mas'uliyat degani.

Mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi hamda profilaktika inspektoridan iborat “beshlik tizimi” tashkil etildi. Lekin ularning o'zaro muvofiq ishlashida juda ko'p kamchiliklar kuzatildi, ijtimoiy maqsadlar uchun mo'ljallangan mablag'lar ba'zan samarasiz yo'naltirildi. Ehtiyojmand aholining muammolarini hal qilish viloyat va respublika idorasiga bog'lanib qolgan, mahalla xodimlari faoliyatini baholash mezonini yo'q edi. Ularning ko'p vaqti “qog'oz to'ldirish” va majlislarga ketardi. Shuning uchun hozir tizimni takomillashtirish va samaradorligini oshirish bo'yicha yangi yondashuvlar qo'llanilyapti. Masalan, mahalla boshqaruviga soliqchi va ijtimoiy xizmat xodimi ham qo'shib, “mahalla yettiligi” tashkil etildi.

Endi ehtiyojmand aholini ro'yxatga kiritish, ularga moddiy yordam, subsidiya va kredit ajratish kabi 70 dan ortiq masalalar tuman va viloyat idoralariga chiqmasdan, mahallaning o'zida jamoaviy hal qilinadi.

“Mahalla yettiligi”ning ishini muvofiqlashtirish maqsadida mahalla raislarining vakolatlari kengaytirildi. Jumladan, ular hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, soliqchi va ijtimoiy xodimni rag'batlantirish yoki ularga nisbatan intizomiy jazo qo'llash bo'yicha taqdimnoma kiritish vakolatiga ega bo'ldi.

Mahalla tizimini takomillashtirishning tashkiliy choralari ham belgilandi. Xususan, mahallalarni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha respublika, viloyat va tuman (shahar) kengashlari joriy etiladi. Respublika kengashiga — Bosh vazir, hududiy kengashlarga esa hokimlar rahbarlik qiladi. Kengashlar “mahalla yettiligi” qo'yan masalalarga yechim topib, ularning moliyaviy manbalarini hal qilib beradi.

Bir so'z bilan aytganda, bugun Yangi O'zbekistonni bunyod etish bo'yicha chinakam tarixiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada oldimizga nihoyatda yuksak marralar qo'yilgan. Yurtimizdan yetishib

chiqqan taniqli alloma Aziz Muhammad Nasafiyning: “Halol mehnat va go‘zal axloq — chinakam yetuk insonning sifatidir”, degan so‘zlari zamirida chuqur hayotiy haqiqat mujassam. Biz ham ko‘nglimizdagi tuggan barcha ezgu maqsad va marralarimizga o‘zimizning halol mehnatimiz, tinimsiz sa’y-harakatlarimiz orqali erishish mumkinligini chuqur anglaymiz va shu yo‘lda hamisha oldinga qarab boramiz.

“

Inson, jamiyat, iqtisodiyot va tabiatning uyg'un ravishda rivojlanishi — ajdodlarimizdan meros qadriyatdir.

Shu ma'noda, umumiy maqsadimiz atrof-muhitni asrab-avaylash, bioxilma-xillikni saqlash, inson hayotining tabiat bilan uyg'unligini ta'minlashdir.

SAYYORAMIZ VA YANGI O'ZBEKISTON: EKOLOGIK TAHDIDLAR QARSHISIDA

Hozirgi davrda jahon miqyosida uchta inqiroz, ya'ni iqlim o'zgarishi, bioxilma-xillikning qisqarishi va atrof-muhit ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayishi shiddat bilan davom etmoqda. Ushbu muammolar barqaror rivojlanish yo'lida insoniyat uchun eng asosiy tahdidga aylanib ulgurdi.

Bunday xavf-xatarlar O'zbekiston va umuman, Markaziy Osiyo mintaqasining barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. So'nggi o'ttiz yilda mintaqamizda havo harorati 1,5 darajaga ko'tarilgani va bu o'rtacha global isishdan ikki barobar yuqori ekanligining o'zi ham shu fikrni isbotlaydi.

Bir paytning o'zida mintaqamizda Orol dengizi fojiasi oqibatlarini yumshatish, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, suv va yer resurslaridan adolatli va samarali foydalanish, atmosfera havosining ifloslanishini kamaytirish, biologik xilma-xillikni himoya qilish kabi masalalar tobora dolzarb tus olmoqda. Ayniqsa, Orolbo'yi hududida ro'y berayotgan fojيانing ko'lamini, bu yerda yashayotgan millionlab insonlarning dardi va orzu-armonlarini hech qanday raqamlar bilan ifoda etib bo'lmaydi.

Shuning uchun so'nggi yillarda O'zbekiston bu borada milliy, mintaqaviy va global darajada amalga oshirilishi lozim bo'lgan qator tashabbuslarni faol ilgari surib, tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirishga kirishdi.

Masalan, birgina BMT doirasida Bosh Assambleyaning **“Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni jadallashtirishda parlamentlarning**

rolini oshirish”, “Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e‘lon qilish”, “Markaziy Osiyo ekologik muammolar qarshisida: barqaror rivojlanish va farovonlik yo‘lida mintaqaviy birdamlikni mustahkamlash”, “BMT va Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi o‘rtasidagi hamkorlik” kabi qator maxsus rezolutsiyalar qabul qilindi. Orolbo‘yi mintaqasi uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson xavfsizligi bo‘yicha ko‘p tomonlama sheriklik Trast fondi tuzildi.

Ular mintaqaning og‘ir ekologik hududida yashayotgan aholisiga amaliy yordam ko‘rsatish uchun xalqaro hamjamiyatning tayanch platformasi bo‘lib xizmat qilmoqda. Xususan, ularda Markaziy Osiyoda iqlim va ekologik tahdidlarga samarali qarshi turish, jumladan, barqaror qishloq xo‘jaligi, obodonlashtirish, suv resurslaridan oqilona foydalanish, “aqli shahar”larni yaratish, tog‘ ekotizimini himoya qilish, muzlikni saqlash hamda “yashil taraqqiyot”, energiya samaradorligi, chiqindini qayta ishlash, barqaror turizmni rivojlantirish kabi sohalarda maqsadli loyihalarni amalga oshirish nazarda tutilgan.

Shuningdek, BMT tizimi, xalqaro va moliya institutlari, xususiyy sektor, investor va donorlarga Markaziy Osiyodagi ekologik muammolarni hal qilish uchun yetarli resurs safarbar etish, mavjud salohiyatni oshirish va yordam ko‘rsatishda davom etish tavsiya qilingan. Orolbo‘yi mintaqasidagi ekologik muammolarni hal etishda global va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ko‘maklashish, mintaqadagi cho‘llanish, qurg‘oqchilik, qum-chang bo‘roniga qarshi kurashishda innovatsion yondashuvlar, yangi texnologiyalar va ilg‘or tajribalardan faol foydalanish masalalariga alohida urg‘u berilgan.

Sohadagi xalqaro tashabbuslarimiz va milliy sa‘y-harakatlarimiz ajdodlarimizdan bizga ming yillar davomida o‘tib kelayotgan insonning:

- turmush sharoitini yaxshilash, tabiat bilan uyg'un hayot kechirishi, umri davomida suv, tuproq, olov, umuman, dunyodagi jamiki yaxshi narsalarni pok va bus-butun asrashga burchli ekani;

- tabiatni e'zozlashi, asrab-avaylashi, muhofaza qilishi, ayrim hayvon turlarini ov qilishdan, daraxtlarni besabab kesishdan tiyilish, tabiat in'om etgan boyliklardan oqilona foydalanishi zarurligi kabi qarashlari va g'oyalari asoslangan.

Ular nafaqat o'z davri uchun ahamiyatli bo'lgan, balki bugungi kunda ham o'ta muhimligini hayotning o'zi namoyon qilmoqda.

Ma'lumki, ekologik huquqlar va majburiyatlar ming yillar davomida mahalliy huquqiy tizimlarning asosi bo'lib kelgan.

Hatto yaqin davrda Yevropa davlatlarining aksariyat konstitutsiyalarida tabiiy resurslarni saqlash bo'yicha asosiy mas'uliyat va vakolatlar davlat zimmasiga yuklangan va ba'zi hollarda batafsil ko'rsatilgan.

Biz ham milliy taraqqiyotimiz qonuniyatlari va xalqaro tajribani chuqur o'rganish asosida yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga ilk bor ekologik huquqlar to'g'risidagi me'yorlarni kiritdik.

Ushbu me'yorlar mamlakatimizning bebaho boyliklarini hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylash, atrof-muhit musaffoligini, ekologik muvozanatni saqlash, tabiiy resurslar, jumladan, suv havzalarini muhofaza qilish kabi sohalarda davlatning ekologik siyosatini shakllantirish va amalga oshirishga xizmat qiladi.

Atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlashga, sohadagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan mustahkam huquqiy baza yaratilganini alohida qayd etish zarur. Jumladan, 2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi, sohaga oid 6 ta qonun, Prezidentning qator farmon va qarorlari qabul qilingan.

Hozirda O'zbekiston Respublikasining **“Suv va suvdan foydalanish to'g'risida”**gi qonunini keyingi yillarda qishloq va suv xo'jaligi sohalarida

amalga oshirilgan islohotlar natijalaridan kelib chiqib takomillashtirish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Suv kodeksini ishlab chiqish borasidagi ishlar amalga oshirilmoqda.

Biz qonunchiligimizda jamiyatda barqaror rivojlanish va ekologik madaniyatni shakllantirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratmoqdamiz. Zero, jamiyatda tabiiy resurslar va atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish bo'yicha an'anaviy qadriyatlarni qaror toptirmasdan turib, uch inqirozga qarshi turish mumkin emas.

Suv — ulug' ne'mat, uni asrab-avaylash — barchaning burchidir!

Dono xalqimizda suv Yaratgan tomonidan insonga berilgan ulug' ne'mat ekanini ifodalovchi “suv keldi — nur keldi”, “suv qatراسi — dur qatراسi” kabi azaliy naqlar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Suv resurslarini tejash, undan oqilona foydalanish madaniyatini va suv ishlatish samaradorligini oshirish milliy, mintaqaviy va global ahamiyatga egaligicha qolmoqda.

BMT baholariga ko'ra, 2050-yilga borib butun jahonda suvga bo'lgan talab 30 foiz o'sadi, binobarin, suv bilan bog'liq mojarolar va siyosiy beqarorliklar ham kelib chiqishi ehtimoldan xoli emas. Shu nuqtayi nazardan ekspertlar suvni XXI asrda davlatlararo nizolarga sabab bo'ladigan omillardan biri sifatida e'tirof etishmoqda. Zero, suv yerning 70 foizdan ko'proq qismini qoplagan bo'lsa-da, shundan atigi 3 foizi ichish uchun yaroqlidir. 2023-yilda 2 milliard odam, ya'ni Yer yuzi aholisining chorak qismi toza ichimlik suvisiz qolgan va yaqin 10 yillikda ular safiga yana 700 million kishi qo'shilishi mumkin.

Bugun dunyo siyosiy lug'atida “iqlim migrantlari” atamasi paydo bo'ldi. BMT va jahon banki ekspertlariga ko'ra bugun dunyodagi 10 foizdan ortiq migrantlar aynan o'z yashab turgan joylarini suv muammolari tufayli tark etgan. Suv tanqisligi — asrning global

muammosi bo'lib, uni bartaraf etishda dunyo davlatlari birgalikda ishtirok etishi lozim.

Toza ichimlik suvi dunyoda eng notekis taqsimlangan resurslardan biridir. Har kuni dunyoda 5 ming kishi ifloslangan ichimlik suvidan foydalanish oqibatida olamdan ko'z yumadi. Olimlar taxminiga ko'ra, 2030-yilga borib, dunyo aholisining yarmi suv tanqis bo'lgan hududlarda yashashga majbur bo'ladi. Ko'p mamlakatlarda suv tanqisligi tobora oshib bormoqda.

Mintaqamiz va O'zbekistondagi joriy holatga kelsak, global iqlim o'zgarishi, aholi sonining va iqtisodiyot tarmoqlarining o'sishi, o'z navbatida, ularning suvga bo'lgan talabi oshib borishi tufayli suv resurslarining taqchilligi yildan yilga kuchayib bormoqda.

Ekspertlarning fikricha, yaqin 20 yil ichida mamlakatimizda suv tanqisligi keskin oshadi. O'zbekiston suv tanqisligi bo'yicha qizil hududlar qatoriga kirishi va oqibatda dunyodagi suv tanqis bo'lgan 33 ta davlat qatoriga tushib qolishi ehtimoldan yiroq emas.

Yuqorida keltirilgan misollar yurtimiz uchun xavotirli ekanidan kelib chiqib, suv xo'jaligidagi **mavjud asosiy muammolarni** obyektiv tahlil qilishimiz zarur.

Avvalambor, bizda suv resurslari zaxirasi hamda aholini va iqtisodiyot tarmoqlarini suv bilan ta'minlash muammosi mavjud.

Global iqlim o'zgarishi natijasida Markaziy Osiyoda so'nggi 50-60 yil davomida muzliklar maydoni taxminan 30 foizga qisqargan. Hisob-kitoblarga ko'ra, 2050-yilgacha Sirdaryo havzasida suv resursi 5 foiz, Amudaryo havzasida 15 foizgacha kamayishi kutilmoqda. O'zbekistonda 2015-yilgacha bo'lgan davrda suvning umumiy taqchilligi 3 milliard kub metrdan ortiqni tashkil qilgan bo'lsa, 2030-yilga borib 7 milliard kub metrni, 2050-yilga borib esa 15 milliard kub metrni tashkil qilishi mumkin.

Shu bilan birgalikda, respublikada aholi sonining o'sishi hisobiga 2030-yilga borib ularning sifatli suvga bo'lgan talabi 3,0 milliard kub metr (18–20 foiz) yetishi kutilmoqda. Bu esa kommunal sohani yildan yilga suvga bo'lgan talabini ortishiga olib keladi.

Shuningdek, suv resurslari, suv xo'jaligi obyektlaridan samarali foydalanish, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, suv xo'jaligi tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiyalash, suv tejovchi sug'orish texnologiyalarini joriy qilish, mavjud lotok tarmoqlarini rekonstruksiya qilish va almashtirish kabi yo'nalishlardagi islohotlar chuqurlashtirilmoqda.

Suv xo'jaligini malakali kadrlar bilan to'ldirish, ilmiy tadqiqot ishlarini yangi bosqichga olib chiqish ham dolzarb masaladir.

Bugungi kunda suv xo'jaligi tashkilotlarida oliy ma'lumotli suv xo'jaligi xodimlarining ulushi 42 foizni tashkil etmoqda. Hozirgi paytda suv xo'jaligi tizimidagi mutaxassislar va rahbar kadrlarning malakasini oshirish bo'yicha doimiy faoliyat yurituvchi tizim mavjud emas.

Mamlakatimizda suv xo'jaligining oliy ma'lumotli kadrlari asosan **Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universitetida** tayyorlanib, uni zamonaviy va xalqaro miqyosdagi nufuzli oliy ta'lim muassasasiga aylantirish yo'lidagi izchil harakatlar davom ettirilishi lozim.

Transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish va xalqaro suvga oid munosabatlar borasida ham yechimini kutayotgan muammolar mavjud.

So'nggi yillarda Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi suv xo'jaligi munosabatlari sezilarli ravishda yaxshilandi, transchegaraviy suvdan foydalanish muammolarini hal qilish bo'yicha ijobiy tendensiya kuzatilmoqda.

Biroq, kelgusida Amudaryo va Sirdaryoning yuqori oqimlarida yangi yirik gidroenergetik obyektlar va suv omborlari qurilishi, shuningdek,

mavjudlari energetik rejimda ishlatilishi daryolarning quyi oqimida joylashgan davlatlar, shu jumladan, O'zbekiston uchun ham suv ta'minotida qator muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Bundan tashqari, kelgusida yangi yerlarni o'zlashtirilishi mintaqa davlatlari o'rtasidagi suv taqsimoti muvozanatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu esa Orol dengizi havzasi suv resurslaridan foydalanish sohasidagi mintaqaviy huquqiy asosni yanada takomillashtirishni talab etadi.

Hozirda O'zbekistonda yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish, suv xo'jaligi obyektlarini modernizatsiya qilish va rivojlantirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Respublikada aholini va iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini suv bilan barqaror ta'minlash, suv xo'jaligiga bozor tamoyillari va mexanizmlarini hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, suv xo'jaligi obyektlarining ishonchli ishlashini ta'minlash hamda yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini 2020–2030-yillarda rivojlantirish konsepsiyasi" qabul qilindi.

Bunda asosiy maqsadimiz — suv resurslarini samarali boshqarish va undan oqilona foydalanishni ta'minlash, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, suv resurslari taqchilligi kuchayib borayotgan, shuningdek, global iqlim o'zgarishlari sharoitida suv xavfsizligiga erishish. Shundan kelib chiqqan holda ushbu sohadagi siyosatimizning ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagi muhim vazifalarni belgiladik:

- suv resurslarini prognozlashtirish, ularning hisobini yuritish va ma'lumotlar bazasini shakllantirish tizimini takomillashtirish hamda shaffofligini ta'minlash;

- suv xo'jaligi obyektlarini (ichimlik va oqova suv tizimidan tashqari) modernizatsiya qilish va rivojlantirish, yirik suv xo'jaligi obyektlarini

boshqarishni joriy qilish, sohaga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish hamda ajratilayotgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanishni ta'minlash;

- suv omborlari, sel-suv omborlari va boshqa suv xo'jaligi obyektlarining xavfsizligini hamda ishonchli ishlashini ta'minlash;
- suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish, suvdan foydalanish va suv iste'moli hisobini yuritishda raqamli texnologiyalar "Smart Water" ("Aqlli suv") va shu kabi raqamli texnologiyalarni joriy etish.

Bizda ushbu ulkan natijalarga erishish uchun yetarli resurslar bormi degan savol tug'ilishi tabiiy, albatta. Bu savolga javob berish uchun biz qisqa vaqt ichida erishgan natijalarimizga nazar solishimiz kerak.

Birgina 2023-yilda 472 ming gektar yer tomchilatib va 48 ming gektari yomg'irlatib sug'orishga o'tkazildi, 97 ming gektarda boshqa suv tejovchi texnologiyalar joriy qilindi. 649 ming gektar yer lazerli tekislandi.

Natijada 2 milliard kub metr suv tejalgan. Misol uchun, bu Buxoro viloyatining bir yillik suv sarfiga tengdir.

Suv xo'jaligiga har yili o'rtacha 1 milliard AQSH dollari miqdorida mablag' yo'naltirilmoqda. Bu soha budjetdan mablag' olish bo'yicha ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligidan keyin 4-o'rinda turadi.

Vaziyatni tubdan isloh qilish, suvni tejash va undan samarali foydalanish borasida oldimizda qator vazifalar turibdi.

Bunda **birinchi muhim vazifa** — kanal va ariqlarni betonlash. Shu bois suv xo'jaligida 2024-yil "kanallarni betonlash bo'yicha zarbdor yil" e'lon qilindi. Ushbu yilda 1 ming 500 kilometr, ya'ni 2023-yilga nisbatan 4 barobar ko'p yirik kanallarni betonlash vazifasi belgilandi. 2025-yildan boshlab kanallarni kamida 2 ming kilometrdan kam bo'lmagan miqdorda betonlashga o'tiladi.

Ikkinchi muhim vazifa — suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish. Mamlakatimizda 4,3 million gektar sug'oriladigan yer bo'lib, shundan

30 foiziga suv tejoychi texnologiyalar joriy qilingan. Bunday klaster va fermer xo'jaliklarida suv 30–40 foiz, o'g'it va yoqilg'i 25–30 foiz tejilishi bilan birga hosildorlik oshgan.

Bu ishlarni davom ettirish, suv tejash texnologiyalari joriy etilgan maydonlarni har yili kengaytirib borish hamda bu borada Turkiya, Ispaniya va Xitoy tajribasini o'rganish muhimdir.

Kelgusi uch yilda ham qishloq xo'jaligi texnikasining 15 foizi va lazerli tekislagichning 30 foizini subsidiyalash amaliyoti davom ettiriladi.

Uchinchi muhim vazifa — suvni yetkazish xarajatlarini qisqartirish.

Bugungi kunda klaster va fermerlarga yetkazib berilayotgan har 1 kub metr suvga o'rtacha 212 so'm xarajat qilinyapti. Lekin Buxoro, Qashqadaryo va Namanganda bu 2–3 barobar qimmat.

Ushbu xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirishning eng to'g'ri yo'li — nasoslarni modernizatsiya qilish va ularni boshqarishni xususiy sheriklikka berish.

Xalqaro moliya tashkilotlari bilan birga, nasoslarni modernizatsiya qilish bo'yicha qisqa va uzoq muddatli dasturni amalga oshirish, sohada zamonaviy boshqaruvni joriy etish, suv hisobini yuritish dolzarb masalaga aylandi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan hududiy va ijtimoiy dasturlarda ichimlik suvi ta'minoti alohida o'rin egallaydi. Bu borada xizmat sifatli va doimiy bo'lishi uchun narx mutanosibligi muhim.

Ichimlik suvi aholi salomatligi, hayot sifatini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Shu bois bu masalaga mamlakatimizda alohida e'tibor qaralilib, manzilli loyihalar amalga oshirilmoqda. Umuman, bugungi kunda aholining markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi 70 foizni tashkil etmoqda. Kelajakda ichimlik suvi sifati, aholining toza ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi, suv ta'minoti va kanalizatsiya korxonalarining samaradorligini oshirish sohadagi bosh maqsadlarimiz bo'lib qoladi.

Yana bir masalaga alohida e'tibor qaratmoqchiman. Bu ham bo'lsa — Markaziy Osiyo mintaqasida umumiy suv zaxiralaridan oqilona foydalanish. Zero, qo'shni davlatlar bilan suv resurslarini samarali boshqarish nafaqat O'zbekiston, balki mintaqamizning ham barqaror rivojlanishi garovidir.

Markaziy Osiyoda yaqin o'tmishda, afsuski, tabiat resurslaridan oqilona foydalanishga yetarlicha e'tibor berilmagan, jumladan, bebaho ne'mat — suv xohlagancha tasarruf qilingan, bunda tabiat qonunlariga bepisand munosabatda bo'lingan. Tabiat in'omiga bunday yondashuv natijasida zararli oqibatlarining uzun ro'yxati paydo bo'ldi.

Ayni chog'da, Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik to'g'risida so'z yuritar ekanmiz, mintaqaning umumiy suv zaxiralaridan oqilona foydalanish kabi muhim masalalarni chetlab o'tolmaymiz.

Bu masalada BMT Bosh kotibining **“suv, tinchlik va xavfsizlik muammolari o'zaro chambarchas bog'liq”**, degan pozitsiyasini to'la qo'llab-quvvatlaymiz.

Mamlakatimizdagi suv resurslarining 20 foizi o'zimizda, katta qismi qo'shni davlatlarda shakllanishini e'tiborga olsak, transchegaraviy daryolarni boshqarish masalasi biz uchun qanchalik muhimligini tushunish mumkin.

Bugungi kunda Markaziy Osiyoning barcha davlatlari mintaqadagi transchegaraviy suv resurslarini birgalikda boshqarish va ulardan oqilona foydalanish masalasining dolzarbligini va suv mintaqa davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik barqarorligini ta'minlovchi asosiy omil ekani to'g'risida yagona to'xtamga kelishdi.

Ishonchim komil, suv muammosini hal qilishda mintaqa mamlakatlari va xalqlari manfaatlarini birdek hisobga olishdan boshqa oqilona yo'l yo'q.

Ushbu maqsadlarda bugungi kunda O'zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan suv masalalari bo'yicha aloqalarni Orolni qutqarish

xalqaro jamg'armasi va Davlatlararo suv xo'jaligini muvofiqlashtirish komissiyasida, suvdan foydalanish bo'yicha hukumatlararo ishchi guruhlar doirasida izchil rivojlantirmoqda.

“O'zbekiston — 2030” strategiyasida ham qo'shni davlatlar bilan suv resurslarini integrallashgan holda boshqarish, transchegaraviy suv resurslari va davlatlararo suv xo'jaligi obyektlaridan birgalikda foydalanish masalalarida ikki taraflama manfaatli hamkorlikni faol davom ettirish o'rin olgani zamirida katta ma'no bor.

Shu bilan birga, O'zbekiston, Qozog'iston va Tojikiston hamkorlikda o'zaro manfaatli shartlar asosida Bahri tojik (Qayroqqum) suv omborining ishlash rejimini belgilamoqda.

Turkmaniston bilan birgalikdagi sa'y-harakatlar va o'rnatilgan konstruktiv munosabatlar tufayli O'zbekistonning Turkmaniston hududida joylashgan suv xo'jaligi obyektlaridan foydalanish masalalari muvaffaqiyatli hal etilmoqda.

Shu kabi misollarni keltirish bilan birga, Afg'onistonda qurilayotgan Qo'shtepa kanali bo'yicha fikrlarimni bildirmoqchiman.

Avvalo, ushbu kanal Afg'oniston uchun alohida ahamiyatga ega loyiha bo'lib, mamlakatning doimiy qurg'oqchilikdan aziyat chekayotgan shimoliy hududlariga Amudaryo resurslarini yetkazib berish orqali qishloq xo'jaligi landshaftini o'zgartirishga qaratilgan.

Ikkinchidan, qurilish tugagach, bu manbadan foydalanib kelayotgan ikki davlat — O'zbekiston va Turkmaniston hozirgi suv oqimining 15 foizgacha qismini yo'qotishi mumkin.

Uchinchidan, Afg'oniston transchegaraviy daryolar va ko'llarni boshqarish uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi Transchegaraviy suvlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risidagi 1992-yilgi konvensiyaning ishtirokchisi emas.

To'rtinchidan, yuzaga kelgan vaziyatning mohiyatiga e'tibor bersak, mintaqamizda suvdan foydalanish jarayonida Markaziy Osiyo

mamlakatlari bilan hech qanday majburiyat asosida bog'lanmagan yangi ishtirokchi paydo bo'ldi.

Beshinchidan, kanalning ishga tushirilishi Markaziy Osiyodagi suvdan foydalanish tartibi va muvozanatini tubdan o'zgartirib yuborishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, Afg'oniston vakillarini suv resurslaridan birgalikda foydalanish bo'yicha mintaqaviy muloqotga jalb etish masalasini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Oltinchidan, Qo'shtepa kanalining qurilishi va uning Amudaryo suvidan foydalanish tartibiga ta'siri bilan bog'liq barcha jihatlarni mamlakatlarimizdagi tadqiqot institutlarini jalb etgan holda o'rganish bo'yicha Qo'shma ishchi guruhini shakllantirish zarur, deb hisoblayman.

Mintaqa mamlakatlarining suvdan foydalanishga oid asosiy hujjatlarida transchegaraviy daryolar suv resurslarini boshqarish va foydalanish sohasida umume'tirof etilgan me'yorlar, prinsiplar va o'zaro majburiyatlar o'z ifodasini topishi lozim. Ushbu daryolar havzalarida vaziyatning rivojlanishi bo'yicha turli ssenariylarni modellashtirishni nazarda tutish muhimdir.

Bunday strategik hujjatlarning qabul qilinishi mintaqamizda suv-energetika resurslarini integratsiyalashgan holda boshqarish siyosatini muvofiqlashtirishga imkon beradi, deb ishonaman.

Bu vaziyatdan kelib chiqqan holda, biz BMT Bosh kotibining Suv resurslari bo'yicha maxsus vakili lavozimi ta'sis etilishini qo'llab-quvvatlaymiz. Markaziy Osiyo suvni tejaydigan texnologiyalar platformasini yaratish jarayonida "Birlashgan Millatlar Tashkiloti — suv resurslari" mexanizmini ishga solib, eng ilg'or texnologiyalarni jalb etish va tatbiq qilish tarafdorimiz.

Orol fojiasi — umumbashariy fojia

Bugungi kunning eng xavfli ekologik xatarlaridan biri — Orol fojiasiga yana bir bor e'tibor qaratmoqchiman.

O'zbekistonda bo'lib o'tgan konstitutsiyaviy islohotlar natijasida yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 49-moddasiga kiritilgan normada Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini himoya qilish va tiklash, uni ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rilishi davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida mustahkamlandi.

Konstitutsiyada birinchi bor ushbu normaning belgilanishi mintaqa aholisi uchun munosib yashash sharoitlarining yaratilishini va turmush darajasi jiddiy tarzda yaxshilanishini ta'minlaydi, tadbirkorlik tuzilmalari va nodavlat notijorat tashkilotlarga atrof-muhitni himoya qilishga yo'naltirilgan turli loyihalarda faol qatnashish imkoniyatini beradi.

Orol dengizining qurishi va uning oqibatlari bilan kurashishida O'zbekiston qanday yo'l tutmoqda?

Mintaqaviy muammolarni konstruktiv hal etish va umumiy farovonlik makonini yaratish uchun ko'p tomonlama muloqotni yo'lga qo'yish bo'yicha O'zbekiston tomonidan amalga oshirilgan va qo'shni davlatlar qo'llab-quvvatlagan sa'y-harakatlar bugun yuqori darajadagi hamjihatlikka erishish va suvdan foydalanish, chegaralar va savdo kabi strategik muhim sohalarda yillar davomida to'planib qolgan ko'plab muammolarni hal qilish imkonini berdi.

Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish, shuningdek, Orolbo'yida bioxilma-xillikni saqlash uchun 3,5 million gektardan ortiq maydonda tabiat parklari, qo'riqxonalar va davlat himoya hududlari yaratildi, 2 million gektar yangi daraxtzor va o'simlik maydonlari barpo etildi.

Bu ishlar davom ettiriladi. Orolbo'yi mintaqasidagi o'rmonzorlarni kelgusi yetti yilda 2,3 million gektarga yetkazish bu yo'nalishdagi ustuvor vazifa bo'lib qoladi.

Bugungi kunda mintaqa davlatlari Orol dengizi havzasidagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolar sharoitidan chiqish yo'llarini birgalikda izlamoqda. Bu borada mintaqadagi barcha davlatlar bilan ikki tomonlama suv komissiyalari tuzilib, transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish bo'yicha uch tomonlama va ko'p tomonlama hamkorlik yo'lga qo'yildi.

1993-yilda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining siyosiy irodasi natijasida tashkil etilgan Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi va uning tuzilmalari mamlakatlarimiz o'rtasidagi muzokaralar jarayoni, transchegaraviy suv resurslarini kompleks boshqarish, ulardan foydalanish va saqlash bo'yicha ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomalar ishlab chiqish va qabul qilish uchun ajralmas siyosiy platformaga aylandi.

Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi, avvalo, Markaziy Osiyo mamlakatlarining global miqyosdagi eng o'tkir muammolardan birini yechish bo'yicha ko'p tomonlama hamkorlik borasidagi noyob tajribasidir.

Shu nuqtayi nazardan Jamg'armaning faoliyati yuzasidan bir nechta takliflar bor.

Birinchidan, Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasining huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish va institutsional mexanizmlarini modernizatsiya qilish zarur.

Xususan, asosiy hujjatlar va bitimlarni xatlovdan o'tkazish, jumladan, 1990-yillarda qabul qilingan Jamg'arma nizomini qayta ko'rib chiqish, amaldagi tuzilma faoliyatini birgalikda tahlil qilish va Jamg'arma tarkibidagi tashkilotlar ishini muvofiqlashtirish va samarasini oshirish borasida takliflar tayyorlash, uning faoliyati va hamkorlik masalalarini

aniq tartibga soluvchi “Qoida va tartib-taomillar”ni ishlab chiqishni taklif etamiz.

Jamg'armani rivojlantirish va isloh etish jarayonlarini tarmoqlararo tamoyil asosida, ya'ni zamonaviy ekologik tahdidlarni hisobga olgan holda, “**suv – energetika – oziq-ovqat**” tartibidagi kompleks yondashuvlar negizida amalga oshirish muhimdir.

Biz, shuningdek, Jamg'armaning amaldagi tuzilmalari samarasini kadrlar va texnik salohiyatni kuchaytirish, vakolatlarini kengaytirish hisobidan tubdan oshirish tarafdorimiz.

Ikkinchidan, asosan milliy rejalar yo'nalishida amalga oshirilayotgan Orol dengizi havzasi mamlakatlariga yordam ko'rsatish bo'yicha to'rtinchi dasturning ijrosidagi murakkabliklarni e'tiborga olib, jamg'arma boshqaruviga amaldagi dasturni tanqidiy qayta ko'rib chiqish hamda har bir mintaqaviy loyihaning hajmini va moliyalashtirish manbalarini belgilagan holda, “yo'l xaritalari”ni, ularning ijrosi bo'yicha kelishilgan jadvalni tayyorlashni taklif qilamiz.

Bu borada ustuvor mintaqaviy loyihalarni ilgari surish uchun investitsiya, texnologiya va texnik ko'makni jalb etish masalalari bo'yicha tizimli hamkorlikni ham kuchaytirish zarur.

Jamg'arma bir qator mintaqaviy dasturlar va loyihalarni amalga oshirish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirmoqda, xalqaro institutlar va donor tashkilotlar bilan hamkorlik qilmoqda.

Jamiyatda suv va boshqa tabiiy resurslardan tejab-tergab foydalanish madaniyatini shakllantirish, maxsus dasturni qabul qilgan holda, yoshlar tashabbuslari va startaplarini qo'llab-quvvatlash kabi masalalarda yoshlar bilan ishlashni mintaqaviy darajada tashkil etishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Uchinchidan, ustuvor mintaqaviy loyihalarni ilgari surish uchun investitsiya, texnologiya va texnik ko'makni jalb etish masalalari bo'yicha tizimli hamkorlikni kuchaytirish zarur.

Ayni chog'da aytish joizki, BMT Bosh Assambleyasining bir nechta sessiyalarida Orolbo'yi masalasiga dunyo hamjamiyatining diqqatini qarata olganimiz bu sohada qilingan muhim ishlarimizdan biri bo'ldi.

Buning samarasi sifatida BMT Bosh Assambleyasi 75-sessiyasining 2021-yil 18-may kuni bo'lib o'tgan yalpi majlisida Orol dengizi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasi deb e'lon qilish to'g'risida O'zbekiston taklif qilgan maxsus rezolutsiya bir ovozdan qabul qilinganini misol qilish mumkin.

Jahondagi 60 ga yaqin davlat hammuallif bo'lgan ushbu hujjatda BMT Bosh Assambleyasi Orol dengizi mintaqasidagi ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy va demografik vaziyatni yaxshilashga qaratilgan mintaqaviy tadbirlar va tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashi aks ettirilgan.

Alohida ta'kidlash joizki, Orolbo'yi BMT Bosh Assambleyasi tomonidan ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasi maqomi berilgan ilk mintaq bo'ldi.

Hozirgi kunda ushbu rezolutsiya asosida 2024–2028-yillarda Orolbo'yi mintaqasini barqaror rivojlantirish, innovatsiyalar va “yashil texnologiyalar”ni keng joriy etish bo'yicha Milliy dastur hamda Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish konsepsiyasi amalga oshirilmoqda.

Orol dengizi mintaqasiga moslashgan o'simliklarning sanoat plantatsiyalarini yaratishda foydalanish uchun Tottori universiteti (Yaponiya) bilan hamkorlikda yog'ochbop daraxtlarning tez o'sadigan, jumladan, jiyda, aylant, Kanada toli va pavloniya kabi turlarini tanlab olish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazildi.

Sho'rlanish sharoitida biodehqonchilik xalqaro markazining (ICBA) moliyaviy ko'magida Orol dengizining qurigan tubidan 10 xildan ortiq tuproq tiplarini bir joyga to'plash va ilmiy tadqiqotlar olib borish maqsadida lizimetrik tadqiqot maydonchasi barpo etildi va tadqiqot ishlari boshlandi.

Xalqaro sheriklar bilan birgalikda Orol dengizi havzasida 1 milliondan ortiq aholining iqlim o'zgarishiga moslashish va atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi ko'nikmasi va ma'lumotining sezilarli darajada oshishiga erishildi.

Orol dengizining qurib qolgan qismida ekotizimni yaxshilash, tadqiqotlar va innovatsiyalarning ilg'or tajribalarini joriy etish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Orolbo'yi xalqaro innovatsiya markazi hamda BMTning Orolbo'yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama sheriklik trust jamg'armasi tashkil etildi.

Orolbo'yi mintaqasini ekologik va gumanitar inqiroz yuz berayotgan hududdan ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish bo'yicha quyidagi asosiy vazifalar amalga oshirilmoqda:

- Orolbo'yi mintaqasi duch kelayotgan murakkab ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni yumshatish hamda bartaraf etish uchun tizimli innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish va qo'llash;

- alohida loyihalar va tarmoq dasturlari o'rniga o'zaro uyg'unlashgan va bir-biri bilan uzviy bog'liq kompleks dasturlar va loyihalarni amaliyotga joriy qilish;

- Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish maqsadida turli sohalarni uyg'unlashtirish hamda mintaqada faoliyat yuritayotgan idoralararo manfaatlarni birlashtirish;

- barcha manfaatdor tomonlarning imkoniyatlarini kengaytirish hamda tizimli o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan mahalliy va xalqaro tashkilotlarning sa'y-harakatlarini uyg'unlashtirish;

- xususiy sektor, xalqaro hamjamiyat, fuqarolik jamiyati institutlari, ilmiy doiralar, donorlar, shuningdek, rivojlanish bosqichida an'anaviy va yangi hamkorlar ishtirokida kompleks yondashuvlarni amalga oshirish hamda ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish;

- respublikaning boshqa hududlaridan kelgan tadbirkorlik subyektlari tomonidan "Qoraqalpog'istonda biznes qiling" shiori

ostida amalga oshiriladigan loyihalarni qo'llab-quvvatlash va amalga oshirish.

Orol dengizining suvi qurigan tubida va Orolbo'yi hududlarida "yashil qoplama"lar barpo etish, Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida yerlarni o'zlashtirish, yer maydonlarini tomchilatib sug'orish tizimini yaratish, "Obod qishloq" va "Obod mahalla" davlat dasturlarini amalga oshirish ishlari tashkil etilgan.

Xalqaro hamkorlarimiz bilan birgalikda Orol dengizi hududida cho'llanishning salbiy oqibatlarini bilan kurashish maqsadida dengizning qurigan tubida ekotizimlarni qayta tiklash, dengizning O'zbekiston qismida yangi daraxt va butalarni o'tqazish orqali hududda havo sifati va yashash sharoitlarini yaxshilash hamda iqlim o'zgarishiga chidamlilikni oshirishga yo'naltirilgan turli loyihalar amalga oshirilmoqda.

Xususan, Yevropa Ittifoqi BMTning Orolbo'yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama sheriklik Trast jamg'armasiga 5 million yevrodan ortiq mablag' ajratdi. Orolbo'yi mintaqasini "yashil rivojlantirish" bo'yicha qiymati 150 million yevrodan ortiq bo'lgan investitsiya loyahasini ishga tushirish ustida faoliyat olib borilmoqda. Loyiha Orolbo'yi mintaqasida o'rmon, suv va qishloq xo'jaligini rivojlantirish va irrigatsiya tizimlarini modernizatsiya qilishni o'z ichiga oladi.

Yaponiya Xalqaro hamkorlik agentligi bilan Orol dengizining qurigan tubi hududida tadqiqotlar olib borish uchun ilmiy stansiya yaratish, Orolbo'yi hududini iqtisodiy rivojlantirish, yoshlarni ish bilan ta'minlash maqsadida Yaponiyaning kichik innovatsion texnologiyalarini jalb qilishga qaratilgan loyihalar amalga oshirilmoqda.

Bu sohada amalga oshirilayotgan hamkorlik bo'yicha yana ko'plab misollarni keltirish mumkin.

Muhimi, bugun xalqaro hamjamiyat Orol fojiasini faqat O'zbekiston va Markaziy Osiyo muammosi sifatida emas, balki global darajadagi fojia deb qaramoqda va bu boradagi harakatlarimizni qo'llab-quvvatlamoqda.

Maqsadimiz — aholining qulay ekologik muhitda yashash huquqini ta'minlash

Hozirgi davrda jahon hamjamiyatini atrof-muhitning ifloslanishi, iqlim o'zgarishi va tabiiy resurslardan samarali foydalanish kabi muammolar qattiq tashvishga solmoqda.

XX asrning 70-yillarida har yili biosferaga o'rtacha 40 milliard tonnadan ortiq ishlab chiqarish chiqindilari tashlanardi. 2024-yilga kelib uning hajmi 100 milliard tonnaga yetdi.

Havo ifloslanishi sabab kelib chiqadigan turli xastaliklar har yili 7 million kishini hayotdan erta olib ketmoqda. Ularning ko'pchiligi saraton, nafas olish yo'llari yoki yurak kasalliklariga chalingan. Bolalarda ko'p hollarda astma, surunkali o'pka kasalliklari, o'sishning sekinlashishi, semirish va aqliy zaiflik paydo bo'lishi ehtimoli ko'proq bo'lar ekan.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda dunyoda faqat yetti davlat havo sifati standartlariga to'liq javob beradi. Bular **Avstraliya, Yangi Zelandiya, Estoniya, Finlandiya, Islandiya**, shuningdek, **Grenada** va **Mavrikiy** orol davlatlaridir. Bundan tashqari, dunyo mamlakatlarining uchdan bir qismida havo sifati standartlarini belgilovchi me'yoriy hujjatlar mavjud emas.

O'zbekistonda ekotizimlar tanazzuli yanada kuchayishining oldini olish, atrof-muhitni muhofaza qilish, dengiz qurishining salbiy oqibatlarini yumshatish borasidagi yo'nalishlarda ishlar faol olib borilayotganini alohida qayd etmoqchiman.

Zero, atrof-muhitning joriy holati tahlili global va mintaqaviy ekologik muammolar, yangi ekologik xavf-xatarlar O'zbekiston Respublikasida aholining hayot sifatini yaxshilash borasida olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. Masalan, yaqinda 2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining **Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi** ishlab chiqildi.

Konsepsiya ko'rsatib o'tilgan davrda atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi, ularning amalga oshirilishi esa kelajak avlodlarning manfaatlarini yo'lida davlatni barqaror rivojlantirishni ta'minlash imkonini beradi.

Ushbu Konsepsiyani qabul qilishimizdan maqsad quyidagilar:

- O'zbekiston Respublikasi aholisining hayoti va salomatlik darajasini yaxshilashning zarur sharti sifatida atrof-muhitning qulay holatini ta'minlash;

- atrof-muhitga va aholining salomatligiga salbiy ta'sirni pasaytiruvchi innovatsion texnologiyalarni joriy etish hisobiga barqaror iqtisodiy rivojlanish;

- atrof-muhit obyektlaridan oqilona foydalanishni va biologik resurslar qayta tiklanishini ta'minlash.

Mazkur sohadagi sa'y-harakatlarimiz zamirida atrof-muhitga minimal og'irlik tushiradigan barqaror rivojlanishni ta'minlovchi jamiyatni shakllantirish g'oyasi yotibdi.

Biz havoning ifloslanishi mavzusiga nafaqat ekologik muammo, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega bo'lgan masala sifatida qaraymiz. Mamlakat aholisining ekologik xavfsizligi va millat salomatligi bilan bog'liq bo'lgani uchun uning oldini olish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va hisob-kitoblar havo sifatini yaxshilashga qaratilgan uzoq muddatli choralar ko'rilishini talab etmoqda.

Shuni qayd etish lozimki, shaharlar bosh rejalarini tuzishda ular hududining kamida 30 foizini yashil maydonlar tashkil etishi, turar joy binolarini qurishda "yashil maydon"larni aholining soniga mutanosib bo'lishini ta'minlash, shuningdek, atrof-muhitga ta'sir xavfi yuqori daraja (I toifa)dagi obyektlarning ifloslantiruvchi manbalaridan avtomatik ravishda namunalar olish tizimini tatbiq etish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Shuningdek, barcha toifalardagi avtomototransport vositalaridan ifloslantiruvchi moddalar tashlamalarining atmosfera havosiga zararli ta'sirini kamaytirish hamda "Ekologik transport" tizimini bosqichma-bosqich joriy etilishi ham muhim.

"Yashil makon" umummilliy loyihasi — ekologik vaziyatni barqarorlashtirish garovi

Atrof-muhitni muhofaza qilishning institutsional muammolariga to'xtaladigan bo'lsak, hozirda **"yashil iqtisodiyot"**ga o'tish, ya'ni iqtisodiyotni ekologiyalashtirish eng dolzarb masalaga aylangan. Chunki **"yashil iqtisodiyot"**ga o'tish respublikada ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, inson hayotiga zararli ta'sir o'tkazuvchi ekologik muammolarni bartaraf etish imkonini beradi.

Shu o'rinda **"yashil iqtisodiyot"**ga o'tish va **uglerod neytralligiga erishish** Yangi O'zbekistonning ustuvor strategik vazifasi ekanini ta'kidlamogchiman.

Aytish kerakki, so'nggi yillarda yurtimizda muqobil energiya ulushi ikki barobar ko'paydi. 2030-yilga borib 25 gigavatt qayta tiklanuvchi energiya quvvatlari barpo etiladi. "Yashil" vodorod ishlab chiqarish loyihasi bo'yicha ilk amaliy qadamlar tashlandi.

Global miqyosda kam uglerodli iqtisodiyotga o'tish adolatli, shaffof va inkluziv bo'lishi zarurligi, bunda rivojlanayotgan davlatlarning manfaatlari albatta inobatga olinishi juda muhimdir. Xususan:

- dolzarb muammoni muntazam ravishda, shu jumladan, "Katta yettilik" va "Katta yigirmalik" formatlari kun tartiblarida ko'rib borish ham muhim ahamiyatga ega;
- Xalqaro mehnat tashkiloti bilan hamkorlikda "Yashil bandlik" dasturini ishlab chiqish, Iqlim o'zgarishining bandlikka ta'sirini

modellashtirish markazini tashkil etish kabi tashabbuslarni ilgari surmoqdamiz.

O'zbekiston ushbu sohada xalqaro tashkilotlar va hamkor davlatlar bilan birgalikda amalga oshirilishi lozim bo'lgan qator tashabbuslarni ham ilgari surmoqda:

- “Bir makon, bir yo'l” va “Yashil ipak yo'li” loyihalari doirasida “yashil iqtisodiyot”ga o'tish borasida keng ko'lamli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish;

- “Markaziy Osiyoning “Yashil kun tartibi” va “Yashil ipak yo'li” konseptual tashabbuslarini o'zaro bog'liq holda amalga oshirish. Bunda iqtisodiyot tarmoqlarini “yashil taraqqiyot” talablari asosida transformatsiya qilish va raqamlashtirish, “yashil sanoat” quvvatlarini ishga tushirish, kambag'allikni qisqartirish va “aqlli” qishloq xo'jaligini rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamdagi “Yashil taraqqiyot dasturi”ni ishlab chiqish;

- “yashil” ishlab chiqarish zanjirlari va innovatsiyalarni rivojlantirish, “yashil texnologiyalar”ni keng joriy qilish asosida Orolbo'yi mintaqasida Maxsus namunali texnologik parkni tashkil etish, ekologik toza mahsulotlar, ayniqsa, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining o'zaro savdosidagi cheklov va to'siqlarni kamaytirish, “yashil energiya”ga o'tish;

- Orolbo'yi xalqaro innovatsiyalar markazi negizida “yashil” bilim va yechimlarni transfer qilish bo'yicha ilmiy-axborot platformasini ishga tushirish;

- Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti negizida “yashil” taraqqiyot va ekologiya sohasida mutaxassislar tayyorlash va akademik almashuvni rivojlantirish bo'yicha qo'shma dasturlarni amalga oshirish shular jumlasidandir.

Bizning “Markaziy Osiyo uchun “Yashil kun tartibi” dasturimizni qabul qilish to'g'risidagi tashabbusimiz ko'plab davlatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Ekologik xavflarni samarali boshqarish uchun zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan yuqori malakali, xalqaro darajadagi mutaxassislarni tayyorlashning yaxlit tizimini rivojlantirish kun tartibimizdagi muhim masala. Shu maqsadlarda Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti (Green University) ni tashkil etdik. Bu Markaziy Osiyodagi yagona ekouniversitet ekanini alohida qayd etish zarur. Universitetning faoliyati bioxilma-xillikni saqlash, iqlim o'zgarishi va havo ifloslanishining oldini olish kabi uchta global xarakterdagi muammoni hal etishga, yurtimizning boy tabiatini saqlashga xizmat qiladi.

Mazkur universitet negizida tashkil etilayotgan Iqlim ilmiy forumi doirasida yaqin ilmiy almashinuvni va qo'shma tadqiqotlar o'tkazish ishlarini tizimli yo'lga qo'yish lozim. Negaki, birgalikda xalqaro tadqiqotlar dasturini tayyorlash umumiy maqsadimizga muvofiqdir.

Yana bir muhim masala ekologik ahamiyatga ega qarorlarni qabul qilishda jamoatchilikning ishtirokidir.

Atrof-muhitni bekam-u ko'st saqlash, ekologik muvozanatni saqlash borasida ko'plab hujjatlar, qarorlar qabul qilishimiz, keng miqyosli loyihalar ishlab chiqishimiz, zarur choralar ko'rishimiz, ularni moliyalashtirish uchun mablag' yo'naltirishimiz mumkin. Ammo bu sohadagi barcha ishlarimiz samarasi ushbu jarayonlarda fuqarolarimizning faol ishtiroki, tevarak-atrofga mas'uliyat hissi, boshqacha aytganda, jamiyatdagi ekologik madaniyatga bog'liqdir.

Fuqarolik jamiyati institutlari va aholining keng ishtirokisiz atrof-muhitni muhofaza qilish muammolarini hal etib bo'lmaydi. Bunda aholining ekologik bilim darajasi alohida ahamiyatga egadir.

Shu nuqtayi nazardan, hozirgi kunda tabiatni tushunish, ekologik ta'lim-tarbiya, aholida va avvalo, yoshlarimizda ezgulik, ko'ngilchanlik, rahmdillikka da'vat etuvchi ekologik ong, ekologik madaniyatni

shakllantirish — atrof-muhitni saqlash borasida qilinishi zarur bo'lgan muhim ishlardan biridir.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, aholi punktlarini ko'kalamzorlashtirish, daraxt va butalarni muhofaza qilish hamda yashil maydonlarni kengaytirish borasida kompleks chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Jumladan, Respublika shaharlari va tuman markazlari hamda aholi punktlarida ekologik vaziyat va havo tozaligini yaxshilash hamda transchegaraviy garmisel shamollari va chang-qum bo'ronlarining atrof-muhitga zararli ta'sirlarining oldini olish maqsadida **“Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshira boshladik.**

Bunda: ilmiy yondashuvlar asosida hududlar kesimida respublika xaritasini ishlab chiqish, ko'chatxonalar sonini ko'paytirish, chet eldan keltirilgan manzarali daraxtlarni mahalliyashtirish;

- hududlarda “yashil bog'lar” va “yashil jamoat parklari”ni barpo etish va uning samarali faoliyatini ta'minlash;

- daraxtlarga shikast yetkazish va nobud qilganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish, mazkur yo'nalishda jamoatchilik nazoratini yanada oshirish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'tgan davr mobaynida loyiha doirasida 588 gektar “yashil bog'lar”, 662 gektar “yashil jamoat parklari”, Buxoro, Nukus, Xiva va Urganch shaharlari atrofida jami 40 km masofada “yashil belbog'lar barpo etildi.

Ayni chog'da, global miqyosda iqlim keskin o'zgarmoqda va buning salbiy ta'sirini barchamiz ko'rib turibmiz. Shu bois, betakror tabiatimizni asrab-avaylab, kelajak avlodlarga yetkazish bo'yicha ta'sirchan choralarni ko'ramiz. Bu borada “Yashil makon” umummilliy loyihasini yanada kengaytiramiz.

Barcha aholi maskanlari, mahallalarda “yashil maydonlar”ni ko'paytirish uchun maqsadli mablag'lar ajratib boriladi. Shuningdek,

barcha davlat idoralari, korxonalar, oliygohlar o'zlarining “yashil bog‘lari”ni tashkil etadi.

Endi yangi uy-joy qurishda pudratchilarga “yashil hudud” va avtoturargoh barpo etish majburiy talab qilib qo‘yiladi.

“Ochiq budjet” axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida shakllangan “Yashil bog‘lar”, “Yashil jamoat parklari” va “Mening bog‘im” loyihalarini moliyalashtirishga urg‘u beramiz.

Ana shunday ishlarimiz orqali 2030-yilgacha respublikada ko‘kalamzorlik darajasini hozirgi 18 foizdan 30 foizga yetkazamiz.

Buning uchun, daraxt havas bilan ekilishi, xalqimiz, mahallalarimizning madaniyatiga aylanishi lozim.

Islohotlar natijasini odamlar o‘z hayotida, mahallasida sezsin deb bekorga takrorlamayman. Agar har bir fuqaro o‘z mahallasi, qishloq va shahrida, daraxtzor-u bog‘lar barpo eta olsa, biz o‘z niyatimizga erishgan bo‘lamiz.

Iqlim muammolari — barqaror rivojlanish yo‘lidagi eng katta tahdid

Bugun insoniyat iqlim o‘zgarishi tufayli yuzaga kelayotgan suv taqchilligi, tabiiy ofatlarning tez-tez takrorlanishi, yerlarning cho‘llanish jarayonining o‘sishi, bioxilma-xillikning kamayishi kabi muammolarni hal qilishga intilmoqda.

O‘zbekiston iqlim o‘zgarishi, yerlarning cho‘llanishi va degradatsiyasining oldini olish kabi bugungi ekologik tahdidlarni yumshatish va susaytirish bo‘yicha butunjahon harakatining faol a‘zolaridan hisoblanadi. Mamlakatimiz ko‘plab xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgan va ularni ijrosida faol ishtirok etmoqda.

Iqlim global isishining to‘xtovsiz davom etayotgani inson salomatligi va mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi uchun katta xavf tug‘dirmoqda.

O'zbekiston iqlim o'zgarishiga nisbatan himoyaga muhtoj mamlakatlar toifasiga kiradi. So'nggi yillarda iqlim o'zgarishi oqibatida respublika hududida tabiiy ofatlar (zilzila, sel, kuchli shamol, tabiiy yong'in, suv toshqinlari, qor va yer ko'chkilari) soni sezilarli darajada oshdi. Shu tufayli sodir bo'layotgan xavfli gidrometeorologik hodisalar to'g'risida barvaqt ogohlantirishlar darajasini 100 foizga, tog' daryolari oqimi prognozlarining ishonchliligi darajasini 98 foizga yetkazishni rejalashtirdik.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekistonga iqlimning mehnat unumdorligiga, yo'llar va ko'priklar, chorvachilik va irrigatsiya sektoriga salbiy ta'sirini yumshatish uchun taxminan 60 milliard AQSH dollari kerak bo'ladi.

Global iqlim o'zgarishi bilan bog'liq kuzatilayotgan vaziyat sababli respublikada iqlim o'zgarishiga moslashuv choralarini ko'rish va tabiiy ofatlar bilan bog'liq yo'qotishlarni kamaytirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Yuqorida qayd etganimizdek, iqlim o'zgarishi va uning oqibatlariga qarshi kurash borasida aholining ushbu muammolar haqidagi bilimi, xabardorligi muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda O'zbekiston turli xalqaro platformalarda BMT Bosh Assambleyasining "Markaziy Osiyo global iqlim tahdidlari qarshisida: umumiy farovonlik yo'lida hamjihatlik" nomli rezolutsiyasini qabul qilish, "Iqlim bo'yicha Markaziy Osiyo muloqoti" ko'p tomonlama platformasini ta'sis etish kabi dunyo hamjamiyati, hamkorlarimiz tomonidan qo'llab-quvvatlangan qator tashabbuslarni ilgari surgan.

Yana bir global muammo yerlarning cho'llanishi va degradatsiyasidir. Hududining 80 foizi cho'l va yarim cho'llardan iborat bo'lgan O'zbekiston uchun cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurashish masalalari barqaror rivojlanishni ta'minlashda ustuvor o'rin egallaydi.

Hozirgi vaqtda qariyb 10 million gektar yaylovlar tubdan yaxshilanishga muhtoj. Mollarni bir yaylovda qayta-qayta o'tlatish, daraxt-u butalarni o'tin va boshqa maqsadlar uchun kesish cho'l zonasida ularning ancha kamayib ketishiga olib kelgan.

Respublikada ko'chadigan qumlar qariyb 1 million gektar maydonni egallaydi va ushbu yerlarning 200 ming gektari sug'oriladigan maydonlar atrofida. Bu esa cho'llashish jarayonining jadallashuvida namoyon bo'luvchi jiddiy tahdidni vujudga keltirmoqda. Yerlar degradatsiyasi sug'oriladigan hududlarda ham ro'y bermoqda.

Buning yechimi almashlab ekishni keng targ'ib etish, yerlarning optimal shudgorlanishini, qishloq xo'jaligi ekinlarini parvarishlash talablariga rioya etilmasligi, o'g'itlardan nazoratsiz foydalanish, shuningdek, agroekologiya standartlarini joriy etish darajasining pastligi tuproq-ekologiya sharoitlari buzilishiga va degradatsiyaga uchragan yer maydonlari ko'payishiga olib kelmoqda.

2023-yilning dekabr oyida Samarqandda cho'llanishga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro anjuman o'tkazildi. Uning doirasida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar sohada yig'ilib qolgan muammolarni samarali hal etishga xizmat qilishi shubhasiz.

Bioxilma-xillikni saqlash, inson hayotining tabiat bilan uyg'unligini ta'minlash — insoniyatning umumiy maqsadlaridan biridir. Bu butun xalqaro hamjamiyat sa'y-harakatlarini birlashtirishni, muvofiqlashtirilgan va kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi.

Shuningdek, hayvonlarning ko'chishiga to'siqlardan xoli ekologik yo'laklarni yaratish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va qabul qilishni qo'llab-quvvatlaymiz.

Infratuzilma obyektlari — avtomobil va temiryo'llar, gaz quvurlari va chegara inshootlarining qurilishi yovvoyi hayvonlar migratsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishini kamaytirishni muhim deb hisoblaymiz.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston mintaqa mamlakatlari bilan transchegaraviy tabiiy parklar yaratish bo'yicha yaqin hamkorlik qilmoqda va ular sonini keskin ko'paytirish niyatidamiz.

Bir vaqtlar Ustyurt platosi kengliklarida yashagan va inson omili ta'sirida yo'qolib ketgan Osiyo qoplari populyatsiyasini iqlimga qayta moslashtirishni boshlash niyatidamiz. Olimlar va ekspertlarning bu yo'nalishdagi faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlaymiz.

So'nggi paytlarda dunyoda tabiat "chekinmoqda", bioxilma-xillikning qisqarib ketish jarayonlari rekord darajaga yetdi, yer o'z hosildorligini yo'qotmoqda, o'simlik va hayvonot dunyosi turlarining milliondan ortig'i yo'qolib ketish xavfi ostida turibdi, insoniyat yangi biologik tahdidlarga ro'baro' keldi, degan ko'plab fikrlar bildirilmoqda.

Tadqiqotlar XXI asrning ikkinchi yarmida iqlim o'zgarishi biologik xilma-xillikka salbiy ta'sir etuvchi asosiy sabab bo'lishini ko'rsatmoqda. Harorat oshishi va yog'ingarchilikdagi o'zgarishlar daraxtzorlar kamayishi, qishloq xo'jaligi degradatsiyasi kabi yomon oqibatlariga olib kelmoqda.

Insoniyat o'z qilmishlari tufayli Yer yuzining uchdan ikki qismida salbiy o'zgarishlarga sabab bo'ldi. BMT ma'lumotlariga ko'ra, millionga yaqin o'simlik va hayvon turlari yo'q bo'lib ketish arafasida.

Ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi 50 yilda yovvoyi tabiat dunyosi 69 foizga qisqargan.

Bioxilma-xillikning kamayishi biosferaning tashqi xatarlarga bardoshlilikini susaytiradi va sayyoramiz kelajagi, kerak bo'lsa, taqdiriga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonning barcha hududida yovvoyi hayvonlar yashaydi va o'simliklar o'sadi.

O'zbekiston bioxilma-xilligi 27 mingdan ortiq turlarni o'z ichiga oladi. O'simlik dunyosi 11 ming turni tashkil etadi (o'simliklarning 324 turi va qo'ziqorinning 3 turi O'zbekiston Respublikasining

“Qizil kitob”iga kiritilgan). Shuning uchun hayvonot va o'simlik dunyosi obyektlaridan noqonuniy foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirishimiz, biologik xilma-xillikka nisbatan aholining ekologik madaniyati va xabardorligi darajasini oshirishimiz lozim.

Ma'lumki, hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlari sayyoramiz ekotizimlarining ajralmas qismi hisoblanadi. Afsuski, hozirgi kunda ular iqlim o'zgarishi, yashash joylarining yaroqsiz holga kelishi, noqonuniy ov va savdo kabi jiddiy tahdidlar bilan to'qnash kelmoqda.

Natijada hayvonlarning genetik resurslari qisqarmoqda, ularning nodir va noyob turlari, tabiiy uyg'unlik va ekotizimlar yo'qolib bormoqda.

Tadqiqotlarga ko'ra, so'nggi 50 yilda Yer yuzidan ularning 100 dan ortiq turi, Markaziy Osiyoda esa 26 turdagi qushlar, 12 turdagi sutemizuvchilar, jumladan, Turon yo'lbarisi, Osiyo qoplani va boshqa endemik turlar butunlay yo'q bo'lib ketdi.

Shu munosabat bilan O'zbekistonda ko'chib yuruvchi yovvoyi hayvonlar turlarini saqlashga katta e'tibor qaratilmoqda. So'nggi yillarda, eng avvalo, sohaning huquqiy bazasi takomillashtirildi, yangi qonunchilik hujjatlari qabul qilindi va ularning samarali ijrosi ta'minlanmoqda. Davlat boshqaruv organlari, biznes va fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy mas'uliyatini oshirishni qamrab olgan institutsional tizim mustahkamlanmoqda.

Mazkur sohada fundamental va amaliy tadqiqotlarning eng ilg'or maktabi bo'lgan Fanlar akademiyasining Zoologiya instituti o'z faoliyatini qayta tikladi. Qisqa muddatda ko'chib yuruvchi turlarni ishonchli himoya qilishni ta'minlovchi qo'riqlanadigan tabiiy hududlar uch karra oshirilib, mamlakatimiz umumiy maydonining 14 foiziga yetkazildi. O'zbekistonning nodir tabiat landshaftlari YUNESKOning Butunjahon tabiiy meros ro'yxati, Butunjahon biosfera rezervatlari tarmog'iga va Ramsar konvensiyasi obyektlari ro'yxatiga kiritildi.

Yovvoyi hayvonlarni parvarish qilish uchun yangi pitomniklar tashkil etildi. Noyob qush turlari va sutemizuvchilarning o'z yashash makonlarida ko'payishini qayta tiklash bo'yicha dasturlar amalga oshirilmoqda. Orol dengizining qurigan tubida o'rmonlar yaratilishi o'simliklar xilma-xilligi va hayvonot dunyosini qayta tiklash imkonini bermoqda.

O'zbekiston 2024–2027-yillarda **Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlarini saqlab qolishga doir** Konvensiyasiga raisligi davrida ko'chib yuruvchi hayvon turlarini himoya qilishga doir keng ko'lamli aniq chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

2024-yilda ushbu Konvensiya tomonlarining Samarqand shahrida o'tgan konferensiyasida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar sohadagi xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Unda 130 dan ortiq davlatdan 2 mingga yaqin ishtirokchi qatnashdi.

Bizning tashabbusimiz bilan Konvensiyaga a'zo davlatlar tomonidan 2024–2032-yillarga mo'ljallangan Yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlari bo'yicha Samarqand strategik rejasi tasdiqlanishi va ijroga yo'naltirilishi xalqaro hamjamiyatning bu boradagi faoliyatini tizimli tashkillashtirishga xizmat qiladi.

Toshkent shahrida Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqi (IUCN) ning Markaziy Osiyodagi ilk vakolatxonasi ochildi. Shuningdek, BMT Atrof-muhit dasturining O'zbekistonda vakolatxonasini ochish bo'yicha kelishuvga erishildi.

Aytish lozimki, BMTning ushbu nufuzli tadbiri shu kunga qadar birorta MDH davlatida o'tkazilmagan va bizning tashabbusimiz asosida mamlakatimizda o'tkazilgani tarixiy ahamiyatga ega.

Biologik xilma-xillik to'g'risidagi konvensiyada quruqlikdagi qo'riqlanadigan tabiat hududlari ulushini mamlakat jami hududining 17 foizigacha yetkazish tavsiya etilgan. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda bu

ko'rsatkich qariyb 5 foizni tashkil etadi. Shuning uchun "O'zbekiston — 2030" strategiyasiga muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni 12 foizgacha kengaytirish, har yili 2 million gektar tabiiy yaylov va pichanzorlardagi o'simliklarni biobotanik tekshirish vazifalari kiritilgan.

Hozirgi kunda O'zbekiston xalqaro huquqning teng ishtirokchisi sifatida biologik xilma-xillikni asrash yo'nalishida qator xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgan. "Biologik xilma-xillik to'g'risida"gi, "Yo'q bo'lib ketish xavfi ostidagi yovvoyi fauna va flora turlari bilan xalqaro savdo qilish to'g'risida"gi, "Suvda suzuvchi qushlarning asosiy yashash manzili bo'lgan xalqaro ahamiyatga ega suvli-botqoq yerlar to'g'risida"gi konvensiyalar shular jumlasidan.

Ma'lumki, BMT Bosh Assambleyasi qaroriga ko'ra, **30-mart** butun dunyo bo'ylab "**Xalqaro chiqindilarsiz kun**" sifatida nishonlanadi. Bu tadbir ekologiya va tabiatni muhofaza qilish va isrofgarchilikning oldini olishga, resurslardan samaraliroq foydalanishga, chiqindilar paydo bo'lishining oldini olishga yoki minimallashtirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Aslida, rivojlangan davlatlarda ham chiqindini saralab yig'ish tizimiga batamom o'tish uchun 20 yildan 30 yilgacha vaqt talab etilgan. Buni birinchi bo'lib 1975-yilda Germaniya boshlab bergan. Keyin Angliya, Fransiya shu yo'lni tanlagan. Dastlab tajriba ko'rinishida boshlangan ishlar asta-sekin kengayib borib, bu yo'nalishda infratuzilma yuzaga kelgan, odamlar o'rtasida ma'lum ko'nikmalar shakllangan. Aholi buning zaruriyatini tushunib yetgan. Albatta, chiqindi muammosini bartaraf etishda masalaning mana shu jihatlariga ham e'tibor qaratish foydadan xoli emas.

Ayni chog'da BMT tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, 2030-yilgacha atrof-muhitga tashlanadigan global uglerod chiqindilari hajmi 45 foiz qisqarish o'rniga, aksincha, 16 foiz ortadi. Bu dunyo bo'yicha harorat yanada ko'tarilishiga olib keladi.

O'zbekistonda aholining yillik o'rtacha 1,5 foiz ko'payish sur'atini hisobga olganda, ushbu ko'rsatkich 2028-yilga borib 16–16,7 million tonnaga yetishi mumkinligi bashorat qilinyapti.

Yurtimizda yiliga o'rtacha 6,8 million tonna maishiy chiqindi hosil bo'ladi. Shu munosabat bilan so'nggi yillarda sanitar tozalash xizmati bilan qamrab olingan mahallalar soni 90 foizdan oshirildi. Chiqindilarni qayta ishlash darajasini oshirib borish choralari ko'rilmogda. Maishiy chiqindilarni sanoat usulida qayta ishlashni bugungi kunda 10 foizga yetkazdik. Atrof-muhitni himoya qilishga "nol chiqindi" tizimi doirasida maishiy chiqindilarni shaharlardan olib chiqish, qayta ishlash va ulardan ekologik toza energiya va boshqa mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarini qamrab olgan klasterlar joriy etilib, hozirda bunday korxonalar soni 313 taga yetdi.

Kuydiriladigan chiqindilar ulushini 35 foizga yetkazish, maishiy chiqindi poligonlarini kamida 50 foizga qisqartirish, ayniqsa, respublikaning yirik shaharlarida maishiy chiqindilarni ishlatish va zararsizlantirish kabi masalalar oldimizda turgan dolzarb vazifaga aylandi.

Ushbu vazifalarni tizimli ravishda amalga oshirish yuzasidan chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga kirishdik. Bunda aholining maishiy chiqindilar bilan bog'liq xizmatlar sifatidan to'liq qoniqishini ta'minlash, ushbu xizmatlar darajasini xalqaro standartlarga yetkazish va tadbirkorlar uchun jozibadorligini ta'minlash, hosil bo'layotgan chiqindilarni qayta ishlash darajasini keskin oshirish, chiqindilarning poligonlarda to'planishining oldini olish, atrof-muhitga yetkazilayotgan salbiy ta'sirni minimallashtirish va aylanma (sirkulyar) iqtisodiyotni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor bermoqdamiz.

Bundan tashqari 27 turdagi xavfli chiqindilarni O'zbekiston hududiga olib kirishni taqiqlash, ozon qatlamini yemiruvchi moddalar va ular tarkibida mavjud bo'lgan mahsulotlarni import va eksport qilishni ekologik sertifikat asosida amalga oshirishga ham ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Chiqindilarni belgilanmagan joylarga tashlaganlik uchun jarima miqdorini oshirish, chiqindi tashlab ketilgan joyni tozalash va olib chiqib ketish majburiyatini belgilash choralari kuchaytirilmoqda.

Chiqindi poligonlarining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish uchun ularning bufer hududlariga maxsus iqtisodiy zonalar rejimini joriy etish, chiqindilarni yoqish orqali elektr energiyasi hamda organik usulda o'g'it ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish bo'yicha yangi tizim yo'lga qo'yiladi. Ushbu tizim bo'yicha birinchi pilot loyiha Andijon viloyatida amalga oshirildi.

Atrof-muhitni, ekologik muvozanatni saqlash nuqtayi nazaridan, bundan buyon hududga yangi hokim tayinlansa, o'sha yerda ekologik audit o'tkaziladi, natijalari jamoatchilikka e'lon qilinadi. Shunda hudud aholisi hokim oldiga suv va havo tozaligi, ko'kalamzorlashtirish darajasi bo'yicha aniq masala qo'ya oladi. Mana shunday asosda yurtimizning barcha viloyat va tumanlarida, butun Vatanimizda ona tabiat, yer, suv, havoni musaffo holda asrashimiz mumkin.

“

Ulug' Alisher Navoiy bobomizning "Odamiy ersang demagil odamiy, Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami", degan hayotiy hikmatini barchamizning ongimiz, qalbimiz va harakatlarimizda muhrlab, birgalikda Yangi O'zbekistonni — inson qadri ustuvor bo'lgan jamiyat va xalqparvar davlatni albatta bunyod etamiz!

XALQ XIZMATIDAGI DAVLAT — EL-YURT UCHUN ULUG' SAODAT

Mahalla — Vatan ichra mo'jaz vatan

Darhaqiqat, mahalla — xalqimiz uchun Vatanning aziz parchasi, doimo ardoqlab-e'zozlanadigan tabarruk go'shadir. Mahalla — bebaho qadriyatlarimiz beshigi, mehr-oqibat, ahillik va totuvlik maskani. Bir-biriga yelkadosh bo'lish, ehtiyojmand, muhtoj insonlarga ko'mak berish kabi ko'pdan ko'p ezgu odat va an'analарimiz aynan mahallada yaqqol namoyon bo'ladi. Shu bois bu makonning fayzli, obod va ko'rkam bo'lishi uchun jon koyitish har bir yurtdoshimizning zimmasidagi eng katta burchi hisoblanadi.

Mahalla biz barpo etayotgan yangi jamiyat — inson qadri ulug'lanadigan, huquq va erkinliklari ta'minlangan, qonun ustuvorligi mustahkam qaror topadigan ochiq va adolatli fuqarolik jamiyatining asosidir.

Turli sohalarda amalga oshirayotgan islohotlarimizning natijalari, yurtimizda yuz berayotgan o'zgarishlar samarasi avvalo mahallalarda, u yerda yashayotgan odamlarning kayfiyatida namoyon bo'ladi. Shu ma'noda, mahallani jamiyatimizdagi barcha jarayonlarni tiniq aks ettiradigan o'ziga xos ko'zguga qiyoslash mumkin.

Shuning uchun ham biz xalq bilan muloqot qilish va odamlarning roziligiga erishishni faoliyatimizning asosiy mezonini sifatida belgilab, mahallalarning hayotimizdagi o'rni va nufuzini yanada oshirish, uning vakolat va imkoniyatlarini kengaytirish choralarini ko'ryapmiz. Barcha darajadagi rahbarlarning bevosita mahallalarga tushib, oddiy insonlarni qiynayotgan muammolarni o'rganishi va ularni hal etishiga alohida e'tibor qaratmoqdamiz.

Mahallalar jamoatchilik boshqaruvi va davlat siyosatining muhim bo'g'ini, avvalgi kamchilik va nuqsonlar aniqlanadigan nuqtadan — muammolar joyida hal etiladigan, muhim qarorlar qabul qilinadigan maskanga aylanayotgani islohotlarimizning eng katta natijalaridan biridir.

Ta'kidlash joizki, jamiyat va davlatning taraqqiyotini “inson – xonadon – mahalla – tuman – viloyat – respublika” prinsipiga asoslangan barqaror rivojlanish orqali ta'minlash mumkin.

Shu o'rinda, hindistonlik atoqli davlat arbobi **Indira Gandidan** “Mamlakatingizda qanday muammolar bor?”, deb so'rashganda, u “Men boshqarayotgan mamlakat aholisi bir milliardga yaqinlashmoqda. Har bir kishida bittadan muammo bo'lsa, demak, bizda shuncha muammo bor”, deb javob berganini ta'kidlamoqchiman.

Har bir insonning muammolarini aniqlash va uni hal qilishga ko'maklashish g'oyasi biz uchun o'n chandon ustuvor ahamiyatga ega, deb bilamiz.

Shuning uchun ham biz **xonadonbay, mahallabay** ishlash, **mahallalarning “o'sish nuqtalari”** va ularda yashovchi aholining tadbirkorlik faoliyatidagi ixtisoslashuvidan kelib chiqib, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirmoqdamiz.

“Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida hududlarda muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini qurishga alohida e'tibor qaratmoqdamiz. Bu borada aholining takliflari asosida ichimlik suvi va elektr energiyasi ta'minoti, yo'l, maktab qurish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish yo'lga qo'yildi.

Chindan ham, joylardagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda mahallaning o'rni beqiyos. Bugun mahalla tizimi mo'jaz bir hokimiyat modelini o'zida gavdalantirib, uni menejer-rajs rahbarligidagi “**yettilik**” boshqara boshladi.

Shuningdek, mahallalarni qo'llab-quvvatlashni yanada takomillash-tirish, mahallabay ishlashni samarali tashkil etish maqsadida **O'zbe-kiston mahallalari uyushmasi** hamda uning hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo'limlari tashkil etildi. Barcha bo'g'inlarda mahallani qo'llab-quvvatlash kengashlari tuzildi.

Bugungi kunda Mahallalar uyushmasi tomonidan ushbu maskan-larning jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo'g'ini, xalq bilan davlat o'rtasida o'ziga xos ko'prik vazifasini o'taydigan mustaqil va xalqchil tuzilmaga aylanishiga ko'maklashish maqsadida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, mahallalardagi muammolarni o'z vaqtida va samarali hal qilish, "mahalla yettiligi" tomonidan ularning moliyaviy imkoniyatini kuchaytirish, ichki resurslarini aniqlab, ijtimoiy xizmatlar va yordam ko'rsatish uchun safarbar etish, mahalla mas'ullarining malakasini oshirish va zamonaviy boshqaruv ko'nikmalarini shakllantirishga ham alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Endilikda mahallalar faoliyatini joriy ta'minlash va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash ishlari respublika budjeti hisobidan amalga oshiriladi.

Hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni joyida hal etish maqsadida mahallalarning vakolatlari kengaytirilib, ularning moliyaviy mustaqilligi kuchaytirilmoqda. Shu maqsadda "**Mahalla budjeti**" tizimini joriy etish, mahallalarga o'z muammolarini mustaqil hal etishi uchun imkon yaratish, mol-mulk va yer soliqlarining bir qismini shu joyda qoldirish rejalashtirilmoqda.

So'nggi vaqtlarda mahalla aholi farovonligini ta'minlash, "Ochiq budjet" loyihasi va joylarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini samarali amalga oshirishda davlat va jamoat organlari o'rtasidagi tayanch vazifasini o'tay boshladi. Shuningdek, davlat investitsiya dasturlari mahalla darajasiga tushirilmoqda.

Biz bundan buyon ham har bir ishga mahalla bilan kelishgan holda qo'l uramiz, mahalla mablag'larini infratuzilma loyihalariga yo'naltirishda aholining fikrini inobatga olamiz. Shu maqsadda mahallalardagi mavjud muammolarni hal etish uchun ajratiladigan mablag'lar miqdori kamida 3 barobar ko'paytiriladi, aholi tashabbusi bilan joylarda infratuzilmani yaxshilashga ajratiladigan mablag'lar 24 trillion so'mga yetkaziladi.

Fuqarolarning mahalla hayotidagi ishtirokini hamda davlat idoralari va mahallalar o'rtasida to'g'ridan to'g'ri aloqani ta'minlash borasida ham tizimli choralar amalga oshirilmoqda. Mahallalar faoliyatini to'liq raqamlashtirish yo'nalishida ham muhim qadamlar qo'yildi. Bosqichma-bosqich ichki ishlar organlarining tayanch punktlari negizida mahalla huquq-tartibot maskanlari tashkil etilmoqda. Profilaktika inspektoriga masofadan turib murojaat yuborish va uni ko'rib chiqish jarayonini kuzatib borish, aholi bilan o'zaro tezkor muloqotni yo'lga qo'yish hamda profilaktika inspektorlari va sektor rahbarlari faoliyatiga baho berish imkonini beruvchi "Smart mahalla" axborot dasturi ishga tushirildi.

Bugun mahallalarda "bir qadam" tizimi orqali 100 dan ortiq davlat xizmatlarini ko'rsatish, har bir mahallada "elektron xizmat nuqtalari"ni ishga tushirish, aholi bilan ishlashga qaratilgan jarayonlarni to'liq raqamlashtirish borasida tizimli chora-tadbirlar hayotga tatbiq etilmoqda.

Men shu o'rinda yana bir bor ta'kidlab aytmoqchiman: mahalla — tinchlik va osoyishtalik poydevori, ahillik va hamjihatlik, ma'rifat va tarbiya qo'rg'onidir.

Shuning uchun aholi osoyishtaligini ta'minlash va mahallalarda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish imkonini beruvchi "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyiliga asoslangan tizimni tezroq joriy qilish choralari ko'rilmoqda. Bugungi kunda har bir mahalla, oila va shaxs kesimida jinoyatchilikning sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish

orqali huquqbuzarliklarga barham berish va jinoyatchilikka qarshi kurashishga katta e'tibor qaratilyapti.

Barcha tuman, shahar va mahallalar u yerdagi jinoyatchilikka oid vaziyat asosida toifalarga ajratilib, hokimliklar, sektorlar va jamoatchilik bilan hamkorlikda aniqlangan "jinoyat o'choqlari"ga barham berish uchun barcha kuch va vositalar jalb qilinmoqda. "Respublika – viloyat – tuman – mahalla" tizimi asosida bu borada yagona boshqaruv va uzluksiz nazorat qilish mexanizmi joriy etildi.

Mahallalar institutsional jihatdan takomillashtirilishi natijasida ayni paytda yangi avlod boshqaruv kadrlarini tayyorlash bo'yicha ham o'ziga xos hayotiy maktab vazifasini bajarmoqda. Xususan, mahalla "qozonida qaynagan" kadrlarni yuqori va mas'uliyatli lavozimlarga tayinlash amaliyoti yo'lga qo'yildi. "Rahbar bo'lish uchun xalqning ichidan chiqish kerak" degan hayotiy tamoyil amal qila boshladi. "Mahalla yettiligi" kelajakda qanchadan qancha jonkuyar, fidoyi va tajribali mutaxassislar uchun kuchli motivatsiya va o'ziga xos ijtimoiy lift vazifasini o'tashi shubhasiz.

Bu jihatdan "xalq xizmatidagi davlat"ni barpo etishda, insonparvar boshqaruvni ta'minlashda mahalla katta rol o'ynamoqda. Doimo el-yurt xizmatida bo'lish, uning tashvishi bilan yashash barcha darajadagi rahbar va mutasaddilar faoliyatida eng muhim hayotiy mezonga aylanmoqda.

"Xalq xizmatidagi davlat" — hayotiy ezgu tamoyil

Biz davlat hokimiyatining boshqaruv tizimini xalqchil va xalqparvar davlat tuzish g'oyalari asosida takomillashtiryapmiz.

Ta'bir joiz bo'lsa, ushbu oltin qoida davlatimiz siyosatining o'zagini tashkil etmoqda. Xalq hokimiyatini to'laqonli ro'yobga chiqarish borasida keng qamrovli o'zgarishlar yuz bermoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etishda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalarning rolini yanada oshirish, ayniqsa, norma ijodkorligi faoliyatining islohotlar bilan uyg'unligini ta'minlash dolzarb ahamiyatga ega masala hisoblanadi.

Yangilangan Konstitutsiyamizda ushbu maqsadga erishish kafolatlari yanada kuchaytirdik. Qonun chiqaruvchi vakillik organi hisoblangan Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qonunlar ijrosini ta'minlashga mas'ul bo'lgan Vazirlar Mahkamasi boshchiligidagi ijro hokimiyati hamda nizolarni qonuniy asosda hal qiladigan har bir sudlov organining muayyan doiradagi vakolatlari aniq belgilab qo'yildi.

Bu haqda gapirganda, Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari amaldagi 5 tadan 12 taga, Senatning vakolatlari esa 14 tadan 18 taga yetkazildi. Ayni paytda ularning vakolatlariga ham aniqlik kiritilganini alohida qayd etish joiz. Xususan, hukumatni shakllantirish hamda uning faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish masalalari Qonunchilik palatasining ixtiyoriga o'tkazildi. Senatda esa asosan hududlar bilan bog'liq masalalarni hal etish, mahalliy Kengashlarga har tomonlama ko'maklashish, joylarda, ayniqsa, mahallalarda qonunlar ijrosini ta'minlashga ustuvor e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistonda parlament nazorati institutini kuchaytirish borasida ham muhim qadamlar qo'yildi. Xususan, mamlakatimiz xavfsizligi va barqaror rivojlanishi asoslariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan, inson huquqi va erkinligiga, jamiyat va davlat manfaatlariga tahdid soladigan faktlar va voqealarni o'rganish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma qarori asosida parlament tekshiruvini o'tkazilishi mumkinligi mustahkamlab qo'yildi.

Shuningdek, parlamentning sud va nazorat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va maxsus xizmatlar faoliyati ustidan nazorat funksiyalari ham sezilarli darajada kuchaytirildi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Hisob palatasi rahbarligiga nomzodlarni Senatda ko'rib chiqilgandan so'ng Prezident tomonidan lavozimga tayinlash, korrupsiya va monopoliyaga qarshi kurash organlari rahbarlarini Senat tomonidan saylash tartibi joriy qilindi. Davlat xavfsizlik xizmati rahbarligiga nomzodni Senat bilan maslahatlashuvlardan so'ng Prezident tomonidan lavozimga tayinlash tartibining joriy etilishi esa maxsus xizmatlar faoliyati ustidan parlament nazoratini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Oliy Majlis palatalarining birgalikdagi vakolatlari ham kuchaytirilib, parlament nazoratining muhim shakli bo'lgan parlament tekshiruvi instituti Konstitutsiyada alohida mustahkamlab qo'yildi.

Vazirlar Mahkamasining vakolatlari va funksiyalari, uning javobgarligi sezilarli darajada kengaytirildi. Xususan, respublikamizda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, qulay investitsiya muhitini yaratish, kambag'allikni qisqartirish, ijtimoiy himoya tizimini samarali yo'lga qo'yish, atrof-muhitni muhofaza qilish kabi yo'nalishlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda uning mas'uliyati kuchaytirildi.

Bundan buyon Hukumat mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish, oila institutini qo'llab-quvvatlash, uni mustahkamlash va himoya qilish, an'anaviy oilaviy qadriyatlarni asrab-avaylash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, nogironlarni ijtimoiy himoya qilish va boshqa qator vazifalar ijrosi uchun ham mas'ul bo'ladi.

Shuningdek, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada barqaror rivojlanish tamoyillariga asosan yurtimizda atrof-muhitni asrab-avaylash, ekologik muvozanatni saqlash, ayniqsa, Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini yaxshilash va ushbu mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi vazifalar ham aniq-ravshan muhrlab qo'yildi.

Bundan tashqari, Hukumatning zimmasiga ijro etuvchi hokimiyat organlarining ishida ochiqlik va shaffoflik, qonuniylik va samaradorlikni

ta'minlash, davlat xizmatlarining sifatini oshirish hamda ulardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish, fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash vazifalari yuklatildi.

Bunday o'zgarishlar demokratiya, xalq hokimiyatchiligi talablari, hokimiyatlarning bo'linish prinsipi hamda o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tizimining zamonaviy konsepsiyasini hisobga olgan holda, Oliy Majlis, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati o'rtasida vakolatlar qayta taqsimlanganidan dalolat beradi.

Darhaqiqat, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada Oliy Majlisga yurtimiz taqdiriga daxldor bo'lgan keng ko'lamli vakolatlar berildi. Shu bois endilikda Parlamentning ish uslubini yaxshilash va faoliyati samaradorligini oshirish zarur. Bularning barchasi, deputat va senatorlarimiz zimmasiga katta mas'uliyat yuklashi tabiiy. Endilikda ular ham fuqarolar bilan ko'proq muloqot qilish orqali ularning muammolarini o'rgansa, mutasaddi rahbarlar bilan birgalikda har qanday masalalarning aniq yechimini topishsa, har jihatdan foydali bo'ladi.

Qonun ijodkorligi har bir Parlamentning fundamental vazifasi sanaladi, shu bois uni tubdan isloh qilish, davlat huquqiy siyosatining institutsional asoslarini yangi bosqichga ko'tarish orqali xalqning orzu-umidlarini o'zida mujassam etgan har jihatdan mukammal qonunlarni ishlab chiqish lozim bo'ladi. Bu borada qonunchilik hujjatlarini maqbullashtirishni tartibga solish yukini kamida 30 foizga qisqartirish kerak.

To'g'ridan to'g'ri amal qiladigan qonunlarimiz kamligi, aholi, ayniqsa, tadbirkorlar uchun qulay bo'lgan, sodda va ixcham qonunchilik tizimini yaratish borasida oqsayotganimiz meni ko'pdan beri tashvishga solib keladi. Shuni hisobga olib, to'g'ridan to'g'ri amal qiladigan qonunlarni qabul qilish amaliyotini kengaytirish va ularning ulushini kamida 60 foizga yetkazish rejalashtirilgan. Normativ-huquqiy hujjatlar ijrosi monitoringi esa 100 foizga yetkaziladi.

Shu bilan birga, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tartibga solish ta’sirini baholash hajmini kamida 2 barobar oshirmasdan turib huquq tizimining raqobatbardoshligini ta’minlab bo’lmaydi. Kun tartibida turgan yana bir muhim vazifa — idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishning aniq chegaralarini belgilash va ularning sonini keskin qisqartirishdan iborat.

Parlament va uning organlaridagi ish jarayonini raqamli transformatsiya qilish, shu jumladan, ular tomonidan qarorlar qabul qilish va e’lon qilish jarayonlarini to’liq raqamlashtirish choralari ko’riladi. Saylovchilar bilan elektron muloqot qilish, deputat so’rovini elektron tarzda yuborish va nazorat qilishni ham yo’lga qo’yish lozim. Qonunchilikka oid takliflarni kiritish va ko’rib chiqishda ham ana shunday tartib o’rnatishning ahamiyati katta.

Biz mahalliy davlat hokimiyati vakillik va ijro organlari orasidagi munosabatni tubdan yangilash, bu borada “kuch markazi”ni o’zgartirish yo’lini tanladik.

Uning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

birinchidan, viloyat, tuman, shahar kengashlari xalqning “chinakam ovozigga” aylantirilmoqda;

ikkinchidan, hokimlarning mahalliy kengashga rahbarlik qilish amaliyoti to’liq bekor qilinmoqda;

uchinchidan, kengash raisining huquqiy maqomi, asosiy vazifa va funksiyalari hamda mas’ullik doirasi aniq belgilandi.

Mahalliy davlat hokimiyati ijro organlari faoliyatini ham transformatsiya qilish, hududiy boshqaruvni “aholi manfaatlariga xizmat qilish” tamoyili asosida yo’lga qo’yish lozim. Endilikda viloyat, tuman, shahar hokimlarining vazifa va funksiyalari chegarasi aniq belgilanadi, zimmasiga yuklatilgan 500 dan ortiq vazifalardan ular faoliyatiga xos bo’lmaganlari bekor qilinadi.

Shuningdek, joylarda hokimlar va xalq deputatlari Kengashlarining vakolatlari taqsimlanishiga asoslangan davlat hokimiyatini tashkil etishning yangi modelini joriy qilish nazarda tutilmoqda. Hokimiyatlar bo'linishiga oid konstitutsiyaviy tamoyilning mahalliy darajada ijrosini ta'minlash, xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholini ijtimoiy himoya qilishga oid dolzarb masalalarni hal qilish bo'yicha vakolatlarini kengaytirish borasidagi tizimli chora-tadbirlar yangi bosqichga olib chiqildi. Jumladan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari va ijro etuvchi hokimiyat organlarining vakolatlari hamda mahalliy Kengash raisi va hokim lavozimlari bir-biridan ajratildi.

Biz mahalliy Kengashlarning jamiyat va davlat hayotidagi muhim masalalarni hal etishdagi rolini oshirish hamda ularning nazorat faoliyatini kuchaytirishga oid huquqiy asoslarni muntazam mustahkamlab bormoqdamiz. Xususan, xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining mavjud vakolatlari tizimlashtirildi hamda ular zimmasiga qo'shimcha 33 turdagi vakolat yuklatildi.

Mahalliy kengashlar faoliyatida jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish, nodavlat notijorat tashkilotlarni kengroq jalb qilish, ularning faoliyatini bosqichma-bosqich raqamlashtirish chora-tadbirlari belgilandi.

O'z navbatida, hokimlik va vazirlik bo'linmalarining bir-birini takrorlovchi 70 dan ortiq funksiyalarini qayta ko'rib chiqib, takomillashtirish zarur. Shu asnoda mahalliy ijro hokimiyati organlarini demokratik tamoyillar asosida shakllantirish, ularning rahbarlarini muddatidan oldin lavozimidan ozod etishning huquqiy asoslarini yaratish lozim.

Hokimlarning hududiy ijro organlari shtat birligi va tuzilmalarini belgilashdagi rolini kuchaytirishga e'tibor qaratilib, hududlarda amalga

oshiriladigan vazifalar (funksiyalar) bo'yicha "vakolatlar reyestri" shakllantirilmoqda.

O'zbekistonda davlat xizmatlari sohasini rivojlantirish, "servis-davlat" tizimini joriy qilish, fuqaro va davlat o'rtasidagi munosabatlarda byurokratik tartibotlarga to'liq barham berish biz yuritayotgan siyosatning ustuvor vazifalaridan biri sanaladi. Shu bois yurtimizda elektron shaklda ko'rsatiladigan davlat xizmatlari ulushini 100 foizga yetkazish, davlat xizmatlarini "uch qadam", "foydalanuvchi uchun moslashtirilgan", "barchasi bir mobil ilovada" tamoyillari asosida raqamlashtirish vazifasi qo'yilgan.

Hozirgi paytda xalqimizning og'irini yengil qilayotgan Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali faoliyatini yanada yuqori bosqichga ko'tarish orqali bu yerda ko'rsatiladigan xizmatlar ulushini 50 foizga yetkazish rejalashtirilgan. Ayni paytda kompozit va proaktiv tarzda ko'rsatiladigan davlat xizmatlari ulushini kamida 40 taga oshirish choralari ham ko'riladi. Xususan, elektr, gaz va suv sarfi hisoblagichlarini qiyoslashdan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishni proaktiv tarzda, ya'ni fuqaroning murojaatini kutmasdan, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotning o'z tashabbusi bilan amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Yaqin o'tmishda, davlat xizmatlari ham xususiy sektorga o'tkaziladi, desa uncha-muncha odam bu gapga ishonmagan bo'lar edi. Biz xalqimizga yengillik yaratish maqsadida shu ishga ham qo'l urdik. Davlat xizmatlarining 40 foizini xususiy sektorga o'tkazish va fuqarolarning bu jarayonda shaxsiy ishtirokini 2 barobarga qisqartirish choralari belgilandi. Tez orada kamida 300 ta davlat xizmatlari tadbirkorlarga o'tkaziladi.

Bundan buyon fuqarolar davlat xizmatidan foydalanish uchun ariza yozib o'tirmaydi, turli shakllarni to'ldirmaydi, bunday rasmiyatchiliklar bekor qilinadi.

Hozirgi paytda davlat idoralarining zarur hujjatlarni elektron bazadan o'zi olishini ta'minlaydigan tizim yaratilmoqda. Zotan, "Elektron hukumat" tizimining navbatdagi bosqichi hisoblangan "Raqamli hukumat" tizimiga o'tishdan ko'zlangan asosiy maqsad ham barcha hujjatlar va munosabatlarning raqamli shaklda bo'lishini ta'minlash hamda davlat boshqaruvi organlari faoliyatini "Xalq xizmatidagi davlat" tamoyili asosida tashkil etishdan iboratdir.

Eng muhimi, ushbu xalqchil va samarali tizim odamlarning davlatga nisbatan ishonchini oshirishga xizmat qiladi. Buning ahamiyati beqiyos. Zotan, xitoylik mashhur faylasuf va donishmand Konfutsiy **"Xalq ishonchidan mahrum bo'lgan davlat qiyinchiliklarga bardosh bera olmaydi"**.

Sirtidan qaraganda, davlat boshqaruvi unchalik murakkab emasdek tuyulsa-da, biroq ushbu tizimda 5 mingdan ziyod vazifa amalga oshiriladi. Shu bois jamiyat hayotining barcha jabhalariga raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish, raqamli infratuzilmani shakllantirish va "Elektron hukumat" axborot tizimlarini joriy qilishning ahamiyati juda baland.

2030-yilga qadar bosqichma-bosqich tarzda ushbu jarayonlarni to'liq raqamlashtirishimiz zarur.

Buning uchun davlat "ochiq ma'lumotlar"ini ishlab chiqish va ulardan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish hamda tegishli mobil ilovalar va dasturlarni ko'paytirish lozim. Arxiv hujjatlarini raqamlashtirish, idoraviy va idoralararo axborot tizimlarini, "Elektron hukumat" xizmatlari ko'rsatishga ixtisoslashgan axborot resurslari, ma'lumotlar bazalarining xavfsizligi va o'zaro integratsiyasini ta'minlash ham talab etiladi.

Shu orqali davlat idoralari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, axborot olish erkinligini ro'yobga chiqarish hamda

fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini va samarali jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga erishish mumkin. Qolaversa, davlat ma'lumotlarini boshqarishning yagona tizimini shakllantirish orqali asoslangan qarorlar qabul qilishga ham erishiladi. Shu maqsadda barcha davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan ochiq joylashtiriladigan ijtimoiy ahamiyatga ega ma'lumotlar ro'yxati tuzilib, bosqichma-bosqich kengaytirib borilmoqda.

Litsenziyalar va ruxsatnomalar berish bilan bog'liq tartib-taomillarni muvofiqlashtirish va ularni real vaqt rejimida ishlovchi elektron shaklga o'tkazish ham ustuvor vazifa hisoblanadi.

Shuningdek, davlat xizmatlarini ko'rsatish tartib-taomillarini optimallashtirish, jumladan, ma'muriy tartiblarni avtomatlashtirish orqali kishilardan talab qilinadigan ma'lumotlar va hujjatlar soni qisqartirilmoqda.

Bundan tashqari, aholi va tadbirkorlik subyektlariga "Elektron hukumat" tizimi orqali yuridik axborotlarni yetkazish va xabardor qilish imkoniyatini oshirish hamda ularning davlat idoralariga yo'llagan murojaatlarini ko'rib chiqish jarayonini onlayn kuzatib borishni nazarda tutadigan samarali usullar (treking) joriy etilmoqda.

Fuqarolarning ijro hokimiyati rahbarlari qabulida videoaloqa vositasi yordamida masofadan ishtirok etishiga to'liq sharoit yaratish orqali ochiqlik va oshkoralik tamoyillariga keng yo'l ochish mumkin. Shu bois "Elektron hukumat" tizimi doirasida shaxsni masofadan tasdiqlashning qo'shimcha shakl va usullarini joriy etishga alohida e'tibor qaratiladi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda inson qadrini ulug'lashga qaratilgan islohotlarni amalga oshirishda barcha bo'g'indagi rahbarlarning shaxsiy javobgarligi, ularning xalq va davlat oldidagi mas'uliyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Endilikda davlat organlari rahbarlarining o'zi mas'ul bo'lgan idora yoki tizim faoliyatida yo'l

qo'yilgan jiddiy xato va kamchiliklar uchun siyosiy javobgarligi institutini joriy qilishning ham vaqti keldi.

Shu maqsadda davlat boshqaruvini bosqichma-bosqich nomarkazlashtirish, ma'muriy apparatni ixchamlashtirish va ularning ish usulini maqbullashtirish ustida ish olib borilmoqda. Bunda davlat ahamiyatiga ega strategik masalalarni respublika miqyosidagi ijro etuvchi hokimiyat idoralari ixtiyorida qoldirib, boshqa ayrim vazifa va funksiyalarni mahalliy organlarga o'tkazish hamda bu jarayonlarni nazorat qilib borish choralari ko'rilmoqda.

Albatta, bu hol ba'zi amaldorlarga yoqmasligi mumkin, biroq biz markazning qator vakolatlarini mahalliy hokimiyat idoralariga olib berish va ayrim davlat xizmatlarini xususiy sektorga o'tkazishga qat'iy qaror qilganmiz. Xususan, yaqin kelajakda sog'liqni saqlash, qurilish, transport, ta'lim sohalarida xususiy sektor ulushi kamida 3 barobar oshiriladi. Majburiy talablar yagona elektron reyestriga kiritilgan talablar esa 20 foiz kamaytiriladi.

Bir so'z bilan aytganda, O'zbekistonda boshqaruv organlari faoliyatini "Xalq xizmatidagi davlat" tamoyili asosida tashkil etish, davlatning nazorat funksiyalarini fuqarolarning hayoti, sog'lig'i va xavfsizligini qat'iy ta'minlashga yo'naltirish siyosati izchil davom ettiriladi.

Bugungi shiddatli taraqqiyot davrida "Har bir kun — ulkan imkoniyat, har bir kun — kelajak poydevori" degan shior hayotimizning oltin qoidasiga, barcha rahbarlar va xalq noiblarining doimiy faoliyat dasturiga aylanishi shart.

Davlat fuqarolik xizmatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish masalasi ham zimmamizdagi muhim vazifalardan biridir.

Ma'lumki, bugungi kunda davlat organlari va tashkilotlarida 100 mingdan ortiq kishi faoliyat ko'rsatmoqda. Mamlakatimiz tarixida birinchi marta "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonun qabul

qilinib, ularning huquqiy maqomi aniq-ravshan belgilab berildi. Bundan buyon davlat fuqarolik xizmatiga halollik, professionalizm va meritokratiya, ya'ni munosib shaxslarni boshqaruvga jalb etish mezonlari asosida ishga jalb etiladi. Bundan buyon davlat idoralari rahbarlari va ularning o'rinbosarlari faoliyatiga adolat va qonunchilik tamoyillariga muvofiq, jamoatchilik fikriga tayangan holda baho beriladi.

Biz kelajakda xalq bilan muloqotni yanada kengaytirish orqali aholi muammolarini aniqlash va hal etish uchun barcha choralarni ishga solamiz. Davlat idoralarida murojaatlarni to'liq elektron shaklda qabul qilishga o'tish, jumladan, tegishli mobil ilovalar orqali murojaat qilish tizimini yaratishga alohida ahamiyat qaratamiz.

Jamiyatda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatimizni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning ishtiroki qay darajada muhim ekanligini anglash qiyin emas. Biz siyosiy partiyalarning nufuzi va mavqeyini yanada oshirish maqsadida vakillik organlariga saylovning aralash (majoritar-proporsional) tizimini joriy etdik.

Biz "Yangi O'zbekiston — ochiq, erkin, kuchli va adolatli fuqarolik jamiyati" konsepsiyasini hayotga tatbiq etish orqali xalqchil va xalqparvar davlat tuzishni maqsad qilganmiz. Zero, ushbu ezgu tamoyil inson qadri-qimmatini, uning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, madaniy va boshqa huquqlarini ta'minlash hamda farovonligini oshirishning asosiy garovidir.

Shuning uchun, **avvalambor**, "fuqarolik jamiyati" va "fuqarolik jamiyati instituti" tushunchalarining huquqiy asoslarini mustahkamlash, ularning faoliyati uchun har tomonlama qulay muhit yaratish choralari ko'rilmogda. Xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ilk marotaba "Fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi", deb belgilab qo'yilgani xalqaro hamjamiyat

tomonidan dunyo konstitutsiyaviy taraqqiyotida alohida yutuq sifatida baholandi.

Asosiy qonunimizda, shuningdek, kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar, yoshlar va nogironligi bo'lgan shaxslar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar hamda fuqarolarning boshqa birlashmalarini jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etish ham nazarda tutilgan. Bunda siyosiy partiyalar keng jamoatchilik manfaatlarining vakillari sifatida o'ziga xos funksiyalarni bajaradi hamda davlat va jamiyat o'rtasida bog'lovchi vazifasini o'taydi.

Yana bir muhim jihati, yangi Konstitutsiyamizda jamoat birlashmalarini tarqatib yuborish, ularning faoliyatini taqiqlash yoki cheklab qo'yish faqatgina sud qarori asosida amalga oshirilishi qat'iy belgilab qo'yildi. Chet ellik olim va ekspertlar bunday muhim demokratik tamoyilning qaror toptirilishi mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlarining erkin faoliyat yuritishiga xizmat qilishini alohida qayd etishmoqda.

Yangi O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari roli va ahamiyatini tubdan oshirishga qaratilgan 300 dan ortiq muhim normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, "Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi, "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi, "Volontyorlik faoliyati to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi. 30 dan ziyod qonunlarimiz yangi tahrirda qabul qilindi yoki ularga zarur o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. Ayni paytda mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi amalga oshirilmoqda.

Bunday muhim hujjatlar mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish, inson huquqlari va demokratik qadriyatlarni himoya qilish, aholining siyosiy madaniyati va huquqiy ongini oshirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, davlat organlari va nodavlat notijorat

tashkilotlar o'rtasida ijtimoiy sheriklikni kuchaytirish, bugungi islohotlar jarayonida ularning tashabbuskorligi va faolligini oshirish kabi muhim vazifalarni hal etishda ham yaqindan yordam bermoqda.

Ikkinchidan, yurtimizda fuqarolik jamiyati institutlarini, ayniqsa, ularning ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarini qo'llab-quvvatlash, davlat organlari bilan ijtimoiy sheriklikni kuchaytirish borasida izchil ishlar olib borilmoqda. Jumladan, 2017–2023-yillarda fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati va ularning salkam 2100 ta loyahasini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga davlat budjetidan 513,8 milliard so'm mablag' yo'naltirilgan bo'lsa, 2024-yilda ushbu maqsadlar uchun 1,8 trillion so'm ajratildi.

Bunda, ayniqsa, fuqarolik jamiyati institutlarining Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda ishtirokini kengaytirish va davlat boshqaruvidagi ishtirokini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishda nafaqat parlament va hukumat, balki minglab nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyati institutlari faol qatnashmoqda. Qolaversa, xalqaro hamkorlar, eng avvalo, BMTning barcha ixtisoslashgan tuzilmalari bilan yo'lga qo'yilgan uzviy hamkorliklar ham bu borada o'zining ijobiy natijasini bermoqda. Xususan, hozirgi paytda 10 mingdan ortiq nodavlat notijorat tashkilot tadbirkorlik, fermerlik, ekologiya, sport, sog'liqni saqlash, ta'lim, texnika, fan, ilmiy tadqiqot sohalari, inson huquqlarini himoya qilish, yoshlar, xotin-qizlar va nogironligi bor shaxslar bilan ishlash singari yo'nalishlarda samarali faoliyat ko'rsatib, tegishli milliy BRMlarga erishishimizda yaqindan yordam bermoqda.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, barqaror rivojlanishning maqsad va vazifalarini amalga oshirishda fuqarolik jamiyatining ishtirokini izchil kengaytirish — BMT tomonidan to'la qo'llab-quvvatlanadigan, rivojlangan mamlakatlarda ham kuzatilayotgan tendensiya hisoblanadi.

Agar BMTni tashkil etish jarayonida 240 ga yaqin nodavlat notijorat tashkilotlar bilan maslahatlashuvlar amalga oshirilgan bo'lsa, bugungi kunda ana shunday tashkilotlarning 6500 dan ko'prog'i uning maslahatchisi maqomiga ega. Birgina 2023-yilda 560 ta nodavlat notijorat tashkilotning arizasi ko'rib chiqilib, ulardan 214 tasiga shunday maqom berildi.

Ekspertlarning ta'kidlashicha, so'nggi 20 yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan davlatlarga inkluziv va ochiq jamiyatni shakllantirishda yordam berish, fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tan olish, ularning erkin rivojlanishi va faoliyati uchun qulay tashkiliy, huquqiy va boshqa zarur shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan 60 dan ortiq rezolutsiyasi hamda turli darajadagi universal va mintaqaviy xalqaro shartnomalar qabul qilingan. Shuningdek, BMTning **“Kun tartibi — 2030”** ham fuqarolik jamiyatining ishtiroki va jalb etilishini ta'minlash konsepsiyasi hamda “hech kimni ortda qoldirmaslik” kabi tamoyillarga asoslangan.

Buning natijasida dunyoda “uchinchi sektor”ning iqtisodiyotni rivojlantirish, ijtimoiy, gumanitar, ekologik va boshqa sohalardagi dolzarb muammolarni hal etishda faolligi ortib bormoqda. So'nggi to'rt yil ichida ayrim mamlakatlarda ularning iqtisodiyot va YAIMni rivojlantirishga qo'shayotgan hissasi 2–2,5 barobar o'sgan. Bugungi kunda nodavlat notijorat tashkilotlari bandlikni ta'minlash, ta'lim, sog'liqni saqlash, qashshoqlikka barham berish, inson huquqlarini himoya qilish singari yana ko'plab sohalarda barqaror rivojlanishning dolzarb muammolarini hal etishda faol ishtirok etmoqda.

Bu borada O'zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi-ning “Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda fuqarolar va fuqarolik jamiyatining ishtirokini kengaytirish to'g'risida”gi maxsus rezolutsiyasi loyihasi tayyorlangani xalqaro hamjamiyat tomonidan ijobiy baholanmoqda. Ushbu hujjatda, jumladan, BMTning Barqaror

rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish jarayonida, davlatlarning ixtiyoriy milliy sharhlarini tayyorlash hamda “barqaror rivojlanish madaniyatini shakllantirish”da fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtirokini ta’minlash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

“Kun tartibi — 2030”ni amalga oshirish uchun qonunchilikni rivojlantirish sohasida nodavlat notijorat tashkilotlar bilan muloqotni yanada kuchaytirish, davlat va nodavlat tashkilotlar hamda xususiy sektor o’rtasidagi hamkorlikni rag’batlantirish, BRMLarga erishish yo’lida mavjud salohiyatni to’liq ishga solishning ham ahamiyati beqiyos.

Uchinchidan, biz ta’sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish orqali fuqarolik jamiyati institutlarining jamiyat boshqaruvidagi o’rnini oshirishga alohida e’tibor qaratib, bu yo’nalishda tizimli ishlarni amalga oshirmoqdamiz.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada “jamoatchilik nazorati” tushunchasi yurtdoshlarimizning davlat boshqaruvida bevosita yoki fuqarolik jamiyati institutlari orqali ishtirok etishi hamda davlat idoralari faoliyatining ochiqligi va qonuniyligini ta’minlash prizmasi orqali talqin etilgan.

Ushbu institut bir qator qo’shimchalar, xususan, fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan davlat budjetining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazorati amalga oshirilishini nazarda tutuvchi normalar bilan boyitildi.

Bu yo’nalishda 40 dan ziyod normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishi natijasida mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligini mustahkam qaror toptirish, huquqiy davlat qurish, inson qadrini yuksaltirish va korrupsiyaga qarshi samarali kurashish borasida katta imkoniyatlar yuzaga keldi.

To’rtinchidan, biz mamlakatimizda so’z va matbuot erkinligini, axborot olish va uni tarqatish huquqini ta’minlash masalasini chinakam demokratik jamiyat va xalqparvar davlat qurishga qaratilgan taraqqiyot strategiyamizning muhim va ajralmas qismi deb bilamiz.

Yangilangan Asosiy qonunimizda ushbu yo'nalishdagi konstitutsiyaviy qoidalar yanada kuchaytirilgani ham bu boradagi intilishlarimiz qat'iy ekanligidan dalolat beradi. Xususan, Konstitutsiyaga ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligi, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va tarqatishga oid huquqlari davlat tomonidan kafolatlanishi haqidagi yangi normalar bilan to'ldirildi.

Ushbu norma mamlakatimizda so'z erkinligi, davlat organlari faoliyatining ochiqqligi va oshkoraligini ta'minlash bilan bir qatorda, soha vakillarining ko'rsatilayotgan axborot xizmatlari uchun mas'uliyatini oshirishga ham xizmat qiladi. Bu esa davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro samarali muloqotni sifat va mazmun jihatidan yangi bosqichga olib chiqishi shubhasiz.

Davlat idoralari va mahalliy hokimliklar tarkibidagi axborot xizmatlarining samarali faoliyat ko'rsatishi uchun zarur sharoitlar yaratilib, ularning maqomi va vazifalari qonun hujjatlarida aniq belgilab qo'yilgani xalq bilan muloqotni kuchaytirishga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Mazkur sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mamlakatimiz ommaviy axborot vositalari xalqaro axborot makoniga ham dadil kirib bormoqda. Xususan, ayni paytda O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi hamda bir qator xususiy telestudiyalarning dasturlari jahonning 100 dan ortiq davlatlariga uzatilmoqda. O'zbekiston Milliy axborot agentligi va "Dunyo" axborot agentligi o'z xabarlarini 10 ta xorijiy tilda tarqatmoqda. Bunday misollarni istagancha davom ettirish mumkin.

Shu bilan birga, bugun dunyoning turli nuqtalarida ayrim ommaviy axborot vositalari muayyan siyosiy kuchlar ta'sirida axborot urushlarni avj oldirib, jamoatchilik fikrini chalg'itishga urinayotgani ham hech kimga sir emas. Axborot makonidagi ustunlik ko'p narsani hal etadigan bugungi murakkab vaziyatda demokratik matbuotning asosiy sharti

hisoblangan xolislik va haqqoniylik tamoyillari yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Nima bo'lganda ham, biz mamlakatimizda ochiqlik siyosatini izchil davom ettirib, ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligi va fuqarolarning bu boradagi huquqlarini qat'iy kafolatlash choralarini ko'ramiz. **Zero, bu — ochiq jamiyat va huquqiy demokratik davlat qurishning zaruriy sharti va yagona to'g'ri yo'lidir.**

Bunda biz o'zining chuqur bilimi va salohiyati, o'tkir qalami va haroratli so'zi bilan jamoatchilikning mamlakatimizda va dunyoda kechayotgan jarayonlar mohiyatini to'g'ri anglab yetishiga ko'maklashadigan, ularni buzg'unchi axborot xurujlaridan himoya qilishni burchi deb biladigan jurnalistlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratmoqdamiz.

Biz jamiyat hayotida uchrayotgan kamchilik va muammolarni bartaraf etish hamda byurokratiya va korrupsiya kabi illatlarga qarshi kurashishda, avvalo, ana shunday fidoyi insonlarga, ayniqsa, milliy media makonimizga yangi g'oya va tashabbuslar bilan kirib kelayotgan iste'dodli yoshlarimizga tayanamiz.

Shuning uchun mamlakatimizda keng miqyosda fikrlaydigan, o'zining ona tili bilan bir qatorda xorijiy tillarni, zamonaviy axborot texnologiyalarini puxta o'zlashtirgan yuksak malakali, vatanparvar jurnalist kadrlarni tayyorlashga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, O'zbekiston Milliy universiteti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Qoraqalpoq davlat universiteti, Buxoro davlat universitetida jurnalistika yo'nalishi bo'yicha yuzlab mutaxassislar tayyorlanayotgani ham shundan dalolat beradi.

Ushbu oliy o'quv yurtlarida talabalarga bosma ommaviy axborot vositalari va noshirlik ishi, audiovizual jurnalistika, internet

jurnalistikasi va menejmenti, media nazariyasi va amaliyoti, harbiy va sport jurnalistikasi, raqamli media, xalqaro munosabatlar singari yigirmadan ziyod ta'lim yo'nalishlari bo'yicha yuqori malakali professor-o'qituvchilar saboq berayotganini ham qayd etish o'rinlidir.

Yangi O'zbekistonning yangi jurnalistikasini yaratish uchun bu boradagi milliy an'analarimiz bilan bir qatorda, rivojlangan davlatlar tajribasini ham har tomonlama o'rganishimiz, ushbu yo'nalishda dunyodagi yetakchi oliy o'quv yurtlari, nufuzli xalqaro tashkilotlar va media kompaniyalar bilan hamkorlikni yanada kuchaytirishimiz zarur.

Bir so'z bilan aytganda, ommaviy axborot vositalarini izchil rivojlantirish, soha xodimlarining mashaqqatli va mas'uliyatli mehnatini rag'batlantirish, sohaning moddiy-texnika va kadrlar salohiyatini mustahkamlash masalasi doimo e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Mustaqil sud tizimi va odil sudlov — qonun ustuvorligi kafolati

Qonun himoyasi — xalq va Vatan himoyasi kabi muqaddas burchdir.

Jamiyatimizda qonun talablari va inson huquqlariga qat'iy rioya qilish doimo oliy qadriyat bo'lib qoladi.

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi ma'lumotlar BMTning oltita rasmiy tilida nashr etilgani va Bosh Assambleyaning 74-sessiyasi rasmiy hujjati sifatida tarqatilgani bejiz emas. Vena deklaratsiyasi va Harakatlar dasturi asosida ishlab chiqilgan ushbu Milliy strategiyada BMT Inson huquqlari bo'yicha oliy komissari Boshqarmasi, YEXHTning Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi hamda xalqaro ekspertlarning tavsiyalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Ayni paytda mamlakatimizda Milliy strategiya doirasida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda:

- sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida umume'tirof etilgan prinsiplar, xalqaro huquq va O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan xalqaro shartnomalar normalarining keng qo'llanishini ta'minlaydigan samarali mexanizm yaratish;

- "Xabeas korpus" institutini yanada takomillashtirish orqali sudlarning mustaqilligi va xolisligini ta'minlash, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish borasida sud hokimiyatining rolini tubdan oshirish maqsadida sudyalarning hamjamiyati organlari faoliyatining huquqiy asoslarini shakllantirish;

- sud jarayonlarida tenglik va tortishuv prinsiplarini tatbiq etish, advokaturani huquqni himoya qiluvchi mustaqil va ishonchli institutga aylantirish, professional yuridik yordam sifatini oshirish, inson huquqlari sohasiga ixtisoslashgan yuristlar tayyorlash tizimini takomillashtirish;

- prokuratura organlari faoliyatini xalqaro standartlar talablariga muvofiqlashtirish, soha xodimlarining faoliyati shaffofligini va jamiyat oldida hisobdorligini ta'minlash, prokuratura boshqaruv tizimida kollegial organlar rolini kuchaytirish.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, hozirgi paytda hayotimizning barcha sohalarida bo'lgani kabi sud-huquq tizimida ham shiddatli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Bunda tizimga xalqaro standartlarni joriy qilish orqali sud hokimiyati, sudya va advokatlarning mustaqilligi, sudlar faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, odil sudlov tamoyillarini qaror toptirish kabi vazifalarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, sud hokimiyatini yagona tizim sifatida tubdan takomillashtirish, sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tanlash va tayinlashning mutlaqo yangi tartib-taomillari joriy etilmoqda. Sudyalarning almashtirilmasligi kafolatlari hamda advokatlarning maqomi va mustaqilligini mustahkamlash, fuqarolarning yuridik

yordamdan erkin foydalanishi uchun zarur sharoitlar yaratish borasida ham zarur amaliy choralar ko'rilyapti.

Jinoyat, jinoyat-protsessual, fuqarolik-protsessual va boshqa qonun hujjatlariga inson huquq va erkinliklari ustuvorligini ta'minlash, sud muhokamalarini o'z vaqtida va xolisona tarzda o'tkazish, jazoning adolatli va insoniyligi kafolatlarini kuchaytirishni nazarda tutadigan bir qator o'zgartishlar kiritildi.

E'tiborli jihati, bizning bunday sa'y-harakatlarimiz xalqaro hamjamiyat tomonidan O'zbekistonda tom ma'noda mustaqil va xolis odil sudlov tizimini barpo etish hamda inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish yo'lidagi muhim ijobiy qadamlar sifatida e'tirof etilmoqda.

Bunda “Yangi O'zbekiston — adolatli yangi sud” tamoyili doirasida sudyalarning mustaqilligini ta'minlash, sud tizimida yetarli bilim va hayotiy tajribaga ega bo'lgan munosib kadrlarni lavozimga tayinlashning ahamiyati katta. Shuningdek, ularning faoliyatini baholash jarayonlariga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash ham odil sudlovni amalga oshirishning zarur va majburiy shartlari hisoblanadi. Zero, **sudya adolatli** qarorlar chiqarishi uchun, avvalo, o'zi qonunlarga so'zsiz bo'ysunishi, mustaqil bo'lishi, zimmasidagi mas'uliyatni chuqur his qilishi, beg'araz va xolis bo'lishi zarur.

Shu bois biz sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlash, uning faoliyati samaradorligi va odil sudlov sifatini oshirish maqsadida 2023–2026-yillarda sud tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishni nazarda tutuvchi qisqa muddatli strategiyani qabul qildik. Uning doirasida “Inson qadri uchun” g'oyasi asosida chinakam adolatli sud tizimini shakllantirish, xalqimizning unga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, ushbu soha faoliyatini to'liq raqamlashtirish, sudyalarning mustaqilligi va daxlsizligi kafolatlarini kuchaytirish hamda

ular chiqargan qarorlarning qat'iy ijrosini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, Oliy sud tomonidan jinoyat ishlari bo'yicha sud qarorlarini qabul qilishda Konstitutsiya normalarini to'g'ridan to'g'ri va keng qo'llash, sud qarorlarining qonuniy, asosli va adolatli qabul qilinganini tekshirishning fuqarolar uchun qulay, soddalashtirilgan tartibini yaratish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Ayni paytda sudlar tomonidan juda ko'plab ishlar Asosiy qonunimizda belgilangan inson sha'ni va qadr-qimmatining daxlsizligi, hech narsa ularni kamsitishga sabab bo'lishi mumkin emasligi haqidagi normalarga tayangan holda ko'rib chiqilmoqda.

Odil sudlovni amalga oshirishda aybsizlik prezumpsiyasi eng asosiy va muhim prinsiplardan biri sanaladi. E'tiborlisi, ushbu holat yangilangan Konstitutsiyamizda ham o'z aksini topgan. Natijada qisqa vaqt ichida sudlar tomonidan qariyb 1300 ta jinoyat ishi bo'yicha 1 ming 740 nafar shaxsga nisbatan qaror qabul qilishda mazkur tamoyil to'g'ridan to'g'ri qo'llanilgan.

Shuningdek, Asosiy qonunimizda "Xabeas korpus" instituti kafolatlari, ya'ni hech kim asossiz qamoqqa olinishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emasligi hamda shaxsga uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushunarli tilda ma'lum qilinishi shartligi haqidagi "Miranda qoidalari" ham o'z aksini topgan. Bugungi kunda mazkur normalar hayotga izchil tatbiq etilib, davlat organlarida qonuniylikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirish — ushbu sohadagi islohotlarni yangi konstitutsiyaviy makonga uyg'unlashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlarimizning ustuvor yo'nalishi sanaladi. Zero, Konstitutsiyamizda kimki o'zining huquq

va erkinliklari buzilgan, deb hisoblasa, hech qanday to'siqlarsiz sudga murojaat qilishi mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Shunga asosan, birgina 2023-yilda fuqarolar tomonidan davlat organlari bilan huquqiy munosabatlardan kelib chiqqan nizolar yuzasidan ma'muriy sudlarga mingdan ortiq arizalar kelib tushgan va ularning 60 foizi qanoatlantirilgan. Muhimi, ma'muriy sudlarning ushbu qarorlarida Konstitutsiya normalari to'g'ridan to'g'ri qo'llanilgan.

Bu esa o'z navbatida, davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazorati o'rnatilayotganidan ham dalolat beradi. 2030-yilga qadar respublikamizda ma'muriy adliya tizimi yanada rivojlantiriladi, ma'muriy sudlarga bevosita murojaat qilishga xalaqit berayotgan omillar to'liq bartaraf etiladi.

Keyingi vaqtlarda sudning boshqa tizimlarida ham ommaviy huquqiy munosabatlarga oid nizolarni ko'rish, fuqaro va tadbirkorlarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishda Konstitutsiya normalari bevosita qo'llanilmoqda. Birgina 2023-yilda sudlar tomonidan 38 mingdan ziyod ish ana shu tartibda hal qilinganini sohada amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi sifatida baholash mumkin.

Shu o'rinda ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlash amaliyoti 30 foizdan 20 foizga tushirilgani sud-huquq sohasida insonparvarlik tamoyilini tatbiq etish borasidagi intilishlarimizning yana bir yorqin misoli bo'ldi, deyish mumkin. Natijada sudlar tomonidan jinoyat ishlari bo'yicha 1 244 nafar shaxs oqlanib, rehabilitatsiya qilindi. Ushbu ezgu tamoyil kelgusida barcha sohalarga izchil tatbiq etiladi.

Ma'muriy sudlar amaliyotida pensiya ta'minoti kafolatlari, huquqiy ta'sir choralarining mutanosiblik prinsipiga asoslanishi, qonunchilikdagi barcha ziddiyat va noaniqliklar inson foydasiga talqin etilishi hamda

xususiy mulk daxlsizligini kafolatlashga oid konstitutsiyaviy normalar ham faol qo'llanilmoqda.

Shu bilan birga, yurtimizda huquqiy ta'sir choralarini qo'llashda mutanosiblikni ta'minlash bo'yicha konstitutsiyaviy prinsipni ro'yobga chiqarish borasida tizimli ishlar yo'lga qo'yildi. Bunda ayrim qilmishlarni jinoyatlar toifasidan chiqarish va jazo turlarini o'zgartirish, fuqaroviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ma'muriy javobgarlikni bekor qilish ustuvor vazifa hisoblanadi. Ushbu konstitutsiyaviy tamoyilni amalga oshirish maqsadida qonun hujjatlaridagi 150 dan ortiq holatlar to'liq qayta ko'rib chiqiladi.

Fuqarolik sudi va iqtisodiy sudlar faoliyatida insonning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy huquq va erkinliklarini, korxonalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishga ko'proq e'tibor qaratila boshlandi. 2023-yilda mazkur yo'nalishda 271 mingdan ortiq ish ko'rib, da'vogarlar foydasiga 23,5 trillion so'm undirish haqida sud qarorlari qabul qilingan.

Yangilangan Konstitutsiyada mamlakatimizda bozor munosabatlarini yanada rivojlantirish, xususiy mulk va tadbirkorlikni himoyalashga qaratilgan mexanizmlar ham yanada mustahkamlandi. Biz ishbilarmon hamda tadbirkorlarning manfaatlari va qonuniy huquqlarini ishonchli himoya qilishni kelgusida ham izchil davom ettiramiz. Bundan buyon tadbirkorlik subyektlariga nisbatan ko'rilayotgan barcha jinoyat ishlarida himoyachi yoki jamoat himoyachisining ishtiroki ta'minlanadi.

Tahlillarga ko'ra, so'nggi paytlarda iqtisodiy sudlar ham tadbirkorlarning huquqlari bilan bog'liq nizolarni ko'rib chiqish va hal etishda bevosita konstitutsiyaviy normalarga tayanmoqda. Natijada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari foydasiga 6,5 trillion so'm mablag' undirish haqida sud qarorlari qabul qilingan.

Konstitutsiyamizga aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalarini qo'llab-quvvatlash, ularga munosib turmush sharoitini yaratish hamda

hech kimning e'tibordan chetda qolmasligi uchun davlatning fuqarolar oldidagi ijtimoiy mas'uliyatini kuchaytirishni nazarda tutadigan bir qator yangiliklar kiritildi. Birinchi marta har bir shaxsning shaxsiy uy-joyiga ega bo'lish huquqi belgilandi.

Hozirgi vaqtda ushbu kafolatlardan odil sudlovni amalga oshirishda keng foydalanilmoqda. Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda 10 mingga yaqin nizo mazkur konstitutsiyaviy normalar asosida hal etildi.

Ajdodlarimiz azaldan kechirimli bo'lish va o'zaro murosa-yu madora asosida yashashga katta e'tibor qaratgan. Bunday qadriyatlar bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Xususan, fuqarolar yuzaga kelgan turli xil mojarolarni sudga murojaat qilmasdan, o'zaro hal qilishsa, bu har jihatdan foydali bo'ladi. Birgina 2023-yilda sudlar tomonidan yarashuv instituti qo'llanilishi natijasida 14 698 nafar shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod etildi, yetkazilgan moddiy zararni qoplagan 8 586 nafar shaxsga ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo tayinlandi.

O'zbekistonda yaqin vaqtlarda nizolarni sudga qadar hal qilish samaradorligini 50 foizga oshirish rejalashtirilgan. Ana shunday kelishuv imkoniyati mavjud bo'lgan nizolar yuzasidan sud mahkamasiga kelib tushadigan ishlar soni ham teng yarmiga kamaytiriladi.

Umuman, Konstitutsiyaviy normalarni to'g'ridan to'g'ri qo'llash amaliyoti nafaqat sudlar yoki huquqni muhofaza qilish organlari, balki muayyan tartib-qoidalar asosida faoliyat ko'rsatadigan barcha davlat idoralari uchun majburiydir.

Ma'lumki, ayrim protsessual harakatlar sud va tergov idoralaridan ancha vaqt va kuch sarflashni talab etadi, bu hol ko'pincha ortiqcha ovoragarchiliklarga ham sabab bo'ladi. Shu bois bundan buyon ushbu harakatlarni masofadan turib amalga oshirish imkoniyati 2 barobar kengaytiriladi. Barcha jinoyat ishlari va materiallarning elektron nusxasini yuritish va bu borada masofadan hujjat almashinuvi ta'minlanadi. Qolaversa, sudlarga ma'muriy huquqbuzarlikka oid ishlarni

ko'rib chiqish natijalari ustidan shikoyatlarning 50 foizini elektron shaklda yuborishga ruxsat beriladi.

Endilikda jinoyat ishi qo'zg'atilishidan tortib, hukm chiqarilguniga qadar bo'lgan jarayonlarni individual raqam va QR-kod orqali kuzatib borish imkoniyati yaratiladi. Shu maqsadda Yagona elektron reyestr yaratiladi. Dalillarni to'plash va mustahkamlash faoliyati ham zamonaviy texnologiyalar va so'nggi ilmiy yutuqlarni joriy qilish orqali to'liq raqamlashtiriladi. Sud va boshqa organlarning hujjatlari ijrosini ta'minlash bo'yicha ishlar toifasining kamida 30 foizini xususiy sektor yordamida ijro etish amaliyotini ham yo'lga qo'yish rejalashtirilgan.

Yurtimizda inson qadrini ulug'lashga xizmat qiladigan odil sudlovni amalga oshirish maqsadida ushbu tizimda sudyalarning o'zini o'zi boshqarish tamoyilini to'liq joriy etish hamda sudyalarning hamjamiyatini to'liq shakllantirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jamiyatimizda sog'lom oilaviy muhitni ta'minlash uchun ilg'or xorijiy tajribalarga tayangan holda fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo sudlarda oilaviy nizolarni ko'rib chiqishga ixtisoslashgan sudyalarning korpusini shakllantirish borasida ham amaliy ishlar olib borilmoqda. "Oila sudyalari"ni tashkil etish orqali uning mustahkamligi va tinch-totuvligini ta'minlash, yuzaga keladigan nizolarni oqilona hal etish, eng muhimi, ushbu maskanni tom ma'noda jamiyatning chinakam tayanchiga aylantirish mumkin. Zotan, oilada ertangi kun egalari hisoblangan farzandlarimiz o'sib-ulg'ayib, kamol topishini unutmasligimiz lozim. Demak, oila qanchalik barqaror va unda yuksak ma'naviy muhit ustuvor bo'lsa, Vatanimizning kelajagidan ko'nglimiz to'q bo'ladi.

Bunday yangi institutning tashkil etilishi oilalarni mustahkamlash va bu borada odil sudlovni ta'minlash bo'yicha quyidagi vazifalarni hal etishga ham xizmat qiladi:

- sudyalarning oilaviy nizolarni ko'rishga ixtisoslashuvi ularning ushbu yo'nalishda malakali mutaxassis bo'lib shakllanishiga zamin yaratadi, sud sohasida bunday nizolarni ijobiy hal qilish borasida boy amaliy tajriba to'planadi;

- sudyalar har bir oilaviy nizoni chuqur o'rganish, uning yuzaga kelish sabablari va mohiyatini to'liq tushunib yetish, muxtasar aytganda, fuqarolik ishini atroflicha o'rganish imkoniga ega bo'ladi;

- oilaviy nizolarning o'ziga xos tomoni shundaki, ular boshqa nizo turlarini ham bevosita keltirib chiqarishi mumkin. Jumladan, "oila sudyalari"da oilaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan 32 turdagi fuqarolik ishlari yoxud "zanjirli nizolar" ko'rib chiqilayotganligi buning dalilidir. Shu bois sudyalar ishlarni ko'rib chiqishda taraflarni imkon qadar yarashtirish choralarini ko'rish, mediatsiya institutini kengroq qo'llash orqali oilaviy nizolarning kamayishi hamda tinch va ahil oilalar soni ko'payishiga hissa qo'shishi mumkin;

- sudyalar oilaviy ishlarni ko'rib chiqish chog'ida yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash va bartaraf qilish, ularning oldini olish borasida hokimliklar, oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimi, bandlikka ko'maklashish, sog'liqni saqlash sohalari mutasaddilari, "mahalla yettligi" va mahalla faollari, diniy ulamolar bilan hamkorlikda ish olib boradi.

Hech kimga sir emaski, huquqni muhofaza qiluvchi organlar jamiyatda tinchlik va barqarorlikni saqlash, xalqimizning osuda hayotini ta'minlash borasida juda murakkab va mas'uliyatli vazifalarni bajarmoqda.

Xo'sh, qachon odamlarimizning hayotida xotirjamlik, ro'zg'orida farovonlik va halovat bo'lib, ularda ertangi kunga ishonch ortadi? Shak-shubhasiz, yurtimizda qonunlar qog'ozda emas, amalda qat'iy bajarilganida, islohotlar har bir xonadonga kirib borib, yurtdoshlarimiz ularning amaliy samarasini o'z kundalik hayotida his etgan taqdirdagina biz ana shu maqsadlarga to'liq erishishimiz mumkin.

Mamlakatimizda “Qonun — ustuvor, jinoyatga jazo muqarrar” tamoyili asosida qonuniylikni ta’minlash borasidagi ishlarimiz hal qiluvchi bosqichga kirayotgan hozirgi vaqtda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning har bir xodimi ana shu hayotiy haqiqatni chuqur anglab olishi zarur.

Qonun hukmron bo’lgan jamiyatda, albatta, adolat, siyosiy-ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy o’sish va yuksalish bo’ladi, insonning qadri, huquq va manfaatlari ta’minlanadi.

Xalqimizning og’irini yengil qilish, yangi ish o’rinlari yaratish, kambag’allikka qarshi kurashishga qaratilgan dasturlarimiz ijrosini izchil tashkil etish, atrof-muhit, tabiiy boyliklar va madaniy merosimizni ko’z qorachig’idek asrash, tibbiyot, ta’lim kabi sohalardagi islohotlarimizni davom ettirish va bu borada qonun buzilishiga murosasiz bo’lish — huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining konstitutsiyaviy burchi va eng asosiy vazifasidir.

Bunday muhim maqsadlarga erishishda prokuratura organlari va ushbu tizimda xizmat qilayotgan o’z kasbi va burchiga sodiq, vatanparvar insonlarning o’rni katta ekanini alohida ta’kidlash o’rinlidir.

So’nggi yillarda prokuratura sohasini tubdan isloh etish, bu borada ochiqlik va adolatga asoslangan, fuqarolar va jamiyat manfaatiga xizmat qiladigan, xalqparvar qarorlar qabul qilish, o’zining nazariy va amaliy maktabiga, fidoyi va professional xodimlar korpusiga ega bo’lgan tizimni shakllantirish bo’yicha ulkan ishlarni amalga oshirmoqdamiz.

El-yurtimizning Konstitutsiyamizda mustahkamlangan huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishda, qonuniylikni ta’minlash, jinoyatchilikning oldini olishda prokuratura organlarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, xalq bilan ochiq muloqot qilish, aholi muammolarini chuqur o’rganish va hal etish, inson huquq va erkinliklarini muhofaza qilish bugun soha xodimlarining eng asosiy va kundalik vazifasiga aylangan.

Keyingi yillarda prokuraturaning qonunlar ijrosi ustidan nazorat olib borish faoliyati tubdan o'zgartirildi. Ilgari qonun buzilishi holatlarini aniqlash va jazolashga zo'r berilgan bo'lsa, endilikda asosiy e'tibor bunday holatlarning oldini olish, mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilmoqda.

Prokuratura organlari tomonidan mamlakatda qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilish, tadbirkorlik subyektlarining himoyasini ta'minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Eng muhimi, prokuratura tizimi ham, odamlarimizning unga nisbatan munosabati ham o'zgarmiqda. Bugungi kunda el-yurtimiz prokuratura timsolida "jazolovchi idora"ni emas, balki aholi va tadbirkorlarning buzilgan huquqlarini tiklashga ko'maklashadigan, ularning dardiga sherik, madadkor bo'lishga harakat qiladigan xalqparvar tuzilmani ko'rmqda.

Xususan, 2022–2023-yillarda tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini himoya qilish, jumladan, ularning faoliyatiga asossiz aralashish, noqonuniy tekshirish o'tkazish hamda murojaatlarni ko'rib chiqishdagi qonunbuzilishi holatlarining oldini olish borasida nazorat tadbirlari o'tkazildi. Ularning natijasiga ko'ra, 26 ming 330 nafar tadbirkorning buzilgan huquqlari tiklandi, 4 mingga yaqin mansabdor shaxslar turli xil javobgarlikka tortildi.

Mamlakatimizda tergov faoliyatida "Inson qadri uchun" degan ezgu g'oyani to'liq ro'yobga chiqarish, jinoyatlarni o'z vaqtida fosh etishni tashkil etish — tergov organlari faoliyatini qonun ustuvorligini va qilmish uchun jazo muqarrarligini ta'minlash tamoyili asosida takomillashtirishning muhim shartlaridan hisoblanadi.

Shu munosabat bilan sohada amalga oshirilayotgan islohotlar va zamon talablariga javob beradigan tergov sohasidagi yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimining samaradorligini tubdan oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Bosh prokuratura akademiyasi negizida O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tashkil etildi va unda jinoyatlarni tergov qilish sohasida kadrlarni amaliyot bilan uzviy bog'liq holda yagona yondashuv asosida tayyorlashga qaratilgan uzluksiz o'quv tizimi yo'lga qo'yildi.

Bundan ko'zlangan asosiy maqsad — Yangi O'zbekiston sharoitida jinoyatlarni tergov qilish sohasida malakali kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash amaliyotini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, ushbu yo'nalishga ilg'or xalqaro standartlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishdan iborat.

Akademiyada jinoyatlarni tergov qilish sohasida mutaxassislarni chuqurlashtirilgan maqsadli bazaviy tayyorlash, korrupsiyaga qarshi kurashish sohalarida davlat organlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini yo'lga qo'yishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, interfaol o'qitish metodlarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish, prokuratura organlari xodimlarida bilim va ko'nikmalarni oshirishning yaxlit tizimini tashkil etish, huquqni muhofaza qilish faoliyatining eng dolzarb masalalari bo'yicha kompleks ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish borasida ham tizimli ishlar olib borilmoqda.

Advokatura — odil sudlovning ajralmas qismi

Inson huquqlarini himoya qilish, odil sudlovni amalga oshirish va adolatli qarorlar qabul qilishda advokatlarning roli va ahamiyati benihoya kattadir. Shu bois Konstitutsiyamizga advokatura institutiga bag'ishlangan va advokatlarning faoliyatining kafolatlarini mustahkamlovchi alohida bob kiritildi. Endilikda advokatura faoliyati qonuniylik, mustaqillik va o'zini o'zi boshqarish prinsiplariga asoslanadi, advokat o'z vazifasini amalga oshirayotganida uning faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmaydi.

Advokatga o'z himoyasidagi shaxs bilan moneliksiz va xoli uchrashishi, unga maslahatlar berishi uchun shart-sharoitlar yaratib beriladi. Bundan tashqari, advokat, uning sha'ni, qadr-qimmatini va kasbiy faoliyati davlat himoyasida bo'ladi va qonun bilan muhofaza qilinadi. Chunonchi, "Miranda qoidalariga" binoan ushlangan shaxsga ilk soniyalardayoq sukut saqlash, so'roq jarayonida advokatining ishtirokini talab qilish va boshqa huquqlarga ega ekanligi sodda tilda tushuntiriladi. Ya'ni, Konstitutsiyada jinoiy ta'qibga olingan shaxslarni davlat organlari hamda mansabdor shaxslarning o'zboshimchaligidan himoyalashning deyarli barcha usullari aks etmoqda.

Konstitutsiyada ushlangan shaxsning harakatlanish erkinligi amalda cheklangan paytdan e'tiboran o'z tanloviga ko'ra advokat yordamidan foydalanish huquqining alohida belgilanishi uni noqonuniy yoki asossiz ayblov qo'yilishi va boshqa turli bosimlardan himoya qiladi. Shuningdek, shaxs o'z tanloviga ko'ra, ya'ni istasa, advokat yordamidan foydalanadi, istamasa, bunday yordamdan voz kechishi mumkin. Bordi-yu, bunga imkoni bo'lmasa, davlat hisobidan advokat bilan ta'minlanadi.

Mazkur qoida fuqarolarimizning huquq va erkinliklari kafolatlarini yanada kuchaytirishga, ularga nisbatan turli noqonuniy harakatlar sodir etilishining oldini olishga xizmat qiladi.

Advokatura institutini yanada takomillashtirish va advokatlar mustaqilligini ta'minlash maqsadida hamda yangi tahrirdagi Konstitutsiya talablari asosida jinoyat protsessida himoyachining maqomi kuchaytirildi. Jumladan, endilikda tergovga qadar tekshiruv o'tkazilayotgan shaxslarga malakali yuridik yordamdan foydalanish huquqini kafolatlash maqsadida ushbu jarayonda advokatning himoyachi maqomida ishtirok etishiga ruxsat beriladi.

Shuningdek, advokatlarning inson huquqlarini himoya qilish borasida vakolatlari kengaytirildi. Shu maqsadda nazorat instansiyasi bekor qilinib, fuqarolar va advokatlarning shikoyatlarini ham xuddi prokuror protesti kabi to'g'ridan to'g'ri ko'rib chiqish tartibi o'rnatildi.

Amalga oshirayotgan islohotlarimiz natijasida bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan advokatlar soni 4,5 mingdan oshdi. E'tiborli jihati, jamiyatda advokatlar xizmatiga ehtiyoj sezilarli darajada kuchayib, har xil nizoli masalalarni ular yordamida hal etish madaniyati shakllanmoqda.

Yana bir muhim yangilik shuki, advokatura sohasiga yosh kadrlarni faol jalb qilish maqsadida oliy o'quv yurtlarida yurisprudensiya yo'nalishida tahsil olayotgan bitiruvchi kurs talabalariga o'qishdan bo'sh vaqtida advokatlik tuzilmalarida mehnat qonunchiligiga muvofiq advokat yordamchisi sifatida ishlashi uchun ruxsat etildi.

Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish orqali jismoniy va yuridik shaxslarga yuridik yordam ko'rsatish sifati yangi bosqichga olib chiqilmoqda. Shu yo'l bilan ortiqcha sansalorlik, byurokratiya hamda qog'ozbozlikka barham berish, advokatura, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda boshqa davlat organlari o'rtasida elektron ma'lumot almashinuvini samarali yo'lga qo'yish ko'zda tutilgan.

Qolaversa, ushbu tizim inson omilini bartaraf etish orqali advokatura institutining davlat organlari va boshqa tuzilmalardan mustaqilligini

oshirish hamda advokatlar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga onlayn yuridik yordam ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirishga ham xizmat qiladi.

Barqaror rivojlanishga to'siq bo'lgan korrupsiya illatiga qarshi kurashish — umumxalq ishi

Dunyoda barqaror taraqqiyotga raxna solib, aholining davlatga nisbatan ishonchini yemiradigan bir illat borki, bu — korrupsiya balosidir.

Chindan ham, korrupsiya butun insoniyatga zarar keltirib, barcha jamiyatlarning asosiga putur yetkazadigan, qonun ustuvorligini buzadigan, demokratik institutlar rivojiga to'sqinlik qiladigan jiddiy xatardir.

Afsuski, korrupsiya balosi bizning jamiyatimizda ham davom etib kelayotganligini inkor qilib bo'lmaydi. Meni xalqimizning halol peshona teri evaziga to'plangan budjet mablag'larini talon-taroj qilish, davlat xazinasiga ko'z olaytirish kabi nojoiz holatlar, ayniqsa, ko'proq tashvishga soladi.

Keyingi vaqtlarda jamiyatimizda bu illatni tag-tomiri bilan sug'urib tashlash maqsadida qat'iy choralar ishga solinmoqda. Shuningdek, O'zbekiston korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha huquqiy va institutsional islohotlarni tizimli amalga oshirish barobarida BMT, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti kabi nufuzli xalqaro tuzilmalar bilan ham yaqin hamkorlik qilmoqda. Yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun qabul qilinib, maxsus vakolatlarga ega Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi.

2024-yil 5-iyunda "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonunni imzoladik.

Qonun davlat organlariga va mahalliy davlat hokimiyati organlariga, davlat muassasalariga, davlat unitar korxonalariga, davlat maqsadli jamg'armalariga, shuningdek, ustav fondida davlat ulushi 50 foiz miqdorda va undan ortiq bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlariga nisbatan tatbiq etiladi.

Unga davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi, manfaatlar to'qnashuvi, manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha maxsus bo'linma, shaxsiy manfaatdorlik, yaqin qarindoshlar kabi asosiy tushunchalar kiritilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi hisoblanadi.

Davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimi tomonidan qonun talablariga rioya etilishi ustidan nazorat ushbu davlat organida yoki boshqa tashkilotda tuzilgan odob-axloq komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Qonunga ko'ra, manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi axborotni oshkor etish davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi tomonidan mavjud manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabarnoma hamda ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida deklaratsiya taqdim etish orqali amalga oshiriladi.

Hukumat faoliyatining ochiq-oshkoraligini ta'minlash va uning mas'uliyatini oshirish, byurokратиyani kamaytirish uchun davlat xizmatlarini soddalashtirish hamda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan preventiv mexanizmlar keng joriy etilmoqda. Xususan, barcha davlat idoralarida ichki nazorat hamda samaradorlikni baholashning reyting tizimlari yo'lga qo'yildi. Davlat xaridlari to'liq raqamlashtirildi.

Ma'lumki, O'zbekiston 2021-yilda Xalqaro Ochiq ma'lumotlar xartiyasiga a'zo bo'ldi. Shuningdek, mamlakatimiz Istanbul harakatlar dasturi, Global operativ tarmoq, Yevroosiyo va Egmont guruhlari,

boshqa ko'plab platformalarda ham samarali ishtirok etib kelmoqda. Ayni paytda respublikamiz G'arbiy va Markaziy Osiyo davlatlarining aktivlarni qaytarish tarmog'ining Kotibiyati vazifasini ham bajarmoqda. Har yili Toshkentda an'anaviy Xalqaro aksilkorrupsiya forumi o'tkazib kelinmoqda.

Ana shunday chora-tadbirlar natijasida keyingi yillarda O'zbekiston "Transparency International" indeksida 42 pog'ona ko'tarilib, bu borada mintaqamizda eng yuqori o'rinni egallaganini alohida ta'kidlash lozim. Biz 2030-yilga qadar mamlakatimizning ushbu reytingdagi o'rnini yana 50 pog'onaga yaxshilashni maqsad qilganmiz. 2023-yili mamlakatimiz "Open Data Inventory" reytingida 30-o'ringa ko'tarilgan bo'lsa, ochiq ma'lumotlar manbalari bo'yicha esa dunyoda 4-o'rinni egalladi.

Yangi O'zbekistonni korrupsiyadan batamom xoli qilish uchun, birinchi navbatda, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishimiz, korrupsiyani bartaraf etish tizimi samaradorligini keskin oshirishimiz darkor. Kelgusida bu yo'nalishda bir qator masalalarga alohida e'tibor qaratiladi.

Birinchidan, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2030-yilgacha mo'ljallangan milliy strategiyani ishlab chiqib, uni izchil hayotga tatbiq etamiz. Davlat idoralari faoliyatining yanada shaffofligini ta'minlash va hisobdorligini oshirish, ochiq ma'lumotlar tizimini takomillashtirish, sohaning huquqiy asoslari va institutsional mexanizmlarini mustahkamlashga alohida urg'u beramiz.

Ikkinchidan, korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha mintaqaviy va global tashabbuslar hamda yangi loyihalarni qo'llab-quvvatlash bilan bir qatorda, ularni ro'yobga chiqarishda faol ishtirok etamiz. Bu borada Toshkentda ishga tushirilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish konvensiyasining Mintaqaviy platformasidan unumli foydalanish choralarini ko'riladi.

Shu bilan birga, nodavlat notijorat tashkilotlarni faol jalb etgan holda, o'zaro tajriba almashish va muloqotlarni kuchaytirish hamda ilmiy izlanishlarni yo'lga qo'yish maqsadida Korrupsiya muammolari bo'yicha mintaqaviy tadqiqot markazini tashkil etmoqchimiz.

Uchinchidan, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining xorijiy turdosh muassasalar bilan hamkorligini kuchaytirish orqali uning salohiyati va imkoniyatlari yanada oshiriladi. Bu borada ilg'or xalqaro tajribalarga asoslangan yangi mexanizmlar tatbiq qilinadi hamda korrupsiya holatlari bo'yicha "dastlabki o'rganish" — korrupsion surishtiruv instituti joriy etiladi.

To'rtinchidan, bolalikdan ongi va qalbi "halollik vaksinasi" bilan emlangan yangi avlodni kamolga yetkazish ham ustuvor vazifalarimizdan biri hisoblanadi. Shu bois biz BMTning Korrupsiyaga qarshi ta'lim va yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirish global resursi dasturini O'zbekistonda keng joriy etishdan manfaatdormiz.

Beshinchidan, biz korrupsiyaga qarshi kurashishdek murakkab jarayonda oldingi saflarda borayotgan ommaviy axborot vositalarining o'rnini alohida qadrlaymiz. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha jurnalistlarning imkoniyatlaridan yanada unumli foydalanish va ularning bu boradagi ta'sirini oshirish maqsadida doimiy ravishda global media forumlar o'tkazib borish an'anasini yo'lga qo'yishga e'tibor qaratiladi.

Umuman, bugungi davr talablaridan kelib chiqib aytish mumkinki, korrupsiya balosidan xalos bo'lishimizda raqamlashtirishning o'rne va ahamiyatini hech bir mezon bilan o'lchab bo'lmaydi. Demak, bundan buyon har bir sohaga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy qilish, har qanday xizmat turlarini raqamlashtirish eng birlamchi vazifamiz bo'ladi.

Eng muhimi, korrupsiyaga qarshi kurashish har bir sof vijdonli insonning, demokratik jamiyat va davlatning muqaddas burchiga aylanmog'i lozim. Shu ma'noda, yurtimizda ushbu illatga qarshi

kurashish umumxalq harakatiga aylanayotgani alohida tahsinga sazovordir. Zotan, korrupsiya balosini bartaraf etish uchun faqatgina prokuratura xodimlari va sud-huquq sohasi vakillarining jonbozligi kifoya qilmaydi, balki jamiyatimizdagi mavjud barcha resurslarni ishga solish orqali bu borada natijaga erishishimiz mumkin. Bunda har bir fuqaro faol va tashabbuskor bo'lishi zarur.

Ishonchim komil, biz oliyjanob va adolatparvar xalqimiz bilan birgalikda korrupsiya muammosini ham albatta yengamiz va jonajon Vatanimizda adolatli, farovon va baxtli jamiyat barpo etamiz. Bunga hech kimda shubha bo'lmasligi kerak.



Xalqaro munosabatlar mohiyati va mazmuni tubdan o'zgarayotgan, jahonda kuchlarning yangi nisbati shakllanayotgan hozirgi zamonda, har bir ishimizda, qabul qilayotgan barcha qonun va qarorlarimizda faqat va faqat xalqimiz, Vatanimiz manfaatlari eng ustuvor o'rinda turishi shart.

Buning uchun, avvalo, ota-bobolarimizning asriy orzu-armoni hisoblangan tengsiz va buyuk ne'mat — mustaqilligimizni asrab-avaylash, uni yanada mustahkamlash va kelgusi avlodlarga meros qilib qoldirish barchamiz uchun hayot-mamot masalasi ekanligini aslo unutmasligimiz zarur.

Binobarin, shunday ekan, ichki va tashqi siyosatdagi eng birinchi maqsadimiz va asosiy prinsipimiz — O'zbekiston manfaati va yana bir bor O'zbekiston manfaati bo'lib qolaveradi.

YANGI O‘ZBEKISTON — XAVFSIZ VA TINCHLIKSEVAR DAVLAT

Yangi O‘zbekistonning mintaqaviy siyosati

Insoniyat tarixi shundan dalolat beradiki, juda ko‘plab xalqlar, avvalo, milliy o‘zligi va ajdodlaridan meros bo‘lgan qadriyatlarni anglash va ularga tayangan holda kelajakka intilish orqali taraqqiyotga erishgan. Shu ma’noda, milliy o‘zlikni anglash — bizni ham buyuk marralar sari dadil qadam tashlashga, jahonda ilg‘or davlatlar qatoridan munosib o‘rin egallashga undaydi. Zotan, milliy o‘zligimiz ajdodlarimizning barhayot ma’naviy merosidan oziqlanadi.

Binobarin, biz aslida kimmiz, ajdodlarimiz qanday insonlar edi, xalq va davlat sifatida taraqqiy etish uchun oldimizda qanday tarixiy vazifa va marralar turibdi, degan bir qator hayotiy savollarga aniq javob topishimiz lozim bo‘ladi. O‘z davrida ota-bobolarimiz ham ana shunday masalalar haqida chuqur fikr yuritib, el-yurtning kelgusi taqdiri bilan bog‘liq qarorlar qabul qilishganiga ishonchim komil.

Ayniqsa, XX asr boshlarida yurtparvar, millatparvar jaded bobolarimiz yangilanish va erkinlik, adolat va tenglik, ilm-ma’rifat va o‘zlikni anglash g‘oyalarini bayroq qilib kurash maydoniga mardona chiqishganini barchamiz yaxshi bilamiz.

Bu ulug‘ zotlar jaholat va qoloqlik girdobiga tushib qolgan Turkiston xalqlarini dunyoviy ilm-fan, ilg‘or kasb-hunarlar bilan qurollantirish orqali o‘lkamizni umumbashariy rivojlanish yo‘liga olib chiqishni maqsad qilishgan edi. Afsuski, o‘sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat va qattol tuzum ularning bunday ezgu niyatini amalga oshirishiga imkon bermadi.

Biz ham jonajon Vatanimizning ming yillar davomida turli sivilizatsiyalar rivojiga, ayniqsa, Osiyo va Yevroosiyo mintaqalari, turkiy xalqlar madaniyati va islomiy ma'rifat ravnaqiga ulkan hissa qo'shib kelayotganini inobatga olgan holda, hozirgi tub islohot va o'zgarishlarni ana shu tamoyil asosida amalga oshirmoqdamiz.

Bu borada xalqimiz mentalitetining o'zagini tashkil qiladigan bag'rikenglik, oliyanoblik, samimiyat va mehnatsevarlik kabi ko'pdan ko'p ezgu fazilatlarga tayanayotganimizni ham alohida qayd etib o'tishim lozim.

E'tiborli jihati, bunday g'oyalar va qarashlar yaqinda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ham o'z aksini topib, mamlakatimizning ichki va tashqi siyosatiga oid ustuvor yo'nalishlarni belgilashda asos bo'lmoqda.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Markaziy Osiyo xalqlarini ming yillik qardoshlik va yaxshi qo'shnichilik, quda-andachilik rishtalari bog'lab turadi. Xalqlarimiz hamisha bir-biriga yelkadosh va hamjihat bo'lib yashab kelgan. **Bizni yagona tarix, yagona din, umumiy madaniyat va an'analar birlashtiradi.**

Donishmand ota-bobolarimiz **“Hovli olma, qo'shni ol”, “Qo'shning tinch — sen tinch”**, deb bejiz aytishmagan. Shu ma'noda, o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman va tojik xalqlari, go'zal va betimsol Markaziy Osiyo zaminida istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlar vakillarining o'zaro tinch-totuv, do'st-inoq bo'lib yashab kelayotganini Yaratganning marhamati, taqdirning buyuk in'omi sifatida baholash mumkin.

Shuning uchun barchamiz Markaziy Osiyo atalmish umumiy uyimizni har xil balo-qazolardan asrash, farzandlarimizni turli nizo va qarama-qarshiliklardan himoya qilish, mintaqamizda tinchlik va farovonlik bardavom bo'lishi uchun barcha kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur.

Bunda mintaqaviy integratsion jarayonlar qo'shnilar bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kuchaytirishga asoslanishi, **har birimiz qo'shnimizning yutug'ini — o'zimizning ham yutug'imiz, uning tinch va farovon hayotini — butun mintaqamizda tinchlik va barqarorlikni saqlashning garovi**, deb bilishimiz lozim.

Yevroosiyo kengliklarining naq “yuragi”da joylashgan mintaqamiz Yevropa va Yaqin Sharq, Janubiy va Sharqiy Osiyoni o'zaro bog'lovchi ko'prik bo'lib, Rossiya va Xitoy singari qudratli davlatlar bilan chegaradosh.

Mintaqamiz tabiiy resurslarga juda boy, bu yerda ko'plab mamlakatlar va butun mintaqalarning rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan noyob madaniyat va taraqqiyot salohiyati mavjudligini bugun jahon hamjamiyati ham e'tirof etmoqda.

Ayni paytda Markaziy Osiyoda turli davlatlar va kuch markazlarining manfaatlari kesishmoqda. Shundoq ham ayrim beqarorlik va qarama-qarshilik o'choqlariga tutash bo'lgan ushbu mintaqa yaqin va uzoq xorijda ro'y berayotgan mojarolarning ham salbiy ta'sirini o'zida his etmoqda.

Shu o'rinda tabiiy savol tug'iladi: **bunday murakkab sharoitda mintaqamizda vaziyat qanday rivojlanadi? Yaqin kelajakda bu yerda qanday kuch ustun keladi — nizo va qarama-qarshiliklarmi yoki hamkorlik va taraqqiyotmi?**

Bunday murakkab sharoitda Markaziy Osiyodagi qo'shni davlatlarning mintaqaviy hamkorlikni kengaytirishdan boshqa yo'li yo'q va bo'lishi ham mumkin emas!

E'tirof etish kerakki, so'nggi yillarda Markaziy Osiyo davlatlari yaxshi qo'shnichilik, barqarorlik, o'zaro hamkorlikda rivojlanish hamda mintaqaning dunyoga ochiqligini ta'minlash yo'lini tanladi va bu yo'ldan sobitqadamlik bilan ilgarihamoqda.

Bugun bizni umumiy sa'y-harakatlarimiz bilan Markaziy Osiyoni barqaror, iqtisodiy rivojlangan va yuksak taraqqiy etgan mintaqaga,

o'zaro ishonch va do'stlik, yaxshi qo'shnicilik va manfaatli hamkorlik makoniga aylantirishdek yagona maqsad birlashtirmoqda.

Ishonchim komil, bundan nafaqat Markaziy Osiyo davlatlari, balki boshqa mamlakatlar ham birdek manfaat ko'radi.

Hech shubhasiz, amaliy hamkorlikka astoydil intilish, Markaziy Osiyoning kelajagi uchun mas'uliyatni chuqur his etish — **mintaqamizning barqaror taraqqiyoti, farovonligi va xavfsizligi uchun mustahkam kafolat va poydevor vazifasini o'taydi.**

Buning uchun biz xalqlarimiz o'rtasida turli nizolarning paydo bo'lishi va kuchayishiga sabab bo'ladigan har qanday omillarga birgalikda barham bermog'imiz, barcha yo'nalishlarda umummintaqaviy ustuvor manfaatlarga asoslangan milliy rivojlanishni ta'minlamog'imiz zarur.

Bugun Markaziy Osiyo davlatlari aynan yaxshi qo'shnicilik va o'zaro manfaatli hamkorlik tamoyillariga tayangan holda savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya, madaniy-gumanitar sohalarda, xavfsizlik va barqarorlik masalalarida o'z salohiyatini yanada kengroq namoyon qilishi mumkin.

Bizning nafaqat tariximiz, balki kelajagimiz, hayotiy muhim manfaatlarimiz ham mushtarakdir.

Bugungi kunda umumiy aholisi 80 millllionga yaqinlashgan mintaqamizning kelajagi Markaziy Osiyodagi har bir davlat tomonidan, ularning yakdil siyosiy irodasi va birgalikdagi sa'y-harakatlari evaziga barpo etilmoqda. Ushbu jarayonda barchamizning tariximiz va taqdirimiz mushtarakligi, o'zaro yaqinligimiz qator muammolarni hal etish va mavjud tahdidlarga qarshi samarali kurashishda qo'l kelmoqda.

O'tgan yillarda O'zbekiston tashabbusi bilan **Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlarini** o'tkazish yo'lga qo'yildi. Muhimi, ushbu taklif mintaqamizdagi barcha davlatlar rahbarlari tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlandi.

Bugungi kunda ushbu uchrashuvlar mintaqada o'zaro hamjihatlik va hurmat, yaqin qo'shnicilik va strategik sheriklik ruhidagi mutlaqo yangi siyosiy muhitni mustahkamlash, muhim hayotiy masalalarni hal qilish va ko'p qirrali hamkorligimizni sifat jihatidan yangi mazmun bilan to'ldirish borasida samarali platformaga aylandi.

Biz Markaziy Osiyoning xavfsizligi va barqarorligini, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashga alohida e'tibor qaratmoqdamiz. Turli yo'nalishlar, ayniqsa, suv resurslaridan oqilona foydalanish, ekologiya va tabiatni muhofaza qilish, transport-kommunikatsiya infratuzilmalarini yanada rivojlantirish borasidagi amaliy hamkorligimiz sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqildi. Davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish, jahon iqtisodiy munosabatlariga yanada faol integratsiyalashuv masalalarida ham ijobiy o'zgarishlarga erishildi.

Mamlakatlarimiz oldidagi ko'plab to'siqlar bartaraf etildi, fuqarolarimizning erkin harakatlanishi, faol madaniy va sayyohlik almashuvlari uchun qulay sharoitlar yaratildi. Biz sanoat kooperatsiyasi bo'yicha qo'shma loyihalarni amalga oshirishga ham kirishdik va hozirda transport va energetika infratuzilmasini rivojlantirmoqdamiz.

O'zaro savdo va investitsiyalarning o'sishiga xizmat qilayotgan qulay muhit shakllantirildi. So'nggi yillarda mintaqa mamlakatlarining umumiy ichki mahsuloti 40 foiz ko'paydi. Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida savdo hajmining barqaror o'sishi kuzatilmoqda. Masalan, tovar aylanmasi 2,5 barobardan oshgan bo'lsa, o'zaro investitsiyalar hajmi qariyb 6 marta, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi esa 45 foiz o'sdi. Bundan tashqari, ichki mintaqaviy turizm ko'rsatkichlari 2 barobar ko'paydi.

Qayd etish lozimki, mamlakatimizda an'anaviy ravishda o'tkaziladigan **Toshkent xalqaro investitsiya forumi** ikki va ko'p tomonlama hamkorlikni kengaytirish, eng dolzarb muammolarni muhokama

qilish, ilg'or g'oya va yondashuvlarni ishlab chiqish bo'yicha samarali muloqot maydoniga aylandi. 2024-yil o'tkazilgan anjumanda 93 ta davlatdan 2,5 mingdan ortiq xorijiy mehmonlar ishtirok etgani ham forumning ahamiyati va xorijiy investorlarning O'zbekistonda, jumladan, mintaqamizda vujudga kelayotgan qulay biznes va investitsiyaviy muhitga ishonchi tobora ortib borayotganini yaqqol tasdiqlaydi.

Mintaqamiz davlatlari o'rtasidagi madaniy aloqalarning faollashishi natijasida xalqlarimiz yanada yaqinlashmoqda. Bizning siyosiy muloqotlarimiz va parlamentlararo almashuvlar doimiy tus olmoqda. Ularda Markaziy Osiyoda ko'p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish, jumladan, siyosiy muloqotni rivojlantirish, savdo, investitsiyalar, transport, energetika, qishloq xo'jaligi va ekologiya sohalarida qo'shma dastur va loyihalarni ilgari surish, madaniy-gumanitar almashinuvni faollashtirish, xavfsizlik sohasidagi zamonaviy tahdid va xatarlarga qarshi birgalikda kurashish kabi masalalar atroflicha muhokama qilinmoqda.

Muloqot va hamkorlik uchun turli yangi platformalar ishga tushirildi, ilmiy diplomatiya, biznes diplomatiyasi, xalq diplomatiyasi rivojlanib bormoqda. Markaziy Osiyo yoshlari, ayol yetakchilarining muloqotlari, oliy ta'lim muassasalari rektorlari, olimlar, tadbirkorlar va volontyorlarning forumlari hamda turli yo'nalishlar bo'yicha sport turnirlari tashkil etilmoqda.

Eng muhimi, barcha ijobiy o'zgarishlarni qo'shni davlatlardagi birodar xalqlar teran his etmoqda. Markaziy Osiyoda barqarorlik va birdamlik mustahkamlanmoqda. Mintaqamiz iqtisodiy o'sish va investitsion faollik markazlaridan biriga aylanmoqda, G'arbni Sharq va Shimolni Janub bilan bog'laydigan transport yo'lagi bo'lishdek tarixiy vazifani yana o'z zimmasiga olmoqda.

Bularning barchasi mintaqa mamlakatlarining barqaror rivojlantirishini ta'minlash, bu yo'ldagi barcha muammolarni teng huquqlilik,

o'zaro hurmat tamoyillari asosida bartaraf etishga qaratilgan umumiy sa'y-harakatlarimiz natijasidir.

Muxtasar aytganda, xalqaro siyosiy lug'atda mintaqaviy taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qiluvchi o'ziga xos modelni aks ettiruvchi yangi **“Markaziy Osiyo ruhi”** atamasi paydo bo'ldi. Bugun biz global va mintaqaviy siyosat kun tartibidagi ko'plab dolzarb masalalar bo'yicha yagona pozitsiyada turib harakat qilmoqdamiz. **Mamlakatlarimiz 2017-yildan buyon Markaziy Osiyoda taraqqiyot va sheriklikning muhim masalalari bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkilotining 10 dan ziyod rezolutsiyasi qabul qilinishiga erishdi.**

Bizning bunday sa'y-harakatlarimiz xalqaro hamjamiyat tomonidan keng e'tirof etilib, yuksak baholanmoqda. **Qisqa davrda dunyoda mintaqamizga nisbatan ishonch va hamkorlikka intilish keskin kuchaydi.** “Markaziy Osiyo +” formatida 10 dan ortiq hamkorlik muloqoti yo'lga qo'yilgani buni tasdiqlaydi.

Markaziy Osiyo mintaqasida yaxshi qo'shnihilik munosabatlarini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan tub o'zgarishlar O'zbekiston tashqi siyosatining katta yutug'idir.

Markaziy Osiyoni tinch va gullab-yashnayotgan hududga aylantirish bundan buyon ham O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor maqsadi bo'lib qolaveradi.

Mintaqamizning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun kelgusida quyidagi ustuvor yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratamiz.

Birinchidan, Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo-iqtisodiy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha boshlagan ishlarimizni izchil davom ettiramiz.

Biz bu borada mavjud voqelikdan kelib chiqib, Markaziy Osiyoda iqtisodiy hamkorlikning zamonaviy modellaridan foydalanish, yangi o'sish nuqtalari va taraqqiyotning ilg'or yo'nalishlarini belgilab olish, hududlararo savdo-sotiqni yanada kengaytirish borasida tizimli

chora-tadbirlarni ishlab chiqishimiz va ilgari surishimiz kerak bo'ladi.

Shuningdek, mamlakatlarimiz o'rtasida erkin savdo tartibiga to'liq o'tish maqsadida mavjud to'siqlarni bartaraf etish, hududlar o'rtasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish, ishlab chiqarish kooperatsiyasini jadal rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratishimiz zarur. Bu esa tom ma'noda ulkan salohiyatga ega bo'lgan yirik mintaqaviy bozorni shakllantirish, mamlakatlarimizning ishbilarmon doiralari va yetakchi xorijiy investorlar uchun aniq loyihalarni amalga oshirish imkonini yaratadi.

Biroq mamlakatlarimizning savdo-iqtisodiy hamkorlik salohiyati to'liq ishga solingani yo'q. Shu bois o'zaro savdoni rag'batlantirishning yangi shakl va mexanizmlarini faol joriy qilish lozim. Mintaqaning investitsiya sohasidagi umumiy jozibadorligini oshirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishga harakat qilishimiz zarur.

Tovar aylanmasi hajmini oshirish maqsadida har qanday istisno va cheklovlardan xoli bo'lgan to'laqonli erkin savdo zonalarini tezroq shakllantirish kerak. O'zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan amaliy hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun bu borada barcha zarur shart-sharoitlarni yaratmoqda.

Avvalo, bunda mintaqada barqaror savdo-logistika zanjirlarini shakllantirish, chegaraoldi hududlarida savdo va kooperatsiya markazlarini ochish va ularni kengaytirish, o'zaro savdo bo'yicha qonunchilikni uyg'unlashtirish va bu boradagi to'siqlarga barham berish talab etiladi.

Shu bilan birga, bojxona ma'murchiligi, sanitar va fitosanitar nazorati, tovarlarni sertifikatlash bo'yicha yagona elektron platforma yaratish hamda mintaqaviy elektron savdo maydonini ishga tushirishni ko'zda tutadigan kompleks mintaqaviy chora-tadbirlarni amalga oshirishni jadallashtirish zarur.

O'ylaymanki, **Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy kengashini** tashkil etish hamda **tashqi savdo faoliyati bo'yicha mas'ul bo'lgan vazirlarning uchrashuvlari** savdo-iqtisodiy masalalar bo'yicha amaliy hamkorligimizni kengaytirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, Sanoat kooperatsiyasi, innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish orqali mustahkam qo'shimcha qiymat zanjirlarini yaratish bo'yicha ishlarni jadallashtirish choralarini ko'ramiz.

Biznes doiralari ham mintaqa mamlakatlari iqtisodiyotning raqobat nuqtayi nazaridan ustunliklari va bir-birini to'ldirib turishi tamoyili asosida ishlab chiqarish quvvatlarini yaratishdan manfaatdor.

Shu bois biz sanoatni rivojlantirish milliy dasturlari asosida Markaziy Osiyoda mahalliyashtirish va import o'rnini bosish makonini shakllantirish bo'yicha umumiy yondashuvlarni ishlab chiqdik.

Sohada muvaffaqiyatli sheriklik bo'yicha muayyan tajribalar to'plandi. Yengil avtomobillar, maishiy texnika, to'qimachilik mahsulotlari va oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish hamda Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, shuningdek, Ozarbayjon bilan chegaraoldi hududlari kooperatsiyasi muvaffaqiyatli yo'lga qo'yilgani bunga dalildir.

Mineral o'g'itlar, polimerlar, metall xomashyosidan tayyor buyumlar, to'qimachilik va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi texnikalarini yig'ish o'zaro hamkorlikni yanada chuqurlashtirish va yirik ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirish borasida istiqbolli yo'nalishlarga aylanishi mumkin.

Bu borada O'zbekiston va Qozog'iston tomonidan tashkil etilgan Markaziy Osiyo sanoat kooperatsiyasi xalqaro markazi oldida ulkan vazifalar turibdi. Zotan, ushbu markaz xalqaro qiymat zanjirini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratish, chegara hududidagi ishlab chiqarish jarayonini muvofiqlashtirish, modernizatsiya qilish va sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirish, ikki davlat o'rtasida

sanoat kooperatsiyasini kengaytirish va import o'rnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish kabi masalalar bilan shug'ullanmoqda.

Bizning birgalikdagi sa'y-harakatlarimiz tizimli tus olishi uchun **Markaziy Osiyo davlatlarining uzoq istiqbolga mo'ljallangan sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish strategiyasini** ishlab chiqish va amalga oshirish lozim.

Shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratish zarur. Chunki aynan raqamlashtirish orqali mahsulotning tannarxini kamaytirish va raqobatbardoshligini ta'minlash mumkin.

Xususan, texnologik va IT parklar o'rtasidagi hamkorlikni qo'llab-quvvatlash, qo'shma innovatsion dasturlarni ishlab chiqish va yosh tadbirkorlarning startap loyihalarini ko'paytirishni ham doimo qo'llab-quvvatlash istiqbolli hisoblanadi.

Birgina misol: bugungi kunda **"INNOPROM. Markaziy Osiyo" xalqaro sanoat ko'rgazmasi** xalqaro hamkorlar bilan biznes sohasidagi muloqotlarni jadal rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

2021-yilda Toshkent shahrida asos solingan ushbu ko'rgazma yaqinda to'rtinchi bor muvaffaqiyatli o'tkazildi. Unda 27 ta davlatdan 10 mingdan ortiq ishtirokchi va biznes sohasi vakillari ishtirok etgani va 230 ta xorijiy kompaniya o'z mahsulotlarini namoyish qilgani e'tiborga loyiq. Umuman, keyingi ikki yilda mazkur ko'rgazma doirasida jami qiymati 14 milliard AQSH dollaridan ortiq bo'lgan investitsiya bitimlari va savdo shartnomalari imzolandi.

Albatta bu juda yaxshi ko'rsatkich. Lekin mazkur yo'nalishda hali oxirigacha ishga solinmagan qo'shimcha imkoniyatlar borligini ham nazardan soqit qilolmaymiz.

Uchinchidan, transport sohasidagi o'zaro bog'liqlikni yanada rivojlantirish va mustahkamlash asosiy vazifalarimiz sirasiga kiradi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari jug'rofiy jihatdan asosiy tashqi bozorlardan ancha uzoqda joylashgani bois yuklarni tashish uchun ketadigan xarajatlar ulushi tovarlar yakuniy qiymatining 50 foizigacha yetmoqda. Holbuki, dunyoda bu boradagi o'rtacha ko'rsatkich 11 foizdan oshmaydi. Demak, bizning iqtisodiyotimiz transport xarajatlari uchun rivojlangan davlatlarga nisbatan 2–3 marta ko'p mablag' sarflashga majbur bo'lmoqda.

Shuningdek, dunyodagi eng yirik xalqaro bozorlarni o'zaro bog'lab turgan Markaziy Osiyoning muhim geostrategik joylashuvini hisobga olsak, mintaqamizning xalqaro transport yo'laklari tizimiga integratsiyalashuvini jadallashtirish borasidagi sa'y-harakatlarimizni birlashtirishning ahamiyati beqiyos ekanligi yaqqol ayon bo'ladi.

Biz shu maqsadda mamlakatlarimizning tranzit salohiyatini yanada rivojlantirish va milliy iqtisodiyotlar tarkibida transport sohasi ulushini oshirish, transport infratuzilmasiga zamonaviy texnologiyalar va xorijiy investitsiyalarni jalb etish, yangi istiqbolli transport yo'laklarini shakllantirish borasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqdik.

Ishonchim komil, mamlakatlarimizdagi rivojlangan va bir-biriga integratsiyalashgan transport tizimlari mintaqamizni Yevroosiyo qit'asining muhim transport xabiga aylantirish imkonini beradi.

Shu nuqtayi nazardan, biz mavjud transport yo'laklari va infratuzilmalari, jumladan, Kaspiy dengizi portlari hamda yirik transchegaraviy logistika markazlaridan to'liq foydalanish tarafdorimiz.

Kezi kelganda mintaqaning tranzit-logistika salohiyatidan yanada samarali foydalanish va transport infratuzilmasini jadal rivojlantirish maqsadida dastlabki amaliy qadamlar qo'yilganini alohida ta'kidlash joiz.

Jumladan, so'nggi paytlarda turkmanistonlik do'stlarimiz Amudaryo ustidan Turkmanobod — Forob yo'nalishida poyezd va avtomobillar o'tadigan yangi ko'prikn barpo etishdi. O'zbekiston — Turkmaniston — Eron — Ummon transport-tranzit yo'nalishining muhim tarmog'i

hisoblangan ushbu ko'prik mintaqa davlatlarining tashqi bozorlarga chiqishiga yordam beradi.

2023-yili Dushanbe shahrida imzolangan Markaziy Osiyoda quruqlik transportining o'zaro bog'liqligini mustahkamlash to'g'risidagi hujjat hamda mintaqa davlatlari transport vazirlarining birinchi konsultativ uchrashuvidagi kelishuvlar ham sohadagi amaliy hamkorligimizni yanada chuqurlashtirish va yangi bosqichga olib chiqishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Yaqinda "Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston" temiryo'li qurilishi bo'yicha strategik loyihani amalga oshirish to'g'risidagi bitimni imzoladik.

Mazkur temiryo'l Qashg'ar – Torugart – Makmal – Jalolobod – Andijon yo'nalishi bo'ylab o'tadi va Xitoyni mintaqamiz bilan bog'lovchi eng qisqa quruqlik yo'liga aylanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, uning barpo etilishi ortib borayotgan yuk tashish hajmiga samarali xizmat ko'rsatish, ularni tashish vaqti va narxini sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi. Mutaxassislarining qayd etishicha, yuk tashish yillik hajmi 15 million tonnagacha yetishi mumkin, tovarlarni yakuniy iste'molchilarga yetkazish muddati esa 7 kunga qisqaradi.

Loyihaning amalga oshirilishi oqibatida vujudga keladigan iqtisodiy ta'sirni barcha mamlakatlar his qiladi. Avvalo, yangi korxonalar va o'n minglab ish o'rinlari yaratiladi, o'zaro tovar ayirboshlash hajmi va sanoat kooperatsiyasi ko'lami, investitsiyaviy jozibadorlik o'sadi va asosiy natija — fuqarolarimizning turmush darajasi oshadi.

Kelgusida ushbu yo'l bizning mamlakatlarimizga istiqbolli Transafg'on yo'lagi orqali Janubiy Osiyo va Yaqin Sharq davlatlarining keng bozorlariga chiqish imkonini beradi.

Shu bilan birga, mamlakatlarimizning transport sohasidagi salohiyatini yanada oshirish maqsadida biznes uchun qulay bo'lgan oraliq

tariflarni qo'llagan holda jahon bozorlariga chiqish uchun samarali transport koridorlarini rivojlantirish bo'yicha aniq mexanizmlarni shakllantirish lozim. Qolaversa, transport xizmatlari bozorini libe-rallashtirish va ruxsat etishga doir tartib-taomillarni optimallashtirish dasturini ishlab chiqish, xalqaro transport tashuvlarining integratsiyalashgan raqamli platformasini yaratish zarur.

Bunday mintaqaviy hamkorlik jarayoniga Ozarbayjonni ham faol jalb etish orqali ko'zlangan maqsadlarga tezroq erishish mumkin.

To'rtinchidan, afsuski, mintaqada energetika infratuzilmalarini rivojlantirish sur'atlari sanoatlashtirish va urbanizatsiya jarayonlari hamda demografik o'sishdan orqada qolmoqda. Bu esa mamlakatlarimizning uzoq muddatli barqaror rivojlanish yo'lidagi jiddiy to'siqdir.

Shu bois biz tegishli vazirliklar va milliy kompaniyalarimizning geologiya-qidiruv ishlarini olib borish va istiqbolli konlarni o'zlashtirish, energiya resurslarini saqlash va yetkazib berish bo'yicha mavjud infratuzilmalarni kengaytirish va zamonaviy infratuzilmalarni yaratish sohasidagi hamkorligini yanada kuchaytirish tarafdorimiz.

Bundan tashqari, elektr energiyasini yetkazib berish uchun yangi magistral tarmoqlarni barpo etish ham hamkorligimizning muhim yo'nalishiga aylanishi lozim.

Markaziy Osiyo mintaqasi gidroenergetika sohasini rivojlantirish borasida juda katta salohiyatga ega. Biz hozirda Zarafshon daryosining Tojikiston hududidan oqib o'tuvchi qismida yangi GES qurish loyihasini ushbu mamlakat bilan birgalikda ishlab chiqmoqdamiz, Qirg'izistonda Qambarota GES-1 loyihasini amalga oshirish masalasida ham faol ish olib boryapmiz.

Shu bilan birga, energiya manbalarini diversifikatsiya qilish, muqobil energetika sohasiga investitsiya va texnologiyalarni keng jalb etish va

“yashil vodorod” ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali mintaqamizning barqaror rivojini ta'minlash mumkin.

Demak, “yashil energetika” va energiya sohasiga samarador texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor qaratib, bu borada o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish bo'yicha sa'y-harakatlarni davom ettirishimiz zarur.

Beshinchidan, bugun dunyo aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash hamda oziq-ovqat xavfsizligiga erishish bilan bog'liq muammolar tobora chuqurlashib bormoqda. Jahonning muayyan bir mintaqalarida asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining narxi oshishi va ularning taqchilligi kuzatilmoqda.

Bunday sharoitda mintaqamizda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish va ularning sifatini nazorat qilish, jumladan, xalqaro bozorlarga yetkazib berish, oziq-ovqat xavfsizligini monitoring qilish tizimini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu masalalar mamlakatlarimiz qishloq xo'jaligi vazirlarining uchrashuvlari kun tartibiga ham kiritilgan.

Ushbu muammolarning global ahamiyatini inobatga olib, Samarqand shahrida BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti shafeligida dunyoning 30 dan ortiq mamlakatidan kelgan vazir va ekspertlar ishtirokida o'tkazilgan xalqaro anjumanda mintaqamizning bu boradagi zaif nuqtalari yana bir bor qayd etib o'tildi va tegishli tavsiyalar ishlab chiqildi.

Markaziy Osiyoda agrar sektorning ilmiy-texnologik jihatdan yetarlicha rivojlanmagani, suv resurslarining taqchilligi, qo'shimcha qiymat yaratishning uzoq va samarasiz zanjirlari, iqlim inqirozi va logistikadagi uzilishlar hamda sog'lom ovqatlanish bilan bog'liq muammolar shular jumlasidandir.

Bu sohada sa'y-harakatlarimizni birlashtirish va **BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti ko'magida mintaqaviy Sheriklik**

dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur, deb hisoblaymiz. Zero, mamlakatlarimiz mintaqaning ichki bozorini oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'liq ta'minlash barobarida, xorijga ham eksport qilish imkoniyatiga ega.

Oltinchidan, iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq tahdidlarga qarshi kurashish, mintaqadagi ekologik muammolarni bartaraf etish, ayniqsa, Orol dengizining halokati oqibatlarini yumshatish kabi muhim hayotiy masalalar bugun mintaqaning barqaror rivojlanishini ta'minlashning eng muhim omili hisoblanadi.

Markaziy Osiyo xalqlarining farovonligi va butun mintaqaning iqtisodiy taraqqiyoti azaldan uning suv resurslari bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liq bo'lgan.

Taassufki, iqlim o'zgarishi oqibatida suv manbalari yil sayin kamayib bormoqda. Transchegaraviy daryolarni boshqarish borasidagi vaziyat ham jiddiy. Oqibatda mintaqamizda suv tanqisligi muammosi yanada chuqurlashmoqda. Bunday vaziyatda faqatgina birgalikda harakat qilish orqali ushbu muhim masalaga oqilona yechim topish mumkin.

So'nggi yillarda Orol dengizining halokati bilan bog'liq eng o'tkir ekologik muammolarni hal etish, uning oqibatlarini yumshatish, mintaqada suv resurslaridan adolatli va oqilona foydalanish bo'yicha milliy, mintaqaviy va global miqyosdagi sa'y-harakatlarimiz yangi bosqichga ko'tarildi.

Bugungi kunda mintaqada davlatlarining milliy va mintaqaviy taraqqiyot strategiyalari hamda rivojlanish dasturlarida suv bilan bog'liq masalalarga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Oziq-ovqat va energetika xavfsizligi, iqlim barqarorligi va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash, transchegaraviy suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanish masalalarini hal etishda kompleks va tarmoqlararo vondashuvlarga tayanilmoqda.

Biz Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasining faoliyatini ham tubdan qayta ko'rib chiqdik. Ushbu tashkilot Markaziy Osiyo mamlakatlari-ning global miqyosdagi muammolardan biriga qarshi kurashish bo'yicha ko'p tomonlama hamkorligining noyob tajribasini o'zida aks ettiradi.

Mazkur jamg'arma tom ma'noda, suv va ekologiya sohasida, jumladan, suv resurslaridan foydalanishni tartibga solish borasida tizimli ishlarni amalga oshirish bo'yicha mintaqaviy hamkorlikning eng muhim platformasiga aylandi.

Shuningdek, mamlakatimiz tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining **“Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish to'g'risida”**gi maxsus rezolutsiyasi qabul qilinishi hamda **Orolbo'yi mintaqasi uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama sheriklik trust fondi tuzilishi** mintaqaning og'ir ekologik hududda yashayotgan aholisiga xalqaro hamjamiyat tomonidan amaliy yordam ko'rsatilishida tayanch platformasi vazifasini o'taydi.

O'zbekiston tashabbusi bilan qabul qilingan BMT Bosh Assambleyasining **“Markaziy Osiyo ekologik muammolar qarshisida: barqaror rivojlanish va farovonlik yo'lida mintaqaviy birdamlikni mustahkamlash”** rezolutsiyasi mazkur sohadagi hamkorligimizni yanada chuqurlashtirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu hujjatda quyidagi yo'nalishlarda mintaqaviy va global hamkorlikni mustahkamlashga ustuvor ahamiyat qaratilgan:

- Markaziy Osiyoda, jumladan, Orolbo'yi mintaqasida ekologik muammolarni hal etish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ko'maklashish va iqlim o'zgarishiga moslashish choralarini ko'rish hamda cho'llanish, qurg'oqchilik va qum-chang bo'ronlariga qarshi kurashishda yangi, innovatsion texnologiyalar hamda ilg'or tajribalarni keng qo'llash;

- tog' ekotizimlarini himoya qilish va muzliklarni saqlash bo'yicha sa'y-harakatlarni faollashtirish, barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirish, suv resurslaridan oqilona foydalanish;

- chiqindilarni qayta ishlash, energiya samaradorligini oshirish, turizm sohasini, "aqlii shaharlar" va barqaror transportni rivojlantirish, mintaqa davlatlarining ilmiy-texnik salohiyatini mustahkamlash.

Bunda, shuningdek, mintaqaga yangi bilimlar va innovatsion texnologiyalarni jalb qilish, "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini kompleks joriy etish, cho'llanishning oldini olish, ekologik migratsiya va boshqa amaliy muammolarni hal etish borasida milliy, mintaqaviy va global darajada tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan.

Shu bilan birga, Afg'onistonda Qo'shtepa kanalining ishga tushirilishi Markaziy Osiyodagi ushbu mamlakat vakillarini suv resurslaridan birgalikda foydalanish bo'yicha mintaqaviy muloqotga jalb etishning dolzarbligini oshiradi.

O'z navbatida, **Iqlim o'zgarishlariga moslashish masalalari bo'yicha mintaqaviy strategiyani** qabul qilish orqali iqlim barqarorligini va "yashil taraqqiyot"ni ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlarimizni birlashtirishimiz mumkin. Mintaqaning iqlimga oid yagona kun tartibini shakllantirish va birgalikda ta'sirchan chora-tadbirlarni qabul qilish uchun ekologiya vazirlari darajasida **"Iqlim bo'yicha Markaziy Osiyo muloqoti"** ko'p tomonlama platformasini ta'sis etish va diplomatiyani yo'lga qo'yish choralari ko'rilmoqda.

O'rni kelganda bir haqiqatni ham ochiq aytish kerak, afsuski, biz hozircha "yashil taraqqiyot" masalalarida jahonning yetakchi mintaqalaridan sezilarli darajada ortda qolyapmiz. Shuni inobatga olib, O'zbekiston tashabbusi bilan **"Markaziy Osiyo uchun yashil kun tartibi"** mintaqaviy dasturi qabul qilindi. Unda, xususan:

- iqtisodiyotni is gazidan xoli qilish bo'yicha xalqaro majburiyatlarni bajarish;

- muqobil energetikani, eng avvalo, suv, quyosh va shamoldan elektr olishni jadal rivojlantirish, elektr energiyasini o'zaro yetkazib berishni tashkil etish;

- suvni tejaydigan va ekologik toza texnologiyalarni keng joriy qilish hamda suv resurslaridan oqilona foydalanish kabi masalalarga ustuvor e'tibor qaratmoqdamiz.

Yettinchidan, mintaqamiz bo'ylab amalga oshiriladigan turistik sayohatlar xalqlarimizni yanada yaqinlashtirishda muhim omil hisoblanadi.

Shuning uchun sayyohlik yo'nalishlarining barcha qirralarini qamrab olgan **“Bir sayohat — butun mintaqa”** qo'shma dasturini ro'yobga chiqarish, maxsus turizm marshrutlari va mahsulotlarini ishlab chiqish, umumiy piar-kampaniyalarni o'tkazish orqali mintaqadagi ichki va tashqi turizmni faol rag'batlantirib borishga alohida e'tibor qaratamiz.

Albatta, biz qisqa vaqt ichida bu borada ancha tajriba orttirdik, lekin hali foydalanilmayotgan imkoniyatlarimiz ham anchagina.

Markaziy Osiyo xalqlarining umumiy tarixi, urf-odatlarini va madaniy qadriyatlariga asoslangan madaniy-gumanitar hamkorlikni yanada rivojlantirish yaxshi natija berishi mumkin.

Shu bois ushbu makonda **madaniyat, san'at va kino sohasida festivallar, “do'stlik kechalari”, yoshlar forumlari, ijodkor ziyolilarning uchrashuvlari, ilmiy simpozium va sport musobaqalarini** o'tkazish ezgu an'anaga aylanishi lozim.

Bunday chora-tadbirlarni tizimli ravishda yo'lga qo'yish uchun **Markaziy Osiyo mamlakatlarining madaniy-gumanitar hamkorligini chuqurlashtirish bo'yicha Harakatlar rejasini** qabul qilish va hayotga tatbiq etish kerak bo'ladi.

Ayniqsa, mintaqamizning noyob madaniy-tarixiy va ma'naviy merosini xalqaro maydonda keng targ'ib etishda ommaviy axborot vositalari va nodavlat tashkilotlar, zamonaviy axborot-kommunikatsiya

texnologiyalarining imkoniyatlaridan unumli foydalanish zarur. **“Markaziy Osiyo tarixi va madaniyati: yagona o'tmish va umumiy kelajak” xalqaro media platformasini yaratish** bu yo'nalishda amaliy qadam bo'lishi mumkin.

Biz faol madaniy-gumanitar muloqotni davom ettirish, madaniyat, ta'lim va sayyohlik sohasidagi almashuvlarni **“xalq diplomatiyasi”**ning eng muhim vositasi sifatida rivojlantirish tarafdorimiz. Zero, har qanday rasmiyatchiliklardan xoli bo'lgan ochiq va samimiy muloqotlar — mintaqada do'stlik, hamjihatlik va barqarorlik muhitini mustahkamlashning eng ishonchli vositasi hisoblanadi.

Sakkizinchidan, aholisining deyarli yarmi yosh avlod vakillari bo'lgan Markaziy Osiyo uchun yoshlar va ularning salohiyatini ro'yobga chiqarish masalasi ayniqsa dolzarb ahamiyatga ega.

Hech shubhasiz, Markaziy Osiyoning kelajagi — yoshlar qo'lida. Toshkent va Dushanbe shaharlarida bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo yoshlar forumlarida qo'shni davlatlarda yashayotgan navqiron avlod vakillarining qarash va intilishlari o'xshashligiga, ularning ulkan intellektual salohiyatga ega ekanligiga yana bir bor guvoh bo'ldik. Ularning ilg'or tashabbuslari, ijodiy yondashuvlari va startap loyihalarini bundan buyon ham har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim.

Shu bois yaqinda mintaqamiz davlatlari tomonidan **Yoshlarga oid siyosatning umumiy yo'nalishlari haqidagi bitim** tayyorlandi. Ushbu hujjat sohadagi hamkorligimizni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilishi shubhasiz.

Endilikda yoshlarning bilim va malakasini rivojlantirish borasidagi sa'y-harakatlarimizni birlashtirish, ularni yetuk malakali kadrlar qilib tayyorlash va bandligini ta'minlash maqsadida tegishli xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda **Markaziy Osiyo yoshlarining imkoniyatlarini kengaytirish va salohiyatini ro'yobga chiqarish markazini** tashkil etish lozim.

Shuningdek, mamlakatlarimizdagi iste'dodli yoshlar uchun ilm-fan va ta'lim sohasida Markaziy Osiyo mintaqasidan yetishib chiqqan **Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abdurahmon Jomiy, Maxtumquli Firog'iy, Chingiz Aytmatov** kabi buyuk mutafakkirlar, **alloma va faylasuflar nomidagi mintaqaviy grant va stipendiyalar ta'sis etishning** ham ahamiyati katta.

Hozirgi notinch zamonda yosh avlodni turli ekstremistik g'oyalar ta'siridan himoya qilish maqsadida **yoshlarning radikallashuviga qarshi kurashish sohasidagi hamkorlik bo'yicha mintaqaviy kompleks dastur ishlab chiqishga ham jiddiy ahamiyat qaratishimiz** zarur. Chunki **ekstremistik g'oyalarga qarshi qat'iy kurashish** mintaqamizda barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlashning muhim sharti sanaladi. Ko'pincha hayotga endigina qadam qo'yayotgan yoshlar turli zararli oqimlarning tuzog'iga tushib qolayotgani, albatta, barchamizni hushyor torttiradi.

Bu borada O'zbekiston tashabbusi bilan qabul qilingan BMT Bosh Assambleyasining **"Ma'rifat va diniy bag'rikenglik"** maxsus **rezolutsiyasida** belgilangan vazifalar yoshlarimiz o'rtasida radikal qarashlar tarqalishining oldini olish, to'g'ri yo'ldan adashganlarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va ularni sog'lom hayotga qaytarishga xizmat qiladi. Zero, dunyo tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, birinchi galda yoshlarni ilm-ma'rifatga o'rgatish, ularga **islom dinining insonparvarlik mohiyati**, islom madaniyatining asl qadriyatlarini singdirish ekstremizmga qarshi kurashishning eng samarali vositasi hisoblanadi.

Ayni paytda biz Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning ixtisoslashgan tuzilmalari bilan bu borada samarali hamkorlik o'rnatish, boshqa mintaqalarning ilg'or tajriba va yutuqlarini o'rganishni ham zarur deb bilamiz. Shuning uchun mazkur xalqaro tuzilma huzurida Markaziy Osiyo yoshlarini rivojlantirishga ko'maklashish bo'yicha ishc

guruh tashkil etish taklifini bildirdik. Uning doirasida **“Markaziy Osiyo yoshlarining kun tartibi – 2030” dasturini** ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

To‘qqizinchidan, mintaqaviy xavfsizlik eng avvalo, bizning sherikligimiz qay darajada samarali yo‘lga qo‘yilganiga bog‘liq.

Markaziy Osiyoda umumiy tahdid va xavf-xatarlarning oldini olish bo‘yicha jamoaviy qarorlar ishlab chiqish uchun biz doimiy ravishda o‘zaro fikr almashib turishimiz lozim.

Ayniqsa, ekstremizm va terrorizm, uyushgan jinoyatchilik va narkotrafik kabi an‘anaviy tahdidlarga qarshi kurashda amaliy hamkorlikni bundan buyon ham kuchaytirib borishimiz zarur.

Bunday tahdidlarga qarshi hamkorlikda kurashish borasida mamlakatlarimiz katta tajribaga ega. Xususan, biz birinchi bo‘lib BMTning Global aksilterror strategiyasini mintaqalashtirdik va uni ro‘yobga chiqarishga doir **Qo‘shma harakatlar rejasini** qabul qildik. Uni amalga oshirish orqali terrorizmga qarshi kurashda umumiy tamoyillar va yondashuvlarga doir mintaqaviy konsensusni mustahkamlash, ikki va ko‘p tomonlama hamkorlikning ta‘sirchan mexanizmlarini yaratish imkoniga ega bo‘ldik.

Mintaqa mamlakatlarida ham terrorizmga qarshi kurash bo‘yicha milliy tizimlar shakllantirilib, BMT tavsiyalariga to‘liq mos keladigan harakatlar strategiyalari ishlab chiqildi. Shu asnoda Markaziy Osiyo davlatlari uchun yanada samaraliroq muloqotga kirishish, o‘zaro tajriba va muhim ma‘lumotlarni almashish, aksilterror harakatlarning salohiyatini oshirish imkoniyati paydo bo‘ldi.

Shuningdek, O‘zbekiston tashabbusi bilan 2024-yil 4-iyun kuni BMT Bosh Assambleyasi tomonidan **“Markaziy Osiyo davlatlarining giyohvandlik bilan bog‘liq muammolarni samarali hal etish va bartaraf etishda yagona front bo‘lib hamkorlik qilishga tayyorligi” to‘g‘risidagi rezolutsiya** qabul qilindi.

Bularning barchasi mintaqada narkotrafik va giyohvandlik hamda giyohvandlik vositalari noqonuniy aylanmasiga qarshi birgalikdagi kurash borasida hamkorlik bo'yicha mavjud kelishuvlarda belgilangan vazifalarning samarali amalga oshirilishi Markaziy Osiyoda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga xizmat qilmoqda.

Natijada bugun ko'plab nufuzli xalqaro reytinglarda **Markaziy Osiyo — dunyoning eng xavfsiz mintaqalari qatoridan o'rin egallamoqda.**

E'tiborli jihati, bunday chora-tadbirlar nafaqat Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan, balki boshqa xalqaro tuzilmalar, jumladan, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti kabi mintaqaviy tashkilotlar doirasida ham izchil amalga oshirilmoqda.

So'nggi yillarda internet jahon axborot tarmog'ida tobora ko'lamini ortib borayotgan noqonuniy faoliyat bilan bog'liq yangi xavf-xatarlarga ham alohida e'tibor qaratishimiz talab etiladi. Zero, bugun ushbu tahdidlar yo'lida hech qanday chegara yo'q — ular mobil telefonlar orqali to'siqsiz kirib kelmoqda.

Bunday sharoitda Markaziy Osiyo davlatlarining xavfsizlik kengashlari kotiblari tomonidan muvofiqlashtiriladigan maslahat yig'ilishlarini muntazam o'tkazib borish lozim.

Shuningdek, **Markaziy Osiyo mamlakatlari chegaralarini himoya qilish va mustahkamlash bo'yicha Davlatlararo dasturni** ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Xavfsizlikka nisbatan an'anaviy va yangi xavf-xatarlarga qarshi kurashish borasidagi ssenariylarni amalda qo'llash bo'yicha qo'shma harbiy-o'quv mashqlarini davom ettirish ham muhimdir.

Favqulodda vaziyatlarni prognoz qilish, ularning oldini olish, barvaqt ogohlantirish va ularga birgalikda qarshi turish borasida mintaqaviy tizimni shakllantirishni ham hayotning o'zi taqozo etmoqda. Shuning

uchun mintaqamizdagi favqulodda vaziyatlar tashkilotlari rahbarlarining maslahatlashuv uchrashuvlari vositasida umumiy sa'y-harakatlarimizni yanada mustahkamlash zarur.

Keyingi vaqtlarda qabul qilingan Markaziy Osiyo davlatlarining ko'p tomonlama formatlar doirasidagi o'zaro hamkorligi konsepsiyasi, 2022–2024-yillarda mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha “yo'l xaritasi” hamda 2022–2025-yillarda Markaziy Osiyoda salomatlik va farovonlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha “yo'l xaritasi”da ushbu yo'nalishlarda ham mintaqaviy hamkorlikni yanada chuqurlashtirish ko'zda tutilgan.

Shuningdek, biz Markaziy Osiyoda keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini chuqurlashtirish, mintaqamiz hududida fuqarolarning erkin harakati hamda tovarlar, xizmatlar va kapitalning sun'iy cheklovlarsiz aylanishiga bosqichma-bosqich erishish, umumiy sayyohlik makonini shakllantirish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratmoqdamiz.

Biz bunday ezgu maqsadlarga erishish yo'lida qo'shni va yondosh mintaqalar hamda dunyo hamjamiyati bilan hamkorlikni kengaytirish uchun barcha choralarni ishga solamiz.

Bizga tinch va barqaror, o'zaro manfaatli sheriklik uchun ochiq Afg'oniston kerak

Bugungi kunda Afg'onistondagi vaziyat Markaziy Osiyoda tinchlik va xavfsizlikka bevosita ta'sir ko'rsatadigan eng asosiy omillardan biriga aylangani ayni haqiqat. Bu yurtida tinchlik nafaqat mintaqamiz, balki global miqyosda ham xavfsizlik va barqaror taraqqiyotni ta'minlashning zarur shartidir.

Binobarin, afg'on diyorida osoyishtalik o'rnatilishidan nafaqat Markaziy Osiyo davlatlari, balki butun dunyo birday manfaatdordir.

Bugun **Afg'oniston** hayotida muhim voqelik yuz berdi — yangi kuchlar hokimiyat tepasiga keldi. Ushbu omil afg'on masalasini hal etishda o'ziga xos yondashuvlarni talab etmoqda.

Ochiq aytish kerak, Afg'onistonda bir necha o'n yillar davomida tizimli muammolar to'planib qolganki, dunyo hamjamiyati ularni hal etish yo'lida birlashishi zarur. Bu jafokash yurtda tinchlik o'rnatish va uning ijtimoiy-iqtisodiy tiklanishiga ko'maklashish nufuzli xalqaro tashkilotlar, avvalambor, BMT, MDH, SHHT, IHT, TDTning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanishi juda muhimdir.

Nazarimizda, bu borada bir qator muhim yondashuv va tamoyillarga tayanish lozim bo'ladi.

Birinchidan, Afg'oniston Markaziy Osiyoning ajralmas va uzviy qismi ekanligini, bu masalaga boshqacha qarash mumkin emasligini nazarda tutish zarur.

Shuningdek, Afg'onistonda uzoq muddatli tinchlikni ta'minlash va uning ijtimoiy-iqtisodiy tiklanishiga ko'maklashish maqsadida global va mintaqaviy darajada yaqindan hamkorlikni izchil davom ettirish maqsadga muvofiqdir.

Xavfsizlikka tahdidlarni "o'ziniki" va "o'zgalarniki" sifatida toifalarga ajratishdan voz kechib, "yaxlit xavfsizlik" tamoyiliga amalda rioya qilish hozirgi davr taqozosidir.

Mohiyatan olib qaraganda, bugun Afg'onistondagi yangi hokimiyat yurtda vaziyatni barqarorlashtirish, afg'on davlatchiligini tiklash, jamiyatni yagona maqsad yo'lida jipslashtirish va uning xalqaro hamjamiyat bilan aloqalarini rivojlantirish va boshqa ko'plab jarayonlarni o'z ichiga olgan murakkab yo'lning boshida turibdi.

Afsuski, keyingi vaqtlarda bu mamlakatning muammolari va afg'on xalqining fojiasi dunyoda ikkinchi darajali masalaga aylanib qolmoqda. So'nggi vaqtlarda ushbu yo'nalish bo'yicha xalqaro miqyosda amalga oshirilgan sa'y-harakatlar hali kutilgan natijasini bergani yo'q.

Mamlakatda keng ko'lamli gumanitar inqiroz yuz berishi va qochoqlar oqimining o'sishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida kelgusida ham u yerdagi ijtimoiy muammolarni hal etishda doimiy yordam berish kerak bo'ladi.

Ikkinchidan, o'tmishda bu yurtga nisbatan sodir etilgan xatolarni takrorlamaslik, bundan buyon Afg'onistonni o'z muammolari bilan yolg'iz qoldirmaslik shart.

Ayniqsa, uni yakkalab qo'yish va "nazardan qolgan" mamlakatga aylantirishga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Chunki Afg'onistonni inkor qilish, unga o'gay ko'z bilan qarash va turli sanksiyalar qo'llash oqibatida shundog'am qiynalib yashayotgan oddiy xalqning ahvoli battar og'irlashishi mumkin.

Afg'onistonning bugungi hokimiyati bilan doimiy ochiq va konstruktiv muloqot olib borish, ushbu mamlakatni mintaqadagi iqtisodiy jarayonlarga integratsiya qilish g'oyatda muhim. **Bunday hamkorlik, avvalambor, Markaziy Osiyo mamlakatlarining manfaatlarini umumiy tushunishdan kelib chiqishi va o'zaro kelishilgan holda yo'lga qo'yilishi zarur.**

Shu maqsadda biz mintaqa mamlakatlarining Afg'oniston bo'yicha maxsus vakillari darajasida Muloqot guruhi ishini yo'lga qo'ydik, "Markaziy Osiyo +" formatida turli darajalardagi maslahatlashuvlarni yangi bosqichga olib chiqdik. Shuningdek, biz Qatar hukumati va BMT Bosh kotibining tashabbusiga binoan Doha shahrida Afg'oniston masalasi bo'yicha o'tkazilgan maxsus vakillarning uchrashuvlari natijalarini ham ijobiy baholaymiz.

Biz Afg'onistonning yangi hokimiyatini tan olish jarayoniga kirishish uchun sharoit yaratish maqsadida ushbu mamlakat va uning atrofidagi vaziyatning rivojlanishiga nisbatan umumiy strategik yondashuvlarni ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratmoqdamiz.

Shu nuqtayi nazardan, BMT Afg'onistonga ko'maklashishga mo'ljallangan xalqaro sa'y-harakatlarni safarbar qilish va muvofiq-lashtirish borasida yanada ko'proq mas'uliyatni zimmasiga olishi lozim, deb hisoblaymiz.

Uchinchidan, Afg'onistondagi vaziyatga faqatgina xavfsizlikni ta'minlash nuqtayi nazaridan emas, balki afg'on davlatchiligini xalqaro hamjamiyatning ajralmas qismi sifatida qayta tiklash, uning barqaror rivojlanishiga ko'maklashish kabi kompleks yondashuvlar asosida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Quvonarli jihati, bugungi kunda Afg'oniston xavfsizlikni ta'minlash borasida asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, muayyan ijobiy natijalarga erishmoqda.

Ayni damda xalqaro hamjamiyat Afg'onistonga tahdid va muammolar o'chog'i emas, balki mintaqada global dunyo uchun ulkan yangi imkoniyatlar maskani sifatida qarashi lozim.

Darhaqiqat, hozirgi kunda Afg'oniston bilan savdo aloqalarini faol rivojlantirish, uni Markaziy Osiyo mintaqasidagi iqtisodiy jarayonlarga jalb qilish, afg'on xalqiga gumanitar yordamni kengaytirish dolzarb ahamiyatga ega.

Biz afg'on xalqiga doimiy ravishda gumanitar yordam ko'rsatib kelyapmiz. O'zbek-afg'on chegarasini ochib, ushbu mamlakat uchun nihoyatda zarur bo'lgan birlamchi oziq-ovqat, neft mahsulotlari va elektr energiyasi yetkazib berishni qayta tikladik. Hatto, eng murakkab davrlarda ham bunday xayrli ishlarni izchil davom ettirdik. Chunki yordamning to'xtatilishi jafokash afg'on xalqining ahvolini yanada qiyinlashtiradi. Afg'onistonga mamlakatimiz orqali yuk tashish ham uzluksiz davom etmoqda.

To'rtinchidan, Afg'onistonda ijtimoiy-iqtisodiy va infratuzilma loyihalarini amalga oshirishni davom ettirish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston bundan keyin ham ushbu qo'shni mamlakatni iqtisodiy jihatdan tiklash, uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiluvchi loyihalarni amalga oshirish, jumladan, transport va energetika infratuzilmasini rivojlantirish hamda milliy kadrlar tayyorlash kabi jarayonlarda faol ishtirok etadi.

Afg'onistonga birgalikda yordam qo'lini cho'zish, mamlakatning mintaqaviy, global taraqqiyot jarayonlariga integratsiyalashuviga yordamlashish va shu orqali uning uzoq yillik inqirozdan chiqishi uchun qulay sharoit yaratishga hissa qo'shish bizning ma'naviy burchimizdir.

Asrlar davomida global miqyosdagi davlatlar va mintaqaviy kuch markazlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklarda o'ziga xos qalqon vazifasini o'tab kelgan **Afg'oniston endilikda Markaziy va Janubiy Osiyoni bog'lovchi ko'priikka aylanishdek yangi, sharafli missiyada o'zini namoyon etmog'i lozim.** Zero, Afg'onistonning ushbu mintaqaviy bog'liqlikni ta'minlashdagi o'rnini aslo inkor qilib bo'lmaydi.

Markaziy Osiyo xalqaro transport yo'laklari tizimini rivojlantirish, mintaqada yagona, ko'p tarmoqli, shuningdek, tashqaridan integratsiyalashgan transport maydonini shakllantirish, transport koridorlarini diversifikatsiya qilishda transafg'on temiryo'lini barpo etish hamda Afg'onistonning ichki transport yo'llarini tiklash ham hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Hozirgi vaqtda biz Shimol-Janub va Sharq-G'arb magistral yo'llarini rivojlantirish bo'yicha bir qator strategik loyihalarni faol amalga oshirmoqdamiz. **O'zbekiston — Qirg'iziston — Xitoy** temiryo'li qurilishini boshlash bo'yicha kelishuvga erishildi.

Shuningdek, Afg'oniston orqali Janubiy Osiyo va Yaqin Sharq bozorlariga olib chiqadigan Eron va Pokiston portlari tomon multimodal tashuvlar yo'lga qo'yilmoqda. **Hayraton — Mozori Sharif** temiryo'li liniyasini qayta tiklash ishlariga ham ko'maklashilmoqda.

Biz ushbu davlatda tinch va osoyishta hayotni tiklash uchun qo'limizdan kelgan barcha yordamni ko'rsatmoqdamiz. Shu maqsadda Termiz shahridagi xalqaro xab gumanitar ko'mak uchun taqdim etildi. Bu yerda tashkil etilgan maxsus ta'lim markazida afg'onistonlik fuqarolar o'z mamlakatida talab katta bo'lgan sohalar bo'yicha o'qitilmoqda.

Ishonamizki, mintaqaviy sheriklik ushbu mamlakatda tinchlik va barqarorlik o'rnatish hamda uni iqtisodiy jihatdan tiklashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ayni paytda Afg'onistondagi yangi hokimiyat qo'shma loyihalarni amalga oshirishda xavfsizlikni kafolatlashi lozim bo'ladi.

Shu bilan birga, xalqaro hamjamiyat afg'on xalqiga insonparvarlik yordami ko'rsatishni susaytirmasligi lozim. Biz xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlarni Afg'onistonning muzlatilgan aktivlarini u yerdagi o'tkir ijtimoiy muammolarni hal etishga yo'naltirishning maqbul mexanizmlarini ishlab chiqishga chaqiramiz.

Bugun Afg'oniston o'zining yangi tarixida muhim burilish davrini boshdan kechirmoqda. Bu davlatning tinch va barqaror, mintaqaviy hamkorlik jarayonlarida faol ishtirok etadigan, har qanday foydali sherikliklar uchun ochiq makonga aylanishi xalqaro hamjamiyatning ham, Markaziy Osiyo respublikalarining ham manfaatlariga to'la mos keladi.

Shu ma'noda, biz ilgari surayotgan takliflar Afg'oniston bilan ko'p qirrali va o'zaro foydali munosabatlarni rivojlantirish, uning iqtisodiy tiklanishiga yaqindan ko'maklashish, transport-tranzit salohiyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Afg'onistonda tinchlikni mustahkam qaror toptirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni dunyo miqyosida qo'llab-quvvatlash orqali uni umummintaqaviy jarayonlarga integratsiya qilish mumkinligini doimo yodda tutmog'imiz lozim.

Yangi O'zbekistonning o'zaro ishonch va hamkorlikka asoslangan iqtisodiy diplomatiyasi

Bugungi kunda hayotning o'zi, jahon miqyosida raqobat, qarama-qarshilik, turli manfaatlar to'qnashuvi, geosiyosiy va geoiqtisodiy ziddiyatlar tobora kuchayib borayotgan hozirgi davr tashqi va tashqi iqtisodiy siyosat yo'nalishidagi faoliyatimizni yangicha tashkil qilishni taqozo etmoqda.

Bunday g'oyat murakkab va tahlikali sharoitda bizning milliy manfaatlarimizni ta'minlashga qaratilgan kuchli, ochiq, pragmatik tashqi siyosat olib borishimiz, ko'zlagan maqsadlarimizga erishishimiz uchun yagona to'g'ri yo'l ekani namoyon bo'lmoqda.

Bunda biz, avvalo, **insoniyat to'qnash kelayotgan muammolarni barcha mamlakatlar va xalqlarning bugungi hayoti va kelajagi uchun mas'uliyatni chuqur his etgan holda, ochiq va konstruktiv muloqot asosida bartaraf etish tamoyili hamda shu asosda umumiy xavfsizlik va taraqqiyotga erishishga qaratilgan "Samarqand birdamlik tashabbusi"**ga tayanamiz.

Ushbu "Samarqand birdamlik tashabbusi", uning asosida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan **"Xalqaro sivilizatsiyalar o'rtasidagi muloqot kuni"**ni belgilash to'g'risidagi rezolutsiya:

- tarixda turli sivilizatsiyalar va madaniyatlar o'rtasidagi muloqot, o'zaro hurmat va manfaatli hamkorlik, bag'rikenglik va birdamlik tamoyillariga asoslangan xalqaro munosabatlar mamlakatlarning uyg'unlikda gullab-yashnashi, har qanday kelishmovchiliklarni bartaraf etish va urushlarning oldini olishning zarur va muhim omili bo'lgani;
- bugungi globallashuv davrida ham turli madaniyatlar va sivilizatsiyalar o'rtasidagi bog'liqlik va o'zaro ta'sirning tobora kuchayishi hamda umumiy qadriyatlarni chuqurroq anglash va tushunishga erishish

uchun sivilizatsiyalar o'rtasidagi muloqotning o'ta muhim ahamiyatga egaligi;

- xalqaro munosabatlarning muhim qadriyatlaridan bo'lgan tinchlik va totuvlikni asrab-avaylash, madaniy pluralizm, bag'rikenglik va bardoshlilik tamoyillari jahonda xavfsizlikni ta'minlash, umuminsoniy farovonlik, erkinlik va barqaror taraqqiyot yo'lida turli madaniyatlar, sivilizatsiyalar, xalqlar o'rtasida muloqot madaniyatini shakllantirish zarurligi kabi g'oyalarga tayangan holda xalqaro hamkorlikning prinsipial jihatdan yangi formatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Dunyoda "Samarqand ruhi" deb tan olingan noyob fenomenning mazmuni ham asli shunda mujassamdir.

Ikkinchidan, albatta, necha ming yillik qadimiy tarix va boy madaniyatga ega milliy davlatchiligimiz hamda o'zbek diplomatiyasining o'ziga xos chuqur tarixiy ildizlari, boy tajribasi va an'analariga tayanamiz.

Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi o'zining juda boy va qadimiy tarixiga ega. Inson madaniyati dastlabki kurtak otgan zaminlardan biri sanalmish o'lkamiz sarhadlarida ming yillar davomida tarix taqozosiga ko'ra o'nlab davlatlar birin-ketin qad ko'tarib, faoliyat ko'rsatib o'tgan.

Bu haqda bizgacha yetib kelgan yozma manbalarda, xususan, buyuk ajdodimiz, ensiklopedik olim, alloma Abu Rayhon Beruniy o'zining ming yil oldin bitilgan "Osorul-boqiya" (Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar) asarida batafsil to'xtalib o'tgan.

Unda qadimiy ikki buyuk daryo – Amu va Sir havzalarida qadimgi Xitoy, Hindiston, Iroq, Misr kabi buyuk sivilizatsiyalar bilan bir vaqtda sug'orma-o'troqchilikka asoslangan madaniy hayot kurtaklari barg yozgani, qadimgi ilk davlatlar vujudga kelganini qayd etadi. Shuningdek, yunonlar, rumlar, forslar, sug'diylar, xorazmliklar va boshqa elatlarning

tarixi, madaniyati, taqvimlari, bayram va marosimlariga oid boy ma'lumotlar bayon etilgan.

Albatta, xalqimiz ana shu uzoq vaqt davomida boshqa xalqlar va davlatlar bilan uzviy aloqada bo'lib kelgan.

Shu o'rinda bir misolga e'tibor qaratmoqchiman. Qadimiy Afrosiyobda topilgan noyob devoriy rasmlarda Samarqand hukmdorining Xitoy, Koreya, Hind, Chag'oniyon kabi davlatlardan kelgan elchilarni qabul qilish marosimi aks ettirilgan. Bu, o'z navbatida, qadim zamonlardayoq yurtimiz zaminida diplomatik an'analar shakllanganidan, ota-bobolarimiz uzoq-yaqin mamlakatlar bilan do'st va hamkor bo'lib yashashga intilib kelganidan dalolat beradi.

Amir Temur bobomiz va temuriylar sulolasi hukmronlik qilgan yillarda o'lkamizda diplomatik munosabatlar yuksak darajaga ko'tarilgan.

Sohibqironning Fransiya, Angliya, Ispaniya, Vizantiya, Misr, Xitoy, Hindiston, Usmoniyalar imperiyasi kabi ko'plab davlatlarning hukmdorlari bilan olib borgan diplomatik aloqalari va yozishmalari buni yaqqol tasdiqlaydi. Xususan, 1402-yilda **Fransiya qiroli Karl VI** ga yo'llagan maktubida: **“Siz, a'lo hazratlari, o'z savdogarlaringizni bizning mamlakatimizga yuborsangiz. Biz o'z tomonimizdan ularning izzat-hurmatini saqlash, ularga hech kim zo'rlik ko'rsatib, ziyon-zahmat yetkazmasligini ta'minlaymiz. Chunki dunyo savdo ahli bilan obod va farovondir”**, deyiladi.

Bu hikmatli so'zlar bugungi xalqaro munosabatlarda ham o'zining ahamiyati va qimmatini yo'qotmagan. Ular xuddi shu bugun aytilgandek jaranglamoqda.

Ajdodlarimiz azaldan xalqaro munosabatlar va diplomatiya qonun-qoidalariga amal qilib, bu sohani rivojlantirib kelganlar. Manbalar va tarixiy dalillar mehmondo'st xalqimiz, bobolarimiz diplomatiyasida azaldan tinchlik, o'zga xalqlarni hurmat qilish, ular bilan do'stona munosabatlar o'rnatish, raqibiga shafqat qilish va unga katta imkon

yaratish, har qanday og'ir sharoitda ham elchini qadrlash, inson hayotining daxlsizligi, gumanizm kabi g'oyalar ustuvor bo'lganligini ko'rsatadi.

Bunda, barcha chigal jumboqlarning aksariyati aynan to'g'ri qo'llanilgan tadbirlar, ya'ni, avvalo, diplomatik usullardan foydalangan holda hal qilinganligi ta'kidlanadi.

Uchinchidan, bizning ajdodlarimiz orasidan mashhur va mohir diplomatlar, elchilar yetishib chiqqani haqida ham ko'plab tarixiy ma'lumotlar mavjud.

Diplomat ajdodlarimizning timsolida biz haqiqiy vatanparvar, o'z xalqi, o'z yurtining chinakam fidoyisi bo'lgan insonlarni, buyuk mutafakkirlarni ko'ramiz.

Dunyodagi diplomatiyaga oid eng zo'r kitoblar ham aslida Sharqda yaratilgan, desak, adashmaymiz. Xususan, diplomatiyamizning o'ziga xos va umuminsoniy qadriyatlarga monand tamoyillari buyuk obidalar — **Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig"** ("Saodatga eltuvchi bilim"), **Nizomulmulkning "Siyosatnoma"**, **Xoja Samandar Termiziyning "Dastur ul-muluk"** ("Mamlakat dasturi") kabi asarlarida o'z aksini topgan.

Ularda, jumladan, tashqi siyosat har bir davlatning diqqat markazida bo'lishi alohida ta'kidlangan hamda elchilar, ularni tanlab olishdagi talablar, muallif yashagan zamongacha o'tgan necha asrlar mobaynida xalqimiz diplomatiyasiga xos ma'naviy xislatlarning rivojlanish qonuniyatlari kabi masalalar yoritib berilgan.

Yusuf Xos Hojib o'z asarida xalqlar va davlatlar orasidagi yaxshi munosabatlarni joriy etishda elchilik aloqalarini izchil amalga oshirish, elchilarni tanlash, ularning shaxsiyatiga nisbatan g'oyat katta mas'uliyat bilan yondashish lozimligini alohida ko'rsatib o'tadi.

Xususan, alloma **"Kishilarning yaxshisi — elchilar bo'lganlar, turli xil ishlar elchilar tufayligina bitadi, xayrli ishlar elchi tufayli sodir**

bo'ladi" hamda "tamomi kishilardan sarasi, bilimlisi, zakovatlisi, yetugi" va "o'z vatani, davlati va hukmdoriga sadoqatli hamda ishonchli, yuksak insoniy xislatlarga ega, ilm-ma'rifatdan xabardor va zukko shaxs elchi bo'lishi kerak", — deb xitob qiladi.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, nomlari tarix sahifalarida o'chmas iz qoldirgan Amir Temur va temuriylar saltanati nomidan Yevropa va Osiyo mamlakatlariga vakil bo'lib borgan Muhammad Keshiy, Mavlono Hofiz, G'iyosiddin Naqqosh, Abdurazzoq Samarqandiy kabi elchilar ana shunday xislatlarga ega bo'lganlar.

Samandar Termiziy elchilik san'ati haqida "Elchi ikki masalada nihoyatda hushyor bo'lishi zarur. U o'z davlatiga sadoqatini namoyon etish uchun mamlakatning obro'si va sha'nini, shon-shuhratini, saltanatning ulug'vorligini har jihatdan ehtiyot qilishi lozim. Shu bilan birga, u chet mamlakatlar bilan bo'ladigan munosabatlarda u yerdagi do'stlarning xayrixohligi va g'animlarning makr-hiylasidan doimo ogoh va hushyor bo'lib turishi darkor", degan fikrlarni bayon etgan.

Bu dono gaplarga hech qanday qo'shimcha qilishning zarurati yo'q, deb o'ylayman.

Ajdodlarimizning ushbu va boshqa tashqi siyosat va iqtisodiy diplomatiyaga oid o'g'itlari hozirgi davrda an'anaviy sheriklar bilan manfaatli aloqalarni rivojlantirish, hamkorlik geografiyasini kengaytirish, global ishlab chiqarish va yetkazib berish zanjirlariga qo'shilish, barqaror rivojlanish uchun zarur sharoitlarni yaratish kabi vazifalarni amalga oshrishimizda "yo'lchi yulduz" vazifasini o'tamoqda.

Yurtimizda o'tgan yetti-sakkiz yil ichida zamon talablari hamda milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda, tashqi va tashqi iqtisodiy siyosatimizni o'zgartirish, diplomatik vakolatxonalarimiz faoliyatini yangicha asosda tashkil etish, elchi va diplomatlarning funksional vazifalarini qayta ko'rib chiqish borasida tizimli tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Xorijiy elchixonalar, konsulliklarning birinchi navbatda milliy tovarlarimiz eksportini rag'batlantirish, mamlakatimizga xorijiy investitsiyalar, yuqori texnologiyalarni jalb qilish, turistlar oqimini kengaytirish bo'yicha aniq yo'naltirilgan va samarali faoliyat yuritishlari belgilab qo'yildi. Har bir elchixonaga mamlakatimiz hududlari, iqtisodiyot tarmoqlari va yirik korxonalar biriktirildi.

Shuningdek, viloyat va tuman hokimlarining tizimli asosda xorijiy mamlakatlarga xizmat safariga yuborilishi yo'lga qo'yildi. Ularga shaharsozlik va obodonlashtirish, infratuzilmani rivojlantirish, zamonaviy axborot, energiya tejaydigan texnologiyalarni joriy etish, sanoat va qishloq xo'jaligi, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalaridagi ilg'or xorijiy tajribani o'rganib, o'z hududlarida keng joriy qilish kabi vazifalar yuklandi.

Bu, o'z navbatida, eksport va turizmni rivojlantirish, investitsiya, biznes kooperatsiyasini kuchaytirish bo'yicha aniq loyihalarni amalga oshirish kabi masalalarni tezkor hal qilish imkonini bermoqda.

Biz xorijiy sheriklarimiz, avvalo, yaqin qo'shnilarimiz bilan do'stona munosabatlarni rivojlantirish va mustahkamlash bo'yicha aniq natijalarga erishmoqdamiz.

Muhimi, ko'p yillardan buyon yechilmay kelayotgan masalalarni birgalikda amalda hal qilishni boshladik. Bo'lib o'tgan ko'plab oliy darajadagi tashrif va uchrashuvlar barcha murakkab masalalarni hal etish uchun ochiq va amaliy muloqot, o'zaro manfaatlarni hisobga olish va oqilona murosa yo'lini izlash zarurligini ko'rsatdi.

Shu ma'noda, o'zaro ishonch, hurmat va bir-birining manfaatlarini hisobga olish prinsiplariga tayangan, umumiy taraqqiyot va farovonlikni ta'minlash, barqaror rivojlanish yo'lidagi har qanday siyosiy konyunkturadan xoli bo'lgan strategik sheriklikni kuchaytirish va hamkorlikning yangi qirralari, yo'llari va mexanizmlarini aniqlash hamda milliy manfaatlarimizni ilgari surish va himoya qilishda iqtisodiy

diplomatiya samaradorligini oshirish va uni faollashtirishga alohida e'tibor qaratmoqdamiz.

Tashqi iqtisodiy siyosatimizda xalqaro iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, tovar aylanmasi hajmini oshirish, O'zbekistonning jahon bozorida mavqeyini mustahkamlash, eksport tarkibini diversifikatsiyalash, unda xomashyo resurslarining ulushini kamaytirish, yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor sanoat mahsulotlari hajmini oshirish, iqtisodiy aloqalar geografiyasini kengaytirish eng ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan.

Bunga iqtisodiyotimizning raqobatbardoshligini va eksport salohiyatini oshirish, ilmga asoslangan, yuqori daromadli, eksportbop mahsulotlarni ko'paytirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarimiz samarasini oshirish hamda tayyor mahsulot bilan tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarimizni kengaytirish orqali erishish mumkin.

Buning uchun, birinchi navbatda, milliy iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirmoqdamiz, qonunchilik bazasi tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish nuqtayi nazaridan takomillashtirilmoqda. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda moliya va savdo tizimini liberallashtirish, xususiylashtirish jarayonlarini faollashtirish, tadbirkorlik va investitsiya muhitini yaxshilash, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, "yashil iqtisodiyot"ni shakllantirish bo'yicha tashabbuslarni rag'batlantirish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Oxirgi yetti yilda erishgan eng katta yutuqlarimizdan biri — bu O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi 2,5 barobar oshib, 63 milliard AQSH dollariga yetganidir.

Shu bilan birga, 2024-yil eksport hajmini 1,5 barobar ko'paytirib, 25 milliard dollarga yetkazish, 2030-yilda esa — 45 milliard dollardan oshirishni rejalashtirdik.

Bunga qanday erishiladi? Tashqi iqtisodiy diplomatiyamizda nimalarga urg'u berishimiz lozim?

Bunga mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga tashqi omillar ta'sirining ortib borishiga e'tibor bergan holda:

- iqtisodiyotimizning raqobatbardoshligini va eksport salohiyatini oshirish, ilmga asoslangan, yuqori daromadli, eksportbop mahsulotlarni ko'paytirish hamda tayyor mahsulot bilan tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarimizni kengaytirish;

- mamlakatimizning xalqaro va mintaqaviy savdo va iqtisodiy tashkilotlarga, milliy iqtisodiyotimizning — jahon va turli mintaqaviy iqtisodiyotlarga integratsiyalashuvi, moliya institutlari bilan keng qamrovli va o'zaro manfaatli aloqalarni chuqurlashtirish;

- erkin va shaffof savdo munosabatlarini tartibga solish va uni kengaytirish orqali mamlakatlarimizning barqaror taraqqiyotini ta'minlash va aholining turmush sharoitini yaxshilash kabi vazifalarni samarali amalga oshirish orqali erishamiz. Albatta, bu jarayonda korxonalarimiz ochiq va kuchli raqobatga tayyor bo'lishi zarur.

Jumladan, Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi, Yevropa Ittifoqi, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Turkiy davlatlar tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti kabi institutlar bilan keng qamrovli hamkorlikni yanada chuqurlashtirish O'zbekistonning milliy manfaatlariga to'la mos keladi. Bu, shuningdek, inson, jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan do'stona, o'zaro manfaatli munosabatlarni mustahkamlash siyosatimiz "Markaziy Osiyo +" formatida ham savdo-iqtisodiy, kooperatsiya, investitsiyalar, "yashil

taraqqiyot”, transport-logistika kabi sohalardagi aloqalarni kengaytirish hamda tashqi savdoda tayyor mahsulot eksportini ko‘paytirishimiz uchun ishonchli va mustahkam zamin yaratmoqda.

Birgina misol, ilgari mamlakatimiz eksportining yarmi paxta tolasiga to‘g‘ri kelardi. Uning eksportidan to‘liq voz kechilgandan keyin, tayyor kiyim-kechak eksporti 4 barobar ko‘paydi. 2023-yil natijalariga ko‘ra to‘qimachilik mahsulotlari eksporti 3 milliard 300 ming AQSH dollarini tashkil etdi.

Rivojlangan davlatlar bilan yangi davrda strategik sheriklik va har tomonlama hamkorlik aloqalari tobora kengayib bormoqda. Ayniqsa, investitsiya, eksport va ilg‘or texnologiyalar sohalaridagi aloqalar kuchayib, hamkorligimizda yangi “o‘shish nuqtalari”ni izlab topishga muvaffaq bo‘lyapmiz.

Boshqa hamkor tashkilotlar bilan o‘zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirishimiz borasida bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin. **Bu — jahonning biz uchun yangi bo‘lgan turli mintaqaviy bozorlariga tayyor mahsulotlar bilan kirib borish imkonimiz ortib borayotganidan ham darak beradi.**

Shuningdek, iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, investitsiya va xizmatlarning erkin harakatini ta‘minlash uchun qulay va jozibador sharoitlar yaratish kabi tashabbuslarimiz natijasida, nafaqat Markaziy Osiyo, balki mamlakatimiz a‘zo bo‘lgan, o‘zaro manfaatli hamkorlik qilayotgan mintaqaviy tashkilotlar hududida ham **“yangi iqtisodiy imkoniyatlar maydoni”** paydo bo‘lmoqda.

O‘zbekiston xalqaro moliya institutlari va savdo tashkilotlari bilan samarali hamkorlik aloqalarini kengaytirish va takomillashtirishga alohida e‘tibor berib kelmoqda. Xalqaro moliya tashkilotlari bilan investitsiyaviy va amaliy muhitni yaxshilash, mamlakatimizning kredit reytingini oshirish, valuta-kredit siyosatini takomillashtirish, bank-

moliya sohasida milliy mutaxassislar malakalarini oshirish, barqaror rivojlanishni ta'minlash kabi masalalarda hamkorlikni rivojlantirishdan manfaatdormiz.

Mazkur vazifalarning ro'yobga chiqarilishi natijasida hamkorligimiz deyarli barcha yo'nalishlarda — iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, huquqiy, gumanitar, ekologik va boshqa sohalarda jadal rivojlanmoqda.

Kelgusida ham global va mintaqaviy xalqaro tashkilotlar, moliyaviy institutlar, xorijiy davlatlar bilan an'anaviy, keng qamrovli va strategik sheriklik aloqalarini samarali kengaytirib borish O'zbekiston tashqi iqtisodiy diplomatiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

Biz hozirgi kun talablariga javob beruvchi yangi iqtisodiy muloqotni shakllantirish tarafdorimiz. Zotan, kelajakda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday xavf-xatarlarni birgalikda baholash, ularning oldini olish bo'yicha muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlar va nostandart qarorlar qabul qilishni nazarda tutadigan ko'p qirrali hamkorlikning o'ziga xos platformasini to'liq ishga solishdan barcha birday manfaatdordir.

Iqtisodiy diplomatiyani olib borishda dunyo mamlakatlari bilan ko'p qirrali hamkorlikning barcha vositalarini ishga solishimiz, bu borada samarali usul va mexanizmlarni topishga e'tibor qaratishimiz lozim.

Bugungi yangi davrda **mamlakatimiz va mintaqamizni barqaror rivojlantirish borasidagi ko'p va ikki tomonlama ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlikning quyidagi ustuvor yo'nalishlariga** alohida e'tibor qaratmoqdamiz.

Birinchi. Savdo-iqtisodiy aloqalarni rag'batlantirish va kengaytirish, investitsiyalarning o'sishi uchun qulay shart-sharoitlarni shakllantirish, yangi "o'sish nuqtalari" va imkoniyatlarni izlashga alohida e'tibor qaratiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda va mintaqamizda qulay biznes va investitsion muhitni shakllantirish, xorijiy investor va hamkorlarimiz

uchun yengillik va imkoniyatlar yaratish iqtisodiy islohotlarimiz va tashqi iqtisodiy siyosatimizda o'z ifodasini topmoqda.

Xususan, valuta tizimi erkinlashtirilgani, tashqi bozorlarga chiqish bo'yicha to'siqlar olib tashlangani, 7 mingdan ziyod xomashyo va tovarlarga bojxona bojlari bekor qilingani natijasida mamlakatimizning tashqi savdo aylanmasi ikki barobar ko'paydi.

Shu bilan birga, soliq yuki qariyb 2 barobar kamaygani, soliq ma'murchiligi soddalashtirilgani, O'zbekistonda mintaqamizdagi eng jozibador fiskal tizim shakllangani xalqaro tashkilotlar tomonidan e'tirof etilmoqda. Islohotlarimizga ishonch ortgani natijasida O'zbekistonga kirib kelayotgan yillik xorijiy sarmoyalar hajmi 2017-yilga nisbatan 3 barobar ko'paydi.

Xususan, mamlakatimizning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqida kuzatuvchi maqomidagi uch yillik hamkorligi davrida o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 60 foiz oshdi, tashkilotga a'zo mamlakatlardan jalb qilinayotgan investitsiyalar yiliga qariyb 25 foiz ko'paymoqda va barqaror o'sish sur'atlari saqlanib qolmoqda. Bunga, avvalambor, sanoat mahsulotlarini yetkazib berishni ko'paytirish, yuk tashish hajmi o'sishi, muntazam aviaqatnovlar soni ikki barobar ko'payishi kabi qator omillar hisobiga erishildi.

2021-yilda O'zbekiston "GSP+" tizimiga qo'shilgani natijasida Yevropa bozoriga tayyor mahsulot eksporti 1,5 barobar ortgan bo'lsa, tovar ayirboshlash hajmi ham barqaror o'sib bormoqda — birgina 2023-yilda qariyb 35 foizga oshdi. **O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi o'rtasida "Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to'g'risida"gi bitim** esa munosabatlarimizni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi va yangi "o'sish nuqtalari"ga mos qo'shma loyihalarning amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

Bunda "GSP+" tartibining taqdim etilishi mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilarini tashqi savdo faoliyatiga jalb qilish va shu bilan birga,

ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini oshirishda rag'batlantiruvchi omil bo'lib xizmat qilmoqda. Bugungi kunda eksportchilarimiz Yevropa bozoriga umumiy qiymati 4 milliard yevro bo'lgan 500 nomdagi sanoat tovarlarini yetkazib berishga tayyor.

Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti doirasida o'zaro savdoni rag'batlantirish choralari natijasida mamlakatlarimiz o'rtasidagi savdo ko'rsatkichi 85 milliard dollardan oshdi. Bu Tashkilotga a'zo davlatlar umumiy tashqi savdosining atigi 8 foizi demakdir va 500 milliondan ortiq aholi yashaydigan, ulkan bozorga ega bo'lgan mamlakatlarimizning savdo va investitsiya sohalaridagi katta imkoniyatlardan to'liq foydalanishimiz zarurligidan dalolat beradi.

Bir paytning o'zida tovar va xizmatlar savdosini yengillashtirish, texnik va notarif to'siqlarni bartaraf etish, bojxona, fitosanitariya va veterinariya tartib-qoidalarini raqamlashtirish, elektron savdoni rivojlantirish kabi masalalarni hal etishga qaratilgan **Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti doirasida savdoni soddalashtirish to'g'risidagi bitimni** qabul qilish va **"Iqtisodiy hamkorlikning strategik maqsadlari — 2035" konseptual hujjatini ishlab chiqish** orqali o'zaro savdo hajmlarini kamida ikki barobar ko'paytirish mumkin.

O'zaro savdo va tovar aylanmasi MDH, TDT, SHHT kabi mintaqaviy tashkilotlar doirasida ham jadal ortib bormoqda.

Shuningdek, savdo munosabatlarini tubdan kengaytirish, barqaror savdo-logistika zanjirlarini va o'zaro mahsulot yetkazib berishni qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini yaratish, **o'zaro savdo va to'laqonli erkin savdo zonasini shakllantirishda mavjud to'siq va cheklovlarni birgalikda bartaraf etish** kabi masalalarga ustuvor ahamiyat qaratmoqdamiz.

Bunda, xususan, O'zbekiston milliy qonunchiligi va amaliyotini Jahon savdo tashkiloti bitimlari, qoidalari va amaliyotiga uyg'unlashtirmoqdamiz. MDH va boshqa mintaqaviy tashkilotlar doirasida

o'zaro savdoga ko'maklashish va investitsiyalarni rag'batlantirish to'g'risida ko'p tomonlama bitimlarni hamda o'zaro savdoga oid texnik to'siqlarni bartaraf etish va muvofiqlikni baholashga qaratilgan ishlarni tan olish kabi masalalar bo'yicha bitimlarni qabul qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirmoqdamiz.

Ushbu jarayonlarning tez fursatda yakunlanishi tomonlar o'rtasidagi munosabatlarda yangi sahifa ochadi. Shuningdek, o'zaro savdo va investitsiyalarni ko'paytirish uchun qulay sharoitlar yaratish, iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kooperatsiyani, shu jumladan, uzoq muddatli ko'p va ikki tomonlama hujjatlarni qabul qilish orqali chuqurlashtirishning huquqiy asosini mustahkamlaydi.

Ushbu maqsadlarda, jumladan, Konstitutsiyamiz va qonunlarimiz, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarimizga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. JST qoida va me'yorlariga muvofiq bo'lmagan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish taqiqlandi. Birgina 2023-yilda 700 dan ortiq qonunchilik hujjatlari loyihasi JST qoidalariga muvofiqligini baholash uchun ekspertizadan o'tkazildi.

Ayniqsa, texnik jihatdan tartibga solish, sanitariya va fitosanitariya choralari va intellektual mulk himoyasi kabi sohalarda milliy qonunchilikni JST bitimlarining talablariga muvofiqlashtirish borasida sezilarli natijalarga erishildi. Xususan, so'nggi yillarda 12 mingta standart qabul qilindi, 400 turdagi mahsulotlarni sinovdan o'tkazish yo'lga qo'yildi. Natijada 40 ta yangi eksport bozoriga chiqishga muvaffaq bo'ldik.

Bundan tashqari, milliy iqtisodiyotimizning mavjud salohiyatini ro'yobga chiqarish, uning global va mintaqaviy ishlab chiqarish va qo'shilgan qiymat zanjiriga integratsiyasini yanada chuqurlashtirish, erkin bozor tamoyillarini amalda tatbiq etishni kengaytirish hamda O'zbekistonning Jahon savdo tashkiloti a'zoligiga erishishni jadallashtirish borasida maxsus (ekskluziv) huquqlar bekor qilinishi borasida aniq choralarni ko'rmoqdamiz.

Respublika hududida temiryo'l transportida yuk tashishda taqdim etilayotgan chegirmalar berish amaliyotini bekor qilish, temiryo'l orqali yuklarni tashishda eksport va import tashish xizmatlari uchun tariflarni 2030-yilgacha bosqichma-bosqich birxillashtirish hamda milliy qonunchilikni Jahon savdo tashkilotining Subsidiyalar va kompensatsiya choralari to'g'risidagi bitimiga (ASCM) muvofiqlashtirish ishlari olib borilmoqda. Bosqichma-bosqich ravishda O'zbekistonda amalda bo'lgan bojxona boji, yig'imlari va qiymatini JSTning Tariflar va savdo bo'yicha bosh bitimi (GATT 1994) talablariga moslashtirish va joriy etiladigan bojxona yig'imlarining fiskal maqsadlarda undirilmaligi belgilanadi.

O'tgan davrda biz ushbu yo'nalishda uzoq muddatli munosabatlarni har tomonlama rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratdik. Shuningdek, xalqaro iqtisodiy hamkorlik, xorijiy mamlakatlar bilan adolatli savdo-iqtisodiy aloqalarni sifat jihatidan mutlaqo yangi darajaga ko'tarish maqsadida:

- JST va mintaqaviy tashkilotlar tavsiyalari asosida iqtisodiyotimizni yanada liberallashtirish, mamlakatimizda qulay biznes va investitsion muhitni shakllantirish, davlatning biznesni tartibga solishga qaratilgan funksiyalarini qisqartirish, ularning ayrimlarini xususiy sektorga davlat-xususiy sheriklik va outsorsing asosida o'tkazish, litsenziya va ruxsat berishga oid hujjatlar sonini kamaytirish;

- xorijiy davlatlar bilan erkin savdo rejimini joriy etish, texnik reglamentlarni uyg'unlashtirish va elektron tijoratni rivojlantirish;

- muqobil savdo-logistika yo'nalishlarini shakllantirish, qo'shilgan qiymatning qisqa va yanada samarali zanjirlarini yaratish, mamlakatlarimiz iqtisodiyotidagi bir-birini to'ldiradigan zaxiralardan yuqori darajada foydalanish, biznes aloqalarini rag'batlantirish;

- o'zaro sarmoyalarni himoya qilish va rag'batlantirish, ularni, birinchi navbatda, infratuzilmani rivojlantirish, raqobatbardosh sanoat va xizmat ko'rsatish sohasiga yo'naltirish orqali biz yaratgan

savdo-iqtisodiy hamkorlikning barcha mexanizmlarini birlashtirish va faollashtirish;

- global va mintaqaviy bozorlar talablariga muvofiq mamlakatimizda zamonaviy laboratoriyalar, standartlashtirish va sertifikatlash markazlari tarmog'ini yaratish, ishbilarmonlar o'rtasidagi muloqotni rag'batlantirish, eksport qiluvchilarimizning bilim va salohiyatini rivojlantirish, rivojlangan davlatlar kompaniyalarining mintqa mamlakatlari savdo imkoniyatlari haqida xabardorligini oshirishga qaratilgan tadbirlar o'tkazish kabi vazifalarga alohida e'tibor qaratmoqdamiz.

O'zbekiston savdo tartibotlarini soddalashtirish hamda sanoat kooperatsiyasi, transport va logistika, innovatsiyalar, qishloq xo'jaligi, ekologiya, migratsiya va turizm sohalaridagi alohida dasturlar va tarmoq loyihalarida o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan tadbir va loyihalarda ham faol qatnashmoqda.

Ikkinchi. Sanoat kooperatsiyasini mustahkamlash, sohani modernizatsiya qilish va texnologik yangilash, yuqori texnologiyali va ilmiy-innovatsion ishlab chiqarishlarni rivojlantirish, yangi turdagi yuqori qo'shilgan qiymatli raqobatbardosh mahsulotlar eksporti hajmini yanada oshirish kabi muhim yo'nalishlarda hamkorlik kuchaytiriladi.

Bunda, iqtisodiy hamkorlik sohasida, xususan:

- mamlakatlarimiz iqtisodiyotlarining mavjud salohiyatini "bir-birini to'ldiruvchi nuqtalari va afzalliklarini topish" tamoyili asosida oshirish, sanoat tuzilmalarini uyg'unlashtirish va mahsulot bozorlarining integratsiyalashuviga erishish, sanoat va texnologik hamkorlikning umumiy makonini shakllantirish;

- savdo va bojxona to'siqlarini bartaraf etish, kafolatlangan barqaror ishlab chiqarish va ta'minot zanjirlarini shakllantirish, talab yuqori bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va import o'rnini bosishga qaratilgan qo'shma dasturlar va loyihalarni rag'batlantirish, faol qo'llab-quvvatlash;

- o'zaro investitsiyalar oqimini ko'paytirish, ularni himoya qilish va rag'batlantirish, birinchi navbatda, infratuzilmani rivojlantirish, raqobatbardosh sanoat va xizmat ko'rsatish sohasiga yo'naltirish orqali savdo-iqtisodiy hamkorlikning shu chog'gacha yaratilgan barcha mexanizmlarini birlashtirish va faollashtirish;

- ilm-fan, innovatsiyalar va sanoat sohalaridagi hamkorlikni mustahkamlash, nou-xau, innovatsiyalar va texnologiyalar transferi, yashil va raqamli yechimlarga sarmoya kiritish orqali an'anaviy va yangi sanoatni o'zlashtirish orqali qo'shilgan qiymatli mahsulotlar hajmini oshirish;

- industrial xablarni shakllantirish, mamlakatlarimizda birgalikda sanoat zonalari va texnoparklarni tashkil etish, bu yerlarda yangi quvvatlarni joylashtirish bo'yicha qo'shma harakatlar dasturlari, kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, xaridlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, sug'urta hisobidan qoplab berish va off-teyk xarid masalalarini puxta o'ylab ko'rish;

- uchinchi bozorlarga chiqishni yengillashtirish uchun hududlar, ishbilarmon doiralar, kompaniyalar, kichik va o'rta korxonalar, mikro-ishlab chiqaruvchilar o'rtasida strategik hamkorlikni o'rnatish, tegishli startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash va samarali amalga oshirish kabi masalalarga asosiy vazifa sifatida qaraymiz.

Shuningdek, mintaqamizda inkluziv va barqaror sanoatni rivojlantirish, jumladan, sanoatning energetika, geologiya, to'qimachilik, charm-poyabzal, oziq-ovqat, farmatsevtika va qurilish kabi sohalarida hamda bilim va tajriba almashish, agrosanoat, raqamlashtirish, robotlashtirish, sun'iy intellekt, biotexnologiya singari yo'nalishlarda yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish tarafdorimiz.

Ayni paytda mintaqaviy savdo va sanoat-texnologik kooperatsiyasini rivojlantirish uchun umumiy makonni shakllantirish har qachongidan

dolzarbdir. Bir paytning o'zida yetakchi kompaniyalarning ishlab chiqarish quvvatlarini mamlakatlarimizga ko'chirish va bu jarayonda ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash ham ahamiyatlidir.

Shu munosabat bilan O'zbekiston turli mintaqaviy tashkilotlar yoki ular bilan hamkorlik doirasida sanoat kooperatsiyasini rivojlantirishga qaratilgan konsepsiyalar, dasturlar, loyihalar va boshqa kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish borasida ko'plab tashabbuslarni ilgari surdi.

Ular tegishli hamkorlarimiz tomonidan qo'llab-quvvatlandi va amalga oshirila boshlandi. Ta'kidlash joizki, bunday qo'shma loyihalarning amalga oshirilishi Yevroosiyoning industrial xaritasini tubdan o'zgartirib yuborish imkonini beradi.

Xususan, hozirgi vaqtda **O'zbekistonning MDH mamlakatlari bilan sohadagi qo'shma investitsiya loyihalari portfelining hajmi 25 milliard AQSH dollaridan oshdi.**

Sanoat kooperatsiyasi borasidagi hamkorlik Yevropa davlatlari bilan ham jadal rivojlanmoqda. "Siemens", "Linde Group", CLAAS, "Airbus", BASF, EDF, "Alstom", "Total", "Orano", "OTP Group", "Smart-AKIS"ning Yevropa tarmog'i singari ko'plab jahonga mashhur korporatsiyalar bizning strategik hamkorlarimiz safidan joy olgan. Bu o'rinda zamonaviy sanoat quvvatlarini yaratish, "yashil energetika"ni joriy etish, "aqlli qishloq xo'jaligini rivojlantirish, yuqori darajada transport-logistika infratuzilmasini shakllantirishga qaratilgan keng investitsiyaviy va texnologik sheriklik haqida so'z bormoqda.

Biz yevropalik sheriklarimizning **"Global darvoza" strategiyasi** doirasida raqamlashtirish, transport kommunikatsiyalari, energetika va suv resurslarini boshqarish sohalarida ham yirik loyihalarga qo'l urdik. Ayni paytda Yevropaning yetakchi kompaniya va banklari bilan yuqori texnologik ishlab chiqarish va yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha istiqbolli loyihalar portfeli 20 milliard yevrodan ziyodni tashkil etmoqda.

Albatta, bu juda yaxshi ko'rsatkichlar. Lekin mazkur yo'nalishda hali oxirigacha ishga solinmagan qo'shimcha imkoniyatlar borligini ham nazardan soqit qilolmaymiz.

Jumladan, bugungi kunda jahonda **kreativ iqtisodiyotning rivojlanishi jadal sur'atlar bilan kechmoqda** va bu jarayon ko'plab mamlakatlarning iqtisodiy o'sishida muhim rol o'ynamoqda. Bugungi kunda kreativ industriya yiliga 2,3 trillion dollarga yaqin daromad olib kelayotgan bo'lsa, bu soha yaqin 10–15 yil ichida jahon yalpi ichki mahsulotining 10 foizini tashkil etishi taxmin qilinmoqda.

Davlatlarimiz bosqichma-bosqich ravishda kreativ iqtisodiyotga o'tish masalalarida rivojlangan mamlakatlar va mintaqalar bilan hamkorlikni chuqurlashtirishdan manfaatdor.

Bunda, avvalambor, yoshlarning zamonaviy bilim va texnologiyalarni egallaganligi darajasi davlat va jamiyat qudratini oshirishning muhim shartlaridan biriga aylanganini e'tiborga olish zarur.

Shu ma'noda, yoshlarimizning "to'rtinchi sanoat" kasblarini egallashi, ayniqsa, fizika, kimyo, biologiya, texnologiya, muhandislik, matematika kabi sohalarda yuksak malakali mutaxassis bo'lib yetishishidagi hamkorligimizni yangi bosqichga olib chiqish lozim.

Jahon banki mutaxassislarining tadqiqotlariga ko'ra, raqamli o'zaro bog'liqlik sohasida rivojlangan mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik qilinishi, yuqori tezlikdagi internetdan foydalanish imkoniyatlarining yanada kengaytirilishi mintaqa mamlakatlari yalpi mahsuloti va eksporti hajmining mutanosib ravishda oshishiga olib keladi.

Bunda istiqbolli raqamli platformalarni joriy etish — iqtisodiy rivojlantirishning lokomotiviga aylanishi darkor. Mintaqalararo raqamli aloqani o'rnatish va mustahkamlash, to'rtinchi sanoat inqilobini qo'llab-quvvatlash va global bilimga asoslangan iqtisodiyot va katta hajmdagi

ma'lumotlardan foydalanish orqali mamlakatlarimiz iqtisodiyoti va sanoat sohasining keng integratsiyalashuviga erishiladi.

Bu borada O'zbekiston rivojlangan davlatlar va strategik hamkorlarimiz bilan birgalikda **“Markaziy Osiyo uchun raqamli kun tartibi”ni** ishlab chiqish va amalga oshirishdan manfaatdor.

Ayni paytda raqamli iqtisodiyotga o'tish, innovatsiyalar va axborot texnologiyalariga oid ilg'or yechimlarni keng joriy qilish, o'zaro bilim va tajriba almashish, “yashil energetika” loyihalarini amalga oshirish, “Kreativ sanoat parklari”, texnologik va IT parklari o'rtasidagi hamkorlikni qo'llab-quvvatlash, yosh tadbirkorlarning startap loyihalarini ko'paytirish kabi yo'nalishlarda sa'y-harakatlarimizni birlashtirishning ham ahamiyati beqiyos.

Shuningdek, yoshlarni “raqamli kun tartibiga” jadal jalb etish borasida xalqaro innovatsion haftaliklar, virtual makondagi bellashuvlar hamda sportning an'anaviy turlari, sun'iy intellekt, robototexnika, raqamli va axborot texnologiyalaridagi yutuqlarni o'z ichiga oladigan fijital yoki multisport musobaqalari kabi amaliy chora-tadbirlarning roli va ahamiyati yuqoridir. O'zbekiston nafaqat bu sohadagi xalqaro, mintaqaviy tadbirlarda faol ishtirok etadi, balki ularni tashkillashtirishdan ham manfaatdordir.

Uchinchi. Samarali mintaqalararo va qit'alararo transport yo'laklari tizimini, jumladan, transport bog'liqligini mustahkamlash, yangi logistika yo'laklarini hamkorlikda rivojlantirish borasida ham qator chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Bugungi kunda dunyo nafaqat turli yangi tahdid va xatarlar, balki ulkan imkoniyatlarni ham o'zida mujassam etgan global o'zgarishlar davriga qadam qo'ydi.

Ishonchim komil, mamlakatlarning uzoq muddatli taraqqiyoti uchun asosiy drayver bo'lib xizmat qiladigan xavfsiz va barqaror savdo-

iqtisodiy, transport-kommunikatsiya aloqalari, ko'p variantli transmilliy yo'laklar davlatlar uchun yangi bozorlar sari yo'l ochadi.

Barchaga yaxshi ma'lumki, Markaziy Osiyo ming yillar davomida ishonchli va xavfsiz savdo yo'llari sharofati bilan turli mintaqalar o'rtasida o'ziga xos ko'prik vazifasini o'tagan.

Qadimgi yunon tarixchisi **Strabon** ham o'z asarlarida Oks daryosi, ya'ni Amudaryo bo'ylab Kaspiy va Qora dengiz orqali Yevropaga mahsulotlar yetkazilganini qayd etgan. Shuningdek, miloddan avvalgi uchinchi-ikkinchi ming yilliklardayoq Haybar va Bolan dovonlaridan o'tgan savdo yo'llari Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalarini o'zaro bog'lab turgan.

Hozirgi vaqtda mamlakatlarimiz Buyuk ipak yo'lini yangi tarixiy sharoitlarda qayta tiklash, **Shimol-Janub** va **Sharq-G'arb** muqobil magistral yo'llarini rivojlantirish bo'yicha qator strategik loyihalarni faol ilgari surmoqda.

Bu o'rinda biz, avvalo, **Termiz – Mozori Sharif – Kobul – Peshovar hamda Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston temiryo'llarini qurishga oid loyihalarni nazarda tutmoqdamiz.**

Tahlillarga ko'ra, ushbu yo'llar mintaqalararo transport tashuvlarining muhim zanjiriga aylanishiga ko'maklashish bilan birga, yuk tashish hajmini bir necha barobar oshirish imkonini beradi hamda yuklarni olib o'tish muddati va narxini ham bir necha barobar qisqartiradi.

Jumladan, Termiz – Mozori Sharif – Kobul – Peshovar transchegaraviy temiryo'l tarmog'ining qurilishi va foydalanishga topshirilishi:

- “Shimol – Janub” transport yo'lagini hamda Belarus – Rossiya – Qozog'iston – O'zbekiston – Afg'oniston – Pokiston multimodal marshrutini rivojlantirish;

- Janubiy Osiyodan Yevropa qit'asiga Markaziy Osiyo va MDH davlatlari orqali o'tadigan eng qisqa yo'lni ochish hamda yuklarni tashish muddatini sezilarli darajada qisqartirish;

- Markaziy va Janubiy Osiyoda zamonaviy, samarador va xavfsiz transport-logistika infratuzilmasini yaratish va har ikki mintaqaning tranzit salohiyatini to'liq yuzaga chiqarish, inkluziv iqtisodiy taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratish imkonini beradi.

Qolaversa, mazkur tarmoq o'tmishda Hind-Gang tekisligini Taksila, Gandara, Termiz singari tarixiy shaharlar orqali Yevroosiyoning janubiy hududlari bilan bog'lagan va "Uttarapatxa" nomi bilan mashhur bo'lgan shimoliy savdo yo'lining o'ziga xos zamonaviy shakliga aylanishi mumkin.

Ya'ni, Hindiston bilan Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi transport aloqalari samaradorligini oshirish va zamonaviy infratuzilma yaratish masalalari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu o'rinda "**quruq**" portlar tarmog'ini rivojlantirish dasturini ishlab chiqish, yuk tashishda chegirma va imtiyozli tariflar taqdim etish, bojxona tartibotlarini soddalashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari, xitoylik va qirg'izistonlik sheriklarimiz bilan birgalikda "**Bir makon, bir yo'l**" tashabbusi doirasida qurilayotgan Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston avtomobil va temiryo'li ushbu transmintaqaviy transport va tranzit magistralning muhim tarkibiy bo'g'inidir.

Istiqbolda ushbu loyihaning amalga oshirilishi va Transafg'on koridorining qurilishi "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi doirasida Xitoyni Janubiy Osiyo mamlakatlari bilan muqobil yo'llar orqali bog'lash imkonini beradi. Buning uchun, shuningdek, transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturlarning uyg'unligini ta'minlash va shu asosda uzoq muddatga mo'ljallangan yagona strategiya ishlab chiqish

va uni hayotga tatbiq etish, **“Xavfsiz Ipak yo‘li” konsepsiyasini** amalga oshirish borasida Afg‘oniston yo‘nalishidagi sa‘y-harakatlarimizni muvofiqlashtirishni ham nazarda tutadi.

Bu, o‘z navbatida, yuk oqimining uzluksizligini ta‘minlash va transmintaqaviy logistika tarmoqlarini rivojlantirish uchun tizimli yechimlar ishlab chiqish favqulodda muhimligini hamda xavfsiz, qisqa va qulay transport koridorlarini rivojlantirish strategik ahamiyatga egaligini ko‘rsatdi.

Markaziy Osiyo va Yevropaning transport-kommunikatsiya-viy bog‘liqligini, eng avvalo, **“O‘rta marshrut” deb nom olgan Sharq-G‘arb Transkaspiy xalqaro transport yo‘lagini shakllantirish** orqali rivojlantirish maqsadida mamlakatlarimizning sa‘y-harakatlarini birlashtirish muhimdir. Uning transport yo‘lagining barqaror faoliyat yuritishi o‘zaro savdo-iqtisodiy hamkorlikni yanada chuqurlashtirishning muhim omili bo‘lib, YEIning “Global darvoza” tashabbusi maqsadlariga mos.

Ushbu loyihaning amalga oshirilishi TDT va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan hamkorlik doirasida doimiy ravishda muhokama qilib borilmoqda. Jumladan, uni hayotga tatbiq etish maqsadida TDT doirasida **“Xalqaro aralash yuk tashish to‘g‘risida” va “Soddalashtirilgan bojxona yo‘lagi to‘g‘risida”gi bitimlar imzolandi**, **“Transport sohasida bog‘liqlik dasturi”** va ularni hayotga tatbiq etish bo‘yicha tegishli **“yo‘l xaritasi”** amalga oshirilmoqda.

Transport va tranzit protseduralarini raqamlashtirish bo‘yicha sa‘y-harakatlarimiz doirasida **“raqamli TIR”, “e-Permit” va “eCMR”** loyihalari bajarilmoqda.

Ushbu sa‘y-harakatlarimiz natijasida 2024-yilda O‘rta koridor bo‘ylab yuk tashish hajmi 2023-yildagi 2,76 million tonnadan 4,2 million tonnaga yetishi kutilmoqda. Jahon banki tahliliga ko‘ra, ushbu tranzit yo‘lagi orqali 2030-yilga borib Xitoyning g‘arbiy chegarasidan Yevropagacha

bo'lgan sayohat vaqtlari ikki barobar qisqaradi va yuk hajmi uch barobar oshib, 11 million tonnaga yetadi.

Bugungi kunda xorijiy hamkorlarimiz bilan **“Turkiya – Kavkaz – Markaziy Osiyo – Afg'oniston – Janubiy Osiyo”** yangi multimodal yo'lagini birgalikda shakllantirish loyihasi ishlab chiqilmoqda.

Muhimi, barpo etilayotgan yangi transport yo'laklari xalqlarimizni yanada yaqinlashtirish va iqtisodiy salohiyatimizni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Biz taraqqiyotimizning bugungi bosqichida transport sohasida quyidagi vazifalarni tizimli ravishda hal etish tarafdorimiz:

- yuk oqimining uzluksizligini ta'minlash va transmintaqaviy logistika tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha tizimli yechimlar ishlab chiqish, xavfsiz, qisqa va qulay transport yo'laklarini rivojlantirish;

- transportning barcha turlarida multimodal tashuvlarni tashkil etish orqali transport yo'laklarini yanada rivojlantirish;

- asosiy mintaqaviy yo'laklar orqali yuk tashishda biznes uchun jozibador shartlarni shakllantirish;

- xususiy sektor vakillarining transport-logistika jarayonlaridagi faol ishtirokini har tomonlama rag'batlantirish;

- yo'lovchi va yuk tashishda boshqarish jarayonlarini va ko'rsatiladigan xizmatlarni raqamlashtirish;

- transport kommunikatsiyalari, infratuzilmasi va harakati tarkibini modernizatsiya qilish dasturlari va loyihalarini amalga oshirish;

- mamlakatlarimiz o'rtasida tranzitga doir tartib-taomillarni soddalashtirish, bojxona tranzitining yagona tizimi bilan o'zaro raqamli hamkorlikni yo'lga qo'yish;

- mahsulot va xizmatlar, investitsiyalarning erkin harakatini ta'minlash uchun transport-kommunikatsiya, energetika infratuzilmalarini shakllantirish choralarini ishlab chiqish va ularni hayotga tatbiq etish;

- bojxona organlari o'rtasida **“yagona oyna”** tizimini yo'lga qo'yish ishlarini jadallashtirish hamda bojxona-chegara o'tkazish punktlarining uzluksiz ishlashini ta'minlash;

- joylarda ombor infratuzilmasi va logistika markazlarini qurish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturlarning uyg'unligini ta'minlash va shu asosda uzoq muddatga mo'ljallangan yagona strategiya ishlab chiqish va uni hayotga tatbiq etish.

Ushbu vazifalar hamkor davlatlar o'rtasida savdo-iqtisodiy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish, **global logistika zanjirlari, transport yo'laklarini rivojlantirish va diversifikatsiya qilish, yagona tranzit tarmog'ini shakllantirishga** xizmat qiladi.

To'rtinchi. Global miqyosda iqlim o'zgarishi oqibatida yuzaga kelayotgan xavf-xatarlarni inobatga olgan holda milliy, mintaqaviy va global darajalarda barqaror “yashil taraqqiyot”ga erishish, tegishli milliy dastur va strategiyalarni amalga oshirishga qaratilgan siyosatimizni yangi bosqichga olib chiqamiz.

Bunda, yuqorida qayd etilgan ushbu sohadagi hamkorlik yo'nalishlariga qo'shimcha ravishda quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratamiz.

Birinchidan, O'zbekistonning o'zi a'zo bo'lgan va hamkorlik qilayotgan global va mintaqaviy tashkilotlarning iqlim va ekologiya masalalariga mas'ul tuzilmalari ishida faol ishtirok etib kelmoqdamiz.

Xususan, mamlakatimizning **BMTning Taraqqiyot dasturi, Yevropa iqtisodiy kengashining Atrof-muhit siyosati qo'mitasi** kabi tuzilmalari bilan hamkorligi yangi bosqichga ko'tarildi. **BMTning Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi doiraviy konvensiyasi Tomonlar konferensiyasining** ishida ishtirok eta boshladik.

O'zbekiston, jumladan, Markaziy Osiyo davlatlari ichida birinchi bo'lib **Transchegaraviy ochiq suv oqimlari va xalqaro ko'llarni**

muhofaza qilish hamda foydalanish bo'yicha Konvensiyaning Suv va salomatlik to'g'risidagi Protokoliga qo'shildi. Bu borada BMT YEIK va Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti bilan suv, sanitariya, gigiyena va sog'liqni saqlash bo'yicha integratsiyalangan maqsadlarni belgilash va ularga erishish, iqlim o'zgarishi sharoitida aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, suv orqali yuqadigan kasalliklardan himoya qilish kabi yo'nalishlarda ko'p tomonlama hamkorlikni amalga oshirmoqda.

BMT Bosh Assambleyasi sohaga tegishli O'zbekiston tashabbuslari asosida qator rezolutsiyalar qabul qildi. Ular, xususan, Orol dengizi mintaqasining ekologik muammolarini hal etish, "Markaziy Osiyo uchun yashil kun tartibi" dasturini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish, barqaror rivojlanish va farovonlik uchun mintaqaviy birdamlikni mustahkamlash, sohadagi vazifalarni amalga oshirishda parlamentlar, fuqarolik jamiyati institutlarini keng jalb etish kabi masalalarni o'z ichiga qamrab oladi.

Hozirda ekologik inqiroz bilan bog'liq ravishda global miqyosda qashshoqlik ko'paymoqda, insonning sog'liq, toza suv, oziq-ovqat va uy-joyga bo'lgan huquqlarini ta'minlash xavf ostida qolmoqda.

Bu, shuningdek, iqlim o'zgarishi oqibatida inson huquqlariga yetkaziladigan zararni keskin kamaytirish uchun jahon mamlakatlari, kelajak avlodlar taqdiri uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan holda, birgalikda samarali choralar ko'rishi lozimligini ko'rsatadi.

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, O'zbekiston BMT Bosh Assambleyasining **"Markaziy Osiyoda iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlariga qarshi kurashish sharoitida inson huquqlarini himoya qilish to'g'risida"**gi rezolutsiyasini ishlab chiqish tashabbusini ilgari surdi. Jahon amaliyotiga o'ziga xos "Samarqand ruhi"ni olib kirgan Inson huquqlari bo'yicha IV Samarqand forumi doirasida esa "Iqlim o'zgarishi sharoitida inson huquqlarini global himoya qilish: barqaror kelajak uchun majburiyatlar va harakatlar to'g'risida"gi deklaratsiya ishlab chiqildi.

O'zbekiston MDHning Davlatlararo ekologik kengashi, vazirlar darajasida doimiy faoliyat ko'rsatadigan Turkiy ekologiya forumi, SHHTga a'zo davlatlar atrof-muhit masalalari bo'yicha kengashi kabi mintaqaviy institutlar doirasida hozirgi va kelajak avlodlarning toza atrof-muhitga bo'lgan huquqini ta'minlashga qaratilgan keng qamrovli faoliyat olib bormoqda.

Bunda iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va "yashil makon" kun tartibini ilgari surish, bioxilma-xillik bo'yicha global va mintaqaviy dasturlarni qo'llab-quvvatlash, atrof-muhit holatini doimiy monitoring qilish va sohadagi tahdidlar hamda xavf-xatarlarni erta bartaraf etish, sohaga tegishli masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilish jarayonlariga jamoatchilikni keng jalb etish, biologik xavfsizlikni ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlarni birlashtirish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratmoqdamiz.

Ikkinchidan, sohadagi muammo va xatarlarni bartaraf etishga qaratilgan hamkorlikdagi kompleks dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish borasida ham qator strategik vazifalarni belgilab olganmiz.

Xususan, SHHT Davlat rahbarlari kengashining iqlim o'zgarishiga nisbatan javob harakatlari, energetik xavfsizlikni ta'minlash to'g'risida qator bayonotlari qabul qilindi. SHHT mamlakatlarining qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi hamkorlik dasturi ishlab chiqildi, 2024-yil "Ekologiya yili" deb e'lon qilindi.

Ushbu hujjatlar sohadagi kompleks hamkorligimizni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilmoqda. **Orol dengizining qurishi, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muammolarga kompleks yechim topish, bioxilma-xillikni himoya qilish, muzliklar va tuproq hosildorligini saqlash, suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish, uglerod neytralligiga erishish va "yashil iqtisodiyot"ga o'tish kabi yo'nalishlarda keng qamrovli amaliy ishlar olib borilmoqda.**

Turli sohalarni raqamlashtirish bo'yicha qabul qilgan hujjatlarimiz "raqamli va yashil texnologiyalar", "aqlli shaharlar", "yashil shaharlar" singari konsepsiyalarni hayotga tatbiq etishda yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

Bu borada ta'kidlash joizki, yaqinda Samarqand Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining "yashil shaharlar" dasturiga kiritildi. Biz Nukus, Andijon, Buxoro va Namangan kabi shaharlarimizni ham ushbu dasturga kiritishda YETTBning ko'magiga tayanamiz.

Umuman, barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, xalqaro mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlik masalalarida:

- davlatlarning milliy va birgalikdagi siyosatida atrof-muhitni muhofaza qilishga ustuvor ahamiyat berish, jamiyatning ekologik madaniyatini yuksaltirish, sohadagi muammolar haqida xabardorligini oshirish uchun zarur choralarni ko'rish;

- tabiiy va texnogen ofatlarning oldini olish, ularga javob berish, oqibatlarini yumshatish va qayta tiklanish borasida birgalikda harakat qilish;

- shaharlarni rivojlantirish siyosatida resurs va energiya sarfini kamaytirish, ifloslanish va chiqindilarni minimallashtirish hamda shaharsozlikning "yashil taraqqiyot", ko'kalamzorlashtirish, inkluzivlik, energiya-tejamkorlik, xavfsizlik va barqarorlik singari tamoyillarini amalga oshirishga ko'maklashuvchi ilg'or va aqlli texnologiyalardan keng foydalanish;

- insonlarning toza va qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqlarini ta'minlash, ekologik muvozanatni va biologik xilma-xillikni saqlash, tabiat resurslaridan foydalanish samaradorligini maqbullashtirishning zamonaviy raqamli yechimlarini qo'llab-quvvatlash, AKT infratuzilmasi, yashil va raqamli texnologiyalarni jadal rivojlantirish kabi vazifalarga alohida e'tibor qaratmoqdamiz.

Shuningdek, iqlimga qarshi kurash borasida **nafaqat alohida bir mintaqa, balki mintaqalararo munosabatlarni rivojlantirishni nazarda tutuvchi ko'p tomonlama hamkorlik** dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishga qaratilgan faoliyatni qo'llab-quvvatlaymiz.

Bunda BMT Bosh Assambleyasining Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasi deb e'lon qilish, "Markaziy Osiyo ekologik muammolar qarshisida: barqaror rivojlanish va farovonlik yo'lida mintaqaviy birdamlikni mustahkamlash" kabi qator rezolutsiyalarida belgilangan vazifalarni global va mintaqalararo o'zaro bog'liqlik tamoyili asosida amalga oshirish ustuvor ahamiyatga ega.

Bu borada, jumladan, xalqaro mintaqaviy tashkilotlar va "Markaziy Osiyo +" hamkorligi doirasida:

- doimiy va samarali faoliyat yurituvchi iqlim muloqoti platformasini yaratish va ishga tushirish;

- iqtisodiyot tarmoqlarini "yashil taraqqiyot" talablari asosida transformatsiya qilish va raqamlashtirish, transport va energetika bo'yicha barqaror infratuzilmani yaratish, "yashil sanoat" quvvatlarini ishga tushirish, yashil texnologiyalar transferini amalga oshirish, kambag'allikni qisqartirish va "aqlli" qishloq xo'jaligini rivojlantirishni o'z ichiga olgan "Yashil taraqqiyot" dasturini ishlab chiqish;

- shuningdek, "Yashil bandlik", "Yashil energetika" kabi strategiyalar, konsepsiyalar va dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, "Yashil fond" jamg'armalarini tuzish hamda iqlim kun tartibini amalga oshirishda yashil moliyalashtirish vositalaridan keng foydalanish;

- yashil va innovatsion, kreativ taraqqiyot muammolarini o'rganish, ilmiy asoslangan tegishli tavsiyalar ishlab chiqishga ko'maklashuvchi "aql markazlari" faoliyatini qo'llab-quvvatlash kabi vazifalar ham muhim, deb hisoblaymiz.

Uchinchidan, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish sohasidagi eng ta'sirchan va samarali usullardan biri — mamlakatlarimizning

“yashil taraqqiyot” yo‘liga o‘tishi, “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishi hisoblanadi.

Bu tabiiy resurslar, shu jumladan, suvdan, nooqilona foydalanish, havoning ifloslanishi, o‘rmonlarning qisqarishi, yerlarning degradatsiyaga uchrashi va iqlim o‘zgarishi kabi ekologik muammolarni hal etishga yordam beradi. **Zero, mamlakatlarimizning raqobatbardoshligini ta’minlash yuksak zamonaviy texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish va eksportni oshirish bilan bevosita bog‘liqdir.**

Bunda, jumladan, bosqichma-bosqich “yashil energetika”ga o‘tish bo‘yicha hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqmoqdamiz. Mintaqa bo‘ylab quyosh, shamol va gidroenergetika infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha muhim kelishuvlarga erishildi va qator loyihalarni amalga oshirish boshlandi. Ushbu maqsadlar uchun qariyb 6 milliard AQSH dollarilik sarmoya ajratilishi belgilandi.

Bundan tashqari, hozir O‘zbekistonda 9 gigavattli 22 ta quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish loyihasi ustida jadal ishlar olib borilmoqda, xususan:

- Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki va Jahon banki bilan birga 2050-yilgacha milliy iqtisodiyotni dekarbonizatsiya qilish strategiyasini ishlab chiqishga kirishdik. So‘nggi yillarda YETTB bilan umumiy quvvati 1,2 gigavatt bo‘lgan 3 ta yirik quyosh stansiyasi barpo etilmoqda;

- Xitoy bilan birgalikda umumiy quvvati qariyb 5 gigavattni tashkil etadigan 11 ta quyosh va shamol stansiyasini qurish ishlariga start berildi;

- “ACWA Power” kompaniyasi bilan hamkorlikda Sirdaryo viloyatida 1,5 gigavatt quvvatli zamonaviy issiqlik elektr stansiyasi hamda Toshkent viloyatida “yashil vodorod”ni “pilot” tarzda ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish ishlariga kirishildi;

- “Masdar”, “China Gezhouba Group” kabi jahondagi ilg‘or kompaniyalar ham mamlakatimizda qator yirik loyihalarni amalga oshirmoqda.

Shuningdek, “Yashil belbog” dasturi doirasida xorijiy hamkorlarni jalb etgan holda mintaqaviy ekologik loyihalarni qo'llab-quvvatlash va “yashil texnologiyalar”ni keng joriy qilish asosida sanoat sohasida va muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan dasturlarni amalga oshirish uchun **Orolbo'yi mintaqasida Maxsus namunali texnologik parklar** tashkil etilmoqda.

O'zbekiston “Yashil ipak yo'li” doirasida keng ko'lamli xalqaro hamkorlikni rivojlantirishdan ham manfaatdor. “Yashil” ishlab chiqarish zanjirlari va innovatsiyalarni rivojlantirish sohasida amaliy hamkorlikni kengaytirishni muhim deb hisoblaymiz.

Atrof-muhitni va iqlim o'zgarishini o'rganish hamda mintaqamizda ekologik muammolarning oldini olish sohasida **malakali mutaxassislar tayyorlash** muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu maqsadda Toshkent viloyatida **Markaziy Osiyodagi birinchi eko-universitet — “Green University”** faoliyati yo'lga qo'yildi. Hozirgi davrda ushbu universitet negizida Ko'rfaz mamlakatlari bilan hamkorlikda xalqaro tadqiqotlar o'tkazish, tizimli ravishda malakali mutaxassislar tayyorlash dasturini amalga oshirish ishlari olib borilmoqda.

Umuman, ushbu vazifalar global va mintaqaviy darajada umumiy sa'y-harakatlarimizni birlashtirgan va kuchaytirgan holda bashariyatning “yashil kelajagi”ni yaratishga xizmat qiladi.

Beshinchi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, agrosanoat komplekslari, logistika va “ekspres” yo'laklari o'rtasidagi bog'liqlikni kuchaytirish, tarmoqni texnologik modernizatsiya qilish masalalari ham eng ustuvor vazifalar sirasiga kiradi.

“O'zbekiston — 2030” strategiyasida barcha sohalar qatori qishloq xo'jaligi bo'yicha ham muhim vazifalarni belgilab oldik. Jumladan, resurslarni tejaydigan innovatsion texnologiyalar asosida mahsulot tannarxini 30–35 foizga tushirish, suvni tejaydigan texnologiyalar joriy qilingan maydonlarni 1 million 500 ming gektarga yetkazish, sifatli va

serhosil navlarni, zotdor chorva naslini ko'paytirishga, ekologik toza mahsulotlar yetishtirishga ustuvor ahamiyat beriladi.

Shu maqsadda ikki va ko'p tomonlama hamkorligimiz doirasida sifatli va hamyonbop oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, sohaga innovatsiyalar, zamonaviy bilim va ilg'or texnologiyalarni jadal olib kirish, ularni saqlash va iste'molchilarga yetkazib berish bo'yicha logistik xizmatlarni rivojlantirish, turli mintaqalarda oziq-ovqat taqchilligi bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish bo'yicha qo'shma dasturlarni amalga oshirish kabi vazifalarga alohida e'tibor qaratmoqdamiz.

Bunda, ayniqsa, iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini bartaraf etish, dunyo aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlash borasida global, mintaqalararo va mintaqaviy aloqalarni mustahkamlash zarur.

Bu borada BMTning **Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti**, xalqaro moliyaviy institutlar bilan keng qamrovli sheriklikni chuqurlashtirmoqdamiz. Xalqaro mintaqaviy tashkilotlar doirasida:

- davlatlarning qishloq hududlarini, agrar sohani barqaror rivojlantirish borasidagi siyosati, qonunchiligi, standartlari va dasturlarini uyg'unlashtirish, sohani rivojlantirish uchun investitsiyalarni keng jalb etish;

- organik fermerlikni rivojlantirish, "aqli" qishloq xo'jaligi va agroinnovatsiyalar, xususan, "yashil" va suvni tejaydigan, qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan zamonaviy texnologiyalar va ilg'or, jumladan, raqamli yechimlarni ishlab chiqish hamda sohaga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish;

- qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tarmog'ini ilg'or jahon tajribasi asosida modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, tabiiy resurslarda, jumladan, yer va suv resurslari, o'rmon fondidan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish orqali barqaror o'sishni ta'minlash;

- xalqaro bozorlarda raqobatbardosh, yuqori qo'shilgan qiymatli qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish, iste'molchilarga yetkazib berishni nazarda tutuvchi qulay agrobiznes muhitini va qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish.

Shu maqsadda agrobiznes vakillari o'rtasida kooperatsiya aloqalarini rag'batlantirish, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni lokallashtirish loyihalarini amalga oshirish, qo'shma agrosanoat klasterlari va logistika markazlarini tashkil etishni qo'llab-quvvatlash, "Yevroosiyo agroekspressi" kabi "yashil yo'lak"larning to'laqonli faoliyatini ta'minlash;

- qishloq xo'jaligi sohasidagi oliy o'quv yurtlari va ilmiy tadqiqot muassasalari o'rtasida samarali hamkorlikni tashkil etish, ilmiy-amaliy tadqiqotlarni birgalikda olib borish, qishloq xo'jaligi texnologiyalari sohasida kadrlar almashinuvi, malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo'yicha samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish;

- sohaga oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi, sifat nazorati, xalqaro bozorlarda tan olingan sifat standartlarini (Global G.A.P, Organic, HACCP va boshqalar) joriy etish, tegishli sertifikatlash tizimlari, akkreditatsiyadan o'tgan laboratoriyalar tarmog'ini yaratish, bu borada yuqori malakali kadrlarni tayyorlash;

- qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishiga erishish borasidagi hamkorlik masalalariga nafaqat davlat va biznes hamjamiyati, balki fuqarolik jamiyati institutlarini ham keng jalb etish, shu maqsadda "parlament diplomatiyasi", "xalq diplomatiyasi", "madaniy diplomatiya" kabi institutlardan foydalanish kabi vazifalar muhim ahamiyatga ega.

Ushbu yo'nalishlarda BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO), Qishloq xo'jaligini rivojlantirish xalqaro jamg'armasi (IFAD), Oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha Islom tashkiloti (IOFS) va BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) kabi tegishli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishdan manfaatdormiz.

Oltinchi. Butunjahon turizm tashkiloti, xalqaro mintaqaviy tashkilotlar va moliyaviy institutlar bilan turizm sohasidagi ko'p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish bo'yicha muhim chora-tadbirlar belgilanadi.

Turizmni dunyoning barcha mintaqalarida jadal rivojlantirish va uni jahon iqtisodiyoti drayverlaridan biriga aylantirish, O'zbekistonning turistik jozibadorligini oshirish, sohaga investitsiyalarni jalb etish, turistik infratuzilmani rivojlantirish va xizmatlar sifatini keskin oshirish bo'yicha aniq loyihalar va chora-tadbirlarni amalga oshirish tashqi siyosatimizning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolaveradi.

Turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish borasida jahon hamjamiyati bilan yaqindan hamkorlikni ikki tomonlama hamda ko'p tomonlama formatlarda yanada kuchaytiramiz.

Shu maqsadlarda, xususan, mamlakatimizda ilk marotaba Samarqandda **Butunjahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasi 25-sessiyasini o'tkazdik**. Unda dunyoning 140 dan ortiq mamlakatidan yuqori darajali delegatsiyalar, turizm sohasidagi yetakchi kompaniyalar, oliy ta'lim muassasalari va tashkilotlar vakillari ishtirok etdi.

Anjuman doirasida o'tkazilgan investitsiya va ta'lim forumlari jahonning barcha turoperatorlari, oliygohlar va yirik kompaniyalarning o'zaro muloqoti hamda barcha hududlarimizga o'zlarining boy tarixiy va madaniy salohiyatini, sayyohlik imkoniyatlarini to'liq namoyish etishi uchun samarali maydon bo'ldi.

Ularning yakunida sohaga tegishli qator qo'shma dastur va loyihalarni amalga oshirish yuzasidan aniq shartnoma va bitimlar imzolandi, istiqbolli investitsiya loyihalari paketi qabul qilindi. Ushbu hujjatlar va kelishuvlar global, mintaqaviy va milliy turizm industriyasining jadal rivojlanishi, mintaqalarimizning turistik salohiyatini oshirish va ro'yobga chiqarishga salmoqli hissa qo'shmoqda.

Unda, shuningdek, O'zbekistonning global turizmning eng dolzarb muammosi — bu turistlarning kafolatlangan xavfsizlik tizimini ta'minlash, Global xavfsiz turizm kodeksini ishlab chiqish, 2025-yilni “Butun jahon inkluziv turizm yili” deb e'lon qilish, BTT huzurida Sayyohlik bo'yicha tarixiy shaharlar kengashini tuzish kabi yuqorida qayd etilgan qator takliflari qo'llab-quvvatlandi. Shuningdek:

- **Samarqandga “Madaniy turizmning xalqaro poytaxti”** maqomini berish to'g'risidagi deklaratsiya, O'zbekistonni **“Ipak yo'lida turizm”** markaziga aylantirish maqsadida Samarqand shahrida diplomatik mavqega ega bo'lgan **BTT Tematik ofisini** ochish bo'yicha rezolutsiya qabul qilindi;

- **Xalqaro turizm akademiyasini tashkil etish** to'g'risida bitim imzolandi. Dunyoda o'xshashi yo'q ushbu akademiya turizm sohasida mutaxassislar tayyorlaydigan va ularning malakasini oshiradigan global ta'lim habiga aylanadi va jahon turizm sanoatini yanada rivojlantirishga munosib hissa qo'shadi.

Ushbu hujjatlar bugungi kunda O'zbekiston, jumladan, “Yer yuzining sayqali” deya shuhrat qozongan, Sharqning ikki buyuk Uyg'onish davri rivojiga ulkan hissa qo'shgan, asrlar bo'yi o'z tarovati va beqiyos merosini bezavol saqlab kelayotgan, bag'rikengligi va mehmondo'stligi bilan butun dunyoda tanilgan **Samarqandning zamonaviy sayyohlik markazlaridan biriga aylanib borayotganidan ham dalolat beradi.**

Iqlim o'zgarishlari tobora kuchayib borayotgan davrda “yashil turizm”ni rivojlantirish bo'yicha xalqaro Harakatlar dasturini qabul qilish har qachongidan ham dolzarbdir.

BTT ko'magida yaqinda ish boshlagan Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti hamda Samarqanddagi “Ipak yo'li” xalqaro universiteti hamkorligida Global “yashil turizm”, ekoturizm, tibbiy va sog'lomlashtirish kabi turizmlar startaplari laboratoriyasini yaratish ishlari amalga oshirilmoqda.

Turkiy dunyo va o'zaro bog'liqlik tamoyili asosida Markaziy va Janubiy Osiyo, Ko'rfaz mamlakatlari, bugungi kunda 1 milliard 700 million aholi yashaydigan 57 ta davlatni birlashtirgan Islom hamkorlik tashkiloti hamda MDH davlatlarining ulkan sayyohlik salohiyatini to'liq ishga solish sohada yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.

Davriy ravishda o'tkazilishi yo'lga qo'yilgan madaniyat va turizm vazirlarimizning samarali uchrashuvlari xalqlarimiz naqadar boy tarixiy va madaniy merosga ega ekani, sayyohlik sohasida katta imkoniyatlarimiz borligini yaqqol ko'rsatdi.

Biz xalqlarimizning tarixiy va madaniy merosini ommalashtirishga qaratilgan alohida sayyohlik dasturlari, loyihalarni amalga oshirish, hunarmandchilik ko'rgazmalari va etnosport musobaqalarini o'tkazish, madaniy meros obyektlarini saqlash va restavratsiya qilish kabi yo'nalishlardagi hamkorligimizni ham yuksak baholaymiz.

Bu borada tobora jozibadorligi ortib borayotgan "tabarruk ziyorat turizmi", "Turkiy dunyo turizmi" singari loyihalar, vaksinatsiya bo'yicha o'zaro tan olingan sertifikatlar asosida "Yangi sharoitdagi turizm" konsepsiyasi keng joriy etilishiga erishmoqdamiz.

Shu bilan birga, sohani rivojlantirishda jahon turizm tarmog'ida yetakchi hisoblanadigan jahon davlatlari tarixiy meros obyektlarini asrab-avaylash va rekonstruksiya qilish, zamonaviy infratuzilmani yaratish hamda sayyohlar oqimini boshqarish bo'yicha tajribalari o'rganilib, amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Samarqand shahri "Turkiy sivilizatsiya poytaxti", Xiva shahri esa — Islom hamkorlik tashkiloti tomonidan "Islom dunyosining turizm poytaxti" deb e'lon qilindi.

Butunjahon turizm tashkilotining **eng yaxshi turizm qishloqlari** tanlovida ilk bor mamlakatimizning Navoiy viloyati Nurota tumanidagi **Sentob qishlog'i** g'oliblar qatoridan o'rin oldi.

Qayd etish lozimki, sayyoramiz aholisining 44 foizini qamrab olgan SHHT hududi salohiyati to'liq amalga oshirilmagan ulkan turizm bozori hisoblanadi.

Shu maqsadda Samarqanddagi SHHT sammitida turizm rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va xorijiy davlatlar aholisini o'zaro bir-birlarining madaniy hayoti bilan yanada yaqinroq va yaxshiroq tanishtirishga qaratilgan **“SHHTga a'zo davlatlar hukumatlari o'rtasida turizm sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim”** imzolandi.

Ushbu bitimda a'zo davlatlarning iqtisodiy va sayyohlik salohiyatini rivojlantirish, shuningdek, tomonlar davlatlari xalqlarining tarixi, madaniyati, tabiati va an'analari bilan yaqindan tanishish maqsadida turizm sohasidagi hamkorlikni kengaytirishga hissa qo'shadilar.

“SHHTning ichki turizmi”ni rivojlantirish maqsadida Tashkilotga a'zo mamlakatlar turizm vazirlarining hamkorligi yo'lga qo'yildi. SHHT turizm industriyasini rivojlantirish bo'yicha aniq loyihalar amalga oshirilmoqda, qo'shma ilmiy-amaliy anjumanlar o'tkazilmoqda.

Umuman, mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlik masalalarida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda va bunda:

- davlatlarning sohaga oid siyosati va qonunlarini uyg'unlashtirish, umumiy standartlarga erishish, davlatlarga tashrif buyuradigan turistlar uchun narxlarni maqbullashtirish, viza berish tartibini yengillashtirish;
- tegishli davlat va xususiy sektor o'rtasida hamkorlik tarmog'ini yaratish hamda hamkorlikni kengaytirish va o'zaro tajriba almashishni ta'minlash maqsadida mashhur turistik shaharlar ittifoqini tuzish;
- mintaqani jozibador turizm markaziga aylantirish va davlatlarning turistik salohiyatidan to'liq foydalanish uchun qadimiy Ipak yo'li bo'ylab sayyohlik yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish, turistlar uchun mo'ljallangan zamonaviy klasterlarni yaratish, qo'shma turistik mahsulotlarni ko'paytirish;

- davlatlarda xizmatlar va turistik mahsulotlar sifatini oshirish maqsadida turizm infratuzilmasi va xizmat ko'rsatish sohasiga investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash, turizm industriyasi salohiyatini oshirish dasturlarini amalga oshirish kabi vazifalarga alohida e'tibor qaratmoqdamiz.

Xorijiy davlatlar turizm vazirlari bilan qator uchrashuvlar tashkil etilib, istiqbolda mamlakatimizga turizm oqimini oshirish, yangi yo'nalishlarda aviaqatnovlarni yo'lga qo'yish va davlatlararo tajriba almashish masalalari bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, yangi qo'shma turizm loyihalari, turli innovatsion turizm dasturlari zamonaviy xalqaro reklama va marketing uslublarini keng joriy etish orqali **mintaqaning boy qadimiy va zamonaviy madaniy merosini targ'ib qilish** masalalariga alohida urg'u bermoqdamiz.

Shu maqsadda turizm sohasining faol targ'ibotchilari — jurnalistlar, blogerlar va ommaviy axborot vositalari vakillarining imkoniyatlaridan keng foydalanish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, yetakchi ommaviy axborot vositalari, jurnalistlar va eng yaxshi sayohat blogerlarini o'zida birlashtiradigan Global media kampusini tashkil etish vaqti keldi, deb hisoblaymiz. Mintaqaviy tashkilotlarimiz esa — qo'shimcha platformalar yaratish orqali bu iqtidorli va jonkuyar ijodkorlarning katta kuch va salohiyatini birlashtirishda faol rol o'ynashi lozim.

Shuningdek, turizm yo'nalishini ommalashtirish maqsadida mahalliy turoperatorlarning yirik xalqaro turizm yarmarkalari va ko'rgazmalarida ishtirok etishini qo'llab-quvvatlash borasidagi amaliy hamkorlik kengaytirilmoqda. Xalqaro madaniy tashkilotlar bilan hamkorlikda turli festivallar, ko'rgazmalar va boshqa madaniy tadbirlarni tizimli o'tkazish yo'lga qo'yildi.

Jumladan, 2023-yilda dunyoning yetakchi mamlakatlarida bo'lib o'tgan 19 ta xalqaro yarmarkada O'zbekistonning milliy turizm salohiyati

keng namoyish etildi. Shuningdek, Malayziyaning Kuala-Lumpur shahrida joylashgan Islom san'ati muzeyida "O'zbekiston — islom sivilizatsiyasi markazi" mavzusida fotoko'rgazma, Buyuk Britaniyaning London shahrida "Uzbek culture" festivali tashkillashtirildi.

Turizm industriyasini rivojlantirish borasidagi keng ko'lamli ishlarimiz va xalqaro hamkorligimiz jahon hamjamiyati tomonidan alohida e'tirofga sazovor bo'lmoqda. O'zbekiston Butunjahon turizm tashkilotining "eng tez rivojlanayotgan turizm maskanlari" ro'yxatida, shuningdek, mashhur "Gellop" ijtimoiy tadqiqot markazining "Sayyohlik uchun eng xavfsiz davlat" reytingida yuqori o'rinlarni egallab kelmoqda.

Shu bilan birga, mamlakatimiz AQSHning "National geographic traveler awards" ro'yxatida "Yil yangiligi" hamda "Gastronomik turizm" nominatsiyalari g'olibi bo'ldi.

2023-yilda O'zbekiston "Jahon musulmon sayyohlari indeksi"da "Eng kuchli sayohat yo'nalishi" sifatida tan olindi.

Umuman, yuqoridagi ustuvor yo'nalishlar iqtisodiyotimizning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi va dunyo bozorida raqobatbardoshligini oshirish, barqaror iqtisodiy o'sish uchun zarur sharoit yaratish hamda shu orqali aholi farovonligini oshirish, yurtimiz obodligini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekistonning yangi siyosati vektorlari: vatandoshlar bilan hamkorlik va migrantlarning huquqlarini himoya qilish

Har bir inson uchun uning kindik qoni to'kilgan zamin doimo aziz va muqaddas hisoblangan. Vatan tuyg'usi eng insoniy, eng mo'tabar tuyg'ulardan biri. Vatanga muhabbat — shukronayi ne'mat, deydilar. Turli sabablar bois o'zga mamlakatlarda istiqomat qilayotgan kishilar hamisha o'zining tug'ilib o'sgan yurtiga, asl ildizlariga intilishi ayni

haqiqat. Zero, **Vatan** — eng avvalo, ota-bobolarning pokiza xoklari ila sharaflangan yurtidir.

O'tmishda taqdir hukmi bilan yurtimizdan ketishga majbur bo'lgan ne-ne ulug' ajdodlarimiz ham doimo ona Vatanini sog'inib, unga talpinib yashaganlar. Hindistonda buyuk saltanat barpo etgan Bobur Mirzoning **“Ko'nglum bu g'ariblikda shod o'lmadi, oh, G'urbatda sevinmas emish albatta kishi”**, degan iztirobli satrlari yoki ilmu ma'rifat ishtiyoqida dunyo kezib, oxir-oqibat Yorkentda qolib ketgan Furqatning ona yurtini qo'rsab chekkan hasratlari ham Vatan tuyg'usining qay darajada qudratli kuchga ega ekanligidan dalolat beradi. Bunday misollarni yana ko'p keltirish mumkin.

Ona zaminga muhabbat tuyg'usi — odamzodning qon-qoniga singib ketgan, uning o'zligini belgilovchi yuksak tushunchadir.

Albatta, hozir zamon o'zgardi. Bugungi kunda ming-minglab vatandoshlarimiz chet mamlakatlarda yashab, turli sohalarda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning barchasini yagona qadriyat — ona Vatanga sadoqat, uning ravnaqi va farovonligiga hissa qo'shishdek ezgu niyat birlashtirib turadi, desak bu ham ayni haqiqatdir.

Biz ana shunday vatandoshlarimizni tarixiy Vatan atrofida yanada jipslashtirish, qalbi va ongida ona yurt bilan faxrlanish tuyg'usini yuksaltirish, milliy o'zlikni saqlab qolish, ularning yurtimiz taraqqiyotiga doir ijodiy g'oyalarini, tashabbuslarini rag'batlantirish, xorijda murakkab hayotiy vaziyatga tushib qolgan vatandoshlarimizni belgilangan tartibda moddiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularga axborot jihatidan va huquqiy yordam ko'rsatish kabi masalalarni Yangi O'zbekiston siyosatining ustuvor yo'nalishi deb belgiladik.

Xususan, 2021-yilda **“Vatandoshlar” jamoat fondini** tashkil etdik. Mazkur jamoat fondini tashkil etishdan asosiy maqsad — dunyoning 100 ga yaqin mamlakatlarida istiqomat qilayotgan 10 milliondan ortiq

vatandoshlar, ular tomonidan tashkil etilgan 170 dan ortiq madaniy markazlarni qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Vatandoshlar bilan ishlash yo'nalishlarida quyidagi vazifalar amalga oshirilmoqda:

Birinchi. Xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari, ular istiqomat qilayotgan davlatning qonunchiligi hamda O'zbekistonning xalqaro shartnomalari asosida xorijdagi vatandoshlarning huquq va erkinliklarini amalga oshirishga ko'maklashilmoqda.

Masalan, nisbatan qisqa vaqt davomida mazkur yo'nalishda minglab vatandoshlarimizga Tashqi ishlar vazirligi va xorijdagi diplomatik vakolatxonalar hamda konsullik muassasalari tomonidan tegishli yordam ko'rsatildi.

Ikkinchi. Vatandoshlar salohiyatini O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy ravnaqi va xalqaro maydondagi nufuzini yanada mustahkamlashga jalb qilish barobarida ularning yurtimiz taraqqiyotiga doir ijodiy g'oyalari, tashabbuslari rag'batlantirilmoqda.

Xususan, biz O'zbekistonda tug'ilib, xalqaro miqyosda turli sohalarda muvaffaqiyatlarga erishayotgan, dunyoning ko'zga ko'ringan tashkilotlarida samarali faoliyat yuritayotgan vatandoshlarning boshini qovushtirish maqsadida "Uzbekistan's club" global platformasini tashkil etdik.

Bugun chet davlatlarda o'z sohasi bo'yicha katta bilim va malaka orttirgan ko'plab vatandoshlarimiz mamlakatimizning davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, joylardagi ijro hokimiyati hamda boshqa tashkilotlarda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda, ulardan 150 nafardan ortig'i rahbar hamda mas'ul lavozimlarda ishlamoqda.

Bugungi kunda 30 dan ziyod xorijiy davlatlarda istiqomat qilayotgan salohiyatli investorlar, malakali mutaxassislar, xalqaro tashkilotlar vakillari, olim hamda iqtidorli talabalardan iborat 480 dan ortiq vatandoshimiz ro'yxati shakllantirildi.

Uchinchi. Vatandoshlarimizning O'zbekiston madaniy, ilmiy va ma'naviy merosini jahon miqyosida keng targ'ib qilish, o'zlari istiqomat qilayotgan davlatlarda o'zbek tili, madaniyati va an'alarini saqlab qolish va rivojlantirish borasidagi faoliyatlarini qo'llab-quvvatlash, ularning mamlakatimizda ta'lim olish imkoniyatlari kengaytirilmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonning chet eldagi diplomatik vakolatxonalarini joylashgan mamlakatlarda va ularning konsullik okrugiga kiruvchi davlatlarda 150 dan ortiq diasporal tashkilotlar, milliy madaniy markazlar faoliyat yuritmoqda. Ular ishtirokida O'zbekistonning tarixi, madaniyati, urf-odatlarini va milliy bayramlariga bag'ishlangan hamda respublikamizning sayyohlik salohiyatini xorijiy jamoatchilikka keng targ'ib qilishga yo'naltirilgan tadbirlar o'tkazib kelinmoqda.

Xorijdagi hamyurtlarimiz qalbida yurt bilan faxrlanish tuyg'usini mustahkamlash, u yerda tug'ilib o'sayotgan farzandlar orasida urf-odatlarimiz va ona tilimizni keng yoyishda bunday tuzilmalarning o'rni katta. Jumladan, hozirda vatandoshlarning xorijiy davlatlardagi jamoat birlashmalari qoshida "O'zbek tili va madaniyati" kurslari hamda "O'zbek yakshanba maktablari" tashkil etilib, ularga ona tilini mukammal o'rgatish borasida qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Xorijiy davlatlarda Vatanimiz tarixi va madaniyati, o'zbek tili va adabiyotini zamonaviy axborot texnologiyalari orqali o'rgatishni nazarda tutuvchi "**O'zbek akademiyasi**" ("**Uzacademy**") internet platformasi tashkil etildi.

Endilikda ularning ushbu platformadan unumli foydalanishiga ko'maklashish orqali:

- xorijdagi vatandoshlarimizning o'zbek tili, madaniyati va san'ati yo'nalishlarida respublika fuqarolariga teng ravishda oliy ta'lim olishi uchun yaratilgan imkoniyatlarni yanada optimallashtirish;
- O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va uning xorijiy mamlakatlar bilan o'zaro manfaatli, do'stona munosabatlarini yanada kuchaytirishga hissa qo'shish istagida bo'lgan vatandoshlar hamda

ular tuzgan tashkilotlar bilan aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlashdir.

Shu bilan birga, chet mamlakatlardagi hamyurtlarimiz qalbida o'z ona Vatani bilan faxrlanish tuyg'usini mustahkamlash, u yerda tug'ilib o'sayotgan farzandlar orasida urf-odatlarimiz va ona tilimizni keng yoyishda yordam berishni muhim, deb hisoblaymiz.

Ushbu yo'nalishda birgina 2023-yilda **Yevropaning 17 ta** davlatida istiqomat qilayotgan vatandoshlar hamda ularning **30 dan** ortiq jamoat birlashmalari ishtirokida videomuloqotlar o'tkazildi.

Hozirda viloyatlar hokimliklari, tegishli vazirlik va idoralar bilan birga ular tomonidan bildirilgan loyihaviy takliflarni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Yana bir muhim jihatni alohida ta'kidlash zarur. Faol vatandoshlarimiz davlatimiz tomonidan alohida e'tirof etib kelinmoqda. Bugungi kunga qadar AQSH, Rossiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya va Xitoyda istiqomat qilayotgan bir qator hamyurtlarimiz Vatanimizning yuksak davlat mukofotlari — "Do'stlik" ordeni, "Shuhrat" va "Kelajak bunyodkori" medallari bilan taqdirlandi.

To'rtinchi. Xorijdagi vatandoshlarning O'zbekiston hududida professional, shu jumladan, tadbirkorlik, investitsiyaviy, ilmiy, ma'rifiy va madaniy faoliyat bilan shug'ullanishi uchun qulay huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlar yaratilmoqda.

Bu borada qator tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirmoqdamiz, xususan, vatandoshlarimiz uchun mamlakatimizga kirish vizalari muddatlarini uzaytirish, davlat bojlarini pasaytirish, ularning yurtimizda doimiy yashashi, uy-joy va ko'chmas mulk sotib olishi, ta'lim, tibbiyot va boshqa davlat xizmatlaridan teng huquqlilik asosida foydalanishiga sharoit yaratish choralari ko'rilmogda.

Shu bilan birga, **biz, 2030-yilgacha ushbu sohada quyidagi ustuvor maqsadlarni amalga oshirishga e'tibor qaratamiz:**

- vatandoshlarimiz tomonidan xorijiy mamlakatlarda tashkil etilgan jamoat birlashmalarining faoliyatini har tomonlama rag'batlantirish;

- o'zbek tili va adabiyoti, tarix, madaniyat, san'at va hunarmandchilik yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlarida xorijdagi vatandoshlarimiz uchun grantlar ajratish;

- xorijda yashayotgan vatandoshlarimiz ishtirokida tibbiyot, ta'lim va ilm-fan sohalarida 100 ta loyihani amalga oshirish;

- har yili vatandoshlarimizning jamoat birlashmalariga 100 mingta badiiy adabiyot yetkazib berish.

Shu o'rinda yana bir muhim masalaga alohida e'tibor qaratmoqchiman. Ma'lumki, har yili mamlakatimizda o'rtacha 600–700 ming nafar aholi mehnat bozoriga kirib keladi. Iqtisodiyot tarmoqlarini va hududlarni rivojlantirish bo'yicha ko'rilayotgan choralar natijasida yurtimizning o'zida yiliga 500 mingdan ziyod yangi ish o'rni yaratilmoqda. O'z navbatida, xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimi orqali har yili qariyb 200 ming kishining bandligini ta'minlashga ham to'g'ri kelmoqda.

Dunyo tajribasiga e'tibor bersak, barcha rivojlanayotgan davlatlar o'z vaqtida ana shunday bosqichdan o'tganiga guvoh bo'lamiz. Zero, barcha mamlakatlar global mehnat bozorining ajralmas qismi bo'lib, jahonda ishchi kuchi ko'chib yurishi tabiiy jarayon hisoblanadi.

BMT ekspertlarining ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda dunyoda 128 million mehnat migranti mavjud bo'lgan bo'lsa, 2022-yilga kelib ularning soni 281 milliondan oshgan. Bu jarayonda qayerda mehnat migratsiyasi to'g'ri tashkil etilgan bo'lsa, o'sha yerda bandlik holati yaxshilanib, oilalar daromadi va malakali mutaxassislar soni ko'paygan.

So'nggi yillarda biz O'zbekistonda tashqi migratsiya borasidagi mavjud muammolarni ilk bor ochiq tan olib, bandlik tizimini takomillashtirishga ustuvor ahamiyat qarata boshladik.

Mehnat migrantlari dunyoning qaysi burchagida ishlashidan qat'i nazar, mamlakatimiz qonunlari va xalqaro huquq himoyasida bo'lishi, ularning va oila a'zolarining qonuniy manfaatlarini himoyalash choralarini ko'rmoqdamiz.

Xususan, chet davlatlardagi mehnat migrantlariga huquqiy va moddiy yordam ko'rsatish maqsadida qo'shimcha 19 ta vakolatxona ochildi. Buyuk Britaniya, Germaniya, Polsha, Vengriya, Yaponiyadagi elchixonalar va konsulliklarda mehnat migratsiyasi bo'yicha attashe, Saudiya Arabistonida agentlik vakili lavozimi joriy qilindi. Xorijdagi fuqarolarimizning masalalarini tezkorlik bilan hal qilish uchun elchixonalar va tegishli vazirliklarda 24 soat ishlaydigan **"koll-markazlar"** tashkil etilmoqda.

Birgina 2023-yilda 231 mingdan ziyod O'zbekiston fuqarolariga konsullik xizmatlari ko'rsatildi, qariyb 9 ming hamyurtimizni chet elda ish bilan ta'minlashga ko'maklashildi, xorijda qiyin vaziyatlarda qolgan 6 mingdan ziyod fuqarolarimizga moddiy yordam berildi yoki ular Vatanimizga qaytarildi. Bir so'z bilan aytganda, **biz bundan buyon xorijdagi O'zbekiston fuqarolarining o'z muammolari bilan yakka-yolg'iz qolib ketishiga yo'l qo'ymaymiz.**

Shuningdek, mamlakatimizda joriy etilayotgan xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimi doirasida o'zga yurtlarga yo'l olayotgan fuqarolarimizni kasb-hunar va chet tillarga o'qitish, xorijda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, zarur ijtimoiy va axborot-maslahat yordamini ko'rsatish, oila a'zolarini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Xorijda ishlash istagini bildirgan shaxslarni tashkiliy ravishda ishga yuborish bo'yicha bugungi kunda 20 dan ortiq davlat bilan **hukumatlararo bitim** imzolandi. Migratsiya geografiyasini kengaytirish

orqali o'zbekistonliklarni dunyoning rivojlangan davlatlariga ishga jalb qilish choralari ko'rilyapti. Jumladan, oxirgi ikki yilda Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi tomonidan 70 ming kishi rivojlangan davlatlarga ishlashga yuborildi.

Mamlakatimiz fuqarolarini **tashkiliy ravishda** xorijga ishga yuborish, ular uchun **imtiyozli avia va temiryo'l chiptalari sotish** hamda bunday fuqaroning hayoti va **sog'lig'ini sug'urtalash tartiblari yo'lga qo'yildi**.

Biz bundan buyon mehnat migrantlari va ularning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash borasida quyidagi vazifalarga ham e'tibor qaratamiz:

- **“Xorijga ish — mahalladan”** tamoyili orqali hokim yordamchisi va yoshlar yetakchisi o'zga mamlakatlarda ishlash istagida bo'lgan fuqarolarni aniqlab, ularni “Onlayn mahalla” platformasiga kiritadi. Shundan so'ng nomzodlar chet davlatlardagi ish beruvchilar tanlovlariga jalb qilinadi;

- kasbiy malakasiga ega bo'lmagan, chet tillarni o'zlashtirmagan fuqarolar kasbga va xorijiy tillarga o'qitilib, professional ta'lim muassasalarida maqsadli tayyorlanadi;

- migrantlarning ishchi viza, yo'l chiptasi, xorijiy til va kasb bo'yicha malakasini baholatish xarajatlarini qisman qoplab berish tartibi yo'lga qo'yiladi. Jumladan, chet tili bo'yicha xalqaro yoki unga tenglashtirilgan sertifikatni qo'lga kiritgan fuqaroga til o'rganish uchun sarflagan xarajatining 50 foizini qoplab berish rejalashtirilgan;

- mehnat migratsiyasidan qaytgan fuqarolarning bandligiga ko'maklashish ham e'tiborimiz markazida bo'ladi. Shu bois Sayxunobod tajribasi asosida ularga shaxsiy tomorqasida mahsulot yetishtirib, daromad olishi uchun moliyaviy ko'mak beriladi hamda boshqa turdagi bandlik xizmatlari ko'rsatiladi. Shuningdek, “Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash” kompleks dasturiga muvofiq, ularga imtiyozli

kreditlar ajratiladi. Migratsiyadan qaytgan shaxslar va ularning oila a'zolarini bepul tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi. Ota-onasi xorijda mehnat qilayotgan bolalarga "Inson" markazlari tomonidan ijtimoiy yordam ko'rsatiladi.

Bundan tashqari, mehnat migratsiyasidan qaytgan fuqarolarni ishga olgan korxonaga Bandlikka ko'maklashish jamg'armasidan bir yil davomida har bir xodim uchun oyiga 500 ming so'mdan subsidiya beriladi. Shu maqsadda birgina 2024-yilda mazkur jamg'armaga turli manbalardan 100 milliard so'm ajratildi.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida quyidagi chora-tadbirlar ham amalga oshiriladi:

- ishga joylashtirish bo'yicha xorijiy davlatlar bilan kelishuvlar sonini **30 taga** oshirish;

- **davlat-xususiy sheriklik shartlari** asosida **2 mingta** xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda fuqarolarni kasbga o'qitish va ish bilan ta'minlash tizimini tashkil etish;

- mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarni **reintegratsiya qilish**, shu jumladan, ularning **bandligini ta'minlash**, **kasbiy malakasini oshirish** va **tadbirkorlik tashabbuslarini** rag'batlantirish;

- noqonuniy **tashqi mehnat migratsiyasi** va **odam savdosiga qarshi kurashish** sohasida **xalqaro hamkorlikni** yanada rivojlantirish.

Ushbu chora-tadbirlarni tizimli va samarali amalga oshirish orqali vatandoshlarimiz bilan hamkorlikni keng yo'lga qo'yish va mehnat migrantlarining erkinliklarini ta'minlash, ularning huquqlarini samarali himoyalash borasidagi ishlar butunlay yangi bosqichga olib chiqiladi.

Harbiy-jangovar qudrat va yuksak ma'naviy salohiyat — O'zbekiston Qurolli Kuchlarining ikki buyuk tayanchi

Jahondagi kuch markazlari o'rtasida qarama-qarshilik tobora avj olib, global siyosatning harbiylashuvi asosiy tendensiyaga aylanayotgan bir paytda O'zbekistonning davlat mustaqilligi, sarhadlari daxlsizligi va hududiy yaxlitligini yanada mustahkamlash, xalqimizning tinchligi va osoyishtaligini saqlash — bizning bosh maqsadimiz hisoblanadi. Chunki aynan shu orqali mamlakatimizning xavfsizligi va har tomonlama rivojlanishini ta'minlash mumkin.

So'nggi vaqtlarda Qurolli Kuchlar tizimini rivojlantirish, davlatimizning mudofaa qobiliyati va harbiy salohiyatini yanada oshirish borasida amalga oshirilgan tizimli chora-tadbirlar bugun o'zining ijobiy natijalarini namoyon etmoqda.

Birinchidan, Qurolli Kuchlarni isloh qilish va modernizatsiyalash, mudofaa sanoatini rivojlantirish va harbiy ta'lim tizimini zamon talablariga mos ravishda yo'lga qo'yish bo'yicha **200 dan ziyod normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi**. Xususan, mamlakatimiz Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasi Mudofaa doktrinasining yangi tahrirda qabul qilinishi sohaning jadallik bilan rivojlanishi uchun mustahkam huquqiy asos yaratdi.

Mazkur hujjatlarda O'zbekistonning boshqa davlatlarga qarshi harbiy kuch ishlatmasligi, xavfsizlikning bo'linmasligi, boshqa davlatlarning xavfsizligi hisobidan o'z xavfsizligini mustahkamlashga yo'l qo'yilmasligi, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik kabi muhim hayotiy tamoyillar belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, mamlakatimiz doimo ehtimoliy nizolarni tinch yo'l bilan hal etish tarafdoridir. Biz turli harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etishdan tiyilamiz, har qanday davlatlararo tashkilot harbiy-siyosiy

blokka aylantirilgan taqdirda uning safidan chiqish huquqini o'zimizda saqlab qolamiz. O'zbekiston yadroviy va boshqa turdagi ommaviy qirg'in qurollarini ishlab chiqarish, sotib olish, saqlash, tarqatish va joylashtirishdan voz kechadi. Mamlakatimiz hududida xorijiy harbiy bazalar va inshootlarning joylashtirilishiga ham yo'l qo'yilmaydi. Qurolli Kuchlarimiz hech qachon tinchlikparvarlik operatsiyalari va xorijdagi harbiy mojaralarda ishtirok etmaydi.

Qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarda Qurolli Kuchlarning tezkor boshqaruvini amalga oshirish, harbiy xizmatchilarni tayyorlash, ijtimoiy-huquqiy himoya qilish, ularning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi va jangovar ruhini oshirish choralari ham belgilangan. Eng muhimi, ularda yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda milliy armiyamizni 2030-yilga qadar eng zamonaviy qurol-aslaha va harbiy texnika bilan to'liq ta'minlash bo'yicha aniq chora-tadbirlar ko'zda tutilgan.

Ana shu tamoyillar asosida amalga oshirilgan tizimli va strategik kompleks chora-tadbirlar natijasida qisqa davr ichida milliy armiyamizning qiyofasi tubdan o'zgardi, qo'shinlarning jangovar shayligi va Yangi O'zbekistonning mudofaa qobiliyati sezilarli darajada yuksaldi.

Ikkinchidan, qisqa vaqtda harbiy qismlarning tuzilmalari to'liq yangilandi. Samarasiz va vazifalari bo'yicha bir-birini takrorlaydigan harbiy qismlar soni qisqartirildi.

Qurolli Kuchlar Bosh shtabi faoliyatini sifat jihatidan yangi pog'onaga olib chiqish, havo hujumidan mudofaa tizimini kuchaytirish bo'yicha tizimli o'zgarishlar yuz berdi. Boshqaruv organlari va qo'shinlarni birgalikda tayyorlash sohasiga ilg'or xorijiy armiyalarning ijobiy tajribalari joriy etilmoqda. Qo'shinlarni boshqarishning zamonaviy avtomatlashtirilgan tizimlari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda, aloqa tizimlari takomillashtirilmoqda, harbiy sohani raqamlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Harbiy qism va poligonlardagi infratuzilma hamda askar va ofitserlarning xizmat sharoitlari yaxshilandi. Jangovar tayyorgarlik tizimi innovatsion va ilmiy yondashuvlar asosida yanada takomillashtirildi, axborot almashinuvi va qarorlar qabul qilish bo'yicha zamonaviy harbiy va ilmiy ishlanmalardan amaliyotda keng foydalanilmoqda. Qo'shinlarni saqlab turishga ketadigan xarajatlar kamaytirildi. Harbiylarimizni oziq-ovqat bilan ta'minlashda autsorsing tizimi joriy etildi.

Uchinchidan, biz zamon talabiga mos ravishda harbiy kuchlarning texnik modernizatsiyalash ishlarini amalga oshiryapmiz.

Dunyoda ro'y berayotgan gibrid xarakterdagi qurolli to'qnashuvlar tahlili mamlakatimiz Qurolli Kuchlarining jangovar qobiliyatini yanada oshirishni taqozo etmoqda. Shu bois milliy armiyamizni zamonaviy qurol-yarog' hamda harbiy texnikalar bilan ta'minlash, mavjudlarini modernizatsiya qilish, jumladan, harbiy aviatsiya va havo hujumidan mudofaa tizimini yanada rivojlantirish dolzarb ahamiyatga egadir.

Shu maqsadda mamlakat sanoatining import o'rnini bosuvchi, raqobatbardosh va eksportbop harbiy texnikalarni va ikki tomonlama mahsulotlarni ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Milliy dizayn asosida "Qalqon" deb nomlangan yengil zirhlangan avtomobillar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilganini bu yo'nalishdagi ilk qadam sifatida baholash mumkin.

Barcha kuch tuzilmalarining o'zaro hamkorlikdagi **axborot-kommunikatsiya tarmog'i** Qurolli Kuchlarni boshqarish jarayonlariga izchil integratsiya qilinmoqda. Ushbu tizimlar Qurolli Kuchlarning kuch tuzilmalari bilan hamkorligini kuchaytirish, birgalikdagi harakatlarning samaradorligi va muvofiqlashganlik darajasini oshirishga xizmat qilmoqda.

To'rtinchidan, yuqori malakali harbiy kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi muntazam ravishda takomil-

lashtirilib, o'quv jarayonlariga harbiy tayyorgarlikning zamonaviy usullari keng joriy etilmoqda.

Albatta, zamonaviy armiyaga ega bo'lish uchun, birinchi navbatda, harbiy kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini kuchaytirish talab etiladi. Bu — mamlakat mudofaa qudratini mustahkamlash, qo'shinlarning harbiy tayyorgarligini oshirish hamda harbiy ta'lim va ilm-fanni rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi.

Shu bois Qurolli Kuchlar akademiyasida, yangi tashkil etilgan Harbiy tibbiyot akademiyasi, Qurolli Kuchlar harbiy meros va zamonaviy tadqiqotlar instituti, "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyleri va boshqa ixtisoslashtirilgan o'quv yurtlarida professional harbiy kadrlar tayyorlash bo'yicha ilg'or usullardan keng foydalanilmoqda.

Qurolli Kuchlarning yangi tashkiliy tuzilmaga o'tkazilishi bilan uyg'un ravishda jangovar tayyorgarlikning modernizatsiya qilingan, moslashuvchan tizimi ham joriy etilishi milliy armiyamizning jangovar tayyorgarligi va qobiliyatini bir necha barobar oshirishga xizmat qiladi.

Shu maqsadda Milliy gvardiyaning Harbiy-texnik instituti faoliyati takomillashtirilib, unga universitet maqomi berildi. Qo'shinni boshqarishda aloqa vositalarining muhimligini inobatga olgan holda tashkil etilgan **Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti** qisqa vaqtda mamlakatimizdagi zamonaviy oliy ta'lim muassasalari safidan munosib joy egalladi.

Bu borada boshqaruvning tezkor-strategik bo'g'inida xizmat qiladigan ofitser kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan yangi fakultet ochildi hamda Qurolli Kuchlar akademiyasida qo'shimcha ta'lim infratuzilmalari foydalanishga topshirildi. Maxsus vazifalarni bajara-digan bo'linmalar uchun harbiy xizmatchilar yetishtirib beruvchi o'quv markazi faoliyati ham yo'lga qo'yildi.

Ayniqsa, **Qurolli Kuchlar Harbiy tibbiyot akademiyasining** tashkil etilishi natijasida harbiylar va ularning oilalari salomatligi va hayotini

muhofaza qilish borasidagi dolzarb vazifalarni tezkor va samarali hal etish imkoni paydo bo'ldi. Zotan, ushbu akademiyada harbiy tibbiyot sohasida, shuningdek, favqulodda vaziyatlarning oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etadigan yuqori malakali va ixtisoslashgan kadrlar tayyorlanadi. Shu maqsadda bu yerda jahon andozalariga mos innovatsion ishlanmalar hamda ilg'or texnologiyalarga asoslangan o'quv-laboratoriya xonalari va eng zamonaviy moddiy-texnik baza yaratilmoqda.

Hozirgi paytda **jangovar tayyorgarlik tizimini innovatsion va ilmiy yondashuvlar asosida yanada takomillashtirish**, axborot almashinuvi va qarorlar qabul qilish bo'yicha zamonaviy harbiy va ilmiy ishlanmalarni amalga keng joriy etish muhim hayotiy ahamiyatga ega vazifa hisoblanadi. Buning uchun har bir qo'mondon milliy harbiy san'atimiz tarixini chuqur o'rganishi hamda qo'shinlarning jangovar tayyorgarligini oshirish usullari va uslublarini yanada takomillashtirish layoqatiga ega bo'lishi lozim.

Shuni nazarda tutib, yuqori bo'g'in qo'mondonlik ofitserlarini tayyorlash hamda mudofaa qurilishi sohasida ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni keng joriy etish bo'yicha dolzarb vazifalar samarali hal etilmoqda. Bu borada, ayniqsa, Qurolli Kuchlar akademiyasi g'oyat muhim o'rinni egallab kelmoqda.

Biz Qo'mondonlik tarkibining zamonaviy operatsiyalarni rejalashtirish, qo'shinlarni oqilona boshqarish, mavjud kuch va vositalarni samarali qo'llash bo'yicha tajribasini oshirishga mo'ljallangan chora-tadbirlarni ham tizimli ravishda yo'lga qo'ydik. Bu borada rahbarlik va qo'mondonlik lavozimlariga istiqbolli kadrlar zaxirasini yaratib, ularni tanlov asosida lavozimlarga bosqichma-bosqich tayyorlashga ham alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Shuningdek, harbiy kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish, harbiy ilmni rivojlantirish maqsadida qurolli mojarolar

va zamonaviy jang amaliyotlari hamda milliy harbiy san'at tarixini chuqur o'rganish, qo'shnlarning tayyorgarlik usul va uslublarini yanada takomillashtirish choralari ko'rilmoqda. O'z navbatida, harbiy o'qituvchilarning malakasini oshirish, Qurolli Kuchlar akademiyasini yuksak salohiyatga ega harbiy ilm-fan dargohiga aylantirishga alohida urg'u berildi.

Mudofaa qurilishi sohasida ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni ro'yobga chiqarish bo'yicha ham ustuvor vazifalar samarali hal etilmoqda. Bu borada Qurolli Kuchlar Harbiy meros va zamonaviy tadqiqotlar institutini harbiy ta'lim va ilmiy faoliyat tizimiga integratsiya qilish bo'yicha samarali ish olib borilmoqda.

Dunyoda jangovar harakatlar dinamikasi kuchayib borayotgan va bu borada yangi-yangi usullar paydo bo'layotgan hozirgi sharoitda ko'p narsa komandir-serjantlar tomonidan boshqariladigan kichik bo'linmalar harakatiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Aynan shuni inobatga olib, Qurolli Kuchlar uchun serjantlar korpusini shakllantirish, serjant-yo'riqchilarni tayyorlash tizimi tubdan takomillashtirildi. Ilg'or xalqaro standartlar asosida tashkil etilgan Serjantlar tayyorlash maktablarida ta'lim 26 ta yo'nalish va mutaxassislik bo'yicha olib borilmoqda.

Bugun O'zbekistonda zamonaviy o'quv-moddiy texnika vositalari bilan jihozlangan 20 ta o'quv poligoni mavjud, ularning 12 tasi xalqaro talablarga muvofiq qurilgan bo'lib, turli yo'nalishlarda harbiy musobaqalar o'tkazish mumkin.

Beshinchidan, hozirgi globallashtirish va integratsiyalashuv sharoitida Vatanimizning milliy manfaatlarini himoya qilish va adolatli boshqaruvni amalga oshirishda **“Armiya va xalq bir tan-u bir jondir”** degan muhim hayotiy tamoyilga tayanishning ahamiyati beqiyos.

Binobarin, bugungi kunda yurtimizga daxl qilishi mumkin bo'lgan har qanday zamonaviy xavf-xatarlar va tahdidlarga qarshi xalqimizning

yaxlit va yagona kuch sifatida birlashishi davr talabidir. Buning uchun butun xalqimiz va Qurolli Kuchlar tizimi Vatanimiz ravnaqi yo'lida bir tan-u bir jon bo'lib, birgalikda harakat qilishi zarur.

Ana shu muhim omilni nazarda tutgan holda, mamlakatimiz tarixida birinchi marta **“Milliy armiya — bizning sharafimiz va g‘ururimiz!”** g‘oyasi asosida barcha hududlarda **o‘z mohiyatiga ko‘ra noyob tizim hisoblangan harbiy-ma‘muriy sektorlar tashkil etildi** va ayni paytda samarali faoliyat yuritmoqda. Bunday yangilik joylardagi davlat hokimiyati organlarini mamlakatimiz mudofaa qudratini mustahkamlashga faol jalb etish imkonini ham bermoqda.

Bir so‘z bilan aytganda, keyingi vaqtlarda milliy armiyamiz O‘zbekiston xalqini umummilliy qadriyat va g‘oyalar atrofida birlash-tiruvchi muhim ijtimoiy institut vazifasini o‘tamoqda.

Oltinchidan, biz farzandlarimizning ongi va qalbida yuksak vatanparvarlik ruhini singdirib borish orqali mamlakatimizning mudofaa qobiliyatini mustahkamlashga alohida e‘tibor qaratmoqdamiz. Chunki har qanday qudratli qurolga ega bo‘lmaylik, vatanparvar insonlar ko‘magisiz mamlakatimizning mudofaa qobiliyatini ta‘minlay olmaymiz. Bu — inkor qilib bo‘lmaydigan hayot haqiqatidir.

Globalashuv jarayonlari hamda odamlar ongini egallash uchun mafkuraviy kurashlar kuchayib borayotgan hozirgi o‘ta murakkab sharoitda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining o‘rni va ahamiyati tobora ortib borayotgani hech kimga sir emas. Hozir **har birimiz amalda Vatan himoyachisi bo‘lishimiz, farzandlarimizni ham shu ruhda kamol toptirishimiz shart.**

Shu bois O‘zbekistonda aholini, birinchi navbatda, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini takomillashtirish, ularni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga faol jalb etish, o‘zlarining intellektual va ijodiy salohiyatini namoyon qilishiga sharoit yaratish dolzarb vazifa sifatida belgilangan.

Biz yosh avlodimizni ona Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat g'oyasi atrofida birlashtirish bo'yicha tizimli faoliyatni yo'lga qo'ydik.

Bu borada harbiy ta'lim tizimida boshlangan islohotlarni uzviy davom ettirish, oliy harbiy bilim yurtlari, litsey va kollejlari, jumladan, "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseylari faoliyatini takomillashtirish, ularda ta'lim olayotgan o'quvchilar qalbida milliy ruh, ona Vatanga mehr va sadoqat, adolat tuyg'ularini har tomonlama kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'z navbatida, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Shohrux Mirzo, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk sarkardalarimizning shonli hayoti va harbiy faoliyati, ko'rsatgan mardligi va jasorati hamda Vatanga sadoqatini chuqur o'rganish va targ'ib qilish choralari ham ko'rilmoqda.

Mamlakatimizdagi barcha umumta'lim maktablarida 9-sinfdan boshlab harbiy-vatanparvarlik sinflari tashkil etilishi choralari ko'rilmoqda. Shu yo'l bilan o'sib kelayotgan yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlar hamda qonunlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash va mamlakatimiz mustaqilligini himoya qilish tuyg'usini shakllantirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshiriladi.

Yoshlarning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash maqsadida media makonda olib borilayotgan harbiy-vatanparvarlik ruhidagi ishlarni kuchaytirish ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu yo'nalishda olib borilayotgan ishlarni yanada kuchaytirish maqsadida harbiy okruglar qo'mondonliklari tomonidan kamida 10 tadan maktab otaliqqa olinib, ushbu ta'lim maskanlarida harbiy qism komandirlari tomonidan **"Jasur jangchi — yoshlar uchun namuna"** shiori ostida vatanparvarlik va harbiy shon-sharaf darslarini o'tish yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, Toshkent shahrida barpo etilgan "G'alaba bog'i" va "Shon-sharaf" muzeyi majmuasi nafaqat harbiy xizmatchilar, balki

mamlakatimiz aholisi, ayniqsa, yoshlarni Vatanimizning shonli tarixi sahifalari hamda buyuk ajdodlarimizning bemisl qahramonliklari bilan yaqindan tanishtirish orqali harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Hozirgi kunda Qurolli Kuchlarning zamonaviy infratuzilmasi negizida va monomarkazlarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida voyaga yetkazish bilan birga, mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblarga o'qitishni tashkil etish vazifasi ham qo'yilgan. Bunday dolzarb masalani muvaffaqiyatli hal etishda yoshlarning zamonaviy hunarlarni o'rganishi va mehnat faoliyatini boshlashini subsidiyalar ajratish orqali qo'llab-quvvatlashning ham ahamiyati katta.

Yettinchidan, fuqarolarni muddatli harbiy xizmatga chaqirish tizimini isloh qilish bo'yicha ham ulkan ishlar amalga oshirildi.

O'zbekistonda muddatli harbiy xizmat bir yil etib belgilanib, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-maishiy sharoitlari, oziq-ovqat ta'minoti tubdan yaxshilandi. Vatan oldidagi harbiy burchini o'tab, zaxiraga bo'shatilgan yoshlarning ishga joylashishi va oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirishi bilan bog'liq imtiyozlar tizimi belgilandi. Bularning barchasi harbiy jamoalarda sog'lom ma'naviy-axloqiy muhit shakllanib, yoshlar o'rtasida harbiy xizmatning nufuzi oshishiga xizmat qilayotgani bilan ahamiyatlidir.

Ana shu islohotlarning mantiqiy davomi sifatida fuqarolarning safarbarlik chaqiruvi rezervi shaklidagi harbiy xizmatni o'tashini nazarda tutadigan tizim yaratildi. Yoshlarimiz bu tizim yordamida zarur harbiy tayyorgarlikdan o'tish bilan bir qatorda, jismoniy va ma'naviy jihatdan ham toblanishadi. Aniqroq aytganda, ular o'zlarining fuqarolik mas'uliyati, Vatan himoyachisi sifatidagi muqaddas burchini teran anglab, o'z yurtiga fidoyi inson bo'lib yetishadi.

Hech shubhasiz, bugungi kunda milliy armiyamiz minglab o'g'lonlarimiz uchun chinakam mardlik, fidoyilik, haqiqiy vatanparvarlik

maktabiga aylangani — bu sohada amalga oshirgan tub islohotlarimizning eng katta natijasidir. Bu haqiqatni yurtimizda yashayotgan juda ko'plab ota-onalar, butun xalqimiz g'urur-iftixor va minnatdorlik bilan e'tirof etmoqda.

Sakkizinchidan, axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlikni ta'minlash milliy xavfsizlik sohasidagi muhim vazifalardan biriga aylandi. Jahonning turli nuqtalarida ro'y berayotgan qurolli to'qnashuvlar tahlili bizdan Qurolli Kuchlarimizning jangovar harakatlar jarayonida ilgari amalda qo'llanilmagan qurollardan foydalanadigan kuchlarga qarshi kurashish qobiliyatini oshirishni taqozo etmoqda.

Buning uchun, avvalo, jangovar harakatlarning samarali shakl va usullarini tadqiq va tatbiq etish, Qurolli Kuchlarning yagona avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini yaratish va rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni jadallashtirishimiz lozim. Bunda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg'or innovatsiyalarni keng tatbiq etish, axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlikni ta'minlash orqali Qurolli Kuchlarni rivojlantirish, mamlakat mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash hamda vazirlik va idoralarning barcha axborot resurslarini yagona xavfsiz axborot makoniga birlashtirish nihoyatda muhim masala hisoblanadi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, Milliy armiyamiz hamda xalqimiz o'rtasida kiberxavfsizlik borasidagi ogohlikni va raqamli madaniyatni oshirish bo'yicha tizimli ishlarni yo'lga qo'yish lozim.

Zero, XXI asrda axborot xurujlari eng katta tahdidlardan biriga aylandi. Axborot xavfsizligini ta'minlash — milliy xavfsizlikni himoya qilishning eng muhim sharti bo'lib qolmoqda.

Hozirgi vaqtda jahonda axborotlashuv jarayonlarining tahdidli jihatlari ham borligi va ayni paytda ular tobora kuchayib borayotganidan ko'z yumib bo'lmaydi. Dunyoning ayrim mintaqa va hududlarida

ommaviy axborot vositalari muayyan siyosiy kuchlarning ta'sirida informatsion urushlarni avj oldirishga, jamoatchilik fikrini chalg'itishga xizmat qilayotgani ham achchiq haqiqatdir.

Ochig'i, bugun biror-bir mamlakatning mustaqilligi, suverenitetiga tahdid qilish uchun qurol yoki harbiy tajovuz qilish unchalik shart ham bo'lmay qoldi. Internet asrida axborot xurujlari eng katta tahdidga aylandi.

Mana shunday sharoitda axborot xavfsizligini ta'minlash tom ma'noda hayot-mamot masalasiga aylangan. Armiya moddiy jihatdan eng zamonaviy va zarur vositalar bilan ta'minlangan bo'lishi mumkin, lekin harbiylar ruhan zaif bo'lsa, Vatan taqdiri uchun mas'uliyat hissidan mosuvo bo'lsa, jangovarlik qobiliyati past bo'lsa, bunday armiya o'ta nochor bo'lib qolaveradi.

Shuning uchun ham axborot xavfsizligini ta'minlash, yoshlarni yot g'oyalardan himoya qilish, harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarligi va jangovar ruhini doimo mustahkamlab borish davr taqozosidir.

To'qqizinchidan, harbiylarning ijtimoiy himoyasini ta'minlash, ijtimoiy-iqtisodiy holatini muntazam yaxshilash masalalari ham hamisha bizning e'tiborimiz markazidadir.

Bugungi kunda harbiylarning maishiy sharoitlarini yaxshilash, ularning munosib hayot kechirishini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Harbiylarning oilalarida ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash, sog'lom turmush tarzi va bolalar tarbiyasiga yondashuvni namunali darajaga ko'tarish, ularni va oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hamda uy-joy bilan ta'minlashga alohida ahamiyat berilmoqda. Qolaversa, soha faxriylari ham muntazam qo'llab-quvvatlanmoqda. Harbiy ayollar mehnatini rag'batlantirish maqsadida mamlakatimizda **"To'maris"** nishoni ta'sis etildi.

Birgina 2023-yilda Mudofaa vazirligi tizimidagi harbiy xizmatchilarga ko'p qavatli uylardagi 1 480 ta xonadon imtiyozli ipoteka krediti asosida berildi. Ularning farzandlarining zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashi uchun qo'shimcha chora-tadbirlar belgilanmoqda. Bunday yoshlar bugun yurtimizdagi oliy ta'lim muassasalariga imtiyozli asosda o'qishga qabul qilinmoqda.

Umuman, harbiy sohaning barcha yo'nalishlarida amalga oshirilgan kompleks choralar natijasida so'nggi paytlarda milliy armiyamizning qiyofasi ham, qo'shinlarning tayyorgarlik darajasi ham tubdan o'zgardi.

Ayni vaqtda azm-u shijoatli askar va ofitserlarimiz xalqaro maydonlarda o'tkazilayotgan ko'plab nufuzli harbiy musobaqalarda faxrli o'rinlarni egallab kelayotgani ham bundan dalolat beradi. Xususan, Pokistonda o'tkazilgan "Jamoaviy ruh" 6-xalqaro armiya o'yinlarida bizning harbiylarimiz qatorasiga uchinchi marta g'olib bo'lgani ham sohadagi rivojlanishlar natijasidir. 2023-yilda "Global Firepower Index" reytingida O'zbekiston Qurolli Kuchlari Markaziy Osiyoda birinchi, MDH davlatlari orasida to'rtinchi o'rinni egallagani islohotlarimiz va tanlagan yo'limiz to'g'ri ekanligini yana bir bor amalda ko'rsatib berdi.

Albatta, hozirgi murakkab davrda Vatanimiz mustaqilligi va uning hududiy yaxlitligini ta'minlash, bizning eng qimmatli boyligimiz — jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik va totuvlikni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini har bir yurtdoshimiz yaxshi anglaydi.

Shunday ekan, harbiy-jangovar qudrat va yuksak ma'naviy salohiyat hamisha O'zbekiston Qurolli Kuchlarining ikki buyuk tayanchi bo'lib qolishiga ishonchim komil.

XOTIMA

Muhtaram o'quvchi!

Biz siz bilan birgalikda bashariyatning ajralmas qismi hisoblangan, bugun dunyoda Yangi O'zbekiston, deya e'tirof etilayotgan jonajon Vatanimizning tarixan nihoyatda qisqa, mazmunan bir necha o'n yilliklarga tatigulik murakkab va sharaflı yo'liga yana bir bor nazar tashladik.

Erishilgan marralarni sarhisob qilib, oldimizda turgan ulkan maqsad va vazifalar haqida fikr-mulohaza yuritdik.

Men shu asnoda muhim hayotiy haqiqatga yana bir karra amin bo'ldim: biz barcha ulkan natijalarga, avvalo, buyuk ajdodlarimizning barcha sohalarda bizga qoldirgan bebaho merosiga tayangan holda, xalqimizning ulkan bunyodkorlik qudrati, intellektual va ma'naviy salohiyati, mehnatsevarligi orqali erishdik. Bundan har qancha faxrlansak, arziydi.

Hech shubhasiz, bu davrda xalqimizning ongi va dunyoqarashi o'zgargani, odamlar yuksak maqsadlar sari intilib, ertangi kuniga komil ishonch bilan yashayotgani — bizning bu yo'ldagi eng katta yutug'imizdir. Bugungi jamiyatimiz tom ma'noda ulkan islohotlar tashabbuskori, qonunlar ijodkoriga aylanmoqda.

Biz yillar davomida tafakkurimizni jilovlab, emin-erkin hayot kechirishimizga to'siq bo'lib kelgan ortiqcha qo'rquv va hadiklar iskanjasidan xalos bo'lib, endilikda oldinga — taraqqiyot cho'qqilari sari dadil intilib yashayapmiz.

Biz dunyoga ochildik, dunyo ham bizga har qachongidan ham yaqinroq bo'ldi. Jahonda qancha-qancha ishonchli do'st va hamkorlar orttirdik. Millionlab yurtdoshlarimizning yuksak irodasi va qat'iy sa'y-harakatlari tufayli chinakam bunyodkor xalq va millat sifatida maydonga chiqdik.

Biz hozirgi davrning o'ziga xos talab va xususiyatlari, xalqimizning ezgu orzu-umidlari, xohish-irodasi va tub manfaatlaridan kelib chiqib:

Birinchidan, Yangi O'zbekistonning "konstitutsiyaviy o'zligini" belgilab bergan tarixiy islohotlarni amalga oshirdik. Shu orqali O'zbekiston Respublikasi:

- davlatchilik rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasiga ega ekanligi va azaldan jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shib kelayotganligi;

- boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren hamda inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat hisoblanadigan demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat, ochiq va adolatli jamiyat ekanligi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yildi.

Ikkinchidan, inson, jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan "O'zbekiston — 2030" strategiyasini ishlab chiqdik.

Ushbu strategiyada xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O'zbekiston borasidagi ezgu orzulari va xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirishi uchun zarur sharoitlar yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash kabi vazifalar belgilab olindi.

Uchinchidan, barchamiz hayotimizning asosiy ma'no-mazmuniga aylangan buyuk maqsadga erishish — Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish va xalqimizning farovon turmushini ta'minlash uchun belimizni mahkam bog'lab, avvalgidan ikki-uch karra ko'proq g'ayrat va shijoat bilan harakat qila boshladik.

Zero, faqat mashaqqatli, mas'uliyatli va jasoratli mehnat orqali taraqqiyotga erishish mumkin. Donishmandlar aytganidek, **oldinga**

yurishni istagan inson uchun qo'rquv, ikkilanish, shubha va gumon — eng katta g'animdir.

Bundan buyon ham davlat tashkilotlari doimo xalqqa yuzlanib, uning chinakam xizmatchisiga aylanishi, oddiy insonlarning dard-u tashvishlarini hal etish yo'lida faollik ko'rsatishi lozim.

Bunday sharaflı yo'lida har bir rahbar o'zining zimmasiga yuklatilgan vazifalarni vijdonan va mas'uliyat bilan bajarishi, nafaqat bugungi kunni, balki kelajakni ko'zlab ish tutishi talab qilinadi.

Qadrli vatandoshim!

Bizning bag'rikeng, fidoyi va mehnatkash xalqimiz inson qadri ulug'lanadigan farovon yurtda yashashga har jihatdan munosibdir.

Mening asosiy maqsadim ham tinchlik va taraqqiyot doimo barqaror bo'lgan, odamlari baxtiyor hayot kechiradigan, dunyoda o'z o'rni va so'ziga ega bo'lgan Yangi O'zbekistonni barpo etishdan iboratdir.

Bunga erishish yo'lida tayanch va suyanch bo'ladigan ajoyib xalqimiz borligi, duogo'y otaxon va onaxonlarimiz, azamat aka-ukalarimiz, mehribon opa-singillarimiz, azm-u shijoatli yoshlarimiz hamisha biz bilan bir safda ekanligi menga bitmas-tuganmas kuch-g'ayrat, ruh va ilhom bag'ishlaydi.

So'zimning yakunida tashabbuskor fuqarolarimiz, xususan, yoshlarimizga murojaat qilmoqchiman.

Azizlarim!

Bu yorug' dunyoga kelgan har bir inson umid bilan yashaydi, kelajak haqida turli-tuman rejalar tuzadi, yangilanish sari intiladi, xayrli niyatlar qiladi.

Men doimo olg'a intilib, o'z oldimizga qo'ygan murod-maq-sadlarimizga yorug' yuz bilan yetib borishni istayman.

Yangi O'zbekiston siz uchun, sizning farovon kelajagingiz uchun barpo etilmoqda.

Yangi O'zbekiston barchamizniki ekanini, uning orzudan haqiqatga, imkoniyatdan — voqelikka aylanishi bizga bog'liq ekanini aslo unutmaylik!

Ana shunda hech qanday kuch bizni tanlagan yo'limizdan ortga qaytara olmaydi va biz, naqadar qiyin va mashaqqatli bo'lmasin, orzularimiz, ko'zlagan marralarimizga albatta erishamiz!

MUNDARIJA

KIRISH	5
INSONIYAT TANLAGAN BARQAROR RIVOJLANISH YO‘LI	9
Barqaror rivojlanish yo‘lidagi xavf-xatar va tahdidlar	16
Yangi O‘zbekistondagi islohotlar falsafasi	31
Islohotlarning davr va barqaror rivojlanish talablariga mos sur‘ati va izchilligi	35
Inson qadri, huquq va erkinliklari, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik	40
Davlat — inson uchun	44
Jamiyat — islohotlar tashabbuskori	49
Demokratiya, tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g‘oyalariga sodiqlik	53
Inson kapitalini rivojlantirish	59
Konstitutsiya va qonun ustuvorligi	66
Barqaror iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash	74
Ochiq, pragmatik, konstruktiv, faol va tinchliksevar tashqi siyosat	100
Tinchlik va xavfsizlik — barqaror rivojlanish garovi	114
YANGI O‘ZBEKISTON — IJTIMOIIY DAVLAT	
Yangi O‘zbekistonning asosiy ustuni — bilim, ta‘lim va tarbiyadir	121
Ta‘lim va tarbiya — beshikdan, oiladan boshlanadi	129
Inson kapitalini rivojlantirishda umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, professional ta‘limning ahamiyati	135
Sifatli oliy ta‘lim, rivojlangan ilm-fan — mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiluvchi kuch!	146

Faqat sog'lom xalq, sog'lom millatgina buyuk ishlarga qodir	161
“Bir qadam” tamoyiliga asoslangan xalq xizmatidagi tibbiyot	165
Har bir inson uchun — sifatli va kafolatlangan tibbiy xizmat	175
Kambag'allik va ishsizlikni barham toptirish yo'lida.....	189
Yangi O'zbekistonning yangi ijtimoiy himoya tizimi	198
Yoshlar — yurtimiz istiqboli, yorug' kelajagimiz bunyodkori	208
Azm-u shijoatli, vatanparvar sportchi yoshlar — katta boyligimiz	226
Ma'naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak	237

YANGI O'ZBEKISTON: BARQAROR IQTISODIY TARAQQIYOT

Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash	257
Tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish	270
Sanoatni jadal rivojlantirish istiqbollari	276
Yangi O'zbekiston — raqamli iqtisodiyot sari	289
Agrar sohani rivojlantirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash.....	296
Yangi O'zbekiston: barqaror va yashovchan turizm.....	313
“Yashil energetika” — barqaror taraqqiyot garovi.....	325
Kuchli hududlar — kuchli O'zbekiston demakdir!	331

SAYYORAMIZ VA YANGI O'ZBEKISTON: EKOLOGIK TAHDIDLAR QARSHISIDA.....	344
Orol fojiasi — umumbashariy fojia	356
Maqsadimiz — aholining qulay ekologik muhitda yashash huquqini ta'minlash	362

“Yashil makon” umummilliy loyihasi — ekologik vaziyatni barqarorlashtirish garovi	364
Iqlim muammolari — barqaror rivojlanish yo‘lidagi eng katta tahdid	368
XALQ XIZMATIDAGI DAVLAT — EL-YURT UCHUN ULUG‘ SAODAT	
Mahalla — Vatan ichra mo‘jaz Vatan!	378
“Xalq xizmatidagi davlat” — hayotiy ezgu tamoyil	382
Mustaqil sud tizimi va odil sudlov — qonun ustuvorligi kafolati	399
Advokatura — odil sudlovning ajralmas qismi	411
Barqaror rivojlanishga to‘siq bo‘lgan korrupsiya illatiga qarshi kurashish — umumxalq ishi	413
YANGI O‘ZBEKISTON — XAVFSIZ VA TINCHLIKSEVAR DAVLAT	
Yangi O‘zbekistonning mintaqaviy siyosati	419
Bizga tinch va barqaror, o‘zaro manfaatli sheriklik uchun ochiq Afg‘oniston kerak	441
Yangi O‘zbekistonning o‘zaro ishonch va hamkorlikka asoslangan iqtisodiy diplomatiyasi	447
O‘zbekistonning yangi siyosati vektorlari: vatandoshlar bilan hamkorlik va migrantlarning huquqlarini himoya qilish	484
Harbiy-jangovar qudrat va yuksak ma‘naviy salohiyat — O‘zbekiston Qurolli Kuchlarining ikki buyuk tayanchi	493
XOTIMA	505

Rasmiy nashr

SHAVKAT MIRZIYOYEV

HOZIRGI ZAMON VA YANGI O‘ZBEKISTON

Muharrirlar: *Jumanazar Meliqulov,
Saidxon Saidolimov, Elmurod Nishonov*

Badiiy muharrir *Bobur Tuxtarov*

Texnik muharrir *Yelena Tolochko*

Musahhah *Munisa Ismoilova*

Kompyuterda sahifalovchi *Shahlo Zokirova*

Tasdiqnoma raqami 4642-son, 22.07.2020.

Bosishga 2024-yil 31-iyulda ruxsat etildi.

Bichimi 70x100 $\frac{1}{16}$. Ofset qog‘ozi.

“Alegreya” garniturasida ofset usulida bosildi.

Shartli bosma tabog‘i 41,28. Nashr tabog‘i 27,47.

Adadi 24 000. Buyurtma №2579.

Original maket O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligining

“O‘zbekiston” nashriyotida tayyorlandi.

100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.

“KolorPak” MChJ bosmaxonasida chop etildi.

100206, Toshkent, Yunusobod tumani, Yangishahar ko‘chasi, 1-A

